O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIMI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“O‘ZBEK MILLIY MADANIYATI VA SAN’ATI TARIXIDA NAVRO‘Z UMUMXALQ BAYRAMINING O‘RNI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

(2022-YIL, 17-MART)

Toshkent - 2022

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI” KAFEDRASI

“O‘ZBEK MILLIY MADANIYATI VA SAN’ATI TARIXIDA NAVRO‘Z UMUMXALQ BAYRAMINING O‘RNI”

mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy
ANJUMAN
materiallari

Toshkent shahri, 2022-yil, 17-mart

Toshkent -2022

ЎУК 394.21
КБК 823
Ў 16

Ushbu to‘plam 2022-yil 17-mart kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi tomonidan **“O‘ZBEK MILLIY MADANIYATI VA SAN’ATI TARIXIDA NAVRO‘Z UMUMXALQ BAYRAMINING O‘RNI”** mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining materiallari o‘rin olgan.

Bugungi kunda Navro‘zi olam – Sharq xalqlari tomonidan ming yillar davomida asrab-avaylanib kelinayotgan azaliy-abadiy bayram hisoblanadi. Asrlar mobaynida turli xalqlarda Navro‘z bayramini o‘tkazish marosimlari ularning turmush tarziga, mafkurasiga, diniy e’tiqodiga moslashib borgan. Hatto mamlakatimizning turli viloyatlarida ham Navro‘z bayrami bilan bog‘liq rang-barang an’ana va urf-odatlar shakllangan. Shu bilan birga tilimiz va adabiyotimizda ham Navro‘zga aloqador birliklar, adabiy asarlar talaygina. Konferensiya orqali til, adabiyot, folklor, madaniyat va san’atimiz tarixida Navro‘z bilan bog‘liq an’analarni, urf-odatlarni va til birliklarini to‘plash hamda Navro‘z lingvomadaniy korpusini yaratish maqsad qilingan.

To‘plab nashrga tayyorlovchilar:

I. Ostonaqulov t.f.d., Turon FA akademigi, N. Avazov f.f.n., dots., D.Jumayeva filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), X.Abdujabborova o‘qituvchi, Z.Kozimova o‘qituvchi, T.Mamatqulova o‘qituvchi.

Mas’ul muharrir:
M.M.Yuldashev, f.f.d., professor

Taqrizchi:

K.Mullaxo‘jayeva, f.f.n., dots.

TABRIK SO‘ZI

Assalomu alaykum!

Aziz va muhtaram anjuman ishtirokchilari!

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutiga xush kelibsizlar!

Ma’lumki, O‘zbekiston xalqi qadim va navqiron bayram Navro‘zni har yili o‘zgacha sog‘inch va ichki intiqlik bilan kutib oladi. Zero, tabiat uyg‘onishining timsoli, yasharish va yangilanish ramzi bo‘lmish bu ayyomni orziqib kutish, baland ruh va katta xursandchilik bilan nishonlash el-yurtimiz uchun ezgu qadriyat hamdir. Navro‘zning mazmun mohiyatida xalqimizning ezgu an’anaari namoyon bo‘ladi. Ming yillar mobaynida ma’naviy hayotimizning zarrin ziynatiga aylangan bu ajib, serxislat bayram bugun qalblarimizga yana cheksiz quvonch va zavq-shavq bag‘ishlamoqda.

Navro‘zi olam qadimdan el ardog‘idagi bayram bo‘lgani bois u bilan bog‘liq ta’rif va tavsiflar ham juda ko‘p saqlanib qolgan. Xususan, Navro‘z haqida “Avesto”da shunday bitiklar bor: “Zardo‘shtiylar e’tiqodiga ko‘ra, ko‘klam giyohlari unib, daraxtlar kurtak ota boshlagach o‘sha atrofdagi qora kuchlar mahf bo‘lgan”.

Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy Navro‘z tarixi borasida Sosoniylar davlati davridagi ajoyib bayram tantanalaridan rivoyatlarni yozib qoldirgan. She’riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy esa kun bilan tenglashgan pallani shunday nazmga soladi:

Yuz ochib bildirdi qad birla sochi teng erkanin,

Zohir o‘lg‘ondek tunu kun tengligi Navro‘zdin.

Umar Xayyom “Navro‘znoma” asarida: “Qachonki, Hamal qoshidan o‘z aylanish davri bo‘ylab yo‘lga chiqqan oftobni osmon yana uyiga qaytarib keltirsa, uning boshqatdan falak sayriga chiqishdan boshlab olamni o‘zgartirib yuboradigan yangi tarix boshlanadi”, deydi.

Bugungi kunda Navro‘z o‘zining umuminsoniy g‘oyalari bilan bashariyat hayotidan tobora chuqur o‘rin egallamoqda. Hatto Birlashgan Millatlar Tashkilotining qarori bilan 21 mart – butun dunyoda Xalqaro Navro‘z kuni sifatida keng nishonlanmoqda.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida ham azaliy va abadiy bayramimiz har yili o‘zgacha shukuh bilan kutib olinadi. Zero, san’at va madaniyat ahli uchun bu bayram iste’dod, mahorat va go‘zallikka yo‘g‘rilgan o‘zlikni namoyon qilish pallasi hisoblanadi. Professor-o‘qituvchilar va talaba-yoshlarimiz mamlakatimizda yuksak darajada nishonlanadigan bayram tantanalarida faol ishtirok etadilar. Institutimizda bayram shodiyonasi bilan birga shu sanaga bag‘ishlangan ilmiy anjumanlar ham muntazam o‘tkazib kelinadi. Bu yilgi “O‘zbek milliy madaniyati va san’ati tarixida Navro‘z umumxalq bayramining

o‘rni” mavzusidagi ilmiy anjuman institutimizning “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi boshchiligida tashkil etildi. Garchi respublika miqyosidagi anjuman deb belgilangan bo‘lsa-da, anjuman daragini eshitgan xorijiy olimlar ham maqola va tezislarini yo‘llaganliklari bizni quvontirdi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari, sizlarni yangilanish va yasharish bayrami Navro‘zi olam bilan chin qalbimdan muborakbod etaman. Anjuman ishiga muvaffaqiyat tilayman. Ilmga yo‘g‘rilgan har bir kuningiz Navro‘zdek shukuhli bo‘lsin.

I.J.Yuldashev
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
rektori, filologiya fanlari doktori, professor

O, BAHOR!

Bahor shamoliga bag‘rimni ochdim,
Ko‘ksimda sirg‘aldi ipak havolar.
Qo‘shquloq yalpizning bo‘ylarin ichdim,
Bulutdan ushatib oldim halvolar.

O, bahor!
O‘zingsan hayotbaxsh Masih,
Cho‘pni jonlantirgan sehrgar o‘zing.
Sen menga xudoning do‘stlik tuhfasi,
Tomirimga tutash chilvir ildizing.

Boychechakdan oldin ochilgan qizlar
Ko‘chamdan o‘tarkan taratib ifor,
Qonimda jivirlar gulshakl hislar,
Baxtimni ko‘rgandek bo‘laman takror.

Go‘yo halizamon kelar xushxabar,
Oshiq o‘smir kabi taradduddaman.
Yuragim qattiqroq ursa har safar,
Eshikka qarayman, quloq tutaman.

Umidim chechagi chamaningda jam,
Tasalli berursan o‘ksik dilimga.
Bo‘shagan g‘umbakka berkinadi g‘am,
Tabriklar yo‘llayman yo‘q sevgilimga.

Ichimga yutaman ko‘zyoshlarimni,
Eriydi yuragim boshidagi qor.
Agar kelmay tursang sinab sabrimni,
Men o‘zim yoningga borardim, bahor!

Iqbol MIRZO

NAVRO‘ZGULI

Navro‘zguli, boychechagim, bormisan,
Men senga zor, sen ham menga zormisan?
Muz ichida asradim men ko‘nglimni,
Sen o‘zingni asrab, baxtiyormisan?

Omonliqsan, to‘tiyosan ko‘zlarga,
Sevgi maktubisan ma’sum qizlarga.
Suykalasan dudoqlarga, yuzlarga,
Bitta o‘zing bir butun gulzormisan?

Ninachining qanotidek barging bor,
Asal va sut bo‘yi kelar atring bor.
Qadrim bilib yo‘qladingmi, qadring bor,
Yolg‘izginam, yolg‘izlarga yormisan?

Ey ko‘ngilni qitiqlagan erka gul!
Ey olamni ko‘mgan orzu-sirga, gul!
Qayga desang, men ketaman birga, gul,
Sen ham mendek dardga xaridormisan?

Oy ham kulcha ko‘rinarmish ochlarga,
Bulut ko‘rpa bo‘lib zor-muhtojlarga.
Tashna dilu ruhi yalang‘ochlarga –
Birdek tansiqmisan, madadkormisan?

Jonim gulim, o‘tinaman, so‘lmay tur,
Dunyo yashnaganda hazon bo‘lmay tur.
Meni yetim qilma, ketma, o‘lmay tur,
Sen ham mendek dunyodan bezormisan?

Iqbol MIRZO

FASLI BAHOR NAVRO‘ZIM

Maysalar ham nish urib, butun borliq uyg‘onar,
Fasllar kelinchagi, Navro‘zla yil boshlanar.

Boychechak, gul-lolalar, bog‘da bulbullar sayrar,
Doshqozonda sumalak, Navro‘z saylidan xabar.

Bahorla Navro‘z keldi, butun olam munavvar,
Ota-bobo, momolar, jahonga tinchlik tilar.

Niyati pok xalqimga, yatatgan ham qarashar,
Tinchlik muqarrar joyga, to‘y-tomosha yarashar.

Sen kelganda bog‘lar-u, chaman dasht-u dalalar,
Butun borliq uyg‘onib, go‘zallikka burkanar.

Suzma va o‘sma qo‘yib, qosh bo‘yar kelin-qizlar,
Quvonch va baxt ulashib, kattalar-u, bolalar.

Fasli bahor Navro‘zim, qalblardan uzoq ketma,
Bog‘larimda doim bo‘l, yurtimni hech tark etma.

Ro‘ziquljon PARDAYEV

1-shu’ba

O‘ZBEK TIL VA MADANIYATIDA NAVRO‘ZNING O‘RNI

Ma’rufjon YULDASHEV,
filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Navro‘z, fasllar almashinuvi, yangi kun, yangi hayot ramzi bo‘lish bilan birga, o‘ziga xos birdamlik bayrami hamdir. Bu bayram o‘zlikka qaytish, ota-bobolarni yodlash, bemorlar, yetim-yesirlar va mehrga tashna insonlar holidan xabar olish bayramidir. Bu bayram xalqni yuksak fazilatlar atrofida birlashtiruvchi, millat ruhida Vatan tuyg‘usini mustahkamlovchi bebaho qadriyatdir. O‘zbek xalqi asrlar mobaynida Navro‘zni ezgulik, mehr-shavfqat va sahovat bayrami sifatida qadrlab keladi. Ushbu maqolada Navro‘z tarixi, turkiy xalqlarning Navro‘z bilan bog‘liq marosim va an’analari, o‘zbek lingvomadaniyatida Navro‘zning o‘rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, bayram, turkiy xalqlar, bahorgi an’analar, lingvomadaniyat.

Har tuning qadr o‘lubon,
Har kuning o‘lsin Navro‘z!
(Alisher Navoiy)

Ma’lumki, xalqlar, millat va elatlarni turli ijtimoiy-madaniy qadriyatlar birlashtirib turadi. Bu qadriyatlarning bir qismi ularni harakatlantiruvchi ichki qonuniyatlari asosida o‘zgarib boradi. Ba’zan bir xalq ardoqlagan qadriyatni qaysidir xalq aynan oladi va o‘z milliy qadriyatlari chegarasini kengaytiradi. Boshqa bir xalq esa uni muayyan o‘zgarishlar asosida qabul qiladi, o‘zga moslaydi, o‘z qadriyatlari bilan uyg‘unlashtiradi. Qadriyatlarning bunday o‘zgarishi fanda “ijtimoiy metamorfizm” deb ataladi. Navro‘z bayrami ham kelib chiqishiga ko‘ra qaysi xalqqa tegishli bo‘lishidan qat’i nazar bugungi kunda haqiqiy milliy bayramlarimizdan biri sanaladi. U hozirgi shaklga kelgunga qadar tashkiliy va mazmuniy jihatdan turli o‘zgarishlarga uchradi. Ba’zan diniy, ba’zan siyosiy sabablarga ko‘ra taqiqlandi. Mamlakat mustaqilikka erishgan kundan beri bu bayram xalqimizning eng ardoqli bayrami sifatida nishonlab kelinmoqda.

Navro‘z Bahor faslining boshlanishi, tengkunlik tantanasidir. Qadimdan tabiat sirlarini bilishga qiziqqan ota-bobolarimiz Yer va uning Quyosh tizimidagi harakatini kuzatish asosida vaqtni belgilashgan. Navro‘z, fasllar almashinuvi, iqlim

yangilanishi, yangi kun, yangi hayot ramzi bo‘lish bilan birga, o‘ziga xos birdamlik bayrami hamdir. Bu shunchaki saylu tomosha yoki odatiy bayramlardan emas. Bu bayram o‘zlikka qaytish, ota-bobolarni yodlash, bemorlar, yetim-yesirlar va mehrga tashna insonlar holidan xabar olish bayramidir. Bu bayram xalqni yuksak fazilatlar atrofida birlashtiruvchi, millat ruhida Vatan tuyg‘usini mustahkamlovchi bebaho qadriyatdir. O‘zbek xalqi asrlar mobaynida Navro‘zni ezgulik, mehr-shavfqat va sahovat bayrami sifatida qadrlab keladi.

Bahorning kelishi, havolarning isishi, qorlarning erishi, tabiatning jonlanishi dunyo xalqlarining barchasini deyarli bir xilda sevintirishi aniq. Turkiy xalqlar ham qadimdan ko‘klamni orziqib kutishgan, uni alohida tayyorgarliklar, quvonch va tantanalar, to‘yu tomoshalar bilan kutib olishgan. Ko‘klam kelishini qishloqlarda, ovullarda qo‘ni-qo‘shnilar, qarindosh-urug‘, yor-birodar, do‘stu qadrdonlar birgalashib bayram qilishgan. Bir-birlarini bayram bilan qutlashgan, bayramona taomlar bilan ko‘ngil olishgan. Joylardagi ko‘klam shodiyonasida ko‘pkari, hayvon (xo‘roz, taka, it) urishtirish, yugurish, tuxum urishtirish, olov ustidan sakrash, kurash tushish kabi qadimiy sport musoboqalari o‘tkazilgan. Markaziy Osiyoda yashagan boshqa xalqlar qatori o‘zbeklar ham Navro‘zni nishonlashda o‘ziga xos urf-odatlarni shakllantirgan va ularni asrab-avaylab avloddan avlodga o‘tkazib keladi.

O‘zbek lingvomadaniyatida bayram so‘zining semantik doirasi va ifoda imkonlari nihoyatda keng. Bayram “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha tavsiflanadi: “Bayram. 1. Tarixiy, madaniy-ma’naviy an’analarga ko‘ra rasmiy yoki norasmiy ravishda uyushtiriladigan umumxalq shodiyonasi kuni, tantana kuni. *Mustaqillik bayrami*. *Navro‘z bayrami*, *Yangi yil bayrami*. 2. Biror-bir munosabat bilan o‘yin-kulgi ishtirokida tantanali ravishda o‘tkaziladigan tadbir. *Oilaviy bayram*. *Archa bayrami*. *She’riyat bayrami*. 3. *ko‘chma*. Vaqtichog‘lik, xursandlik; baxt, omad. *Joni sog‘ga kunda bayram, kunda to‘y*.” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1.j., 143-b)

Bayram so‘zi asosida hosil qilingan *bayramlashmoq* (bayram bilan qutlash, tabriklash), *bayrambozlik* (ishlarni qo‘yib ko‘ngilxushlikka berilish), *bayramlik* (sovg‘a), *bayramoldi* (bayramdan oldingi kunlar, arafa), *bayramona* (tantanali), *bayramchilik* (bayramga xos xursandchilik) kabi birliklar milliy madaniyat va qadriyatlarning tildagi aksi hisoblanadi. O‘zbek lingvomadaniyatida mazkur so‘zlar bilan bog‘liq holda “Otning o‘limi itning bayrami”, “Bayramlashish bir kunlik, ko‘ngil olish umrlik”, “Bayramda qo‘shning och bo‘lsa, o‘choq yoqma”,

“Sahovating bayramda, odamliging har damda sinaladi” kabi ezgulikka chorlovchi maqol va hikmatli so‘zlar paydo bo‘lgan.

Turk tilida “bayram”, tatarchada “beyrem”, o‘zbek, qoraqalpoq va no‘g‘ay tilida “bayram”, qozoqchada “meyrem”, qirg‘izchada “mayram” tarzida talaffuz qilingan bu so‘z oltoy, teleut, shor kabi ba’zi turkiy tillarda “payram/peyrem” shaklida qo‘llaniladi. “Turk tilining etimologik lug‘ati”da mazkur so‘z keng izohlangan: “Bu so‘z eng qadimgi davrlardan beri iste’molda bo‘lgan. Nisbatan eski shakli “badram” bo‘lganligini Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asaridan bilamiz. Koshg‘ariyning ma’lum qilishicha, o‘g‘izlar “bayram” shaklidan foydalanishadi. Bu misolda Mahmud Koshg‘ariy o‘g‘izlar *-d-* tovushini qoidaga muvofiq *-y-* ga o‘zgartirib olganligini aytadi. Mahmud Koshg‘ariy bu bilan mazkur so‘zning sof turkiy ekanligini ta’kidlashga harakat qilgan. Etimologik jihatdan murakkab. Doerferga ko‘ra, Mahmud Koshg‘ariydan minnatdor bo‘lishimiz kerak. Chunki u “bayram”ning turkiy “badram” shaklini yozib qoldirgan. Klauson esa mazkur so‘zning forsiy tillarga xosligini ta’kidlagan. Sevortyan “bayram”ning qadimiy “badram” shaklining o‘zi forschadan o‘tgan degan fikrni yo‘qqa chiqarishini aytib o‘tgan.

Bu so‘z turkiy tillardan qo‘shni xalqlar tiliga ham o‘tgan. Doerfer tojik tiliga “bayram”, “mayram” shaklining o‘zbeklardan o‘tgan degan fikrni ilgari surgan. Tuvalar “bayir (yaylov, adir)” so‘zini “bayram, marosim” ma’nosida ishlatadilar. Bir qarashda aloqadorlik bordek. Ammo “bayram” va “bayir”ni etimologik jihatdan mushtarak deb bo‘lmaydi. Rasanenga ko‘ra, Sevortyanning “bayram”ni “marosim” ma’nosidagi “bay”ga bog‘lashi, “bayir” va “bayroq”ni bir o‘zakdan deyishi yanglishdir. Tuvacha “bayir (yaylov, adir)” mo‘g‘il tilidan o‘tgan bo‘lishi kerak.” (Hasan Eren, 1999: 45)

Ozarbayjon folklorshunosi Ag‘averdi Xalil o‘zining “Turkiy xalqlarda bahor bayrami va Navro‘z” deb nomlangan asarida bayram so‘zining kelib chiqishini “bezamoq” fe’liga bog‘lab izohlashga urinadi: “Bayram so‘zining eng eski formasi bo‘lgan “badram/bazram” “bezamoq” fe’liga borib taqaladi. Qadimdan marosim va tantanalarda dekoratsiyadan keng foydalanilgan. Marosim o‘tkaziladigan yer bezatilib tantanavor ko‘rinishga keltirilgan. Qadim zamonlardan beri mavjud bo‘lgan “bazram” biroz fonetik o‘zgarish bilan bugun ham barcha turkiy xalqlarda qo‘llanilmoqda. Bayram so‘zida “boyimoq” ma’nosi ham bor.” (Ağaverdi Xalil, 2013: 3-4) Bu o‘rinda olim Mahmud Koshg‘ariyning bayram so‘zining izohiga asoslangan ko‘rinadi. Chunki Koshg‘ariy bayram o‘tkaziladigan makonning gul-chechaklar bilan bezatilishini, shamlar va mash’alalar yoqilgani hamda bu

maydonga kelgan insonlarning bahri dili ochilishini alohida ta’kidlagan (Koshg‘ariy, 2016: 121).

Tarixiy manbalarga ko‘ra turkiy xalqlar qadimdan bayram va shunga o‘xshash qutlash marosimlari mavjud bo‘lgan. Bundan tashqari xunlar beshinchi oyda ya’ni bahorda “Lung-jing” deb atalgan keng maydonda bayramlar tashkil qilishgan. Bu bayramlarda xalq inonchlari bilan bog‘liq urf-odatlar namoyish qilingan. Turli bellashuvlar o‘tkazilgan va diniy marosimlar ado qilingan. Ko‘ktangri va muqaddas makon uchun ot qurbonlik qilingan. (De Groot, 1921: 59. Qarang: Ağaverdi Xalil. O‘sha asar: 4). Yana o‘sha asarda keltirilishicha, qurbon marosimida musobaqalar tashkil qilingan. Bunday musobaqalar kuz faslida ham takrorlanar emish (Eberhard 1942: 76. Qarang: Ağaverdi Xalil. O‘sha asar: 4).

Xunlarning tantanalariga o‘xshash bayram va marosimlar ko‘kturklar davrida ham uchraydi. Ko‘kturklar davrida har yili ma’lum vaqt oralig‘ida otalari ruhiga atab qurbonlik so‘yilgan. Bayram marosimlarini esatbeshinchi oyning ikkinchi yarmida “ko‘ktangri” va “muqaddas yer va suv” uchun qurbonlik ato qilish bilan boshlashgan. Qurbonlikdan keyin jamoa shaklida bayram nishonlanar edi. Bunday bayramlarda o‘yinlar o‘ynalar, qimiz ichilar, qo‘shiqlar aytilar emish (Eberhard 1942: 87; Liu Mau-tsai 1958: 42 Bu haqda qarang: Ağaverdi Xalil. O‘sha asar: 5).

Bugungi kunda deyarli barcha bayramlar ommaviy madaniyatning bir bo‘lagi sifatida katta tantana, alohida dekoratsiya, alohida kuy-qo‘shiq, sahnalashtirilgan asarlar va jozibador ranglar fonida o‘tkaziladi. Bayramlarning kolorativ mazmuni qaysi faslda o‘tishiga qarab belgilanadi. Bahorgi bayramning ranglar fondida yashil, pushti va sariq zich qo‘llanilsa, yoz va kuz bayramlarida pishiqchilik bilan bog‘liq to‘q ranglar ko‘p ishlatilishini kuzatish mumkin. O‘zbekistonda milliy bayramlar ichida Navro‘zning o‘rni alohida. Navro‘z “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlanadi. “Navro‘z. I. 1. Shamsiya yil hisobida yangi yilning birinchi kuni (mart oyining 21-kuniga to‘g‘ri keladi.) 2. Bahor chog‘i, bahor. Navro‘z yomg‘iri. Navro‘z bayrami. Bahorning boshlanishi munosabati bilan o‘tkaziladigan bayram. Navro‘zi ajam. O‘zbek mumtoz kuylaridan birining nomi. 3. Navro‘z (erkaklar ismi). II. Kechpishar shrik navi.” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3.j., 8-b) Bu so‘z, ayni paytda *navro‘zgul* (ko‘p yillik bahorda gullaydigan o‘simlik), *navro‘zguldoshlar* (navro‘zgul turkumidagi o‘simliklar oilasi), *navro‘zi* (Navro‘zga xos, Navro‘zga oid), *navro‘zlik* (tar. Eski maktabda Navro‘z munosabati bilan to‘planadigan pul) kabi leksemalarning paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan. Bahor pallasida tug‘ilgan chaqaloqlarga Navro‘zbek, Navro‘zgul, Navro‘zoy, Navro‘zbeka, Navro‘zberdi kabi ismlar berish an’anaga aylangan.

Navro‘zda ko‘k somsa, ko‘k chuchvara, ko‘k varaqi somsa, halim, sumalak kabi taom va shirinliklar tayyorlab qo‘ni qo‘shnilar, qarindosh-urug‘lar bilan birga baham ko‘rganlar. Navro‘zni xalq keng maydonlarda, dala-qirlarda nishonlashni xush ko‘rgan. Shu bois xalq sayli shaklida o‘tkaziladigan Navro‘z tantanalari repertuaridan ko‘pkari yoki uloq, arqon tortish, kim o‘zarga yugurish, kurash tushish, polvonlar bellashuvi, dorbozlik, chavandozlik kabi milliy o‘yin va sport turlari ham o‘rin olgan.

Nosiriddin Rabg‘uziy o‘zining “Qissasi Rabg‘uziy” nomli didaktik asrida Navro‘zga atab shunday baytlarni yozgan:

Kun hamalg‘a kirdi ersa, keldi olam navro‘zi,
Kechdi bahman zamharir, qish qolmadi, qori buzi.
Kun kelu ming ko‘rki ortib, tirilur o‘lmish jahon,
Tong badizlab naqshi birla bezanur bu yer yuzi.
Tol yig‘ochlar minbarinda to‘ti qush majlis tutar,
Qumri bulbul muqri bo‘lib, un tuzar tun-kunduzi.

Manbalarga ko‘ra, “Navro‘zni bayram qilish O‘rta Sharq va O‘rta Osiyo mamlakatlarining qadimiy an’anasidir. Bu bayram insonning juda qadimdan shakllana boshlagan ma’lum udum, urf-odatlari, kundalik turmush ehtiyojlari, atrof-muhit, tabiat omillari bilan munosabatlari zaminida vujudga kelgan. Asrlar o‘tishi bilan bu urf-odatlar mamlakatlar, xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanishi zamirida keng yoyila borgan, mazmunan boyigan hamda ma’lum o‘lkalar doirasida tarqalib, mustahkam an’anaga aylangan. Yozma manbalarda Navro‘zning qadimiyligiga ishora etuvchi talay rivoyatlar mavjud. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, Navro‘z ahamoniylar davridan (miloddan avvalgi 558-330 yillar) boshlab odat tusiga kirgan. Navro‘z haqidagi eng to‘liq manbalar buyuk olim Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Qonuni Mas’udiy” va “At-tafhim” asarlarida, Umar Xayyomning “Navro‘znoma” risolasida yozib qoldirilgan.”

“Navro‘z” talaffuzdagi biroz farqliliklarga qaramay, turkiy xalqlar tilida mushtarak tushunchaning nomidir. Navro‘z, Nevruz, Nooruz, No‘vruz, Noruz, Nevrez, Nares, Mevris kabilar so‘zning fors tilidagi ma’no mundarijasidagi kabi “yangi+kun”nigina emas, balki umuman bahorning kelishini qutlash vaqti hisoblanadi. Bu qutlash vaqti bir kun emas bir oy mobaynida davom etgan. Qishning sovug‘idan zerikkan xalq uchun Navro‘z, havoning isishi, iqlimning o‘zgarishi, ekin-tikin uchun dala-qirga chiqish paytining kelganligini ifodalagan.

Navro‘z qadimdan xalq xursandchiligi, to‘yu tantanasi bo‘lish bilan birga turkiy xalqlarning davlat tizimida alohida ahamiyatga ega kun sifatida ham e’tiborli bo‘lgan. Jumladan, Saljuqiylar davlati islomiyatni qabul qilgan paytda xijriy taqvimni yetarli deb hisblashmagan va sulton Malikshoh hukmronligi davrida qadimiy turkiy taqvimga o‘xshash “Taqvimi Jaloliy” deb atalgan yil boshi 21 mart kuniga teng keladigan yangi taqvimni tuzishgan. Davlatchilikda barcha ishlarni o‘sha taqvimga moslashgani haqida manbalarda ta’kidlangan (Onarli, 1998: 11-14).

Xalqni birlashtiruvchi, yoshlarni ezgulik g‘oyalari asosida tarbiyalovchi bu qadimiy bayram mustabid tuzum davrida jiddiy taqiqqa uchragan edi. Xalq Navro‘zni keng miqyosda nishonlay olmagan bo‘lsa-da bahorning betakror taomi hisoblangan sumalakni uylarda yashirincha pishirib kesalar va bemorlarga ulashib kelgan. Mustaqillik tufayli qatag‘onga uchragan qadriyatlarimiz tiklandi va yanada rivojlanishi uchun kerakli chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Navro‘z milliy bayram sifatida keng miqyosda nishonlanib kelinmoqda.

She’riyat sultoni Alisher Navoiy aytganlaridek:

Har tuning qadr o‘lubon,
Har kuning o‘lsin Navro‘z!

Laylatul qadr kechasi kechalarning eng xayrlisi, eng muqaddasi bo‘lgani kabi yil kunlarining eng qutlug‘i Navro‘zdir. Tunlarimiz Laylatul qadrdek aziz, muqaddas, kunlarimiz Navro‘zdek serfayz bo‘lsin. Navro‘zingiz muborak bo‘lsin!

Adabiyotlar:

1. Ağaverdi Xalil. Türk Xalqlarının Yaz Bayramları ve Novruz. Baku, Elm ve tahsil, 2013.
2. Hasan Eren. Türk Dilinin Etimolojik Sözlüğü. Ankara, 2. Baskı, 1999.
3. Onarli, İsmail. Nevruz Bayramı, Alevilerin Sesi Dergisi, Köln, Say: 24 Nisan 1998.
4. Türk Dünyasında Nevruz Dördüncü Uluslar Arası Bilgi Şöleni Bildirileri. AKM. Ankara, 2001.
5. Mahmud Koshg‘ariy. Devoni lug‘at turk. Solihqori Mutallibov tarjimasi. Toshkent: Mumtoz so‘z. 2016.
6. Mirtojiyev M. Turkiy tub so‘zlar lug‘ati. G‘.G‘ulom nashriyoti, 2016.
7. Navro‘z qo‘shiqlari. Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
8. Rahmatullayev SH. O‘zbek tili fraziologizmlari lug‘ati. Toshkent, 1995.

9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 j. Toshkent: O‘zbekiston ensiklopediyasi. 2006.
10. O‘zbek xalq maqollari. Toshkent: Fan, 1984.
11. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zbekiston ensiklopediyasi. 2008.

OĞUZ YURDU GÖYÇƏ MAHALINDA KEÇİRİLƏN NOVRUZ BAYRAMININ MİLLİ ESTETİK NAXIŞLARI

Almaz ÜLVİ BİNNƏTOVA
Filologiya elmləri doktoru
AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun
“Azərbaycan-Türkmənistan-Özbəkistan ədəbi əlaqələr”
şöbəsinin müdiri, almazulvi1960@mail.ru

Xülasə: Təqdim edilən araşdırma məqalədə ulu oğuz yurdu Göyçə mahalında Novruz bayramının keçirilmə mərasimlərinə nəzər salınmışdır. Kitabi-Dədə Qorqud kitabında adı keçən Göyçə mahalı ulu türk məskəni olmaqla mill bayram ayinlərinin bütün etnoqrafik detalları əsrlərdir olduğu kimi, hər il həyata keçirilib. Xıdır Nəbi bayramı, təbiətin dörd ünsürünü (su, od, torpaq və yel) özündə ehtiva edən Çərşənbə bayramları, ilk səmənilərin cüçərdilməsi, Qırmızı bayram mərasim ayinlərinin əsas xətti milli birlik olmaqla, ruzi bolluğuna aid xeyir-bərəkət duaları, axirətə köçən doğmaların xatirəsinə ehtiram-ehsan süfrəsi açmaq, od-ocaq tonqalları qalamaq və sair kimi fəlsəfi-estetik məzmunlu gerçək yaşantılar kontekstində qələmə alınmışdır. əslində bu bayramın dini məzmun daşımadığını, milli özünüdərk, milli birlik xarakterinin estetik görünüşünün təqdimidir. Bütün bu mərasim və ayinlər Baharın nəfəsinin duyulduğu gündən başlayaraq ta gecə ilə gündüzün bərabərləşdiyi gecədə başa atır. Təbiətin oyanışı insanın yeni arzu və istəklərlə həyata bağlanmasına işarətdir.

Açar sözlər: *Novruz bayramı, təbiətin oyanışı, milli bayram adət-ənənələri, bayram estetikası, poeziya, etnoqrafik elementlər, milli birlik bayramı.*

Göyçə mahalı qədim Oğuz yurdu olmaqla Novruz şənliklərini el bayramı kimi – bütün milli adət-ənənələr çərçivəsində keçirirdi. Bayram nəfəsi duyulcaq bütöv Göyçə mahalı sanki bir yumruğa dönürdü. Bayram adət-ənənələrimiz o qədər ulu haqq qazanmışdı ki, qeyd-şərtsiz hamı ən xırda etnoqrafik elementləri belə həyata keçirməyi unutmurdu. Sonralar Dədə Qorqud kitablarından oxuduğum bayram şənliklərinin keçirilmə qayda-qanunları mənə elə gəlirdi ki, elə Göyçədə yazılıbmış. Bu məqam görkəmli alim Yaşar Qarayevin məshur “Folklor Göyçədən başlayır” – haqlı deyimini xatırlamamaq olmur. İnsanların bayram ovqatına təbiət də öz payını əsirgəmirdi: torpaqdan buxarlanan yaz havasının ətri adamı sanki bihuş edirdi. Bu

zaman torpaq ətri ilə yanaşı yaşıl ot, bənövşə qoxusu da düzü-düzəngahı başına götürərdi. Bir yandan bayram sevinci, bir yandan da el-oba birliyi – di, gəl, bu möhtəşəmlikdən min illərin zövqü-səfasını duyma.

Qışın ağırlığından silkinib çıxmaq üçün böyük çillənın başa çatması sanki bir hovur dərindən nəfəs idi. Çünki noyabrın sonu dekabrın əvvəllərindən hər yan ağappaq qardan don geyərdi. Təbiətin bu gözəlliyi insanı bir ayrı xoş duyğuya yükləsə də, yenicə ötürmək istədiyimiz qışın əhval-ruhiyyəsindəki ağırlıq adamı sıxırdı. Hər yan dizəcən qar, yollar buz, bulaqların gözü don, çayların üstü buz meydanı – bütün bunlar romantik təsir bağışlasa da, gündəlik kənd həyatında yaratdığı çətinlik başdan aşırdı. Odur ki, böyük çillədən sonrakı kiçik çillənin gəlişi insanları bir boy tərpədərdi. Çünki kiçik çillənin tən ortasında Xıdır Nəbi bayramı ("Xızır Elləz bayramı") özünü yetirirdi. Bu bayrama hazırlığa başlayınca günlərin də necə ötdüyündən xəbərimiz olmazdı. Payızdan hazırlanmış qırmızı buğda bir də xəlbirdən keçirilər, aranar, təmizlənərdi və fevralın ilk ongünlüyü başlayınca Xıdır Nəbi bayramı qeyd edilərdi. Bu, fevralın 9-10-11 günlərinə təsadüf edərdi. Həmin günlər təndir çatılar, iri saclar qurular və ailə başına az qala yarım un torbası (təxminən 10 kq-a qədər) qorğa qovrulardı (qeyd etdiyim həcm ailənin sayı nəzərə alınmaqla müxtəlif çəkidə tənzimlənirdi). Qorğa ocağının davamında iri lavaşlar çəkilər, nehrələr çalxanar, düyməncik kərə yağ küpələrə boşaldılardı. Səhəri gün sübh tezdən qorğaların qovut çəkimi başlardı. O günlərin ən əziz yeməyi südlə və balla qarışdırılmış qovut olardı. Hər kəsin ocağının başında qorğa-qovut olsa da hamı biri-birinə pay göndərərdi. Bu mərasim elliklə keçirildiyindən kiçik çillənin başa çatmasından xəbərimiz olmazdı. Bir də başımızı qaldırardıq ki, budur, Novruz çərşənbələri başlayır.

Bütün bunlar milli bayram Novruz bayramına gələn yolların başlanğıcı idi. Novruz bayramını – milli adətlərimizi, tarixi məlum olmayan el birliyi ənənələrimizi qan yaddaşımıza güvənərək, yaddaşlarda – könüllərdə heykəlləşmiş etnoqrafik detalları ilə həyata keçirməklə başa vurardıq.

Beləcə, ilk çərşənbə axşamı, el arasında deyildiyi kimi, yalançı çərşənbə axşamı (Su çərşənbəsi) özünü yetirərdi. İlk çərşənbə axşamını əslində növbəti çərşənbələrə psixoloji hazırlıq məqamı kimi də dəyərləndirmək mümkündür. İlk əvvəl qışın ağır günlərindən sonra un-urva torbalarına nəzər salınardı, yeni əyin-baş hazırlığı, ev-eşiyin səliqə səhmanı, nəyin atılıb – əvəzinə təzə nə isə alınacağı barədə ciddi söhbətlər – hazırlıqlar başlardı. Beləcə, bu kimi hazırlıqlarla çərşənbələrə "xoş gəldin" edərdik və ilk tonqallar qalanardı.

İkinci çərşənbə axşamını (Od çərşənbəsi) “evtökmə çərşənbəsi” və ya “zibil təki” kimi qarşılardıq. Həmin günün ən yaddaqalan hadisəsi bütün evlərin damlarından üzüaşağı sərgilənən xalçaların günə verilməsi olardı.

“Evtökmə”, “Evtəmizləmə” bayrama hazırlıq mənasında həyata keçirilən mərasimlərdən biri idi. Həmin gün evlərin bütün künc-bucağı silər-süprülər, təmizlənərdi, heç nəyi yaddan çıxarmaq olmazdı, yoxsa “yeddi il evin zibili kəsilməz” – deyərdilər. Hələ qışın nəfəsi kəsilmədiyindən evin divarlarının rəngi təzələnməsə də, tər-təmiz yuyulardı. Əl-işlək damlarının, mal-qara tövlələrinin toru-hörümçəyi alınar, urvalanaraq naxışlanardı. Bu urvalanma əməliyyatı hər yandan ruzi-bərəkət iyi-qoxusu gəlmək mənasını daşıyırdı. Evin bütün əşyaları, palaz-paltarı yuyulmalı idi. Əşyaların sınıq-salxağı təmir olunar, atılmalı olanın yerinə yenisi alınardı. Bunlardan başqa ev əşyalarının yeri dəyişdirilərdi. Qışın kömür peçinin hisini dadmış evlər – damlar bu təmizlikdən sonra gül kimi açılardı. Bütün günü açıq qalmış qapı-bacalardan ev-eşik əsil yaz havasına qərq olardı. İnsanlar kimi evlər də sanki yazın gəlməkdə olan ilıq nəfəsini içinə çəkərdi. Ən yaddaqalan və ən gözəl mərasimlərdən biri həmin gün evin bütün xalça-palazlarının havaya verilməsi idi. Kənardan xalçalarla bəzədilmiş kəndi seyr edən sanki dekorasiyalarla bəzədilmiş iri tamaşa meydanı ilə üzbəüz qalardı. Gün-günortaya çatınca (gün günortadan əyilməmiş səməni qoyulma mərasimi başa çatmalı idi) evin ən gözəl qablarında səməni qoyulardı. Tez-tez su verilər və günəqənşər yerə qoyardıq ki, tez cücərsin. Bir-iki günə bütün buğdalar boy verərdi, yeni həyat işartısına qəlbimiz o qədər sevinərdi ki, yerə-göyə sığmazdıq. Bu sevincimizi ikinci tonqallarımız başında bölüşərdik.

Üçüncü çərşənbə axşamının (“Torpaq çərşənbəsi”nə “Ölü təki”, ya da “Qara bayram” deyilərdi) ovqatı tamam başqa idi. Həmin gün sübh tezdən əydək-fəsəli ocağı çatılardı, xurma, müxtəlif mer-meyvələr (öz bağ-bağçamızdan yığdığımız meyvələrdən Qırmızı bayram üçün xüsusi saxlardıq) yığar-yığışdırar, sonra da üstufca bir boxça düzəldər saat 11-12-yə qəbiristana yollanardılar. Bütün kənd qadınları eyni vaxtda ora gələrdilər. Ümumilikdə fatihə verdikdən sonra ötən bir il ərzində dünyasını dəyişmiş rəhmətliklərin qəbirlərini ziyarət edərdilər. Gətirdikləri bayram nemətlərini isə kəndin kasıb-kusub ailələrinə pay-püş edərdilər. Bu mərasim başa çatdıqdan sonra hər kəs öz rəhmətliyinin qəbrini ziyarət edər və gün günortadan azacıq ötmüş geri qayıdardılar. Elə oradanca ilk birinci qara bayramı keçirilən rəhmətliyin ehsan – qara bayram süfrəsinə dəvət olunardılar (kənddə neçə yaslı ailə olmasına baxmayaraq), hər kəs həmin ailəyə hökmən gedər və necə deyərlər, onları yasdan çıxarardılar ki, yeddi il o ailə hüzndən-ələmdən uzaq olsun. Qara bayram

günü sübh tezdən, hələ qadınlar evdə əydək-fəsəli bişirən vədə, kişilər qəbirstanlığa gedər fatihə-yasin surəsi oxuyar, salavat verər qayıdardılar.

Axşam şər qarışandan az sonra tonqallar qalanardı (həmən günün ilk tonqalı qəbiristanlıqda od alardı). Amma o gecə məşəl-lopa atmazdıq, "ölü təki" – "Qara bayram" adına bayram atəşfəşanlığı edilməzdi. Hökmən qara bayram axşamı adına qazan asılardı. Qoy dədə-babalarımızın ruhları bayram axşamı yurd qapısına gələndə ocağını dolu qazanlı, süfrəsini ruzi-bərəkətli, nemətli görsün. Bu vaxt səmənimiz də bir boy qalxmış olurdu, bir-iki gün ötmüş beli qırmızı lentlə bağlanardı. Nəhayət, həsrətlə gözlədiyimiz İlinaxır çərşənbəsi (Yel çərşənbəsinə "Sulaşnma günü", "Yeddilövün gecəsi" də deyilirdi).

Bu günün sevincini gün çırtlamamışdan hiss edərdik. Nənəmiz əvvəlcədən zərli-muncuqlu parçadan tikdiyi torbanı o başdan yanımıza qoyardı və sonra da hay-küy salardı ki, a bala, oyanın, bayramdır, təzə paltarlarınızı geyinin, təptəzə naxışlı corablarınız sizi gözləyir. Sevincək oyanar, təzə əyin-başımızı geyinər, güzgünün qabağında yüz dəfə o üz bu üzə dönərdik, sanki il uzunu təzə heç nəyimiz olmamış kimi.

Həmin gün yer-göy təp-təzə bəzənərdi. Qız-gəlinlər qırmızı paltar geyinər, təzə örpək bağlardılar. Ağzı yaşmaqlı gəlinlər əllərinə, saçlarına xına qoyardılar. Bu çərşənbə axşamında süfrəyə yeddi növ yemək bişirib düzərdilər. Təbii ki, başda əriştə aşı buğlanardı. Cürbəcür şirni-konfetlər, qırmızı yumurtalar, yağlı fətir - İrəvan kətələri, əydək-fəsəlilər, qoğallar, noğul-badamlar, xurma, alma-armud süfrənin bəzəyi olardı. Hər kəs adına bir şam yandırılırdı. Gün batar-batmaz sulaşma başlardı və ta səhərəcən davam edərdi. Bu mərasim gecəyarısı daha da qızışardı. Hamı bir-birini "ilinaxır suyu" ilə sulamağa çalışardı. Nişanlı qızın oğlan evindən xonçaları gəlirdi. Hər həyətdə tonqal qalanar, od lopalar göydə ulduz-ulduz görünərdi. Hər şeydən əvvəl isə Göyçəni öz əhatəsinə almış Şahdağın zirvəsində bütün mahal boyunca böyük, əzəmətli tonqallar qurular, şər vaxtı ötüncə od vurulardı. Cəmi Göyçə mahalı o anda sanki od tutub alışırdı. Qızlar "çiləçıxarma" gecəsinə toplaşardılar. "Lal su" (bulaq başından su götürən adamın yolboyu danışmadan gətirdiyi suya "lal su" deyilərdi) gətirib iynə atar, bəxt sınayardılar. Qapı pusub eşitdikləri ilk sözlə sonrakı talelərini izlərdilər. Gənc qızlar duzlu kökə yeyərdilər ki, onu sevən oğlan yuxusuna gəlsin. Yumurta döyüşdürülərdi. Bütün küsülülər hökmən barışdırılardı. Oba əhli o gecəni yatmazdı. Səhər o başdan isə hamı bulaq başına toplanardı. Təzə gəlinləri qayınanası, qayın-baldızları bayram xonçaları ilə, toy-düyünlə bulaq başına çıxarardılar. Gənc qızlar al-qırmızı, ipək örpəkli bəzək-düzəklə

bulaq başında oğlanlara naz edər, oğlanlar isə bu fürsəti əldən verməz, gözaltı tapar, bayram axşamınacan elçilərini göndərərdilər.

"İlinaxır gecəsi"ni hər kəs öz evində – öz ocağının başında keçirməli idi. Yoxsa "yeddi il Novruzu öz evində keçirməzsən" və ya "Yeddi il Novruz şamı yandırmaz, bayram qazanı asmazsan" inamı – qorxusu biryolluq yaddaşlara həkk olunmuşdu. O gecənin tonqalının üstündən yeddi dəfə o-bu tərəflərə atdanar, "ağırlığım- uğurluğum səndə yansın, azar-bezarım səndə qalansın" – deyərdik.

"İlinaxır çərşənbəsi"indən sonra qarşılanan mərasim – "Qırmızı bayram axşamı"ndan bir gün əvvəl keçirilən "baca-baca bayramı" idi. "Yalançı çərşənbə axşamı"ndan nənələrimizin zərli parçalardan tikib hazırladığı torbalarımızla "baca-baca" gününü gözlərdik. Şər qarışan vədədən evlərə gizlincə torbalar atar və gizlənərdilər ki, onu tanımasınlar. Hər bir evdə həddi-buluğa çatmamış uşaqlar özlərinə bayram torbası tikdirər və qonşu qapılara atardılar ki, bayram paylarını alsınlar. Kimin qapısında daha çox bayram torbası atılardısa, o bir neçə gün öyünərdi ki, bütün gecəni uşaqlara bayram payı vermişəm. Kimin qapısına çox baca-baca torbası atılardısa, deyilərdi ki, filankəsin bu il ruzisi bol, evi qonaq-qaralı olacaq.
Budur ha, Qırmızı bayram – Yaz Bayramı – Novruz Bayramı yetişərdi. Bayram axşamı hamı bir-birini təbrik edər, bayram sevincini bölüşərdilər. Sübh tezdən – gün çıxan vədə bütün kənd kişiləri qənsələrin (idarənin, kənd klubunun) qabağına toplaşar və oradan da birbaşa qəbiristanlığa üz tutardılar. Qəbiristanlığın girəcəyində ucadan oxunan "Fatihə surəsi"ndən sonra ziyarət başa çatar və oradan hər kəs birbaşa evinə qayıdardı. Bu səhnə həmişə maraqla izlənərdi, çünki həmin mərasimdən evə qayıdan kimi ailənin başçısı hər kəsin əlini sıxar, onu öpər və "bayramın mübarək" deyərdi. Bu səhnə o qədər təbii və mehriban təsir bağışlayırdı ki, sanki bütün meyarlar həmin anda özünü təsdiqləyirdi. Bayram aşı (plovu) süfrəyə gələrdi. Beli qırmızı toqqalı səməni süfrənin başına qoyulardı.

Həmin gün hökmən qohum-əqraba içindəki ağsaqqal-ağbirçək ziyarət edilər, əli öpülüb göz üstə qoyulardı. Eyni zamanda, bütün qohum-əqrəba bir-birinin evinə bayramlaşmağa gedər, kənd ağsaqqal-ağbirçəklərinə bayram payı göndərilərdi. Elliklə hamı bəzənərdi (daha çox qırmızı, yaşıl rəngə üstünlük verilərdi). Bayram aşının üstündən qalxmamış atlı çaparlar (bayram günləri bir-iki at bayram libası ilə bəzədilərdi, kənddə o baş-bu başa çapardı) xəbər yayardılar: "Ay camaat, hamı kənd meydanına toplansın, kəndirbaz gəlib. Gələndə əliboş gəlməyin, kosanın payını da gətirin, keçəl başına yağ da lazım olacaq". Elə oradaca bu oyunlardan – meydandan ruhlanan gənclər qurşaq tutub güləşərdilər, güclərini sınayardılar.

Beləcə, martın sonuna qədər bayram boxçası ilə hər kəs bir-birinin qapısını açmaq şansında olardı. Bu qeydləri yazarkən özümü ulu Göyçədə – ozanlar yurndunda hiss etdim. Aşıq Əkbərin sazında "Göyçə gülü", Ülvinin şeir boxçasındakı "Novruz bayramı gəlir" nəğməsi ruhuma yeni yaz havası gətirdi –

Ay ellər, pişvaz edin, Novruz bayramı gəlir.
Yeriyir min naz ilə göylərin şamı gəlir.
Hanı yaşıl səməni, deyin, pişvaza çıxsın,
Hanı qızıl kəməri, belini bərk-bərk sıxsın.
Deyin, gülün, bu gün, hey, kədər nədi, qəm nədi?!
Qarı nənəm aş asıb köz üstündə dəmdədi.
Göylər durulan gündü, sular bulanan gündü,
Tonqallar ulduz kimi bir-bir qalanan gündü.
Bu bayramdan başlayır ilimizin baharı,
Arzumuzun baharı, elimizin baharı.
Bu bayramın eşqiylə qoy bəzənsin əsrimiz,
Bu bayramın oduna yansın dərdi - sərimiz.
Bu bayramın gözüylə gələcəyə baxağın,
Bu bayramı gül kimi döşümüzə taxağın.

Bu bayramı oduyla, közüylə, eşqiylə, nəğməsiylə, gələcəyin gözüylə milli birliyimizə bayraq edək.

Ədəbiyyatlar:

Ülvi, Almaz. Müharibə ağrılarım (Sənədli publisistik qeydlər, ədəbi düşüncələr) I kitab. – Bakı, "Nurlan", 2005. 546 səh. (səh.529-532).
Ülvi, Almaz. Ədəbi duyğularım (portretlər, duşuncələr, qeydlər, sohbətlər) II kitab //Elmi redaktor: professor Huseyn İsmayılov. – Bakı, "Nurlan", 2008. 420 s. (səh.231-233; 373-386).
Ülvi, Almaz. Göyçə mahalı Kəsəmən: bir kəndin tarixindən səhifələr (elmi-tarixi qeydlər, portretlər, publisistik düşüncələr, şəcərələr), I kitab. – Bakı, CBS, 2011, 592 s. (səh.366-370).
Ülvi, Almaz. Ülvimə bir məktub yazdım... ! // "H**əyat üçün doğulmuşuq, Vətən üçün ölməliyik! –** Ülvi Bünyadzadə: şəxsiyyəti və ədəbi irsi" adlı Beynəlxalq Konfransın materiallarına əlavə (məqalələr). – Bakı, "Avropa", 2019, 220 səh (şəkilli) // (səh.147-155).

TARIXI TARIXDAN QADIMROQ NAVRO‘Z

Zuhra YO‘LDOSHEVA,
O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
Folklor bo‘limi ilmiy xodimi

Navro‘z – ayyomlar ichra eng go‘zal ayyom, ezgulik, nafosat va fasohat timsoli. Navro‘z – pokiza tuyg‘ular, yorug‘ niyatlar ayyomi, beg‘ubor orzular va ezgu amollar pallasi. Shu bois ham Navro‘zi olamni barcha birdek intiqlik bilan kutadi.

Tarixi tarixdan qadimroq Navro‘z “Shohnoma” dostonida Shoh Jamshid saltanatining boshlanishi bilan aloqalantiriladi. Manbalarda “Navro‘z” so‘zining ilk bor milodiy ikkinchi asrda fors-tojik manbalarida paydo bo‘lganligi, biroq bayram sifatida nishonlash, taxminan, miloddan avvalgi 648–330-yillarda Ahmoniylar sulolasi davrida ham urfga kirganligi qayd etiladi.

Ma’lumki, Navro‘z bilan bog‘liq urf-odat va marosimlar qadimdan xalqimiz hayot tarzining, madaniyatining muhim va zaruriy qismi hisoblanadi. Shu bois, bu bayram ajdodlar an’anasi sifatida hurmat qilinadi, e’zozlanadi va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish tadorigi ko‘riladi. Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy Navro‘zning mohiyati haqida shunday yozadi:

Navro‘z – kurrai zaminni yoshartiradi.
Bu ayyom ish boshi, baraka ato etiluvchi kundir.

Mustaqillik bilan yurtga qaytgan qadim va bezavol bayramimiz Navro‘zni xalqimiz o‘zgacha ruh va o‘zgacha shodiyona bilan kutib olishni, umimilliy bayram sifatida nishonlashni taomilga kiritdi. Avvallari xalq sayli sifatida chog‘roq maskanlarda qutlangan bayram milliy istiqlol tufayli rasmiy va xalq bayrami maqomini oldi. Endi ulug‘ minbarlardan qutlug‘ bayram tilaklari tilga olinadigan bo‘ldi. Bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan ushbu bebaho va betakror ayyom xalqaro miqyosda ham millat nomini ellarga doston qilib kelmoqda.

Navro‘z chinakam xalq bayrami sifatida asarlardan omon o‘tib keladi. Ardoqli shoir va nosir Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romanining boshlanmasidagi bahor sog‘inchi tasviri, aslida, har ko‘ngilning izhori dili bo‘lsa

ajab emas. “*Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko‘ngillarni qitiklay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi… Tollarning ko‘m-ko‘k sochpopuklari qizlarning mayda o‘rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g‘amli yuzlari kuldi, o‘zlari horg‘in-horg‘in oqsalarda, bo‘shalgan qul singari erkinlik nash’asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog‘ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko‘rina boshladi. Birinchi ko‘ringan ko‘klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash’asini beradi. Bultur ekilib, ko‘p qoshlarni qoraytirgan o‘sma ildizidan yana bosh ko‘tarib chiqdi… Muloyim qo‘llarda ivib, suvga aylangandan keyin go‘zal ko‘zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko‘rar ekan bu ko‘kat! Erkaklarning gullik do‘ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro‘mol popuklari bilan hazillashib o‘ynagan salqin shabada… ko‘klam nash’asi bilan sho‘xlik qiladi. Hayot nega bu qadar go‘zal va shirin bo‘ladi bahorda?*” Xalq tafakkurining mahsuli, og‘zaki ijodining ilhom manbai, milliy o‘zligining nodir namunasi sifatida aksiologik ahamiyat uasb etadi. Navro‘z bayrami ijodkorlar uchun qobiliyat, mahorat va fazilat namoyishi maydoni hisoblanadi. Unda baxshilar, sozanda va xonandalar, so‘z ustalari, san’atkorlar o‘zlarining navro‘ziy dasturlari bilan el ko‘nglini oladi, xalqqa ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlaydi. Zero, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari, eng avvalo, har qaysi millatning folklor san’atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma’lum. Turli xalqlarning milliy o‘zligini, ularning tili va hayot tarzini, an’ana va urf-odatlarini ifoda etadigan baxshichilik san’ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlidir.”[1] Chindan ham milliy o‘zligimizning beg‘ubor va begidir oynasi sanalgan xalq og‘zaki ijodi namunalari xalqimizning behad buyuk qadriyati va ado bo‘lmas xazinasi hisoblanadi.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 06.04.2019.https://president.uz/uz/2476.

Forsiy tilida “yangi kun” yoki “yangilinish kuni” ma’nolarini anglatuvchi “Navro‘z” so‘zining tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Ona zamin uzra bahoriy nasim esa boshlaganda tabiatda ham mo‘jizaviy uyg‘unlik bo‘y ko‘rsatadi. Kechagina oppoq qordan qaddi-basti egilgan, qahraton sovuqda diydiragan dov-daraxtlar oftob mehridan kurtak yozib go‘zallik namoyishini boshlaydi. Olam go‘zallikka chulg‘anadi. Mavsumlar ma’budi, fasllar sanami – ko‘klamning ana shunday husunkor va fusunkor damlarida uyg‘onayotgan tabiatga boqib, bugungi nurafshon kunlarga, hayotning bebaho ne’matlariga sog‘-salomat yetishganimiz, jannatmonand yurtimiz osoyishtaligi, osmonimiz musaffoligi uchun yaratganga shukronalar qilamiz. Shunday pallada so‘z va ma’no piri hazrat Alisher Navoiyning betakror satrlari yodga tushadi:

Har kuning qadr o‘lubon,

Har kuning o‘lsin Navro‘z!

Navro‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra qadimiy va umummilliy bayramlardan biridir. Uning paydo bo‘lishi haqida turli tarixiy manba va rivoyatlar bor. Shuning uchun ham uni tarixi tarixdan qadimroq bayram deya mubolag‘a bilan talqin qilinadi. Ba’zi manbalarda Navro‘z to‘rt yarim ming yillik tarixga ega deyilsa, ayrimlarida uch ming yillik tarixiy jarayonlardagi voqea-hodisa, qadriyat va an’analarni o‘zida mujassam etgani qayd etiladi. Arxeologik tadqiqotlarda esa Navro‘zga oid marosimlarning shakllanishi yetti-sakkiz ming yillik tarixga egaligi aytilgan.

Navro‘z haqidagi rivoyatlar, afsona va hikoyatlar ham uning qadimiyligidan darak beradi. Eng ko‘p tilga olinadigan bir rivoyatga ko‘ra, Navro‘z Odam Ato va Momo Havo topishgan, Nuh alayhissalom to‘fondan omon qolib, qirg‘oqqa qadam qo‘ygan, afsonaviy podsho Jamshid taxtga chiqqan kun, Beruniyning ta’kidlashicha esa farishtalar yaralgan kundir.

Mazkur rivoyat va talqinlar zamirida xalqning Navro‘zga bo‘lgan beqiyos muhabbati va najotkor qudrat sifatidagi e’tiqodi o‘z aksini topgan. Shuning uchun

bu kunda xalqimizning go‘zallik, mehr-muruvvat va yaratuvchilikka intilish tuyg‘ulari jo‘sh uradi. Keksa momolar, bobolar va bemorlar “Navro‘zga yetib olish nasib etsin”, “Navro‘zga chiqib olsa tuzalib ketadi”, “Yuz Navro‘zning yuzini ko‘rsatsin”, “Navro‘zlashib yurish nasib qilsin”, “Navro‘zdek izzatli bo‘l” kabi ezgu tilak, olqish va duolarni tildan qo‘ymaymay keladilar.

O‘zbek xalq dostonlarida to‘y-ma’raka, tantana va tomosholarning bahorga, Navro‘zga mo‘ljallab o‘tkazilishiga e’tibor qaratiladi. “Xalq dostonlari har bir millatning ma’naviy qiyofasi, uning tarixi, qadriyatlarini mukammal aks ettiruvchi bamisoli oynadir. Ularda har bir xalqning urf-odatlari, milliy o‘ziga xosligi yaqqol ko‘rinib turadi. Dostonchilik xalq og‘zaki ijodida qadimiy epik an’ana hisoblanadi. Dostonlar asosan do‘mbira jo‘rligida aytiladi va ijrochidan ham badihada, ham ijroda juda katta ijodiy mahorat talab qiladi. Dostonning yana bir xususiyati, og‘izdan og‘izga o‘tib avloddan avlodgacha yetib kelganidir. Bu o‘z navbatida ustoz-shogirdlik an’analarining vujudga kelishiga, natijada yirik dostonchilik maktablarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.”[2] Doston va bayram haqida so‘z ketganda, mutaxassislar ularni bir-biriga bog‘lab turuvchi eng muhim jihatni dostonning xalq ijodining nodir namunasi sifatida o‘zida ming yillar oldingi kishilarning bayram orqali hayot falsafasini namoyon qilishida deb bilishadi.

Eng muhimi shuki, Navro‘z insoniyat tarixidagi eng qadimiy, ommaviy va umumbashariy qadriyatlarga ega betakror bayramlardan biri, inson va tabiat uyg‘unligini namoyon qiluvchi purma’no ayyomdir. Shu bois Abu Rayhon Beruniy “Navro‘z olamning boshlanishidir” desa, yunon faylasufi Epikur “Olam qachon paydo bo‘lganidan qat’i nazar, bahor kezlarida yaralganiga shubha yo‘q. Ayni bahorda hamma narsa kurtak ochib, gullaydi va meva tugadi” deydi. Haqiqatan ham bu faslda tabiatda, inson ruhiyatida yangilanish ro‘y beradi. “Qish ichi siqilib,

[2] Кунтуғмиш достони. “Адабиёт” (Султонмурод Олим, Суннат Аҳмедов, Раҳмон Қўчқоров. Умумий ўрта таълим мактабларининг 8-синфи учун дарслик-мажмуа. Ғафур Ғулом номидаги нашриётматбаа ижодий уйи, Тошкент, 2014) дарслигидан.

zanglab chiqqan” ko‘ngillar bahorning iliq hovuri bilan tug‘yonga keladi. Kengliklarni sayru tomosha qilgisi, xalq baxshilaridan qadimiy dostonlarni tinglab ma’naviy hordiq chiqargisi keladi. Navro‘z ko‘ngillarni harakatga keltiradigan, dillarni g‘uborlardan poklaydigan bebaho bayramdir.

Adabiyotlar:

1. Yuldashev M. Nawruz ın the Uzbek Linguoculture. “International Scientific Conference: “Nauryz As An Intangible Cultural Heritage of the Humanity” within the framework of the international forum National Traditions of the Great Steppe” 13-14-Mart, 2018.
2. Eshonqulov J. Epik an’ana va "Alpomish" dostoni. // “O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi” sayti. www. ich.uz
3. Abdurashidov S. Yurtim bo‘ylab bahor ifori. https://mehrob.uz.
4. G‘oziyev N. Azal ko‘klam chog‘i yapalgan olam… https://huquq.uz.
5. Rasulov Sh. Navro‘z – milliy o‘zligimiz belgisi. http://old.adolatnashr.uz/
6. Abdulhamid Cho‘lpon. Kecha va kunduz. Toshkent: Sharq, 2000. –B. 11-12.

SHAVKAT RAHMON SHE’RIYATIDA QO‘LLANGAN ONOMASTIK BIRLIKLARNING O‘ZIGA XOSLIGI

Jamila YUNUSOVA,
O‘zRFA o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instutining ilmiy xodimi.
Jamila2020_yunusova@mail.ru. Telefon:97 776-93-47

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilining lingvistik boy imkoniyatlari shoir Shavkat Rahmon she’riyatida qo‘llangan poetonimlarni lingvopoetik tahlili orqali ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: poetonim, antroponim, toponim, allyuziv nom, etalon.

Аннотация. В данной статье богатый лингвистический потенциал узбекского языка демонстрируется посредством лингвопоэтического анализа поэтонимов, используемых в поэзии поэта Шавката Рахмона.

Ключевые слова: поэтоним, антропоним, топоним, аллюзивное имя, эталон.

Annotation. In this article, the rich linguistic potential of the Uzbek language is demonstrated through a linguo-poetic analysis of poetonyms used in the poetry of the poet Shavkat Rahmon.

Key words: poetonym, anthroponym, toponym, allusive name, standard.

Badiiy matnda har qanday til birligi badiiy yuk olib, ijodkorning turli niyatini yoritishga xizmat qilishi mumkin. Xususan, onomastik birliklar ham atash, nomlash, farqlash kabi leksik vazifalaridan tashqari bir qancha poetik vazifalarni bajaradi. Bugungi kunda tilshunoslikda onimlar lingvistik, lingvokultrologik, lingvopoetik jihatdan o‘rganilib kelinmoqda. Onimlarni antroposentrik jihatdan tadqiq etgan tilshunos olima D.Xudoyberganova nomlarga quydagicha ta’rif beradi: “Nomlar har bir xalqning millat sifatidagi o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Ayni vaqtda ular o‘sha xalqning lisoniy, tarixiy va madaniy boyligi hamdir.” [2016:3]. Darhaqiqat, ismlarda har bir xalqning ism qo‘yish an’anasi va madaniy kodi yashirin. Ayni holat badiiy adabiyotimizda ham o‘zining poetik aksini topgan.

Badiiy matnda nomlarning til birligi sifatida turli badiiy va estetik vazifa bajarishini monografik aspektda tadqiq etgan D.Andaniyazova “badiiy matndagi onomastik fond lingvostilistik jihatdan tadqiq etilishi mumkin. Yoki yana qaysidir aspektda o‘rganilishi tabiiy hol. Ammo poetik nuqtayi nazardan tekshirish uchun til birligi muayyan talablarga javob berishi zarur. O‘sha talablarning jami “lingvopoetik konsept” doirasida aniqlanishi”ni ta’kidlaydi [2016:22]. Shuningdek, antroponim, toponim, ba’zan zoonimlar badiiy matnda o‘ziga xos estetik vazifa bajarib, alohida estetik maqsad bilan qo‘llangani uchun bunday birliklarni antropopoetonim, topopoetonim, zoopoetonim kabi terminlar bilan atashni ma’qullaydi, va bu sohani onomapoetika, (onomastik poetika) deb nomlaydi [2016:22]. E’tirof etsh joizki, olimaning bu soha bo‘yicha olib borgan tadqiqoti poetonimlarning lingvopoetik jihatdan o‘rganilishida yangi izlanishlar tomon yo‘l ochdi.

Buyuk so‘z sinchisi Shavkat Rahmon she’riyatida ham poetonimlar til birligi sifatida estetik vazifa bajarishi muhum o‘ringa ega. Shoir ijodining onomastik ko‘lamini quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin: antroponimlar, toponimlar. Biz ushbu maqolamizda shoir she’rlarida qo‘llangan antroponimlarni ijtimoiy-tarixiy fakt mazmuniga ishora qiluvchi va filologik mazmunga ishora qiluvchi nomlarga bo‘lib o‘rgandik.

D.Xudoyberganova allyuziv nomga quyidagicha ta’rif beradi: “Allyuziv matnda allyuziya ko‘rsatkichi vazifasida keluvchi onomastik birlik assotsiativ tarzda idrok qilinuvchi presedent matnning tarkibiy qismi: ikki madaniy – semiotik maydonni tutashtiruvchi vosita” [2015:19]. Shavkat Rahmon she’rlarida qo‘llagan tarixiy shaxslar, shoirlar, mifologik obrazlar turli badiiy maqsadlar ifoda etgan. Quyidagi “Sayohat” she’rida *Iskandar, Chingizxon* allyuziv nomlariga ishora qilish

orqali lirik qahramon ularga qarshi sifatlab o‘zining kim ekanligini qisqa va ta’sirli ifoda eta olgan. Tarixdan ma’lumki, Iskandar Zulqarnayn, Chingizxon buyuk hukumdorlar bo‘lib, Movaraunnahrni ham bosib olgan va o‘zining mustamlaka yeriga aylantirgan. Shoir *Iskandar, Chingizxon* presedent nomlarining tarixiy mazmuniga ishora qilgan holda “*yulg‘ich*” ma’nosida qo‘llab onomastik metaforani yuzaga keltirgan.

Zabt etgani kelmadim seni,
yeng ichida yo‘qtir pichog‘im.
*Men **Iskandar, Chingizxon** emas,*
osmon kabi ochiq quchog‘im.

She’rning keying satrlarida lirik qahramon o‘zining saxiy, bag’ri kengligini Hotam presedent nomi orqali ifodalaydi. “Ma’lumki, muayyan nomlar o‘zi mansub bo‘lgan lingvomadaniyatda mashhurlik kasb etishi natijasida biror xususiyatning etaloni sifatida qabul qilinadi” [2016:7]. Hotam, Hotam toy Yamanda Toy qabilasi boshlig‘i, mashhur lashkarboshi, shoir (taxminan VI asr oxiri VII asr boshi). O‘z saxiyligi bilan Arabiston va Sharq xalqlari orasida shuhrat qozongan.[Xudoyberganova, 2016:126] Sharq xalqlari, jumladan, o‘zbek adabiyotida Hotam nomini qo‘llash “*saxiy*” ramzi sifatida an’anaga aylangan. Matnda *Hotam* antroponimi “*saxiy odam*” etaloni sifatida yuzaga kelgan.

Ishonmasang, qara ko‘zimga,
*Ko‘zlarimda yashaydir **Hotam.***

Kuzatilganidek, shoir badiiy maqsadini ifoda etishda *Iskandar, Chingizxon presedentlari* va ularga zidlab *Hotam presedent* nomlarining qo‘llashi she’rning ekspressivligi va ta’sirini oshirgan.

“Tarixiy ong” she’rida esa favqulodda badiiy umumlashmalarga, lingvopoetik zamzamalarga boy matn yaratishda *Muqanna* poetonimi muhim uzv hisoblanadi.

*Ko‘ksingdagi **Muqann**a bilan*
o‘zliginga qaradingmi, ayt?!
Musht zarurroq bo‘lgan mahalda
yozding go‘zal she’rlarni faqat.

Bu allyuziv nom o‘quvchining matn orti bilimlarini harakatga keltiradi hamda Muqanna bilan bog‘liq tarixiy faktlarga ishora qiladi. Ma’lumki, tarixda “Muqanna Hoshim ibn Hakim Movaraunnahrda Arab halifaligiga qarshi ko‘tarilgan xalq ozodlik harakati yetakchisi va ijtimoiy tenglik g‘oyasini ilgari surgan. Yuziga niqob taqib yurgani uchun Muqanna -“niqobli” laqabini olgan.

Arablar Muqannaning Shahrisabz shahri yaqinidagi Som tog‘ida joylashgan istehkomini uzoq vaqt qamal qilgach, muqannachilar taslim bo‘lganlar. Arablarga taslim bo‘lishni istamagan Muqanna o‘zini olov yonib turgan tandir ichiga tashlab halok bo‘lgan. [Худойберганова, 2016:68]” Matnda allyuziv nom tarixiy mazmunga ishora qilgan holda “*haqiqatgo‘y, qo‘rqmas*” ma’nolarida qo‘llanib onomastik metaforani yuzaga keltirgan.

“Dushmanim ko‘paydi ” deb boshlanuvchi she’rida ham kitobxonning matn orti bilimlari harakatga keladi, Shayboniyxon bilan bog‘liq tarixiy faktlarga ishora qiladi. Tarixdan ma’lumki, Sulton Muhammad Shayboniyxon ibn Budoq Sulton ibn Abulxayrxon (1451-1510) Temuriylar hukmronligiga chek qo‘yib, Shayboniylar sulolasiga asos soladi. Shayboniyxon yollanma qo‘shin boshlig‘idan xon darajasiga ko‘tarilgan. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Boburga qarshi kurashadi, undan yoshi ulug‘ligi, tajribasi ko‘pligidan g‘alaba qozonadi. Bobur 3-marotaba Samarqandni shialar mazhabidagilar yordamida qo‘lga kiritadi, bu hol sun’iy mazhabidagilarning qattiq qarshiligiga sabab bo‘ladi. Samarqandni jangsiz Shayboniyxon shartlariga ko‘nib tashlab chiqib ketishga majbur bo‘ladi. Shoir o‘hshatish konstruksiyasi orqali *Shayboniy* presedentining tarixiy mazmuniga ishora qilib “*ayyor, mug’ombir*” ma’nolarini yuzaga keltirgan. Shayboniy onimining ayyor etalonini olishi ilk bora Sh.Rahmon ijodida kuzatilyapti. Ayni holat shoirning o‘ziga hos til hususiyatidan darak beradi.

Bor aybim,
haqiqiy yovni ko‘ra bil,
adolat toblasin dedim burdlarni,
***Shayboniy lashkari** singari bedil,*
o‘zimga tashlandi millat qurtlari.

Shoir ijodida yuksak mahorat bilan ijtimoiy-tarihiy mazmunga ishora qiluvchi poetonimlar bilan birga filologik mazmunga ishora qiluvchi nomlar ham salmoqli o‘rin egallaydi. Xususan, “Munojot” she’rida Islom olamida mashhur bo‘lgan *G‘azzoliy* presedentidan foydalanadi. Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G‘azzoliy Tus shahrida dunyoga kelgan. Uning otasi yung yigiruvchi bo‘lgan. Olimning G‘azzoliy taxallusi ham ota kasbiga ishora—“*g‘azzol*” yigiruvchi degan ma’noni bildiradi. *G‘azzoliy allyuzivi* badiiy adabiyotda “*Islom ilminning bilimdoni*” sifatida etalonga ega. Shoir she’rida filologik mazmunga ishora qilgan holda “*komil inson*” ma’nosida onomastik metaforani hosil qilgan. *G‘azzoliy* poetonimiga ishora qiluvchi kod so‘z “*shayton*” so‘zi onomastik metafora anglanishida ochqich vazifasini o‘tagan.

Bu dunyo nimadir?
Barini ko‘rdim,
sulton-u gadoning qa’rini ko‘rdim,
***G‘azzoliy** sig‘magan tuban olamda*
shaytondan to‘ralgan g‘ayirni ko‘rdim.

Demak, o‘ziga xos til egasi bo‘lgan Shavkat Rahmon badiiy matnga muayyan nom olib kirar ekan, unga alohida badiiy yuk yuklaydi, shunchaki olib kirmaydi va mana shular badiiy matnning shakllantirishga xizmat qiladi. Ayni jihatdan ham poetonimlarni badiiy matndagi vazifalarini o‘rganish tilshunoslik uchun yangi ilmiy xulosalar beradi.

Adabiyotlar:

1. Анданиязова Д. Ономастик бирликларининг лингвопоэтик тадқиқи. Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016. – Б.22.
2. Худойберганова Д, Анданиязова Д. Ўзбек тили поэтонимларининг изоҳли луғати. Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016. – Б. 3,4, 19.
3. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Нозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.276.
4. Феоктистова Л.А. К методике анализа ассоциативно-деревационной семантики личного имени // Вопросы ономастики. –Екатеринбург, 2016.№1.-С.85-166.

KOLORATIV BELGILAR OBRAZLI-ASSOTSIATIV QATLAMI TARJIMASI XUSUSIDA

(*Alisher Navoiy epik dostonlari misolida*)

Zilola SHUKUROVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti,
Qo‘shma ta’lim dasturlari kafedrasi
katta o‘qituvchisi
zilolasadikovna@gmail.com

Annotatsiya. Maqola doirasida Alisher Navoiyning epik dostonlari asliyat va ruscha tarjima matnlarida bahor va Navro‘z konseptlari semantik maydonida kolorativ belgilar obrazli-assotsiativ qatlami tahlil etiladi. Lisoniy rang tasviridagi milliy – mental farqlar lingvomadaniy jihatdan ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, bahor, kolorativ leksika, tarjima, milliy– mental rang ifodasi.

Аннотация. В статье рассматривается образно – ассоциативный слой колоративных знаков в семантическом поле концептов весна и Навруз в оригинальном и переводных текстах эпических поэм Алишера Навои. В лингвокультурологическом аспекте раскрываются национально – ментальные разницы в цветописи.

Ключевые слова: Навруз, весна, колоративная лексика, перевод, национально – ментальные цветообозначения.

Markaziy Osiyo, Eron, Kavkaz, Afg‘oniston xalqlari orasida juda qadim zamonlardan beri keng nishonlanib kelinayotgan Navro‘z bayrami bu xalqlar madaniyatining ajralmas qismiga aylangan. Navro‘zning qachon paydo bo‘lgani haqida yana bir yangi fikr Zoir Ziyotovning “Navro‘z – moziydan sado” kitobida keltirilgan. Muallif e’tiroficha, kitob shumerlarning mixxati asosida yozilgan, Navro‘z, “yil boshi” bayramini shumerlar bilan bog‘liq holda tasvirlaydi: “Forslar shumerlarga qarindosh bo‘lgan elam turklarning merosxo‘rlari edi, ularning yerlarida o‘z davlati (Parsa)ni tuzib (eramizdan avvalgi VII asrlar), elam xalqlarining an’anaviy buyuk yutuqlarini, shu jumladan, yangi yilni ham qabul qilganlar va unga “Navro‘z” nomini berganlar” [1].

Navro‘z eski quyosh kalendari hisobida Farvardin oyining boshlanishiga (hozirgi 22 martga) to‘g‘ri kelgan. Bu kun “kichik Navro‘z” deb atalgan va tabiatdagi hamma narsa shu kundan boshlab harakatlana boshlaydi, deb hisoblangan. Beruniyning “Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar” nomli kitobida keltirilishicha, “...u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya’ni bahor yomg‘irining birinchi tomchisi tushishidan gullar ochilguncha, daraxtlar gullashidan mevalari yetilguncha, hayvonlarda nasl vujudga kelguncha davom etadigan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro‘z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan”.

Darhaqiqat, Navro‘z qadimdan xalqlarning turmush tarzi va faoliyati bilan chambarchas bog‘langan tabiat va bahor bayrami bo‘lib, u bilan bog‘liq an’analar asrlar davomida turkiy va forsiy tilli xalqlar tili va lingvomadaniyatida chuqur ildiz otadi.

Shu tufayli bahor va Navro‘z vasfi mumtoz shoirlarimiz murojaat qilgan asosiy mavzulardan hisoblanadi. Xususan, Alisher Navoiy “Tarixi muluki ajam” asarida Navro‘z bilan bog‘liq qiziqarli ma’lumotlarni keltiradi. Shuningdek, shoirning lirik va epik she’riyatida bahor va Navro‘z konseptlari bilan bog‘liq

kolorativ belgilar obrazli-assotsiativ maydonni tashkil etadi. “Ranglarning ramziy qo‘llanishi - Navoiy poeziyasi uchun xarakterli bo‘lgan poetik usullardan biri, bu usul shoir lirikasida bir sistema holiga kirgan bo‘lib, o‘zining ma’lum qonuniyatiga ega” ekanligini o‘tgan asrning 80-yillarida Yo. Ishoqov aniqlagan edi [2. 119].

Shu jihatdan, Navoiy asarlarida kolorativ leksika obrazlilikning muhim tarkibiy qismi sifatida Yo.Ishoqov, B.Bafoyev, I.Xaqqulov, S.O‘tanova, N.Komilov S.Hasanov, H.Boltaboyev, O.Ibrohimov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Kolorativ belgili leksemalar Navoiy asarlari tarjimalarida berilishiga K.Jo‘rayev, D.Salohiy, Q.Yergashev, SH.Sirojiddinov, G.Odilova va b. e’tiborni qaratganlar. Ammo kolorativ belgilar obrazli-assotsiativ maydoni, asosiy va periferik sath tarjimada qayta yaratilishi kompleks tahlil etilmagan.

Tilshunos Sh.Safarov ko‘rsatganidek, “milliy-madaniy qiymatli mazmun qobig‘iga ega bo‘lgan konseptlarning tahlili ham o‘zgacha yondashuvni talab qiladi.[3, 268]. (bu qatorga milliy tildagi rang ifodalarini ham kiritish mumkin – Z.SH.)

“Farhod va Shirin” dostonining XVII bobida astrologik vaqt bilan bog‘liq tarzda yaratilgan rang mavzusining dinamik takomillashuvini asliyat matni va dostonning L.Penkovskiy amalga oshirgan ruscha tarjimasida kuzatamiz:

Hamal tahvili etkach mehr gulchehr
Ochar yuz gul zamona ko‘rgach ul mehr (4, 66).

Tarjima matnda alliteratsiya hodisasi simmetrik: asliyatda ichki ohangdoshlik “h”, “l”, “r” tovushlari orqali yuzaga chiqqan bo‘lsa, tarjimada, jarangli “z” va “s” tovushlari takrori hosil qilganiga guvoh bo‘lamiz:

Лиш солнце к знаку Овна подойдет,
За розой роза на земле светет (5, 52).

Navro‘zga oid kolorativ belgilar rang tasviri va yorug‘lik idrok etilishi mumkin bo‘lgan doimiy harakatdagi vaqt va makonda tasvirlangan. Keyingi bayt kontekstni mazmunan to‘ldiradi, obrazli ifoda kuchaytiriladi: bahor – “arusi dahr” (*nevesta mira*) va olamga bezak beruvchi – “mashshotai sun’” (*naryaditel*) obrazlarining ko‘rgazmali tasviri istioraviy ifodalangan:

Qil**ur** m**ashsho**tai **sun**’ **oshkoro**,
Arusi dah**r**ning **husn**iga **oro** (4, 66).

Penkovskiy tarjimasida:

Небесная хлопочет мешшате,
Служа земной весенней красоте: (5, 52)

Mazkur baytdagi ichki ohangdoshlik (*ur-oro-aru-r-oro; ash-sho-osh; sun'-husn*), shuningdek, milliy metaforalarning estetik funksiyasi ham tarjimada aks etmagan. Bu o‘rinda tarjimon obrazni qayta yaratish o‘rniga uni buzgan: “*mashshota*” leksemasi arab tilidan o‘zlashtirilgan, Navoiy asarlari lug‘atidagi izohi: “mohir bezakchi”.[6, 162].

Bu o‘rinda “mashshotai sun’”ning kontekstual mazmuni – Yaratuvchi (Alloh), afsuski, tarjimada leksemani transliteratsiya qilish hisobiga zo‘rma-zo‘raki qofiya yasalgan: “меш-**шате** –кра-**соте**”. Bunday o‘zlashtirilgan “obrazli birikma” retseptor ongida hech qanday obrazli assotsiatsiya uyg‘ota olmasligini oldindan sezgan tarjimon so‘zni izohi bilan berishga urinadi. Boz ustiga, rus tilida analogi mavjud bo‘lsa-da, “*arusi dahr*” (невеста мира) metaforik birikmasi tarjimada umuman tushirib qoldirilgan. Shu tariqa, tarjimada mazkur obrazli mikrokontekst (bayt) asliyatdagi emotsional ta’sir kuchini yo‘qotgan. Tarjimashunos K. Musayev to‘g‘ri e’tirof etganidek: “Tarjima tilining lug‘at sostaviga kiritilmagan so‘zlarning boshqa tildan qilingan transliteratsiyasi hodisa va faktlar to‘g‘risida hamma vaqt ham to‘g‘ri tasavvur bera olmaydi. Bundan tashqari, ko‘pincha, tarjima tilining ruhini tushirib yuboradi.” [7,163].

Navoiyning rang bilan bog‘liq tasavvurlari keyingi baytlarda metonimiya bilan rivojlantiriladi:

Kilur tun birla zulfu kun bila eng,
Etar lekin bo‘yi birla sochin teng (4, 66)

Olam kelini(*bahor*) → Zulf(*soch*) –tun, qorong‘ulik (*qora*)
Olam kelini(*bahor*) → Eng(*yuz*) –kun, yorug‘lik(*oq*)

Kontekst mazmuniga ko‘ra, bo‘y va sochning tengligi Navro‘z kunida kun va tunning tengligiga ishora.

Penkovskiy tarjimasida:

Румянит щеки краскою дневной,
Сурьмит ей кудри краскою ночной (5,52)

Musiqiy ritm asosiga qurilgan bayt tarjimada yuz/ щеки (yonoq), yuzning oqligi/ румяна (qizil) tarzida berilishi retseptor mentalitetiga mos tushadi, zero rus madaniyatida yonoqlar qizilligi go‘zallik, yoshlik va sog‘lomlik nishonasidir.

Shunday qilib, aytish mumkinki, kontekstual tahlil rang ifodalari semantik hosilalarining yanada murakkab turlari haqida gapirish imkonini beradi.

Fikrimizni davom ettirib, Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidagi (12, 13boblar) jonli peyzaj tasvirini S.Lipkin rus tilida qay tarzda qayta yaratganligiga e’tibor qaratamiz:

Dasht uzra butar qo‘zibulog‘i/ в пустыне распускается щавель, ликует хмел (dasht chechagi rus tilida boshqa analoglari bilan almashtirilgan: *щавель, хмель*).

Charx-to‘ti; qavsi quzah-marvarid; yer-to‘tagi rang / небо-попугай; радуга-ожерелье; земля –свeта попугая (bahorda zaminning to‘ti rangida tasvirlanishi bir tomondan turli-tuman gul –chechaklarlar, o‘t-o‘lan bilan qoplangani bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, «небо - попугай», «земля – птенеs» tarjimada ham asliyatdagiga simmetrik ravishda yangi jo‘shqin hayotning tug‘ilayotganiga ishora qilingan, kolorativ belgilar uyg‘unligi qayta yaratilgan.

Keyingi kontekstda shoir an’anaviy tarzda tabiatdagi har bir o‘zgarishga sehrli mo‘yqalami bilan rang-tus beruvchi “samo musavviri”ga murojaat qiladi:

Tun-kunni kilur binafsh sizg‘on / Kofur ila mushkdin soqizg‘on

Tarjimada antonimik ifoda adekvat qayta yaratilgan:

Он мускуса и камфары спросил /Сорокой ден и ноч изобразил.

Navoiy jonli peyzajni, harakatdagi tabiat hodisalarini zavq bilan tasvirlashda davom etar ekan, ularning har biriga biriktirilgan assotsiativ –kolorativ obrazli ma’no qatlamining ham kengayib borganiga guvoh bo‘lamiz. Quyida ularni bir nechta guruhga bo‘lib ko‘rsatamiz:

1. **Rang bilan bog‘liq:**

Sorig‘ gul-oltin tabaq; yomg‘ur-dur / роза желтая -блюдо золотое; дождь-жемчуг; Yaraqon o‘ti–soriq yuz –araq rez (ter, yomg‘ir) / роза желтушна-желч во рту-пот; Sebarga–javshan; savsan-shashpar /. трилистник с колчугой; ирис-алебарда (*sariq rang*) Zaxmi ko‘kidin binafshada g‘am-so‘gida libosi motam / *фиалка- надела бремя траурных одежд* (*milliy motam kiyimi rangi*)

Ashjor-sunbul qaro uzori(yuzi)-qaro zulfi mushkborin / *деревья-зеленые знамена вознесли-гиасинт застыл в слезах-мускус в черных волосах* (*qora rang*)

Anjum guli - звёзды-розы в контексте *(«опочивальня облаков порозовела от лепестков»*) - bulutlarning qizg‘ish tusga kirishi obrazli tasvirlangan.

Tun urdi ko‘murlarini dirham / Mehr o‘tini subh ayladi dam. / *Ноч размешала уголья в костре / Огон раздуло утро на заре* (adekvat tarjima)

2. **Shaklga urg‘u berish orqali yaratilgan kolorativ ifodalar:**

G‘uncha boshi-xud / *бутоны в шлемах;* Lola-Parvez kulohi- huqqai la’l- shuqqai la’l- bag‘ri qaro / *тюльпан- шапка Парвиза- черногрудки;*

Nargis- noranj- jom / *Нapsucc- померанеs- кубок.*(adekvat tarjima)

3. Sensor peyzaj:

yax tig‘i / *синий лёд; иней слезы льет;* (ekviritmik tarjima, ichki ohang qayta yaratilgan)

G‘uncha-jola-tish-kulgu-qon/*Бутон-роса-зубы-рассмеется-кровь;* (istiora assotsiativ o‘xshashlik asosida qayta yaratilgan)

Nasrin bargi-kup yog‘i / *лепестки белой розы-сала в казане* (modulyatsiya)

4. Hid bilan bog‘liq koloristik belgilar:

Zanbaq-mushk-atr-shamim-binafsha dimog‘i /*лилия-мускус-парфюм-свеча, запах фиалки* (tarjima bizniki-Z.SH.);

Qays gulshanda xushdin fard-nasimi gulbez-gul atri-dimog‘iga xush / *Кайс подобен розе-любовью ранен-благовоние роз-дыхание вдохнул;*

So‘giga oqar suv zor yig‘lab, un tortibu so‘gvor yig‘lab / *остановился быстрый ключ-зарыдала жалобно вода.* (ekviritmik tarjima)

5. Zanjirli o‘xshatishlar:

Lola-dog‘-g‘uncha diltang/*Сердsa –тюльпан- ожоги любовных ран-бутон.* Ko‘ngil o‘ti-sharar-o‘tlug, oh-xazoni-za’faroni–g‘ami o‘tidin shararlar-ishq o‘ti-hayrat o‘ti-o‘t ichra –qaro qilmok ro‘zi ro‘zg‘orin/*Пламен вздоха – шафранная желтизна (листья)-огонь-Кайс в огне-огон её-огон печали-Я в огне-Я горю-душу сожгла-превратила судьбу в ночь*(zanjirli o‘xshatishlar tarjimada yanada kuchaytirilgan.)

G‘unchadek ichini qon kilib dard/*Лейли в печали* (kolorativ belgili o‘xshatish tarjimada aks etmagan). (13 bob, rus tilida 4 bob)

ko‘ksida hajrdin ko‘rub dog‘-lola, ko‘ksida kuydurub dog‘ / *тюльпан –скорбей клеймо-выжег в груди клеймо* (tajnis san’ati qayta yaratilgan)

Koj sorig‘ yuzin ko‘k etti-yuzi za’faroniy-gulidin ko‘ki nishoni-za’farondin ozor-shu’lai firoqi – ohi o‘ti / синим стал шафран его лиsa -огнивом стал разлуки камень-желанья пламень-любов пылание. (ko‘k, sariq, olov rang ottenkalari tarjimada adekvat)

hajr o‘ti butratib duxonin-aylab qora dahr xonumonin-libosi otasholud-gardung‘a yetishti ohidin dud-yo‘q, bu dud ohi-gohi somonda shu’la, gah dud-kahdud / *разлука подожгла-неостывшая зола-в огне одежды сожжены–дым, как вздох, нет, вздох как дым души влбленной-больной соломой опален* (qora, kulrang, qizil, sariq rang ottenkalari inkor etish, kuchaytirish orqali ifoda va mazmun uyg‘unligi qayta yaratilgan).

Xullas, Navoiy bir bayt yoki bob doirasida rang tasviriga urg‘u berishga urinmaydi, uning rang bilan bog‘liq obrazli tasavvuri dinamik tarzda kengayib va

rivojlanib boradi. Natijada epik bayonda mavjud rang ifodalarining takrori emas, balki ohori to‘kilmagan rang-tasvirli obrazli kontekstlar zanjiri bunyod bo‘ladi. Bunday rang–tasvir ifodasidagi munosabatdoshlikni alohida bayt, bob, bir doston, umuman “Xamsa” kontekstida ko‘plab uchratish mumkin. (lirikasi ham istisno emas.-Z.SH.) O‘ylashimizcha, Navoiy asarlari tilida obrazli-assotsiativ maydonni tashkil etgan kolorativ leksikani kognitiv–konseptual jihatdan o‘rganish lingvistika nuqtai nazaridan ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. https://www.devedu.uz/article/78
2. Ishoqov Yo. Navoiy poetikasi. –Toshkent: Fan, 1983. 119-bet.
3. Safarov Sh. Semantika. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlaat ilmiy nashriyoti, 2013.
4. Navoiy, Alisher Farhod va Shirin –Tokent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
5. Навои, Алишер. Фархад и Ширин. Перевод Л.Пеньковского.-Ташкент: Фан, 1968.
6. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at. O‘zbekiston Respublikasi FA “Fan”, 1993, 374b.
7. К.Мусаев Лексико-фразеологические вопросы художественного перевода. Т.: “Ўқитувчи”,1980.-190б. с.163.)
8. Навои, Алишер. Лейли и Меджнун. Перевод С.Липкина.-Ташкент: Фан, 1968.

NAVRO‘Z BAYRAMI FALSAFASI

Xilola ABDUJABBOROVA,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharq xalqlarida bahorgi bayram sifatida keng nishonlanadigan Navro‘z bayrami, uning o‘ziga xos jihatlari va falsafasi haqida fikr yuritiladi. Maqolada Navro‘z termini izohiga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, bayram, bahor, g‘oya, falsafa.

Аннотация. В данной статье рассматривается праздник Навруз, широко отмечаемый на Востоке как праздник весны, его особенности и философия. Статья посвящена определению терминов, связанных с Наврузом.
Ключевые слова: Навруз, праздник, весна, идея, философия.

Annotatsiya. This article discusses the holiday of Navruz, widely celebrated in the East as a holiday of spring, its features and philosophy. The article is devoted to the definition of terms associated with Navruz.
Key words: Navruz, holiday, spring, idea, philosophy.

“Oyning o‘n beshi qorong‘u, o‘n beshi yorug‘”, - deganlaridek, qishning sovuq izg‘irinli kunlaridan so‘ng tabiatning iliq tuhfasi bo‘lib, fasllar kelinchagi bahor kirib keladi. Iliq shabodalar, muzlarning erishi, yer bag‘rini yashillik burkashi, qushlarning issiq o‘lkalardan qaytishi bahor kelganligidan darak beradi. Insonlar bahor darakchisi bo‘lgan boychechaklarni ko‘zlariga tabarruk qilib surishadi va bu kunlarga yetganlariga shukronalar aytishadi. Bu esa yana hayot davom etayotganligini bildirib, insonlarga o‘zgacha kayfiyat baxsh etadi, hayotga bo‘lgan mehrini oshiradi.

Ana shunday iliq tuyg‘ular baxsh etuvchi bahor faslida qadimiy bayramlardan biri sanalgan Navro‘z Sharq xalqlari o‘rtasida keng nishonlanadi. Shu o‘rinda, avvalo, Navro‘z so‘zining lug‘aviy ma’nosiga to‘xtalib o‘tsak. Navro‘z so‘zi forscha bo‘lib, “nav” – yangi, “ro‘z” – kun, ya’ni “yangi kun” ma’nosini beradi. Navro‘z shamsiya yil hisobida yangi yilning birinchi kuni (mart oyining 21-kuniga to‘g‘ri keladi). Eski sana hisobidagi yangi yil va bahorning boshlanishi munosabati bilan o‘tkaziladigan bayram [1, 6].

Navro‘z Turkiston, Sharq xalqlarining qadimiy an’anaviy yangi yil bayramidir. Shamsiy taqvim hisobida yilning birinchi kuni bo‘lib, bahorgi kun va tunning tengligiga, ya’ni 21–22-mart kunlariga to‘g‘ri keladi. Navro‘zni bayram sifatida nishonlash ahmoniylar davri (mil.av. V–VI asr)dan boshlangan deb hisoblanadi. Bayramning paydo bo‘lishi to‘g‘risida turli rivoyatlar mavjud bo‘lib, Abulqosim Firdavsiy o‘zining “Shohnoma” asarida uni shoh Jamshid nomi bilan bog‘laydi. Abu Rayhon Beruniy “Osor ul-boqiya” kitobida ma’lumot berishicha, bayram farvardinning oltinchi kuniga qadar davom etgan. Sosoniy podsholari olti kunda olti toifa xalqni qabul etganlar va tortiqlar ulashganlar. Navro‘z bayrami kuni mahbuslarni ozod qilish an’anasi ham bo‘lgan. Umar Hayyomning “Navro‘znoma” kitobida yozilishicha, Navro‘z bayrami o‘tkazishning maxsus tartib-qoidasi

bo‘lgan. Uy-joylarni tozalash, ko‘kat va gullar bilan bezash, ota-ona, yaqin qarindoshlar bilan diydorlashish, marhumlarning qabrlarini ziyorat qilish kabilar xalq orasida keng odat tusiga kirgan [2, 292–293].

Boshqa xalqlar singari o‘zbeklar ham bu kunni qadim zamonlardan buyon yangi yilning boshlanishi sifatida quvonch bilan qarshi olganlar. Tojik va eron xalqlarida bayram dasturxoniga nomi “s” harfi bilan boshlanadigan yetti xil taom qo‘yish (haftsin) odati bor. Bu bayramni nishonlash uchun hamma bir necha kun avval tayyorgarlik ko‘radi. Odatda, bir necha kun avval undirishga qo‘yilgan bug‘doydan ayollarimiz sumalak taomini tayyorlashadi. Erkaklar ham undirilgan bug‘doy va go‘shtda bir kun davomida halim taomini pishirishadi. Bundan tashqari, barra ismaloq, yalpiz kabi bahoriy ko‘katlardan ko‘k somsa, ko‘k chuchvara kabi tansiq taomlar ham tayyorlanadi. Qishdan horg‘in chiqqan inson tanasiga bu kabi taomlar haqiqiy quvvat baxsh etadi.

Bayram kechasi yoshlar tonggacha uxlamasdan turli ertak va hikoyalar aytib, o‘yin-kulgu bilan kutib olishgan. Bayramning birinchi kuni otchopar, ko‘pkari, uloq kabi sport o‘yinlari o‘tkazilgan. Xalq sayillarida turli dorbozlik, masxarabozlik, askiya kabi xalq tomoshalari namoyish etilgan. Bu bayram nafaqat yangi yil, balki dehqonchilikning ham boshlanish bayrami sanalgan.

So‘lim bahor va Navro‘z tarovati hamisha shoirlar va san’at ahliga ilhom baxsh etib kelgan. Adabiyotimizda “Navro‘znoma”lar yozish an’anasi shakllangan, deyarli barcha ijodkorlar Navro‘zga atab ash’orlar bitishgan. Misol tariqasida Alisher Navoiyning quyidagi baytlarini keltirishimiz mumkin:

Vasli aro, ko‘rdim, teng emish bo‘yi-yu sochi,
Tun-kun teng ekan zohir o‘lur bo‘ldi chu navro‘z [3, 218].

Mazkur bayt misolida Navoiy davrida ham “navro‘z” termini faol bo‘lganligini bilishimiz mumkin. O‘sha davrda ham mazkur so‘z aynan o‘z ma’nosida qo‘llangan. Navro‘z – quyosh yili hisobida yangi yil; bahor faslining birinchi kuni [4, 387].

Mustabid tuzum davrida bu bayramga eskilik sarqiti sifatida qaraldi, uni nishonlashga ta’qiq qo‘yildi. Aslida, bu bejiz emas edi. Insoniylik, mehr-muhabbat, oqibat, poklanish kabi ezgu g‘oyalarni tarannum etuvchi bayram har qanday qaram xalqni ozodlikka undashi, turkiy xalqlarni birlashtirishi mumkin edi. Bu esa sovet g‘oyalariga putur yetkazishi kunday ravshan edi. Shu sababli Navro‘zga nisbatan kuchli qarshilik mavjud edi.

Hali mustaqillikka erishmay, 1990-yilda yurtimizda uzoq yillik ta’qiqdan so‘ng ilk bor Navro‘z bayrami keng nishonlandi. Bu mustaqillikka tashna xalqning

istiqlol epkinlarini his qilishi, bu yo‘lda jipslashishi yo‘lidagi muhim qadam edi. Shukurlar bo‘lsinki, Navro‘z bayrami qadriyat sifatida hozirgi kunga qadar muntazam Respublika miqyosida keng nishonlanib kelmoqda. Biz Navro‘zni nishonlash asnosida o‘zligimizga qaytdik, milliy an’ana va qadriyatlarimiz qayta tiklandi, xalqning milliy qiyofasi qayta bo‘y ko‘rsatdi.

Navro‘z shunchaki oddiy bir bayram emas. U Sharq xalqlarining ezgulik, insonparvarlik, adolat, tinchliksevarlik, bunyodkorlik kabi ezgu g‘oyalari, ularning qadimiy va boy ma’naviyati in’ikosidir. Tevarak-atrofni hashar yo‘li bilan tozalash, yangi ko‘chat va gullar ekish, urishganlarning yarashishi, bemor, keksa yoshdagilar, ota-ona, yaqin qarindoshlarning holidan xabar olish, qabristonlarni obod qilish va o‘tganlarni xotirlash, birgalikda bayram sayillari tashkil etish, turli Navro‘z taomlarini bilan dasturxonni to‘ldirish va boshqalarga ham ulashish – bularning barchasi ezgulik va jipslik ramzidir. Navro‘z – dono xalqning kuchli falsafasi ramzidir. Shu sababli ham u shuncha to‘siqlarni yengib o‘tib, hozirgi kungacha qadimiy qadriyat sifatida o‘z qimmatini yo‘qotmadi va yo‘qotmaydi ham.

Adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Uchinchi jild. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007, 6-bet.
2. Falsafa. Qomusiy lug‘at. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, T., 2004, 292–293-betlar.
3. Alisher Navoiy. “Xazoyin ul-maoniy”, “Badoyi ul-vasat” III, T., 1960, 218-bet.
4. Alisher Navoiy asarlari izohli lug‘ati. II jild, O‘zbekiston “Fan” nashriyoti, 1983, 387-bet.

“YANGI” SO‘ZI ASOSIDA PAYDO BO‘LGAN RETRONIMLAR

Sadoqat XOLMONOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi
1-kurs tayanch doktoranti
sadoqat87@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi retronimlar, ularning til va nutqimizdagi o‘rni, ayrim retronimlarning paydo bo‘lishida “yangi” so‘zining ahamiyati, neologizm bilan munosabati haqida so‘z boradi. Retronim tushunchasining paydo bo‘lishi va tarqalishi, ommaviy axborot vositalarida chop etilayotgan maqolalarda retronim birliklardan foydalanish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: retronimlar, neologizmlar, atamalar, toponimlar, yangi, eski.

Аннотация. В данной статье рассматриваются ретронимы в узбекском языке, их место в нашем языке и речи, значение слова «новый» в появлении некоторых ретронимов, их соотношение с неологизмами. Возникновение и распространение понятия ретроним, использование ретронимных единиц в статьях СМИ.

Ключевые слова: ретронимы, неологизмы, термины, топонимы, новые, старые.

Annotation. This article discusses retronyms in the Uzbek language, their place in our language and speech, the meaning of the word "new" in the appearance of some retronyms, their relationship with neologisms. The emergence and spread of the concept of retronym, the use of retronym units in media articles.

Key words: retronyms, neologisms, terms, toponyms, new, old.

Har bir tilning lug‘at boyligi uzoq davom etgan tarixiy jarayonda tarkib topadi va rivojlanib boradi. Tilni xalqdan va jamiyatdan ayri holda tasavvur qilish va o‘rganish mumkin emas. Ma’lum bir tilni tashkil etgan so‘zlarda jamiyat hayotining butun jihatlari va xususiyatlari to‘g‘ridan to‘g‘ri aks etadi. Jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlar, rivojlanishlar natijasida tilning lug‘at boyligida ham turli yangi tushunchalar paydo bo‘lib boradi yoki ayrimlari muomaladan chiqib ketadi. “Har bir milliy tilda so‘z va tushunchalarning hammaga ma’lum bo‘lgan, cheklangan muayyan zahirasi bo‘ladi. Ularsiz qayerda yashashidan, madaniyati, texnikasi, iqtisodiyoti qanday bo‘lishidan qat’i nazar jamiyatning birorta a’zosi ham o‘z fikrini bildira olmagan bo‘lardi.

Til o‘z tarixi davomida butunlay o‘zgarib ketishi, boyishi va maxsus leksikasini yo‘qotib, qashshoqlashishi mumkin, ammo u hech qachon asosiy jamg‘armani boy bermaydi. Uni yo‘qotish tanazzul bilan teng bo‘lar edi” [1, 16-bet].

Jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar natijasida tilning lug‘at boyligida ham yangi tushunchalar paydo bo‘la boshlar ekan, ularga doim ham yangi nom berilavermaydi. Ya’ni texnologiyadagi rivojlanishlar, ilmiy yutuqlar va boshqa

turli holatlarda paydo bo‘lgan tushunchalar shu kungacha mavjud so‘zdan ajratiladi va buning natijasida tilda retronimlar paydo bo‘ladi.

“Retronim” atamasini ilk bor 1980-yil o‘sha vaqtdagi AQSH Milliy jamoat radiosining prezidenti Frank Mankiyevich ishlatgan. Ushbu atamaning ommalashishiga esa “Nyu-York tayms” gazetasining muxbiri Vilyam Safire sababchi bo‘lgan. U 1992-yil gazetaning “Til tog‘risida” ruknida “elektron pochta” atamasi paydo bo‘lganidan so‘ng odatiy pochta nima deb nomlana boshlaganiga qiziqqan va shundan so‘ng “retronim” atamasi keng ishlatila boshlangan.

Retronim – mavjud so‘zning asl shaklini taraqqiyot yoki texnologik rivojlanish mahsuli bo‘lgan keyingi shaklidan faqrlash uchun paydo bo‘lgan yangi nomdir. Masalan, XX asrning 20-yillarida paydo bo‘lgan “ovozli kino”lar “ovozsiz kino”ning iste’moldan chiqib ketishiga sabab bo‘lgan. “Ovozli kino” tushunchasi paydo bo‘lgunga qadar “ovozsiz kino” tushunchasi ham bo‘lmagan. Birining paydo bo‘lishi ikkinchi atamaning ham nutqqa kirishiga va tezda u tushunchaning tarixga aylanishiga ta’sir ko‘rsatgan.

Hozirgi kunda deyarli barcha insonlar foydalanadigan uyali telefon apparatlarining paydo bo‘lishi esa “uy telefoni”, “shahar telefoni” kabi retronimlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Tez sur’atda rivojlangan uyali telefonlar qolgan telefonlar va ularning nomini hayotimiz va nutqimizdan chiqarib ham yubormoqda.

Retronimlarning paydo bo‘lishida faol ishtirok etadigan so‘zlardan biri bu “yangi” (inglizcha “new”, ruscha “новый”) so‘zi hisoblanadi. Bu so‘z natijasida turli tillarda, shu jumladan o‘zbek tilida ham, retronimik munosabatlar ko‘p yuzaga kelgan. Masalan,

Toponimlarda:

Dehli – New Dehli

York – New York

Orleans – New Orleans

O‘zbekiston – Yangi O‘zbekiston

Geografik hududlarda:

Eski dunyo (Old World) – Yangi dunyo (New World)

Eski shahar – Yangi shahar.

Yuqoridagi juftliklarning har birida “yangi” so‘zi avvalgi so‘zning retronimga aylanishiga yoki “eski” so‘zi bilan bog‘liq retronimning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

“Yangi dunyo” so‘zining ishlatilishi natijasida “Eski dunyo” retronimining paydo bo‘lish tarixiga bir nazar solsak.

“Eski dunyo” atamasi G‘arbda Osiyo, Yevropa va Afrikaga nisbatan qo‘llanadi. Ya’ni Amerika kashf etilguncha mavjud bo‘lgan dunyo shu atama bilan yuritiladi. “Eski dunyo” retronimining paydo bo‘lishiga sabab Ameriko Vespuchchining 1503-yil do‘stiga yozgan maktubida keltirilgan “Yangi dunyo” atamasidir. U o‘zi borgan joyning Xristofor Kolumb ta’kidlaganidek, Osiyoning bir qismi emasligini, butunlay boshqa yangi dunyo ekanligini aytib o‘tgan. Shundan so‘ng Amerika qit’asiga nisbatan “Yangi dunyo”, qolgan joylarga nisbatan “Eski dunyo” atamasi ishlatila boshlangan.

Bu retronimik munosabat faqat joyga nisbatan emas, shu ikki joyni farqlovchi turli tushunchalarga nisbatan ham ishlatila boshlandi. Bu atamalar dunyodagi ikki ekozonalarni farqlashda ham bizga qo‘l kelmoqda. Biologiyada bu atamalardan ikki dunyodan kelib chiqqan hayvon va o‘simliklarni farqlashda foydalaniladi. Biologlar faqat Amerikada topilgan barcha turlarni Yangi dunyo atamasi bilan bog‘laydilar. Masalan, Yangi dunyo tulporlari, Yangi dunyo maymunlari kabi. Hayvonlarning Eski dunyo turlari esa Osiyo, Afrika va Yevropaga xosdir.

Qishloq xo‘jaligi sohasida ham bu ikki dunyo atamalari farqlovchi xususiyatga ega. “Eski dunyo” deb nomlangan Osiyo, Afrika va Yevropa qit’alari uchun umumiy o‘simliklar mavjud bo‘lsa, “Yangi dunyo” o‘simliklari ulardan farq qiladi. Bug‘doy, javdar, arpa, suli kabi ekinlar Eski dunyoda o‘stirilgan, Yangi dunyoning o‘simliklariga esa kakao, tamaki, qahva, kauchuk kabilar kiradi. Papaya, ananas, guava kabi mevalar ham Eski dunyoga Yangi dunyodan kirib kelgan.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bitta atamaning paydo bo‘lishi natijasida retronim yuzaga kelishi turli sohalardagi atamalarni farqlashda bizga qo‘l kelmoqda.

Yurtimizda Toshkent shahrining qismlariga nisbatan ishlatiladigan atamalarga bir nazar solsak: “Eski shahar” va “Yangi shahar”.

Ma’lumki, Chor Rossiyasi bosqinigacha bo‘lgan davrda Toshkent qismlarga ajratilmagan, umumiy bitta shahar bo‘lgan. Shaharning ruslar tomonidan qurilgan qismi Yangi shahar deb atala boshlangandan keyin, xalq avvaldan yashaydigan mavjud qismi Eski shahar nomi bilan yuritila boshlandi. Shaharga nisbatan “yangi” so‘zining ishlatilishi uning retronimi hisoblangan “eski” so‘zini ham muomalaga kiritdi.

“Toshkent” ensiklopediyasida berilgan quyidagi ma’lumot orqali Yangi va Eski shahar atamalari va ularning geografik o‘rni haqida tasavvur hosil qilish mumkin:

“Yangi shahar – Toshkentning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan (1865)dan keyin vujudga kelgan, yevropacha uslubda qurilgan janubiy-sharqiy qismi, Eski shahardan anhor kanali bilan chegaralangan mustaqil aholi manzili sifatida barpo etilgan. Yangi shahar qurilishi tarixan shakllangan Eski shaharni hisobga olmay, harbiy istehkom tipidagi inshootlar qurishdan boshlangan. 1865-yil shaharning Qo‘ymas darvozasi ro‘parasidagi tepalikda rus askarlari uchun harbiy istehkom – Toshkent tuproqqo‘rg‘oni qurildi. Tuproqqo‘rg‘on orqasida garnizon kazarmalari solindi. Keyinchalik Anhor kanali chap sohili bo‘ylab O‘rda bilan Tuproqqo‘rg‘onni bog‘laydigan yo‘l qurilgan; bu yo‘l Yangi shaharning birinchi ko‘chasi bo‘lib, Chenyayev ko‘chasi deb atalgan (hozirgi Mustaqillik maydonidan o‘tgan).

…Yangi shaharda sanoat korxonalari, vino, yog‘-moy zavodlari, temir yo‘l ustaxonalari ochildi; uning markaziy qismida banklar, savdo uylari, mehmonxonalar, restoranlar qurildi. Oktabr to‘ntarishiga qadar bajarilgan shahar obodonchiligiga doir ishlardan eng yirigi ko‘nka va tramvay qurilishi bo‘ldi. Yangi shaharda o‘rta o‘quv yurtlaridan gimnaziya, real bilim yurti, kadetlar korpusi, kommersiya bilim yurti, shuningdek, 30 quyi o‘quv yurtlari bo‘lgan. 1870-yil Turkiston ommaviy kutubxonasi (hozirda Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi) ochildi.

…1917-yildan Yangi shahar va Eski shahar rasmiy ma’muriy birliklar hisoblangan. 1939-yil birinchi marta Yangi shahar va Eski shaharning barcha qismlarini yagona shaharga birlashtirish ko‘zda tutilgan Toshkentni rekonstruksiya qilish Bosh plani loyihasi tasdiqlandi” [4].

Ushbu matnda ma’lum bo‘lishicha, Yangi shahar va Eski shahar atamalarining paydo bo‘lishi nafaqat geografik bo‘linishlarga, shuningdek, harbiy, sanoat, madaniy-ma’rifiy sohalardagi bo‘linishlarga ham sabab bo‘ldi. Ruslarning mustamlaka siyosati natijasida Toshkentning qadimdan mavjud qismi, ya’ni Eski shahar, ruslar natijasida paydo bo‘lgan qism, Yangi shahardan rivojanish bo‘yicha ancha ortda qoldi. Hozirgi kunda Yangi shahar va Eski shahar atamalari geografik nom sifatida emas, xalq tilidagi farqlovchi atama sifatida saqlanib qolgan.

Hayotimizda sodir bo‘layotgan voqealar natijasida turli neologizmlar va ular bilan birga retronimlar ham paydo bo‘lmoqda.

“Dunyo miqyosida katta xavotirga sabab bo‘lgan Covid-19 pandemiya hodisasi ham milliy tillardagi retronimlar fondini kengaytirmoqda. “*Yangi koronavirusning 100 million nusxasi o‘tkir tig‘li ignaga bemalol joy bo‘ladi*”. (Gazetadan) Bu matndagi “yangi koronavirus” termini aslida “koronavirus”ga nisbatan retronim hisoblanadi. Biroq hanuz retronim darajasida muayyanlashib ulgurmagani bois “Yangi paydo bo‘lgan koronavirus” tarzida tushunilmoqda. Ya’ni “yangi koronavirus” termini hanuz neologik qatlamga mansubligini saqlab qolmoqda” [3].

Bundan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, “yangi koronavirus” atamasi keng tarqalmadi va umumxalq tilida ishlatiladigan so‘zga aylana olmadi.

“Yangi” so‘zi bilan bog‘liq retronimlar haqida so‘z borar ekan, hozirgi paytda eng ko‘p duch kelayotgan so‘zimiz “Yangi O‘zbekiston” tushunchasiga e’tiborimizni qaratsak. So‘nggi besh yildagi demokratik o‘zgarishlar natijasida yurtimiz rivojlanishini tubdan o‘zgartirib yuboradigan islohotlar davri “Yangi O‘zbekiston” birligining nutqimizga kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Bu termin tez sur’atlarda hayotimizning bir bo‘lagiga aylanib ulgurdi. U bilan bog‘liq turli nomlar paydo bo‘ldi: “Yangi O‘zbekiston” bog‘i, “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, “Yangi O‘zbekiston” universiteti kabi. Bu atama sababli “O‘zbekiston” so‘zi retronimga aylanib qoldi. Jamiyatda bo‘layotgan turli o‘zgarishlar ham shu ikki tushunchaga nisbatan tilimizga singmoqda.

“Yangi O‘zbekiston” atamasining mohiyati haqida Yurtboshimizning fikrlarini keltirib o‘tsak:

“Darvoqe, “yangi” degan so‘zning biz uchun alohida ahamiyati bor. Masalan, eng ko‘hna bayramlarimizdan biri Navro‘z – Yangi kun deb atalishini esga olaylik. Ushbu qadimiy bayram bilan bog‘liq qadriyat va an’analar hayotimizga shu qadar singib ketganki, xalqimiz asrlar davomida, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy aytganlaridek, “Har tuning qadr o‘lubon, har kuning bo‘lsin Navro‘z!” degan ezgu tilaklar, pok niyatlar bilan yashab keladi.

Yoki o‘tgan asrning boshlarida yurtparvar, millatparvar bobolarimiz “jadidchilik”, ya’ni yangilanish va erkinlik, adolat va tenglik, ilm-ma’rifat va milliy o‘zlikni anglash g‘oyalarini bayroq qilib, kurash maydoniga mardona chiqqanlarini barchamiz yaxshi bilamiz. Bu ulug‘ zotlarning maqsadi – jaholat va qoloqlik girdobida qolib ketayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg‘or kasb-hunarlar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo‘liga olib chiqishdan iborat edi.

…Shu ma’noda bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida ana shunday ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg‘onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmaymiz.

…Yangi O‘zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume’tirof etilgan norma va prinsiplarga qat’iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do‘stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat davlatdir” [5].

Yurtimizda sodir bo‘layotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishlar va demokratik o‘zgarishlar natijasida keng imkoniyatlar mamlakatiga aylanayotgan O‘zbekistonning “Yangi O‘zbekiston” deb atalishi va bu nomga mos tarzda ilgarilab borayotgani nafaqat lug‘at boyligimizga, shuningdek, insonlarning dunyoqarashiga, fikrlashiga, kelajak haqida dadil ishonch bilan gapira olishiga sabab bo‘lmoqda.

Tez sur’atda rivojlanayotgan zamon, texnologiyalar, ilmiy yangiliklar natijasida har doim ham yangi so‘zlar yaratilavermaydi. Tilda ma’lum vaqt davomida ishlatilgan so‘zlarni olib, ular asosida yangi tushunchalar nomlanadi va buning natijasida tildagi retronimlar miqdori oshib boradi. Hozirgi kunda retronimlar va ular bilan bog‘liq holatlarni o‘rganish, retronimlarni tasniflash, matbuot va adabiyotda ulardan foydalanishni keng tahlil qilish, retronimiyaga sabab bo‘layotgan omillarni aniqlash, retronimlarning paydo bo‘lishida neologizmlarning tutgan rolini belgilash, o‘zbek tilining retronimlar lug‘atini tuzish kabilar oldimizda muhim masala sifatida turibdi.

Adabiyotlar:

1. Abayev V. I. Osetenskiy yazik i folklor. T.I.M. –L. 1949
2. Isa Sari. Dilda yeniden adlandirma ihtiyaci: retronimler
3. Yo‘ldoshev M. O‘zbek tilida retronimlar. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2021
4. Yuldashev Marufjon, Jurayeva Gülnaze. Özbek Ceditlerinin Dilbilimle Ilgili Çalişmalari. Bildiriler kitabi. karabuk.edu.tr
5. Yuldashev M, Özkaya Y. Özbekçe Yazım Kılavuzu. Ege Üniv. Yay., 2011
6. Юлдашев М., Қўшназарова М.. Тўлепберген Қаипбергеновнинг “Қорақалпоқнома” асаридаги айрим топонимлар хусусида. Таълим Фидойилари. 2021/12. –Б. 196-202
7. “Toshkent” ensiklopediyasi, 2009-yil

8. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi
9. www.shosh.uz
10. www.thoughtco.com

O‘ZBEK LINGVOMADANIYATIDA NAVRO‘Z UMUMXALQ BAYRAMINING O‘RNI

Xonigul BEKTIMIROVA,
TDPU talabasi,
Ilmiy rahbar: Omanova Mubora,
katta o‘qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navro‘z bayrami, uning kelib chiqish tarixi, an’analar, qadriyat, mehr-oqibat, urf-odatlarimiz, milliyligimiz, madaniyatimiz bilan butun dunyo xalqlari orasida alohida o‘ringa ega ekanligimiz haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, sumalak, qadriyat, afsona, umumxalq, o‘zbek, meros, yangilanish.

Аннотация. В данной статье рассматривается история возникновения Навруза, его традиции, ценности, доброта, традиции, национальность, культура и наше особое место среди народов мира.

Ключевые слова: Навруз, сумаляк, стоимост легенда общенациональный узбек мерос обновить.

Annotation. This article discusses the history of the origin of Navruz, traditions, values, kindness, traditions, nationality, culture and our special place among the peoples of the world.

Key words: Navruz, sumalak, value, legend, public, uzbek, heritage, renew.

Vatanimiz mustaqil bo‘lgach, juda katta yutuqlarga erishdi. O‘zbekiston nafaqat mustaqilligini o‘zining urf-odatlari, milliy qadriyatlarini o‘zligini qo‘lga kiritdi. Eng boy yurt o‘zining tarixiga, milliy urf-odatlariga ega bo‘lgan yurt hisoblanadi va O‘zbekiston ham bundan mustasno emas. Vatanimizning umumbashariy qadriyatlari va milliy urf-odatlari haqida so‘z yuritar ekanmiz, eng avvalo, milliy urf-odatlar va qadriyatlarni o‘zida mujassam qilgan Navro‘z bayrami ko‘z oldimizga keladi. “Navro‘z mehr-oqibat, qadriyat bayrami bo‘lishi bilan birga milliyligimizni butun bo‘y-basti bilan ham ko‘rsatib beradi deydi”, - Respublika

Ma’naviyat va ma’rifat markazi xodimi Maxfirat Zikirova. Aslini olganda, Navro‘z bu – yangi kun demakdir. Navro‘z bu – yangilanish, yasharish, tun va kunning tenglashishidir. Navro‘z qadim asrlardan bizga meros bo‘lib kelgan bayramdir.

Muhtaram Prezindentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ham Navro‘z haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Navro‘z – chinakam xalq bayrami, milliy o‘zligimiz ko‘zgusi, ma’naviy va madaniy hayotimizning ajralmas qismidir” [2]. Navro‘z bayrami umumxalq bayrami hisoblanib, necha ming yillardan buyon keng nishonlanib kelinadi. 2010-yilda Navro‘z bayrami BMT Bosh assambleyasi tomonidan Xalqaro Navro‘z kuni sifatida belgilangan va YunESKO tomonidan nomoddiy madaniy meroslar ro‘yxatiga kiritilgan. Bilamizki, mart oyidan bahor bayramlari boshlanadi, birinchi bo‘lib 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami, undan so‘ng o‘lkamizga Navro‘z o‘zining o‘zgacha shukuhi bilan kirib keladi. Navro‘z bayramida har bir xonadon, yoshi ulug‘ insonlar, bemor kishilar ziyorat qilinadi. Ushbu ulug‘ kunda bir-biri bilan xafalashgan insonlar bir-biri bilan yarashadi. Doshqozonlarda sumalaklar pishiriladi, ko‘k somsa, halim, chuchvara, patir kabi shifobaxsh taomlar qilinadi va hamma bir-biriga ulashadi. Navro‘zda uy-joylar tozalanadi, daraxtlar oqlanadi, yaxshi niyatlar qilinadi. Har yili Navro‘z bayrami yurtimizda keng miqyosda nishonlanadi. Yoshi ulug‘ bobo-momolar boshchiligida lola sayliga chiqiladi. Saylda bahor elchisi bo‘lgan boychechakni bobo-momolar ko‘rib qolishsa, qo‘liga olib “Esonlik omonlik, hech ko‘rmaylik yomonlik, keyingi oylar, yillarga o‘ynab kulib yetaklik” deb ko‘zlariga surtib niyatlar qilishadi. Saylda turli o‘yinlar o‘ynaladi, qizlar va bolalar o‘rtasida laparlar aytishuvi, yoshi katta otaxonlar va yosh yigitlar o‘rtasida kurashlar bellashuvi, uloq, yoshlar o‘rtasida “oq terakmi ko‘k terak” kabi o‘yinlar o‘ynaladi. Har yili yurtimizning turli viloyatlarida ham bu bayram keng miqyosda nishonlanadi. Xalqimizga mehr-muruvvat, ahillik va hamjihatlik kabi ezgu fazilatlar xosdir, shunday ekan, xalqimiz nuroniy keksalarni har tomonlama e’zozlab, ko‘makka muhtoj insonlarga chin dildan yordam berish maqsadida xayriya tadbirlarini o‘tkazadilar. Har bir shahar va qishloqlardagi mahallalarda obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va umumxalq hasharlari uyushtiriladi. Shu bilan birga hunarmanchilik ko‘rgazmalari, kitob rastalari milliy buyumlar, ko‘klam, ya’ni bayramona dasturxonlar tashkil etiladi. Umumxalq sayillari o‘tkaziladigan joylar milliy bayramona bezatiladi. Folklor guruhlari badiiy havaskorlik jamoalari, sirk san’ati vakillari, oilaviy ansambllar, baxshilar, shoirlar va artistlar tashrif buyurishib, bayramda bayramona kayfiyat ulashiladi. Bu bayram umumxalq bayrami sifatida nishonlanib qolmay balki, hozirgi va kelajak yosh avlodlarga

o‘zimizning urf-odatimiz, milliy qadryatlarimizni o‘rgatish, tanitish ularning ong-u shuuriga o‘zlikni singdirish, yurtimizda millatlararo do‘stlik va totuvlik muhitini yaratish kabi ulkan maqsadlar yotadi. Navro‘z bayrami barcha ezgi niyatli insonlarni birlashtiradi va ularning qalbida go‘zal va eng oliyjanob tuyg‘ularni aks ettiradi. Buyuk Alisher Navoiy bobomiz aytganidek, “har tuning qadr o‘lubon, har kuning bo‘lsin Navro‘z”.

Yana shuni ta’kidlashimiz joizki, Navro‘z bayrami mustaqillikka erishganimizdan so‘ng millati va dini, tilidan qat’i nazar barcha yurtdoshlarimizning ardoqli bayramiga aylandi. Buyuk mutafakkir shoir Umar Hayyom Navro‘zning kelib chiqishi, sharq xalqlarining bu bayram bilan bog‘liq an’ana va marosimlarini keng yoritgan holda “Navro‘znoma” asarini yaratdi. Shuningdek, “Avesto”, Abu Rayhon Beruniyning “Al osar al boqiya an alqurun alholiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asarlarida ham Navro‘z bayramining kelib chiqishi va boshqa ma‘lumotlar keltirilgan. Hattoki “Odam Ato va Havo Momo bilan uchrashgan kun Navro‘z deb tan olingan kundir” deya atalgan afsonalar bor. Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Osar al-boqiya” asarida Navro‘z haqida shunday fikrlarni bildiradi: “Shu kuni Xudo quyi olamni yaratib, unga yaratilgan ilk odam – Qayumarsni podshoh qilgan” [1]. Ba’zi afsonalarga qaraganda esa Navro‘z Xudo maxluqotni yaratgan 6 kunning birinchisidir. Hashviyaliklar afsonalariga ko‘ra Sulaymon ibn Dovud uzugini yo‘qotib shohligi qo‘lidan ketdi. 40 kundan o‘tgandan keyingina uzugi o‘z qo‘liga qaytib keladi. Bu bilan birga unga ravnaqi, sehri ham qaytadi. Butun odamzod yig‘ilib, uni qutlab “Navro‘z muborak” – “Yangi kun keldi”, – deganlar. Va shundan boshlab bu kun Navro‘z deb ataldi. Sulaymon shamolga buyurdi, shamol uni ko‘tarib osmonga uchdi. Qarshisidan qaldirg‘och chiqib “uyamni bosib o‘tma, ichida tuxumlarim bor bor”, – dedi. Sulaymon Qaldirg‘ochga rahmi kelib uni uyasini aylanib o‘tdi. Shamol uni yerga qo‘ygach, qaldirg‘och minnatdorchilik sifatida tumshug‘ida suv keltirib unga suv sepdi hamda chigirtkaning bir oyog‘ini hadya qildi. Olimning fikricha, eronliklar Navro‘zda arg‘imchoqlar uchishgani, havoga varraklar uchirishgani, bir-birlariga shakar hadya qilishlarining sababi mana shu afsona bilan bog‘liq bo‘lishi ham mumkin. “Afsungarlar, – davom etadi Beruniy, – Navro‘z kuni tong otganda birov gap gapirishdan oldin 3 qoshiq asal yalab, uch bo‘lak xushbo‘y mum tutatsa, bu ko‘p kasalliklarga shifo bo‘ladi” [1]. Bu bizning ajdodlarimizdan bizga qolgan merosidir, biz uni asrab-avaylab, rivojlantirishimiz zarur.

Navro‘zning paydo bo‘lishi haqida shunday hikoyalar afsonalar bor ekan, Navro‘zning ham o‘z an’analaridan biri bo‘lgan sumalak haqida ham shunday hikoya va afsonalar bor. Sumalak o‘zbek xalqining milliy taomi hisoblanib, juda ham foydali dori-darmonga boy ekanligi bilan ajralib turadi. Bahor vaqti, ayniqsa, “Ilik uzildi yoki ilik qurigan payti” deyishadi yoshi ulug‘ nuroniylarimiz. Shu sabab ham sumalaklar pishirish, ularni bir-birilari bilan ulashish an’ana, urf-odat bo‘lib qolgan. “Sumalak” aslida “semalak”, ya’ni “uch farishta” deb ataladi. Bir beva ayol uchta farzandi bilan yolg‘iz va qashshoq yashar ekan. Bir kuni bolalari juda xarxasha qilibdi, chunki farzandlarining qorni juda ochgan edi. Ona bechora nima qilarini bilmay, qanday qilib ularni qornini to‘ydirishni o‘ylardi. Shunda u katta qozonni o‘choqqa qo‘yib, tagiga o‘t yoqdi va to‘ldirib suv quydi. Shu vaqtda uyning burchagida turgan qopga ko‘zi tushdi, qopni ochib qarasa, tagida bahorga ekaman deb olib qo‘ygan ozgina bug‘doyi bor edi. Ayolning boshqa iloji ham qolmagan edi va bug‘doyni ham qozonga soldi. Shu vaqtda ochlikdan xarxasha qilayotgan farzandlarini tinchlantirish uchun ularga tosh terib kelishini aytdi, bolalari tosh terib kelishdi va u toshlarni ham qozonga solib aralashtirib pishirishni boshlabdi. Qozoning atrofiga o‘tirishdi va aylantirib kavlashdi. Bolalarini qorni juda ochib ketibdi, onasiga qachon ovqat pishadi nima bu ovqat o‘zi degan savollarni bera-bera uxlab qolibdi. Ayol ham qozonni yarim tungacha kavlabdi va oxiri uxlab qolibdi. Ertalab uyg‘onib ko‘zini ochib qarasa, qozondan xushbo‘y hid taralayotgan edi va ayol undan tatib ko‘ribdi, ta’mi shu darajada mazali ediki, go‘yo bunday ta’mni hech qachon tatib ko‘rmagandek edi. Ammo ayol hayron edi, buni kim tayyorladi, axir, men uxlab qolgan edim-ku, deb. Ayol va bolalari uxlab qolganda, osmondan uchta farishta tushib bu taomni pishirishgan edi, taomga mehr, shifobaxsh masalliqalar ham qo‘shgan edi. Shuning uchun ham sumalak shifobaxsh bo‘lsa kerak. Shu tarzda “semalak” “sumalak” tarziga aylangan. Sumalakni yoshi katta onaxon va otaxonlarimiz boshchiligida tayyorlanadi. Sumalak tayyorlash jarayonida unga tosh tashlash vaqtida hamma orzu-niyatlarini aytib, tilak bildirishadi.

Umuman olganda, bu bayram mehr-muhabbat, sahovat, milliylikni, qadriyatlarni o‘zida mujassam qilgan. Milliyligimiz bo‘lgan bu Navro‘z bayrami haqida butun dunyoga baralla faxr, g‘urur bilan gapiraman. Butun dunyoga Navro‘zim haqida o‘zimning she’ralarimni baralla o‘qib eshittiraman va bu men uchun sharaf.

Navro‘zing muborak, O‘zbekistonim!

Kirib kelar o‘lkamga Navro‘z,

Boshlanadi mana yangi kun.
Yoshlanadi quvonchdan bu ko‘z
Yangilanish kunidir bugun.
Qirlarda unib chiqgan qizg‘aldoq,
Gulchambar taqibdi boshga qizaloq.
Raqsga tushar har bitta yaproq,
Navro‘z keldi yur boraylik o‘rtoq.
Boychechaklar yerdan ko‘taribdi bosh,
Momolar oladi o‘pib ko‘zda yosh.
Zarin nurin sochadi olamga quyosh,
Navro‘z muborak barcha bugun yosh.
Sayraydi qushlar qiladi handa,
Ko‘k somsa, patirlar pishar gulxanda.
Laparlar, o‘yinlar qilinmas kanda,
Bugun Navro‘z kirib kelganda.
Qutlug‘ bo‘lsin Navro‘zing yurtim,
Sharafingga mana she’r bitdim.
Men seni qanchalar orziqib kutdim,
Navro‘z senga shukurkim, yetdim.
Boshlanadi yangi kun, yangi bir hayot,
Gullab yashnayabdi mening bo‘stonim.
Ulug‘ kunda ajdodlarim etaman, men yod,
Navro‘zing muborak, O‘zbekistonim!

Adabiyotlar:

1. Abu Rayhon Beruniy. Al osar al-boqiya an al-qurun al-xoliY.
2. “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati.
3. **Internet sayt:** Xabar .uz

QADIM MADANIYATNING IZLARI: JEYNOV ARABLARINING TILI VA MADANIYATI

Sirojiddin SHOMURODOV,
O‘zDSMI Xalq ijodiyoti fakulteti
Folklor va etnografiya ta’lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

Annotatsiya. YUNESKO tomonidan tuzilgan yo‘qolib borayotgan tillarning Qizil Kitobi “Red Book of Endangered Languages” dunyo tamadduni, milliy tillar, etnos va etnografik materiallar, madaniy xilma-xilliklarni saqlab qolish maqsadida tuzilgan. Mutaxassislar fikricha, O‘zbekistonda 2 ta qadimiy til yo‘qolib ketish xavfida ekan. Bittasi Qashqadaryoning ba’zi tuman va qishloqlarida yashovchi arablar va Buxoro yahudiylari va ularning tili. O‘zbekiston ko‘pmillatli bag‘rikeng o‘lka. Bu zaminda yashayotgan har bir xalq va madaniyat davlat himoyasida. Ularning yo‘q bo‘lib ketmasligi uchun Milliy madaniyat markazlari tashkil etilgan. Shu ma’noda Jaynov arablari tili va madaniyati ham davlat himoyasiga muhtoj hisoblanadi. Bugungi kunda ularning tili va madaniyatini filologik, folklor va etnografik jihatdan o‘rganilishi zarur holga kelib qolgan. Maqolada shu haqda fikr yuritiladi. Etnografik ma’lumotlarni ustozim filologiya fanlari doktori, professor M.Yuldashev tavsiyasiga ko‘ra Jaynov qishlog‘i arablaridan shaxsan yozib olganman.

Kalit so‘zlar. Yo‘qolib borayotgan tillar, O‘zbekistonda til va madaniyat masalasi, Jeynov arablari, milliy tillar, etnomadaniyat, lingvomadaniyat.

Keyingi yillarda BMT va Yunesko dunyo xalqlari diqqatini tillarning kamayib borayotganiga qaratmoqda. Tadqiqotlarga qaraganda, har 14 kunda bir til o‘lmoqda. Ya’ni ikki hafta oldin kimlardir tomonidan gaplashilgan, kimlargadir maktub yozilgan til bugun iste’molda yo‘q. Hayvonot va o‘simliklar olamida esa bu holatning yanada ayanchli ekanligi ta’kidlanadi. BMTning 2015-yil hisobotiga qaraganda, har kuni tabiatdagi 3 jonli hayvon va 3 o‘simlik turi yo‘q bo‘lib bormoqda.

Bioturlarning yo‘q bo‘lib borayotgani tabiatning qashshoqlashib ketishiga va yer sharidagi hayot sifatining tushib ketishiga sabab bo‘ladi. Chunki tabiatdagi hamma narsa bir-biri bilan bevosita bog‘liqdir. Dunyoda tillarning o‘limi hodisasiga tabiiy hol sifatida qaraydiganlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ularning nazdida tillarning ko‘pligi xalqlar orasidagi kommunikatsiyani qiyinlashtiruvchi illatdir. Hatto tillarning ko‘pligi taraqqiyot tezligiga jiddiy salbiy ta’sir qilayotgan omillardan hisoblanadi. Biroq mutaxassislar bir tilning yo‘q bo‘lishi oqibatida bir millatning, bir xalqning va bir madaniyatning yo‘q bo‘lib ketishidan ogohlantirmoqdalar. Har qaysi tilning o‘ziga xos go‘zalligi bo‘ladi. O‘sha tildagina ifoda etilishi mumkin bo‘lgan tushuncha va ifodalar bo‘ladi.

Tillarning tanazzuli omillarini tilshunos M.Yuldashev shunday izohlaydi: “Tillarning yo‘q bo‘lib ketishining tashqi va ichki omillari mavjud. Tashqi omillar deganda tildan tashqarida ro‘y bergan urushlar, qatag‘on, qirg‘in, surgun, siyosiy tazyiq va katta tabiiy ofatlar tushuniladi. Mazkur omillar natijasida muayyan bir xalq yo‘q bo‘lib ketadi. Bunda o‘sha xalq bilan birga uning tili ham yo‘q bo‘ladi. Yoki ma’lum bir xalq siyosiy istilo yohud etnik to‘qnashuvlar tufayli dunyoning turli hududlariga tarqab ketadi. Natijada ona tilining ishlatilish makoni oila va qarindosh-urug‘lar bilan chegaralanib qoladi. Bunday vaziyatda tildan foydalanuvchilar sonining kamayishi til taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur holatda tabiiy shaklda ro‘y beradigan avlodlar almashinuvi esa ona tilining tanazzulini tezlashtiradi. Ichki omil deganda, til imkoniyatlarining zamonga moslashuvini ta’minlamaslik nazarda tutiladi. Har qanday tilning o‘ziga xos so‘z yasash usullari bo‘ladi. O‘sha usullardan foydalanib tilning so‘z xazinasini muntazam kengaytirib borish orqali tilning yashovchanligi ta’minlanadi. Buning o‘rniga boshqa tillardan tayyor so‘zlarni olish tilning yaratuvchilik imkonini chegaralaydi yoki boshqacha aytganda, tilni qisirlashtirib qo‘yadi. Ona til o‘rniga “og‘a” tilning ko‘proq tashviq qilinishi, dunyoga chiqish uchun birlamchi vosita sifatida uqdirilishi ham ona tilni zaiflashtiradi. Bu esa sekin-asta ona tilning iste’moldan chiqishiga sabab bo‘ladi. Tilning takomili yoki tanazzuliga sabab bo‘ladigan iqtisodiy omillar, globallashuv, texnik-texnologik jarayonlarning haddan ziyod rivojlanishi kabi ekstralingvistik omillar ham mavjud.”

Bir tilning o‘limi bir xalqning urf-odat va an’analarining, duo va qarg‘ishlarining, tilak va orzularining, maqol va matallarining yo‘q bo‘lib ketishiga olib keladi. Bir til yo‘q bo‘ldi degani, bundan keyin farzand o‘z onasi eshitgan tilda alla eshitolmaydi degani, onasining tilida sevinolmaydi degani. Til bilan birga o‘sha til vositasida yaratilgan ma’naviy qadriyatlar ham yo‘q bo‘lib boradi. Bu ifodalab bo‘lmaydigan darajada katta fojiadir.

Tilshunos olima Mohira Holiqovaning ta’kidlashicha: “Har bir til shu tilda so‘zlashuvchi millat, etnosning bebaho boyligi, iftixori, najoti. Til millatning ma’naviyati, madaniyati, kognitiv tasavvurlari, milliy mentaliteti, o‘ziga xosligi, turmush tarzi, urf-odati, etnopsixologiyasi, fe’l-atvorini anglatadi. Folklor, hikmatli so‘zlar, maqollar, dostonlar, qo‘shiqlar, ilmiy va badiiy asarlar millatning ona tilida dunyoga keladi. Globallashuv, axborot jamiyati, texnogen taraqqiyot tillarning mavjudligiga ham jiddiy tahdid solmoqda. Forsayt-tahlillarga ko‘ra, sayyoramizda mavjud tillarning 90 %i yo‘qolib ketish arafasida turibdi. Ularga nisbatan fanda yendangered languages (yo‘qolib ketayotgan tillar) degan maxsus

atama qabul qilingan. Tilning yo‘qolishi umuminsoniy tamaddun uchun mislsiz katta yo‘qotishdir. Zero har bir til ushbu tilda so‘zlashuvchi millat, elat, etnosning madaniy merosining yaxlit bo‘lagidir.” Yurtimizda turli millat va elatlar yashaydi, bizning xalqimiz ko‘ngli ochiq, samimiy va mehmondo‘st xalq shu sababli vatanimizda turli millat egalari emin-erkin yashab kelmoqdalar. Ularga o‘z milliy madaniyatlarini hamda tilini saqlab qolish va rivojlantirishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratib berilgan.

Tillarning yo‘qolib borish xavfini Nargiza To‘xtayeva o‘ziga xos tarzda izohlashga harakat qiladi: “Ibtidoiy davr odamlari birgalikda ov qilish, boshpana qurish, xavf-xatarga qarshi turish, bir so‘z bilan aytganda, yashab qolish uchun gaplashishni o‘rganishdi. Bu - tilning birinchi vazifasi edi. Bugun tashqi va ichki xavflar umumiylik kasb eta boshladi. Iqlim o‘zgarishlari inson tassavvur eta olmaydigan fojialarni keltirib chiqarmoqda. Bitta tugma bilan dunyoni yo‘q qilish “imkoni” paydo bo‘lgan. Inson bugun ham yashab qolish muammosiga ro‘baro‘ keldi. Yana hamma bir-birini tushunish zarurati tug‘ildi. Yer yuzidagi falokatlarning ma’lum bir foizi insonlar bir-birini tushunmagani, yo bo‘lmasa, noto‘g‘ri tushungani oqibatida yuz berar ekan. Balki xuddi shu sababdan ham tillar o‘lib borar”.

Yuqorida aytilgan BMTning yo‘qolib ketish xavfi ostidagi tillar ro‘yxatida O‘zbekiston hududida qadimdan yashab kelayotgan arablar va yahudiylar tili ham kiritilgan.

O‘rta Osiyoda qadimdan yashab kelayotgan arablarning asosiy qismi Qashqadaryo viloyatining Mirishkor tumaniga qarashli Jeynov shaharchasida istiqomat qiladi. Shuningdek, Surxondaryo viloyatining ba’zi tuman va qishloqlarida ham yashaydi. Yahudiy millatiga mansub kishilarning asosiy qismi esa qadimdan O‘rta Osiyoning markaziy shaharlarida, xususan, Buxoro shahrida istiqomat qilishadi. Mazkur xalqlarning yo‘qolib ketayotgan xalqlar ro‘yxatiga kirish sabablarini yoritishdan oldin bu xavfning mohiyatiga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlashni istardim. Avlodlar almashinuvi va mahalliy aholi bilan assimilyatsiyalashuv jarayoni O‘rta Osiyo arablarining keskin kamayib ketishiga sabab bo‘layotgan bo‘lsa, mustaqillikning dastlabki yillarida Rossiya, Isroil va Amerikaga katta avlod vakillarining ko‘chib ketishi Buxoro yahudiylari tilining yo‘qolish xavfini o‘rtaga chiqarmoqda.

Ma’lumki, mamlakatimizda barcha millatlarning teng rivojlanishiga imkoniyat yaratilgan. Ularni saqlab qolish va rivojlantirish ko‘p millatli

xalqimizning mushtarak maqsadi hisoblanadi. Buning uchun turli millatlarning madaniyat markazlari tashkil etilgan.

Men ushbu maqolamda o‘ziga xos an’anasi va urf-odati bilan e’tiborga molik Jeynov arablarining ayrim urf-odatlari haqida ma’lumot bermoqchiman.

Jeynov arablari mahalliy aholi bilan juda inoq yashaydi va quda-andachilik rishtalari asosida mustahkam qarindoshliklar o‘rnatishgan. Shu sababli, ko‘pgina marosimlari, urf-odatlari deyarli bir-biriga o‘xshash va mushtarak. Ammo ba’zi udumlari sezilarli darajada ajralib turadi. Masalan, Jeynov arablarida nikoh to‘yi marosimini olishimiz mumkin. Jeynovlik arablarida to‘y nihoyatda ixcham bo‘lib, ortiqcha xarajat qilinmaydi. Qalin berish odati yo‘q, paranji yopingan kelinni ota uyidan kuyovning ammasi yoki xolasi otga mindirib olib ketadi. Kelin atrofidagilar to‘xtovsiz “yobla” naqoratli qo‘shiqni aytib borishadi.

Piyolani qizil choyi
Mani rangimga o‘xshaydi.
Ichidagi qizil suvi
Yurak qonimga o‘xshaydi.
Yobla haq do‘st
Haq do‘st yobla
Anoriy dona-dona
Topulur yori begona.
Topilmas ota-ona
Yobla haq do‘st
Haq do‘st yobla

Shu kabi misralar bilan kuyovning uyga kirib kelishadi va kelin-kuyovni uyiga kelgandan so‘ng yor-yorchi momolar arablarga xos yor-yorini aytadi.

Masalan:

Isnin sandiq vajma-vaj
Vaj ixti yor-yor
Isnin quda fat issor
Irs ixti yor-yor
Ma’nosi:
Ikki sandiq ro‘ybaro‘y
Ro‘y beradi yor-yor
Ikki quad bir bo‘lib
To‘y beradi yor-yor

Yoki xatna to‘yini olsak. Sunnat bo‘ladigan bolani ammasining uyidan maxsus sarpolar kiydirib olib chiqilishi boshqa hududlarda uchramaydigan to‘y unsurlari hisoblanadi.

Jeynov arablari zeb-ziynatga alohida ahamiyat berishadi. Masalan, bo‘yin tumorlari, zebigardon, quloq va burunga taqiladigan maxsus bezakdor ziraklari ularning o‘ziga xosligini ta’kidlab turuvchi buyumlar hisoblanadi. Arab ayollari burun devoriga, burun qanotiga, peshonasiga va bo‘yniga kumush taqinchoqlar taqishni xush ko‘rishadi.

Xapaban – Bo‘yin tagiga taqiladigan zirak.

Silsila – Boshga kiyiladigan taqinchoq.

Bu taqinchoqlar arab ayollarining qadimiy an’analariga sodiqligi va bu an’analarini hozir ham davom ettirayotganliklarini ko‘rsatadi.

Arab ayollarining an’anaviy kiyimlari ham o‘zgacha. Masalan, gizzi deb ataluvchi kiyimlari ularni boshqa aholi ichida ham oson farqlash imkonini beradi. Gizzi bosh qismidan to yelkasini pastki qismigacha kiyiladigan maxsus naqshli kiyimdir. Asosan, oq bo‘zdan turli bezak naqshlar berib tikilgan bo‘ladi. Uning ustidan buhnak deb ataluvchi matodan tikilgan aylanasi kumush tangalar va turli zargarlik buyumlari bilan bezalgan kiyim *kiyishadi*. Uning ustidan loki deyiladigan ro‘molni tashlab olishadi. Ko‘ylaklarining yenglari uzun va keng qilib tikiladi. Oyoqlariga maxsi va poshnali kovush kiyishadi.

Turmushga chiqmagan qizlari esa qizil gizzi kiyishadi va uni turli tugmalardan naqshlar hosil qilib bezaydilar. Turmushga chiqmagan qizlar burnining chap tomoniga chetnatti taqib yurishadi.

Jeynov arablarini erkaklarining milliy kiyimlari: boshida shapposh ustidan salla o‘raydi va oq matodan tikilgan ko‘ylak va lozim kiyishadi, so‘ng ustidan yaktag kiyadilar va oyoqlarida charm mahsi va etik kiyiladi. Sovuq havolarda beldan pastiga jundan qilingan jibba kiyib olishadi.

Jeynov arablarini milliy taomlari ham o‘ziga xos:

Hayvuha – atalaga o‘xshash bo‘lib, unni suv bilan qorishtirib pishiriladi.

Kochi – bug‘doyni yanchib qaynatiladi va pishgandan so‘ng qotib qolganligi bois qo‘l bilan olib yeyiladi.

Tovgi – yog‘, un, sut, qaymoq aralashtirilib tayyorlanadi.

Zap – palov, osh.

Zadun – unni qorib pichoq bilan kesgan shaklida kesib suvga qaynatiladi.

O‘moch – undan tayyorlanadigan taom.

Jeynov arablari tilida uchraydigan ba’zi so‘zlar qadimdan bugungi kungacha iste’molda ekanligi bu tilning yo‘qolish xavfining tashvishlanarli darajada emasligini ko‘rsatadi. Quyida kundalik turmushda ko‘p qo‘llaniladigan ayrim so‘zlar keltirildi:

- Xast - pichoq,
- Ibra – igna,
- Uzluk - qatim ip,
- Qoshuvg‘a - qoshiq,
- Mo‘g‘rfa – cho‘mich,
- Gird - qozon,
- Laham - go‘sht,
- Half – sut,
- Idam – qatiq,
- Ilhaf - ko‘rpa,
- Ponish – yostiq,
- Gaba – ko‘rpacha,
- Anjjur – qovun,
- Anduk – tarvuz,
- Angur - uzum,
- Basal - piyoz,
- Tufa - olma,
- Tera - tovuq,
- Anza - echki,
- Naaja - qo‘y,
- Ibir - tuya,
- Kashi – bo‘taloq,
- Vodgovi – sigir,
- Uhmor - eshshak,
- Faras - ot,
- Binte - qiz bola,
- Valtik - o‘g‘il bola
- Antaallu - beri kel,
- Salamalik - assalomu alaykum,
- So‘ - ko‘ylak,

• Muza - etik

Ko‘rinadiki, O‘zbekiston ko‘pmillatli va bag‘rikeng mamlakat. Unda barcha xalqlar o‘z madaniyatlarini va tillarini asrab-avaylagan holda rivojlantirish hamda keyingi avlodlarga yetkazish imkoni mavjud. Jeynov arablarining rang-barang madaniyati, urf-odatlari, o‘ziga xos tillari asrlar osha yurtimizning madaniyat bog‘ida gullab-yashnayveradi.

Adabiyotlar:

1. **Тўхлиева** Н. Дунё тиллари икки баравар қисқаради. “Маърифат” газетаси, 21.08.2012.
2. **Эркин Воҳидов**. Ахий, мен битдим. “Сўз латофати” китоби. Тошкент: “Ўзбекистон” 2014.
3. **Холиқова** М. Тил – тамаддун тараққиёти асоси. http://api.moiti.uz
4. **Рудик** Н. Мир в равновесии: древнейшие шумерские заклинания // Троиский вариант: журн. 2019. № 1(270). - С. 10-11.
5. **Юлдашев** М. Тилларнинг ўлими. http://myuldashev.blogspot.com/

Suratlar: Hamro Sharofovning shaxsiy fotoarxividan muallifining roziligi bilan olindi.

6. **Мозли** К. Атлас языков мира под угрозой исчезновения, Париж, Издательство Юнеско. 2010. http://www.unesco.org/languages-atlas/en/atlasmap.html

Til materiallari shaxsiy kuzatishlarimiz asosida to‘plandi.

2-shu’ba

NAVRO‘Z BAYRAMI TARONALARI

Oqilxon IBROHIMOV,
san’atshunoslik fanlari doktori,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti professori

Annotasiya. O‘zbek xalq ijodiyotida qadimiy va navqiron Navro‘z bayrami bilan bog‘liq bir qator dilrabo kuy, qo‘shiq va ashulalar yuzaga kelgan. Ajdodlardan bebaho meros qolgan bu namunalarda xalqimizning ma’naviy boyligi barobarida go‘zal bahor tarovati ham diltortar ohanglarda badiiy in’ikos etadi. Ushbu azaliy musiqiy qadriyatlar asrlar davomida bastakorlar uchun ham ilhom va ijod manbai bo‘lib kelmoqda. Shu asnoda yuzaga kelgan ko‘plab mumtoz kuy va ashula yo‘llari bugungi milliy musiqa xazinamizning muhim qismini tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: kuy, qo‘shiq, navro‘z, bahor, ijod, musiqa, ajam, dutor, xazina, bastakor.

Аннотация. В узбекском народном творчестве много задушевних мелодий и песен, связанных с древним и вечно молодым праздником Навруз. В этих образцах, доставшихся в наследство от нашых предков, наряду с духовным богатством нашего народа отразилась неповторимая красота пробуждаюшейся весны. Эти древние музикальные ценности на протяжении многих веков были источником вдохновения для творчества композиторов. Созданние таким образом многие классические мелодии и песенние образцы составляют сегодня важную часть нашего националного музикального фонда.

Ключевие слова: мелодия, песня, Навруз, весна, творчество, музыка, аджам, дутар, фонд, композитор.

Annotation. There are many sincere melodies and songs associated with the ancient and eternally young Navruz holiday in Uzbek folk art. In these samples, inherited from our ancestors, along with the spiritual wealth of our people, the unique beauty of the awakening spring was reflected. These ancient musical values have been a source of inspiration for the creativity of bastakors for many centuries. Many classical melodies and song samples created in this way form today an important part of our national musical fund.

Key words: melody, song, navruz, spring, creativity, music, ajam, dutar, fund, bastakor.

Shu kunlarda kelinchak libosiga burkana boshlagan go‘zal bahor fasli ila qalblarda ham yangilanish huzuri tuyilmoqda. Buyuk Allohning cheksiz qudrati bilan necha ming yillardan buyon har bahor chog‘i qayta yaralayotgan bu tabiat asaridan qalbi hayajonga to‘lmagan, uning ilhom bulog‘idan suv ichmagan ijodkor bo‘lmasa kerak. Zero, lola-yu gullarning ochilishi, navqiron fasl elchisi bo‘lgan

laylak, turna va qaldirg‘ochlarning jannat makon o‘lkamizga uchib kelishi, sayroqi qushlarning chamanzor ichra yoqimli xonishlari kishiga olam-olam quvonch bag‘ishlaydi.

Hayot atalmish azaliy asar chiroyidan zavqlangan iste’dodli ajdodlarimizning ma’naviy go‘zalligi “Boychechak”, “Bahor keldi”, “Binafsha”, “Chittigul”, “Laylak keldi”, “Qaldirg‘och”, “Yomg‘ir yog‘aloq” kabi qo‘shiqlarida o‘zining shoirona in’ikosini topgan. Inchunin, “Bahor keldi” xalq qo‘shig‘ida bu asar haqida shunday ta’rifni o‘qiymiz:

Bahor keldi ochildi, gullar har yonda,
Bulbullar sayrashadi, u yon- bu yonda.
Tog‘dan ko‘lga tiniq suv, tushdi shildirab,
Ko‘l ichida suv to‘la, turar miltillab...

Shodlik tuyg‘ularini yanada zavqli etgan bahor faslining ko‘rki – Navro‘z bayrami kunlari elning jozibador kuy va qo‘shiqlar tarannumi avj olgan. Shu tariqa asrlar qa’rida shakllangan azaliy musiqiy qadriyatlar ayni vaqtda kasbiy bastakorlarni ham mumtoz musiqa namunalarini ijod etishga ilhomlantirib keldi. Bu borada “O‘n ikki maqom” tizimidan o‘rin olgan “navro‘z” atamali (“Navro‘zi Arab”, “Navro‘zi Bayotiy”, “Navro‘zi Xoro”, “Navro‘zi Ajam” kabi) sho‘balar e’tiborlidir.

Uzoq o‘tmishdan buyon Shark xalklari (arab, eron, turk va b.) orasisda keng nishonlanib kelinayotgan Navro‘z bayrami kunlari an’anaviy ijro etilgan mazkur kuy-qo‘shiqlar keyinchalik (O‘rta asrlarda) maqom tizimiga sho‘balar tarzida tasnif etilishi o‘laroq ularning har biriga shu bayramning nomi nisbat berilgani haqiqatga yaqin ko‘rinadi [1, 57-59].

Bu fikrni asoslash borasida bizgacha Buxoro Shashmaqomi tarkibida kelgan “Navro‘zi Xoro”, “Navro‘zi Ajam”, “Navro‘zi Sabo” hamda va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridan “Ajam (Navro‘zi Ajam) va taronalari” katta qiziqish uyg‘otishi tabiiydir. Zero, bu namunalarning kuy negizlarida qadimiy davr musiqiy tafakkuriga oid birlamchi tuzilma (quyi oqim kuy) izlari sezilarlidir. Bu holatni bilvosita bo‘lsa-da asoslash borasida Safiuddin Urmaviyning “Kitab al-advar” risolasida shartli belgilar (harf va raqamlar) vositasida yozib olingan “Navro‘z” nomli kuy yo‘li e’tiborni o‘ziga tortadi [2, 62]. Zotan, uning quyi oqim yo‘nalishidagi kuy-ohanglarida qadimiylikka ishora etuvchi xususiyatlarni anglash mumkin. Ushbu namunaning nota tizimiga “o‘girilgan” ko‘rinishini misol sifatida keltiramiz:

Тариқа Наврўз



Nota misolidagi kuy tuzilmasi hozirda bizga ma’lum “Navro‘z” nomli maqom namunalari bilan umumiy jihatlarga ega. Bu umumiylik, jumladan, nisbatan yuqorida joylashgan tayanch pardadan quyilik sari uzviy kelgan yondosh tovushlar harakatida ko‘rinadi:

Наврўзи Хоро



Наврўзи Ажам





Ta’kidlash joizki, bahoriy manzara va Navro‘z bayrami bilan bog‘liq shodiyona tuyg‘ular ifori muxtasar nota misollari keltirilgan maqom namunalarining mazmun semantikasida ham his qilinadi. Bu hol, ayniqsa, Farg‘ona-Toshkent maqom uslubidagi “Ajam” nomli turkumli kuylarda yorqin namoyon bo‘ladi. Jumladan, ikki hissali (“zarbi qadim”ning bir ko‘rinishi bo‘lgan) doyra usuli asosidagi “Ajam I”da oddiy, lekin zavqli ohanglar bilan bezalgan kuy bayoni go‘yo ommaviy marosim ishtirokchilarining bir yo‘sindagi harakatlarini ifodalaydi:

Ажам 1



Mazkur kuy tuzilmasining Navo maqomiga xos pardalardagi rivojlanish jarayoni betakror va maftunkor zavqli onlarni hadya etadi. “Ajam I”ga bevosita ulanib kelgan taronalari (2 va 3-qismlari)da shodlik tuyg‘ulari tobora ortib, pirovardida yakuniy “Ajam IV” umumiy raqs bilan intiho topadi [4, 326-338].

Milliy cholg‘ularning kuy bezagi bo‘lgan mazkur “Ajam 1-IV” turkumi, ayniqsa, dutor cholg‘uchilari – Abdusoat Vahobov, Mahmud Yunusov, Abdurahim Hamidov kabi mahoratli sozandalar ijrosida betakror fayzu tarovat kasb etgani muxlislarga yaxshi ma’lum. Bugungi kunda esa dutorchi-sozandalardan Malika Ziyoyeva, Ilyos Arabov va Behzod Safarovlar “Ajam”ning yangi talqinlarini tinglovchilar ommasiga taqdim etib kelmoqdalar.

Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘lidagi “Navro‘zi Ajam” kuyi esa Sultonxon Hakimov va Rizqi Rajabiyning tanbur chertishlari-yu, Turg‘un Alimatovning tanburu satodagi o‘zgacha parda tebranmalari bilan xalqimizga xo‘b manzur bo‘lgan. Endilikda Abdulla Umarov va Abror Zufarovlar bu benazir ustozlar

san’atini o‘zlarining munosib ijrolari bilan davom ettirgan holda yana ko‘p sonli shogirdlariga ham singdirib kelmoqdalar. Shuningdek, mazkur kuyning ilhomi bilan ashula yo‘llari ham yuzaga kelganki, bunga Ahmadjon Shukurov (Charxiy g‘azali) va Sherali Jo‘rayev (Bobur g‘azali) xonishlari yaqqol misoldir.

Navro‘z ayyomiga oid bayramona go‘zal tuyg‘ular Buxoro Shashmaqomidan o‘rin olgan musiqiy namunalar (“Navro‘zi Xoro”, “Navro‘zi Sabo”, “Navro‘zi Ajam” va b.) mazmunida ham his qilinadi. Bu o‘rinda 6/4 o‘lchovli tantanavor (Nasr) doyra usuli ham muhim ifodaviy ahamiyat kasb etishining guvohi bo‘lamiz. Xususan, Segoh turkumida ana shu doyra usulidagi sho‘balar salmoqli nufuzga ega bo‘lib, ularning bir yo‘la uch namunasi – “Nasri Segoh” (Tarona), “Navro‘zi Xoro” (Tarona 1-III) va “Navro‘zi Ajam” (Tarona)lar o‘zaro uzviy bog‘lanib keladi. Bu jarayonda “sho‘badan-sho‘baga” tamoyili asosida ruhiy yuksalish bosqichlarining o‘ziga xos mantiqi ham kuzatiladi.

Jumladan, “Nasri Segoh” quyi pardalardan boshlanib, maqom sho‘balariga “belgilangan” tartibda bosqichli yuksalishi o‘laroq avjlarida Navo va Oraz namudlarini namoyon etadi [3, 46-50]. Navbatdagi “Navro‘zi Xoro” sho‘basining kuy-ohanglari ham shu tarzda rivojlanib, pirovardida Zebo Pari avji va Nasrulloyi namudiga erishadi [3, 55-58]. Va nihoyat, bu “Navro‘z”larning avji yanglig‘ zanjirning so‘nggi halqasida kelgan “Navro‘zi Ajam” sho‘basida qadimiy kuy manbai mohirona ijodiy ishlovlar natijasida avval-boshdanoq salobatli mumtoz holatni kasb etadi.

Bunda Hazrat Navoiyning “Hazaji musammani solim” (mafoiylun-mafoiylun-mafoiylun-mafoiylun) aruz bahrida kelgan “uzra” radifli g‘azali tantanavor doyra usuliga uyg‘un etilarkan, kuy asosi bevosita yuqori (ikkinchi oktavadagi) “do” pardasidan “turtki” olgan holda rivojlana boshlaydi [3, 63]. Bu jarayonda huzurli va davomli avj to‘lqinlari ila Nasrulloyi namudi va hayratomuz Turk avji yuzaga kelib, shu asnoda qadimiy bayram taronasi ruhiyatni zafarli yuksalishga chorlovchi mumtoz navo yanglig‘ ko‘rinish kasb etadi [3, 63-65]. Qolaversa, shu sifatlari bilan ham “Navro‘zi Ajam” sho‘basining Segoh maqomida tutgan o‘rni favqulodda muhimdir.

Alqissa, “ajam” iborasi arablardan boshqa (turk, eron va b.) xalqlar degan ma’noni anglatarkan, binobarin, bu nomda kelgan kuy va ashulalar ajdodlarimizning qadimgi davrlarda shakllangan hamda keyingi tarixiy davrlarda el-ulus bayrami tarzida uzluksiz nishonlanib kelingan Navro‘z shodiyonasi tuyg‘ularining musiqadagi tadrijiy ifodasi ekani haqida xulosaga kelamiz.

Ulug‘ ajdodlar ijodi tufayli qaror topgan va har zamon avlodlarini go‘zal nafosat olamiga oshno etib kelayotgan asriy kuy va ashulalar ayni vaqtda milliy qadriyatlarni jonli his etish bilan birga xalq xotirasi uzviyligini ta’minlash borasida ham ahamiyati, shubhasiz, beqiyos. Modomiki shunday ekan, bugungi kunda bebaho bu musiqiy meros namunalarining targ‘ibu tashviqi, Navro‘z bayrami kunlari esa yanada baralla yangramog‘i ayni muddaodir.

Adabiyotlar:

1. Rajabov, Ishoq. Maqomlar masalasiga doir. –T.: O‘zadabiynashr, 1963.– B. 300.

2. Urmaviy, Safiuddin. Kitab al-advar (arabchadan A.Nazarov tarjimasi). Qo‘lyozma, – T.: O‘zR FA San’atshunoslik instituti kutubxonasi, inv.№849. – B. 62.

3. Shashmaqom. V jild. Segoh. Yunus Rajabiy notaga olgan, F.M.Karomatov tahririda. – T.: Adabiyot va san’at nashr., 1973. – B. 216.

4. O‘zbek xalq musiqasi. I jild. Buxoro maqomlari. To‘plovchi va notaga oluvchi Yunus Rajabiy (I.A.Akbarov tahriri ostida).–T: O‘bekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti. 1955. – B. 507.

MUMTOZ SHE’RIYATDA BAHOR VASFI

Karomat MULLAXO‘JAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi
TOshdO‘TAU dosenti,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada Sharq mumtoz adabiyotida bahor vasfiga she’rlar va boshqa asarlar haqida fikr yuritilgan. Muallif bahor vasfiga bag‘ishlangan g‘azallarni, dostonlardagi muayyan boblarni Navro‘z bayrami bilan, jumladan,Navro‘z bayrami nishonlanadagan kunlarda hukmdorlarga taqdim etiladigan qasidalarning muayyan xususiyatlari bilan bog‘lab tadqiq etgan. Ushbu turkum asarlarning falsafiy mazmun-mohiyatiga ham e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: bahor, Navro‘z, g‘azal, doston, qasida, tahlil, talqin.

Аннотация. В статье рассматриваются произведения, посвященные весне в восточной классической литературе. Автором изучены газели, отдельные главы дастанов посвященные описанию весны, т.е. связанние с праздником Навруз, которые преподносятся правителям в дни празднования Навруза. Так же, уделяется особое внимание философскому содержанию данных произведений.

Ключевие слова: весна, Навруз, газел, эпос, панегерик, анализ, интерпретация.

Annotation. The article discusses the works devoted to spring in the Eastern classical literature. The author refers to the ghazals dedicated to the description of spring, separate chapters of the epic, that is, the Navruz holiday, which was presented to the rulers on the days of the Navruz holiday. Special attention is also paid to the philosophical meaning of these works.

Key words: spring, Navruz, gazelle, epic, panegyric, analysis, interpretation.

Mumtoz she’riyatimiz rangin obrazlari va betakror tashbehlari bilan jozibalidir. Bahor mavzusi, unga oid timsolu tashbehlar ushbu she’riyatning muhim masalalaridan. Bahor bu she’riyatda hamisha Hamal, Navro‘z kabi atamalar bilan yonma-yon qo‘llanilgan.

Turkiy – qadimgi o‘zbek tilidagi adabiyotimizda paydo bo‘lgan ilk g‘azal ham bahor haqida. Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida kelgan bahor haqidagi g‘azal shunday boshlanadi:

Kun hamalga kirdi ersa keldi olam Navro‘zi,
Kechdi Bahman zamharir qish qolmadi qori buzi.

“Bu kun Kun otlig‘ sulton Hut otliq qishloqdan Hamal otliq yozg‘a o‘g‘radi (jo‘nadi)...” degan so‘zlar keladiki, bu o‘rinda qishloq qishlaydigan makonni ifodalayotgan bo‘lsa, yoz – keng yaylovlardagi yangi kunlarning boshlanishiga ishora.

Navro‘z Kun otliq sulton, ya’ni Quyosh Hamal burjiga kirganida boshlanadi va bu paytda qishning Bahman oyiga mansub qor-muzlari erib bitadi.

Bahorning Navro‘z bilan bog‘liq vasflarida tirilish, quvonch, ruhiyatning ba’zan o‘zimiz ham ilg‘ab ololmaydigan parvozlari, o‘rtanishlari bor. Rabg‘uziyga

yana murojaat qiladigan bo‘lsak, bahor kelganida “Adiz ko‘k yig‘lar, yag‘ir yer kular, bulutlar yosh oqitsa, yosh o‘g‘lon onadin tug‘artek yosh yashab o‘lgan qora yerdin ko‘k, yosh o‘tlar unar”.

Mumtoz she’riyatimizda Navro‘z mavzusi juda qadimiy. Uning bir ildizi qasida janriga borib tutashadi. Aynan qasidalardagi bahor – Navro‘z vasfi inson va tabiat o‘rtasidagi mukammal uyg‘unlikni chuqurroq idrok etishimizga imkon beradi. Hayot zavqi, tiriklik - yashash, yasharish shavqi ustun ularning barchasida.

Qasidalar, odatda, hukmdorlarni va jamiyatdagi mavqei baland shaxslarni madh etishga bag‘ishlangan asarlardir. Qasidaning mamduh madhidan oldin keladigan kirish – nasib qsmi bor. Agar dastlabki qasidalarga e’tibor berilsa (ular, asosan, forsiy tilda bitilgan Farruxiy, Unsuriy, Manuchehriy kabi shoirlar ijodida uchraydi.), ulardagi nasiblarda bahor, kuz va qish fasllari vasf etilganligi kuzatiladi. Agar kuz fasliga oid vasflar kuzgi teng kunlik – Mehrjon bayrami bilan bog‘liq bo‘lsa, qish manzaralari, ayniqsa, qishning qorong‘u kechalari tasvirlangan nasiblar Sada bayrami,ya’ni Jashni Sada bilan bog‘liq. Lekin qasidalarning katta qismidagi nasiblar Navro‘zga – bahor vasfiga aloqador. Nasiblardagi ushbu vasflarning yozilishidan maqsad – qasidago‘y, ya’ni modih o‘z mamduhiga, masalan, hukmdorga she’ri – qasidasini muayyan bayram kunida taqdim etolgan. Navro‘z nasibli qasidalarning ko‘p yozilishi Navro‘z bayramining muhim bayramga aylanib ulgurganligidan dalolatdir. Yana shuni ta’kidlash ham muhimki, Sada bayrami mohiyatida ham Navro‘zga intilish bor. Chunki bu bayramda qishning sovuq kunlaridan, uzun va qorong‘u kechalarini yengish uchun olovlar yoqib o‘tkazilgan o‘yin-kulgular Bahmanning 10-kunidan (29-30 yanvarga to‘g‘ri keladi) Hamalgacha davom etadi. E’tibor berilsa, yuqorida ta’kidlaganimiz, Rabg‘uziy baytining ikkinchi misrasida ham shunga ishora bor, ya’ni: *Kechdi Bahman zamharir qish qolmadi qori buzi (Ma’muni:Bahman oyining sovuq qishi, qor va muzi qolmadi)* - deydi shoir.

Albatta, forsiy va turkiy she’riyatning zabardast vakillari ijodida ushbu mavzuga murojaat kuchli. Shoirlarning Odam atosi nomi bilan mashhur Abu Abdulloh Rudakiy (858–941)ning she’rlarida ham bahor vasfi muhim o‘rin tutadi. Jumladan,

Bahor oyi yetib kelib, qish oyin etdi yag‘mo,
Fazo yuzin qopladi chang, qonga to‘ldi dashtu sahro.

Ilk bahorning ko‘z yoshidan shoxlar oldi yuziga rang,
Hamal oyin hush hididan bo‘ldi tuproq anbaroso

misralari davr she’riyatida bahor vasfining yashash va yasharish,go‘zallik, tiriklik mohiyatiga anglash va anglatish istagi kuchliligini namoyon etadi.

“Shohnoma” muallifi Firdavsiy esa Navro‘z bayramini Jamshid nomi bilan bog‘lab tasvirlaydi.

Forsiy adabiyotda bo‘lgani kabi turkiy she’riyatda ham bahor, unga bog‘liq holda Navro‘z mavzusi muhim mavzulardan. Yor vasfi, visol quvonchlari va albatta, hijron azoblari ham bahor va unga oid timsolu tashbehlar bilan ziynatlangan. Shoirlar bahor va unga oid timsol va tashbehlarni asta-sekin ramziy ma’nolarda qo‘llay boshladilarki, bu g‘azallardagi zulma’naynlik xususiyatlarining shakllanishiga ta’sir etdi. Bahor va unga oid tasavvufiy timsollar guruhi ham paydo bo‘ldi va ular solik ruhiy olamini tasvirlashda ijodkor uchun yaxshi imkoniyatlarni vujudga keltirdi.

Lirik she’rlar bilan birga, XIV asr oxiri – XV asr boshida yashab o‘tgan shoir Haydar Xorazmiyning ma’shuq va oshiq nomlari bilan atalgan “Gul va Navro‘z” dostoni albatta ushbu mavzuning turkiy she’riyatdagi ramziy xususiyatlarini ko‘rsatadi.

Bahor vasfi Alisher Navoiygacha va undan keyin ijod qilgan shoirlarning katta qismida uchraydi. Navoiy ijodida bahor mavzusiga, umuman, yil fasllariga murojaatning izchil ekanligi diqqatga sazovordir. Shoir lirik she’rlarida, dostonlarida o‘z qahramonlari kayfiyati, ruhiy olamini ifodalashda, umuman, o‘z ijodiy niyatiga yetishda ushbu unsurlardan unumli foydalanadi. Jumladan, “Farhod va Shirin” dostonida Xoqonning o‘g‘li Farhod bilan to‘rt qasrda umrguzaronlik qilgani vrqealari hikoya qilingan 17-bobni sarlavhadan so‘ng Navoiy shunday davom ettiradi:

Hamal tahvili etkach mehri gulchehr,
Ochar yuz gul zamona ko‘rgach ul mehr.

Qilur mashshotai sun’ oshkoro,
Arusi dahrning husnig‘a oro.

Qilur tun birla zulfu kun bila eng,
Yetar lekin bo‘yi birla sochin teng.

Rutubat yetkurub har sori yog‘in,
Tar aylab qatradin gullar dimog‘in.

Ayni bahor – Hamal tasviri bu.

"Saddi Iskandariy" dostonidagi hikmatlardan birida Iskandarning Arastudan insonda nima sababdan bahor va gullarga nisbatan tabiiy mayl bo‘lishi haqidagi savoli va uning bahoriy (yangi) hikmati - javobiga bag‘ishlangan bobida shoir o‘z maqsadiga erishadi.

"Hayrat ul-abror" dostonining 17-maqolotida inson umri mazmun-mohiyatini yigitlik va keksalikka bog‘lab, ya’ni umrning yigitlik – yoshlik davrini bahorga mengzab, unga oid tushuncha va atamalar bilan taqdim etadiki, bahorga oid ushbu tashbehli tafakkur tarzi shoir ijodida va umuman, ushbu davr mumtoz adabiyotimizda mukammal darajada shakllanib ulgurganini ko‘rsatadi. Ayni paytda, mazkur dostonda o‘z fikrlarini Navro‘zga tegishli tamsil va tashbehlar orqali ifodalashga muvaffaq bo‘ladi. Jumladan:

Adolat aro fasli navro‘zdek,
Siyosatda barqi jahonso‘zdek...

Xususanki Hindustonning qishi,
Qilur xalq tab’ig‘a navro‘z ishi...

Ki, bu sur erur olamafro‘z ham,
Xususan erur fasli navro‘z ham...

Ulus chehrai olamafro‘zidin,
“Bilur yil kelishini navro‘zidin”...

Navro‘z timsol va tashbehlarini shoirning ko‘plab g‘azallarida uchratamiz. Masalan, yor sochining uzunligini uning bo‘yi bilan teng ekanligini tasvirlagan shoir unga Navro‘zda kun va tunning teng bo‘lishini qiyos qilib oladi.

Vasli aro, ko‘rdum, teng emish bo‘yiyu sochi,
Tun-kun teng ekan zohir o‘lur bo‘ldi chu navro‘z.

Yuz ochib, bildirdi qad birla sochi teng erkanin,
Zohir o‘lg‘ondek tunu kun tengligi navro‘zdin.

Albatta, ummonga qiyoslash mumkin bo‘lgan Navoiy she’riyati maxsus tadqiqotlarni talab qiladigan darajada bahor vasfiga ham boy. Uni shoirning yor vasli ishtiyoqidagi quyidagi bayt bilan tugatishni istardik:

Ko‘yungga har kun borib har dam ko‘ray dermen seni,
Menga har kun bayramu har lahza navro‘ze kerak.

Navoiydan keyin ushbu an’anani Bobur, Ogahiy, Furqat kabi shoirlar ancha izchil davom ettirdilar. Boburning bahor manzaralariga uyg‘un hayotbaxsh she’rlari, Ogahiyning “navro‘z” radifli g‘azali, Furqatning “Fasli navbahor o‘ldi...” deb boshlanuvchi g‘azali va yana ko‘plab she’rlar ijodkordan tabiatning eng go‘zal lahzalarini ilg‘ashi va ushlab qola bilishini va undan ruhning eng yuksak intilishlarini kashf etishda foydalanishini talab qilishini yana bir bor dalillaydi.

Adabiyotlar:

1. Rabg‘uziy Nosiriddin. Qisasi Rabg‘uziy.Birinchi kitob. –T.: “YOZUVCHI”, 1990.
2. Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. Yigirma tomlik. 3-tom. –Toshkent: Fan, 1988.
3. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Yigirma tomlik. 7-tom. –Toshkent: Fan, 1991.
4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Yigirma tomlik. 8-tom. –Toshkent: Fan, 1991.
5. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Yigirma tomlik. 3-tom. –Toshkent: Fan, 1993.

BOBOMEROS NAVRO‘ZIM

Soyibnazar DAVLATOV,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqola tarix chig‘iriqlaridan omon chiqqan va hozirgi kungacha yetib kelgan ko‘hna Navro‘z bayrami haqida bo‘lib, unda mazkur holat davrlar kesimida aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: yangi yil, bayram, bahor, sayllar, tengkunlik.

Yangi yil – yilning birinchi kuni bo‘lib, dunyodagi ko‘pgina xalqlarning eng muhim bayramidir. Yangi yilni kutib olish va nishonlash turli davrlarga to‘g‘ri kelgan. Masalan, bizda Navro‘z 21-mart kuni. Ovrupaliklar Yangi yilni 1-yanvarda, mo‘g‘ul va xitoyliklar Yangi yil-sagalganni fevralda nishonlar ekanlar.

Mutaxassislarning asoslangan fikrlariga ko‘ra, Quyosh ayni shu kuni hayotbaxsh nurlarini tik, ya’ni 90 daraja burchak hosil qilib, sayyoramizning qoq

beliga – ekvatorga yo‘naltiradi. Shu daqiqalarda bahorgi kecha-kunduz tenglashadi va 22-martdan boshlab Quyoshning tik yo‘nalgan nuri shimoliy tropik chizig‘i tomon harakatlanadi. Bu Navro‘zning ilk va qutlug‘ qadami bo‘lib, tabiatning jonlanishi bilan kishilarning xo‘jalik faoliyati o‘rtasida uyg‘unlik namoyon bo‘ladi. Jumladan, bobo dehqon ona erga mehr ishlov berishga kirishadi; tabiat o‘t-o‘lanlar, qir-adirlarni gilam singari yashil libosga bo‘yaydi…

Navro‘z musulmon xalqlarining taqvimida mustahkam o‘rin olgan eng sara bayramlaridan biridir. U inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni anglatadigan noyob va ijtimoiy hamda tabiiy hodisadir. Lekin ayni paytda biz kutib olayotgan, yangi yilning birinchi kuni 1-yanvar to‘g‘risida bunday fikrni aytish mumkin emas, chunki bu marosim taqvimda turg‘unsiz bo‘lgan sun’iy, ya’ni kishilarning xohish-irodasiga bog‘liq holda belgilangan sanadir.

Qadim-qadimdan xalqimiz Navro‘z arafasidan boshlaboq, rizq-ro‘zimiz manbai ona yerga alohida mehr bilan ishlov berib, urug‘ qadagan, mevali va mevasiz daraxtlar o‘tkazish marosimlari tashkil etilgan, xilma-xil tansiq taomlar, pishiriqlar tayyorlangan, turli musobaqalar, o‘yin-kulgilar, sayllar va hokazolar bo‘lib o‘tgan. Darhaqiqat, o‘z xalqiga qaytarilgan yangi yil – Navro‘z barchaga olam-olam quvonch keltirib, ma’naviy oziq beradigan taqvimdagi muhrlangan qadimiy an’anamizdir.

Navro‘z Sovet davrida O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa qismlarida ochiq nishonlanmagan. Bir necha ming yillik tarixga ega bu bayram O‘zbekistonda, ayniqsa, 1980-yillarga kelib rasman ta’qiqlangani haqida ma’lumotlar bor. Bu davrga kelib, deydi yaqin tarixni sharhlayotgan ayrim mutaxassislar, O‘zbekistonda milliylik tuyg‘usi kuchaya boshlagan. Mustaqillikdan keyin esa Navro‘z davlat miqyosida keng nishonlanadigan bayramga aylandi. Dastlab madaniy ayyom sifatida ko‘rilib, xalq sayli sifatida tantana qilingan Nazro‘z bugunga kelib ancha siyosiy-rasmiy tus olgan. Sovet davrida Navro‘zning taqiqlanishi ikki bosqichda kuzatilgan. “Avval 1920-yillarda «Xudosizlar jamiyati” ni tuzish davrida, odamlarni dindan voz kechasan, deb majburlash paytida, Navro‘z ham ta’qiqlangan bayramlar qatoriga kirgan”, – deydi tarixchi olim Fayzulla Is’hoqov. 1985–86-yillarda esa Navro‘z, asosan, O‘zbekistonda “xavfli an’ana” sifatida ko‘rilgan. Qayta qurish davrida kechgan bu ta’qiblar milliy uyg‘onish davrini boshdan kechirayotgan o‘zbek ziyolilari o‘rtasida keng muhokama qilingan. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra shu yillarda O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Navro‘zni “Baxt va Bahor” bayrami deb

o‘zgartirish tashabbusi bilan chiqqan. “O‘zbekiston Markaziy qo‘mitasining ideologiya bo‘yicha kotibasi Ra’no Abdullayeva edi. U qo‘mita plenumida Navro‘zni diniy bayram deb tanqid qilgan. Abdulla Oripov esa bu baxt va bahor bayrami degan. Keyin men “Marhabo, Navro‘zi olam” degan qo‘shig‘imni aytib chiqqan edim”. 1980–90-yillardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ishtirokchisi bo‘lgan o‘zbek ziyolilaridan biri Hayitboy Abdullayev fikricha, Navro‘zni ta’qiqlash o‘zbek kommunistlari tashabbusi edi. «Bu faqat O‘zbekiston kompartiyasining qarori bilan taqiqlangan. Chunki qo‘shni Tojikiston va Qozog‘istonda Navro‘z bayram qilinayotgan edi“, – deydi u. Fayzulla Is’hoqov fikricha esa Navro‘zni cheklash, asosan, Moskva buyrug‘i bilan amalga oshirilgan. “1986-yili shunday qaror qabul qilingan. Hozir ko‘plar buning uchun Ra’no Abdullayevani ayblashadi. Lekin aslida, bu Moskva tomonidan boshqarilgan. Bu ayolning aybi shuki, u bu tazyiqlarga qarshilik qila olmagan”, – deydi tarixchi olim.

“Ikkinchi Jahon Urushidan keyingi yillarda Navro‘zni “Qozon to‘ldi” deb ham atashgan. O‘troq turkiylar bu bayramda yetti xil ovqat qilishgan. Uni yangi yil sifatida kutishgan. Keyingi yilgacha qozonimiz to‘lib tursin degan ma’noda. Ayrim joylarda lola bayrami sifatida nishonlangan”, – deydi Hayitboy Abdullayev [1].

Navro‘z mustaqillikdan keyingi yillarda 1991-yildan keyin Navro‘z umumxalq bayrami darajasiga ko‘tarildi.

Bayram bugun katta tayyorgarlik bilan qarshilanadi. O‘zbekiston Prezidenti har yili xalqni Navro‘z bilan rasman tabriklaydi.

Hayitboy Abdullayev fikricha esa Navro‘z to‘qchilik, to‘kin-sochinlik bayramidir. Xalq moliyaviy yetishmovchilikdan qiynalar ekan, Navro‘zga nisbatan munosabat ham shunga yarasha.

“Hozir bayramni milliy ruhga singdirish uchun harakat bo‘lyapti. Masalan, avval kuzatilgan shanbaliklar, hasharlar tiklanayapti. Bu ham ehtimol pokizalikni saqlash uchun foydalidir. Lekin 4-5 ming kishiga osh berish bilan ish bitmaydi. To‘qlik zamon bo‘lsa, har bir kishi Navro‘zni o‘z xonadonida bayram qiladi”, – deydi Hayitboy Abdullayev.

Adabiyotshunos olim Naim Karimov nazarida tarix chig‘iriqlaridan qat’iy nazar, Navro‘z ruhi xalqni tark etmagan [2].

“Navroz bayrami tiklangach bildikki, u bilan bog‘liq qancha udumlarimiz bor ekan. Qancha qo‘shiqlar, qancha taomlar bor ekan. Hatto birgalikda jo‘r bo‘lib,

aytiladigan qo‘shiqlarimiz bor ekan. Qabristonga borish, o‘tganlarni xotirlash kabi udumlari bor ekan”, – deydi u.

Navro‘z, ayrim dindorlar nazarida, islomga xos bayram emas. Shariatga to‘g‘ri kelmaydi, deydi ular.

Bu munozaralar O‘zbekistonda ochiq muhokama qilinmasa-da, ijtimoiy tarixdan xabarbor insonlar yuqoridagi talqinni tamonan rad etadi.

“Qadim zamonlarda Navro‘z ehtimol boshqa bir diniy tarixga ega bo‘lgandir. Lekin vaqt o‘tishi bilan Navro‘z milliy an’anaga aylandi. Navro‘z kuni quyosh bir kundan ikkinchi kunga o‘tadi. Burj tahlil qilinadi. Islom dunyosi bu haqiqatni tan oladi. Shariatda bunga qarshilik yo‘q. Aksincha, hamisha hurmat qilib kelingan. Afsuski, mutaassib, fikr doirasi tor diniy oqimlar nafaqat Navro‘zni, balki boshqa an’analarni ham inkor etishi etishi mumkin”, – deydi islomshunos olimlardan biri.

Adabiyotsunos Naim Karimov deydiki, Navro‘z xalq hayotida, qolaversa, o‘zbek madaniyati va adabiyotida yangilanish timsoli sifatida o‘rin egallab bo‘lgan.

Adabiyotlar:

1. https://uz.m.wikipedia.org
2. https://www.amerikaovozi.com
3. “Falsafa” qomusiy lug‘at. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, T.,- 2004, 292-293-betlar.

NAVRO‘Z TARIXI

Dilnoza Jumayeva
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
mudiri, filiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD),
O‘tkur ISLAMOV
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola milliy bayramimiz Navro‘z tarixiga bag‘ishlanadi. O‘rta Osiyo xalqlarida ushbu bayram bahorda keng nishonlanadi. Tarixda Navro‘zni tarixi uzoq tarixga ega.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, tarix, afsona, lingvistik, bug‘doy, jo‘xori, suv, olov, Sumalak.

Аннотация. Эта статья посвящена истории нашего национального праздника Навруз. Этот праздник широко отмечается в Средней Азии весной. История Навруза имеет давнюю историю.

Ключевые слова: Навруз, история, легенда, языкознание, пшеница, кукуруза, вода, огонь, Сумалак.

Annotation. This article is dedicated to the history of our national holiday Navruz. This holiday is widely celebrated in Central Asia in the spring. The history of Navruz has a long history.

Key words: Navruz, history, legend, linguistics, wheat, corn, water, fire, Sumalak.

Navro‘z qadimiyligi, keng geografik qamrovi va uni nishonlash vaqtidagi turli davrlari sababli, nomoddiy madaniy merosning xilma-xil xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. U “Navro‘zi Jamshid”ini anglatgan Eronning afsonaviy shohi Jamshid va shu kabi afsonalarga asoslangan ko‘pgina madaniy shakl va tasvirlardan tashkil topgan.

Shunga o‘xshash afsona hind mifologiyasida ham mavjuddir, bundan tashqari “Bo‘zqurt” nomli turk afsonasida, “Amoo Novrouz” Eron afsonasida, Afg‘oniston va O‘rta Osiyo mamlakatlari afsonalarida Nanex Novrouz Amoo Novrouzni kutadi, lekin yangi yil kirib kelganida uxlab qoladi. Amoo Novrouz u uxlab yotganida kelib ketadi. Bu voqea har yili takrorlanaveradi. Bu afsonalar eskirgandek tuyulsa ham, ular bugungi kunda madaniyatimizda uchrab turadi. Ertaklar, epik she’rlar, “Navro‘z she’rlari” deb nomlanadigan mumtoz she’rlar bilan birga, bugungi kunda Navro‘z marosimidan oldin va keyin kitob, jurnal, internetda chop etilgan shoirlar va radio, televidenieda yangraydigan musiqa: qadimgi va mumtoz Eron musiqasida maxsus kuylar va qo‘shiqlar mavjud bo‘lib, ular “Naz-e Novrouz”, “Yaad-e Novrouz”, “Novrouz-e Xordak”, “Novrouz-e Xara”, “Novrouz-e Saba” deb nomlanadi. Usmonli turk imperiyasida ham shunga o‘xshash kuy va musiqalar yangragan. Navro‘zlarda bu marosimga aloqador ko‘pgina kuy va musiqalar mavjud. “Navro‘z”, “Muborakbod”, “Shoxmoylar”, “Sumalak”, “Boychechak”, “Binafsha” kabi folklor ashulalari O‘zbekistonda

bugungi kunda ham mashhur. Hozirda mahalliy, milliy va hatto millatlararo konsertlarda kuylanadigan Navroʻz kuy va qoʻshiqlari mavjud. Bundan tashqari “Mulla Mamajon” afgʻon qoʻshigʻi juda mashhur boʻlib, Mozori Sharifda, Eron, Tojikistonda ham kuylanadi.

Barcha Navroʻzlarda mahalliy va an’anaviy raqslar mavjud boʻlib, ular etnik guruhlar tomonidan ijro etiladi, Ozarbayjon va oʻzbek raqslari kerakli maromda ijro etiladi va madaniy hamda lingvistik koʻrinish maxsus folklor koʻrinishlariga uygʻunlashgan. Bular orasida “Xan Bazi” va “Kusex Galin” Eronda, “Kusa Kusa Xani” Ozarbayjon va Turkiyada hamda “Bahor Xoni”, “Navroʻz bobo”, “Dehqon bobo”, “Nasriddin” Oʻzbekistonda, “Aspak bozi” (masxaraboz), “Laklak bozi” Qirgʻizistonda, lingvistik, qoʻchqorlar, xoʻrozlar jangi va boshqalar. Tajriba, bilim va hunar, shuningdek, uy jihozlarini yangilash, bolalar uchun oʻyinchoqlar yasash, qimmatli tosh va metallardan yasalgan zargarlik buyumlari, ayniqsa yosh kelin-kuyov uchun bezak mahsulotlari bayram nishonlashning turli bosqichlarida qoʻllaniladi. Umuman olganda, bayram marosimlarida ushbu odatlar umumiy qimmatga va boy madaniy xilma- xillik koʻrinishidagi oʻziga xoslikka ega (1).

Sanalarni belgilash asosan, qadimiy astronomik ta’limot asosida hisoblanadi. Oʻrta asrlarda yilnoma asosan Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshgʻariy va Umar Xayyom kabi mashhur olimlar tomonidan tasdiqlangan va toʻgʻrilangan.

Har bir oila va jamiyatda nishonlanadigan koʻpgina marosim, an’ana va madaniy hodisalar mavjud. Bayramning eng muhim vazifalaridan biri bu ommaviy yigʻinlar boʻlib, u yerda madaniy almashinuv va tadbirlar marosimlarga qoʻshib oʻtkaziladi. Suv va olov bilan bogʻliq maxsus ommaviy marosimlar bunga misol boʻla oladi.

Masalan, Eronda aholi “Charshanbeh Suri” yoki “Charshanbeh-e Otash” deb nomlanadigan yilning soʻnggi chorshanba kuni, buloq yoki olov ustidan sakrashadi. Ozarbayjonda ketma-ket keladigan yilning soʻnggi toʻrt chorshanbasi mashhur boʻlib, ular “Charshanbeh Ob (suv)”, “Charshanbeh Bod (shamol)”, “Charshanbeh Xok (er)” va “Charshanbeh Otash (olov)” deb nomlanadi, bu paytda odamlar olov atrofida yurib, an’anaviy qoʻshiqlar aytadilar va yoxud olov yoki suv atrofida raqsga tushadilar (2).

Kurd va zardoʻshtlar, Turkiya va Oʻrta Osiyo mamlakatlari xalqlari orasida Navroʻz arafasida olov bilan bogʻliq marosimlar mavjud. Masalan, Qirgʻiziston Respublikasida odamlar qarzlarini toʻlaydilar, uylarini yigʻishtiradilar, qoʻshnilari

bilan urishib qolgan bo‘lsa yarashib, ularni kechiradilar. To‘kin-sochinlik, hosildorlik va yomg‘ir timsoli sifatida barcha idishlarni sut, qatiq, bug‘doy va bahorgi suv bilan to‘ldiradilar. Qariyalar aytishlaricha, bu insonlardan turli xil kasalliklar va omadsizliklarni haydaydi.

Ko‘pgina qishloq va qabilalarda yilning so‘nggi chorshanbasi va Navro‘z arafasida uy bekalari va qizlar uylari yaqindagi chashma, buloq yoki quduqdan suv keltirishadi.

Bayramning birinchi soatlari oila-oila bo‘lib keksalarni, qo‘shnilarni, yordamga muhtoj oilalarni va nogironlarni yo‘qlash bilan boshlanadi. Mehmondorchilik chog‘ida odamlar bir-biriga sovg‘alar ulashadi, ayniqsa, yosh bolalar va kelin-kuyovlarga sovg‘a ulashish odat bo‘lgan. Bayram o‘yin va tomoshalar bilan davom etadi, Eronda mahalliy kurash, poyga, “Bandbozi” (dorda yurish), Afg‘oniston va O‘rta Osiyo mamlakatlarida chavandoz buzoq boshini eslatadigan buyumni tutishga harakat qiladigan “Buz kasha” o‘yini keng tarqalgan va bu o‘yinlar bir necha kun davom etadi. Qirg‘iziston Respublikasida o‘tkaziladigan o‘yinlar haqida alohida to‘xtalish kerak: Ot Charbish (poyga), Qiz Kumay (otda qiz ortidan quvish), Kok Noru yoki Uloq Tortish (echki tutish), Enish (ot ustida kurash), Kurash (an’anaviy kurash) va Jambu Atuu (otda kumush bo‘lakka o‘q otish) va o‘smirlar va bolalar uchun o‘tkaziladigan maxsus o‘yin “Ak Cholmok”. O‘tganlar haqiga noz-ne’matlar keltirib, ularning qabrlarida sham qo‘yishadi. Ozarbayjonda Navro‘z nishonlashning ikkinchi kuni erkaklar o‘tganlarning haqiga duo o‘qiydi va bu “Otalar kuni” deb nomlanadi. Qozog‘istonda bayram arafasida odamlar eshik oldiga ikkita yoqilgan sham olib keladi.

Ikkita asosiy va muqaddas taom mavjud bo‘lib, birinchisi Navro‘zda yoki uning arafasida tushlik, ikkinchisi Navro‘zda peshin taomi. Taom qaynatilgan guruch va sabzavot, tovuq go‘shti, bug‘doy ugrasi va baliq kabi masalliqlardan iborat bo‘lib, ular odamlar yashayotgan hududga qarab qo‘shiladi.

Qirg‘izistonda bayram tushligidan so‘ng odamlar ko‘chaga saylga chiqib bayramni nishonlaydilar. Kichik shahar va qishloqlarda qurbonlikka keltirilgan buqadan Nooruz Kedji yoki Chon Kedji (sho‘rva) tayyorlash uchun maxsus joylar tanlanadi. Bu qadimiy taom go‘sht, yog‘, guruch, no‘xat, arpa, bug‘doy, jo‘xori, suli uni, tariq, kartoshka va ziravorlardan tayyorlanadi.

Shuni ta’kidlash joizki, Qirg‘iziston Respublikasida yarim muqaddas taomlar oilaviy bayram tushliklarida tortilib, jamoaviy marosimlarda tortilmaydi.

Bayramning eng muhim nishonalaridan biri bu dasturxon bo‘lib, unga ramziy buyumlarga mos taomlar qo‘yiladi. Buyumlar tozalik, nur, tinchlik va boylikni anglatadi. “Sofrex” yoki Eronda “Sofrex-ye haft Sin” deb nomlanadigan stol, poklik belgisi suv, yorug‘lik belgisi sifatida sham yoki fonus, o‘simliklar belgisi sifatida “Sabzex” yoki “ko‘katlardan tayyorlangan taom”, Eronda “Samanu”, Qirg‘izistonda va O‘zbekistonda “Sumalak”, Turkmanistonda “Samani”, Tojikistonda “Somoluk”lardan tuziladi.

Qirg‘iziston Respublikasida Navro‘z bayramini nishonlashning asosiy an’analaridan biri bu uylarini, odamlarni va mol-mulkini tozalash uchun uylarga qora archa hidini taratish (Alastau) yoki “Adirashman” (ignabargli daraxt bilan), Eronda esa yovvoyi ruta bilan taratish odat bo‘lgan.

Bayramning asosiy elementlari musiqa, raqs, og‘zaki nutq hamda adabiyot, hunarmandchilik va rassomchilik (asosan miniatyura san’ati)dan tashkil topadi. Turli xil hunarmandlar o‘z qo‘llari bilan bezaklar, bolalar uchun o‘yinchoqlar yasab berishadi. Bu o‘yinchoqlardagi bezaklar, she’riyatdagi asosiy mazmun, musiqa va raqslardagi badiiy ma’no, rasmlardagi asosiy mazmun Navro‘z bayramida bahorni kelishi va tabiatning yangilanishini aks ettirgan. Misol uchun, Qirg‘iziston Respublikasida Akayn – ko‘cha san’atkorlarining chiqishlarida Yangi yilni olqishlash ma’nosi ko‘tarilgan. Bundan tashqari akaynlar afsonaviy voqealarni ko‘rsatib namoyishlar qo‘yishgan. Shuningdek, O‘zbekistonda ham Navro‘zni sharaflash qo‘shiqlari folklor san’atkorlar baxshi, shoir va dostonchilar repertuaridan ham joy olgan. Navro‘zga bag‘ishlangan ayrim epik afsonalar bizlarning kungacha saqlanib qolgan (Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand). An’anaviy musiqaning rivojlanishiga diniy marosim ohangi ham o‘ziga xos hissa qo‘shgan, bular Buxoroning “Shashmaqom”, “Xorazm maqomlari” va “Farg‘ona – Toshkent maqomlari” kabi cholg‘u va yakkaxon maqom siklini yaratishga asos bo‘lgan.

Mutaxassislarning asoslangan fikrlariga ko‘ra, Quyosh ayni shu kuni hayotbaxsh nurlarini tik, ya’ni 90 daraja burchak hosil qilib, sayyoramizning qoq beliga – ekvatorga yo‘naltiradi. Shu daqiqalarda bahorgi kecha-kunduz tenglashadi va 22-martdan boshlab Quyoshning tik yo‘nalgan nuri shimoliy tropik chizig‘i tomon harakatlanadi. Bu Navro‘zning ilk va qutlug‘ qadami bo‘lib, tabiatning

jonlanishi bilan kishilarning xo‘jalik faoliyati o‘rtasida uyg‘unlik namoyon bo‘ladi. Jumladan, bobo dehqon ona erga mehr ishlov berishga kirishadi; tabiat o‘t-o‘lanlar, qir-adirlarni gilam singari yashil libosga bo‘yaydi…

Navro‘z musulmon xalqlarining taqvimida mustahkam o‘rin olgan eng sara bayramlaridan biridir. U inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni anglatadigan noyob va ijtimoiy hamda tabiiy hodisadir. Lekin ayni paytda biz kutib olayotgan, yangi yilning birinchi kuni 1-yanvar to‘g‘risida bunday fikrni aytish mumkin emas, chunki bu marosim taqvimda turg‘unsiz bo‘lgan sun’iy, ya’ni kishilarning xohish-irodasiga bog‘liq holda belgilangan sanadir.

Qadim-qadimdan xalqimiz Navro‘z arafasidan boshlaboq, rizq-ro‘zimiz manbai ona yerga alohida mehr bilan ishlov berib, urug‘ qadagan, mevali va mevasiz daraxtlar o‘tkazish marosimlari tashkil etilgan, xilma-xil tansiq taomlar, pishiriqlar tayyorlangan, turli musobaqalar, o‘yin-kulgular, sayllar va hokazolar bo‘lib o‘tgan.

Adabiyotlar:

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-tom. Toshkent:Fan,1968.
2. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. 3-tom. – Toshkent: Fan, 1963.
3. Jo‘rayev M. Navro‘z bayrami. Toshkent: Fan, 2009. – B. 288.
4. Umar Hayyom. Navro‘znoma. Toshkent, 1990.

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA “SUMALAK” OBRAZINING QO‘LLANILISHI

Normurod AVAZOV,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
dotsenti, filiologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Muallif tomonidan M.Yusuf ijodida sumalak obrazining qo‘llanishi o‘rganib chiqilgan. Unda “Sumalak”, “Sumalakka almashaman men” she’rlari alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, muallif tomonidan shoirning bu ikki she’ri tahlilga tortilgan. Uning bu yo‘nalishdagi ijodi mavzuning asosiy manbasi sifatida qarab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Sumalak, Navro‘z, bahor, shuhrat, mansab, jabr, istibdod, kamalak, hayot, havas, kapalak, shoirlik.

Аннотация. Автор изучает использование образа сумаляка в творчестве М. Юсуфа. Особое внимание уделено стихотворениям «Сумаляк», «Поменяю на сумаляк». Автор также проанализировал эти два стихотворения поэта. Его работы в этом направлении считаются основным источником темы.

Ключевые слова: Сумалак, Навруз, весна, слава, карьера, угнетение, талант, радуга, жизнь, похоть, бабочка, поэзия.

O‘zbekiston qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov bahor, uning yurtimizga kirib kelishi, Navro‘zning bahor faslidagi o‘rni to‘g‘risidagi she’rlari talaygina. Jumladan, uning “Navro‘z”[1] she’ri alohida ajralib turadi:

Avval yuragingga mo‘ralaydi u,
So‘ngra kurtaklarga o‘rgatadi so‘z.
Zaminning ko‘zidan qochadi uyqu,
Demak, Bahor keldi,
Kelmoqda Navro‘z.

Muhammad Yusufning ustozi Abdulla Oripov uning ijodiga katta baho berib, “darhaqiqat, u o‘z elini, xalqi, Vatanini chin farzandday beg‘araz, sidqidildan yaxshi ko‘rar edi. Shu mehrning natijasi o‘laroq, uning she’riyati ham xuddi shundoq beminnat va beg‘araz she’riyat sifatida maydonga keldi. Va bu oqko‘ngil, osmonqalb ukamizdan xuddi shunday she’riyat yodgor qoldi”[2], deganida ustozi, albatta, uning bahor, Navro‘z va sumalak to‘g‘risidagi she’rlarini ham nazarda tutgan edi.

Muhammad Yusufning ijodida bahor, Navro‘z, sumalak, ko‘klam kabi yo‘nalishdagi she’rlari ham mavjud. Jumladan, uning “Yalpiz”, “Sumalakka almashaman men”, “Sumalak”, “Ko‘klamoyim”[3] kabi she’rlari shular jumlasidandir. Muhammad Yusufning ustozi A.Oripov aytganiday: “u o‘z elini, xalqi, Vatanini chin farzandday, beg‘araz” sevardi. Uning she’rlarida sodda qalb, hayotga beg‘uborlik bilan qarash, dunyoga oddiylik nigohi bilan boqish ko‘rinadi:

Bisotimni bog‘da bir halol,
Kapalakka almashaman men.
Hayotimni ko‘kdagi zilol
Kamalakka almashaman men.

Shoirning mahoratini shunda ko‘ramizki, sumalak bilan bog‘liq holatni o‘quvchiga yetkazish uchun shoir o‘zbeklarga xos bo‘lgan sodda, jaydari, oddiy insonning qarashlarini tasvirlaydi:

Yog‘dularga cho‘milgan shahar,
Betonlari biqinni chaqar.
Uyim qasr bo‘lsa ham agar,
Guvalakka almashaman men.

Shoir soddalikka intiladi. U oldin ham boshqa she’rlarida aytgani kabi shoirligini oddiy qishloq muhitiga almashgisi keladi. Shoirlikdan topgan shuhratini esa handalakka almashish niyatini aytadi. Bu uning sodda so‘zlardan mahortli ijod namunasi yaratganligini ko‘rsatadi. Ya’ni:

Shoirlikni suymaydi jinim,
Menga havas qilmagin, inim.
Shuhratimni totli bir tilim
Handalakka almashaman men.

O‘quvchi shoirning she’rlarini qiziqish bilan o‘qiydi. Uning she’r satrlarida chin qalbdan yozilgan qatorlarga duch kelaveradi. Alal oqibatda she’rning yakunida ijodkorning nihoyatda chiroyli o‘xshatishi va uning o‘zi kutgan satriga duch keladi:

Qo‘shiqlarim bo‘lib ovoza,
Yurtda mashhur emishman toza!
Barcha yozgan she’rim bir kosa
Sumalakka almashmasman men.

M.Yusufning ijodida Turkiston istibdodi, sovet istibdodi tomonidan xalqimiz, millatimiz, Vatanimizga bo‘lgan salbiy ta’sirlari to‘g‘risida oddiy she’ri orqali ko‘rsatib berish mahorati ham alohida ajralib turadi. Bu uning biz yozayotgan bahor, Navro‘z, sumalak yo‘nalishidagi she’rlarida ham kuzatamiz. Jumladan, shoirning “Sumalak”[3] she’ri shu yo‘nalishda yozilgan. U qo‘yidagicha boshlanadi:

Bahor so‘rab kelsa jamolingizni,
Shudring yo‘qlab rayhon shohida sizni,
Bir o‘y qiynamasmi gohida sizni –
Navro‘zfurushlar?.

She’rning dastlabki to‘rt qatoridan ham ko‘rinadiki, sovet istebdodi davrida navro‘zga bo‘lgan salbiy munosabatlar, navro‘zga bo‘lgan qarshiliklar, mansabdorlar tomonidan qo‘yilgan ta’qiqlar to‘g‘risida fikrlar yuritadi. Shunda shoir yangi topilma sifatida “navro‘zfurush” atamasini qo‘llaydi. Ya’ni, sovet davrida Navro‘zga nisbatan o‘ta darajada salbiy munosabatda bo‘lindi. Shoir

Navro‘zga qarshi bo‘lganlarni “navro‘zfurushlar” deb atadi. Ularning xalqqa qilgan jabrlarining noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatdi:

Bizga motom bo‘lsa, sizga nima g‘am,
Jabrlar qildingiz jabr ustida ham.
Duoga cho‘zilsa qabr ustida ham –
Qo‘llar chopdingiz.

Shoirning o‘zi sovet istibdodi davrining ishtirokchisi hisoblanadi. Ular tomonidan Navro‘zga bo‘lgan hujumlar qoralandi. Ya’ni, u “sumalagimizga zaharlar solib”[4], - degan satrlarni qo‘llaganida, yashirinib pishirilgan sumalaklarning ular tomonidan og‘darib tashlanganligi nazarda tutilmoqda. Shuningdek, mustaqillik tufayli Navro‘zning qaytarilishi katta hodisa edi. Hukumatimiz tomonidan: Navro‘z Sharq xalqlari, jumladan, O‘zbekiston xalqi uchun eng qadimiy va azaliy bayramlardan biridir. Bahor fasli va tabiat uyg‘onishining timsoli, yasharish va yangilanish ramzi bo‘lmish bu ayyomni orziqib kutish, baland ruh va katta xursandchilik bilan nishonlash el-yurtimiz uchun oliyjanob an’anaga aylanib qolgan. Ma’lumki, Navro‘z bayrami yurtimizda mart oyining uchinchi o‘n kunligi boshlanishiga to‘g‘ri keladi. Va shunga asoslanib, mamlakatimizda 21-mart kuni Navro‘z bayrami deb e’lon qilingan deya qarorning qabul qilinishi tarixiy voqeaga aylandi. Shoir “navro‘zfrushlarga” qarata baralla aytdi:

Ey siz soxta shuhrat-shon adolari,
Ey siz, el xatosi, yurt xatolari,
Mansab gadolari, pul gadolari,
Qalaysiz endi?
Biz bilan sumalak yalaysiz endi!

Adabiyotlar:

1. A.Oripov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘ofir G‘ulom nomidagi nashriyot, 2000. – B.328.

2. A.Oripov. Betakror shoir. M.Yusuf. Xalq bo‘l elim. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – B.3.

3. M.Yusuf. Saylanma. – Toshkent: “Sharq ” nashriyoti, 2019.

4. M.Yusuf. Sumalak. Saylanma. – Toshkent: “Sharq ” nashriyoti, 2019.

MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH VA O‘ZBEK TEATRLARIDA MILLIY QAHRAMON TASVIRI

Muqaddas AXMETJANOVA,
O‘zDSMI xalq ijodiyoti fakulteti dekani,
San’atshunoslik fanlari nomzodi

Annotasiya. Maqolada o‘zbek milliy qahramonini yaratish, milliy qahramonni tasvirlash, xaqaro tajribadan foydalangan holda milliy prototipni yaratish zarurligi, bunda milliy teatr san’atining o‘rni beqiyos ekanligi tahlil qilingan. Shuningdek, mustaqillik davrida yaratilgan milliy qahramonlar obrazlarning badiiy mukammallik darajasi, ularni yanada yuksak darajaga yetkazish zarurligiga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: milliy qahramon, etnoteatr, milliy madaniyat, xalq qahramoni, milliy ideal, dramaturgiya.

Аннотация. В статье анализируется необходимость создания национального прототипа с исползованием международного опыта при создании узбекского национального героя, в котором уникальная роль в развитии национального театрального искусства. Также была подчеркнута уровен художественного совершенства образов, национальних героев, созданных в годы независимости, которые требуют поднятия их на более высокий уровень.

Ключевие слова: националный герой, этнотеатр, национальная культура, национальний герой, национальний идеал, драматургия.

Annotation. The article analyzes the need to create a national prototype using international experience in creating an Uzbek national hero, in which the role of national theatrical art is unique. The level of artistic perfection of the images of national heroes created during the years of independence was also emphasized, which require raising them to a higher level.

Key words: national hero, etnotheater, national culture, national hero, national ideal, drama

O‘z erkini, mustaqilligini qo‘lga kiritlgan xalq nohaq unutilgan, berahm qatog‘on qilingan farzandlari nomlarini qayta tiklashga, ularning millat oldidagi xizmatlarini obyektiv baholashga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham tarixiy mavzulardagi asarlarni sahnalashtirish obyektiv zaruriyat edi. Natijada milliy

o‘zlikni anglash, tarixiy ongni o‘stirish o‘zbek teatrlarining asosiy mavzularidan biriga aylandi.

Teatrda ma’lum bir badiiy-estetik maqsadga xizmat qiluvchi qahramonlar sahnaga olib chiqiladi. Milliy o‘zlikni anglash va tarixiy ongni shakllantirishda avvalo tarixiy shaxslar obrazlari muhim rol o‘ynaydi. Bu obrazlar, tirik paytlarida, ijtimoiy-tarixiy missiyani o‘z zimmasiga olib, xalq dardini yengillashtirishga intilgan, uning ezgulik, adolat va tenglik haqidagi tasavvurlari tarannum etgan. Shu sababli ular xalq qahramonlari, etnoportretdir.

Milliy qadriyatlarni tiklash, milliy o‘zlikni anglashga intilish san’atkorlar o‘rtasida ijtimoiy-aksiologik, ma’naviy-estetik ehtiyojga aylana bordi. Bu milliy badiiy-estetik ong va qadriyatlarga taalluqli voqelikdir. Akademik M.Qo‘shjonovning fikricha: “Ijod mavhum hodisa emas... Ijodkor muayyan davr farzandi, muhit hodisasidir. Shu ma’noda badiiy ijodga tegishli har bir hodisa – iste’dodning tug‘ilishidan tortib, alohida asarlarning yaratilishigacha – makon, zamon va muhitga bog‘liqdir” [1,149].

San’atkor milliy badiiy-estetik ongining Vatan tarixiga, buyuk ajdodlar ma’naviy merosiga murojaat etishi, etnoan’ana va qadriyatlarga tayanishi konseptual va paradigmal tus oldi. Teatrlarimizda ulug‘ allomalar, buyuk mutaffakkir va sarkardalarning yubileylari munosabati bilan qator spektakllar yaratildi. To‘maris, al-Farg‘oniy, at-Termiziy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Nodira, Uvaysiyning sahnaviy siymolari va xarakterlari, badiiy obrazlari yaratildi.

Tarixiy mavzularga murojaat etish badiiy-estetik ongdagi izlanishlar ifodasidir. Biroq mavzu va murojaatning o‘zi yetarli emas, badiiy-estetik ong “betakror ixtiro”ga tayyor bo‘lishi kerak. Mazkur yo‘nalishdagi spektakllarni tadqiq etgan, san’atshunoslik fanlari doktori, professor D.Rahmatullayeva “so‘nggi davrda tarixiy mavzulardagi sahna asarlari badiiy-estetik emas, balki ma’rifiy maqsadlarni ko‘zlab yaratilayotgani, ular milliy g‘ururni shakllantirish, ma’lum bir informasiya berish bilangina chegaralanib qolayotganini ta’kidlaydi” [2,38.]. Haqiqatan ham, tarixiy mavzuda yaratilgan spektakllarda tomoshabinga bilim berish, unda vatanvarparlik tuyg‘usini uyg‘otishga intilish, publisistik ohang yetakchilik qiladi. Shu bois san’atshunoslar, “zamonaviy teatr estetikasida kechayotgan izchil jarayonlarga bee’tibor sahnalashtirilayotgan spektakllarda sahnaviy prinsiplarning mustahkam emasligi yaqqol ko‘zga tashlandi” [3, 145], deb yozishadi. Aslida bu fikr badiiy-estetik ongning real ahvolini ko‘rsatadi. Birinchidan, ijtimoiy madaniy hayotimizda, deyarli barcha sohalarda milliy

o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, mustaqil izlanishga moyillik tendensiyasi ketayotgani kuzatiladi. Bu jarayon milliy g‘ururni, o‘tmishi bilan faxrlanish tuyg‘ularini uyg‘otish va shu orqali xalqimizni kelajak sari undash uchun zarurat edi. Ayni paytda o‘z-o‘ziga mahliyolik, milliy qadriyatlarni, mamlakat o‘tmishini aks etttirishga, sahnaviy talqinlarni topishga o‘ta ruju qo‘yish jahon teatri yangiliklaridan, estetikasidan uzoqlashish, uzilib qolish kabi holatlarni ham keltirib chiqardi. Ikkinchidan, tarixni sahnada talqin qilish uchun katta bilim, falsafiy-estetik idrok, keng mushohada, obyektiv baholash talab etilardi. Uchinchidan, tarixni obyektiv aks ettirishga yordam beradigan dekorasiyalar yaratish oson emas edi. Bu katta badiiy-estetik ong, bilim, ijodiy salohiyatni talab qilardi. Ularda “tarixiy haqiqat va insoniy xarakterlarga munosib bo‘lmagan lavhalar, an’anaviy yechimlar, daramaturgik qoliplar va yubiley dabdabalari” uchraydi [3,146].

Xalqimiz tarixi, etnomadaniyati, an’ana va qadriyatlarining tiklanishi san’atkorlarimiz badiiy-estetik ongida, asarlarida aks etgan. Odamlarni ogohlikka, ezgulik va bunyodkorlikka chorlaydigan, hayotning ekzistensial mohiyati, inson umrining mazmuni xususida o‘ylashga, mushohada yuritishga qaratilgan publisistik pafosdagi ijro va ifoda vositalari bilan yo‘g‘rilgan asarlar yaratildi. Ommaviylashish davriga xos maydon tomoshalari yana jonlandi, masxarabozlik va folklor teatri uslublaridan, sahnaviy talqinlarda ramziy-ma’joziy timsollardan foydalanish an’anaviylik tarzida qabul qilindi. Milliy qahramonlarga bag‘ishlangan spektakllar dekorasiyalarida sharqqa xos karvonlar, kuvachalar, charxpalaklar, ravoqlar, nayzalar, naqshinkor bezaklar, arava g‘ildiraklari, loysuvoq devorlar, so‘zana va kashtalar, beshik, qadimiy qo‘shiq va raqs kabi etnoestetik elementlar ham ramziy ma’noda, ham ekzotik funksiyalarda badiiy-estetik vosita sifatida foydalanildi. Bir qator rejissyorlar tomonidan etnoteatr estetikasini yaratish borasida izlanishlar olib borilib, plastik musiqali spektakllar, yangi bolalar myuzikl-teatr janri yaratildi, ommaviy, an’anaviy tomosha san’ati va G‘arb mumtoz teatr san’atidagi badiiy-estetik uslublar, vositalar bilan uyg‘unlashtirish borasida ijodiy-estetik mohiyatga ega tajribalar, eksperementlar o‘tkazildi [4, 21-22].

Yetakchi dramaturglardan Sh.Boshbekov, U.Azim, H.Rasul, A.Ibrohimov, N.Abbosxon, Q.Norqobil, rejissyorlardan O.Salimov, V.Umarov, musavvirlardan B.To‘rayev, Sh.Abdumalikov, kompozitorlardan A.Ergashev, S.yusupovlarning kreativ izlanishlarida shakllangan ijodiy qoliplarni buzishga, milliy tafakkurga tayangan holda jahon teatr san’atidagi ilg‘or tendensiyalarga ergashish kuzatildi. “Maydon tomoshalariga intilish, o‘zbek teatri amaliyotida 90-yillarda, ayniqsa,

keng tus olgandi" [5, 119] O‘zbek teatridagi professionallashuv shu asosda yuz berdi. Masalan, rejissyorlar B.Yo‘ldoshev, O.Salimov, N.Abdurahmonovlar ijodida “maydon teatri” uslubi keng qo‘llanildi. Chunki maydon tomoshalari asosida sharqqa xos ommaviylashish, jamoa bilan jipslik, bir yoqadan bosh chiqarib yashash falsafasi yotadi.

O.Salimov satirik komediya janrida talqin qilingan “Toshkentga sayohat” spektaklida maydon teatriga xos uslubni o‘tkir kulguga yo‘naltirilgan voqealar asosida qo‘llagan edi. Hamza qalamiga mansub tugallanmay qolgan ushbu komediya B.Darveshov va O.Salimovlar tomonidan xalq tomosha san’ati repertuaridagi “asarchalar” asosida ijodiy ishlanib, tugal grotesk komediya sifatida Farg‘ona teatrida sahnalashtirildi. O.Salimov o‘zbek milliy cholg‘usi – doira ohangidan komik voqea va lavhalarni bir-biriga bog‘lovchi vositasi o‘rnida foydalandi.

O‘zbek teatr san’atining dunyo sahna maydonlari bo‘ylab integrasiyalashuvi, madaniy aloqalarining kengaygani e’tiborli voqelikdir. Bunday integrasiya umuminsoniy badiiy-estetik ongning shakllanishiga olib keladi. Teatr san’atidagi umuminsoniy xususiyatlar va qadriyatlar ushbu subyektiv fenomenning bevosita ta’siri ostida shakllanishini unutmaslik kerak.

Oxirgi yillarda yetakchi teatrlarimizning xorijiy mamlakatlarga gastrollari uyushtirildi, “Debyut”, “Seni kuylaymiz, zamondosh!”, qo‘g‘irchoq teatrlarining an’anaviy festivallari, xalqaro teatr san’ati Forumi, “Toshkent bahori” xalqaro opera va balet san’ati festivali kabi yirik madaniy tadbirlar tashkil etildi. Bir qator teatr jamoalarimiz xalqaro teatr festivallari, haftaliklari va ko‘rik-tanlovlarda yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritdi.

Teatr san’ati sohasidagi integrasiyalar – teatr festivallari, madaniyat haftaliklari, ilmiy anjuman va konferensiyalar, ko‘rik-tanlovlar tashkil etish kabi tashqi omillar resipiyentlar auditoriyasining ekstensiv kengayishiga olib keladi. Badiiy-estetik ong ushbu integrativ va ekstensiv omillar ta’sirida o‘zgarayotganini jahon teatrlari tajribasi ham ko‘rsatadi. Mazkur badiiy-estetik ong va tajribalarni oshirishga qaratilgan xalqaro festivallarda yoshlar, ayniqsa san’at va madaniyat muasasalari talabalari, havaskor badiiy jamoalar qatnashayotgani e’tiborlidir.

Yuqoridagi yutuqlarga qaramay, etnoteatrimiz qator muammolarga ham ro‘para keldi. Masalan, ijod erkinligi huquqiy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, davlat san’at va madaniyat muassasalarni mablag‘ bilan ta’minlash borasida “o‘ta ehtiyotkorlik” siyosati olib borildi. Ayrim etnoteatrlar asosan ijtimoiy, davlat buyurtmalari asosida sahna asarlari yaratishdi, qolgan teatrlar esa o‘z holiga tashlab

qo‘yildi. Aksariyat teatrlar rahbarligiga sohaga aloqasi bo‘lmagan, badiiy ijod texnologiyasidan, sirlaridan bexarbar shaxslar direktor etib tayinlandi. Rejissyor, aktyor va boshqa ijodkorlarning oylik maoshi, gonarorlari juda kam, qobiliyati va mehnatiga muvofiq emas edi. Bular quyidagi salbiy hollarni keltirib chiqardi:

spektakllar sahnalashtirishning yuqori tashkilotlar tomonidan qattiq nazorat qilinishi, ijodiy jarayonlarga aralashishi ijodkorlar erkinligining cheklanishiga [6,129], ularda hadiksirash, qo‘rquv tuyg‘ularining paydo bo‘lishiga olib keldi;

ijtimoiy buyurtma asosida yaratilgan sahna asarlarida tarixiy haqiqatning buzilishi [7, 161], hayotiylik va tabiiylikdan yiroqlik, dabdaba, da’vat, shiorbozlik ohangi kuzatildi [3, 146].

Iqtisodiy nochorlik, maosh va gonorarlarning pastligi ijodga munosabat va mas’uliyatning susayishiga, spektakllarning tez, “mendan ketguncha, egasiga yetguncha” qabilida tayyorlanishiga sabab bo‘ldi, ijodkorlarni esa qo‘shimcha daromad manbalarini izlashga majbur qildi. Etnoteatr, badiiy-estetik ong va qadriyatlar o‘tish davrining ana shunday ziddiyatlariga, sinovlariga ro‘para keldi, ular ommaviylashuv va professionallashuv sinteziga, xususiy va jahon badiiy-estetik tajribalariga tayanib, o‘zining inson ma’naviyati va jamiyat madaniy taraqqiyoti uchun zarurligini isbotladi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan keyingi yillarda qabul qilingan bir qator Farmon va Qarorlar, jumladan, 2020 yil 29 maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6000-son Farmoni. hamda 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4038-sonli Qarorining qabul qilinishi soha rivojiga, teatr san’ati vakillari mehnati va ijodiy jarayonga munosabatning ijobiy tomonga o‘zgarishiga zamin tayyorladi. Mazkur hujjatlar mohiyatan milliy madaniyat va san’atni yanada rivojlantirishga, ularning ma’naviy-tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish, ijodkorlarning mehnati va badiiy-estetik izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash orqali Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessansning poydevorini qurishga qaratilgan. Endilikda madaniyat va san’at sohasi hamda uning vakillariga katta imkoniyat va imtiyoz beriladi, nafaqat, davlat, balki xususiy teatrlarni ham qo‘llab-quvvatlash va ulardagi san’atkorlarning badiiy-estetik ongi va bilimini yuksaltirishga ijtimoiy vazifa deb qaraladi. Natijada teatrlar o‘rtasida ijodiy raqobat ta’minlanadi, yangi-yangi asarlar yaratiladi, san’atkorlarimizning badiiy-estetik ongi, bilimi va tajribalari oshadi, etnoteatrlarimizning jahondagi ilg‘or teatrlar bilan bahslashuvi mumkin bo‘ladi.

Badiiy-estetik ongning mintaqaviy va umuminsoniy ko‘rinishi (umuminsoniy badiiy-estetik ong) etnomadaniyatlar integrasiyasida, ijodiy hamkorlik va tajriba almashish kabi ekstensiv xususiyatga ega izlanishlarda namoyon bo‘ladi. Globallashuv va etnomadaniyatlar integrasiyasi ham umuminsoniylashishga yordam beruvchi asarlar sahnalashtirishni, usullar tanlashni va xalqaro festivallar, ko‘riklar, ijodiy hamkorlik orqali yaqinlashishni talab etmoqda. Bu, tabiiy ravishda, teatr san’ati resipiyentlari doirasining, auditoriyasining kengayishga olib keladi. Bu jarayonni pandemiya paytida qo‘llanilgan onlayn tomoshalar ham tasdiqlaydi. Ammo teatr san’ati uchun jonli, muloqotga tayyor, uning yutuqlarini olqishlaydigan va kamchiliklaridan taajjublanadigan, sertashvish hayotning xuddi o‘zi kabi tirik auditoriya kerak. Bu auditoriyani shakllantirish:

1. San’atkor badiiy-estetik ongining resipiyent (tomoshabin) badiiy-estetik ongiga aylanishi.
2. Resipiyent (tomoshabin)lar doirasini kengaytirishga intilish..
3. Professionallashuvni “san’at xalq uchun” tamoyili bilan qo‘llab-quvvatlash, to‘ldirish orqali ro‘y beradi. Teatr san’atining ushbu paradigmal talablari resipiyentlardagi badiiy-estetik ongni ekzistensial tarzda jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘lab turadi.

Adabiyotlar:

1. Qo‘shjonov M. Badiiyatdan o‘n ikki saboq. // Jahon adabiyoti.-Toshkent, 2007. - № 8 (123). – B.149.

2. Rahmatullayeva D. O‘zbek teatri: tarixiy drama. – Toshkent: San’at, 2004. –B.38.

3. O‘zbekiston san’ati (1991-2001 yillar). – Toshkent: Sharq, 2001. – B.145.

4. Yoqubov J. Gruziyalik xonumanning o‘zbekona kulgisi // Teatr. – Toshkent, 2020. -№5. -B.21-22;

5. To‘laxo‘jayeva M. XX asr teatr islohotlari. // Jahon adabiyoti. - Toshkent, 2014. -№1 (200)-son. –B. 119.

6. .Sayfullayev N. Yangi davr O‘zbekiston teatri: Rivojlanish muammolari va izlanish jarayonlari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011. – B.129.

7. .Rizo Sh. Qiynoq, senga bo‘lsin sharaf!. // Sharq yulduzi. – Toshkent, 2010. -№ 6. – B.161.

NAVRO‘Z BAYRAMI TARIXI VA AN’ANALARIGA DOIR

Sevara MAHMUDOVA,
O‘zDSMI dotsenti, f.f n.

Annotatsiya. Maqolada turli manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida qadimiy bayram Navro‘zning tarixi va taraqqiyoti ko‘rib chiqiladi. Navro‘z bayramining kelib chiqishi haqidagi o‘rta asr mualliflarining fikrlari tahlil qilinadi. Muallif Islom dinining Navro‘z bayramiga munosabatiga baho beradi. Maqolada Navro‘z bayrami hamisha qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilikning gullab-yashnashining o‘ziga xos namoyishi bo‘lib kelganini, mehr-oqibat, odamlar birligi, tabiat bilan hamnafaslik bayrami ekanligi alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, islom, sumalak, “Navro‘znoma”, zardushtiylik

Аннотация. В статье на основе разнохарактерных источников и научной литературы рассматривается эволюция древнего праздника Навруз. Анализируются мнения средневековых авторов относительно зарождения праздника Навруз. Автор дает оценку отношения ислама к празднику Навруз. Автор статьи указывает, что празднование Навруза всегда являлось своеобразной демонстрацией расцвета земледелия, ремесла, искусства и физической силы. Особо подчеркивается, что Навруз является праздником добра, единения людей и гармонии с природой.

Ключевые слова: Навруз, ислам, сумаляк, «Наврузнаме», зороастризм

Annotation. In the article, on the basis of diverse sources and scientific literature, the evolution of the ancient holiday Navruz is considered. The opinions of medieval authors regarding the origin of the Navruz holiday are analyzed. The author gives an assessment of the attitude of Islam to the Navruz holiday. The author of the article points out that the celebration of Navruz has always been a kind of demonstration of the flourishing of agriculture, crafts, art and physical strength. It is especially emphasized that Navruz is a holiday of kindness, unity of people and harmony with nature.

Key words: Navruz, Islam, sumalak, Navruzname, Zoroastrianism

Navro‘z (Navro‘z, Nauruz) - bahor bayrami yoki yangi yil. “Navro‘z” atamasi forscha “nav” (yangi) va “ro‘z” (kun) ikki so‘zdan iborat bo‘lib, ya’ni

eroniylarning eng muhim bayramining birinchi boshlang‘ich kunidir. Bu bayram ming yillar davomida nishonlanadi. Ushbu bayramning ma’nosi shundan iboratki, bahorgi to‘xtash kunida, kun va tunning davomiyligi har biri 12 soat bo‘lganida, tabiat va insonning o‘zaro ta’siri mutlaq uyg‘unlikka erishadi: uyg‘onish va yangilanish davri boshlanadi. Navro‘z yangi yilning boshlanishi sanaladi va inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatga asoslangan an’anadir [1].

Bayram shakli qadimdan insonparvarlik va tabiatga muhabbat tamoyillari va asoslarini o‘zida mujassam etgan. Qadimiy bo‘lishiga qaramay, bu bayram xalq xotirasida saqlanib qoldi va bugungi kunda eng chuqur ma’naviy-axloqiy ma’no kasb etdi. Bugungi kunda u bizning davrimizning eng dolzarb muammosi - insonning tabiat bilan birligi va uyg‘unligini o‘z ichiga oladi.

Bahorgi tengkunlik kuni sifatida bu kun Yevropa xalqlari tomonidan ham nishonlanadi. 22-mart rus an’analarida “javoronki” deb nomlanadi, bunda “kun va tun solishtiriladi, qish tugaydi va bahor boshlanadi”. Rus madaniy an'analarida, bu kuni issiq mamlakatlardan qirq xil qushlar keladi, deb ishoniladi va ulardan birinchisi bu javoronok -mayna sanaladi [2].

Umuman olganda, Navro‘z shunchaki bir bayram emas. Navro‘zga ko‘ra bayram qanchalik quvnoq va shodlik bilan o‘tsa, tabiat ham insonlarga shunchalik saxovatli bo‘ladi. Shu bois, bu kunda Navro‘zning marosim qo‘shiqlari yangraydi, odamlar raqsga tushib, zavqlanadilar, bahor kelganidan xursand bo‘lishadi, bir-birlariga sovg‘a-salomlar berishadi, yetim-yesirlarga, kambag‘allarga yordam berishadi. Shu kunlarda tabiat jonlana boshlaydi, daraxtlar gullaydi, o‘tloqlarda ilk ko‘katlar paydo bo‘ladi. Qadimgi yunon yilnomachisi Strabon Navro‘z bayramini shunday ta’riflagan: “Qadim-qadim zamonlarda va hozirgi kungacha Mavarounnahr aholisi shu kuni otashkadalarda yig‘ilishadi. Bu eng ardoqli bayram bo‘lib, bu kuni savdogarlar do‘konlarini yopadilar, hunarmandlar ishlarini to‘xtatadilar:” [3].

O‘tmishning ko‘plab buyuk zotlari Navro‘z bayramining boshlanishini Shoh Jamshid nomi bilan bog‘laydilar. Bu haqda Sharqning ulug‘ shoiri va mutafakkiri Umar Xayyom o‘zining “Navro‘znoma” kitobida eslatib o‘tadi. U shunday yozadi: “... Navro‘zning joriy qilinishi sababini aytsak, u shundan iboratki, Oftobning ikki aylanishi mavjud, ulardan biri quyidagicha: Oftob har uch yuz oltmish besh kunu kecha-kunduzning to‘rtdan birida Hamal burjining birinchi daqiqasiga chiqib ketgan paytining o‘zida yana qaytib keladi va har yili bu davr kamaya boradi. Jamshid bu kunni tushungandan keyin Navro‘z deb atadi va bayram qilishni odatga aylantirdi. Podshohlar va boshqa odamlar ham uni qabul qildilar”. [4]

Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarida yozishicha: Jamshid peshdodiylar sulolasiga mansub, “husnu jamolda dilnazir va fazlu kamolda benazir erdi, g`arib ixtirolar qildi”.Qurol yasash, qalqon qilish undan boshlangan. Jamshid hammom bino etgan, to‘quv ashyolarini, rang ishlatishni bunyod qilgan, Istahr shahrini kengaytirgan, Chil minor degan g‘oyat muhtasham bino qurgan. O‘sha imoratda Jamshid taxtga o`tirgan kun “Navro‘z” deb atalgan; Hukmronligi 700 yil davom etgan” [5].

Navro‘z ko‘pincha u yoki bu etnik guruhning milliy bayrami sifatida qabul qilinadi yoki islom bilan bog‘lanadi, chunki uni nishonlayotgan xalqlarning aksariyati asosan shu dinga e'tiqod qiladi. Ayni paytda Navro‘z tarixi eng qadimgi dinlardan biri bo‘lgan zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” davriga borib taqaladi. “Avesto” ta’limotiga ko‘ra, har bahorda odamlar yer yuzida “olti xil” (osmon, suv, yer, o‘simliklar, hayvonlar va odamlar) ko‘rinishda hayotning paydo bo‘lishini nishonlashlari kerak [6].

Islom dini vujudga kelishi bilan Navro‘z bayramini nishonlash man etilmagan. Buning sababi, nafaqat an’analarga kuchli bog‘lanish mavjud edi. Zardushtiylik bayrami bo‘lgan Navro‘z Eron, Ozarbayjon va O‘rta Osiyo musulmon xalqlari orasida nima uchun haligacha saqlanib qolganligining sababi, balki islom dini mehribonlik, rahm-shafqat va yaqinlarga muhabbat ulashuvchi urf-odatlarni hech qachon man qilmaganligi edi. Chunki bu an'analar islom aqidalariga mos keladi [7].

Shu kuni qadimgi Fors shohlari boshlariga quyoshning yillik siklini aks ettiruvchi toj kiyib, otashkadada diniy marosimlarda qatnashadilar va o‘z fuqarolariga saxovat ko‘rsatib sovg‘alar tarqatadilar. Keyinchalik bu bayram nafaqat eroniyzabon, balki zardushtiylik madaniyati ta’sirida bo‘lgan O‘rta Osiyo xalqlarining ko‘pchiligida ham o‘z o‘rnini topdi.

Navro‘z – yangi yilning bahor bayrami Buyuk ipak yo‘lidagi barcha xalqlar tomonidan nishonlanadi. Eron, Ozarbayjon, Afg‘oniston, O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Xitoyning g‘arbiy viloyatlarida, Turkiyadagi kurdlar, Rossiyadagi tatarlar va boshqirdlar orasida keng va rang-barang shaklda nishonlanadi. So‘nggi yillarda bu bayram Isroil aholisi - asosan sobiq Sovet Ittifoqidan kelgan muhojirlar orasida ham nishonlana boshladi.

Navro‘zni nishonlash an’analari butun mintaqada taxminan bir xil bo‘lib, asrlar davomida saqlanib kelinmoqda. So‘nggi o‘n yil ichida MDHning Markaziy Osiyo respublikalarida Navro‘z bayrami hatto rasman tan olingan, dam olish kuniga aylanganini e’tirof etish kerak. Zamonaviy atributlar ham paydo bo‘ldi: bog‘lar va

maydonlarda konsertlar, savdo yarmarkalari, milliy ot sporti musobaqalari o‘tkaziladigan bo‘ldi. Evropa yangi yilidan farqli o‘laroq, Navro‘z kunduzi va oila davrasida ham nishonlanadi.

Bayramning asosiy, birinchi kuni – 21-mart. Keyingi o‘n uch kun ichida ziyoratga borish, qarindosh-urug‘larni ziyorat qilish, mevali daraxtlarning ko‘chatlarini sotib olish va ekish, tabiati bag‘rida ko‘pchilik bo‘lib hordiq chiqarish odat tusiga kiradi.

Qadim zamonlardan beri O‘zbekistonning dehqonchilik vohalarida Navro‘z bayramida yirik xalq sayllari, bayram bozorlari, ot poygalari, it va xo‘roz janglari tashkil etilgan. O‘zbekistonda Navro‘z bayramini nishonlash odatlari orasida eng asosiysi, ehtimol, yangi yil taomi - “sumalak” bo‘lib – o‘choqda un va unib chiqqan bug‘doy donlaridan, ba’zida ziravorlar qo‘shilgan holda pishiriladi. Unib chiqqan don hayot, iliqlik, mo‘l-ko‘llik va salomatlik ramz sanaladi. Bu zardushtiylikka doir jihatlarni o‘zida saqlab qolgan tabiatning uyg‘onishi va ekin ekishning boshlanishi bayramidir.

Navro‘z zardushtiylik madaniyati ta’sirida bo‘lgan O‘rta Osiyo xalqlarining ko‘pchiligining an’analaridan kelib chiqqan. U arablar bosqinidan omon qoldi, islomning qabul qilinishi an'anani yo‘q qilmadi, aksincha, Navro‘z bir qator yangi xususiyatlarni qo‘lga kiritgan bo‘lsa-da, islom taqvimiga organik tarzda kirib keldi. 1926-yilda Sovet hukumati tomonidan Navro‘z bekor qilinganda ham ko‘pchilik bu bayramni oilasi bilan nishonlashda davom etgan.

Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgach, Navro‘z bu mamlakatlarda rasmiy bayram maqomini oldi. Navro‘z bugungi kunda Ozarbayjon, Eronda milliy bayram sifatida nishonlanadi, Xitoyning g‘arbiy viloyatlarida, Turkiya va Rossiyada ham nishonlanadi. Afg‘onistonda Tolibon hukmronligi davrida bu bayram taqiqlangan edi. Tolibon ta’qiqga bo‘ysunmaganlarni kofir deb tahdid qilgan. Tolibon hukumatining ezgulikni targ‘ib qilish va gunohga yo‘l qo‘ymaslik vazirining ta'kidlashicha, haqiqiy musulmonlar bu bayramni yomon ko‘rishlari kerak, chunki u dinsizlardan keladi. Ammo shunga qaramay, bugun har bir afg‘on oilasida Navro‘z bayrami dasturxoni yoziladi.

Navro‘zning barcha marosimlari kelgusi yilda farovonlikka erishish, tabiat kuchlari va ajdodlar ruhini tinchlantirishga qaratilgan. Ushbu bayram kelishi bilan yer yuziga yaxshilik farishtalari tushib, odamlarga to‘kinlik va farovonlik, quvonch va umid baxsh etadi, degan ishonch bor. Ammo farishtalar, afsonaga ko‘ra, dushmanlik bo‘lgan uylarga tashrif buyurishmaydi. Navro‘zning muhim

udumi – qarzlarni kechirish, har qanday norozilik va janjallarni unutish zarurati shundan kelib chiqadi.

Zero, nafratga to‘lgan odam xursand bo‘lolmaydi. Bundan tashqari, zardushtiylik e’tiqodiga ko‘ra, o‘lgan Foroharning ruhi bu vaqtda yerga qaytadi va bir necha kun qarindoshlari orasida bo‘ladi. Shunday ekan, shu kunlarda yetim va yolg‘izlar, kam ta’minlangan oilalar, nogiron va bemorlarga yordam ko‘rsatilishi zarur.

Bayram taomiga faqat Navro‘z kirib kelishi bilangina tegsa bo‘ladi, degan fikr ham bor. O‘sha vaqtga qadar odamlar stol atrofida jimgina o‘tirishadi, qo‘llarida tangalar ushlab turishadi, bu ularning yangi yilda boy bo‘lishini ta'minlashi kerak. Har bir inson to‘q va mamnun bo‘lishi kerak: shunda yil farovon va samarali bo‘ladi.

O‘rta asrlarda turli xalqlar uchun Navro‘z o‘n uch kun davom etgan. Bayramlar tugagach, odamlar dalaga chiqib, u yerda yangi yilni nishonlashadi. Bu urf-odat edi. Shu kunlarda tabiat qo‘ynidan bahramand bo‘lish uchun dalaga chiqqanlar kelgusi yil davomida baxt va farovonlik bilan birga bo‘ladi, deb ishonilgan. Bejiz rus maqolida ham “Yangi yilni qanday kutib olasiz, shuning uchun uni o‘tkazasiz?” deyilmaydi.

XIX asrgacha Navro‘z yilning asosiy g‘ayrimusulmon bayrami bo‘lgan va xuddi shu nomdagi Navro‘z (mart) oyi bilan boshlangan. 20-asrning 20-yillari o‘rtalaridan sovet hokimiyatining mustahkamlanishi bilan totalitar tuzum kuchaydi va 1926-yilda Navro‘z rasman taqiqlandi. Biroq, yozma manbalar guvohlik berishicha, 1928-yilgacha uning ko‘rinishlari saqlanib qolgan. O‘rta Osiyoda ham sovet hokimiyati o‘rnatilgan davrda dahriy bolsheviklar Navro‘z bayramini “musulmonlar” bayrami sifatida nishonlashni rasman taqiqlagan (1926-yil).

Asrlar qa’ridan kelgan bayramning qayta tiklanishi deyarli oltmish yildan keyin boshlanadi. U mustaqillik boshlanishi bilangina rasman tan olindi. 2009-yil sentabr oyida Navro‘z YunESKO tomonidan Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro‘yxatiga kiritildi va 2010-yil fevral oyi oxirida BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida 21-mart Xalqaro Navro‘z kuni deb e’lon qilindi. Biroq, olimlar qanchalik bahslashmasin, qancha taxminlar mavjud bo‘lmasin, har holda Navro‘z umumbashariy baxt bayrami, bahor boshlanishi va o‘zgarishlarni kutish bayramidir. Asrlar qa’rida ham biz uni intiqlik bilan kutishda va eng yaxshisiga ishonishda davom etamiz.

Adabiyotlar:

1. Исамиддинов Ж.Б. К истории происхождения и эволюсии праздника Навруз. Статья. www. cyberleninka.ru/a

2. Бойс М. Зороастрийсы: верование и обычаи.- М.: 1987.203с

3. Турсун Акбар. О философии древнего праздника. www.asiaplus.ru

4. Умар Хайём. Наврўзнома, -Т.: “Mehnat”, 1990, 2-бет.

5. Navoiy Alisher. Tarixi muluki Ajam. https://e-tarix.uz/

6. Бойс М. Зороастрийсы: верование и обычаи. М.: 1987.303с

7. Джарилгасинова Р.Ш., Крюков М.В. Календарные обычаи и обряды народов Юго-Восточной Азии. М., 1986. 264 с.

QALBIMIZGA JO BO‘LGAN ODATLAR

Latifa XUDAYQULOVA,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti,
filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
e-mail: Latifa7070.
Telefon: (97) 430 70 97

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navro‘z bayramining kelish chiqish tarixi va bayram bilan bog‘liq urf-odat va an’analar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: an’ana, urf-odat, qadr, sumalak, arpa, bayram, taom.

Аннотация. В данной статье рассматривается история о происхождение Навруза, а также обычаи и традиции связанные с праздником Навруз.

Ключевые слова: традиция, обычаи, ценность, сумаляк, ячмень, праздник, блюдо.

Annotation. This article discusses the history of the origin of Navruz, as well as the customs and traditions associated with the Navruz holiday.

Key words: tradition, customs, value, sumalak, bardey, holiday, dish.

O‘z ajdodlarining ma’naviy qadriyatlarini qadrlagan xalqning istiqboli oydin bo‘lishi tabiiydir. Xalqimizning qadrli bayrami hisoblangan navro‘zni ilk ko‘klam darakchisi, qut-baraka, to‘kin-sochinlik, hosildorlik, ezgulik timsoli, vitaminlarga boy, navro‘zning shoh taomi bo‘lgan sumalaksiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev uchinchi Renessans va Yangi O‘zbekiston konsepsiyalari haqida so‘zlagan nuqtida: «Darvoqe, “yangi” degan so‘zning biz uchun alohida ahamiyati bor. Masalan, eng ko‘hna bayramlarimizdan biri Navro‘z – Yangi kun deb atalishini esga olaylik. Ushbu qadimiy bayram bilan bog‘liq qadriyat va an’analar hayotimizga shu qadar singib ketganki, xalqimiz asrlar davomida, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy aytganlaridek, “Har tuning qadr o‘lubon, har kuning bo‘lsin Navro‘z!” degan ezgu tilaklar, pok niyatlar bilan yashab keladi», – deya to‘g‘ri ta’kidlaganidek, Navro‘zning shoh taomi sumalak tayyorlash an’anasining tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Milodning I-II asrlarida yashab o‘tgan yunon olimi Plutarx qadimgi odamlarning bahoriy udumlari to‘g‘risida yozar ekan, ular ilk ko‘klamda bug‘doydan maxsus taom pishirganliklarini alohida qayd qilib o‘tgan. IX asrning buyuk tilshunosi Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida “suma” so‘ziga – ivitilgan bug‘doy nomi, uni quritib tuygandan so‘ng undan ugra osh va non tayyorlanadi. Sharbat uchun tayyorlangan, undirilgan arpa uni uchun ham shu so‘z qo‘llaniladi deb izoh bergan hamda O‘rta Osiyo hududida istiqomat qilgan ajdodlarimiz bundan ming yillar avval ham ko‘klamni sumalak pishirish bilan kutib olganliklarini haqida ta’kidlab o‘tgan [M.Koshg‘ariy. 1963:169]. Demak, “sumalak” atamasi “sharbat uchun qilingan, undirilgan arpa” yoki erta ko‘klamda sharbatidan maxsus taom tayyorlash uchun ko‘kartirilgan bug‘doy ma’nosini anglatuvchi qadimgi turkiy so‘z bo‘lgan “suma”dan kelib chiqqan desak xato bo‘lmaydi. Abu Rayxon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” nomli asarida keltirilgan afsonalardan biri sumalak pishirish an’anasining tarixini aniqlashda yordam beradi [A.R.Beruniy.1968:256]. Afsonada “barakotga erishish uchun tos yoki boshqa idishlarga arpa ekkanligi” aytilgan. Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, dastlabki vaqtlarda sumalakni bug‘doydan emas, balki arpa maysasidan pishirgan ekanlar. Chunki Sharq xalqlari juda qadim zamonlardanoq arpani mo‘tabar o‘simliklardan biri sifatida qadrlashgan ekan. Umar Hayyomning “Navro‘znoma” asarida keltirilgan bir afsonasida odamlar arpa maysasini yaxshilik alomati sifati e’zozlaganliklari haqida qayd qilingan [U.Hayyom.1990:29].

Xalqimiz orasida arpa maysasini qaynatib ichgan odam darmonsizlik dardidan forig‘ bo‘ladi, deb irim qilingan. Hozirgi kunda ham xalq tabobatida jigar kasalligi bilan kasallangan bemorlar uchun arpa qaynatmasi davo deb qaraladi. Bundan ko‘rinadiki, Sharqda arpa maysasi yashillik va yaxshilik alomati sifatida e’zozlangan. Tahlil qilishimizcha, sumalak pishirish uchun qadimda dastlab arpa

maysasidan siqib olingan sharbatdan foydalangan. Keyinchalik Navro‘z taomini tayyorlash uchun bug‘doy undirish odati urf bo‘lgan.

Bizga ma’lumki, Navro‘z bayrami hamda u bilan bo‘ydosh bo‘lgan sumalak pishirish an’anasining kelib chiqish tarixi to‘rt ming yillik davrni o‘z ichiga oladi. Navro‘z bayrami bilan aloqador bo‘lgan “Boychechak sayli”, “Qizil gul sayli”, “Lola sayli”, “Sust xotin” marosimi, “Ashshadarozi”, “Varrak uchirish”, “Tuxum urishtirish” kabi milliy xalq o‘yinlarining mohiyati, o‘tkazilish tartibi, uzvlari ham fikrimizni tasdiqlaydi [M.Jo‘rayev. 2009:145]. Zahmatkash folklorshunos olim Mamatqul Jo‘rayev “Navro‘z bayrami” deb nomlangan asarida Amudaryo sohillariga xos bo‘lgan sumalak pishirish an’anasi bilan aloqador qadimiy “Ashshadarozi” o‘yini haqida qiziqarli ma’lumotlarni qayd qilgan. Ma’lum bo‘lishicha, “Ashshadarozi” o‘yini sumalak pishirish jarayonida tashkil etilgan. Buning uchun ikki yarim-uch metrlar chamasi uzunlikdagi tayoqning uchidan yarim metrlar pastrog‘idan ko‘ndalang qilib kichikroq bir tayoqcha bog‘langan. Tepa qismida qo‘l shakli hosil qilingan. Ana shu tayoqqa uzun bo‘yli bir ayolning ko‘ylagini kiygizishgan va uning uchiga bir ro‘molni tang‘ib, odam boshiga o‘xshatib qo‘yganlar. Uzun bo‘yli yog‘och qo‘g‘irchoqning boshiga xorazmcha duziy do‘ppi kiygizib, ustidan oq ipak ro‘mol tashlaganlar. Uzun ko‘ylakli bu qo‘g‘irchoq “Ashshadarozi” deb atalgan [T.Qilichev. 1988:77]. Ayollardan biri qo‘g‘irchoqqa kiygizilgan uzun ko‘ylakning ichiga kirib olib, Ashshadarozini ko‘tarib, sumalak pishirilayotgan joyga olib borgan. Marosimda so‘zga chechan, xalq qo‘shiqlarini mahorat bilan ijro eta oladigan, san’atga yaqin bo‘lgan ayolga “Ashshadarozi” roli topshirilgan. Uzun ko‘ylakli sarvqomat qo‘g‘irchoq – kelinchakni ko‘targancha Ashshadarozi davraga kirib borar ekan. Sumalak sayliga yig‘ilgan ayollardan yana biri erkakcha kiyinib o‘rtaga chiqib quyidagi xalq qo‘shig‘ini kuylagan:

Ashshadarozi mevaram,
Vaqti namozi bevaram,
O‘n barmog‘ini o‘ynatib,
Boqqan onangga bir salom!

Ashshadarozi avval sumalak sayliga bosh-qosh bo‘lib turgan tajribaga boy bo‘lgan kayvoni momolarga, yugurib-yelib xizmat qilayotgan qiz-juvonlarga, so‘ngra barcha davra ahliga ta’zim qilib, salom beradi. Sayl ishtirokchilari Ashshadarozining egilib, tavoze bilan salom berishini xursandchilik bilan shodlikka to‘lib olqishlaydilar. Shundan so‘ng erkakcha kiyingan xotin va

Ashshadarozi rolini bajarayotgan ayol o‘rtasida quyidagi ko‘rinishdagi aytishuv davom etadi:

Ashshadarozi mevaram,
Vaqti nomozi bevaram,
Boshingni go‘rsat manga,
Ro‘mollar olay sanga,
Man getaman shahri Qo‘qon,
Mandan nishon qolsin sanga.

Boshimni go‘rsatmiman,
Ro‘mollar olmimanam,
Malomatga qolmimanam,
Getsang boshim sadog‘asi...

Bu ko‘rinishdagi qadimiy marosim va milliy o‘yinlar boshqa xalq madaniyatlarida ham kuzatiladi. Qadimiy slovyanlarda qish bilan hayrlashish hamda bahorni kutib olishga aloqador bo‘lgan taqvimiy-mavsumiy marosim hisoblangan “Maslenitsa”da “Chuchelo” o‘yini o‘tkazilish tartibi, ishtirokchilar soni hamda mazmun mohiyati bilan “Ashshadarozi” o‘yiniga o‘xshab ketadi.

Etnografik kuzatishlariga ko‘ra, bu o‘yinlarning kelib chiqish tarixida dehqonchilik madaniyatining shakllanishi, mo‘l hosil garovi hisoblangan quyoshni sharaflash va olovni mo‘tabarlashtirish an’anasi bilan bog‘liq xalq qarashlari muhim rol o‘ynagan. Bizning fikrimizcha esa “Ashshadarozi” – moddiy va ma’naviy olamning tartibotini saqlab turuvchi ezgu iloha Asha va olov sharafiga bag‘ishlab o‘tkazilgan qadimiy bahoriy bayram, ya’ni yilboshi shodiyonalari tizimidagi ramziy o‘yinlardan biri bo‘lib, serhosillik va qut-baraka tilash g‘oyasini o‘zida majussamlashtirgan udumdir.

Milliy qadriyatlarimiz tizimidan joy olgan hozirgi kunda unitilib ketish arafasiga kelib qolgan “Tuxum urishtirish” milliy o‘yini ham o‘ziga xos ijro ko‘rinishga egadir. Surxondaryo viloyati Boysun tumanida yilboshi kuni qishloq ahli qir-adirlarda yig‘ilishib, “Qizil gul” saylini o‘tkazishadi. Bu saylda kayvoni ayollar tomonidan bahamjihat bayramona taom “Go‘ja oshi” tayyorlanadi. Tayyor bo‘lgan taom Navro‘z sayliga yig‘ilgan aholiga tarqatiladi va taomni yeb bo‘lishgach, “Tuxum urishtirish” milliy o‘yini boshlanadi. Ushbu milliy o‘yin uchun tuxumlar maxsus ranglarga bo‘yaladi, ya’ni tuxumlar sariq, qizil, ko‘k ranglarga bo‘yaladi. Yigitlar tuxumlarni cho‘ntaklariga solib oladilar va davrada tuxum urishtiradilar. Kimning tuxumi pachoqlansa, pachoq bo‘lgan tuxumni

harifiga berishga majbur bo‘ladi. Shu zalda o‘yin davom etadi. Saylda qatnashayotgan yigitlar o‘zlari sevgan yoki unashtirib qo‘yilgan qizlariga olma, anor va bo‘yalgan tuxumlarini sekingina otadilar. Bu o‘yinlar zamirida bo‘yalgan tuxumning gul saylida asosiy ramziy detal sifatida keng qo‘llanishi tuxumning bevosita agrar kult bilan aloqadorligidadir. Olma, anor va tuxumlar mifopoetik tasavvurlarga ko‘ra, serhosillik, sevgi, oila va farzand tushunchalari bilan bog‘lanadi.

Bizga ma’lumki, o‘tgan asrning 80-yillariga qadar “Navro‘z” sayli qir-u adirlarda, yaylovlarda o‘tkazilgan. Saylga barcha qishloq ahli hamjihatlikda, shodu xurramlik bilan alohida tayyorgarliklar ko‘rishgan. Saylda qiz-juvonlar sochlarini mayda o‘rib, qoshlariga o‘sma, qo‘llariga xina qo‘yib, yangi tikilgan liboslar kiyganlar. Yigitlar ham boshlariga do‘ppi kiyib milliy liboslarda qatnashganlar. Bu odatlar zamirida ruhiy poklanish, yasharish, yangilanish, yaxshilanish, uyg‘onish kabi ramziy ma’nolar yashiringan.

Navro‘z saylida boy tajribaga ega bo‘lgan momolar hamda kayvoni ayollar tomonidan doshqozonlarda sumalak tayyorlangan. Yigitlar esa o‘tin yorib, saylga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Pazanda va zukko qizlar o‘rtasida turli xil milliy taomlar, somsa va pishiriqlar tayyorlash, tikuvchilik, to‘quvchilik bo‘yicha “mohir qo‘llar” tanlovi e’lon qilingan. Yigitlarimiz o‘rtasida esa “Kurash”, “Ko‘pkari”, “arqon tortishuv”, “chillik”, “oshiq” milliy o‘yinlari o‘tkazilgan. Shundan so‘ng yigit-qizlar aytishuv va hangomalar aytishib bilim va kuchda sinashishgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, saylda yig‘ilgan yigit-qizlar bir-birlariga nisbatan bo‘lgan mehr va muhabbatlarini kuy va qo‘shiqlarga solib pinhona sevgilarini ham izhor etganlar.

Saylda ishtirok etayotgan yosh bolalar o‘rtasida milliy urf-odatlarimizdan tashkil topgan “besh tosh”, “tez aytish”, “oq terakmi, ko‘k terak” kabi ko‘plab milliy o‘yinlar o‘tkazilgan.

Saylda yigit-qizlarning chaqqonlik, mohirlik, pazandachilik, tikuvchilik, to‘quvchilik kabi mahoratlariga baho berish bilan birgalikda xalqimiz tomonidan “qiz sinov”, “yigit sinov”, “ro‘mol o‘rar” udumlari pinhona amalga oshirilgan. Navro‘z saylidan so‘ng yigit va uning qarindoshlariga yoqqan qizlarga sovchi yuborilgan [Xudayqulova L. 2011:86].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, har bir marosim, an’ana va urf-odatlar zamirida o‘zbek millatiga xos bo‘lgan yaxshilik, bag‘rikenglik, sahovatlik hamda mehribonlik xislatlari yashiringan.

Adabiyotlar:

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-tom. Toshkent:Fan,1968.
2. Qoshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. 3-tom. – Toshkent: Fan, 1963.
3. Jo‘rayev M. Navro‘z bayrami. Toshkent: Fan, 2009. – B. 288.
4. Umar Hayyom. Navro‘znoma. Toshkent, 1990.
5. Xudayqulova L.A. Surxon to‘y marosim qo‘shiqlari. Filol. fan. nomzod. dis.... – Toshkent, 2011.
6. Qilichev T. Xorazm xalq teatri. Toshkent: Adabiyot va san’at, 1988.

SUMALAK ILOHIY TAOMMI...?

Zulxumor NARKUZIYEVA,
O‘zDSMI Iqtidorli talabalarning
ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish
bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya. Maqolada Navro‘z bayramining shoh taomi bo‘lmish Sumalakning kelib chiqishi, darmon dorilarga boyligi, xalqimiz urf-odati, hayoti va an'anasiga doir fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sumalak, tarixi, hosildorlik, to`kin-sochinlik, totuvlik, ezgulik, urf-odat, an’ana.

Qishning ayozli kunlari ortga chekinib, qish fasli o‘z o‘rnini fasllar kelinchagi bahorga bo‘shatib berishi bilan tabiat husn-u latofatini ko‘z-ko‘z qilib, butun borliqni yashillikka burkaydi. Bu nafaqat tabiatda, balki insonlarning ruhiyatida ham o‘zgarish paydo qilib, insonlarning qalbiga olam-olam quvonch baxsh etadi.

Navro‘z bayramining shoh taomi bo‘lmish - Sumalakni O‘rta Osiyo mamlakatlarida bahorda pishirish qadimiy odatlaridandir. Sumalak xalqimizning ardoqli shodiyonasi-Navro‘zning ko‘rkidir. Sumalak–Navro‘zning shoh taomi bo‘lib, ko‘klam darakchisi, baraka, hosildorlik, to‘kin-sochinlik, totuvlik, tan-sihatlik va ezgulik ramzidir.

Har yili bahor fasli kelishi bilan yurtimizda Navro‘z taomi hisoblanuvchi sumalak tayyorlanadi. Navro‘z bayrami va unda sumalakni tayyorlanishi qadimdan kishilarda birdamlik, totuvlik hissini tarbiyalab kelgan.

Sumalakning kelib chiqishi tarixi olis davrlarga ajdodolarimizga borib taqaladi. Tarixchilarning ta’kidlashicha, bundan 3000 yil ilgari ham O‘rta Osiyo aholisi o‘rtasida bahorni kutib olish, qishloq xo‘jalik ishlarini boshlash arafasida

endi unib chiqqan ko‘m-ko‘k o‘t-o‘lanlardan maxsus taomlar tayyorlab yeyish odati bo‘lgan. Tabiiyki, – sumalak so‘zining kelib chiqishi to‘g‘risida buyuk tilshunos Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining – “Devonu lug‘otit turk” asarida yozishicha, suma ivitilgan bug‘doy nomi. U quritib tuyiladi, so‘ng undan ugra oshi va non pishiriladi. Sharbat qilish uchun undirilgan arpaga ham-suma‖ deyiladi. Demak, – suma – ivitilgan bug‘doy yoki arpa ma‘nosini anglatuvchi qadimgi turkiy so‘zdir. Shu boisdan sumalak pishirish udumi O‘rta Osiyoda yashagan turkiy qavmlari orasida qadimdan keng rasm bo‘lgan, deb xulosa chiqarish mumkin. Shuningdek, “sumalak” “si malak” so‘zidan olingan degan taxminlar ham bor. “Si malak – o‘ttiz pari, o‘ttiz farishta” degani. Sumalak pishayotganda, qozon boshida o‘ttiz malak o‘tirar emish. Ular yordamida sumalak pishar ekan. Tong mahali, hamma charchab, uxlab qolganida, farishtalar sumalakka tuz soladilar va u shirin bo‘ladi M. Xasanov yozma tarixiy manbalarga, jumladan, Muhammad Husayn Burxonning “Burxoni qoti'” lug‘atiga tayanib, sumalakni “samanu” so‘zi bilan bog‘lab, quyidagilarni yozadi: “samanu – holvaytarga o‘xshagan narsa, ko‘klagan bug‘doy usimtalarining shirasidan tayyorlanadi”.

Husayn al-Oqdliy (XVIII asr oxiri) fors tilida yozgan Davolar xazinasi” “kitobida sumalak haqida shunday yozadi: “Samanu – “nayda”ning forscha nomidir. Uni “samanu bavvo” yoki “samani buyo” deyishadi. Ko‘gina mamlakatlarda sevimli, mashhurdir. U shirin va lazzatli taomdir.

Sumalakni asosan ayollar tayyorlashgan. Sumalak tayyorlashning o‘ziga xos marosim tadbiri vujudga kelgan. Sumalak tayyorlanadigan joyga qo‘ni-qo‘shnilar o‘zaro kelishgan holda turli xil masalliqlar olib kelishib, birgalikda taom pishirishgan, bir qozonda tayyorlangan ovqatni hamma baham ko‘rgan. Ular qozon atrofida suhbat qurishgan, hikoyalar, ertaklar, rivoyatlar va latifalar aytishgan. Lapar va qo‘shiqlar aytib, raqslarga tushib, tonggacha uxlamasdan xursandchilik qilishgan. Qizlar sochlariga tol novdalaridan sochpopuklar taqib, o‘g‘il bolalar esa, turli xil o‘yinlar o‘ynashgan. Sumalak pishiriladigan hovli haqiqiy bayram tusiga kirgan. Sumalak sayli qadimdan kishilarda birdamlik, ahillik hissini tarbiyalab kelgan.

Sumalak kelib chiqishi haqida ko‘plab rivoyatlar bor. Qadim zamonlarda, bir ayol ikki bolasi bilan yashar ekan. Ayol bolalariga egulik topib berishga juda qiynalar ekan. Bir kuni uyida hech narsasi qolmabdi, bolalari bo‘lsa och qolib, “ovqat bering” deb so`rashdan to‘xtamabdi. Shunda ayol qozong suv solibdi va unga uyi oldida o‘sgan o‘tni solib qaynata boshlabdi. Qozonda bir nima bordek bo`lib turishi uchun ichiga ikki-uchta kichik tosh ham solibdi. Bolalari har ovqat

so‘raganda, ayol “hali pishmadi bolam”, deb qozonni kovlarkan. Shu tariqa bolalari va charchab uxlab qolishgan. Ayol tongda uyg‘onib qozondan xushbo‘y hid chiqayotgan, qozondagi taom esa shunday totli ekanki…

Sumalak – shifobaxsh taom. Sumalakning inson salomatligiga foydasi ham ko‘p. Sumalak yangi tabiiy oziqlarga ehtiyoj kuchaygan “ilik uzildi” vaqtida tayyorlangan. Tabiat o‘zgarishi, kunlar isishi davrida inson organizmida kamquvvatlik, behollik, hatto, bosh aylanishi, ko‘z tinishi hollari ro‘y beradi.

Avlodlarimiz buning ham ilojini topishgan. Ular darmon dorilarga boy ko‘katlar solingan taomlar iste‘mol qilishgan. Shu tarzda odamlar “ilik uzildi” mavsumidan oson chiqishgan, yangi iqlim sharoitga tez moslashishganlar. Sumalak ham suyuq, ham quyuq, ham kalloriyali, ham parhez taom bo‘lib, tabiblarning aytishicha, sumalak tarkibida qonga juda tez so‘riladigan monoxarid moddasi bor. Sumalak tarkibidagi oqsil ham a'zoyi badanimizdagi milliardlarcha hujayralar uchun eng yaxshi ozuqadir.Sumalakda sog‘u-bemor uchun birday zarur bo‘lgan “S” darmondorisi bor. Bundan tashqari “S” darmondorisi bor.

Unda “tokoferol” moddasi mavjud. Bu nimrang yog‘simon modda jenshen tarkibida uchraydigan “E” darmondorisining aynan o‘zginasidir. Sumalak gipertoniya kasaliga eng yaxshi davodir. U qon tarkibini yaxshilaydi. Tomirlari toraygan bo‘lsa, qonni suyultiradi. Oshqozon va ichak yo‘llari faoliyatini kuchaytiradi. Issig‘i ko‘tarilgan, qon bosimi oshgan kishi sumalak bilan (2 kun) parhez qilsa, darhol o‘zida yaxshi o‘zgarishni his qiladi. Shunday qilib, sumalak servitamin taom bo‘lib, u kishining ovqatlanishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish bilan birga, uniga ma'naviy-ruhiy holatini ham yaxshilaydi.

Taom tayyor bo‘lgach, sumalak sayli boshlangan..Sumalak sayli (bazmi) asosan ikki qismdan: sumalak tayyorlash va sumalakxo‘rlikdan iborat bo‘lgan.

Bunda mahallaning ahilligi va o`zaro bir-birlariga hurmati aks etgan. Keying paytlarda ba’zi joylarda bu an’ana buzilganday mahalla bilan emas, balki qarindosh urug`lar birgalikda sumalak tayyorlash odat tusiga kirib bormoqda. Bu esa, mahallaning o‘rnini biroz pasayganini ko‘rishimiz mumkin (bunga sabab KOVID – 19 ham bo‘lishi mumkin).

Bu taom xalqimiz urf-odati, hayoti va an'anasiga shunchalik singib ketganki, hatto noto‘g‘ri tushunchalar ham paydo bo‘lgan. Xususan, islomiy aqidalarga to‘g‘ri kelmaydigan turli xil fikrlar, gap-so‘zlar xalq orasida ommalashgan. Ko‘plar shunga ishonib ham qolgan. Xo‘sh, aslida, bunday fikrlar haqiqatga yaqinmi? “Sumalakni kovlagan, undoq yoki bundoq bo‘ladi” degan gaplar qanchalik asosli? “Bu kabi savollarga esa, albatta, diniy ta’limga ega kishilar asosli ravishda javob

bera olishadi. Toshkent shahar va “Minor” jome masjidi bosh imom-xatibi Anvar qori Tursunov shunday javob bergan:

“Mana sumalak qilinadi Navro‘zda. Sumalak qilsa yaxshi. U vitaminlarga boy. Ya’ni tarkibida juda ko‘p ozuqaviy qiymati yuqori bo‘lgan minerallar va vitaminlar bor. Ilgari insonlar buni bekorga tayyorlashmagan. U kuchli taom hisoblanadi. Uni iste'mol qilgan odamda quvvat paydo bo‘ladi.

Ammo, shu o‘rinda xalqimiz orasida keng tarqalgan ayrim bid’at va noto‘g‘ri tushunchalar ham bor va ularni hanuz uchratish mumkin. Xususan, sumalak pishirsang jannatga kirasan, yettita tosh tashlasang undoq, buni qilsang mundoq, bularning barchasi behuda, ahmoqona gaplardir. Sumalak bilan shavla va palovning hech qanday farqi yo‘q. Hammasi taom hisoblanadi. Bo‘ldi, uni ilohiylashtirish kerak emas. Ba'zilar holvaytar qilish kerak, deyishadi. Ilohiy taom bo‘lmaydi, taom Allohning bergan ne'matidir. Har xil gap bor-ku, masalan xotinlarning qatlama qilish kerak, u qilish kerak, bu qilish kerak, degan gaplarini eshitib qolamiz. Bularning barchasi bid'at gaplar, gunoh gaplar. U (sumalak) ovqat, bismilloh aytib yeysiz, quvvat bo‘ladi, tamom.

Tug‘magan xotinlar kovlasa farzandli bo‘lar ekan, degan ishonch ham quruq safsatadan boshqa narsa emas. Farzandni Alloh beradi, sumalak bermaydi. Bu kabi ishlarni qilishdan saqlanish kerak. Ba'zan shunday holatlarga duch kelinadiki, yetti marta kovlasang gunohing kechiriladi, deyishadi. Ellik marta kovlasang ham kechirilmaydi, tavba qilsang kechiriladi. Pishirib, tayyorlash mumkin. Ammo, taomni ilohiylashtirish kerak emas”, - deydi Anvar qori Tursunov.

Inson har bir ishni boshlashdan oldin yaxshi niyatlar bilan boshlaydi, Anvar qori Tursunov aytganlaridek, bid’at va notog‘ri tushunchalardan saqlangan holda Navro‘zning shoh taomini tayyorlashimizda ilihiylashtirilmagan holda tayyorlasak, nur ustiga a’lo nur bo‘ladi.

Darhaqiqat, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, sumalakning inson salomatligiga foydasi. darmon dorilarga boyligi uchun ham “ilik uzuldi” vaqtida bu shifobaxsh taomni xalqimiz sevib iste’mol qilishadi.

Adabiyotlar:

1. M. Qoshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk”.
2. O. Bo‘riyev. Navro‘z tarixidan lavhalar, – T.: O‘zbekistan, 1990.
3. Yo‘ldosh Muqim o‘g‘li Otash. Navro‘z naqli. – T.: O‘zbekiston, 1992

BU DAMKI ESIB NASIMI NAVRO‘Z...

Zumriniso KOZIMOVA,
O‘zDSMIning O‘zbek tili va
adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Navro‘z bayramining kelib chiqishiga doir fikr-mulohazalarni “Avesto”dagi voqealar, “Shohnoma” va “Tarixi mulki Ajam”dagi tasvirlar bilan bayon qilinadi. Shuningdek, Alisher Navoiyning lirik va epik asarlaridagi navro‘z so‘zining qo‘llanilishi haqida tafsilotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: hamal, navro‘z, barra, faravashi, shamsiy, qamariy, Jam, Yima.

Аннотация. В данной статье рассматриваются истоки Навруза с событиями в Авесте, Шахнаме и историческим достоянием Аджама. В лирико-эпических произведениях Алишера Навои также представлени подробности употребления слова Навруз.

Ключевие слова: хамал, навруз, барра, фараваши, шамси, камари, джам, йима.

Annotation. This article discusses the origins of Navruz with the events in the Avesta, Shahnameh and the historical heritage of Ajam. In the lyrical-epic works of Alisher Navoi, details of the use of the word Navruz are also presented.

Key words: hamal, navruz, barra, faravashi, shamsi, kamari, jam, yima.

O‘rta Osiyoda qadimda qamariya va shamsiya yil hisobi amalda bo‘lgan. Ikkala taqvimda ham yangi yilning birinchi kuni 21 yoki 22-mart – bahorgi tengkunlik nuqtasi kelganda Hamalning birinchi kuni yangi yil hisoblanib, Navro‘z bayrami nishonlangan. Shamsiy – quyosh yili hisobi hijriy – 622 yilning bahorgi tengkunlik kuni – 21–22-martdan, ya’ni hamal oyidan boshlangan. Mart arabchada hamal, tojikchada barra, “Avesto”da faravashi nomlari bilan yuritilgan. Firdavsiyning “Shohnoma”sida Navro‘z bayrami 700 yil hukmronlik qilgan shoh Jamshid nomi bilan bog‘lanadi. Uning hukmdorlik davrida temir ixtiro qilinadi, yungdan kiyim-kechak tikib kiyiladi, xalq dehqonlar, ruhoniylar, harbiylar va hunarmandlar tabaqalariga bo‘linadi. Tog‘u toshlardan javohirlar ajratib olinadi.

Podshoh topshirig‘i bilan go‘zal taxt quriladi. Devlarga taxtni ko‘tarib osmonu falakka sayr qildirishlari buyuriladi. Xalq o‘sha kunni “Navro‘z” deb ataydi.

“Dev ko‘tarib uchsin”, deb bo‘ldi farmon,
Taxt ko‘tarilganda past bo‘ldi osmon...
Barcha jam, odamlar qarar taxtiga,
Jahon qoyil bo‘ldi shukuh – baxtiga.
Jamshidga sochishar oltinu gavhar,
Shu kunni yangi yil – bayram deyisharyu
Yil boshi Xurmuzu edi farvardin,
Dilda na g‘am qoldi, na adovat-kin [1, 14].

Jamshid yoki Jam – peshdodiylar sulolasining 4-podshosi bo‘lib, qadimgi Sharq afsonalarining yorqin siymolaridan biri bo‘lgan. U “Avesto”da Yima nomi bilan ataladi va bir qancha sifatlari keltiriladi. Jumladan, Xshaita – shohona, Havaridarisa – Quyosh yuzli, Srayr – go‘zal, issiq diydor, Hvasva – yaxshi suruvlar sohibi.

“Vandidod”ning 2-fargardi “Jam” dostoni deb yuritiladi. Ahura Mazda, ya’ni Xurmuzning topshirig‘i bilan Jamshid odamlar quruq tuproqni yumshatganlaridek, yerni tovonida ezadi va qo‘llari bilan shudgor qiladi. Odamlar va hayvonlar uchun var – yer osti manzili bino qiladi. U yerda hamisha yegulik va qut-barokotli yaylovlar yaratadi. Yer yuzidagi eng baland, eng xushbo‘y o‘simliklarning urug‘larini olib boradi...[2, 111]

Faravashiy – oyning o‘n to‘qqizinchi kuni bo‘lib, shamsiy yilning birinchi oyi nomi (21 martdan 20 aprelgacha) Farvardin ma’budi nomidan olingan. “Avesto”ning o‘n uchinchi yashti shu nom bilan atalgan.

Ko‘rib turganimizdek, “Avesto”da “Navro‘z” bilan bog‘liq voqea yo‘q. Ammo Jamshidning hukmdorligi afsonaviy tarixning “oltin davri” – yashillik, sog‘lomlik, farovonlik, ezguliklarning boshlanishi sifatida tasvirlangan. Shuning uchun ham Firdavsiy va Beruniylar “Navro‘z”ning paydo bo‘lishini ushbu davr bilan bog‘lagan bo‘lsalar ajab emas.

Yusuf Xos Hojibning “Devonu lug‘otit turk” asarida esa Hamal oyi “Qo‘zi” nomi bilan ataladi:

Qozы йазқы йулдуз баса Уд кэлир
Эрəндиз қучық бирлə синчү йурыр [3, 82].

Alisher Navoiyning “Tarixi mulki ajam” asarida ham “Shohnoma”dagi kabi “Yangi yil”, ya’ni Navro‘z Jamshid nomi bilan bog‘langan: “Ul vaqtkim quyosh

nuqtan e’tidoli rub’ig‘a tahvil qilib erdi, ul binoda taxt ustiga o‘lturub, adolat siyt va sadosin olamg‘a muntashir qildi va ul kunning otin Navro‘z qo‘ydi [4, 196].

Alisher Navoiyning epik asarlarida bahor fasli, navro‘z ayyomi tasvirlari qahramonlarning yosh xususiyatlari, ruhiy holatlarini ochib berish uchun ham xizmat qilib keladi.

“Farhod va Shirin” dostonining XVII bobida Farhodning to‘rt faslda to‘rt qasrda tuzilgan bazmlarda aslo ko‘ngli ochilmagani, Xoqonning unga iloj qila olmagani bayon etiladi:

Hamal tahvili etkach mehri gulchehr,

Ochar yuz gul zamona ko‘rgach ul mehr [5, 552].

Guvohi bo‘lganimizdek, bu baytda obrazli qilib kunduz va kechaning barobar kelishi, Navro‘z bayrami kunlariga ishora qilinmoqda. “Layli va Majnun”da ham ayni shunga yaqin holatni kuzatamiz:

As’hobg‘a mayli bog‘u gulzor.

Ham tan sanga reshu ham ko‘ngul zor.

Bu damki esib nasimi **navro‘z,**

Gul atrini qildi majlisafro‘z.

Bog‘ o‘ldi bahordin gulafshon,

Sunbul bu gul uzra kokulafshon [6, 83]

Ya’ni, do‘stlar bog‘u gulzor tomoshasida ekan, sening taning yaralanib, ko‘ngling qayg‘u bilan to‘libdi. Hozir Navro‘z yellari esib, yig‘inlarga gul hidlarini ufirgan. Bog‘ bahordan gullarga to‘lgan. Sunbul esa gul ustiga kokilarini yoygan... Har ikki asarda ham Navro‘z ayyomidagi elning shodu xurramligi, atrofning turfa go‘zalligini ta’riflashga so‘z ojiz. Ammo Farhod ham, Majnun ham ming bir iztirobda, ko‘ngli anduhga to‘la, jon o‘rtovchi oh chekmoqda. Inson ilk bora sevgi otashiga umr faslining bahorida duch kelishi sababli ham asarda qahramonlar qalbiga Navro‘z ayyomida ishq otashi tushadi.

“Saddi Iskandariy” dostonida yilning boshlanishi Navro‘z bilan ekanligi ta’kidlanadi:

Ulus chehrai olamafro‘zidin,

“Bilur yil kelishini navro‘zidin” [7, 618].

“Munshaot” asarida bahor faslining yaqinlashishi bilan navro‘z nasimining esishi tabiatni turfa go‘zalliklarga burkaganligi tasvirini keltiriladi. “Tog‘-tog‘ niyoz raf’idin so‘ngra qof-qof ixlos yuzidin ma’ruz ulkim, bu fasldakim, navro‘z nasimining mushkbezlig‘i lola dimog‘in savdoyi va bahor salqinining atrangezlig‘i

bulut mizojin havoyi qilibturur, loladek savdoyilig‘din tog‘ havosi qilib, bulutdek havoyilig‘din qayo savdosi boshqa tushti...” [8, 137].

Shuningdek, Navoiy asarlarida bugungi kundagi singari Navro‘z nomi bilan atalgan bir qancha atoqli otlarga ham duch kelamiz: “Ul yerning havosi ruhparvarlikda jannat havosidin nishona aytur va yeli hayotbaxshlikda firdavs nasimidin namuna ko‘rgo‘zur. Va tog‘ jonubidin jo‘yi Navro‘ziy o‘tarkim, sadosi g‘ulg‘ulasidin labtashnalar qulog‘ig‘a mujdai obi hayot taronasi yetar...” [8, 261]; “Va ma’hudiy albisadin misli: dastor va qalpoq va navro‘ziy va to‘ppi va shirdog‘ va dakla va yalak va yog‘lig‘ va terlik va qur yo‘sunlug nimalarni borisin turk tili bila ayturlar” [9, 17]. Ko‘rib turganimizdek, birinchi misolda ariqning, ikkinchisida esa bosh kiyimning nomi navro‘z atalgan.

Navoiy shoirlarning bahor va navro‘z haqida she’r yozganliklarini, ularning suhbatidagi ko‘tarinkilikni ham alohida e’zozlaydi: “Abdulvose’ – Badeuzzamon Fariduddin ibni Umar ibni Rabe’i Gurjistoniy. Devoni qasida, g‘azal va ruboiylardan tarkib topgan. Ularda bahor va navro‘z, ishqu muhabbat, do‘stlik va sadoqat tarannum etilgan” [10, 285]; “Borcha sodotu mashoyix va ulamoyu fuqaroning mahbub ul qulubi erdi va podshoh eshigida arkoni davlatdin oliyshon beklar va oliymakon ichkilar va sudur va soyir xaloyiqg‘a Pahlavonning suhbati navro‘z va bayramcha bor erdi..” [11, 140]

Navoiyning lirik asarlarida jumladan, “Badoye’ ul-bidoya”da 4 ta, “Navodir un-nihoya”da 3 ta, “Badoye’ ul-vasat”da 3 ta g‘azalda navro‘z bilan bog‘liq beqiyos tashbehlarni uchratamiz. Shoirning lirik she’rlarida bir o‘rinda kun va tunning tengligi mahbubua sochi va qaddining tengligiga, boshqa o‘rinda adolatli visolga mengazilsa, boshqa bir misrada oshiqning mahbubasi visoliga erishishi bayram – navro‘z bo‘lishini bayon qilinadi:

Yuz ochib bildurdi qad birla sochi teng erkanin,
Zohir o‘lg‘ondek tunu kun tengligi **navro‘zdin** [12, 409].
Ko‘yungga har kun borib har dam ko‘ray dermen seni,
Menga har kun bayramu har lahza **navro‘ze** kerak [13, 316].

“Devoni Foniy”da ham o‘qiymiz:

Chaman az maqdamat ҷon yofta, n-az bodi navruzist,
Taharruk dar shaҷarho, ҷilva dar gulhoyu rayhonho.

Daraxtlarning tebranishi, gul va rayhonlarning jilvasi navro‘z yelidan emas, chaman sening qadamingdan jon topganidadir [14, 14].

YO baromad dudi otashhoi lola bar sipehr,
Abri navrӯzӣ, ki binӣ bar farozi kӯhsor.

Bahor bulutining soyasi qorong‘iligida lolazor kechasi bahor lashkargohi yoqqan olovlari kabi bo‘lib ko‘rinadi. Tog‘lar tepasida ko‘rganing navro‘z bulutimi, yoki lola olovlarining tutuni ko‘kka o‘rlaganmi? [14, 6]

Ba hullahoi mulavvan rasid ҷilvagarӣ,

Ba bazmi ahli shabiston zi shohidi navrӯz.

Navro‘z (ilk bahor) go‘zali shabiston ahli bazmiga rang-barang kiyimda kelib, jilvagarlikni eng cho‘qqisiga ko‘tardi [14, 33].

Yoshlik va go‘zallik, sog‘lomlik va sahovat, ishq va muhabbat fasl bo‘lgan bahor va bunday ezguliklarning boshlanishi bo‘lgan navro‘z haqida qalam tebratmagan shoirni uchratish qiyin, albatta. Bu kabi she’rlar kitobxon ko‘ngliga ko‘tarinkilik bag‘ishlash bilan birgalikda qalbiga ezgulik urug‘ini qadashi ham, shubhasizdir. Hazrat Navoiy ta’kidlaganidek, yurtimizda har damki nasimi navro‘z esib tursin, har kunimiz navro‘z bo‘lsin...

Adabiyotlar:

1. Firdavsiy. Shohnoma. T., 1984.
2. Avesto. T.: Sharq. 2001.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. T.: Fan. 1971.
4. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami.: T.16. Tarixi mulki Ajam. – T.: Fan, 2000
5. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami.: T.8. Farhod va Shirin. – T.: Fan, 1991
6. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami.: T.9. Layli va Majnun. – T.: Fan, 1992
7. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami.: T.11. Saddi Iskandariy. – T.: Fan, 1993
8. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami.: T.14. – T.: Fan, 1998
9. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami.: T.16. Muhokamat ul-lug‘atayn. – T.: Fan, 2000
10. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami.: T.13. Majolis un-nafois. – T.: Fan, 1997
11. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami.: T.15. Holati Pahlavon Muhammad. – T.: Fan, 1999.
12. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami.: T.2. Navodir un-nihoY. – T.: Fan, 1987

13. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami.: T.1. Badoye’ ul-bidoY. – T.: Fan, 1987
14. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami.: T. 18, 19. Devoni Foniy. – T.: Fan, 2002

OGAHIYNING “NAVRO‘Z” RADIFLI G‘AZALIDA SHE’RIY SAN’ATLARNING QO‘LLANILISHI VA O‘RNI

To‘lg‘anoy MAMATQULOVA,
O‘zbekiston davlat san`at va madaniyat instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada iste’dodli ijodkor Ogahiy tomonidan yozilgan “Navro‘z” radifli g‘azalida qo‘llanilgan she’riy san’atlar yuzasidan so‘z boradi. Yozuvchi she’riy san’atlar bilan birgalikda navro‘z bayramining urf-odatlari haqida yoritib o‘tadi.

Kalit so‘zlar: navro‘z, tashxis, tashbih, tazod, g‘azal, bayt, misra.

Аннотация. В данной статье рассматривается поэтическое искусство, использованное в радифийской газели «Навруз», написанной талантливым художником Огахи. Наряду со стихами автор рассуждает о традициях Навруза.

Ключевые слова: навруз, ташхис, ташбех, тазод, газель, байт, мисра.

Annotation. This article discusses the poetic art used in the Radifi ghazal "Navruz", written by the talented artist Ogakhi. Along with the poems, the author discusses the traditions of Navruz.

Key words: navruz, diagnostics, tashbih, tazod, ghazal, bayt, misra.

Ilm-fan, san’at va adabiyotning qadim maskanlaridan bo‘lgan Xorazmning ulug‘ shoir-u olimlaridan gap ketganda, serqirra iste’dod sohibi Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning muborak nomi albatta, tilga olinib, she’riyat, tarjima, tarixnavislik jabhasidagi faoliyati faxr bilan e’tirof etiladi. U hayotda ham, ijodda ham o‘zligini to‘la ko‘rsata bilgan, insoniy qiyofasi singari adabiy shaxsiyati ham takrorlanmas daho shoirdir. O‘zbek mumtoz adabiyotida, xususan, Xorazm adabiy muhitida Ogahiy yaratgan ijod qasri shunchalik muhtasham va naqshinkorki, uning

ko‘rki, rangi, ma’no-mohiyatini hanuzgacha hech kim to‘la ta’rif-u tavsif etib bera olgani yo‘q. She’ri o‘ziga-o‘zi mohiyatiga, mohiyati badiiy zakosini yolqinlantirajak oliy haqiqatlarga uyg‘un kelib, shaxsiyati esa sir, irfon, fazilatlar mahzani bo‘lib qolaveradigan iste’dod sohiblari bu dunyoda siyrak uchraydi. Muhammad Rizo Ogahiy ana shunday zotlarning ham peshvolaridan. O‘z zamonasidayoq e’tirof etilganidek, u ogohlarning ogohi, haqgo‘ylarning sarboni va oriflarning shoiridir. Uning ijod merosida biz turli xil mavzularda yozilgan g‘azal, tuyuq, ruboiy, muxammas va shu kabi turli xil mavzulardagi yuksak did va mahorat bilan bitilgan she’rlarni uchratishimiz mumkin. She’rlari zamirida esa xalq rasm-rusumlari, ommaviy bayramlar, marosimlar ko‘p tasvirlangan. Ushbu maqolada esa e’tiboringizga havola qilmochi bo‘lgan g‘azal tahlili “Navro‘z”dir.

Ushbu she’r tabiat tasvirining go‘zal lirikasi hisoblanadi. Shoir shunday ta’sirli va go‘zal san’at asarini yaratish uchun turli xil she’riy san’atlardan mohirona foydalanadi. Biz bu g‘azalni tashxis san’ati(tashxis (arabcha – shaxslantirish) jonsiz narslarni jonlantirish, jonsiz predmetlarni insonga xos xususiyatga kiritish) ustiga qurilgan deb bemalol ayta olamiz. Chunki matladan, maqta’gacha deyarli hamma baytda ushbu san’at qo‘llanilgan.

Baland aylab quyoshga poya navzo‘z,
Ko‘tardi yer yuzidin soya navzo‘z.

Kelib fayz-u nishot-u aysh birla,
Muhayyo qildi elga voya navro‘z.

Dastlabki baytda navro‘z jonlantirilyapti va uning yurtga kirib kelishi tasvirlanyapti. Bu yerdagi “poya” so‘zi “qadr”, “daraja”, “bosqich” ma’nolarida qo‘llanilayotganligiga e’tiborimizni qaratgan holda misralarni quyidagicha sharhlay olamiz: u quyoshni baland martabalarga yuksaltirdi va bu bilan birga yer yuzidan soyani ko‘tardi. G‘azalning ilk misralaridanoq tashxis san’atiga ko‘zimiz tushadi: navro‘zning jonlanishi. Ikkinchi baytda esa navro‘z elga fayz, aysh va shodlik, ya’ni nishot bilan kirib keldi hamda ushbu uch xushbaxtlikni elga muhayyo qilib, eldagilarni ko‘nglini olayotgan tanti va saxiy kishiga qiyoslanyapti. Demak, biz ushbu baytda faqatgina tashxis san’atini emas, balki unga hamroh sifatida tashbih san’atini ham uchratishimiz mumkin. Uchinchi baytda ham shunday holat, ya’ni tashxis va tashbih baqamti qo‘llanilgan holda ajoyib bir holat ko‘z o‘ngimizda gavdalanyapti:

Tarab tiflin tug‘urdi dahr zoli,
Ango bo‘ldi magarkim doya navro‘z.

Birinchi navbatda biz uchun mavhum bo‘lgan so‘zlar ma’nosiga aniqlik kiritamiz: tarab – shodlik; tifl – chaqaloq, go‘dak; tug‘urdi – tug‘di, dunyoga keltirdi; dahr – dunyo; zol – kampir. Yuqoridagi ma’nosi anglashilgan so‘zlarga tayangan holda baytni quyidagicha sharhlashimiz mumkin: dunyo kampiri shodlik chaqalog‘ini tug‘ar ekan, navzo‘z unga doyalik qildi. Ushbu baytdagi tashbihlarga e’tiborimizni qaratar ekanmiz, dunyoning kampirga, shodlikning esa chaqaloqqa o‘xshatilishining zamirida ham ma’lum ma’no yashirilgan: dunyo – ko‘hna, shu jihatdan uning kampir kabi keksaligiga nisbat berilib, kampirga o‘xshatilyapti. Shodlikning chaqaloqqa qiyoslanishida ham alohida ma’no yashirin: avvalo, bahorning kirib kelishi bilan barcha dillar yayrab, shodlikka burkanadi, boshqa tarafdan olib qaraganimizda esa bahor kirib kelishi bilan musulmon taqvimida yangi yil boshlanadi, ya’ni 21-mart nafaqat Navzo‘z bayrami, balki yangi yilning tug‘ilish bayrami hamdir. Shunga tayangan holda shoir Ogahiy ushbu tashbihlarni mahorat bilan qo‘llagan.

Qilibdur mahluqolarning yuzini,
Latofat mus’hafig‘a oya navzo‘z.

To‘rtinchi baytda shoir Qur’oni Karimning ikkinchi nomi sifatida qaralib kelinayotgan “Mus’haf” so‘zini qo‘llash bilan ajoyib badiiy ifodani yuzaga keltirgan. Lekin bu yerda mus’hafning aynan Qur’oni Karim sifatidagi ma’nosi emas, balki uning so‘zma-so‘z tarjimasi, ya’ni “sahifalar to‘plami” qo‘llanilyapti. Mantiqiy jihatdan qaraydigan bo‘lsak, sahifalar to‘plami kitob ma’nosida kelgan. Ushbu baytdagi “mahluqo” so‘zi esa “yaratilmish”, “yaratiq” ma’nolarini bildiradi. Bundan kelib chiqib, navro‘z Alloh yaratgan yaratilmishlarning yuzini latofat kitobiga oyat qilibdur degan umumiy ma’noni hosil qilamiz.

Kiyib ahli g‘in yuz rang xil’at,
To‘lo boshdin ayoq peroya navro‘z.

Hama o‘ynab olib qo‘lg‘a yumurta,
Mening ilgimda yoqtur xoya navro‘z.

G‘azalning beshinchi va oltinchi baytida shoir milliy an’analarga murojaat qiladi. Xalqimizning bayram kunlarida o‘zgacha kiyinishi (yuz rang xil’at) va turli xil o‘yinlar o‘ynashi shoir qalamiga tushadi, ammo achinarli tarzda, ya’ni shoir o‘zi va xalqning boy tabaqasini bir-biriga solishtiryapti va hatto uning qo‘lida o‘ynash uchun yumurta (tuxum) yo‘qligidan aziyat chekyapti. Bu jarayonni esa shoir o‘zining ahvolini el bilan zidlash orqali aniq ifodalab beryapti.

G‘azalning sakkizinchi baytida mubolag‘a janridan foydalanib, shoir o‘z holatini bayon qilib beradi: uning holi shunchalar zabunki, o‘zining holati sababli to‘kayotgan yoshlariga qoqilib ketadi:

Diramdir moyasi ishrat ulusg‘a,
Vale men bo‘lmisham beroya navro‘z.

Janobi shahg‘a keldim bu jihatdin,
Ko‘zim yoshig‘a toya-toya navro‘z.

Ki shoyad o‘zgalardek Ogahiyni
Tarabnok ayladi beg‘oya navro‘z.

Xulosa o‘rnida shuni ayta olamizki, so‘z mulkining sultoni bo‘lgan Alisher Navoiyni o‘ziga ustoz bilgan mutafakkir Ogahiy “Navro‘z” radifli g‘azalida turli xildagi she’riy san’atlardan foydalangan holda asar mazmun-mohiyatining o‘quvchilarga to‘liq yetib borishini va maroq bilan o‘qilishini ta’minlagan. Yozuvchi g‘azalda nafaqat she’riy san’atlarga mahorat bilan yondashgan, balki o‘zbek xalqining qadimiy urf-odatlari-yu, an’analarini ham birma-bir o‘quvchiga tushuntirib o‘tishga harakat qilgan.

Adabiyotlar:

1. Ogahiy. Ta’viz ul-oshiqin. Tanlangan asarlar. 1-jild. –T., 1971
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati – T. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
3. Munirov Q. Ogahiy. Toshkent, O‘zbekiston FA nashriyoti. 1969.
4. Sabitova T. Ogahiy ijodida Navro‘z madhi. “Navoiy universiteti” nashriyot matbaa uyi. 2020.
5. Haqqul I. Ogahiyning shaxsiyati va she’riyati xususida. “Ipak yo‘li poligraf”. 2019

O‘LKAMDA FASLI BAHOR

Nulifar RO‘ZIYEVA,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti “Kutubxona fondlari va

bibliografiyashunoslik”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annatatsiya. Ushbu maqolada: Yasharish va yangilanish, fasllar kelinchagi bo‘lmish bahor fasli, milliy bayramimiz navro‘zning paydo bo‘lishi va nishonlash jarayoni, ushbu bayramda tayorlanadigan o‘zbek milliy taomlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: bahor, sumalak, kelinchak, navro‘z, umumxalq, qaldirg‘och

Uyg‘onguvchi bog‘larni kezdim,
Topay dedim qirdan izingni.
Yanog‘ingdan rang olgan dedim,
Lolazorga burdim yuzimni.
Uchratmadim ammo o‘zingni,
Sen bahorni sog‘inmadingmi?

“Navro‘z qadimiyligi, keng geografik qamrovi va uni nishonlash vaqtidagi turli davrlari sababli, nomoddiy madaniy merosning xilma-xil xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. U “Navro‘zi Jamshid”ini anglatgan Eronning afsonaviy shohi Jamshid va shu kabi afsonalarga asoslangan ko‘pgina madaniy shakl va tasvirlardan tashkil topgan” . Navro‘z bayrami tarixi Navro‘z bayrami fors-tojik va turkiy xalqlarning qadimiy bayramlaridan biridir. Bu bayram 21-mart kuni nishonlanib, aynan kun va tun teng bo‘lgan paytga mos keladi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha va olimlarimiz fikriga ko‘ra, Navro‘zning shakllanish davri – eng qadimgi zamonlardan “zardushtiylik”ning paydo bo‘lishigacha davom etgan asrlarni o‘z ichiga olgan ekan. Navro‘z so‘zi fors-tojik tilidan olingan bo‘lib “Yangi kun” degan ma’noni bildiradi. Qadim-qadimdan Navro‘z, xolis niyatli kishilarning sevimli ayyomi bo‘lib kelgan. O‘sha kunlarda hatto urush-janjallar ham to‘xtagan, gina-kuduratlar kechirib yuborilgan. Shohlar el ichidan eng munosib kishilarni taqdirlashgan, ayrim mahbuslarning gunohidan o‘tishgan. Bahor va yangi ayyom har bir yurakdan muhim joy olgan quvonchli damlarda ko‘pchilikning “Navro‘z qayerda va qachon paydo bo‘lgan ekan?” – degan savoliga “Saodat” jurnalida e’lon qilingan.

O‘lkamda bahorning ilk kunlari, boshlanishi bilanoq qushlarning sayrashi hamma joyni tutib ketadi. Bu bilan bizga bahor kelganidan darak beradi. Bahor fasli fasllarning boshlanishi, uyg‘onish davri hisoblanadi. Qishda uyquga ketgan

hayvonlar, bahorda uyg‘onishadi. Ya’ni uyg‘onish yangi sahifani boshlanishi, yo‘lning boshlanish davriga kiradi. Bahor oylari 3 ta bo‘lib bular mart, aprel va may kiradi. Har bir xalqning o‘z milliy bayrami bo‘lgani singari bizning ham milliyligi ufurib turgan, milliyligimiz aks etgan bayramlaimiz bor. Ular 8-mart xotin qizlar bayramimiz, Navro‘z umumxalq bayrami va yana bir qancha bayramlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu bayramlarning barchasi bahor faslida nishonlanadi. Bahor fasli kirib kelishi bilan, daraxtlardan kurtaklar chiqa boshlaydi. Qir-adirlar yam-yashil tusga kiradi, alvon-alvon ranglarga bo‘yaladi, soylarda suvlar to‘lib toshib oqadi. Ariq bo‘ylarida yalpizlar chiqib o‘z iforini tarata boshlaydi, dalalar sap-sariq boychechaklarga burkanadi. Ko‘chalar obodonlashtirib, turli xil gular ekiladi, ko‘kalamlashtirish ishlari boshlanadi. Daraxtlarning atroflari oqlanadi. Turli hil ko‘chatlar ekiladi. Bahor bayramlari juda katta tantana bilan nishonlanadi. Ona xalqimiz milliyligini o‘zida mujassam etgan Navro‘z bayrami bunga yaqqol misol. Bahor faslida bolalarning ovozlari osmonlarga yetadi. Sababi bolalar bahorda qir-adirlarga chiqishib boychechak, lolaqizg‘aldoq va chuchmomolar terishib gulchambarlar yasashadi, turli xil milliy o‘yinlar o‘ynashadi, ayniqsa bahor oyida varrak uchirishni judayam yoqtirishadi.

Bahor faslining mart oyining yigirma birinchi martdan yigirma ikkinchiga o‘tar kechasi kun va tun teng bo‘ladi. Shu kundan boshlab, kunlarimiz uzaya boshlaydi. |Bu tangrining bizga bergan in’omidir. Musulmonlarning yangi yili shu hisoblanadi. Bobodehqonlarimiz asta-sekin ketmonlarini ko‘tarib o‘z dalasi tomon yo‘l oladi. Qishning qahriga dosh beraolmagan yerlarini quyoshning zarrin nurlari ila eritib tashlaydi. Bahor havosi salqin bo‘ladi. Asta sekin kunlar issiy boshlaydi. Bahor insonlar bir-biriga mehr, baxt, sihat salomatlik mehribon onaxonlarimizu, nafosatga limo-lim ayollarimiz dilbar opa singillarimiz shirindan shaker jajji qizchalarmizga go‘zalik, nafislik baxsh etadi.

Tasavvur qilish insonga tangri tomonidan berilgan in’omdir. Inson biror nimani o‘ylasa yo qilmoqchi bo‘lsa eng avvalo uni tasavvur qilib ko‘radi. Uni qandayligini tasavvur darajasi yetganicha qiladi, undan uyog‘iga o‘tib ketmaydi. Tasvvur qilishning yana bir turi mavjud, bu orzu qilish degani. Orzu va tasavvur orasida juda katta farq bor. Sababi orzu qilish bu insonni o‘zida yo‘q narsani orzu qilib unga intilish degani bo‘lsa, tasavvur esa biror narsani o‘ylab o‘shani hayolan jonlantirish degani. Bahorni o‘ylashning o‘zi inson qalbiga huzur va orzular to‘la olam baxshida etadi. Bahor faslini tasavvur qilganimizda yuraklarimiz hapqirib ketadi. Bahor yangilanish yangi orzular qilish, hayotga ildam qadam qo‘yish yangi rejelar tuzishdek tasavvur qilamiz. Bahor fasli o‘zi bilan bir olam yangiliklar olib keladi. Yana tasavvur qilar ekansiz dalalardagi lolaning guliyu tog‘dagi sharqirab oqayotgan suvlarning ovozi ko‘z oldingizga keladi. Bahor tasavvurimizga sig‘may ketadi. Bahorni sumalaklar, sayllar, o‘zimizning milliy o‘yinlarimizsiz tasavvur qila olmaymiz. Eng birinchi tasavvurimizga Navro‘z bayrami, undagi momalarimizning bizga aytgan hikoyalari, navro‘z tarixi, uning kelib chiqishi udumlari keladi. Navro‘z bayramida esa ko‘pkari, kurash, turli xil aytishuvlar va milliy raqslarsiz tasavvur qila

olmaymiz. Tabiat bizga shunday ne’matlarni in’om etganki bunga shukr keltirishimiz kerak. Bahorni sumalaksiz tasavvur qila olmaymiz, yozni suvsiz, kuzni zangorangsiz qishni esa oq parchalarsiz tasavvur qila olmaymiz. Shunday ekan tasavvurimizdagi fasllar kelinchagi bahorni shunday tasavvur qilaylikki amalda ana shuni ko‘raylik. Men bahorni tasavvur qilar ekanman, eng avvalo ko‘z o‘ngimga daraxtlarning gullashi atrof ko‘m-ko‘k bo‘lib insonlarning shodu-xuramliklari, qir-adirlarda bolalarning varak uchurib, quvonishayotganlarini, doshqozonlarimizda sumalaklar pishirilib, hammaga ulashayotganlarini, barcha joylarda ko‘kalamzorlashtirish ishlari olib borilayotganini, qalblarga quvonch olib kirganini tasavvur qilaman. Bahorni yana qaldirgo‘chsiz tasavvur qila olmaymiz . Qaldirg‘och to‘kin-sochinlik don-dun olib keladi.

Bahor faslini men yosharish va yangilanish, yangi davrga qiyoslayman. Bahor kirib kelishi bilan o‘zining ko‘m-ko‘k libosini atrofga yoya boshlaydi. Atrof tobora go‘zallashib nafislikni jilvakorlikni aks ettiradi. Yana uni kelinchakga hamda ayollarga qiyos qilishadi. Sababi ayol ko‘nglidek ko‘ngli nafis nozik talabchan o‘ziga har qanday insonni torta oladi. Bahor fasllarning fayzi hisoblanadi. Bahor fasli ayollardek bardoshli tog‘lardek sabrli va matonatli, qancha shamol bo‘lsa ham yomg‘ir yoqsa ham o‘z go‘zalligini asrab qoladi. Insonlarni qalbiga eng toza o‘ylarni olib keladi. Men bahorni ayol zotiga qiyos etaman. O‘zidagi bor chiroyini o‘z yaqinlariga ulasha oladigan darajada kuchli zot bu albatta ayollarimiz.

Bahor fasllar ichida nafosati, go‘zalligi, yosharish, yashnashi bilan ajralib turadi. Undan tashqari bahor fasli insonlar qalbiga ezgulik urug‘i sepish yaxshi

amallar qilishdek hammani ko‘nglidan birdek joy oladi. Bahor o‘zning sepini yoyishi bilan barcha insonlar qalbini to‘lqinlantiradi. Bahor faslida o‘zimizning milliy bayramimiz navro‘z nishonlanadi. Barcha insonlarga birdek shodu-xurramlik, mehr-oqibat, baxt-soadat, baxshida etadi. Bahorda barchamiz yana bir bor o‘zimizning o‘zligimizni anglab yetamiz. Bahorda milliy taomlarimiz, o‘yinlarimiz byramlarimiz milliylikni yo‘qotmagan holda ajralib turadi. Bahor, fasllarning ilk odimi, yo‘lning boshi hisoblanadi. Bahor fasllarning gulshani, borliqga o‘zgacha kayfiyat hadya etadi. Shu taraflari bilan ajralib turadi. Bahorning boshlanishi yangi kundan darak beradi. Bahor manzaralarini tomosha qilar ekansiz beixtiyor shu go‘zalikka yanada go‘zallik qo‘shgingiz keladi. Bahor bunday go‘zallik bilan albatta ajralib turadida. Mening fikrimcha bahor fasli fasllar ichida milliylikga boyligi, go‘zalikga hammohangligi, mehrliligi, yaratish, nafislik va boshqa taraflari bilan ajralib turadi. Bahorga ta’riflarni sanamoqqa urunsak juda ko‘p, eng asosiysi bumilliylik.

To‘rt faslning tanho malikasi sen,
Tugal go‘zallikning nihoyasi sen,
Oshiq-mashuqlarning tamannosi sen!
Qayta kelmas bo‘lib, keldingmi bahor?

Yer birla osmonning tillaqoshi sen,
Aytar qo‘shig‘imning avval-boshi sen,
Oltin beshigimning sfardoshi sen!
Qayta kelmas bo‘lib, keldingmi bahor?

Haqiqatdan bahor faslini kelinchakga o‘xshatishadi. Sababi kelinchak kabi go‘zal turfa ranglar misoli porlanadi.Yana bir sababi kelinchak keladigan hovli joylar toza ozoda bo‘ladi. Bahor kelganda insonlar ham barcha joylarini yig‘ishadi. Poklik ozodalik bor joyda doimo qut-baraka yog‘iladi. Bahorga atab har bir shoiru-shoiralar she’r bitadi. Bahorning har kuni bayram, yangilanish o‘zgarish yana bir qancha sir asrorlarga ko‘milgan. Bahor avvallo kelinchak kabi oq libosda kelsa keyin turfa ranglarda o‘zini namoyish qiladi. Chunki bodom guli oq bo‘lsa, lola guli qizil, pushti ranglarga kiradi. Insonlar qalbida esa yosharish yangi fikrlar qilishga undaydi. Turli bayramlarda bahorni nomini takror takror yodga oladi. Bayramlar bo‘lganda kasallarning holidan habar olinadi, keksalarni borib

ko‘rib kelishadi va yana bir qancha savobli ishlarni amalga oshiradi. Shuning uchun ham uni fasllarning kelinchagi ardoqlisi mehr muhabbati deb aytishadi.

Adabiyotlar:

1. Zulfiya Isroilovaning she’riy to‘plam kitobi.
2. Muhammad Yusufning “Shoir sevgisi” nomli kitobi.
3. httml.ziyo.net sayti.
4. Vikipediya (ochiq ensiklopediya)si.

A HOLIDAY OF KINDNESS

Zilola ERGASHEVA,
Lecturer at the Uzbek State Institute of Arts and Culture

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqimizning milliy o‘ziga xosligini, an’ana va marosimlari, urf-odatlarini ko‘rsatadigan navro‘z bayramining qanday kelib chiqqanligi va uning aziz taomi bo‘lmish sumalak tarixi xususida ma’lumot berib o‘tilgan. Bundan tashqari, ulug‘ bobolarimizning asarlarida navro‘z ayyomi bilan bog‘liq bo‘lgan fikr-mulohazalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, bayram, ezgulik, yangilanish, an’ana, qadriyat, urf-odat, fasl, tabiat, xalq.

Annotation. This article tells about the origin of Navruz, which reflects the national identity, traditions and customs of our people, the history of its sacred dish sumalak. In addition, in the works of our great ancestors there are symbols associated with the Navruz holiday.

Key words: Navruz, holiday. kindness, renewal, tradition, values, customs, nature, people.

Аннотация. В данной статье рассказывается о происхождении Навруза, отражающем национальную самобытность, традиции и обряды нашего народа, и истории сумаляка, его священного блюда. Кроме того, в произведениях наших великих предков ест представления, связанные с праздником Навруз.

Ключевые слова: навруз, праздник, добро, обновление, традиции, ценности, обычаи, природа, люди.

Every nation has its own traditions and ceremonies, customs and holidays that reflect its national identity. Such traditions, created over the centuries and polished by the deep creative talent of the intelligent people, define the identity, mentality and national image of the nation.

This blessed land between the two great rivers is the holiday of Navruz, which embodies the most noble and vital ideas of creativity, rejuvenation and renewal of our clever ancestors, who created a unique ancient culture in our motherland Uzbekistan. is one of such unique and magnificent artistic values. Growing up over the centuries and enjoying the beauty of the flowers in the hearts of every generation, this charming holiday has always glorified goodness and instilled in the hearts of our people love of life, creativity, kindness, peace, patriotism, love. l came up with the idea of wishing fruit and blessings.

According to sources, our ancestors knew very well the movement of the sun, moon and stars. In the earliest times, the year was initially divided into two seasons, summer and winter, and the timing of the alternation of these seasons was vital. Our great ancestor Abu Rayhan Beruni also reflected on the origin of Navruz, saying, “On this day, it is said that God turned the heavens after they were motionless and sent them on a journey after the lights stopped. He created the sun, and finally because of it, parts of time, such as years, months, days, and so on, became known after their disappearance, and the reckoning began with them. " This confirms that the origin of Navruz is directly related to the cult of the sun and the tradition of observing the lights of the sky. Of course, there are certain natural and scientific reasons for the celebration of Navruz in the spring equinox, in the alternation of winter and spring, when all beings wake up. According to Abu Rayhan al-Biruni, Navruz "served him all year long, from the first drop of spring rain to the blossoming of the trees, from the flowering of the trees to the ripening of the fruits, from the lust in the animals to the generation." will come. That is why Navruz is the beginning and the beginning of the creation of the world.

The first President of our country I.A. Karimov's decree to widely celebrate Navruz as a national holiday has revived the Benazir tradition, which for centuries has called mankind to good destinations.

Thanks to such unparalleled courage of our esteemed first President in preserving and developing the centuries-old values, Navruz, along with many of our almost forgotten traditions and ceremonies, has been revived and widely celebrated in all parts of the country as a celebration of labor and life. began to be celebrated on a scale. After the national future of our country, along with many of

our forgotten values, the holiday of Navruz and its associated folklore, customs and traditions have been revived.

Navruz, which has long been celebrated as a truly national holiday, has returned to its original form. Navruz songs, sayings and games, which were preserved in the memory of our wise grandmothers, began to be performed on a larger scale. Because “in such a glorious moment, every person enjoys nature, opens his heart to the world, reveals the best feelings and wishes, dreams and hopes in his heart, to life, to his parents, to his friends and brothers. He tries to express his love. ”

For centuries, our ancestors boiled sumalak in large pots on the eve of Navruz, hoping that the coming New Year will be blessed, blessed and prosperous. Our mothers, who cook sumalak, sang ancient folk songs, ghazals and lapars, adding to the festive atmosphere.

Our grandmothers put wheatgrass juice in a pot while cooking sumalak:
Let our grandmother's soup be sweet,
May our food be whole,
Long live
Let's go four eyes,

Let's achieve our goal - if their dreams come true, they intend to give sumalak to the wind again next Navruz.

The history of the tradition of preparing the royal dish of the Spring Festival goes back a long way. Even the famous Greek scholar Plutarch, who lived in the I-II centuries AD, wrote about the spring customs of the mussels, noting that they cooked a special dish of wheat in the early spring. Mahmud Kashgari, a great scholar of the 11th century, also noted that our ancestors living in Central Asia welcomed sumalak cooking thousands of years ago. It is the name of a suma-fermented wheat on page 253 of Volume 3 of his Devonu lug'otit turk, a dictionary of Turkish words. Then it is used to make soup and bread. The word is also used for barley made for juice.

Thus, the lexeme "sumalak" is derived from the ancient Turkic word "suma", which means barley or wheat, made for juice, and the tradition of cooking sumalak is widely used among our ancient ancestors in Central Asia. as long as it happened. According to the Azeri scholar O. Nabiyev, the ancient Sanskrit dialect of the ancient people of northern India had the word "sumani" meaning wheat. So it is no coincidence that the stalk of wheat in our language is called "straw".

According to the British scientist Mary Boys, the ancient Zoroastrians, in the early spring, with the intention of blessing the coming year, felt one of the sacred plants, took its juice and poured it into the water. It is unknown what kind of plant it is and what its name is. But they took the juice of this plant and poured it into the water. It is unknown what kind of plant it is and what its name is. However, the juice of this plant was called "soma" by the ancient Indians, and "haoma" by the scribes of the Avesto, which means "squeezed water". Therefore, it is not surprising that the word "squeeze" in our language (meaning "squeeze something out of water") is also connected to this root.

Interestingly, the name of the tree of life that grows in the middle of the vast Ocean-Borukasha Sea, described in Avesto mythology, is also interpreted as “Homa-Soma”. Our ancestors glorified goodness, kindness and mercy by cooking sumalak, and wished nature good health and abundance.

References:

1. Selected works. Volume 1 Abu Rayhon Beruniy. Tashkent 1968.

2. Devonu lug'otit turk-Mahmud Qashqari. Volume 3 Tashkent 1960.

3. The most ancient, original national holiday - IA Karimov. We must fight for security and peace. 10. - Tashkent, "Uzbekistan", 2002.

4. Navruz songs - Mamatkul Jorayev. Alisher Navoi National Library of Uzbekistan Publishing House. Toshkent 2007

5. Navruz holiday - Boltaboy Shodiyev. " National Encyclopedia of Uzbekistan ”State Scientific Publishing House. Tashkent 2001.

BAHORNING SEHRLI AYYOMI

Asliddin UTAYEV,
“Ovoz rejissyorligi va
operatorlik mahorati”
kafedrasi o‘qituvchisi

Xush kelding elimga, gulgun bahorim,
Navro‘zing muborak, ona diyorim.

Elimizning murod-u maqsadini kuylagan, yurtimizning orom-osoyishini o‘ylagan, butun borliq muruvvat aylagan, bag‘riga benihoya ezgu muhabbat

joylagan, yomonliklar yo‘lin boylagan, yaxshilikdan doston so‘ylagan, barchani birday siylagan bayramdir bu!

Navro‘z – tabiat sirlarini namoyish etuvchi bayram. Bu bayram, avvalo, tabiatning jonlanishi, yangilanishi, yangi yil bilan yurtimizga go‘zal bahor faslining kirib kelib, kelinchakdek o‘z sepini keng yozishi bilan boshlanadi.

Navro‘z – xalqimizning azaliy qadriyatidir. Xalqimiz o‘z turmush tarzi, e’tiqodi, tili, milliy qo‘shiqlari, o‘yinlari, tomosha-yu marosimlari bilan to‘rt ming yillik tarixiga ega bo‘lgan bu bayram tabiatiga o‘ziga xos o‘zbekona ruh bag‘ishlagan. Bayram tomoshasining asosiy mazmuni – Istiqlolimiz tufayli xalqimiz bag‘riga qaytgan qadriyatlarni yillar davomida unutilishga mahkum etilgan marosim va rang-barang san’at vositalari yordamida badiiy ifoda etishdir. Fasllar kelinchagi, uyg‘onish va tiriklik timsoli bo‘lmish go‘zal bahor butun borliqqa o‘z sepini yoymoqda.

Shu kunlarda xalqimizning eng ko‘hna bayrami Navro‘z shodiyonalariga yurtimizda qizg‘in hozirlik ko‘rilmoqda. Navro‘z hayot abadiyligi, tabiatning ustivor qudrati va cheksiz sahovatining, ko‘p ming yillik milliy qiyofamiz, bemisl urf-odatlarimizning betakror ifodasidir. Mustaqillik tufayli yanada yangicha mazmun va mohiyati bilan boyigan umumxalq bayrami Navro‘z yurtimizdagi har bir shahar va qishloq, mahalla va xonadonda keng nishonlanadi. Bu tadbirlarda xalqimizga xos bag‘rikenglik, mehr-muruvvat fazilatlari, milliy urf-odat va an’analar yaqqol namoyon bo‘ladi Bugun har bir ko‘cha, guzar, qishloq, tuman viloyatlar markazlarida, shaharlarimiz ko‘zni qamashtirar darajada o‘zgacha chiroy kasb etgan. Bu ham bejiz emas. Axir ko‘klamning o‘zi go‘zallik, Navro‘z esa shunday bemisl go‘zallik saltanatining tengsiz malikasidir. Zero, uyg‘onish go‘zallikdan boshlanadi, tabiatning rang-barangligidan, ajib joziba va maftunkor tus olishidan boshlanadi. Bilasizmi, bugun “boychechagim boylandi, qozon to‘la ayrondir”,- deya qo‘shiq aytib, chuchmoma ulashib yurgan bolajonlarni har bir mahallada uchratasiz. Momolarimiz boshchiligidagi qiz-juvonlar o‘zbekning azaliy taomi bo‘lgan sumalakni tayyorlash taraddudiga tushib qolishgan. Buning uchun yigitlar o‘choq qazishgan, shox-shabbalar tashishgan. Bugun tabbaruk bobolarimiz shunday dorulomon kunlarga yetganlariga shukurlar aytishmoqda. Albatta, Navro‘z bayramini yosh-u qari intizorlik bilan kutadi. Momolarimiz boychechaklarni ko‘zlariga surtib, omonliq-somonliq qilishadi. Yosh bolajonlar esa milliy o‘yinlarimiz bo‘lmish “Chillak”, “Oq terakmi, ko‘k terak?” va xalqimiz orasida keng tarqalgan “Kim oladi-yo shuginani-yo” o‘yinlarini o‘ynab yuradilar.

Britaniya orollarida ham bahor bayramlari mavjud ekan. Ular buni boshoqli o‘simliklar o‘sishi uchun ma’qul sharoit yaratadigan rasm-rusumlar orqali o‘tkazishar ekan. Dog‘istonda Navro‘z “Birinchi shudgorlash kuni”, avarlarda “Osbay”, darg‘inlarda “Kiu bahrumi” deb atalgan. Dog‘istonda birinchi shudgorga butun ovul yig‘ilgan. Qo‘sh ho‘kizlar bezatilgan. Birinchi shudgorga sepiladigan bug‘doy har bir xonadondan bir siqimdan olingan. Qadimgi Xitoyda ho‘kiz o‘rniga yangi kelin-kuyovlar bezatilingan. Shundan so‘ng ommaviy sayillar boshlanib, unda ko‘plab yoshlarning nikoh to‘yi o‘tkazilgan. Navro‘z keksa-yu yoshni harakatga chorlaydi, bahorni sog‘inganlarga dadillik, tiniqlik, ko‘tarinki kayfiyat baxsh etadi. Sevimli shoirimiz Normurod Narzullayev o‘z she’rida Navro‘zni madh etib shunday ta’riflaydi:

Yaxshilik nurini quyoshday sochib,
Yozib poyondozing, bag‘ringni ochib,
Xush kelding elimga, gulgun bahorim,
Navro‘zing muborak, ona diyorim.

Navro‘z – butun O‘rta Sharq xalqlariga xos chinakam baynalminal, xalqchil bayram. Uning shakllanishi necha mingyilliklar taraqqiyotiga, ajdodlarimizning mifologik tasavvurlaridan tortib sinfiy jamiyatlar hosil qilgan dunyoviy va diniy qarashlarigacha o‘ziga singdirgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti davomida erishilgan har qanday yutuq, yangilik, o‘zgarishlardan oziq olib, gohida boyib, shakllarini o‘zgartirib, gohida qandaydir qirralarini yo‘qotib borgan.

Navro‘z tarixini davrlarga bo‘lgan holda o‘rganish, har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash juda muhim.

Birinchi davr – Navro‘zning ibtidoiy yoki shakllanish davri. Bu davr eng qadimgi zamonlardan zardushtiylik paydo bo‘lishigacha davom etgan asrlarni o‘z ichiga oladi. Abu Rayhon Beruniy Nayoro‘zni dunyoning yaratilishiga qiyos qiladi. “Aytishlaricha, - deb yozadi alloma o‘zining “Osor ul-boqiya” asarida, - shu kun Alloh – unga hamd-u sanolar bo‘lsin! – o‘zi yaratgan, biroq harakatsiz koinotni aylanadigan qildi, bir joyda qimirlamay turgan yulduzlarni harakatga keltirdi hamda Quyoshni kashf etdi, natijada ilgari yashiringan yilning fasllari, oylari va kunlari ma’lum bo‘ldi va hisoblash boshlandi. Demak, Navro‘zning paydo bo‘lishi O‘rta Sharq hududida odamzod paydo bo‘lib, uning ongi, dunyoqarashi o‘sib, olamni va tabiatni anglay boshlashi davriga borib taqaladi.

Shunday qilib, Yil boshi – Naro‘zning shakllanish davridayoq uch turkum o‘yinlar, tomoshalar, marosimlar maydonga kelgan. Birinchi turkum – bu tabiatning uyg‘onishi, Quyosh, Bo‘ri timsollari bilan bog‘liq holda shakllangan

xilma-xil o‘yinlar, tomoshalar. Ikkinchi turkum – ommaviy tus olgan kurash, merganlik, aytishuv va uloq tomoshalari.Uchinchi turkumda tomoshalar ham bo‘lgan. Katta umumlashma darajasiga ko‘tarilgan, xalq orasida tomosha tarzida uyushtiriladigan Ojuz momo va Dehqon bobo, Yozi va Zebo, Gul va Navro‘z timsollari shular jumlasidandir.

Ikkinchi davr – Navro‘zning zardushtiylikka bog‘lanib, mustahkam tarkibga ega bo‘lgan davri (eramizdan avvalgi VIII–VII asrlardan milodiy VIII asrgacha). Kurinib turibdiki, bu davr bir yarim ming yildan ortiq vaqtni o‘z ichiga oladi. Bu davrda Turon zaminida chorvachilik bilan bir qatorda dehqonchilik va hunarmandlik rivojlangan, yuzlab shaharlar, bir qator davlatlar maydonga kelgan. Ayni chog‘da ushbu hududda turkiy qabilalar, elatlarning davlat va jamiyatda tutgan o‘rnini zardushtiylik, buddaviylik va shunga o‘xshagan nisbatan ilg‘or boshqa dinlar egallagan. Ayniqsa, zardushtiylik ham Eron, ham Turon, qisman Hindiston o‘lkalarida tarqalib, jamiyat va inson hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan.

O‘sha davrning eng yorqin “Ashshadaroz” nomli o‘yini hozirgi kungacha saqlanib kelingan. Mazkur o‘yin Navro‘z kunlarida sumalak pishirish marosimi bilan bog‘liq holda ayollar orasida ko‘rsatiladi. Ashshadaroz - chiroyli kiyintirilgan dastali katta qo‘g‘irchoq. Ichiga kirib yashiringan ijrochi uni dastasidan ushlab maydonga olib kiradi, harakatga keltiradi va uning nomidan so‘zlaydi. Yigit qiyofasiga kirib olgan ikkinchi ayol ijrochi Qo‘qon shahriga safarga jo‘nayman, senga nima olib kelay, deb unga xushomad qiladi. Lekin Ashshadaroz mag‘rur, oshiq yigitlariga uchmaydi, malomatga qolishdan qo‘rqadi.Ularning atrofida o‘z munosabati, kulgili luqmalar bilan tomoshani qizitib turuvchi qiz-juvonlar bo‘ladi. Ashshadaroz suratining baland bo‘yli qilib yasalishi, kechasi uyushtirilishi, sumalak bilan bog‘liqligi mazkur tomoshaning qadimiyligidan dalolat beradi.Unda dastlab Anahita va Siyovushning afsonaviy sevgisi o‘z ifodasini topgan. Navro‘z va undagi eng muhim udumlardan biri bo‘lmish sumalak tayyorlash marosimi bilan bog‘liq holda namoyish qilingan, zamonlar o‘tishi bilan oddiy tomoshaga aylanib qolgan.

Uchinchi davr – Navro‘z o‘rta asrlarda (VIII –XIII asrlar). Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, Navro‘z haqida ma’lumot beruvchi yozma manbalar aynan shu davrda yaratilgan. Ularni jamlasa, kattagina ro‘yxat hosil bo‘ladi. At-Tabariyning “Tarix” (IX a.), Al-Ma’sudiyning “Muruj az-zabah” (IX a.), Hakim Termiziyning “Solnoma” (IX a.),Abu Bakr Muhammad ibn Jafar Narshaxiyning (899-959) “Buxoro tarixi”, Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) “Osor ul-boqiya”,

“Geodeziya”, Abdulqosim Firdavsiyning (934-1025) “Shohnoma”, Umar Hayyomning (1054-1131) “Navro‘znoma” asarlari shular jumlasidandir.

Shunday qilib, o‘rta asrlarda, garchi islom yetakchi dinga aylangan bo‘lsada, Navro‘z bayramlarida otashparastlik bilan bog‘liq urf-odatlar, marosimlar va tomoshalar bir daraja isloh qilingan holda yashashda davom etgan. Islom Navro‘zni o‘z ta’siri ostiga olishga kirishgan. Marhumlarni eslab Qur’on tilovat qilish, masjidlarning qoshida sumalak, halim, go‘ja tayyorlab, yetim-yesirlar va bevabechoralarga tarqatish, masjid-madrasalarda ham Navro‘zni nishonlash shundan dalolat beradi.

Mo‘g‘ullar istilosi davrida shaharlar vayron bo‘lib, dehqonchilik va hunarmandchilik katta talofatga uchragach, Navro‘z bayrami ham inqirozga yuz tutdi.

To‘rtinchi davr – Navro‘z Amir Temur va Temuriylar davrida (XIVasrninig ikkinchi yarmi – XVI asr boshlari). Amir Temur Movarounnahr va Xurosondagi elatlar, urug‘lar, shahar va qishloqlar aholisi, o‘troq va ko‘chmanchilarni birdam qilish, markazlashgan davlatni mustahkamlashga qaratilgan har qanday ijtimoiy harakat, san’at, marosim, urf-odatni qo‘llab-quvvatlagan. Xalq ruhini ko‘taruvchi bayramlar, sayllar, to‘ylar va tantanalarga yetarli e’tibor bergan, diniy bayramlar qancha e’zozlansa, xalq bayramlari ham shuncha qadrlangan.

Qo‘sh haydash ko‘p joylarda “Qizil gul” (“Guli surx”, “Lola”)bayramiga ulanib ketgan. Qizlar va yigitlar bog‘larda, daryo, soy va ariq yoqalarida bir-birlari bilan uchrashib, o‘zaro aytishuv qilganlar, gul, olma otib o‘zlariga yor tanlaganlar, yayraganlar, o‘yin-kulgi qilganlar, arg‘imchoq-halinchak uchganlar. Navro‘zda arg‘imchoq uchish bilan xotin-qizlar o‘tgan yildagi yomonliklardan forig‘, qushday yengil bo‘lishni niyat qilganlar.

Beshinchi davr – Navro‘zning Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarida bayram qilinishi (XVI asr o‘rtalari – XIX asr oxirlari). Qariyb 100 yil davom etgan Shayboniylar hukmronligi davrida davlat parchalanib, mamlakatda parokandalik kuchayib, mutaassiblik avj olib bordi. Chunonchi, Xasanxon Nisoriy “Muzakkiri ahbob” (“Do‘stlar yodnomasi”) asarida Abdullaxon II (hukmronlik yillari 1556-1598) haqida “Ul zot har qanday holatda ham o‘yin-kulgi va noshoista qiliqlardan butunlay tiyinib, yog‘duli sharoitga itoat bo‘lmoq g‘ururidan masrur kelmoqdalar”, - deb yozadi.

Oltinchi davr – Navro‘z mustamlaka va sho‘rolar tuzumi sharoitlarida. Chor Rossiyasi Qo‘qon xonligini batamom bosib olib, Buxoro amirligi bilan Xiva xonligini vassaliga aylantirib, muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Samarqand

viloyatini Buxoro Amirligidan tortib olib, butun Sharq hududiga markaz hisoblangan Toshkent shahrini o‘z mustamlaka hokimiyatining poytaxtiga aylantirib, Turkiston o‘lkasini xom ashyo zahirasi qilib olish, mahalliy xalqlarni qullik, itoatkorlikda saqlash,mustaqillik yo‘lidagi har qanday ilg‘or fikr, har qanday harakatga qaqshatqich zarba berish, aholi orasida uchragan qoloqlik, jaholat, mutaasiblikni qo‘llab-qo‘vvatlashni o‘zining asosiy vazifasi deb biladi. Mahalliy xalqlarni “tuzem” (ya’ni, yovvoiy) deb atab, uni o‘tmishidan, ma’naviy, ilmiy, madaniy merosidan, qadriyatlaridan, an’analaridan mahrum qilish, imkoni boricha ruslashtirish uchun kurashadi.

Nihoyat, 1989-yil 28-fevralda O‘zbekistonda Navro‘z bayramini tiklash to‘g‘risidagi qaror qabul qilindi. 1990-yilda esa 21-mart dam olish kuni va umumxalq “Naro‘z” bayrami kuni deb e’lon qilindi.

Yettinchi davr – O‘zbekiston Mustaqilligi yillarida Navro‘z bayrami O‘zbekistonning mustaqil davlat deb e’lon qilinishi, o‘z bayrog‘i, gerbi, madhiyasiga va Konstitutsiyasiga ega bo‘lishi, ochiq, demokratik, dunyoviy jamiyat qurishda tanlangan yo‘li, tamoyillarining to‘g‘riligi tufayli ma’naviy, madaniy qadriyatlarni, an’analarni, shu jumladan, bayramlar va xalq ijodiyotini chuqur o‘rganish, tiklash, ulardan fuqarolar, ayniqsa, yoshlarni tarbiyalashda foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Shunday qilib, yuqorida ko‘rib chiqilgan oltita katta tarixiy davr, har davrning o‘ziga xos xususiyatlari, O‘zbekistonning mustaqillik yillarida yangi muhim bosqichga ko‘tarilgani, umuman, Navro‘z mohiyati, tarkibi, tartibi, tajribasi, an’analari, unda tomosha o‘yinlari, teatrlashtirilgan tomoshalar, marosimlarning tutgan o‘rni xusuida bildirilgan fikr va mulohazalar qu‘yidagi xulosalarga olib keladi:

1. Navro‘z Markaziy Osiyo xalqlarinig kam deganda 4 ming yillik tarixiga ega bo‘lgan eng sevimli yangi yil bayramidir. U ajdodlarimizning tabiatni, dunyoni, koinotni, o‘zini-o‘zi anglashi mehnat jarayonlarida shakllanib, keyingi taraqqiyot bosqichlarida bir daraja zardushtiylik va islom dinlari bilan bog‘langan.
2. Mana shu jarayonlarda o‘zbek xalqininig, ajdodlarimizning hissasi juda katta va salmoqli. Xalqimiz o‘z turmush tarzi, e’tiqodi, tili, milliy qo‘shiqlari, o‘yinlari, tomoshalari, marosimlari bilan Navro‘z tarkibi, tizimi, badiiy estetik tabiatini mustahkamlab, unga o‘ziga xos o‘zbekona ruh bag‘ishlagan.
3. Navro‘z necha ming yillik taraqqiyoti davomida o‘zgarib, tuslanib, nimanidir kashf qilib, nimanidir yo‘qotib kelgan bo‘lsa-da, muayyan tarkibga, a’nanalarga ega ekanligini alohida ta’kidlash kerak. Bu - yer, suv, havo, gul, qush

va hayvonlar olami, koinot, bahor fasli bilan bog‘liq marosimlar, udumlar, tomoshalar, o‘yinlar, namoyishlar turkumi; muruvvaat, saxovat, mehr-shafqat, ajdodlarni eslash, qariyalarni qadrlash bilan bog‘liq marosimlar, o‘yinlar, tomoshalar, namoyishlar; sayr, sayil, to‘y-bazm, marakalar o‘tkazish, dilxushlik qilish, o‘yin-kulgi, musobaqalar tashqil qilish.

4. Navro‘z yetti kun va undan ham ko‘p vaqt davom etadigan bayram, sayr, ko‘ngil ochish, bazm-maraka, quvnash, lazzatlanish bo‘lgani uchun ham unda teatrlashtirilgan tomoshalar, namoyishlar, kurash, ko‘pkari, poyga, qo‘chqor urishtirish va boshqa musobaqalarning o‘rni katta bo‘lib kelgan. Navro‘z bayrami tomoshalari, marosimlari, musobaqalarida ming-minglab san’atkorlar qatnashgan.

5. Navro‘z hamisha tabiatning uyg‘onishi, yangi yilning, bahor faslining boshlanishida nishonlanuvchi umumxalq bayrami bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Unda nasl-nasabi, kasb-kori, yoshi, millati, dini, e’tiqodidan qat’iy nazar, barcha aholi qatnashadi, quvnaydi, o‘yin-kulgi qiladi, ruhan poklanadi, istiqbolga umid va ishonch bilan boqadi.

Albatta, har bir ijodkor Navro‘zni har yili yangicha talqinda ifoda etib, his-tuyg‘ularini bahor bayrami Navro‘zni ulug‘lovchi go‘zal she’rlari, kuy-qo‘shiqlari hamda betakror raqslari bilan bezak bo‘la oladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Adabiyotlar:

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar, 1-tom Toshkent, 1968, 255-bet
2. Qodirov M. Tomosha san’ati o‘tmishdan lavhalar, 97-bet
3. Qilichev T.Xorazm xalq teatri. 1988, 80-bet
4. Shodiyev B. Navro‘z bayrami. Toshkent 2001-y.

O‘ZBEK MILLIY MADANIYATI VA SAN’AT TARIXIDA NAVRO‘Z UMUMXALQ BAYRAMINING O‘RNI

Shaxnoza IZBOSAROVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
o‘qituvchisi
Madina TASPENOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti
1-kurs “Boshlang‘ich ta’lim”
fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek milliy madaniyati va san’ati tarixida Navro‘z umumxalq bayramining tutgan o‘rni xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, Navro‘z bayramining tarixi, Navro‘z milliy taomlari, yashil makon.

Аннотация. В этой статье обсуждается о роли общенародного праздника Навруз в истории узбекской национальной культуры и искусства.

Ключевые слова: Навруз, история праздника Навруз, национальные блюда праздника Навруз, земля зелени.

Annotation. This article discusses about the role of public holiday Navruz in the history of Uzbek national culture and art.

Key words: Navruz, the history of holiday Navruz, national dishes of Navruz, the land of greenery.

Navro‘z (forscha – yangi kun”) – bahor bayrami, hamda fors va turkey xalqlarida yangi yilning birinchi kuni. “Navro‘z” “yangi kun” ma’nosini beradi. Eron, shuningdek, Markaziy Osiyo va Kavkazda navro‘z 21-mart kuni, Qozog‘istonda esa, 22-martda nishonlanadi.

Navro‘z Shimoliy yarimsharda bahorning boshlanishi sifatida kecha-kunduz tenglashgan kunda boshlanadi. Ba’zi xalqlar bahor faslining kelishini tabiatning uyg‘onishi bilan bog‘laydilar, shu munosabat bilan bayramlar o‘tkazishadi, uni yangi yilning boshlanishidek bayram qiladilar. Qadim zamonlardan boshlab Ozarbayjon, O‘zbekiston, Eron, Afg‘oniston Tojikistonda va yana ko‘plab sharqiy o‘lkalarda bahorning yangi yilning kelishini bayramlar bilan qarshi olishadi.

“Navro‘z” qayerda va qachon paydo bo‘lgan ekan?” – degan savolga “Saodat jurnalida e’lon qilingan “Onaqutining saxovati” maqolasida bunga asosli javob berilgan. Unda jumladan: “Dunyoga ilk alifboni bergan buyuk allomalarning vatani bo‘lgan, dunyoviy fanlarga asos slogan xorazm yurti qadimda, hatto eramizdan avvalgi minginchi yillarda Xvayrazam deb atalgan. Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik va etnografik izlanishlar Navro‘z bayrami ilk bor xuddi shu zaminda Niso (ya’ni, ayol shahri poytaxti bo‘lmish Parfiyona) grek va Ovrupa faylasuflari asarlarida Parfiyonada nishonlanganini ashyoviy topilmalar tasdiqlydi. Bunga Burgut qal’a Jomboq qal’a va Niso qo‘rgonlarida bunyod qilingan va shu kunlargacha saqlanib qolgan “Olov uy” lari yaqqol misol bo‘la oladi. Burgut qal’a markazida moviy gumbazli maqbara bo‘lgan. Maqbara mehrobida Onaqutining ko‘tarilgan qo‘lida Zumrad tosh bo‘lgan. Bahorgi teng kunlikda – shamsiy hisob bilan hamal oyining birinchi kuni hozirgi taqvimimiz

bo‘yicha 22-martta maqbara gumbazidagi tuynukdan quyosh nuri qo‘lidagi Zumrad toshiga tushib, sumalak pishirish uchun tayyor turgan qozonning o‘txonasiga o‘t yoqqan deyilgan.

Boshqa afsonalarga qaraganda, Odam Ato Momo Havo bilan uchrashgan kun Navro‘z deb tan olingan emish. Firdavsiyning “Shohnoma”sida yangi yil bayrami shoh Jamshid nomi bilan bog‘lanadi. Jumladan, Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarga kasb o‘rgatadi, temir eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib kiyim to‘qitadi, imoratlar barpo qiladi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, bog‘ bunyod qiladi. Nihoyat “ishlari gurkirab berganda meva” bir kuni taxt yasatib, unda osmonga ko‘tariladi. Ushbu afsonaga ko‘ra xuddi shu kuni Navro‘z nishonlangan. 60-yillarning o‘rtalarida xalq bu bayramga e’tibor bera boshladi, matbuot “radio, televideniyada ba’zan yaratila boshladi. 80-yillarning o‘rtalarida “Navro‘z”ni O‘zbekistonda xalq bayrami sifatida nishonlash masalasida yangi to‘siqlar paydo bo‘ldi. 1985-1987-yillarda ommaviy ahborot vositalari bu bayramni chetlab o‘tishadi. Bu borada katta tortishuv yuzaga keldi. Respublikaning ilg‘or yozuvchilari, olimlari va madaniyat xodimlari tomonidan “Navro‘z” qadimdan davom etib kelayotgan haqiqiy xalq bayrami ekanligi, uning mohiyati din bilan emas, tabiat qonunlari bilan bog‘liqligi va uni eng yaxshi an’alar asosida davom ettirish lozimligi haqida jiddiy so‘zlar aytildi.

Buning natijasida “Navro‘z” haqiqiy xalq bayrami sifatida keng nishonlanadigan bo‘ldi. 1990-yildan boshlab 21-mart, ya’ni “Navro‘z” bayrami nishonlanadigan kun mamlakatimizda dam olish kuni deb e’lon qilindi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng “Navro‘z” respublikamizning asosiy rasmiy bayramlaridan biriga aylandi.

“Navro‘z” bayrami o‘ziga xos katta tarixga ega.Bu bayram asli qadimiy dehqonchilik kalendari bilan bog‘liq bo‘lib, Yerning shimoliy yarimsharida bahorgi kecha bilan kunduz teng kelgan kunlari – 20-21 martta boshlanadi. O‘sha davrda butun tabiat uyg‘ona boshlaydi. Bunday yangilanish jarayonining boshlanishi shamsiy (Quyosh) yil hisobining boshlanish oyi hisoblangan farvardin oyi to‘g‘risida shunday yoziladi: “Navro‘z” yangi yilning birinchi kuni bo‘lib, uning forscha nomi ham shu ma’noni taqozo etadi. “Navro‘z” eronliklar zijlari bo‘yicha o‘tmish zamonlarda ular yillarini kabisa qilgan vaqtlarida Quyoshning saraton burjiga kirish paytiga to‘g‘ri kelar edi. So‘ngra u orqaga surilgach bahorda keladigan bo‘ldi. Endi u bahor yomg‘irining birinchi tomchisi to‘kilishidan gullar ochilguncha, daraxtlar gullashidan mevalar yetilguncha, hayvonlarda shahvat qo‘zg‘olishidan to nasl vujudga kelguncha va o‘simlik unib chiqa boshlaguncha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun “Navro‘z” olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan”.

Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida rivoyat qilishicha: “Navro‘z” kuni payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga holva solingan kumush jom hadya qilingan. Payg‘ambar “Navro‘z” nima? – deb so‘raganlar. “Eronliklarning ulug‘ hayiti”, - deb javob berishgan. Keyin payg‘ambar holvani yeb, jomni sindirib, suhbatdoshlariga taqdim etgan: “Koshki biz uchun har kun “Navro‘z” bo‘lsa edi”, - deganlar.

Mashhur olim Umar Xayyom “Navro‘znoma” asarida “Jamshid shu kunni (Farvardin oyining boshi) “Navro‘z” atalsin deya farmon berdi va odamlarga har yili farvardinning kirishini bayram qilishn, uni yangi yil deb hisoblashni buyurdi”, - deb yozadi. Ulug‘ shoir Alisher Navoiy ijodida ham “Navro‘z” o‘z ifodasini topgan. “Saddi Iskandariy” dostonida Navro‘zning bayram qilinishi quyidagicha aks etgan:

Ki bu sir erur olam afruz ham,
Xususan, erur fasli Navro‘z ham.

Navro‘z haqida juda ko‘p tarixiy asarlar, rivoyatlar mavjud. Yuqoridagilardan tashqari A.Firdavsiyning “Shohnoma”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”, Xoja Ali Termiziyning “Navro‘znoma”, “Solnoma” asarlarida, shuningdek, Mashrab, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Nodira, Uvaysiy, Zebuniso ijodlarida shunday kuylaydi:

Ey yor sanga tangri taborak bo‘lsun,
Navro‘z ila toza yil muborak bo‘lsun,
Ilohi, har kuning Navro‘z bo‘lsun,
Hamisha toleing Feruz bo‘lsun.

Mustaqil O‘zbekistonda “Navro‘z” har yili katta tantana bilan nishonlanmoqda. “Navro‘z” arafasida umumxalq hasharlari o‘tkaziladi. Oy davomida xayriya ishlari: yetim, nogironlarga, muhtojlarga yordam berish, qariyalarni qadrlash, ular holidan xabar olib ziyorat qilish, kasallar holidan xabar olib, ularga sovg‘a-salomlar ulashish, bolalar uylariga turli sovg‘alar topshirish tadbirlarini amalga oshiradi. Barcha kasb egalari “Navro‘z”ga atab xayriyalarini, hadyalarini tayyorlaydilar.

“Navro‘z” arafasida va bayram kunlari sumalak, halim, ko‘k somsa, ko‘k chuchvara va boshqa turli-tuman taomlar pishiriladi. Qizlar “Navro‘z”da kiyadigan liboslarini tayyorlashga kirishishadi, “Navro‘z”ga san’at ahli alohida tayyorgarlik

ko‘radilar. Ular “Navro‘z”ga bag‘ishlangan kuy, qo‘shiq, raqs tomoshalar, tantanalar va xalq sayillari bo‘lib o‘tadi .

“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobida aytilganidek: “Milliy ma’naviyatimiz azaldan qanday omil va mezonlar negizida shakllanib kelayotgani xalqimiz uchun eng aziz va eng milliy bayram – sharqona yangi yil bo‘lmish Navro‘z ayyomi misolida ayniqsa yorqin namoyon bo‘ladi. Barchamiz doimo orziqib kutadigan va katta xursandchilik, shodiyona bilan o‘tkazadigan Navro‘z bayrami iz uchun hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatining, ko‘p ming yillik milliy qiyofamiz, olijanob urf-odatlarimizning betakror ifodasi bo‘lib kelmoqda”.

Poytaxtimizning “Milliy bog‘”da har yili respublikada eng yirik “Navro‘z” teatrlashgan tomoshalari bo‘lib o‘tadi. Bu markaziy tadbirda turli san’atkorlar milliy raqslarini, bahorni kutib olish, tabiatning yangilanishi, insonlar dillarining poklanishi va dalalarda yangi mehnat mavsumiga bag‘ishlangan kuy, qo‘shiqlar ijro etishadi, har bir viloyat vakillari maxsus tomoshalar ko‘rsatadi. Navro‘zga bag‘ishlangan tomoshadan keyin barcha viloyatlar markazlarida, poytaxtning asosiy maydon va ko‘chalarida umumxalq sayillari bo‘lib o‘tadi, turli tanlovlar, musobaqalar tashkil etiladi.

Hozirgi davrda mustaqil diyorimiz uchun “Navro‘z” kishilarga yasharish va bunyodkorlik, poklanish va yangilanish, ruhiy ko‘tarinkilik olib keladigan asosiy bayram bo‘lib qoldi. Hozirda mamlakatimizda “Yashil makon” umummilliy loyhasida belgilangan tadbirlarning davomi sifatida Navro‘z umumxalq bayrami arafasida respublikamizning barcha xududida, har bir ko‘cha, mahalla, tuman va shaharlarda obodonchilik hamda ko‘kalamzorlashtirishga qaratilgan turli millat va elat vakillarining mazkur bayram bilan bog‘liq urf-odatlari, an’ana-yu qadriyatlarini keng namoyish etish, ko‘makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ularga beg‘araz yordam berish bilan bog‘liq xayriya tadbirlarini amalga oshirish, joylarda hunarmandchilik ko‘rgazmalari, kitob rastalari, ko‘chma savdo do‘konlarini tashkil qilishga alohida e’tibor qaratilgan.

Yil boshidag eng ezgu ishlar shu bayramdan boshlanadi. Bu nafaqat tabiatning uyg‘onishi, balki inson qalbi ruhiyatining ham uyg‘onishi. Navro‘z mohiyat va shukuhi yangilanayotgan O‘zbekistonimizda bo‘layotgan o‘zgarishlarga g‘oyat mosdir. Hozirgi islohatlar jarayonida barcha milliy qadriyatlarimiz qatori Navro‘z umumxalq bayrami ham o‘ziga xos ma’naviy tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Ma’naviyat asoslari “Nashir” nashriyoti Toshkent -2014 [250]
2. I.A.Karimov Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch Toshkent “Ma’naviyat - 2008 [9]
3. “Tamaddun Nuri” jurnali – 2020 [11]

NAVRO‘Z UMUMXALQ BAYRAMI MEHR-SHAFQAT VA SAXOVAT BAYRAMI SIFATIDA

Kamoliddin UMAROV,
O‘zDSMI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Navro‘z umumxalq bayramining tarixiy ahamiyati, o‘zbek xalqi uchun uning naqadar muhim o‘rin tutishi haqida so‘z boradi. Ushbu bayram mehr-shafqat va sahovat bayrami sifatida e’tirof etilishi borasida tahliliy fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, qadriyat, mehr, madaniy meros, taraqqiyot, sivilizatsiya, madaniyat, tarix.

Аннотация. В статье рассматривается историческое значение национального праздника Навруз и его значение для узбекского народа. Составляется аналитическое заключение о признании этого праздника праздником доброты щедрости.

Ключевые слова: Навруз, ѕенность, доброта, культурное наследие, развитие, ѕивилизаѕия, культура, история.

Annotation. The article examines the historical significance of the national holiday Navruz and its significance for the Uzbek people. An analytical conclusion is being drawn up on the recognition of this holiday as a holiday of kindness and generosity.

Key words: Navruz, value, kindness, cultural heritage, development, civilization, culture, history.

Xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniyati va ezgu qadriyatlarini o‘zida yaqqol mujassam etgan, ona tabiat va odamlar ruhiyatida yuz beradigan yasharish, yangilanish va yuksalishlarni asrlar davomida to‘la namoyon qilib kelayotgan Navro‘zi olam eng ardoqli milliy bayramlarimizdan biri hisoblanadi.

Ushbu qadimiy bayramning ruhi va falsafasida mujassam bo‘lgan borliqni asrab-avaylab, doimo u bilan uyg‘un bo‘lib yashash, mehr-oqibat, xayr-u saxovat, bunyodkorlik, bag‘rikenglik, do‘stlik va hamjihatlik singari yuksak g‘oyalar bugungi kunda yanada teran mazmun va ahamiyat kasb etib borayotganini alohida ta’kidlash lozim. Yurtimizda erkin va farovon hayot barpo etish, inson qadrini ulug‘lashdek buyuk maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli demokratik islohotlar jarayonida barcha milliy qadriyatlarimiz qatori Navro‘z umumxalq bayrami ham o‘ziga xos ma’naviy tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda [1].

Millati, tili va dinidan qat’i nazar, har bir vatandoshimiz o‘zining huquq va manfaatlari, qadr-qimmatini tobora chuqur anglab borayotgan Yangi O‘zbekiston sharoitida Navro‘z tom ma’noda umumxalq bayramiga aylanib, el-yurtimiz tomonidan katta shod-u xurramlik bilan nishonlanmoqda.

Navro‘z, fasllar almashinuvi, yangi kun, yangi hayot ramzi bo‘lish bilan birga, o‘ziga xos birdamlik bayrami hamdir. Bu bayram o‘zlikka qaytish, ota-bobolarni yodlash, bemorlar, yetim-yesirlar va mehrga tashna insonlar holidan xabar olish bayramidir. O‘zbek xalqi asrlar mobaynida Navro‘zni ezgulik, mehr-shafqat va saxovat bayrami sifatida qadrlab keladi... Laylatul qadr kechasi kechalarning eng xayrlisi, eng muqaddasi bo‘lgani kabi yil kunlarining eng qutlug‘i Navro‘zdir.

Navro‘z – yashnash, yasharish bayrami, tabiatning uyg‘onishi bilan bog‘liq yangi kunning boshlanishidir. 21-mart kecha va kunduz tenglashgan kun – Yangi yil, yani Navro‘z bayrami sifatida Sharq xalqlari tomonidan keng nishonlanadi. U dehqon uchun ekin-tikin ishlarining boshlanish pallasi hisoblanadi. Ota-bobolarimiz, buvi-momolarimiz bu bayramni nishonlab, turli-tuman, rang-barang udum va marosimlar o‘tkazishgan. Qadimda ajdodlarimiz Navro‘z kunlari qishki manzillari – qishloqlardan yozgi mehnat va hordiq maskanlariga ko‘chib o‘tishgan. Dalalarda bahorgi ekin-tikin ishlari boshlanib ketgan. Dehqonlar yerga qo‘sh solishgan. Jamoa-jamoa bo‘lib, hasharlar uyushtirishgan. O‘tgan ajdodlar ruhi yod qilingan. Ommaviy ravishda mevali, manzarali daraxtlar o‘tqazilgan. Dalalarda, yozloqlarda Navro‘z – yangi yil, yangi hayot qaynagan. Ajdodlarimiz Navro‘z bayramiga atab maxsus kiyimlar tikishgan va ularni kiyib, bayram qilishgan. Navro‘z taomlari ham o‘ziga xos bo‘lgan. Ular orasida, ayniqsa, sumalak, halim

tayyorlash an’anaviy tusga kirgan. Bu bayramda bolalarning ishtiroki juda faol bolgan. Ular Navro‘z bayramida turli ommaviy bayram o‘yinlari o‘ynaganlar. Ot o‘yin, chillak, qo‘g‘irchoq, tosho‘yin, lapar aytish va hokazolar shular jumlasidandir. Bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlar, bo‘y qizlar sumalak pishirish marosimida faol ishtirok etish uchun ancha ilgariroq tayyorgarlik ko‘rishgan.

Navro‘z ma’naviy qadriyatlarning yorqin ko‘rinishlaridan biridir. Abu Rayhon Beruniy bayramlarni ikki toifaga – dunyoviy va diniy bayramlarga ajratib, hayotdagi “eng muhim kunlar” deydi. Mahmud Koshg‘ariy bayramlarni “shodlik va xursandchilik kuni” deb ta’riflaydi. Umar Hayyom deydi: “Kimki Navro‘z kuni bayram qilib quvonsa, keyingi Navro‘zgacha xurram bo‘ladi va farog‘atda yashaydi” [2, 4 b].

O‘zbekistonda har bir xalqning qadriyatlariga, urf-odatlariga, diniy va ma’naviy qarashlariga hurmat bilan qarab, bag‘rikenglik siyosati sifatida munosabat bildiriladi. Bunga misol qilib, joriy yilda Toshkentdagi “Navro‘z” istirohat bog‘ida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari Qo‘mitasi hamda Rus milliy-madaniy markazi hamkorligida tashkil etilgan ma’naviy-madaniy dastur ushbu siyosatning bir namoyishi bo‘ldi. Yurtimizda keng ko‘lamda har yili yangilanish, yosharish bayrami bo‘lmish “Navro‘z” bayrami nishonlanadi. Shu kabi slavyan xalqlari ham qishning yakunlanishi va bahorning kirib kelishini quvnoq xalq sayillari shaklida tantana qilishadi. Bu an’anaviy bayram “Maslenitsa” deb nomlanadi. Ushbu bayramda nafaqat slavyan xalqlari, balkim O‘zbekistonda istiqomat qiladigan ko‘plab millat va elat vakillari shu qatorda o‘zbeklar ham faol ishtirok etishadi. Bu, albatta, quvonarli holat, sababi millati, dini va irqidan qat’iy nazar turli millat vakillarining bayramlar va yaxshi kunlarni birdamlik va hamjihatlikda nishonlashi Yangilanayotgan O‘zbekistonning porloq kelajagi poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Yurtimizda hukm surayotgan osoyishtalik, xalqaro totuvlik, diniy bag‘rikenglik bugungidek bayramlarni o‘tkazishga zamin yaratmoqda [3. B. 6].

Respublikamizda nishonlanadigan “Navro‘z”, “Maslenitsa” va shu kabi bayramlarning asosiy g‘oyasi odamiylik, mehr-oqibat hamda ahillik, insonlarning bir-birini qo‘llab-quvvatlashi va birdamlikka chaqirishdan iboratdir.

Chinlik muarrixlardan biri Vey-Sze qadimgi samarqandliklarning navro‘zi haqida shunday yozgan: “Oltinchi oyning birinchi kuni ularda yilboshi hisoblanadi. O‘sha kuni podshoh ham, xalq ham o‘zlarining yangi liboslarini kiyadilar, soch-soqollarini oldirishadi. Ular shaharning kunchiqar tarafidagi bir daraxtzor yonidagi maydonda to‘planishib, bayram qiladilar”. Yetti kun mobaynida mohir

chavandozlar ot choptirib turib, o‘z kamonlaridan nishonni mo‘ljallab o‘q otish bahsida qatnashadilar. Yettinchi kun nishon o‘rnida oltin tanga qo‘yiladi va ushbu nishonni bexato urgan qirag‘ay mergan bir kun shohlik qilish huquqini qo‘lga kiritadi. Ular ko‘k tangrini mo‘tabar tutadilar va unga o‘z ehtiromlarini ifoda etadilar. Aytishlaricha, ilohiy ma’bud yettinchi oyda halok bo‘lgan va uning suyaklari yo‘qolganligi bois bu ma’budga topinuvchi odamlar har yili o‘sha oyning boshida qora kiyim kiyadilar, dalalarda yalangoyoq yig‘lab yurib, ma’budning hokini axtaradilar. Yettinchi kuni yilboshi bayramining tantalari o‘z nihoyasiga yetadi [4, 8-9 b].

Navro‘z ayyomi bahor kelishi, tabiat uyg‘onishi, go‘zallikning ochilishi demakdir. Bir kun har bir shaxs, har bir inson samimiy, toza niyatlarini, tuyg‘ularini yuzaga chiqaradigan, sevinchlari, orzu-niyatlarini, umidlarini do‘stlari, birodarlari bilan baham ko‘radigan kun.

Adabiyotlar:

1. 2022-yilgi navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qarori PQ-134. 2022 y. 17 fevral
2. Boltaboy Shodiyev. “Navro‘z bayrami”(Tarixiy yo‘li va qayta tiklanishi)./ Mas’ul muharrir: M.Qodirov. – T.: “O‘zbeksiton milliy ensiklopediyasi”, 2001. – 128 b.
3. Turdiyeva G. Bahor bilan yetaklashib kelgan bayram. // Yangi O‘zbekiston 2020. –3 mart.
4. Mamatqul Jo‘rayev. “Navro‘z qo‘shiqlari”. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent 2007.

ADABIY LABORATORIYA SHAROITIDA “MILLIY “QADRIYATLAR- NAVRO‘ZDAN BOSHLANAR” MASHG‘ULOTINI TASHKIL ETISH

(Xalq qo‘shiqlari namunasida)

Donoxon USMONOVA,
Xalqaro “Smart school” maktabi o‘qituvchisi
Jamoliddin NURMUHAMMADOV,
Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi renessans” g‘oyasining ta’limga tatbiqida milliy urf-odatlarimizning o‘rni xususida so‘z yuritiladi va adabiy laboratoriya sharoitida amaliy mashg‘ulot tashkil etish shaklida keltirib o‘tiladi. Umumta’lim maktablardagi darslarda “Navro‘z sayli” asosida xalq qo‘shiqlarining mazmun-mohiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Adabiy laboratoriya, Navro‘z, xalq qo‘shiqlari, mashg‘ulot, BBB, “Aqliy hujum”, ochiq dars.

Аннотация. В статье рассматривается рол наших национальных традиций в реализации идеи «Нового Узбекистана» и «Третьего Возрождения» в образовании и дается форма практических занятий в литературной лаборатории. Содержание народных песен по мотивам «Праздника Навруз» будет раскрыто в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: Литературная лаборатория, Навруз, народные песни, уроки, ББВ, Мозговой штурм, открытый урок.

Annotation. The article discusses the role of our national traditions in the implementation of the idea of "New Uzbekistan" and "Third Renaissance" in education and gives a form of practical training in a literary laboratory. The content of folk songs based on the "Navruz Holiday" will be revealed in secondary schools.

Key words: Literary laboratory, Navruz, folk songs, lessons, BBB, Brainstorming, open lesson.

Navro‘z – Sharq xalqlari tomonidan ming yillar davomida asrab-avaylanib kelinayotgan azaliy-abadiy bayram hisoblanadi. Asrlar mobaynida turli xalqlarda Navro‘z bayramini o‘tkazish marosimlari ularning turmush tarziga, mafkurasiga, diniy e’tiqodiga moslashib borgan. Hatto mamlakatimizning turli viloyatlarida ham Navro‘z bayrami bilan bog‘liq rang-barang an’ana va urf-odatlar shakllangan. Shu bilan birga tilimiz va adabiyotimizda ham Navro‘zga aloqador birliklar, adabiy asarlar talaygina.

Xalq qo‘shiqlari – millatning o‘zligini, dard-u shodligini, tuyg‘ularini, o‘y-xayollarini ochib beruvchi asosiy omil. Shuning uchun umumta’lim maktablaridagi adabiyot darslari xalq qo‘shiqlarini tadqiq qilish, o‘rganish va ijro etishga eng qulay vaqt hisoblanadi. Adabiy laboratoriya sharoitida, ayniqsa, bu mavzu dolzarb yo‘nalish hisoblanadi. Laboratoriya orqali tadqiq qilinadi, tahlil qilinadi va tavsiya etiladi.

Adabiy laboratoriya sharoitida “milliy qadriyatlar- Navro‘zdan boshlanar” mashg‘ulotini tashkil etishda quyidagi amaliy maqsadlar ko‘zda tutilgan:

- Xalq qo‘shiqlari, ularning turlari, yaratish tarixi, inson ruhiyatiga ta’siri haqida ma’lumot berish.
- qo‘shiqlar matni, ma’no mohiyati, so‘zlarini tahlil qilib, tushuntirishga o‘rgatish;
- qo‘shiq mazmunini anglash, ohangini his qilish, xalq dardi, o‘tmishi, hayot tarzi, tafakkuri, ruhiyatidagi tuyg‘ularni ilg‘ash, ma’naviy merosimiz ildizlarini bilish va qadrlashga o‘rgatish;
- o‘quvchilarga xalqimizning boy ma’naviy merosini tadqiq qilish, o‘zligimizni anglashga, milliy qadriyatlarimizdan faxr tuyg‘usini, millatparvarlik qirralarini o‘stirish, ijodiy fikrlashga yo‘llash, tahlil, izlanuvchanlik malakalarini o‘stirish.

Mashg‘ulot uslublari:

“Muammoli ta’lim”, BBB, “Aqliy hujum”, “Aniqlash” uslubi, “Klaster”, “Tadqiqot”.

MASHG‘ULOTNING BORISHI

Kirish suhbati.

- Bugungi kunda milliy o‘zligimizni anglash vositasi bo‘lgan ma’naviy merosimizga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Zero har bir millat o‘z qadriyatlarini, an’analarini, milliy urf-odatlari, marosimlarini bilmas ekan, o‘zligini anglay olmaydi. Xalq qo‘shiqlari esa tarbiyamizdagi, ruhiyatimizdagi ana shu bo‘shliqni to‘ldiruvchi omildir. Demak, bugungi mavzuyimiz milliy o‘zligimizni anglatuvchi vosita- xalq qo‘shiqlaridir.

Mumtoz qo‘shiq tinglanadi (3 daqiqa)

- Mana, qo‘shiq tingladingiz, ayting-chi qo‘shiq sizga qanday ta’sir etdi? Ruhiyatingizda qanday hislar uyg‘ondi?

O‘quvchilarning javobi:

1.Mumtoz qo‘shiq deyarli tanglamas edim.Jonli ijro bo‘lganidanmi qalbimda qandaydir hislar paydo bo‘ldi;

2.Uzoq xayollarga cho‘mdim,o‘tmish xotiralar yodimga tushdi;

3.Qo‘shiqni maroq bilan tingladim, ammo so‘zlarini unchalik to‘liq anglamadim.

Qo‘shiqning o‘ziga xos xususiyatlari - uning inson ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatish, ya’ni hissiy ta’sirchanlikka egaligidir.

Qo‘shiqning asosiy maqsadi tinglovchiga ma’lum ichki dardni-hissiy ma’lumotni yetkazish, uni mana shu ta’sirchanlik holatiga kirita olishdan iboratdir. Qo‘shiqning turlari, ijro usullari haqida qanday ma’lumotga egasiz?

O‘quvchilar qo‘shiqlar haqida bilganlarini BBB usulining 1-bosqichi bo‘yicha javob berishadi:

BILAMAN:

Qo‘shiqlarning lirik, mumtoz, zamonaviy kabi turlari mavjudligi, Estrada va Rep yo‘nalishdagi qo‘shiqlarni bilamiz. Xalq qo‘shiqlarining turlari, lirik, mehnat, mavsum va marosim qo‘shiqlari haqida ma’lumotga egamiz.

“Aqliy hujum”

Savol: Siz bugungi kunda qanday qo‘shiqlarni sevib tinglaysiz va nima sababdan?

O‘quvchi:

1. Zamonaviy estrada yo‘nalishidagi qo‘shiqlarni yaxshi ko‘raman. Chunki ular sho‘x.

2.Jahon estradasini tinglayman.Chunki ularda qandaydir kuch bor.

Savol: Xalq qo‘shiqlari bilan zamonaviy qo‘shiqlarning farqi nimada, bugungi kunda yoshlar orasida xalq qo‘shiqlariga qiziqish e’tibor qanday?

O‘quvchilar:

(Zamonaviy estrada va rep yo‘nalishidagi qo‘shiqlarni tinglashi, xalq qo‘shiqlarining mazmuniga tushunmasligini, sho‘x emasligi va zerikarli ekanligi bilan izohlaydlari.)

Savol: Xalq qo‘shiqlarini o‘rganishimizdan maqsad nima?

- Xalq qo‘shiqlarining mazmun mohiyatida muayyan xalqning madaniyati, kelib chiqishi, orzu intilishlari, quvonch va armoni o‘z ifodasini topadi. Xalqning

uzoq tarixini bilishimiz, o‘zligimizni anglashimiz, boy ma’naviy merosimizni, xalqimizning yashash tarzini, an’analar va urf-odatlarini o‘rganishimizga asos bo‘ladi.

Zero, kimki o‘z ildizilarini bilmas ekan, kelajakka dadil qadam qo‘ya olmaydi.

Anglash

O‘quvchilar xalq qo‘shiqlari haqida bilimlaridagi bo‘shliqni anglash orqali B-usulining 2-bosqichini bajaradilar.

BILMOQCHIMAN:

1. Xalq qo‘shiqlarining ma’no mohiyatini.
2. Qo‘shiq matnidagi so‘zlar anglatgan tushunchalarni.
3. Xalq qo‘shiqlari nimalar ta’sirida yaratilganligini.
4. Marosimlar qanday o‘tkazilgan va unda qanday qo‘shiqlar tinglangan.
5. Nima sababdan xalq dardini qo‘shiq orqali yetkazgan.
6. Xalq qo‘shiqlarini o‘rganishimizning nima ahamiyati bor.

Savollar, fikrlar asosida o‘qituvchi xulosaviy javob beradi.

Xalq qo‘shiqlari olis tarixiy hayot va boy tafakkur mahsulidir, shu jihati bilan mumtoz yoki zamonaviy qo‘shiqdan farq qiladi.

- Xo‘sh, qo‘shiq - olis tarixiy hayot va boy tafakkur mahsuli, deganda nimani anglash mumkin? (Bu savolga quyidagi jadval yordamida yondashiladi)



O‘quvchilar o‘z fikrlarini umumlashtiradilar.

Xalq qo‘shiqlarini tushunishning yana bir yo‘li qo‘shiq matnidagi so‘zlar tashigan ma’nolarni bilish, anglatgan tushunchalarni tahlil qila olish. Tinglovchi qo‘shiq matnini tushunsagina estetik zavq olishi mumkin, ushbu muammolarni hal qilish uchun salohiyatli o‘quvchilarni ma’lum mavzular asosida tadqiqotga yo‘llash mumkin (mavzular oldindan tavsiya qilinadi).

LABORATORIYA TEKSHIRUVI

Tadqiqot mavzusi: Xalq qo‘shiqlarining yaratilishida e’tiqod va an’analar ildizlari.

1. Bir qo‘shiq tarixi “Sumbula”
2. “Tanovar” izidan…
3. Do‘ppning kelib chiqishi.
4. O‘zbek allalarining milliy xususiyati.
5. Xalq qo‘shiqlarining birlashtiruvchi kuchi.

- Xo‘sh, xalq qo‘shiqlari milliy tarbiyamizda alohida o‘rin tutar ekan hozirda davlatimiz tomonidan xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan e’tibor qanday?

- 2002-2003 yillarda Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida “Yunesko” tomonidan “Boysun bahori” ochiq folklor festevali va uning doirasidagi xalq madaniyatini asrash muammolari bo‘yicha xalqaro ilmiy konferensiya o‘tkazildi. Konferensiya natijasida 40 dan ortiq qishloqlardan o‘lka tarixi, urf-odatlari, diniy qarashlari, xalq tomoshalari va o‘yinlari, xalq og‘zaki ijodi va ijrochilari haqida ko‘pgina qiziqarli ma’lumotlarga ega bo‘lishdi.

Xalq qo‘shiqlarining qudrati nimada?

- Bunda Respublikamizda dunyo miqiyosida bo‘layotgan qo‘shiq bayramlari, tanlovlar, xususan Samarqandda o‘tkazilgan “Sharq taronalari” festevali va dunyo xalqlarining mumtoz hamda xalq qo‘shiqlariga e’tibori,qiziqishi haqida gapiriladi.Bunda shu festevallardan video lavhalar ko‘rsatiladi.

Demak, qo‘shiq makon tanlamaydi, millat tanlamaydi. U xalqlarni birlashtiruvchi qudratli kuchga aylanadi.

Xulosa

Taniqli folklorshunos olim T.Mirzayev: “Xalq qo‘shiqlarining o‘ziga xos va asosiy vazifalaridan biri- komil insonni tarbiyalashdir”, - degan edi.

Darhaqiqat, qo‘shiq ko‘ngillardan ko‘ngillarga ezgulik, go‘zallik mehr-oqibat, muhabbat kabi tuyg‘ularni singdiruvchi vositadir. U barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy omilidir. Xalq qo‘shiqlarining muhim tarbiya qirralari quyidagi klaster orqali izohlanadi.

Mashg‘ulotning oxirgi qismida o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan erkin laboratoriya sharoitidagi badiiy kompozitsiya namoyish etiladi:

Gulira’no: -Dugonalar-u!

Qizlar: - Hu!

Gulira’no: - Kelinglar, bir chaq-chaqlashaylik!

Qizlar: -Hoziir!!!

(Doira chalinib, qizlar bir-bir chiqishadi)

Maqsuda: -Voy, dugonajonlar, chorbog‘da bizdan boshqa hech kim yo‘q ekan. Kelinglar, biir yayrashaylik.

Qizlar: - Ha-ya, kelinglar-a!

Ey, rayhon-u jambillarim
Tarating xush iforingiz.
Ey, qumri-yu bulbullarim,
Sayrang chertib dutoringiz.
Chehrasida tong ziyosi,
Tong misoli tengsiz suluv!
Ko‘zlarida noz, ibosi,
Nozlaridan dilda g‘uluv!

Yallama-yor musiqasiga dutor va doira jo‘rligida qizlardan biri chiqib raqsga tushadi:

Yallama-yorim yallola,
Yallolashaylik,
Uchtami to‘rtta bir bo‘lishib,
Hasratlashaylik.

Shundan so‘ng “Omon yor”, “Nahori nashda” termalari ijro etiladi.

Qizlar: -Yashang!

Maqsuda: - Ha, Sevaraxon chetda o‘tirib, miyig‘ida kulib, do‘ppini kimga tikayapsiz? Akangizgami-yo…

Sevara:-Siz manga emas, Gulira’noga qarang. Qiyiqchaning chetiga sevgi baytlaridan chandiyapti shekilli.

Gulira’no:- Ey, qo‘ying-e!

Sevara: - Qaldirg‘ochning bolasi,
Chug‘ur-chug‘ur sayraydi.
Ko‘rinsa yor qorasi,
Ko‘nglim biram yayraydi.

Gulira’no: - Yor qorasi, qorasi-
Qosh-u qaboq orasi,
O‘ktam yigit Mirvali
Yigitlarning sarasi.

Maqsuda: - Sevaraxon yana, Mirvalini ko‘z ostingizga olgan bo‘lmang. (Gulira’noga qaraydi)

Sevara: - yo‘q,yo‘q men emas! (Gulira’noga ishora qiladi)

Qizlar shovqin solib kulishadi.
Gulira’no ohista oldinga chiqib “yuragini ochadi”:
Boshimda shohi ro‘mol,
Tortqilab ketadi shamol.
Dilginam oromini
Oldi bir o‘ktamjamol.
Qoshima o‘sma tortib,
Yashayman mehrim ortib.
Gohida berkinaman,
Ortidan olma otib.
Qizlar: -voy, pismig‘-ey!..

Olmani otib yuboradi. Olmani Al-Vohiy ilib olib :

- Hoy yigitlar, qaranglar, bu yerda bir gap bor?.. (yigitlar qizlarning oldiga kelishadi)

O‘g‘il bolalar: - Olmani kim otdi?
Al-Vohiy:
-Ayta qolinglar, ayta qolinglar.
Maqsuda:
- Ey, sizlarga nima? Boringlar, yo‘lingizdan qolmanglar. Erkin nafas olgani ham qo‘yishmaydi-yay.
(Al-Vohiy chiqib yo‘lini to‘sadi. Aytishuv boshlanadi)
Al-Vohiy:
- O, do‘ndiqcha, do‘ndiqcha,
Jayron kabi qochmagin.
Sodiqman to o‘lguncha,
Zahringni ko‘p sochmagin!
To tirikman, tirikman,
Yo‘ldoshing men bo‘layin!
Maqsuda:
- Voy, o‘layin, hay-hay-hay,
Qo‘ying, to‘smang yo‘limni!
Bevaqt yoqqan yomg‘irday
Xira qilmang ko‘nglimni!
Menga sizdek qiyshang‘i,
Sun’iy yo‘ldosh kerakmas.

Al-Vohiy:
- Har gulning bor o‘z isi,
Gul uzmayin bo‘lurmi!
Sen qizlarning nafisi,
Ko‘z suzmayin bo‘lurmi!
To tirikman, tirikman,
o‘ldoshing men bo‘layin!
Maqsuda:
- Onasidan ayrilsa,
Toychoq kishnab qoladi.
Sizga qay qiz qayrilsa,
Barmoq tishlab qoladi.
Menga sizdek qiyshang‘i,
Sun’iy yo‘ldosh kerakmas.
Al-Vohiy:
- Bo‘lmasa mana bu olmani ushlanglar (olmani otib yuboradi)
Olmani Gulira’no shoshib ilib oladi.
Al-Vohiy: - Haa, olma otgan siz ekansiz-da!
Sir oshkor bo‘ladi. Yigitlar “Omonyor” qo‘shig‘ini boshlashadi.
Yigit: - Olma otdim otganga-yey, omonyor,
Bir shirin so‘z qotganga-yey omonyor.
Qiz: - Aslo fahming yetmadi-ye ohingda.
Pinhona dard tortganga-yey, omonyor.
Yigit: - Bog‘da kimdir gulimni butar, omonyor,
Gul bahona, seni kutar omonyor.
Qiz: - Belingda men tikkan belbog‘, omonyor,
Ko‘rib ko‘nglim bo‘ldi-ye tog‘ omonyor!
Bizlar tikkan belbog‘ni kim bog‘lasa,
Yursin dunyo turguncha sog‘ omonyor.
Yigit: - Uchirganim qo‘sh kaptar-ey, omonyor,
Yurak baytim bir daftar-ey, omonyor.
Qizginam gir aylanar-ey, omonyor.

Aytishuv tugagach hamma o‘ynab chiqib ketadi.

Mashg`ulot yakunida xulosalanadi:

O‘quvchilarning xulosalari	O‘qituvchining xulosalari
1. 2. 3.	1. 2. 3.

SAN’AT SAHNASIDA NAVRO‘Z SOLNOMASI

Dilorom ORIPOVA,
O‘zDSMI dramatik teatr rejissyorligi yo‘nalishi 1-kurs magistri
Zilola ISKANDAROVA,
O‘zDSMI Qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi yo‘nalishi 1-kurs magistri

Annotasiya. Ushbu maqolada umumxalq Navro‘z bayramini umumdavlat miqyosida nishonlash va bayrat dasturini sahnalashtirib, jamoatchilikka taqdim etish tarixi rejessyor R.Hamidov ijodi misolida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, milliy qadriyatlar, Navro‘z bayrami, teatr, tomosha san’ati, xalq o‘yinlari, milliy qo‘shiqlar, Rustam Hamidov, rejessyor, sahna.

Аннотация. В данной стате раскривается история всенародного празднования Навруза и постановки праздничной программи и представления ее публике на примере творчества режиссера Р. Хамидова.

Ключевие слова: Независимост, насионалние сенности, праздник Навруз, театралное искусство, народние песни, народние песни, Рустам Гамидов, режиссер, сцена.

Annotation. This article reveals the history of the national celebration of Navruz and the staging of the festive program and its presentation to the public on the example of the work of director R. Khamidov.

Key words: Independence, national values, Navruz holiday, theatrical art, folk songs, folk songs, Rustam Hamidov, director, screen.

Yaqin tariximizga nazar tashlasak, Navro‘z bayramini nishonlash tadbirlari tarzi ham katta manbaga aylanib qolganligini his etish mumkin. Misol uchun, 1991–2004-yillar davomida Navro‘z Respublikamizning asosiy bayramlaridan

biriga aylandi. Navro‘zga tayyorgarlik ko‘rish rejalari va uni yuqori saviyada o‘tkazish chora- tadbirlari belgilanadi. Bu tadbirlarda san’atkorlar bahorni kutib olish, tabiatning yangilanishi, insoniy dillarning poklanishiga va dalalarda yangi mehnat mavsumi boshlanishiga bag‘ishlangan kuy, ko‘shiqlar ijro etadilar.

O‘sha vaqtlarda sahnalashtirilgan barcha teatrlashtirilgan bayram tantanalari namoyishida Rustam Hamidov bosh rejissyorlik vazifasini bajardi. Endi Navro‘z bayrami tantanalari rejissurasiga qisman to‘xtalib o‘tamiz. 1991-yil Toshkentning bosh maydonida o‘tkazilgan Navro‘z bayrami tomoshasida (ssenariy mualliflari U.Qoraboyev, A.Aminov, B.Norboyevlar, bosh rejissyor R.Hamidov) koinot va tabiat qonunlari asosida quyoshning hamal burjiga kirishi, bahorda kun bilan tun tengligi, tabiatning jonlanishi, dalalarda yangi mehnat boshlanishiga oid ramziy g‘oyalar o‘z aksini topdi. Shuningdek, bayramda do‘stlik, turli millatlarni birlashtirish, ona-Vatanimiz tarixidan lavhalar hikoya qilish g‘oyasi ko‘zda tutildi.

Navro‘z tomoshasining boshida maydonga gul, navro‘z, bahoroy, dehqon bobo kabi ramziy timsollar kirib kelishi qatnashchilarga navbahor go‘zalligini his qilishiga imkon yaratdi. Tomosha maydonning turli tomonlarida Toshkentning 12 darvozasi va qadimgi shahar ramzi yaratildi. “Navro‘z shahri”ga Ipak yo‘li bo‘ylab turli tomonlardan karvonlar kirib keldi. Dillarga shukuh baxsh etuvchi katta tomosha boshlandi. “Navro‘z syuitasi”, “Xalqlar do‘stligi” tomoshalari barchaga bayramona kayfiyat baxsh etdi. Rejissura o‘z ifoda vositalarining yuksak shaklida namoyon bo‘lib, yangi kun obrazi – bahor ramzini ko‘rsata oldi.

1992-yil. Gullarga burkangan Xalqlar Do‘stligi maydoni uzra Navro‘z quyoshi charaqlaydi. Maydon uzra ilk bor mustaqil O‘zbekiston bayrog‘i hilpiraydi, karnay-surnay, nog‘orayu childirmalarning sadosi olamni tutadi. Minglab sharlar osmon tomon intiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Navro‘z bayramiga atalgan tabrik nutqi yangraydi. Keyin maydon o‘rtasida oppoq libosdagi oqlik kunlarga yetgan “Ona Tabiat”, o‘z dugonalari bilan sabzavoriy libos kiygan “Gulbahor”, o‘z jo‘ralari bilan “Navro‘zbek” tashrif buyurdi. Xalqimizda Navro‘z tantanalari sevishganlar to‘ylariga ulanib ketgan. Aynan shu an’anani davom ettirib, Navro‘z kuni to‘y qilgan oshiqlar Toshkent shahrida kam emas ekan. Ular Navro‘z bayramiga taklif qilingan. Bayram qahramonlari “Ona Tabiat”, “Navro‘zbek” va “Gulbahor” yosh kelin-kuyovlarni qutlashadi. Bayram esa tobora jo‘shqin tus olib, kuylarga raqslar, raqslarga qo‘shiqlar ulanib ketdi [1].

Shahrimiz mahallalarining milliy qadryatlarimizni namoyish etib maydonni to‘ldirib o‘tishi, bayramga ayniqsa, o‘zgacha shukuh baxsh etadi. Chavandozlarning, karvonlarning maydonga tashrifi esa xuddi Buyuk ipak

yo‘lining bayramga tutash bo‘lganini eslatadi. Maxsus maydonda ma’naviy bayramning Bahor mavzusiga bag‘ishlangan teatrlashgan – badiiy tomoshasi rejissurasi dunyoga keldi. Bu shaklni R.Hamidov ilk bor sinovdan o‘tkazdi.

1993-yilgi bayramda dunyodagi barcha ezgu niyat, yaxshi xislat, fazilat Navro‘zga hamohang bo‘lib uyg‘unlashib ketganligini sezsa bo‘ladi. Vatanimiz poytaxti Toshkentning Xalqlar do‘stligi maydonida qadimgi an’analarga ko‘ra nuroniy, oqsoqollar Navro‘z tantanalarga oq fotiha tilaydi.

Borliqni karnay-surnay navolari, childirmalar jarangi tutib, kurrai zamin timsoli bo‘lmish shar osmonu falakka ko‘tarildi. Unga ona Vatanimiz xaritasi, milliy tamg‘amiz hamda bayrog‘imiz tasviri tushirilgan.

Karnaylar na’rasi, doiralar sadosi asta-sekin uzoqlashadi. Rang-barang bayrok tutgan tug‘dorlar orasidan harir libos kiygan bahorga bag‘ishlangan “Bahor” valsi yangraydi.

Respublikamizning mashhur san’atkorlari hamda poytaxtimiz tumanlarida faoliyat ko‘rsatayotgan badiiy havaskorlik jamoalari tayyorlagan Navro‘z gullari vokal-raqs kompozisiyasi, barcha viloyatlardan kelgan folklor-etnografik guruhlar namoyish etgan xalq qo‘shiq va raqslari, sumalak pishirish, kelin salom kabi udumlarimiz aks etgan tomoshalar yig‘ilganlarda unutilmas taassurot qoldirdi. Shu lahzalarda maydonga nazar tashlasangiz, o‘zingizni fasli bahor og‘ushida, raqqosu-raqqosalar, xonandayu-sozandalar davrasida xalq ijodiyotining bitmas-tuganmas chashmasi qarshisida turgandek his etasiz.

O‘zbekiston milliy bog‘idagi sayxonlikda chodirlar tikilgan. Sovut-qalqon taqqan lashkar hazil-mutoyiba qilib hordiq chiqirmoqda. Otlar qantarib qo‘yilgan. Katta qozonda osh damlangan, choy qaynab turibdi. Jangu jadal, yurish to‘xtatilgan. Zotan, bugun Navro‘z. Bu tarixiy ko‘rinishda XIII–XV asrlardagi voqealarni jonlantirishga harakat qilingan. Ommaviy tadbir rejissurasida ilk bor tarixiy-harbiylar hordig‘i teatrlashtirilgan tomosha shaklida ifodalandi. Navro‘zda hatto lashkarlar ham bayram qilgani ko‘rsatiladi [2].

1994-yilgi Navro‘z tantanalarining asosiy qismi Alisher Navoiy yodgorligi maydonida, bir tomoni O‘zbekiston milliy bog‘i, bir tomoni “Xalqlar do‘stligi” saroyi va maydoni bilan tutashib ketgan ulkan sahnalarda namoyish etildi. Bayram shodiyonalari bolalar ijrosidagi qo‘shiq va raqslar bilan boshlandi. So‘ng eng yetuk san’atkorlar bilan Toshkent shaxri tumanlaridan kelgan xavaskorlar ijrosida “Dehqon bayrami” syuitasi ijro etildi.

Qoraqolpog‘iston va 12 viloyat vakillari folklor guruhlarining chiqishlari o‘ziga xos ko‘rk bo‘ldi. “Alyor, Navro‘z” deb nomlangan raqsli, teatrlashtirilgan

qo‘shiq ikki soatlik bayram dasturiga yakun yasadi. Bolalar san’at guruhlarining chiqishlari maydondagi teatrlashgan “Navro‘z” kompozisiyasida ilk bor ommaviy tadbir rejissurasida sinab ko‘rildi.

1996-yili elimizga kelgan Navro‘z tantanasi ham o‘zgacha sahnaga olib chiqilgan. Navro‘z in’om etgan xush kayfiyat, bayramona ruh ozod Vatanimizning har bir go‘shasida, jumladan, poytaxtning Alisher Navoiy nomidagi milliy bog‘ida hukmron. Mamlakat Prezidenti O‘zbekiston xalqini go‘zal bahor ayyomi – Navro‘z bilan muborakbod etib, tabrik nutq so‘zladi. Maydon uzra bayram sadosi yangradi. Karnay-surnaylarning dillarni qitiqilovchi ovozi atrofni tutdi. Navro‘z tantanalari boshlanib ketdi. Rang-barang bayroqlar ko‘targan yigit-qizlar tomoshagoh sarhadiga tizildilar. Bayram muqaddimasi “Navro‘z kelur” deb atalib, unda bu bayramning kelib chiqishi, halq orasida saqlanib qolgan rivoyatlar asosida teatrlashgan tomosha taqdim etildi. Tomoshalarda Respublikamiz teatrlari jamoalari, O‘zbek Davlat filarmoniyasining taniqli ansambllari O‘zbek Davlat sirki, O‘zbekiston teleradiokompaniyasi huzuridagi badiiy jamoalar, M. Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san’ati instituti, Toshkent madaniyat koleji, Respublika xoreografiya bilim yurti jamoalari qatnashdilar.

Alisher Navoiy nomidagi bog‘ memorialida o‘tgan asosiy bayram dasturini Yo‘ldosh Muqimov ssenariysi asosida san’at arbobi Rustam Hamidov bosh rejissyor sifatida tayyorladi. Bunda jahon san’at arboblari tajribalaridan keng foydalanildi. Ayniqsa, K.S. Stanisvlavskiy maktabi izlarini yaqqol ko‘rish mumkin edi [3]. Bu gal ommaviy tadbir rejissurasi Navro‘z haqida saqlanib qolgan rivoyatlar asosida teatrlashgan tomoshani sinovdan o‘tkazib xalqqa mashhur qildi.

1997-yilgi Navro‘z tantanalari o‘ziga xos tarzda sahnaga olib chiqildi. Maydonda ulkan sharlardan yasalgan 12 muchal paydo bo‘ladi. “Muchal” deb nomlangan vakil ramzi xoreografik kompozisiyada har bir burjning o‘ziga xos jihatlarini aks ettiruvchi qo‘shiq va raqslarni ijro etadi. 12 muchalni xoreografik kompozisiyasi ommaviy bayram rejissurasidagi izlanishlarning yangi shakli bo‘lib badiiy go‘zalligi bilan esda qoldi. Rejessyor bu o‘rinda V.N. Sundukovaning “Poetika aktyorskogo iskusstva” asaridan ta’sirlanganligini sezish mumkin [4].

1998-yilgi Navro‘z nafaqat inson va tabiatning, balki milliy va qadimiy urf-odatlarimizning yangilanish davri sifatida nishonlandi. Bahor bayrami boshida Yurtboshi barchani Navro‘z bilan qutlab, 1998-yil – Oila yiliga diqqatimizni qaratdi. Chunki halollik, rostgo‘ylik, mehr- oqibat, mehnatsevarlik, or-nomus, sharmu hayo oilada shakllanadi. Oila Sharqda azal-azaldan muqaddas dargoh hisoblanadi. Tabrikda “Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini

ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllarga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i..” ekanligini ta’kidladi [5].

Sahnaga bolalar, nuroniy otaxon va onaxonlar kirib keldi. Chaqaloqlarning yig‘isi eshitildi. Navro‘z va chaqaloq. Yangi kun va yangi inson. Ona zamin yasharayapti. Hayot yangitdan boshlanayapti. Bu yil turkiy xalqlar taqvimi bo‘yicha Yo‘lbars yili. Sahnada yo‘lbars paydo bo‘ladi. U hamisha paxlavonlik va mardlik timsoli bo‘lib kelgan. Maydonda karnay sadolari yangraydi. Sahnaga g‘alaba bilan qaytgan Alpomish va uning alp yigitlari kirib keladi. Ularni Oybarchin o‘zi kabi go‘zal va dono qizlar davrasida kutib oladi. Turli sport o‘yinlari, polvonlarning chiqishlari ko‘rsatiladi. Balki Navro‘z bundan ming yillar burun Alpomish tug‘ilib voyaga yetgan Bobotog‘ etaklarida xuddi bugungidek bayram qilingandir. Balki Alpomish bilan Oybarchin Navro‘z musobaqalarida ot choptirib, kurash tushib, el og‘ziga tushgandir. Navro‘z bayramida “Oila yili” mavzusining uyg‘unlashuvi rejissurada ham o‘ziga xos ifoda vositalarini topishni taqazo qildi. Bu badiiy yechimni R.Hamidov topdi. Shu yili buyuk vatandoshlarimiz Imom al-Buxoriy va Ahmad Farg‘oniy tavalludlari xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Bu tadbirlarda ham Rustam Hamidov ulug‘ allomalarning ijodi va hayotiga bag‘ishlangan tadbirlarni xalqaro miqyosda nishonlanishining ham rejissurada aks ettirishga erishdi [6].

1999-yil Navro‘zi “Ayollar yili” bilan juda hamohang nishonlandi. 1999-yil Navro‘z arafasidagi O‘zbekistondagi terroristik harakatlar hammamizni ogohlikka chorladi. Navro‘z bayrami professional san’atkorlar ijrosida tantanali nishonlandi. Bu bayram rejissurasi yetuk san’atkorlarni guldastasini yaratdi. 2000-yilgi bahor va uyg‘onish, yangilanish hamda ezgulik, mehr-muhabbat, qadr-oqibat, xayru-sahovat ramzi Navro‘zi olam qutlug‘ qadami bilan yurtimizga kirib keldi. Asrlarni bog‘lab turuvchi 2000-yil Navro‘zi O‘zbekistonda keng nishonlandi. Bayram tantanalari san’at sahnasida yana o‘ziga xos tarzda namoyish qilindi. “Karnay chaqiruvchi” bayram muqaddimasi – “Vatan Navro‘zi”, “Yil fasllari”, “Qush tili” lavhalariga badiiy “ko‘prik” bo‘ldi. Ko‘k bag‘riga rango-rang sharlar uchirildi. Sahna ustida kabutarlar parvozi charx urdi. Uzoq o‘tmishdan “hikoyalar so‘ylovchi” nay sadosi, bulbul “chax-chaxi”dan qalblar junbushga keldi, “Vatan” qo‘shig‘i yangradi. “Navro‘z hikmatlaridan” lavhasida “O‘zbek bola”, “Doyra”, “Tantana”, “Turnalar” kabi kuy, qo‘shiq, va raqslari o‘z aksini topdi. Jajji bolajonlarning sho‘x-sho‘x kuy-qo‘shiqlari sadosi ostida olam misli o‘z beg‘uborligini, bolaligini namoyon yetdi.

Ayniqsa, ularning “yurtim osmonidan ketmang turnalar” - deya mitti qo‘llarini silkitganini ko‘rgan har bir inson qalbida ham o‘sha kezda “Tark etmang Vatanni!” - degan xitob yangragandek edi. Aslida bu – “Sog‘lom avlod yili”ning sog‘lom avlodlari da’vati edi. Tadbir rejissurasi Navro‘zni – bolalar bilan bog‘lash va badiiy yaxlitlikka erishish masalasini hal qilishi kerak edi. Rejissyor R. Hamidov buni o‘z jamoasi bilan ijobiy hal qilishga musssar bo‘ldi. 2001-yil tomoshasi o‘zining ramziy bezagi bilan ajralib turardi. Navro‘z muqadimasida maydonga “Navro‘zi olam keldi”, “Karnay chaqiruvchi” yordamida “Bahor uyg‘onishi” sodir bo‘ldi. Jumladan, bayramga chorlovchi musiqiy ohanglarga tabiatning uyg‘onishi, borliqning yosharishi, qushlarning chug‘ur-chug‘uri, jilg‘alarning shildirashi uyg‘unlashib ketadi. Ko‘kka uchirilgan rang-barang sharlar ajib kamalak hosil kiladi, fursat o‘tmay, rangin kamalak alvon bulutga aylanib ketadi. Navoiy haykalining gumbazi quyosh misol atrofga zarrin nurlarini taratadi, butun maydon gullarga burkanadi, ular ustida rangin kapalaklar qanotlarini hilpiratib uchadi [7].

2001-yil respublikasizda “Ona va bola yili” deb e’lon qilingani bois teatrlashgan tomosha “Ona va bola” suhbati bilan boshlandi. Navro‘zni hammadan ko‘p bolalar sevsa kerak. Shuning uchun bolalar Navro‘zi haqida “Umid chechaklari”, “Sog‘lom avlod”, “Onajon va bolajon”, “Laylak”, “Gulg‘unchalar”, “Keldi Navro‘zi olam”, “Jajji go‘zal”, “Yurt ishqida yonaman”, “Lola” mavzulari kuy va qo‘shiq, raqslarda o‘z aksini topdi. “Ko‘klam navolari” qismida taniqli artistlar va yosh xonandalar Navro‘z qo‘shiqlarini keng ommaga namoyish etishdi. Natijada Navro‘z bayramining yangi badiiy shakli paydo bo‘ldi. 2002-yilgi Navro‘z tantanalarida Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i Navro‘z bayrami shodiyonalari boshlanadigan muqaddas go‘sha sifatida yana mehmonlarni o‘z bag‘riga oldi. Bu yerga Qoraqolpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri jamoatchiligi, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlarning vakillari, xorijlik mehmonlar tashrif buyurishdi. “Navro‘z” umumxalq bayrami tomoshasi dasturi muqaddima hamda olti fasldan iborat bo‘lib, adabiyot, san’at, madaniyat arboblarining teran bilimi, topqirligi va ma’naviy salohiyatining yorqin namoyishi desa bo‘ladi.

“San’atim namoyon aylar diyorim” faslida Farrux Zokirov, Yulduz Usmonova, Nasiba Abdullayeva, Ruslan Sharipov, Rashid Xoliqov, Mahmud Namozov, Nilufar Rahmatova, Izzatilla Ibrohimov hamda “Fayod”, “A’lo”, “Setora”, “Anor” guruhlarining jonbaxsh qo‘shiqlaridan bahramand bo‘lib, raqqosalarning go‘zal xiromlaridan zavq, oldilar. Bayram rejissurasida yangi

mavzuni Navro‘z bilan uyg‘unligini topish borasida katta tajriba orttirgan ijodkorlar 2002-yilni “Qariyalarni qadrlash yili” deb atalishidan kelib chiqdi, nuroniylikni tarannum etishda yangi ifoda vositalarini topildi [8].

2003-yilda ham Bayram tantanalariga alohida tayyogarlik ko‘rildi. O‘zbekiston milliy bog‘i va Xalqlar do‘stligi saroyiga tutashib ketgan Alisher Navoiy yodgorligi maydoni o‘zgacha manzara kashf etgan. Salobat to‘kib turgan buyuk Navoiy haykali, yarim doyra shaklida qurilgan uch ming nafardan ziyod tomoshabin o‘tiradigan muvaqqat sahna, uning atrofida qad ko‘targan 6 moviy gumbaz, tovusdek tovlanuvchi matodan yasalgan bezaklar, o‘rtadagi ulkan sahna va bu yerdan Navoiy yodgorligi poyigacha cho‘zilgan namoyishgoh, shabadada hilpirab turgan rang-barang bayroqlarni ko‘rib butun vujudingiz bayram shukuhiga to‘ladi.

Poytaxtning mashhur san’at ustalari, iqtidorli ijrochi yoshlari tayyorlagan ajoyib tomoshalarda yer – ona zamin haqidagi qadimiy afsonalar jonlandi. Gullar tebranishi yanglig‘ raqslar, dilrabo qo‘shiqlar, mehnat, ezgulik haqidagi she’rlar qalblarni to‘lqinlantiradi. Tomoshagoh uzra quyosh timsolidagi havo shari yuksaladi. Kuy, g‘azal va raqslarda haqiqat, ozodlik, hayot, abadiyat ramzi bo‘lgan oftob madh etiladi. Nihoyat, maydonga Navro‘zoy tashrif buyuradi. Boychechaklar, lolalar rango-rangligi ko‘zni quvontiradi. Maydon chetida yuksak tog‘ va adirlar, kizg‘aldoqlar manzarasi paydo bo‘ladi. Turfa bayroqlar, rang-barang gullar va serjilo liboslar o‘zaro uyg‘unlashib, bu benazir maskan bamisoli jannatiy gulzorga aylangan. Qiziqchilarning ichak uzdi askiyalari, masxarabozlar ko‘rsatayotgan tomoshalar sayil ahlini xushnud etdi. Maydonning bir necha joyida tiklangan dorlarda dorbozlar tomosha ko‘rsatdi. Maydondagi kuy-qo‘shiqqa, qo‘shiq, raqsga, raqs, olqishga ulanadi. Bu olqishlar Navro‘z tantanalari bosh rejissyori, O‘zbekiston halq artisti Rustam Hamidov va boshqa ko‘plab taniqli san’atkorlar, tashkilotchilarga ham tegishli edi.

2004-yilgi Navro‘z tantanalari ham an’anaga muvofiq O‘zbekiston Milliy bog‘ida, 19-mart kuni o‘tkazildi. Bu yilgi Navro‘z ham tinchlik-omonlik, osmonimiz musaffoligi, to‘kin-sochinlik, xalqimiz tantiligining, mehr va muruvvatning yana bir yorqin timsoli bo‘ldi. Prezidentning xalqimizga Navro‘z tabrigidan so‘ng boshlangan bayram tadbirining nihoyasi estradamizning yorqin yulduzlari tomonidan kuylangan sho‘x kuy-qo‘shiqlar bilan yakunlandi. Bu bayram ham tarix zarvaraqlariga muhrlandi. Xulosa o‘rnida aytganda:

- Navro‘z bayrami rejissurasi alohida tadqiqot manbai bo‘lib, tomosha san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi R.Hamidov misolida alohida o‘rganiladi, deb hisoblaymiz.
- Navro‘z tantanalarlari sahna ko‘rinishlari o‘zbek xalqining boy ma’naviyati, san’ati va adabiyotini namoyish etishda o‘ziga xos vosita bo‘lib xizmat qiladi.
- Ushbu xronologik bayonlar kelgusida Navro‘z bayrami yuzasidan yangi ssenariylar yozishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. T.: 2017.
3. Stanislavskiy K.S. San’atdagi hayotim (J.Obidov tarjimasi). “Badiiy adabiyot”. T.:1965.
4. Sundukova V.N. Poetika aktyorskogo iskusstva. G‘.G‘ulom. T.: 1988.
5. Sundukova V.N. Poetika aktyorskogo iskusstva. G‘.G‘ulom. T.: 1988.
6. Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari. “O‘zbekiston” nashriyoti. T.:2001.
7. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2003-yil Mart oyi sonlari.
8. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2003-yil Mart oyi sonlari.

ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ФОЛЬКЛОРНО-ЭТНОГРАФИЧЕСКИХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ

Мукаддас КАРИМОВА,
Государственный институт искусств и культуры Узбекистана
1-курс, независимый исследователь
в области театрального искусства.
+998977618971mukaddas2305@gmail.com

Аннотация. В данной статье освещено богатое и разнообразное фольклорное наследие узбекского народа, многообразие его этнического состава, пути исторического развития. Реч идет об анализе произведения Махмуда Кашгари «Девону луготит Тюрк», оставившего бесценное наследие в истории собирания образцов фольклора.

Ключевые слова: фольклор, этнография, представление, культура, искусство, образ, обычай, ритуал, композизия, сюжет.

Annotation. This article describes the rich and colorful folklore heritage of the Uzbek people, the diversity of ethnic composition and the path of historical development. It left an invaluable legacy in the history of collecting folklore samples - an analysis of the work of Mahmud Kashkari "Devonu lug'otit Turk".

Key words: folklore, ethnography, spectacle, culture, art, image, tradition, ritual, composition, plot.

В новой стратегии развития Республики Узбекистан, повышение уровня культуры, науки, литературы, искусства, определено как основное направление развития cosиальной сферы. Сегодня приоритетными задачами нашего государства становятся повышение культурного уровня населения, в частности молодежи, приобщение их к лучшим образsам nasиональной и общечеловеческой культуры, воспитание на этой основе духовно зрелых, гармонично развитых личностей, реализasия творческого потенsиала молодых талантливых людей. Таким образом, важнейшим духовным богатством являются образsы устного народного творчества, являющиеся источником народной мудрости в воспитании совершенного человека.

Обладание узбекским народом богатым и разнообразным фольклорным наследием, многогранност его этнического состава неразрывно связаны с тем, что пут исторического развития проходил между двумя реками Центральной Азии, являющейся одним из очагов мировой культуры. Так как территория между Амударьей и Сырдарьей издавна служила историческим местом значимых переселений народов, а также взлетов и падений в различных политических, культурных, экономических отношениях. Причина в том, что Великий Шелковый пут почти полностью пересекает эту территорию. Вед из истории известно, что территории, по которой проходили торговые пути, проходили прosессы экономического, политического и культурного развития.

Наиболее древняя и имеющая давнюю историю отрасл искусства художественного слова-фольклор. Усовершенствование опыта человека в прosессе труда, развитие его сознания в результате формирования его речи, стремление к изображению своих мыслей-представлений о природе и обществе средствами образов, стимулировали появление фольклорных форм. Произведения фольклора, являющиеся художественной деятельностью

одаренных людей в народе, - это искусство слова из видов музыки, sирковых искусств, tansa, изобразительного и прикладного искусств. Фольклорные сказания передавалис из уст в уста, из поколения в поколение, из эпохи в эпоху и исполнялся в лисе талантливых представителей народа. Фольклорные произведения со временем не только сохраняются в том виде, в каком они были изначально созданы, но и перерабатываются, интерпретируются, обогащаются новыми образами, адаптируются к условиям окружающей среды и совершенствуются. Под термином «фольклор» понимается совокупност усовершенствованного, изучаемого и обучаемого народного творчества, основанного на искусстве слова и исполнительском мастерстве. Област науки, которая ее изучает и исследует, называется «фольклористика».

В письменных источниках сохранилис образsы фольклора народов Средней Азии с древнейших времен. Эти источники содержатся в книгах по истории, научных трудах, памятниках письменности. В книгах античных историков- Геродота, Ктесия, Полиена, Хереса Митиленского и др.- содержание отдельных аспектов устного народного творчества оставалос повествовательным. В трудах средневековых историков - Хамзы Исфахани, Табари, Масуди, Беруни и др. Также содержатся senные материалы и сведения по устной литературе. Такие письменные памятники, как «Авеста», «Бехустун», «Бундахиши», «Денкард», также содержат некоторые образsы устной литературы. В летописях древних китайских историков также сохранилис senные сведения о жизни нашей страны, обычаях, музыке, tansax и песнях наших народов. В знаменитом произведении Махмуда Кашгари «Девону луготит Тюрк» различные образы древних песен, стихов и пословis, связанных с нашей территорией, служат письменной основой для исполнения nasионального фольклора.

Общеизвестно, что факты истории фольклора не до konsa объясняются или забываются в силу требований времени, а их исполнение подвержено изменению и путанise. Поэтому исторические события и явления не находят яркого отражения в исполнении фольклорных коллективов. В результате редуксия основных частей эпоса может превратит их в сказку или наоборот. Такие события в исполнении фольклора не снижают его идейно-художественной и эстетической senности. Испокон веков коллективное исполнение фольклорных произведений создало в них постоянную форму - традisию. Например, сказки и былины богатырского типа, хотя и

существуют некоторые различия в жанрах, их исполнение имеет художественный стиль, традиsионную форму. В обеих произведениях композиsия состоит из традиsии-пролог, завязка, развитие сюжета, кульминаsии, развязка, эпилог. В проsессе перехода от поколения к поколению она частично видоизменяется, добавляя и обогащая некоторые локальные детали. Однако основной источник традиsии сохраняются.

В результате исторического развития некоторые фольклорные произведения изменили свою первоначальную форму. Это означает, что исполнение фольклорных произведений не только традиsионно, но и творчески вариативно. Однако все эти изменения являются частью хорошо развитой традиsии.

Фольклористы называли территориальное своеобразие в исполнении-«вариативност в коллективном исполнении». Отсюда территориальные различия и вариативност устного народного творчества, связанные с коллективным исполнительским проsессом. В фольклорном исполнении-огромное явление вариативности. Потому что любое фольклорное произведение не повторяется в коллективе, кроме как вовремя его исполнения. Может претерпеват определенные изменения, обновления в силу территориального положения, мастерства исполнителей, экономических возможностей и других причин. Поэтому изменения, произошедшие при переходе фольклорных произведений от эпохи к эпохе, от исполнения к исполнению, отражаются в вариантах. Распространение фольклорных произведений в территориальных вариантах, в разных экземплярах требует отдельного исследования вопроса вариативности.

Варианты в фольклорном исполнении имеют те аспекты конкретного произведения, которые не исключают друг друга, в исполнении могут существоват независимо, опираяс на традиsию, проявляя самобытност различных территорий. Например, из разных регионов было записано около 30 вариантов эпоса” Алпомыш", но в народных исполнениях распространено еще больше вариантов. Варианты возникают в основном в результате территориальных условий. Поэт или сказител вносит изменения в свое исполнение в зависимости от периода, обстоятельств и слушателей, которые исполняют произведение. Например, сказка на соsиальную тему, рассказанная взрослым, будет рассказана детям по-другому. Таким образом, появляются различные варианты сказки. Отсюда следует, что время создания, распространения и условия существования каждого фольклорного

произведения достаточно сложны, это явление, связанное с cosиальной и экономической средой, аудиторией слушателя, творчеством и исполнительским мастерством. Поэтому территориальная вариативность-определяет сферу распространения, массовост и народност народного творчества.

Глядя на историю собирания образsов узбекского фольклора, мы видим, что он оставил бесценное наследие- Стоит привести имя Махмуда Кашгари. Потому что в книге нашего великого предка представлены самые важные тексты о состоянии тюркских народов и узбекского фольклора почти тысячу лет назад, относящиеся к видам устного народного творчества. С этой точки зрения, Махмуд Кашгари, живший в XI веке и проявлявший живост в собирании устного творчества тюркских народов, является одним из основателей тюркологической науки и наставником ученых, внесших огромный вклад в развитие этой науки.

Кошгари 15 лет неустанно работал над произведением “Девону луготит Турк", долгие годы странствовал по стране и собирал источники. Работа Кашгари, как он сам утверждал, - “собирала и собирала источник в отдельном порядке, который до этого никто не составлял и никому не был известен. Один за другим он объездил всю территорию, начиная от Верхнего Египта и заканчивая Мавераннахром, Хорезмом, Ферганой, Бухарой”. В результате он очен хорошо усвоил быт всех племен, населявших территорию, по которой он путешествовал, и их языки. Свои действия над девонским письмом Кашгари объясняет так: - " я много лет странствовал по городам, селам и пастбищам тюрков, туркмен, огузов, чигилей, ягмов, киргизов, собирал их словари, изучал, определял различные языковые особенности. Я сделал это не потому что не знал языка, но и для того, чтобы выявит все небольшие различия в этих работах. “Я был из их зрелых в языке, из величайших знатоков в добрых делах, из старых племен, из мастеров в боевых искусствах в копьях”. Собранные источники дают возможность, во-первых, изучит язык; устное народное творчество; культуру; этнографию; фольклор того времени, а во-вторых, позволяют исследователям делат обоснованные научные выводы. Потому что в нем собраны древние мифы и легенды, связанные с историей тюркских народов, около 300 пословиs и поговорок, более 700 строк стихотворных отрывков. Большая част стихотворных фрагментов состоит из своеобразных четверостиший в устном творчестве тюркских народов. Из поэтических строк, приведенных в “Девоне”, около

150 представляют собой фрагменты, характерные для исламского периода-маснави, касида, газель, Континент, которые Кашгари называет» Бейт”.

В книге 7 эпических поэм, романтические песни, хроники, аскетические стихи о сотворении Вселенной, описания природных пейзажей, гимны, философские рассуждения. В образsах тюркской поэзии VIII-XI веков, приведенных в кашгарском Девоне, чувствуется тенденsия к переходу в той или иной степени веса аруза. Веса аруза-раджаз, Рамал, мунсарих, хаджаз, басит, Кариб, мутакариб-использовалис в образsах тюркской поэзии, особенно широко они использовалис в 44 отрывках из раджаз-бахра. Они широко распространены в тюркской народной поэзии, что, вероятно, связано с тем, что бахрный тон соответствует природе тюркской поэзии.

Трудовые песни, представленные в Девоне, выражают: игры, связанные с трудом; отношение людей к труду; облегчение трудовых трудностей; досуг; помогают приучат и приучат молодеж к труду.

Версии обрядовых песен-посвящены героям, героически сражавшимся и погибшим на поле боя. В них превозносятся мужество, отвага, самоотверженност и положительные качества храбresов, а скорб об утрате выражается через траурную скорбь. Известно, что в узбекском фольклоре широко распространена тема марсия. Следовательно, тот факт, что марсианский образes имеет место в “Девоне”, свидетельствует о том, что эта тема является одним из древнейших жанров в узбекском фольклоре.

Также ест сведения о сезонных песнях в Девоне. В ней выделяются песни заданного времени года и песни лирического типа, в которых выражен образ природы. В этих песнях выражено понимание людьми древности явлений природы и их отношение к этим явлениям. Их взгляд на явления природы как на связ с добрыми и злыми духами также очевиден в их представлениях о временах года. Одно время года радует их, а второе-печалит. Те, кто не мог собрат достаточно пищи, корма для зимнего сезона, те, кто испытывал трудности с зимой, положительно относилис к весне, те, кто отрisательно относился к зиме, и те, кто с радостью встречал весну, считали зиму временем ужасов и бедствий. В результате в фольклоре отчетливо выражена борьба зимы и весны, которые противопоставляются друг другу в песнях. В этой борьбе, построенной на логике, побеждает весна. Природа словно оживает, берега покрываются буйной зеленью, в горах тают снег и лед, начинается водный поток, появляются различные sветы, дарящие красоту земле. Это обновление природы делает людей очен счастливыми,

весенний праздник становится удовольствием людей. В результате создатели воспевают в своих песнях те удовольствия, которые они получают от весны. Традиsии такого праздника развивалис и приобрели характер праздника Навруз. На этом празднике наряду с песнями и играми широко представлены такие народные игры, как борьба и буффонады. На празднике “Навруз” наряду с обрядовыми и героическими песнями исполнялис песни, созданные на основе романтических, нравственно-образовательных стихов. В них-понятия любви и верности превозносилис как человеческие качества, а так же, традиsионные песни призывали людей быт благородными, мужественными и честолюбивыми. Ученые отмечают высокий художественный уровен девонских стихотворений как и то, что те, кто их создавал, были очен образованными, обладали тонким и глубоким художественным вкусом.

В работе Махмуда Кашгари карта мира изображена в виде круга. В его sентре находится Sентральная Азия. Такие города, как Баласогун, Шаш, Узген, Исфиджаб, Маргилан, относятся к этой области. Приложение Карты, показывающее географическое видение X1-го века, означает что Кашгари был выдающимся знатоком и самым зрелым ученым своего времени. Таким образом, песни, пословиsы и поговорки в “Девону луготит Тюрк” являются древним общим литературным памятником узбекского народа наряду с народами, говорящими на тюркских языках.

Литература:

1. Мирзиёев Ш. М. “Янги Ўзбекистон Стратегияси” 2021
2. Умаров М. Эстрада ва оммавий томошалар тарихи. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. - 303 б.
3. Махмуд Кошғарий “Девону луғотит турк”-Т:Фан 1963 2-жилд.
4. М. Муродова “Фолклор ва этнография”-Т.: Алоқачи 2013
5.Сайфуллаев Б, Маматқосимов Ж.Х. Актёрлик маҳорати. Тошкент: Фан ва технология, 2012. - 388 б.
6. www.ziyonet.uz.

BAXSHICHILIK SAN’ATI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Mohinur XAYDAROVA,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti,

“Folklor va etnografiya” mutaxassisligi 1-kurs magistranti.
e-mail address. Xaydarovamohinur2@gmail.com
Tel: +998977475446.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek folklorining noyob durdonalaridan bo‘lgan baxshichilik san’ati va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Bugungi kunda mazkur san’at turining o‘rni va ahamiyati haqida fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: Baxshi, shoir, epik ijod, sinkritik ijod, badihago‘y, jirov, otin.

Аннотация. В данной статье рассматривается исскуство бакши и его особенности, одного из уникальных шедевров узбекского фольклора. Сегодня высказываются мнения о роли и значении этого вида исскуства.

Ключевые слова: Бахши, поет, эпическое творение, синкритическое существо, импровизасия, жиров, отин.

Annotation. This article discusses the art of bakshi, and its features, one of the unique masterpieces of Uzbek folklore. Today, opinions are being expressed about the role and significance of this art form.

Key words: Bakhshi, poet, epic creation, syncritic creation, improvisation, zhirov, otin.

O‘zbek folklorining eng go‘zal namunalaridan biri bo‘lgan baxshichilik san’ati, juda qadimgi san’at turlaridan biri hisoblanadi. Og‘zaki epik an’analarni davom ettirishda, kelgusi avlodga yetkazib berishda baxshilarning o‘rni va ahamiyati nihoyatda beqiyosdir. Shu o‘rinda dastlab baxshi so‘zining lug‘aviy ma’nosi bilan tanishib olsak. “Baxshi” so‘zining “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da to‘rt xil ma’nolari mavjud bo‘lib bular: donishmand, dostonlarni kuylovchi, dam solib davolovchi tabib, Buxoro xonligida qurilish mablag‘ini nazorat qiluvchi shaxs. Yuqoridagi to‘rt ma’nodan uchtasi bevosita doston aytuvchi baxshilarga tegishli. Chunki xalq orasida baxshi bo‘lish uchun inson donishmand, aqlli bo‘lishi kerak, degan fikr qayta-qayta ta’kidlanadi. Ikkinchidan, “baxshi” xalq dostonlarining ijrochisi. Uchinchidan, ibtidoda baxshi va shomon yagona tizimda qaralgan va so‘zning mo‘jizaviy magik fazilatidan foydalanib kishilarni turli xastaliklardan forig‘ qiluvchi shaxs hisoblangan. O‘zbek folklorshunosligi asoschisi H.T.Zarifovning malumot berishicha, baxshi mo‘g‘ulcha va buryatcha “baxsha”, “bag‘sha” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “ustod”, “ma’rifatchi” ma’nolarida qo‘llangan[1].

Bundan ko‘rinib turibdiki, baxshilar qadim zamonlardan yuksak hurmat, e’tiborga loyiq insonlar bo‘lishgan. Xalq doim ularni e’zozlab, ilohiy qudratga ega ekanliklariga ishonishgan. Ular bir vaqtni o‘zida tabib, donishmand, ustod va hattoki folbinlik vazifasini ham bajarganlar va bu jarayon uzoq vaqtlar davom etib kelgan. Keyinchalik esa sekin asta baxshilarga bo‘lgan qiziqish pasaya boshlagan. Balki bunga ommaning eposlarimizga bo‘lgan qiziqishining susayishi hamda boshqa san’at turlarining rivojlanishi ham turtki bo‘lgandir?! Epik asar namunalarini keng omma orasida kuylash, ularni yanada boyitib, xalqqa yetkazishda har doim baxshilar yetakchilik qilganlar.

“Hodi Zarif, Buyuk Karimov, Mansur Afzalov, Muzayyan Alaviya, Muhammadnodir Saidov kabi olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, XIX asr va XX asr boshlarida o‘zbek baxshilari repertuarida yuz ellikka yaqin doston bo'lgan. Folklorshunoslarimiz ulardan yuzga yaqin (variantlari bilan to'rt yuzdan ortiq) nusxalarini yozib oldilar”[2]. Doston sinkritik san’at namunasi bo‘lib, bir kishilik o‘ziga xos teatr sanaladi. Baxshilar bir vaqtning o‘zida ham sozanda, ham kuylovchi, shu bilan bir qatorda aktyor va rejissyor vazifasini bajaradi. U tinglovchining diqqatini o‘ziga jalb qilib, asar voqealari ichiga tortib keta oladi. Tomoshabin dostonni eshitish jarayonida voqealar xuddi ko‘z oldida sodir bo‘layotgandek tuyuladi. Albatta bularning barchasi baxshining mahorati va badihago‘yligiga bog‘liq. U doston ijrosi davomida barcha qahramonlar, personajlar obrazini tomoshabinga mahorat bilan yetkazib beradi. Baxshi keng ma’noda xalq dostonlarini kuylovchi, yodda saqlovchi va nasldan naslga o‘tkazuvchi san’atkordir. Doston ijrochilarini Yetuk baxshilar, badihago‘y, epik an’ana doirasida o‘zlarining yangi-yangi variantlarini, hatto yangi dostonlarni yarata bilgan ijodkorlarga nisbatan shoir nisbati ham qo‘shib aytilgan. Masalan Ergash shoir, Fozil shoir, Islom shoir, Po‘lkan shoir, Abdulla shoir kabi.

Doston kuylovchilar yurtimizda turli nomlar bilan ataladi. Jumladan: Surxondaryo va Qashqadaryoning ayrim hududlarida yuzboshi, Janubiy Tojikiston o‘zbeklari orasida soqi, ba’zi joylarda sozanda, Farg‘ona vodiysida sannovchi, Xorazmda xalfa, Qoraqolpog‘istonning ayrim joylarda jirov, jirchi, yana ba’zi hududlarda esa oqin, oxun deb ham atashadi. Biroq baxshichilik barcha viloyatlarda ham keng tarqalmagan. Asosan Qashqadaryo-Surxondaryo, Samarqand, Xorazm va Qoraqolpog‘iston respublikasida anchayin rivojlangan. Bu hududlarda hozirgi vaqtda ham to‘y-tomoshalar, bayram va marosimlar baxshilar ishtirokisiz o‘tmaydi. Diyorimizning boshqa hududlarida baxshichilik nisbatan kamroq uchraydi. Biroq so‘ngi vaqtlarda baxshichilik san’atiga qiziquvchilar soni

kun sayin ortib bormoqda. Turli viloyatlarda ushbu san’atni o‘rganish maqsadidagi yoshlar ko‘paymoqda. Bunga sabab yurtimizda ushbu san’atga bo‘lgan e’tiborning ortishidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 1 noyabrdagi qaroriga binoan ilk marotaba tashkil etilgan “Xalqaro baxshichilik san’ati” festivali fikrimizning yaqqol dalili bo‘la oladi. Darhaqiqat bunday festivalning yaratilishi folklor sohasi vakillarini nihoyatda xursand qildi desak adashmagan bo‘lamiz. Yangidan-yangi ijodkorlar, yuksak qobiliyat sohiblari mazkur tanlovda kashf qilindi. Biz bilmagan, tanimagan baxshilarni xalqqa namoyon qildi. Unutilib borayotgan san’atimizni, an’ana va qadriyatlarimizni tikladi. Bundan tashqari ko‘plab yangi dostonlar va termalarning yozib olinishiga erishildi. Bu esa keyingi avlod uchun folklor manbalarini yanada boyishida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

2021-yilda esa Baxshichilik san’ati YUNESKOning insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga kiritilishi xalqimiz uchun nihoyatda quvonchli xabar bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mazkur voqea yurtimizda baxshichilik san’ati doirasida olib borilayotgan ishlarning yanada rivojlanishiga, taraqqiyotiga xizmat qiladi desak adashmagan bo‘lamiz. Darhaqiqat ushbu san’at ixlosmandlari soni kun sayin ortib bormoqda, bu esa milliy eposlarimizga bo‘lgan yuksak hurmat, g‘urur-iftixor namunasidir. Yurtimizda ilk bor Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati instituti tarkibida alohida “Doston ijrochiligi” kafedrasining tashkil etilishi, mamlakatimizda professional baxshilarni yetishib chiqaradigan katta bir maktabning yaratilishiga asos bo‘ldi. Musiqa va san’at maktablarida joriy qilingan baxshichilik to‘garaklarida esa o‘quvchilar iste’dodli baxshilar tomonidan ustoz-shogird an’analari asosida ushbu san’atning sir asrorlarini chuqurroq o‘rganib kelishmoqda. Yuqoridagilardan bilishimiz mumkinki: baxshichilik san’ati xalqimiz uchun hamisha ahamiyatli va qiziqarli san’at bo‘lib kelgan. Bu borada olib borilayotgan ishlar ko‘lamining kengligi esa ushbu san’atga bo‘lgan talabning yanada ortganidan dalolatdir. Ammo bu yetarli degani emas.

Biz o‘sib kelayotgan yosh avlodga milliy eposlarimiz haqida yanayam ko‘proq ma’lumot berishimiz va baxshichilik san’atiga to‘g‘ri yo‘naltira olishimiz lozim. Sababi so‘ngi paytlarda tele ekranlar orqali ushbu san’atni noto‘g‘ri talqin qilayotgan yoshlar ham uchramoqda. Ular aynan bir doston yoki terma aytmasdan, oddiy lirik qo‘shiqlarni yopiq ovozda kuylab o‘zlarini baxshi deb tanitishmoqda. Bu esa xalq orasida ushbu san’atning tub mohiyatini noto‘g‘ri anglashga sabab

bo‘lishi mumkin. Yoshlarimiz ongida yanglish tushunchalar paydo bo‘lishi esa bu san’atni buzilishiga olib keladi. Baxshichilik qadimdan ilohiy qobiliyat hisoblangan. Har qanday kishi baxshi bo‘lavermaydi. Buning uchun unda nihoyatda kuchli xotira, bilim va ishtiyoq bo‘lishi lozim. Alloh tomonidan yuqtirilgan iste’dod bo‘lmasa bu kasbni egallash anchayin mushkul ish sanaladi. E’tibor beradigan bo‘lsak qadimda baxshilarimiz 100ta 200ta dostonlarni yoddan bilishgan. Bir dostonni ijro qilish uchun kunlar hattoki oylar sarf qilingan. Bu esa baxshining naqadar yuksak xotira egasi ekanligidan darak beradi. Ushbu san’at tinglovchilari ham oddiy insonlar emas, g‘oyat bilimli hamda madaniyatli kishilar bo‘lishgan. Chunki bir asarni tinglash uchun kunlar mobaynida quloq solib eshita bilish har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Buning uchun inson anchayin sabrli va bilimli bo‘lishi lozim.

Bugungi kunda baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish va xalqchilligini ta’minlash uchun ta’lim muassasalarida ham bir qator ishlarni amalga oshirish kerak deb hisobliyman. Xususan,

- o‘rta ta’lim maktablarida baxshilar tomonidan mahorat darslari olib borilib, ushbu san’at to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar berilib, millatimiz uchun baxshichilikning ahamiyati haqida seminarlar o‘tkazish;

- “Madaniyat karvoni” loyihasi tarkibida ustoz-shogird an’anasidagi baxshichilik chiqishlarini sonini ko‘paytirib, mahallalarda konsertlar uyushtirish;

- Xususiy telekanallarda baxshichilik haqidagi ko‘rsatuvlarni ko‘proq yoritish. Sababi davlat telekanallaridan ko‘ra xususiy telekanallarning tomoshabini anchayin ko‘proq;

- Har chorakda madaniyat markazlarida musiqa va san’at maktablari hamda doston ijrochiligi kafedrasi talabalari bilan hamkorlikda gastrol konsert dasturlarini tashkil etish.

Mazkur ishlar amalga oshirilsa xalqimiz baxshichilik san’ati haqida yanada chuqurroq bilimga ega bo‘lishlari hamda, millatimiz uchun bu san’atning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini anglashlarida muhim omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Zeroki “Xalq og‘zaki ijodining ushbu go‘zal va betakror namunasi mamlakatimizda ming yillar davomida rivojlanib, baland cho‘qqilarga ko‘tarildi. Baxshichilik san’ati yurtimizdagi turli millat va elatlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, bir-birini tushunish va hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlash yo‘lida beminnat xizmat qilib keldi va bugungi kunda ham bu sharafli vazifani to‘la ado etmoqda. Yoshlarni ona yurtga, milliy madaniy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni adolat va insoniylikka chorlash, barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishida

ezgulik elchilari bo‘lgan baxshi, oqin va jirovlarning o‘rni va ta’siri beqiyosdir”[3]-deb ta’kidladi muhtaram prezidentimiz baxshichilik YUNESKO merosi ro‘yxatiga kiritilgani munosabati bilan yo‘llagan tabrigida.

Adabiyotlar:

1. Nomoddiy madaniy meros va folklor ijro san’ati an’analari. B.Sayfullayev, S. Yo'ldosheva, J.Eshonqulov, A.Ashirov, 0'.Toshmatov. Navro‘z-2017 24-25 bet

2. Doston. O‘zbek folklorining epik janrlari. T.Mirzayev - T: Fan-1981. 21-37-B

3. Prezident Sh. Mirziyoyev. Baxshichilik YUNESKO merosi ro‘yxatiga kiritilgani munosabati bilan yo‘llagan tabrigidan.

BAYRAMLAR YURTI O‘ZBEKISTON

Dilorom ORIPOVA,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Dramatik teatr rejissyorligi 1-kurs magistri va
Zilola ISKANDAROVA
Qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi 1-kurs magistri

Madaniyat, san’at, fan va ta’lim sohalarini rivojlantirish, uni yangi davr, yangicha dunyo qarash nuqtai nazaridan taraqiiy toptirish, bu sohalarda chuqur islohotlarni amalga oshirish davlatimiz va jamiyatimiz istiqbolining ustuvor yunalishlaridandir. Albatta, bunday zamonaviy tushunchalar, yangi uslublar, kashfiyotlar nechog‘li ahamiyatli bo‘lsa, ajdodlarimizning bu sohalardagi ma’naviy-badiiy merosining ahamiyati ham undan kam emas.

Yurtimizda ulkan iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy islohatlar olib borilmoqda. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov “...birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma’naviy boyligining ildizlariga e’tibor berish lozim. Bu xazina asrlar davomida misqollab to‘plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o‘tgan. Insonlarga og‘ir damda madad bo‘lgan” deb san’atning, badiiy merosning ildizlariga e’tiborni ko‘chaytirishni ta’kidlab kelmoqa.

1991-2004-yillar davomida O‘zbekiston mustaqil bo‘lganidan keyin Navro‘z Respublikamizning asosiy bayramlaridan biriga aylandi. Navro‘zga

tayyorgarlik ko‘rish rejalari va uni yuqori saviyada o‘tkazish chora-tadbirlari belgilanadi. Bu tadbirlarda san’tkorlar bahorni kutib olish, tabiatning yangilanishi, insoniy dillarning poklanishiga va dalalarda yangi mehnat mavsumi boshlanishiga bag‘ishlangan kuy, kushiqiar ijro etadilar.

Sahnalashtirilgan va barcha teatrlashtirilgan bayram tantanalarida Rustam Hamidovbosh rejissyorlik vazifasini bajardi (1995-yil bundan mustasno). Endi Navro‘z bayrami tantanalari rejissurasiga qisman to‘xtalib o‘tamiz. 1991-yil Navro‘z bayrami Toshkentning bosh maydonida o‘tkazilgan tomoshasida (ssenariy mualliflari U.Qoraboev, A.Aminov, B.Norboevlar, bosh rejissyor R.Hamidov) koinot va tabiat qonunlari asosida quyoshning hamal burjiga kirishi, bahorda kun bilan tun tengligi, tabiatning jonlanishi, dalalarda yangi mehnat boshlanishiga oid ramziy g‘oyalar o‘z aksini topdi. Shuningdek, bayramda do‘stlik, turli millatlarni birlashtirish, ona Vatanimiz tarixidan lavhalar hikoya qilish g‘oyasi ko‘zda tutildi.

Navro‘z tomoshasining boshida maydonga gul, navro‘z, bahoroy, dehqon bobo kabi ramziy timsollar kirib kelishi qatnashchilarga navbahor go‘zalligini his qilishgaga imkon yaratdi.Tomosha maydonning turli tomonlarida Toshkentning 12 darvozasi va qadimgi shahar ramzi yaratildi. “Navro‘z shahri”ga Ipak yo‘li bo‘ylab turli tomonlardan karvonlar kirib keldi. Dillarga shukuh bahsh etuvchi katta tomosha boshlandi. “Navro‘z syuitasi”, “Halqlar do‘stligi” tomoshalari barchaga bayramona kayfiyat baxsh etdi. Rejissura o‘z ifoda vositalarining yuksak shaklida namoyon bo‘lib, yangi kun obrazi – bahor ramzini ko‘rsata oldi.

1992-yil. Gullarga burkangan Xalqlar Do‘stligi maydoni uzra Navro‘z quyoshi charaqlaydi. Maydon uzra ilk bor mustaqil O‘zbekiston bayrog‘i hilpiraydi, karnay-surnay, nog‘ora-yu childirmalarning sadosi olamni tutadi. Minglab sharlar osmon tomon intiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Navro‘z bayramiga atalgan tabrik nutqi yangraydi. Keyin maydon o‘rtasida oppoq libosdagi oqlik kunlarga yetgan “Ona Tabiat”, o‘z dugonalari bilan sabzavoriy libos kiygan “Gulbahor”, o‘z jo‘ralari bilan “Navro‘zbek” tashrif buyurdi. Xalqimizda Navro‘z sevishganlar to‘ylariga ulanib ketgan. Aynan shu an’anani davom ettirib, Navro‘z kuni to‘y qilgan oshiqlar Toshkent shaxrida kam emas ekan. Ular Navro‘z bayramiga taklif qilingan. Bayram qahramonlari “Ona Tabiat”, “Navro‘zbek” va “Gulbahor” yosh kelin-kuyovlarni qutlashadi. Bayram esa tobora jo‘shqin tus olib, kuylarga raqslar, raqslarga qo‘shiqlar ulanib ketdi.

Shahrimiz mahallalarining milliy qadryatlarimizni namoyish etib maydonni to‘ldiri turishi, bayramga ayniqsa o‘zgacha shukuh baxsh etadi.

Chavandozlarning, karvonlarning maydonga tashrifi esa xuddi Buyuk ipak yo‘lining bayramga tutash bo‘lganini eslatadi. Maxsus maydonda ma’naviy bayramning Bahor mavzusiga bag‘ishlangan teatrlashgan-badiiy tomoshasi rejissurasi dunyoga keldi. Bu shaklni R.Hamidov ilk bor sinovdan o‘tkazdi.

1993-yil. Bu yilgi bayramda dunyodagi barcha ezgu niyat, yaxshi xislat, fazilat Navro‘zga hamohang bo‘lib uyg‘unlashib ketganligini sezsa bo‘ladi. Vatanimiz poytaxti Toshkentning Xalqlar do‘stligi maydonida qadimgi an’analarga ko‘ra nuroniy, oqsollar Navro‘z tantanalarga oq fotiha tiladi.

Borliqni karna-surnay navolari, childirmalar jarangi tutib, kurrai zamin timsoli bo‘lmish shar osmonu falakka ko‘tarildi. Unga ona Vatanimiz xaritasi, milliy tamg‘amiz hamda bayrogimiz tasviri tushirilgan.

Karnaylar na’rasi, doiralar sadosi asta-sekin uzoqlashadi. Rang-barang bayroq tutgan tug‘dorlar orasidan harir libos kiygan bahorga bag‘ishlangan “Bahor” valsi yangraydi.

Respublikamizning mashhur san’atkorlari hamda poytaxtimiz tumanlarida faoliyat ko‘rsatayotgan badiiy havaskorlik jamoalari tayyorlagan “Navro‘z gullari” vokal-raqs kompozitsiyasi, barcha viloyatlardan kelgan folklor-etnografik guruhlar namoyish etgan xalq qo‘shiq va raqslari, sumalak pishirish, kelin salom kabi udumlarimiz aks etgan tomoshalar yig‘ilganlarda unutilmas ta’surot qoldirdi. Shu lahzalarda maydonga nazar tashlasangiz, o‘zingizni fasli bahor og‘ushida, raqqosu-raqqosalar, xonanda-yu sozandalar davrasida – xalq ijodiyotining bitmas-tuganmas chashmasi qarshisida turgandek xis etasiz.

O‘zbekiston milliy bog‘idagi sayxonlikda chodirlar tikilgan. Sovut-qalqontaqqan lashkar hazil-mutoyiba qilib hordiq chiqirmoqda. Otlar qantarib qo‘yilgan. Katta qozonda osh damlangan, choy qaynab turibdi. Jangu jadal, yurish to‘xtatilgan. Zotan, bugun – Navro‘z. Bu tarixiy ko‘rinishda XIV-XVI asrlardagi voqealarni jonlantirishga Harakat qilingan. Ommaviy tadbir rejissurasida ilk bor tarixiy harbiylar hordig‘i teatrlashtirilgan tomosha shaklida ifodalandi. Navro‘zda hatto lashkarlar hambayram qilgani ko‘rsatildi.

1994-yil. Bu yilgi Navro‘z tantanalarining asosiy qismi Alisher Navoiy yodgorligi maydonida, bir tomoni O‘zbekiston Milliy bog‘i, bir tomoni “Halqlar do‘stligi” saroyi va maydoni bilan tutashib ketgan ulkan sahnalarda namoyish etildi. Bayram shodiyonalari bolalar ijrosidagi qo‘shiq va raqslar bilan boshlandi. So‘ng eng yetuk san’atkorlar bilan Toshkent shahri tumanlaridan kelgan havaskorlar ijrosida “Dehqon bayrami” syuitasi ijro etildi.

Qoraqolpog‘iston va 12 viloyat vakillari folklor guruhlarining chiqishlari o‘ziga xos ko‘rk bo‘ldi. “Alyor, Navro‘z” deb nomlangan raqsli, teatrlashtirilgan qo‘shiq ikki soatlik bayram dasturiga yakun yasadi. Bolalar san’at guruhlarining chiqishlari maydondagi teatrlashgan “Navro‘z” kompozitsiyasida ilk bor ommaviy tadbir rejissurasida sinab ko‘rildi.

1996-yil. Elimizga yana Navro‘z keldi!

Navro‘z in’om etgan xush kayfiyat, bayramona ruh ozod Vatanimizning har bir go‘shasida, jumladan, poytaxtning Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog‘ida hukmron.

Mamlakat Prezident Islom Karimov O‘zbekiston xalqini go‘zal bahor ayyomi – Navro‘z bilan muborakbod etib, tabrik nutq so‘zladi.

Maydon uzra bayram sadosi yangradi. Karnay-surnaylarning dillarni qitiqlovchi ovozi atrofni tutdi. Navro‘z tantanalari boshlanib ketdi. Rang - barang bayroqlar ko‘targan yigit-qizlar tomoshagoh sarhadiga tizildilar.

Bayram muqaddimasi “Navro‘z kelur” deb atalib, unda bu bayramning kelib chiqishi, halq orasida saqlanib qolgan rivoyatlar asosida teatrlashgan tomosha xavola etildi.

Tomoshalarda Respublikamiz teatrlari jamoalari, O‘zbek Davlat filarmoniyasining taniqli ansambllari O‘zbek Davlat sirki, O‘zbekiston teleradiokompaniyasi qarshisidagi badiiy jamoalar, M. Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san’at institut, Toshkent madaniyat koleji, Respublika xoreografiya bilim yurti jamoalari qatnashdilar.

Alisher Navoiy nomidagi bog‘ memorialida o‘tgan asosiy bayram dasturini Yo‘ldosh Muqimov ssenariysi asosida san’at arbobi Rustam Hamidov bosh rejissyor sifatida tayyorladi. Bu gal ommaviy tadbir rejissurasi Navro‘z haqida saqlanib qolgan rivoyatlar asosida teatrlashgan tomoshani sinovdan o‘tkazib xalqqa mashhur qildi.

1997-yil. Navro‘z!

Maydonda ulkan sharlardan yasalgan 12 muchal paydo bo‘ladi. “Muchal” deb nomlangan vakil ramzi xoreografik kompozitsiyada har bir burjning o‘ziga xos jihatlarini aks ettiruvchi qo‘shiq va raqslarni ijro etadi.

12 muchalni xoreografik kompozitsiyasi ommaviy bayram rejissurasidagi izlanishlarning yangi shakli bo‘lib badiiy go‘zalligi bilan esda qoldi.

1998-yil. Navro‘z nafaqat inson va tabiatning, balki milliy va qadimiy urf-odatlarimizning yangilanish davridir.

Bahor bayrami boshida Prezidentimiz barchani Navro‘z bilan qutlab, 1998-yil – Oila yiliga diqqatimizni qaratdi. Chunki halollik, rostgo‘ylik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, or-nomus, sharm-u hayo oilada shakllanadi. Oila Sharqda azal-azaldan muqaddas dargoh hisoblanadi. Yurtboshimiz bu xaqda “oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqiddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllarga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya uchog‘i..” ekanligini ta’kidlaydi.

Sahnaga bolalar, nuroniy otaxon va onaxonlar kirib keldi. Chaqaloqlarning yig‘isi eshitildi. Navro‘z va chaqaloq.Yangi kun va yangi inson. Ona zamin yasharayapti. Hayot yangitdan boshlanayapti. Bu yil Yo‘lbars yili. Sahnada yo‘lbars paydobo‘ladi. U hamisha paxlavonlik va mardlik timsoli bo‘lib kelgan.

Maydonda karnay sadolari yangraydi. Sahnaga g‘alaba bilan qaytgan Alpomish va uning alp yigitlari kirib keladi.Ularni Oybarchin o‘zi kabi go‘zal va dono qizlar davrasida kutib oladi. Turli sport o‘yinlari, polvonlarning chiqishlariko‘rsatiladi. Balki Navro‘z bundan ming yillar burun Alpomish tug‘ilib voyaga yetgan Bobotog‘ etaklarida huddi bugungidekbayram qilingandir. Balki Alpomish bilan Oybarchin Navro‘z musobaqalarida ot choptirib, kurash tushib, el og‘zigatushgandir. Navro‘z bayramida “Oila yili” mavzusining uyg‘unlashuvi rejissurada hamo‘ziga xos ifoda vositalarinitopishni taqazo qildi. Bu badiiy yechimni R. Hamidov topdi.

Shu yili buyuk vatandoshlarimiz Imom al Buxoriy va Ahmad Fargoniy tavalludlari halqaro mikyosda kengnishonlandi. Bu tadbirlarda ham Rustam Hamidov bosh rejissyorlik qildi. Ulug‘ allomalarning ijodi va xayotigabag‘ishlangan tadbirlarni halqaro miqyosdanishonlanishining ham rejissurasi topildi.

Navro‘z kelinchak ramzida, 1999-yil esa “Ay ollar yili” juda hamoxang keldi. 1999-yil Navro‘z arafasidagi O‘zbekistondagi terroristik xarakatlar hammamizni ogoxlikka chorladi. Navro‘z bayrami professionalsan’atkorlar ijrosida tantanali nishonlandi. Bu bayram rejissurasi yetuk san’atkorlarni guldastasini yaratdi.

2000-yil baxor va uyg‘onish, yangilanish xamda ezgulik, mexr-muxabbat, kadr-oqibat, xayru-saxovat ramzi Navro‘zi olam kutlug‘ qadami bilan yurtimizga kirib keldi.Asrlarni bog‘lab turuvchi 200-yil Navro‘zi O‘zbekiston Respublikasi Prezident I.A.Karimov tabrigi bilan boshlandi.

“Karnay chaqiruvchi” bayram mukaddimasi – “Vatan Navro‘zi”, “Yil fasllari”, “Qush tili” lavxalariga badiiy “ko‘prik” bo‘ldi. Ko‘k bag‘riga rango-rang

sharlar uchirildi. Saxna ustida kabutarlar parvozi charx urdi. Uzok, o‘tmishdan “hikoyalar so‘ylovchi” nay sadosi, bulbul “chax-chaxi”dan qalblar junbushga keldi, “Vatan” qo‘shig‘i yangradi. “Navro‘z xikmatlaridan” lavxasida “O‘zbek bola”, “Tong Buncha”, “Doyra”, “Tantana”, “Turnalar” kuy, qo‘shik, va raqslari o‘z aksini topdi. Jajji bolajonlarning sho‘x-sho‘x kuy-qo‘shiqdari sadosi ostida olam misli o‘z beg‘uborligini, bolaligini namoyonetdi. Ayniqsa, ularning “yurtim osmonidan ketmang turnalar” - deya mitti qo‘llarini silkitganini ko‘rgan xar bir inson qalbida ham o‘sha kezda “Tark etmang Vatanni!” - degan xitob yangragandek edi. Aslida bu – “**SOG‘LOM** avlod yili”ning sog‘lom avlodlari da’vati edi. Tadbir rejissurasi Navro‘zni – bolalar bilan bog‘lash va badiiy yaxlitlikka erishish masalasini hal qilishi kerak edi. Rejissyor R. Hamidov bunga erishdi.

2001-yil tomoshasi o‘zining ramziy bezagi bilan ajralib turardi. Navro‘z muqadimasida maydonga “Navro‘zi olam keldi”, “Karnay chaqiruvchi” yordamida “Baxor uyg‘onishi” sodirbo‘ldi. Jumladan, bayramga chorlovchi musiqiy oxanglarga tabiatning uyg‘onishi, borliqning yosharishi, qushlarning chug‘ur-chug‘uri, jilg‘alarning shildirashi uyg‘unlashib ketadi. Ko‘kka uchirilgan rang-barang sharlar ajib kamalak xosil qiladi, fursat o‘tmay, rangin kamalak alvon bulutga aylanib ketadi. Navoiy xaykalining gumbazi kuyosh misol atrofga zarrin nurlarini taratadi, butun maydon gullarga burkanadi, ular ustida rangin kapalaklar qanotlarini xilpiratib uchadi.

2001-yil respublikasizda “Ona va bola yili” deb e’lon qilingani bois teatrlashgan tomosha “Onavabola” suxbati bilan boshlandi. Navro‘zni hammadan ko‘p bolalar sevsa kerak. Shuning uchun bolalar Navro‘zi haqida “Umid chechaklari”, “Sog‘lomavlod”, “Onajon va bolajon”, “Laylak”, “Gulg‘unchalar”, “Keldi Navro‘zi olam”, “Jajji go‘zal”, “Yurt ishqida yonaman”, “Lola” mavzulari kuy va qo‘shiq, raqslarda o‘z aksini topdi. “Ko‘klam navolari” qismida taniqliartistlar va yosh xonandalar Navro‘z qo‘shiklarini keng ommaga namoyish etishdi.

Bu yilgi Navro‘z “Xush kelibsan, Bahor” nomli an’anaviy qo‘shik, bilan yakunlandi. Ommaviy tadbirlar rejissurasida ilk bor “Ona va bola” mavzusi bahor bayramiga uyg‘unlashtirildi. Natijada Navro‘z bayramining yangi badiiy shakli paydo bo‘ldi.

2002-yil. Ona – O‘zbekistonimiz poytaxti Toshkent, ayniqsa, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i Navro‘z bayrami shodiyonalari boshlanadigan muqaddas go‘sha sifatida yana mehmonlarni o‘z bag‘riga oldi. Bu

yerga Qoraqolpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxri jamoatchiligi, diplomatik korpus va xalqarotashkilotlarning vakillari, xorijlik mehmonlar tashrif buyurishdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov yurtimiz fuqarolarini umrboqiy bayram-Navro‘zi olambilan qutlab, nutq so‘zladi. “Navro‘z” umumhalq bayrami tomoshasi dasturi muqaddima hamda olti fasldan iborat bo‘lib, adabiyot, san’at, madaniyat arboblarining teran bilimi, topqirligi va ma’naviy salohiyatining yorqin namoyishi desa bo‘ladi.

“San’atim namoyonaylar diyorim” faslida respublikamizning barcha viloyatlari o‘z san’atlarini namoyon etishimkoniga ega bo‘ldilar. Dasturning «Kuyla, o‘yna, xur O‘zbekistonim» deb nomlangan fasli estrada san’atimizning eng sara vakillari ijodidan tarkib topgan bo‘lib, tomoshabinlar Farrux Zokirov, Yulduz Usmonova, Nasiba Abdullaeva, Ruslan Sharipov, Rashid Xoliqov, Maxmud Namozov, Nilufar Raxmatova, Izzatilla Ibroximov xamda «Fayod», «A’lo», «Setora», «Anor» guruxdarining jonbahshida qo‘shiqlaridan baxramand bo‘lib, raqosalarning go‘zal xiromlaridan zavq, oldilar. Bayram rejissurasida yangi mavzuni Navro‘z bilan uyg‘unligini topish borasida katta tajriba orttirgan ijodkorlar 2002-yilni Qariyalar yili» - deb atalishidan kelib chikdi nuroniylikni tarannum etishda yangi ifoda vositalarini topdi.

2003-yil. O‘zbekiston milliy bog‘i va Xalqlar do‘stligi saroyiga tutashib ketgan Alisher Navoiy yodgorligi maydoni o‘zgacha manzara kashf etgan. Salobat to‘kib turgan buyuk Navoiy xaykali, yarim doyra shaklida kurilgan uchmingnafardan ziyod tomoshabin o‘tiradigan muvaqat joy, uning atrofida qad ko‘targan 6 moviy gumbaz, tovusdek tovlanuvchi matodan yasalgan bezaklar, o‘rtadagi ulkan saxna va bu yerdan Navoiy yodgorligi poyigacha cho‘zilgan namoyishgox, shabadada hilpirab turgan rang-barang bayroqlarni ko‘rib butun vujudingiz bayram shukuxiga to‘ladi.Shodiyonalar avvalida respublika Prezidenti Islom Karimov O‘zbekiston xalqini go‘zal bahor ayyomi – Navro‘zi olam bilan muborakbod etib, tabrik nutqi so‘zladi. So‘ng Navro‘zga bag‘ishlangan tomoshalar boshlandi. Rang-barang liboslardagi yigit-qizlar safi karnay-surnay va nog‘ora sadolari ostida xazrat Navoiy poygohidan tomoshagoh sari yul oldi.Poytaxtning mashxur san’at ustalari, iqtidorli ijrochi yoshlari tayyorlagan ajoyib tomoshalarda yer – onazamin haqidagi qadimiy afsonalar jonlandi. Gullar tebranishi yanglig‘ raqslar, dilrabo qo‘shiklar, mehnat, ezgulik haqidagi she’rlar qalblarni to‘lqinlantiradi.

Tomoshagoh uzra kuyosh timsolidagi havo shari yuksaladi. Kuyosh-insoniyatning, yerning murabbiysi. Kuyosh ramzibo‘lgan raqqos, yetti sayyora-

qizlar qurshovida sahnaga chiqdi. Kuy, g‘azal va raqslarda haqiqat, ozodlik, hayot, abadiyatramzi bo‘lgan oftob madx, etiladi.Sahnadagi tomoshaning navbatdagi qismi insoniyat vatan-ona-yerning yaratilishiga bag‘ishlandi. MustaqilO‘zbekiston yer xaritasida o‘zining munosib o‘rnini egallagani raqs va qo‘shiklarda ifoda etildi.Nihoyat, maydonga Navro‘zoy tashrif buyuradi. Boychechaklar, lolalar rango-rangligi ko‘zni quvontiradi. Maydonchetida yuksak tog‘ adirlar, kizg‘aldoqlar manzarasi paydo bo‘ladi. “Turfa xil bayroklar, rang-barang gullar va serjilo liboslar o‘zaro uyg‘unlashib, bu benazir maskan bamisolijannatiy gulzorga aylangan. Qiziqchilarning ichak uzdi askiyalari, masxarabozlar ko‘rsatayotgan tomoshalar sayil ahlini xushnud etdi. Maydonning bir necha joyida tiklangan dorlarda dorbozlar muallaq, turib tomosha ko‘rsatdi. Undanda yuksakda-bulutlarga yondosh joylarda rangin varraklar parvoz qiladi”. Maydondagi kuy-qo‘shiqqa, qo‘shik, raqsga, raqs olqishga ulanadi. Bu olqishlar Navro‘z tantanalari bosh rejissyori, O‘zbekiston xalq artisti Rustam Hamidov va boshqa ko‘plab taniqli san’atkorlar, tashkilotchilarga ham tegishli edi, albatta. O‘zbek davlat filarmoniyasining “Shodlik”, “Zarafshon”, “Lazgi” xalq, ashula va raqs ansambillari, O‘zbekiston xalq artistlari G‘ulomjon Yokubov, Yulduz Usmonova va boshqa taniqli san’atkorlarimiz meyoriga yetkazib ijro etgan lavxalarni tomoshabinlar uzok, eslab yursalar kerak.Ommaviy tadbirlar rejissurasi «Obod maxalla yili”ni Navro‘z bayramiga tabiiy bog‘lay oldi. Chunki maxalladagi obodlik baxordan boshlanadi.

2004-yilgi Navro‘z tantanalari ham an’anaga muvofik O‘zbekiston Milliy bog‘ida, 19-mart kuni o‘tkazildi. Bu yilgi Navro‘z ham tinchlik-omonlik, osmonimiz musaffoligi, to‘kin-sochinlik, xalqimiz tantiligining, mehr va muruvvatning yana bir yorqin timsoli bo‘ldi. Prezidentning xalqimizga Navro‘z tabrigidan so‘ng boshlangan bayram tadbirining nihoyasi estradamizning yorqin yulduzlari tomonidan kuylangan sho‘x kuy-qo‘shiqlar bilan yakunlandi. Bu bayram ham tarix zarvaraqlariga muhrlandi. Navro‘z bayrami rejissurasi alohida tadqiqot manbai bo‘lib, tomosha san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi R.Hamidov misolida alohida o‘rganiladi deb o‘ylayman.

NAVRO‘Z – SHARQ XALQLARINING MILLIY BAYRAMI

Ruqiya ABDULLAEVA ,
ToshdShu Sharq filologiyasi va
tarjimashunoslik fakulteti tarjimashunoslik
va xalqaro jurnalistika kafedrasi 2-bosqich
magistranti
ruqiY.abdullaeva.86@gmail.com
+998909558644

Annotatsiya. Maqolamizda Navro‘z bayramining sharq xalqlari o‘rtasidagi mushtarakliklari haqida so‘z yuritiladi, shuningdek, xalq sayli sifatida chiqish darajasi, sabablari, qolaversa, ushbu bayram haqida ma’lumotlar keltirilgan. Uning xalqlar o‘rtasida keng nishonlanishi, kelib chiqish tarixi, shakllanish jarayonlari haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan. Navro‘z bayrami umummilliy qadriyat sifatida shakllangan bo‘lib, uning rivojlanishi haqida va Sharq xalqlari o‘rtasida nishonlashining o‘xshash tomonlari haqida ma’lumotlarga ham qisman to‘xtalib o‘tganmiz.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, bayram, lingvomadaniyat, mushtarak bayram, qadriyat, urf-odat, an’ana, madaniyat.

Аннотация. В нашей статье рассматриваются общие черты между народами Востока в праздновании Навруза, а также причины его популярности как национального праздника, а также сведения об этом празднике. Он широко отмечается у народов, описывается история его возникновения, процессы его становления. Навруз сформировался как национальный праздник, и мы частично коснулис информации о его развитии и сходных аспектах его празднования у народов Востока.

Ключевые слова: Навруз, праздник, лингвокультура, общий праздник, ценности, обычаи, традиции, культура.

Annotation. Our article discusses the common features between the peoples of the East in the celebration of Navruz, as well as the reasons for its popularity as a national holiday, as well as information about this holiday. It is widely celebrated among peoples, the history of its occurrence, the processes of its formation are described. Navruz was formed as a national holiday, and we partially touched on

information about its development and similar aspects of its celebration among the peoples of the East.

Key words: Navruz, holiday, linguistic culture, common holiday, values, customs, traditions, culture.

Yurtimiz mustaqillikka erishgan kunidan boshlab O‘zbek xalqining qadimiy urf-odatlari va ana’nalari keng nishonlana boshlandi, jumladan, Navro‘z bayramini nishonlash o‘ziga xos tusga ega bo‘ldi. Bu bayram barcha xalqlarning do‘stlik va birlik ramziga ega bo‘lgan umumxalq bayramidir. Navro‘z bayrami tarixi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, Navro‘z bayrami fors-tojik va turkiy xalqlarning qadimiy bayramlaridan biridir. Bu bayram 21-mart kuni nishonlanib, aynan kun va tun teng bo‘lgan paytga mos keladi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha va olimlarimiz fikrlaricha, Navro‘zning shakllanish davri eng qadimgi zamonlardan, ya’ni “zardushtiylik”ning paydo bo‘lishigacha davom etgan asrlarni o‘z ichiga oladi. Miloddan avvalgi birinchi mingyilliklarga borib taqaladi [1, 3].

Navro‘z so‘zi asli fors-tojik tilidan olingan bo‘lib, نوروز[no‘ruuz] «Yangi kun» degan ma’noni bildiradi. Tarixchilarning ta’kidlashlaricha, o‘sha kunlarda hatto urush-janjallar ham to‘xtatilib, gina-gudratlar kechirib yuborilgan ekan. Hukmdorlar xalqi ichidan eng munosib kishilarni taqdirlashgan. Ushbu kunda bir guruh mahbuslarning gunohidan o‘tishgan va ozod qilishgan. Bahoriy ayyom har bir inson uchun suyukli bayram ko‘pchilikning “Navro‘z qachon va qaerda paydo bo‘lgan ekan?” - degan savoliga “Saodat” jurnalida chop etilgan “Onaqutining saxovati” maqolasida bunga qoniqarli javob berilgan. Jurnalda jumladan: «Dunyoga ilk alifboni bergan buyuk allomalarning vatani bo‘lgan, dunyoviy fanlarga asos solgan Xorazm yurti qadimda, hatto eramizdan avvalgi minginchi yillarda Xvayrazam deb atalgan. Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik va etnografik izlanishlar Navro‘z bayrami ilk bor xuddi shu zaminda Niso (ya’ni, ayol shahri poytaxti bo‘lmish Parfiyona) grek va Ovrupa faylasuflari asarlarida Parfiyada nishonlanganini ashyoviy topilmalar tasdiqladi. Bunga Burgut qal’a, Jomboq qal’a va Niso qo‘rg‘onlarida bunyod qilingan va shu kunlargacha saqlanib qolgan “olov uy” lari yaqqol misol bo‘la oladi. Burgut qal’a markazida moviy gumbazli maqbara bo‘lgan. Maqbara mehrobida Onaqutining ko‘tarilgan qo‘lida Zumrad tosh bo‘lgan. Bahorgi teng kunlikda-shamsiy hisob bilan hamal oyining birinchi kuni, hozirgi taqvimimiz bo‘yicha 22-martda maqbara gumbazidagi tuynukdan quyosh nuri Onaquti qo‘lidagi Zumrad toshiga tushib, sumalak pishirish

uchun tayyor turgan qozonning o‘txonasiga o‘t yoqqan”, deyilgan. Firdavsiyniig “Shohnoma”sida yangi yil bayrami shoh Jamshid nomi bilan bog‘lanadi. Jumladan, Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarga kasb o‘rgatadi, temir eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib, kiyim to‘qitadi, imoratlar barpo qiladi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, bog‘ bunyod qiladi. Nihoyat, “ishlari gurkirab berganda meva” bir kuni taxt yasatib, unda osmonga ko‘tariladi. Ushbu afsonaga ko‘ra, xuddi shu kuni Navro‘z nishonlangan. Alisher Navoiy “Tarixi mulki ajam” (“Ajam shohlari tarixi”) asarida Jamshidning buyuk kashfiyotlari so‘ngida ulug‘ Navro‘z ixtiro qilinganligini bayon qiladi. Navoiy yozishicha: Jamshid “Chihil minor” nomli odamzod ko‘rmagan va aql bovar qilmaydigan baland bino qurib… “bu imorat tugandi, olam salomin va ashrov va ahbarin yig‘ib, anda azim jashn qildi. Ul vaqtkim, quyosh nuqta e’tiqodli rabiyg‘a taqvil qilib erdi ul binoda taxt ustiga o‘ltirib, adolat sayt va sadosin olamg‘a muntashir qildi va ul kunining otin Navro‘z qo‘ydi” [2.1].

Darhaqiqat, Navro‘zning qachon va qanday vujudga kelganligini aniq ko‘rsatish qiyin bo‘lsa-da, shuni aytish mumkinki, bu bayram dono kishilar tomonidan kashf qilingan. Chunki Navro‘zning dunyoga kelishi chuqur ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, ya’ni Quyoshning hamal burjiga kirishi, tun va kunning tenglashuvi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu esa (har qanday jamiyatda) yil boshi qachon kelishidan qat’i nazar, Navro‘zni uyg‘onish bayrami sifatida keng nishonlangan. Bundan tashqari, Navro‘zning chuqur ildizlariga murojaat qilsak, u eng qadimiy davrlarda – ibtidoiy odamlarning dehqonchilikka o‘tganidan so‘ng dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o‘tkazilgan bahor bayramlariga borib taqaladi. Navro‘z qadim zamonlardan bizgacha yetib kelgan muhtasham qadriyatlarimizdan biri, baynalminal bayramdir. Uning tarkibiga, qadimgi ota-bobolarimizning mifologik tasavvurlaridan tortib, bugungi zamondoshlarimizning qarashlarigacha bo‘lgan ma’naviyat olami singib ketgan bo‘lib, u insoniyat madaniy taraqqiyotining har bir yutug‘idan doimo kuch va quvvat olib turadi. Sharq xalqlarining eng go‘zal va qadimiy bayrami Navro‘zning qachon paydo bo‘lgani xususida turli mulohazalar bildirilgan. Atoqli olim Xodi Zarif Navro‘zi olamning yoshini kamida uch ming yil, hatto undan ham kattaroqdir deb hisoblagan edi. Zero, X asr buxorolik olimi Narshaxiy, dehqonlarning Navro‘zda aytiladigan Siyovush nomi bilan bog‘liq qo‘shiqlari haqida gapirib, «Bu gaplar bo‘lib o‘tganiga hozir uch ming yildan ko‘proq vaqt otdi»,- deb yozadi. Bahor va mehnat bayramining paydo bo‘lishi haqidagi tarixiy ma’lumotlar davrlar o‘tishi bilan turli

o‘zgarishlarga uchrab, shu kunlargacha yetib kelgan. Navro‘z haqidagi qadimgi afsonalarda esa bu umumxalq bayramining paydo bo‘lishi ajdodlarimizning bahor fasli va ko‘klamgi dala ishlarining boshlanishiga aloqador udumlariga bog‘lanadi. Dastlab Navro‘z bayramini o‘tkazish o‘troq dehqonlarda rasm bo‘lgan, keyinchalik ular orqali yarim o‘troq va ko‘chmanchi turkiy xalqlarning ham urf-odatlriga aylangan.

Asrlar o‘tishi bilan turli xalqlarda Navro‘z bayramini o‘tkazish marosimlari ularning turmush tarziga, mafkurasiga moslashgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Navro‘zni bayram qilish axmoniylar davridan boshlangan va O‘rta Osiyo, Eron, Afg‘oniston xalqlarida eng katta bayramlardan biri hisoblangan. O‘rta Osiyo va Eron xalqlari arab xalifaligi hukmronligidan qutulgan davr (9-10-a.)dan boshlab, Navro‘z bayramini o‘tkazish yana rasmiy tus olgan. Qadimiy kitoblardagi ma’lumotlarga asoslanib, Abulqosim Firdavsiy o‘zining «Shohnoma» asarida Navro‘z bayramining paydo bo‘lishini afsonaviy shoh Jamshid nomi bilan bog‘laydi [1, 27-31]. Navro‘z bayrami haqidagi ma’lumotlar Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” va boshqa asarlarida, Umar Xayyomning “Navro‘znoma” asarida uchraydi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida Navro‘zga bag‘ishlangan xalq qo‘shiqlari keltirilgan. O‘rta Osiyolik tarixchi olim Abu Bakr al-Narshaxiy (899- 959) o‘zining “Buxoro tarixi” asarida Navro‘z kuni Siyovush qabri boshida odamlar xo‘roz so‘yishlarini va bunga uch ming yildan ortiqroq vaqt o‘tganini yozgan. O‘rta Osiyo hududida Navro‘z bayrami nishonlanganligi to‘g‘risida boshqa manbalarda ham ma’lumotlar bor. Dastavval qadimgi Erondagi Navro‘z va Mehrjon Arabiston yarim oroli aholisi orasida bahoriy bayram sifatida ham tanilgan va Saudiya Arabistonining ba’zi qismlarida keng nishonlanib kelmoqda. Aholi ushbu bayramni keng nishonlashadi, Navro‘z deb atashmasa-da, “Shaamut-tasnim” deb atashadi, urf-odatlari Navro‘zniki kabidir. Qalqshandiy (756-821 hijriy) “Sobh al-ashiy” kitobining muallifi bu bayram Misrda xuddi shu nom, Eron urf-odatlari va an’analari bilan nishonlanishini aytadi [5]. Shuningdek, muallif shunday yozadi: “Misrliklar o‘sha kuni shod bo‘lib, bir-birlariga o‘t yoqib, suv sepib, Eron urf-odatlariga qaraganda ancha batafsilroqdir. Suriya xalqi ham xuddi shu marosimni Rim oylaridan biri bo‘lgan namoz oyi birinchi kunida bajaradi. Farazlarga ko‘ra, Kambiz II qadimgi Navro‘zni Misrga olib kirgan bo‘lishi mumkin. Boshqa nazariyalarga ko‘ra, Navro‘zning qadimgi Misrga kelgan sanasi Buyuk Doro hukmronligi davridagi Kambizning vorisi bo‘lgan bu podshoh davrida misrliklar va eron o‘rtasida madaniy aloqalar mustahkam bo‘lgan. Misrni arablar bosib

olgandan keyin ham bu o‘lkada bu qadimiy bayram davom etgan Bu “Yashmalnasim” yoki النيروز قبطي[anniyro‘zul-qobtii] deb ataladi. Ma’lumki, Misrdagi Nil daryosida bahorgi mavsumiy toshqinlar bo‘lib turadi, toshqinlar hosillariga salbiy ta’sirini o‘tkazmasin deb va hosildorlik mo‘l bo‘lishi uchun yil boshida bayram qilishgan. Misr ko‘chalarida gullar bilan yasatilgan o‘zlarining bahoriy taomlarini pishirishadi bolalar bahor sayillariga chiqishadi. Navro‘z turk xalqlari uchun ham katta bayram bo‘lgan va so‘g‘dliklar uni “Nosard” ma’nosida “Yangi yil” deb atashgan va ular o‘z do‘stlari va qarindoshlariga an’anaviy tarzda shirinliklar berishgan, shuning uchun ham Turkiyada Navro‘z “shirin bayram” deb ataladi.

O‘zbekiston hududida yashagan xalqlar ham bu kunni yangi yilning boshlanishi deb quvonch bilan kutib olganlar. Bir necha kun ilgari tayyorgarlik ishlari boshlangan. Bug‘doyni undirishga qo‘yilgan va uning maysasidan sumalak tayyorlangan, ko‘k chuchvara, yalpiz somsa kabi taomlar pishirilgan, otchopar, uloq, kurash singari xalq o‘yinlari, sayillar o‘tkazilgan, bahor haqida qo‘shiqlar kuylangan. Navro‘zning birinchi kuni qishloq joylarida bolalar to‘p-to‘p bo‘lib xonadonlar eshigi oldida Navro‘zga bag‘ishlangan qo‘shiq aytishgan. Xonadon egasi ularni sovg‘a-salom va yeguliklar bilan siylagan. Bolalar yeguliklarning bir qismini qishloqdagi beva-bechoralarga ulashishgan. Bu udum hozir ham Samarqand, Jizzax va Surxandaryo viloyatlarining ayrim qishloqlarida saqlangan. Navro‘z yangi yil bayramigina bo‘lib qolmay, mehnat bayrami ham hisoblangan. Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston va O‘rta Osiyodagi boshqa mamlakatlar mustaqillikka erishgach, boshqa qadriyatlar qatorida Navro‘z bayrami yana tiklandi. Hozir O‘zbekistonda ham Navro‘z umumxalq bayramlaridan biri sifatida nishonlanadi, 21-mart dam olish kuni deb e’lon qilingan. Har yili shu kuni respublikaning barcha viloyatlaridagi xiyobon va maydonlarda bayram sayillari tashkil qilinadi, konsertlar beriladi. Bir necha kun mobaynida mahallalarda Navro‘zga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkaziladi, sumalak, halim va boshqa tansiq taomlar pishiriladi. Navro‘z 21-martdan 22-martga o‘tar kechasi “Qozon tola” udumi bilan boshlanadi [5.1]. Ushbu bayramning kirib kelishi bilan ko‘pgina o‘zbek oilalarida sumalak, halim, ko‘k somsa, osh kabi turli milliy taomlarni tayyorlaydilar. Shu oqshomda kechasi bilan ko‘pchilik bo‘lib sumalak va halim ham pishirilgan. Bu taomlar qozoni ertasiga ochilgan. Navro‘z «qozon to‘ladigan», ya’ni qut-baraka tantana qiladigan xalq bayramidir [5]. Navro‘zda qozon-qozon sumalaklar qaynashi to‘kin-sochinlik, dalalar serhosilligi, mevaga to‘la bog‘lar saxovatidan dalolat beradi. Bayram kuni, sumalak tantanasi,

boychechak, lola sayli bilan bog‘liq folklor materiallari – xalq qoshiqlari, bolalar o`yinlari, sayillar bo‘lib o‘tadi. Bugungi kunda Navro‘z bayrami Alisher Navoiy maydonida tantanali ravishda nishonlanib kelmoqda. Musulmon davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari miloddan avvalgi III asrdayoq Navro‘z bayramini Yangi yil tariqasida keng nishonlaganlar.

Adabiyotlar:

1.Фирдавсий. Шоҳнома: Жамшид.-Т.: G‘офур G‘улом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти , 1984. 2 -31 б.

2.Расулов А. Ўринбоев А. “Тарихи Бухоро” . “Фан” нашриёти-1966 й.

3. https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=5405.0

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Navro%CA%BBz

5. https://ar.wikipedia.org/wiki/%D9%86%D9%88%D8%B1

6. http://azculture.uz/ru/nashi-izdaniY.php?link=nashi-izdaniy

BUXORO- SAMARQAND YO‘NALISHIDAGI NAVRO‘Z BAYRAMIGA BAG‘ISHLANGAN FOLKLOR QO‘SHIQLARINI DUTOR CHOLG‘USIDA IJRO ETISH VA OMMALASHTIRISH

Maftuna ALIMBAYEVA,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti magistratura bosqichi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro- Samarqand yo‘nalishidagi Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan folklor qo‘shiqlarining tipologik omillari orqali o‘zbek xalq qo‘shiqlarini dutor cholg‘usida ijro etish va ommalashtirish uslublari nota misollari orqali yoritildi.

Kalit so‘zlar: folklor, ritm, nyuans, Navro‘z, marosim, kuy, garmoniy.

Аннотация. В данном статье рассматриваются типологические факторы народных песен, посвященных празднику Навруз в Бухарско-

Самаркандском направлении, приемы исполнения и популяризасии узбекских народных песен на дутаре на примеры нот.

Ключевые слова: фольклор, ритм, нюанс, Навруз, обряд, мелодия, гармония.

Annotation. The typological factors of folk songs dedicated to the Navruz holiday in the Bukhara-Samarkand direction, methods of performance and popularization of Uzbek folk songs on the dutar - examples of notes.

Key words: folklore, rhythm, nuance, Navruz, ceremony, melody, harmony.

Folklor- so‘z san’atining boshlang‘ich namunasi bo‘lib, u behad qadimiy so‘z san’ati sanaladi, unda uzoq o‘tmishda yashagan ibtidoiy ajdodlarimizning hali yozuvni bilmagan zamonlardagi turish-turmushi, dunyoqarashi va e’tiqodi, kurash va mag‘lubiyati ifodalangan[4].

Milliy mentalitetimizning asosi bo‘lmish o‘zbek xalq og‘zaki ijodi asrlar davomida shakllanib, bizgacha yetib kelgan hamda hozirgacha milliy qadriyat, an’analarimizning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Bugungi kunda buyuk kelajagimiz bo‘lgan yosh avlod kamolotida o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, bolalar folklorining o‘rni hamda ahamiyati benihoya katta. Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda musiqa hamda san’at sohasining rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun ko‘plab shart - sharoitlar yaratilib berilmoqda. Buning negizida esa, har tomonlama mukammal bilim va salohiyatga ega, xalqparvar ijodkor yoshlar yetishib chiqmoqda. Zero, birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta’kidlaganlaridek: “Agar biz O‘zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi, yorug‘ kelajagini ulug‘lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo‘lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak”[5]. O‘zbekistonda milliy cholg‘ularga, xususan, dutor cholg‘u ijrochiligiga e’tibor nihotda kuchli va buni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112- sonli “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori misolida ham ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. O‘zbekistonda Bolalar folklori namunalari to‘plam holida 1932-yildan nashr etila boshladi. Bolalar qo‘shiqlarining ko‘plari yil fasllari bilan bog‘liq. “Boychechak”, “Oftob chiqdi olamga”, “Chittigul”, “Laylak keldi, yoz

[4] Safarov O. “O`zbek xalq og`zaki ijodi”, “Musiqa”, -T., 2010, 6-bet.
[5] Karimov I. A. “Yuksak ma`naviyat- yengilmas kuch. Ikkinchi nashri. –T., 2011. -140 bet.

bo‘ldi”, “Yomg‘ir-yog‘aloq”, “Qaldirg‘och” kabi qo‘shiqlarni bolalar tom boshida, dalalarda, qishloq ko‘chalarida aytishadi. Ular bahor kelishi, yomg‘ir yog‘ishi, quyoshning olamni isitishi, ilk chechak, birinchi qor kabi fasl va tabiat hodisalari bilan bog‘liq. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridan ma’lum bo‘ladi- ki, mavsum va marosimlarga oid xalq qo‘shiqlarining tarixi qadim o‘tmish zamonlarga borib taqalar ekan[6].

Dutor cholg‘u ijrochiligida yorqin emotsional mazmun-mohiyat, chuqur badiiy-estetik qarash va har tomonlama mukammal musiqiy ifodaviylikni o‘zida mujassam etgan sermazmun xarakterdagi turli janr va shakllarda yozilgan ko‘plab musiqiy asarlar bilan bir qatorda, bolalar folkloriga xos bahor faslida kuylanuvchi o‘zbek xalq qo‘shiqlarining ham soha rivoji hamda taraqqiyotida o‘rni va ahamiyati benihoya katta. O‘zbeklar mavsumiy marosimlarga boy xalqlardandir. Bu marosimlar yilning to‘rt fasliga oid xalqning yashash va mehnat tarzi bilan aloqador bo‘lib, fasllarga qarab, to‘rt turga bo‘linadi:

- bahorgi mavsumlarga aloqador marosimlar;
- yozgi mavsumlarga aloqador marosimlar;
- kuzgi mavsumlarga aloqador marosimlar;
- qishki mavsumlarga aloqador marosimlar.

Navro‘z – qadimiy bahor bayrami. Bahorgi kun va tun tengligi paytida, ya’ni, 21-22-mart kunlari nishonlanadi. Navro‘z – yangi kun degani. Sosoniylar davrida Navro‘z davlat bayramiga aylantirildi. O‘shanda uni yozda, kunning eng uzun paytida, iyunning 21-22-kunlari nishonlaganlar. Navro‘z shodiyonalari qirq kungacha, asosan, may oyining o‘rtalarigacha davom etganligidan xilma-xil marosimlarni o‘z ichiga olgan. Sumalak, boychechak, lola sayli (sayli guli surx) singari marosimlar ham aslida, Navro‘zga xosdir. Navro‘z shodiyonalarida pishiriladigan Sumalak asli, forscha «si malak» so‘zidan olingan, o‘ttiz malak (pari) ma’nosini anglatadi[7]. Go‘yoki, bu muqaddas taomni shu o‘ttiz malak pishirganmishlar, uning nomi ham o‘shandan kelib chiqqanmish. Navro‘zda sumalakni tayyorlovchi ayollar tun bo‘yi sumalak qozoni atrofida bazm o‘tkazishib, quyidagi qo‘shiqlarni kuylab raqsga tushganlar:

Gullola alvon-alvon,
Bug‘doy undirib qo‘ydik
Mehmon bo‘lib kelingiz,
Sumalak qilib qo‘ydik.

[6] Yunusov G`. Folklor jamoa ijrochiligi, O`quv qo`llanma, Qo`qon, 2020, 31- bet.
[7] Sulaymonov I., Muhitdinova N. “O`zbek folklori” ma`ruzalar matni, Samarqand, 2016, 112- bet.

Yoki:
Navro‘z kelay deganda,
Sumalak jonga darmon.
Yayrab ich sumalakni
Qilmayin desang armon.

Bahor mavsumi bilan bog‘liq marosimlar, asosan, kishilarning mehnat faoliyatiga aloqadorlikda o‘tkaziladi. Boychechakni tarannum etuvchi bolalar folklorining yorqin namunasini dutor cholg‘usida ijro etishda musiqiy eshitish qobiliyati, musiqiy sezgi sifati, ijro tezligi (texnika), davomiyligi, tembr bo‘yoqdorligi, dinamikaning jaranglash kuchi, musiqani his etish kabi ijrochilik salohiyatini rivojlantirish bosqichlarini klassifikatsiyalash talab etiladi:



Bolalar folklorining, xususan, Buxoro-Samarqand yo‘nalishida bir qator mavsumiy qo‘shiqlar mavjuddir. Bahor faslida kuylanadigan bolalar folklorining yorqin namunasi sifatida “Yomg‘ir- yog‘aloq” ni keltirishimiz mumkin. Bu folklor

qo‘shig‘ini dutor cholg‘usida ijro etish uchun kuy fakturalarini qismlarga bo‘lib, to‘g‘ri, aniq va ravon ritm defektlarini hamda agogik nyuanslar ketma- ketligini ijroda shakllantirishga doir ilg‘or usullar mexanizmini o‘zlashtirishni talab etadi:



Buxoro-Samarqand yo‘nalishidagi folklor namunalarini yig‘ishda bir qator folklorshunos olimlar, tadqiqotchilar izlanishgan. Xususan, M.Jo‘raev Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlari aholisining tabiat hodisalari va osmon yoritgichlari bilan bog‘liq mifologik qarashlarini to‘plagan. M.Jo‘raev, U.Sattarov, R.Saidovalar Buxoro va Navoiy viloyatlaridan toponimik afsonalarni yozib olganlar. O‘zbek xalq kuyining dutor cholg‘usidagi ijrosi, birinchi navbatda, kuy, ritm va garmoniya mutanosibligini tahlil qila olish, xalqona xarakterning o‘ziga xos musiqiy tili, uslubini to‘liq anglash singari mukammal ijrochilik ko‘nikmalari bilan bugungi kun folklorshunosligida va tahsil olib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Buxoro-Samarqand yo‘nalishidagi o‘zbek xalq kuylarini dutor cholg‘usida ijro etish va ommalashtirishda musiqiy intuitsiya, o‘ziga xos individual obraz va ijro holatidagi emotsional temperament mustahkamlanishini rivojlantiruvchi ilg‘or ijrochilik usullari orqali yosh avlod qalbida xalq musiqasi, milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbat shakllanadi.

Adabiyotlar:

1. Jo‘rayev M. “Folklorshunoslik asoslari” o‘quv qo‘llanma, “Fan”, - T., 2009.

2. Karimov I. A. “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch”. Ikkinchi nashri. – T., 2011.

3. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo‘rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. “O‘zbek folklori”, –T., 2020.

4. Safarov O. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”, “Musiqa”, -T., 2010.

5. Sulaymonov I., Muhitdinova N. “O‘zbek folklori” ma’ruzalar matni, Samarqand, 2016.

6. Yunusov G‘. “Folklor jamoa ijrochiligi” o‘quv qo‘llanma, Qo‘qon, 2020.

7. Sharipova G., Najmekdinov G‘. “Musiqa o‘qitish metodikasi praktikumi”, “Turon-Iqbol”, -T., 2014.

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA XALQONA OBRAZLAR TASNIFI

Shaxzoda TURSUNOVA,
Chirchiq davlat pedagogika
instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muhammad Yusuf ijodidagi xalqona obrazlarning qo'llanilishi haqida fikr yuritiladi. Ijodkor ruhiyati va obrazlar o'rtasidagi munosabatlarga tavsif beriladi. Folklor namunalari qo‘llanilgan she’rlardan namunalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Obraz, ramz, mifologik tadqiq, janr, ijod maktabi, ruhiy munosabat.

Аннотация. В статье рассматривается использование фольклорной образности в творчестве Мухаммада Юсуфа, описывается взаимосвяз творческой психики и образности, приводятся примеры стихотворений, в которых используется фольклор.

Ключевые слова: образ, символ, мифологическое исследование, жанр, школа творчества, духовная установка.

Anotation. This article discusses the use of folk imagery in Muhammad Yusuf's work. Describes the relationship between the creative psyche and the imagery. Provides examples of poems that use folklore.

Key words: Image, symbol, mythological research, genre, school of creativity, spiritual attitude.

Yigirmanchi yuz yillik o‘zbek adabiyotida taraqqiyotning yangi davrini boshlab berdi. Bu davr ijodkorlari milliy adabiyotni o‘zlarining turfa asarlari bilan boyitdilar. Mustaqillik munosabati bilan xalqimizning urf-odat, an’analariga, yo‘l ochilishi keng ijodiy muhitning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Bu davr ijodkorlarining deyarli barchasi xalq folklorini o‘z asarlarining ajralmas qismiga aylantirishdi. M.Hakimov, “Yozuvchi va xalq tili” monografiyasida quyidagicha fikrlarni keltirib o'tadi: “Yozuvchi umumxalq tili asosida badiiy obraz va xarakterlar yaratadi. Obraz va xarakterlarning tipik va individual bo‘lishi ularning turli-tuman tasviriy vositalar, shu jumladan, jonli tilning qaymog‘i bo‘lgan xalq aforizmlari – maqol, matal, hikmatli so‘zlar, iboralar badiiy tasvir quroli bo‘lib xizmat qiladi” [1]. Mana shunday ijodkorlardan biri Muhammad Yusuf (1954-2001) edi. Shoirning ijodi ko'p qirraliligi va xalqona ohanglari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning she'rlarini o‘qir ekanmiz bachkanalik hamda jimjimadorlikdan yiroq bo'lgan lo‘nda, milliy, xalqimizga xos tantilik va soddalik tasvirlarining guvohi bo‘lamiz.

Muhammad Yusuf ham “jonli tilning qaymog‘i”dan unumli foydalana olgan ijodkorlar sirasidandir. Masalan: Shoirning “O‘zbek” she’rida:

O‘nta bo‘lsa, o‘rni boshqa uning-chun,
O‘g’lim otashimdan yaralgan uchqun,
Qizim parilardan chehrasi gulgun,
Yuzlari lolam deb yashaydi o‘zbek [2].

Dastlabki misrada farzandlarga nisbatan aytilgan, birgina,,O‘nta bo‘lsa, o‘rni boshqa” maqoli orqali o‘zbek xalqining qay darajada bolajon ekanligi anglashiladi. Muhammad Yusuf ijodida xalqimizning asrlardan oshib kelayotgan merosiy urf-odat va an’analariga ham alohida e’tibor qaratiladi. Ular vositasida takrorlanmas va barcha uchun tushunarli bo‘lgan tasvirlar yaratiladi.Yor-yor, o‘lan, lapar, umuman, toy marosimlari shoir ijodidan katta o‘rin egallaydi.Bu kabi xalq marosimlaridan yaratilgan tasvirlar orqali lirik qahramonlarning quvonchi, qayg‘usi, o‘y-xayollari to‘liq aks ettiriladi. E’tborga olish kerakki, shoir ijodida xalq maqollari, aytimlari aynan takrorlanmaydi. Folklor namunalarining ma’nosiga putur yetkazmagan holda, ma’lum o‘zgarishlar asosida, badiiy uslub bilan mengzab talqin qilinadi.

Qiz bolaga qismat shu,
Buni boshqa atash yo‘q,
Bir hovlida tug’ilib,
Bir hovlida yashash yo‘q.

“Ota uy” she’rida keltirilgan ushbu jumlalar orqali qiz bolaning o‘sib-ulg’aygan,beg’ubor bolaligi ,opa-singillari bilan g‘animat diydor onlari o‘tgan uyga, Ota uyiga mehmon ekanligi xalqona ohanglar bilan badiiy tasvirlanadi. Bu holatga qismat deb qaraladi va bunday qismat har bir qizning boshida borligi va unga qanoat qilish lozimligi aytiladi. “Palaxmon”, “O‘lan”, “Yor-yor”, “Toy kechasi”, “Karnay yig‘lar”, “Kelinchak”, “Toy” she’rlari , “Ota uy” bilan bir-biriga mazmunan bog‘liq hisoblanadi. Chunki ushbu she’rlarda ham xuddi shunday xalqona misralar orqali milliy udumlar bilan bog‘liq fikr yuritiladi. Lirik qahramonlarning kechinmalari esa, har bir she’rda o‘zgacha uslubda bayon qilinadi. Jumladan, “Chimildiq” she’rida xalqimizning azaliy odatlaridan bo‘lgan, toy marosimlari o‘tkazilayotgan uylarga osiladigan Chimildiqning ipak matodan bo‘lishiga qaramay xalq tomonidan unga bir qo‘rg’on, qo‘rg‘on bo‘lganda ham dunyodagi eng mustahkam qo‘rg‘on deb qaralishi,bu qo‘rg‘on mustahkamligi bilan birgalikda muqaddas ekanligi ham aytib o‘tiladi:

Garchi ipak devoring,
Hech kim seni qurgan yo‘q,
Ammo ikki dunyoda
Sendan baland qo‘rg‘on yo‘q.

She’rda faqatgina chimildiq sifatlari emas, yangi hayot boshlash arafasida turgan qiz va yigitning orzu-istaklari haqida ham fikr yuritiladi. Shoir bu dargohga hech bir qiz, majburan emas, o‘zining xohishi, toza niyatlari bilan qadam qoyishini tilaydi:

Tilagim shu – boylansin
Jon rishtasi joningga,
Yo‘lamasin hech bir qiz,
Rozi bo‘lmay yyoningga.

Xalqning haqiqiy farzandi sifatida xalqqa singib ketgan ijodkorning she’riyatini o‘rganar ekanmiz Pari, Xizr, Yalmog’z, Ajina kabi mifologik obrazlarni uchratishimiz mumkin. Masalan: “Suv pari”

Sen ko‘kdagi hur koylak hur pari,
Ko‘k ko‘ldagi tinib qolgan suv pari.

She’rda yuqorida aytilgan mifologik obrazlarning 2 turi qo‘llaniladi

1) hur pari;
2) suvpari.

Pari xalq og’zaki ijodida qadim davrlardan o‘rin olgan obrazdir.Muhammad Yusuf she’rlarida Pari go‘zallik ramzi sifatida va sehr-jodu qiluvchi ma’nosida

keladi. Adabiyotshunos K.Imomov: “Pari obrazi olov stixiyasining, otashkadalarda olov bilan shug‘ullanib shuhrat topgan ayollar ruining timsollaridir. Qadimiy animik tasavvurda yuzaga kelgan Pari va parizod obrazlari mif zamirida yuzaga kelgan. U go‘zallik ramzi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Olov pari g‘oyat go‘zal, nafis, marhamatli, fusunkor qiz qiyofasida tasvirlangan. Uning pari atalishi olovdan chiqib, otashga singib ketishida amal qiladi [3]. Shu bilan birgalikda, shoir ijodida bir qator ramziy obrazlar ham uchraydi.

Endi osmon yiroq,
Endi yer yumshoq,
Lola,lolajonim,
Lolaqizg‘aldoq.

Atoqli shoir Shavkat Rahmonga bag’ishlangan, “Lolaqizg‘aldoq” she’ridagi ushbu misralarda Muhammad Yusuf ijodining ajralmas qismlaridan hisoblangan ramziy obrazlardan biri Lolaqizg‘aldoq obrazi qo‘llaniladi. Shoir o‘z ruhiy holatini bayon qilar ekan qadrdon sirdoshi lolaqizg’aldoqga, dardlarini aytadi. Obraz bilan xayolan suhbat quradi.Bunda ruhiyat tasviri yuqori ahamiyat kasb etgan. She’rda haqiqiy insoniylik tuyg‘ulari sodda va ravon ohanglarda kuylanadi.

Xalq bilan hamohang ijod qilgan Muhammad Yusuf she’riyatida ko‘p bora va turli tasvirlar vositasida takrorlanuvchi obrazlar mavjud (Kapalak, Qizg’aldoq, Qaldirg‘och, Jayron). Bu obrazlarni, o‘z navbatida, individual obrazlar sifatida qabul qilish mumkin. Shoir ijodida Kapalak samimiylik, poklik, halollik va muhabbatning haqiqiy timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

Yozma adabiyotda xalq og’zaki ijodi namunalaridan maqol,matal,iboralarni baddiy tasvir yordamida qo‘llash holatlari ko‘proq uchraydi.Badiiy tasvir jarayonini to'liq amalga oshirish maqsadida ayrim so‘zlarning o‘zgarishi, sinonimlari bilan alishtirilish holatlari uchraydi. Tasvirning bunday shakli she’rda qofiya va poetik ta’sirchanlikni ta’minlash vazifasini bajaradi. Muhammad Yusuf ijodiy faoliyati davomida bunday namunalar bilan birgalikda, yurtimizning asrlar osha yashab kelayotgan urf-odatlarini ham she’rga solib kuylaydi. “Shoir she’riyatida xalq afsona va rivoyatlari ilg‘or va ulug‘vor falsafiy g‘oyalarni ifodalash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shoir ba’zan afsonalar asosida g‘oyaviy-badiiy falsafani yuzaga chiqaradi, ular zamiriga yashiringan umuminsoniy g‘oyalar vositasida hayotiy muammolarni o‘rtaga tashlaydi. Afsonalar mazmuni bilan zamon hodisotlarini qiyoslab, yangicha ijodiy izlanishlar qiladi” [3]. Muhammad Yusuf xalq so‘zlari va odatlarini yangi davr talabida, milliy talqin qila olgan haqiqiy ijodkordir. Shoirning she’rlari yoshlarda xalqona

ma’naviyat,vatanparvarlik va milliy dunyoqarash xususiyatlarining shakllanishiga keng zamin yaratadi.Shu boisdan, Muhammad Yusuf ijodi oramizda hali hanuzgacha yashab kelmoqda va asrlar davomida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Adabiyotlar:

1.Yozuvchi va xalq tili. M.Hakimov. 222-b.
2. Bitiruv malakaviy ishi. /S.S.Gulimmetova.–Urganch, 2019.16,33-bet
3. Saylanma. M.Yusuf–Toshkent. Sharq. 2002-28,44,57,81,86,93-bet.

O‘ZBEK ADABIYOTI VA MADANIYATI, AMALIY SAN’ATIDA NAVRO‘Z

Mo‘mina ERGASHEVA,
O‘zDSMI Xalq ijodiyoti fakulteti
Ashula va raqs yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: “Musiqiy-nazariy fanlar”
kafedrasi katta o’qituvchisi: **Zuhra ARZIBEVA**

Annotatsiya. Navro‘z qadim zamonlardan bizgacha yetib kelgan muhtasham qadriyatlarimizdan biri, baynalminal bayramdir. Uning tarkibiga, qadimgi ajdodlarimizning mifologik tassavurlaridan tortib bugungi zamondoshlarimizning qarashlarigacha bo‘lgan ma’naviyat olami singib ketgan bo‘lib, u insoniyat madaniy taraqqiyotining har bir yutug‘idan doimo kuch va quvvat olib turadi. Ushbu maqolada o‘zbek adabiyoti va madaniyati, amaliy san’atida Navro‘zning o‘rni xususida so‘z yuritildi.

Kalit so‘zlar: adabiyot; nomoddiy madaniy meros; san’at; yangilanish.

Аннотация. Навруз – праздник интернациональный, одно из великих значений, дошедших до нас из глубины веков. Он пропитан миром духовности, от мифологических фантазий наших древних предков до воззрений наших современников, и всегда черпает силы и энергию из каждого достижения человеческого культурного развития. В данной статье рассматривается рол Навруза в узбекской литературе и культуре, прикладном искусстве.

Ключевые слова: литература, нематериальное культурное наследие, изобразительное искусство.

Annotation. Navruz is an international holiday, one of the great values that has come down to us from ancient times. It is steeped in the world of spirituality, from the mythological imaginations of our ancient ancestors to the views of our contemporaries, and it always draws strength and energy from every achievement of human cultural development. This article discusses the role of Navruz in Uzbek literature and culture, applied arts.

Key words: literature, intangible cultural heritage, art.

Ma’lumki, xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniyati va ezgu qadriyatlarini o‘zida yaqqol mujassam etgan, ona tabiat va odamlar ruhiyatida yuz beradigan yasharish, yangilanish va yuksalishlarni asrlar davomida to‘la namoyon qilib kelayotgan Navro‘zi olam eng ardoqli milliy bayramlarimizdan biri hisoblanadi. Ushbu qadimiy bayramning ruhi va falsafasida mujassam bo‘lgan borliqni asrab-avaylab, doimo u bilan uyg‘un bo‘lib yashash, mehr-oqibat, xayr-u saxovat, bunyodkorlik, bag‘rikenglik, do‘stlik va hamjihatlik singari yuksak g‘oyalar bugungi kunda yanada teran mazmun va ahamiyat kasb etib borayotganini alohida ta’kidlash lozim. Yurtimizda erkin va farovon hayot barpo etish, inson qadrini ulug‘lashdek buyuk maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli demokratik islohotlar jarayonida barcha milliy qadriyatlarimiz qatori Navro‘z umumxalq bayrami ham o‘ziga xos ma’naviy tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda. Millati, tili va dinidan qat’i nazar, har bir vatandoshimiz o‘zining huquq va manfaatlari, qadr-qimmatini tobora chuqur anglab borayotgan Yangi O‘zbekiston sharoitida Navro‘z tom ma’noda umumxalq bayramiga aylanib, el-yurtimiz tomonidan katta shod-u xurramlik bilan nishonlanmoqda [1].

Sharq xalqlarining eng hayotbaxsh va qadimiy bayrami Navro‘zning qachon paydo bo‘lgani xususida turli mulohazalar bildirilgan. Atoqli olim Xodi Zarif Navro‘zi olamning yoshini kamida uch ming yil, hatto undan ham kattaroqdir deb hisoblaganida to‘la haqli edi. Zero, o‘ninchi asr Buxorolik olimi Narshaxiy, dehqonlarning Navro‘zda aytiladigan Siyovush nomi bilan bog‘liq qo‘shiqlari haqida gapirib, “Bu gaplar bo‘lib o‘tganiga hozir uch ming yildan ko‘proq vaqt o‘tdi”,- deb yozadi. Bahor va mehnat bayramining paydo bo‘lishi haqidagi tarixiy ma’lumotlar davrlar o‘tishi bilan turli o‘zgarishlarga uchrab, shu kunlargacha yetib kelgan. Ana shunday afsonalarning aksariyati Navro‘zi olamning vujudga kelishini afsonaviy Jamshid bilan bog‘laydi [2]. Adabiyotsunos Naim Karimov deydiki, Navro‘z xalq hayotida, qolaversa, o‘zbek madaniyati va adabiyotida yangilanish timsoli sifatida o‘rin egallab bo‘lgan. Mustaqillikdan keyin esa Navro‘z davlat

miqyosida keng nishonlanadigan bayramga aylandi. Dastlab madaniy ayyom sifatida koʻrilib, xalq sayli sifatida tantana qilingan Nazroʻz bugunga kelib ancha siyosiy-rasmiy tus olgan.

Navroʻz Shimoliy yarımsharda bahorning boshlanishi sifatida, kecha-kunduz tenglashgan kunda boshlanadi. Baʼzi xalqlar bahor faslining kelishini tabiatning uygʻonishi bilan bogʻlaydilar, shu munosabat bilan bayramlar oʻtkazishadi, uni yangi yilning boshlanishidek bayram qiladilar. Qadim zamonlardan boshlab Ozarbayjon, Oʻzbekiston, Eron, Afgʻonıston, Tojikistonda va yana koʻplab sharqiy oʻlkalarda bahorning — yangi yilning kelishini bayramlar bilan qarshi olishadi. Martning 21-sanasi Eron va Afgʻonistonda rasmiy taqvimning dastlabki kuni hisoblanadi. Navroʻz qadimiyligi, keng geografik qamrovi va uni nishonlash vaqtidagi turli davrlari sababli, nomoddiy madaniy merosning xilma-xil xususiyatlarini oʻz ichiga oladi. Ota-bobolarimiz, buvi-momolarimiz bu bayramni nishonlab, turli-tuman, rang-barang udum va marosimlar oʻtkazishgan. Qadimda ajdodlarimiz Navroʻz kunlari qishki manzillari — qishloqlardan yozgi mehnat va hordiq maskanlari - yozloqlarga koʻchib oʻtishgan. Dalalarda bahorgi ekin ishlari boshlanib ketgan. Dehqonlar yerga qoʻsh solishgan. Jamoa-jamoa boʻlib, hasharlar uyushtirishgan. Oʻtgan ajdodlar ruhi yod qilingan. Ommaviy ravishda mevali, manzarali daraxtlar oʻtqazilgan. Dalalarda, yozloqlarda Navroʻz — yangi yil, yangi hayot qaynagan. Ajdodlarimiz Navroʻz bayramiga atab maxsus kiyimlar tikishgan va ularni kiyib, bayram qilishgan. Navroʻz taomlari ham oʻziga xos boʻlgan. Ular orasida, ayniqsa, sumalak, halim tayyorlash anʼanaviy tusga kirgan. Bu bayramda bolalarning ishtiroki juda faol boʻlgan. Ular Navroʻz bayramida turli ommaviy bayram oʻyinlari oʻynaganlar. Ot oʻyin, chillak, qoʻgʻirchoq, toshoʻyin, lapar aytish va hokazolar shular jumlasidandir. Bolalar, oʻsmirlar, boʻy qizlar sumalak pishirish marosimida faol ishtirok etish uchun ancha ilgariroq tayyorgarlik koʻrishgan [3].

Maʼlumki, mavsumiy marosimlar dunyoning barcha xalqlari orasida eng koʻhna tasavvurlar bilan bogʻliq holda paydo boʻladi. Ular xar bir xalq yashayotgan hududning shart- sharoiti, ob-havosi, xalqning turmush tarzi va boshqa bir qator faktorlar bilan bogʻliq ravishda shakllanib rivojlanadi. Xalqning asl, azaliy bayramlari birinchi galda uning folklorida oʻz aksini topadi. Yil fasllarining almashinuvi bilan bogʻliq bilim va tajribalari, taqvim va hisoblari avloddan-avlodga turli aytim, maqol, matal, topishmoq, naql va afsonalar shaklida meros boʻlib oʻtadi. Bayram marosimlarida ijro etiluvchi qoʻshiqlarda esa uning mazmun-mohiyati betakror metafora va oʻxshatishlar orqali, timsoliy tarzda ifoda etilganligini kuzatamiz. Davrlar oʻtishi bilan ularning baʼzilari marosimlardan

uzilib, turli o‘rinlarda, turlicha ijro etilayotgan bo‘lsada, bayram tizimini yaxlit tasavvur etishga yordam beradi. Aynan ko‘klam paytida fasllar almashinuvi, tabiatning qayta tirilishi, uni jonlantirish bilan bog‘liq «Qozon to‘ldi» kabi qadimiy marosimlar, qo‘chqor, xo‘roz urishtirish tomoshalari, polvonlar kurashi, baxshilar bellashuvi, sumalak, lola sayllari bo‘lib o‘tgan. Ushbu marosim va sayllar mohiyatan inson hayotini yanada yaxshilash, tabiat mushkulotlarini yengillashtirish, kelayotgan ko‘klam va yangi yilni qutlab, uning qut-barakali o‘tishini Yaratgandan so‘rash, turli o‘yin, harakat, qo‘shiqlar asosida kelayotgan yilning qanday bo‘lishini chamalab ko‘rishga xizmat qilgan. Ushbu e’tiqod va u bilan bog‘liq marosimlar tizimi elimiz orasida bugungi kungacha yashab kelmoqda.

Adabiyotlar:

1. “2022-yilgi Navro‘z bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. https://lex.uz/uz/docs/-5866167

2. Musaqulov U. Ommaviy bayram va tomoshalarda san’atlar sintezining estetik ahamiyati. Toshkent – 2017.

3. Navro‘z – bahor bayrami. https://uz.m.wikipedia.org.

4. Navro‘z haqida bilgan-bilmaganlarimiz. https://www-amerikaovozi-com.cdn.ampproject.org.

5. Navro‘z – xalqning o‘ziday qadim va ulug‘ ayyom. https://kknews.uz/oz

G‘ARB VA SHARQ XALQLARI TARIXIDA NAVRO‘Z BAYRAMINING O‘RNI

Durdona Usmonova,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat O‘zbek tili
va adabiyoti universiteti
O‘zbek filologiyasi fakulteti
2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola Sharqiy mamlakatlarimiz yuksak ayyomi hisoblangan Navro‘z saylining qo‘shni xalqlarimiz bilan o‘xshash bo‘lgan bir

qancha urf-odat va an’analarimiz yoritib berilgan. Shuningdek, ba’zi G‘arb mamlakatlaridagi Navro‘z bayramiga o‘xshash bahoriy bayramlari haqida ham ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Sharq, G‘arb, Navro‘z, an’ana,qadriyat, urf-odat.

Navro‘z Shimoliy yarimsharda bahorning boshlanishi sifatida, kecha-kunduz tenglashgan kunda (martning 20, 21 va yoki 22-da) boshlanadi. Zero, Rabg‘uziy bahor vasfiga bag‘ishlangan g‘azalida aytganidek:

Kun hamalga kirdi ersa keldi olam navro‘zi,
Kechdi bahman zamharir qish, qolmadi qori buzi,

ya’ni hamal – Quyosh yili hisobida birinchi oy nomi. Hozirgi mart oyiga to‘g‘ri keladi. Ba’zi xalqlar bahor faslining kelishini tabiatning uyg‘onishi bilan bog‘laydilar [113]. Qadim zamonlardan boshlab O‘zbekiston, Ozarbayjon, Tojikiston, Eron, Afg‘oniston va yana ko‘plab Sharqiy o‘lkalarda bahorning – yangi yilning kelishini bayramlar bilan qarshi olinadi. Martning 21-sanasi Eron va Afg‘onistonda rasmiy taqvimning dastlabki kuni hisoblanadi. 2009-yil 30-sentabrda Navro‘z UNESCO tarafidan nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan, 2010-yil 23-fevralda esa BMT bosh Assambelyasining 64-sessiyasida 21-mart “Xalqaro Navro ‘z kuni” deb e’lon qilindi.

Sharqning tarixiy xalqlaridan biri bo‘lgan Ozarbayjon ham Navro‘z ayyomini o‘zbek xalqi kabi go‘zal urf-odatlar bilan kutib oladi. Ozarbayjonda odatga ko‘ra, Navro‘z bayramiga qo‘yiladigan taomlar bahorning kelishidan, tabiatning jonlanishidan, uyg‘onishidan darak beruvchi taomlardir. O‘zbekistonda ham aynan shu an’anaga katta e’tibor qaratishadi, ya’ni tabiatning uyg‘onishi, jonlanishidan darak beruvchi shoh taomimiz sumalaksiz hech bir xonadonda Navro‘z o‘tmasa kerak. Bundan tashqari, ko‘k somsa, ko‘k chuchvara yoki halim kabi bahoriy taomlar bir necha asrlardan beri qadimiy Sharq xalqlarining sevimli taomidir.

Navro‘z bayramida Ozarbayjon hamda O‘zbekiston xalqlarida o‘xshash bo‘lgan bir qancha qadimiy an’analar ham bisyor. Bunga misol qilib, yalla aytish hamda raqsga tushishni keltirishimiz mumkin. Yalla ozarbayjon xalqining qadim davrlardan beri mavjud bo‘lgan raqsi. Buning ma’nosi insonlarning birligidir. Yalla – o‘zbek xalqi ijodida ham keng tarqalgan raqs bilan ijro etiladigan qo‘shiq turi bo‘ib, bayramlarda birgalashib ijro etadigan musiqa. Ikkala xalqda ham insonlarning birlashishida birgina necha ming yillik qo‘shiqning o‘rni katta ahamyat kasb etishi yaqqol ko ‘rinib turibdi

Shuningdek, Ozarbayjonda ham xo‘roz urishtirish, bu uchun maxsus xo‘rozlar boqish urfi mavjuddir. O‘zbeklarda ushbu an’ana ancha keng tarqalgan bo‘ib, o‘zbek xalqining hech bir Navro‘zi xo‘roz, qo‘chqor urushtirish yoki ko‘pkari bazmisiz o‘tmaydi.

Ozarbayjonliklar ham Navro‘z o‘yinlarini o‘ynashni qadimiy meros deb biladi. Masalan, “enzeli” – ushbu o‘yinning tuzilishi xilma-xildir. Kim yutqazsa, u belini egib qolgan o‘yinchilar uch to‘rt metr masofadan saf tortadi. Har biri bukilgan kishining orqa tomoniga sakrab o‘tadi va o‘yinchilar har safar maxsus she’rlarni jo‘r bo‘lib aytib sakrashadi (bizning xalqimizning bolalari ham bu o‘yinni o‘ynamagan bo‘lishi mumkin emas, zero, nomi boshqacha bo‘lishiga qaramay).

O‘zbek xalqi uchun Navro‘z saylidagi o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. “Oq terakmi, ko‘k terak”, arqon tortish, tosh ko‘tarish, ov o‘yini, xirmon-xirmon va boshqa yuzlab o‘yinlar necha asrlik milliy qadriyatimizga aylangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Navro‘z bayramining Tojikiston, Afg‘oniston, Eron va yana bir qancha sharqiy mamlakatlarda nishonlanishining o‘zbek xalqi bilan minglab o‘xshash tomonlari borligi hammaga ma’lum. Navro‘z – do‘stlik, birodarlik bayramidir. Ushbu kunni nafaqat Sharq xalqlari, balki millati, dini, e’tiqodidan qat’i nazar, barcha bayram qiladi. G‘arb mamlakatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, may oyining 1-kuni Germanya, Avstrya va Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida milliy bayramdir. May oyida Germanya aholisi an’anasiga ko‘ra, bahor kelishi bilan “walpurgisnacht” - ya’ni may kunidan bir kun oldin nishonlanadigan bayram bo‘lib, bu qishning oxirgi qismini olib tashlash va ko‘chat mavsumini kutib olish bilan belgilanadi. Ushbu bayram Sharqiy xalqlarda nishonlanadigan Navro‘zning ba’zi an’analariga o‘xshaydi.

Yoki Buyuk Britaniya asosiy bayramlaridan biri mamlakatning patroni (23-aprel) Britaniya xalqi rang-barang liboslarda festivallar, ritserlar turnirini o‘tkazadilar, musobaqalarda ko‘plab tomoshabinlar ishtirok etadilar. Bunday bayramlar asrlar osha kelib chiqqan. Britaniya mamlakatining ushbu patroni Sharqiy xalqlarning Navro‘z saylida qizlarning Navro‘z liboslari, atlas, adraslar festivali, yigit va qizlarning butun xalq orasida, minglab tomoshabinlar ichida o‘tkaziladigan turli-tuman musobaqalariga o ‘xshash tomonlari borligini ko‘rsatib turadi.

Navro‘z bayrami Sharqiy mamlakatlarimizda, xususan, O‘zbekiston xalqida eng mashhur bayram sifatida tilga olinar ekan, bu kabi ulug‘ qadriyatlarimizni, urf-odat va an’analarimizni yuksaltirishga ulkan hissa qo‘shishimiz zarur.

Adabiyotlar:

1. O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinf va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilar uchun darslik-majmua. Birinchi nashr.
2. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent – 2018, 113-bet.
3. Ozarbayjonning madaniy merosi.
4. Postsovet davridagi O‘zbekistondagi ayyolar hayoti va turmush tarzi: imkonyatlarni kengaytirish va tinchlik o‘rnitish marosimlari. London: Leksington kitoblari. 26 – 27-betlat,2014.
5. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” (2000-2005) ma’lumotlari.

TABIAT VA KOINOT BILAN BOG‘LIQ URF-ODAT, MAROSIMLAR XALQIMIZNING BOY NOMODDIY MADANIY MEROSIDIR

Maqsuda XAKIMOVA,
O‘zDSMI MSMTEB yo‘nalishi
4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: O‘zDSMI
“Folklor va etnografiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Tashmatova Kamola Abdurashidovna

Annotatsiya Ushbu maqolada nomoddiy madaniy merosning yo‘nalishlari, tabiat va koinotga oid bilimlar, urf-odatlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Nomoddiy madaniy meros tushunchasi va uning sohalari haqida qisqacha ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: nomoddiy madaniy meros, urf-odatlar, tabiat va koinotga oid bilimlar, soha, tushuncha.

Аннотация: В данной статье представлена информация о направлениях нематериального культурного наследия и знаний и традиций, связанных с природой и мирозданием. Краткое введение в понятие нематериального культурного наследия и его направлений.

Ключевые слова: нематериальное культурное наследие, обычаи, познание природы и мироздания, сфера, конsепsия.

Annotation: This article provides information about the areas of intangible cultural heritage and knowledge and traditions related to nature and the universe. Brief introduction to the concept of intangible cultural heritage and its directions.

Key words: intangible cultural heritage, customs, knowledge of nature and the universe, sphere, concept.

Nomoddiy madaniy meros tushunchasi urf-odatlarni, o‘ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko‘nikmalarni, shuningdek ular bilan bog‘liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi [1]. Hamjamiyatlar va guruhlar tomonidan yaratilib, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bu meros doimo atrof-muhitga, tabiatga va shu jamiyatning tarixiga bog‘liq holda yaratiladi. Yana shuni aytib o‘tish lozimki, nomoddiy madaniy meros deganda hozirgi kunda hayotda mavjud va yashab turgan tirik meros tushuniladi. Boshqacha aytganda, muqaddam mavjud bo‘lgan va hozirda amaliyotda qo‘llanilmaydigan meros tushunilmaydi.

Yana bir narsa muhimki, inson huquqlari sohasida amaldagi xalqaro huquqiy aktlar bilan muvofiqlashtirilgan, turli hamjamiyatlar, guruhlar va shaxslar o‘rtasida o‘zaro hurmatni yo‘lga qo‘yish talablariga mos keladigan, barqaror taraqqiyot talablariga mos tushuvchi nomoddiy madaniy merosgina tan olinadi.

2003-yilda qabul qilingan Konvensiyaga ko‘ra nomoddiy madaniy meros quyidagi 5 ta sohada namoyon bo‘lishi mumkin:

1. O‘zlikni namoyon qilishning og‘zaki shakl va an‘analari.
2. Ijrochilik san‘ati.
3. Jamiyatning urf-odat, marosim va bayramlari.
4. Tabiat va koinot bilan bog‘liq bilim va urf-odatlar.
5. An‘anaviy hunarmandchilik bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar.

Yuqorida qayd etilganlardan shuni anglash mumkinki, hayotimizning asosiy qismi nomoddiy madaniy meros bilan bog‘liq ekan. Ya‘ni, turmush tarzimizda har qadamda nomoddiy madaniy meros bilan duch kelamiz va biz uni deyarli his etmaymiz. Lekin, har bitta narsaning qadri u yo‘qotilganda chuqurroq anglanadi, deyilganidek o‘z nomoddiy madaniy merosimizni yo‘qotilmasdan oldin anglashimiz va uni muhofaza qilishimiz zarurligini hayot ko‘rsatib turibdi.

2007-yilda Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Konvensiya ratifikatsiya qilinib, O‘zbekiston 2008-yildan uning a‘zosi bo‘lgandan keyin 2010-yilda qabul qilingan 2010–2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obektlarini muhofza qilish, saqlash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat

dasturining (O‘zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 222-sonli qarori bilan tasdiqlangan) 13 ta banddan iborat.

Nomoddiy madaniy merosimizning 4-sohasi Tabiat va koinot bilan bog‘liq, bilim va urf-odatlar bo‘lib ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan quyidagi bebaho merosimizga bag‘ishlangan.

- Tabiat bilan bog‘liq voqea-hodisalar.
- An’anaviy xalq taqvimlari.
- Kunning botishiga qarab kelgusi kunning qanday kelishini taxmin qilish.
- Oyning ko‘rinishiga qarab, keyingi oyning ob-havosi qanday kelishi haqida fikr bildirish.
- Hayvonlar harakati orqali sodir bo‘ladigan voqealarni bashorat qilish.
- Quduq qazish o‘rni yoki imorat qilish joyini aniqlash.
- Milliy sartaroshlik.
- An’anaviy xalq tabobati.
- Miroblik bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar.
- Pazandalik san’ati.

1. Abruk chiqarish (chorvaning barakasini saqlab qolish) – boshqa chorvadorlar bilan birgalikda yulduzlar holati va sayyoralar harakatini yaxshi biluvchi hisobdonlar maslahati bilan belgilangan kuni bahorgi yaylovga ko‘chib ketolmagan cho‘pon oilasi o‘zining biror ro‘zg‘or anjomini ko‘chuvchilardan berib yuborish udumi.
2. Boychechak sayli – boychechak chiqqanligi qish-qirovli kunlar ortda qolib, ko‘klam yaqinlashganligini anglatgan.
3. Bo‘g‘cha tashlandi – erta ko‘klamda yulduzlarning turishiga qarab, dehqonlar dala hovlilariga ko‘chib chiqmoqchi bo‘lganlarida, o‘zlari tanlagan joyga pichoq suqib belgi qilish va band etish uchun biror bo‘g‘chani tashlab kelish odati.
4. Qizil gul (Guli surx) sayli – agrar kultlar va hosildorlik g‘oyasini o‘zida mujassamlashtirgan qadimiy marosim.
5. Darveshona – har yili bahorda hosildorlikka yetkazish niyatida o‘tkaziladigan marosim.
6. Shoxmoylar – erta ko‘klamda dalaga qo‘sh olib chiqqan dehqonlarning ho‘kizlarining shoxini yog‘ bilan moylash udumi.
7. Kadi sindirdi – navro‘z sayili kuni mahalla ahli bir yerga jam bo‘lib, idish sifatida foydalanib kelinayotgan suv va moyqovoqlarning bir nechtasini yerga urib sindirish udumi.

8. Qozon to‘ldi – navro‘z bayramiga o‘tar kechasi oila davrasida o‘tkaziladigan udum.

9. Halinchak uchish Ko‘klamda qiz-juvonlarning arg‘imchoq uchish udumi

10. Sumalak pishirish – Sumalak pishirish bilan bog‘liq an’anaviy marosim

11. Ashshadarozi – Sumalak pishirish bilan aloqador marosim

12. Sust xotin – Yomg‘ir chaqirish marosimi

13. Navro‘z bayrami -– Quyosh hamal burjiga kiradigan kunni nishonlash odati [2].

Yuqorida keltirib o‘tilgan yil fasllari bilan bog‘liq urf-odat marosimlarimizni ko‘rishimiz mumkinki, bizning yurtimizda har bir fasl o'ziga xos tarovati va vazifasi borligidan dalolatdir.

Moddiy madaniyatning muhim qismlaridan birini uy-joylar tashkil qiladi. Tarixiy etnografik adabiyotlardan ma’lumki, an’anaviy uy-joylarni tiklash va jihozlash usullari mahalliy tabiiy shart-sharoitga, ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi, yarim o‘troq va o‘troq etnik guruhlar an’anaviy turmush tarzi, xo‘jaligi yo‘nalishi, urf-odatlari, diniy e’tiqodi va milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbeklarda yashash makoni hisoblangan uy-joy, xususan, ota-bobolar joyi muqaddas dargoh hisoblangan va unga mehr qo‘yilgan. Qolaversa, ota-bobolar yerning muqaddasligi borasida juda ko‘p hikmatli so‘zlar, metal, maqol va rivoyatlar mavjud. Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarida ham uy-joylarga o‘ziga xos muqqaddas dargoh sifatida qaralgan. Vodiy o‘zbeklari yangi quriladigan uyning joylashish o‘rniga alohida e’tibor berganlar va uylarini doimo xosiyatsiz joylardan – qabriston, ziyoratgoh va aziz-avliyolar qabrlaridan uzoqroqda qurishga harakat qilganlar. Bu esa o‘z navbatida mazkur turar joyda istiqomat qiladigan oila hayotining muvaffaqiyatli o‘tishida katta ahamiyat kasb etgan. Chunki aholi nazdida qabriston va ziyoratgohlar marhumlar ruhi to‘planadigan joy hisoblangan.

Odatda, uy qurish ishlari dastlab uning poydevorini tiklashdan boshlangan bo‘lib, xalqona tasavvurga ko‘ra, bu ishga haftaning xayrli va omadli kunlaridagina kirishilgan. Farg‘ona vodiysi o‘zbeklari orasida dushanba, chorshanba, payshanba va shanba kunlari uy qurilishidagi dastlabki ishlar boshlangan. Chunki aynan mazkur kunlar xosiyatli kunlar hisoblangan. Yangi uyni qurish jarayonida uning dastlabki yog‘ochlari ko‘tarilgandan so‘ng uy to‘sini yoki xorisini ko‘tarishda ajoyib bir udum bajarilgan. Odatda, usta uylarning to‘sin yoki xorisini o‘rnatish chog‘ida uy egasidan biror bir narsa (odatda ko‘ylak, qiyiq va shu kabilar)ni ehson qilishni so‘ragan. Bu narsa aholi orasida keskilik deb atalgan. Agar ustaga keskilik berilmasa, keyinchalik u (usta)ning ishi yurishmay, og‘ir kasalga chalinib qolar

ekan. Ustachilikning piri Ibrohim Halilulloh hisoblanadi. Chunki bu payg‘ambar insonlar ichidan birinchi bo‘lib imorat qurgan kishi sanaladi. Ayrimlar Nuh (a.s.) odamlar orasida eng birinchi bo‘lib yog‘ochdan qayiq yasagan inson bo‘lganligi sababli uni yog‘och hunarmandchiligi piri sifatida tan oladilar.

Farg‘ona vodiysining azaliy o‘troq o‘zbek va tojik xalqlari orasida uyning ayrim qismlari – to‘sin, ustun, eshiklari o‘rnatilishida ramziy ma’nolarga ega bo‘lgan va aynan mazkur qismlar bilan bog‘liq qator diniy-semantik urf-odatlarga amal qilingan. Jumladan, vodiy o‘zbeklarida ham respublikamizning boshqa mintaqalarida bo‘lgani singari, xona shiftiga qo‘yiladigan to‘sinlar soni doimo toq, ya’ni 5, 7, 9, 11 tadan bo‘lib, xona turi va hajmini belgilovchi o‘lchov bo‘lib kelgan. Xalqona qarashlarga ko‘ra, ayrim joylarda to‘sinlardan bittasini, ya’ni juft bo‘lmagani Allohga bag‘ishlangan deyilsa, boshqa joylarda bitta to‘sin vazifasini xonadon erkagi o‘tagan, deb tushunilgan. Shu o‘rinda Xorazmda uy to‘sini bilan bog‘liq o‘ziga xos ramziy odatga amal qilinganligini ta’kidlab o‘tish joiz. Yangi qurilayotgan uy devorini ko‘tarish, tom yopish bilan bog‘liq, shuningdek, ayni vaqtda ko‘p ishchi kuchini talab etadigan ishlarda mahalla erkaklari ishtirokida maxsus hashar uyushtirilgan. Uy-joylar bilan bog‘liq urf-odat va rasm-rusmlarning talay qismi yangi uy tiklab bo‘linganidan so‘ng ham o‘tkazilgan. Yangi qurilgan uyga ko‘chib kirish jarayonida ham ko‘plab urf-odat va marosimlar bajarilgan.

Xulosa qilib aytganda, tabiat va koinotga oid bilim va ko‘nikmalar, urf-odatlar ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan noyob merosdir. Shu nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, yo‘qolib, ya’ni unitilib ketishini oldin olish, hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda, o‘zligimizni, kimlarning avlodi ekanligimizni unutmagan holda harakat qilmog‘imiz lozim. Buning uchun shu urf-odatlarga amal qilish, foydalanish, iste’moldan chiqarib yubormasligimiz kerak.

Adabiyotlar:

1. Haydarov Z.U. Nomoddiy madaniy meros. Namangan, 2014.
2. Ahmedova O. O‘zbek marosim – udumlarining etnohududiy xususiyatlari.
3. Axmedova O., Isoqov Z., Qo‘ldoshev Sh. Nomoddiy madaniy merosning tabiat va koinotga oid bilim va ko‘nikmalarini ijtimoiy-gumanitar fanlar negiziga singdirish (Oliy ta’lim misolida) (Uslubiy qo‘llanma). Toshkent, 2016
4. Axmedova O., Isakulova N., Abdullayeva M. Nomoddiy madaniy merosning tabiat va koinotga oid bilim va ko‘nikmalarini ijtimoiy-gumanitar fanlar negiziga singdirish (O‘rta maxsus, kasb-hunar kollejlari misolida (Uslubiy qo‘llanma). Toshkent, 2015.

YOMG‘IR CHAQIRISH MAROSIMI – “SUST XOTIN”NING O‘ZBEKLARDAGI TO‘RT KO‘RINISHI

Durdona Malikova,
Chirchiq davlat pedagogika instituti
1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **N.A Rahmanova,**
ChdPI o‘qituvchisi

Annotatsiya: “Sust xotin” marosimi bahor faslida qurg‘oqchilikning oldini olish uchun to‘rt xil ko‘rinishda o‘tkazilgan. Marosimda zardushtiylik dinidagi yomg‘ir va suv xudosi Tishtiriyaga iltijo qilingan. Asosan, ayollar tomonidan ijro etilgan. Marosimda mo‘l-ko‘l hosil olish ham so‘ralgan.

Kalit so‘zlar: Bahor, “Sust xotin”, Tishtiriya, Ashag‘lon, o‘zbek-laqaylar, zardushtiylik dini, yomg‘ir, qurg‘oqchilik, yog‘ingarchilik.

Аннотасия: Церемония «Медленная женщина» проводилас в четырёх разных обличье для предотвращения весенней засухи. Во время церемонии поклонялис зороастрийскому богу дождя и воды Тиштирии. В основном исполняют женщины. На церемонии также просили обильно урожая.

Ключевые слова: Бахор, «Суст хотин», Тиштирия, Ашаглон, узбек-локальной, зороастризм, дождь, засуха, осадки.

Annotation “Weak Woman” ceremony is carried out to prevent spring drought in four different ways. In the ceremony, the zoroastrian God of rain and water , Tishtiriya, was worshiped. Mostly it was performed by women. The ceremony was also, asked for a bountiful harvest.

Key words: Bahor, “Sust khotin”, Tishtiriya, Ashaglon, uzbek-lokays, Zoroastrionism, rain, drought, precipitation.

O‘zbek mavsumiy marosim folklori yil fasllarida o‘tkaziladigan marosimlardan iborat. Bahorgi mavsum marosimlariga loy tutish, shox moylash, Navro‘z, yomg‘ir chaqirish, darvishona kabi marosimlar kiradi. Qadimda sun'iy sug‘orish uchun suv omborlari va vositalari bo‘lmaganligi sababli ajdodlarimiz yomg‘ir va suv xudosi bo‘lgan Tishtiriyaga sig‘inishgan. Ular yomg‘ir chaqirib, qurg‘oqchilikni daf qilish hamda mo‘l hosil yetishtirish uchun “Sust xotin” marosimlarini o‘tkazishgan. Bu marosim hozirgi kunda ham ayrim viloyatlarimizda yashab kelmoqda. Folklorshunos B.Sarimsoqovning “O‘zbek marosim folklori” asarida ta’kidlanishicha, bu mavsumiy marosim faqatgina

o‘zbeklarda emas, balki, tojik, afg‘on, turkman va slavyan xalqlarida ham mavjuddir.

“Sust xotin” marosimi “Sut xotin”, “So‘z xotin”, “Suv xotin”, “Chala xotin” nomlari bilan turli xil yuritilsa-da, ammo bitta mazmun va vazifani bajaradi. “Sust xotin” marosimi turkmanlarda bir nechta variantlarda, ya’ni “Syuyt-gazan”, “Syuyt xotin”, tojiklarda esa “Sust xotin”, “Sust momo”, “Ashag‘lon” (faqat tojik xalqiga xos marosim) nomlari bilan ataladi.

Ushbu yomg‘ir chaqirish marosimining tojiklarga o‘zbeklardan o‘tganligi taxmin qilinadi. Bunga sabab qilib “xotin” so‘zini turkiy so‘z ekanligi ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, Qashqadaryo va Surxondaryo vohasida yashovchi qadimgi turkiy elatlar tojiklar (eroniylar, afg‘onlar) bilan qo‘shni bo‘lib yashaganlar (hozirgi kunda ham bu hududlar Tojikiston, Afg‘oniston davlatlari bilan chegaradosh). Bu ularning etnogenizi, turli xil an’ana va marosimlarining bir- biriga o‘tishiga sabab bo‘lgan.

“Sust xotin” marosimi o‘zbeklarda:

Sust xotin , sulton xotin,
Ko‘lankasi maydon xotin.
Sust xotinga ne kerak,
Sharros-sharros yomg‘ir kerak. –tarzida boshlanadi.

Tojiklarda esa:

Sust xotin , sulton xotin,
Sinahoyash maydon xotin.
Ba sust xotun chi darkor,
Baroni sharrosi darkor.

tarzida kuylanadi. Bu, albatta, har qanday millatning o‘z tili nuqtayi nazaridan kuylangan shakli hisoblanadi [3,65-70].

O‘zbek xalqida “Sust xotin” marosimining to‘rt ko‘rinishi mavjud. Marosimning birinchi ko‘rinishi Shahriston, O‘ratepa, Jizzax viloyatining Zomin, Baxmal, G‘allarol tumanlari, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatining Denov, Sariosiyo kabi tumanlarida ijro etilgan. Bunda bir nechta ayollar qo‘g‘irchoq yasashib, unga kampirlarning kiyimini kiydirib qo‘yishadi. Bir ayol oldinda qo‘g‘irchoq nusxa yasalgan tayoqni ko‘tarib yuradi. Uning oldidagi ayol esa ehson yig‘adi. Ular qishloq ahli xonadonlariga kirganda “Sust xotin” marosim qo‘shig‘ini aytishadi. Xonadon egalari ularni ochiq yuz bilan kutib olishadi, qo‘g‘irchoq ustiga suv sepadilar hamda xayr-ehson tariqasida o‘zlari xohlagan narsani berishadi. Ayollar xonadonlarda qo‘shiq ijro etayotganlarida birinchi yomg‘ir va sel

yo‘qligidan, keyin esa dehqonlarning holi qurg‘oqchilikdan bir ahvolda ekanligidan nolishadi. Qo‘shiq so‘ngida “Sust xotin” dan yomg‘ir berishni, ekinlar mo‘l bo‘lishini so‘raydilar [3,70-72].

Marosimning ikkinchi varianti asosan Surxondaryo viloyatining Sho‘rchi tumani Qalliq qishlog‘i va uning atroflarida keng tarqalgan. Bu marosimning farqli jihati shundaki, bundagi ishtirokchilar faqat erkaklardan iborat bo‘lgan. Qatnashuvchilardan biri ayol kiyimini kiyib xonadonma- xonadon kirib yurishgan va ayol kiyimini kiygan kishiga suv sepilgan. Marosim aynan erkaklar tomonidan o‘tkazilishiga sabab Islom dini hisoblanadi. Chunki dinda ayollarning ijtimoiy hayotdagi roli cheklangan. Ayniqsa, 13-18-asrlarda ayollar ijtimoiy va xo‘jalik sohasida o‘z mavqeini to‘la yo‘qotgan. Shu sabab ham marosimni erkaklar bajargan. Lekin ular kiygan ayollar kiyimi marosim dastlab ayollar tomonidan o‘tkazilganligidan darak beradi. Shuning uchun u bekorga “So‘z xotin” deb atalmaydi. “So‘z xotin”ning qo‘shiq varianti ham o‘zgacha kuylanadi:

So‘z xotin, so‘z xotin
Ko‘lankasi maydon xotin.
So‘z xotin, so‘z xotin,
Ko‘ylaklari bo‘z xotin. [3,73-75].

Uchinchi varianti Janubiy Tojikistonda yashovchi o‘zbek-laqaylarda qayd etilgan. Bu yerda marosim asosan quyosh botgach boshlanadi. Marosim 15-20 erkak kishi tomonidan ijro etiladi. Ikki kishi yarim-yalang‘och qilinib, eshakka bir-biriga qaratilgan holda mindiriladi. Ularning o‘rtasiga ikkita toshbaqani oyog‘idan bog‘lab, eshakning ikki tomoniga osiltirib qo‘yadilar. Eshakka mingan kishining biriga yarim qilib qovoqda suv beriladi. Ikkinchi kishi esa bir-biriga bog‘langan ikki qamish naychani qovoqqa solib, qo‘li bilan eshib aylantiradi va naychani puflab, toshbaqaning qiynalgan ovoziga taqlid qiladi. So‘ng ular qolganlar bilan birgalikda xonadonlarga kirishadi. “Sust xotin” qo‘shig‘i kuylanadi. Xonadon egalari ularga suv sepishganda, suv sovuq bo‘lsa ham, eshakka mingan kishilar “isib ketdim, isib ketdim” deyishlari kerak. Shundan so‘ng xonadon egasi marosim ishtirokchilari nimani so‘rasa, shuni beradi. Masalan, don, qand-qurs, hatto, qo‘y, ot, sigir naqd pulgacha berishadi. [3,75-76].

Marosimning to‘rtinchi ko‘rinishi Buxoro viloyatining Olot, Qorako‘l tumanlarida qayd etilgan. Buni ijro etuvchilar “Chala xotin” qo‘shig‘ini aytishgan. Buning uchun ular uzun yogochga kalta yo‘g‘on yog‘ochni qoqadilar va unga ayollarning kiyimini kiydiradilar, boshiga esa kapkirni bog‘lab, kapkirning betini ko‘ylak yoqasi bilan bekitib qo‘yishadi. Uni bir ayol oldinda ko‘tarib yuradi,

ortidan xurjun ko‘targan 5-6 bola ergashadi. Xonadonlarga kirilganda qo‘g‘irchoqqa suv sepiladi va xayr-ehsonlar qilinadi. Yig‘ilgan narsalardan dalalarda yoki boshqa maxsus joylada Yomg‘ir tangrisi uchun is chiqariladi”. Chala xotin “qo‘shig‘i hozirda unutilgan bo‘lsa-da, folklorshunos olimlarimiz yozib olishga ulgurganlar:

Aylanadi chala xotin,
O‘rgiladi chala xotin.
Onamning to‘ng‘ichiman,
Qozonning qirg‘ichiman,
Yomg‘irning yong‘ichiman,
Xudo bersa obi rahmat yog‘aversin.
Aylanadi chala xotin,
O‘rgiladi chala xotin. [3,76-79].

O‘zbeklardagi “Sust xotin “marosimining to‘rttala ko‘rinishida ham marosim oxirida ishtirokchilar yig‘ilgan ehsonlarni qishloq aholisiga is qilib tarqatishgan. Mabodo, narsalar ortib qolsa, ularni chuqurlikka ko‘mishgan yoki g‘orlarga tashlab kelishgan. Xudolarning rizqi deb bilishgan taomni uylariga olib ketmaganlar.

Yomg‘ir chaqirish marosimining diqqatga sazovor joyi shundaki, qo‘shiqda tilga olinadigan yetmish yoshli kampir aslida qurbonlikka keltirilgan ayoldir. O‘tmishda qabilaning eng obro‘li keksa ayollaridan birini Tishtiriyadan suv so‘rab qurbon qilishgan. Yomg‘ir chaqirish marosimida qurbon bo‘lish faqat zodagon kampirlarga nasib etgan va bunday o‘lim sharafli hisoblangan. Keyinchalik bu vazifa qo‘g‘ichoqqa yuklatilgan, tadbir oxirida qo‘g‘rchoqni quduqqa tashlashgan yoki yoqib yuborishgan.

“Sust xotin” marosimi o‘zbeklar va boshqa qardosh xalqlar hayotida muhim rol o‘ynagan marosimlardan biri bo‘lib, uning mohiyatida Zardushtiylik dinidagi yomg‘ir xudosi Tishtiriyaga suv so‘rab iltijo qilish va gunohlarini afv etishni so‘rash yotadi. Qo‘shiqda unga “sulton xotin” deb murojaat qilinishi, katta qo‘g‘irchoq shaklida yasalishi Sust xotinning odam emas, xudo ekanligidan; ayol kiyimining kiydirilshi esa uning kampir ona ko‘rinishida ekanligidan darak beradi. Hozirgi kunga kelib bunday marosimlar O‘zbekistonning chekka hududlarida qilinmasa, qolgan joylarda o‘tkazilmay qo‘yilgan, ammo, undan qolgan ayrim irimlar yashab kelmoqda va ularni shaharliklar hayotida ham uchratish mumkin. Masalan, “qozonning tagidagi qirmochni yema” deyishadi. Agar kimdir qozon tagidagi qirmochdan ko‘proq yesa va bu odatga aylangan bo‘lsa, o‘sha insonning

to‘yida yoki to‘yidan bir necha kun oldin yomg‘ir, qor yog‘ishi aytiladi. Bu irim “Sust xotin”ning to‘rtinchi ko‘rinishi va uning qo‘shig‘i bilan bog‘liq. Yana bir irimga ko‘ra, toshbaqa teskari qilib qo‘yilsa, yomg‘ir yog‘adi yoki teskari bo‘lib qolgan toshbaqani ko‘rishsa, “yomg‘ir yog‘ar ekan” deb qo‘yishadi. Zardushtiylik dinida toshbaqa qurg‘oqchilik ramzi hisoblangan. Bu irimning ham “Sust xotin” marosimining uchinchi ko‘rinishiga aloqador ekaniga shubha yo‘q.

Adabiyotlar:

1. Madayev O., Xalq og‘zaki ijodi. -Toshkent. : “Mumtoz so‘z” nashriyoti, 2010. 219-b.

2. Safarov O., O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. -Toshkent. : “Musiqa” nashriyoti, 2010 . 123-b.

3. Sarimsoqov B., O‘zbek marosim folklori. -Toshkent. : “Fan” nashriyoti, 1986. 65-80- b.

O‘ZBEK XALQI HAYOTIDA NAVRO‘Z BAYRAMINING O‘RNI

Umida ODAMBAYEVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika
instituti 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar : Roxmanova Nafisa Azatbekovna

Annotatsiya. Navro‘z bayrami yurtimizda bahor faslining ilk oyida o‘zgacha shukuh bilan nishonlanadi.Xalqimiz bu bayramni yasharish, yangilanish ayyomi sifatida ulug‘laydi.Maqolada bu bayramning nega bahor faslida nishonlanishi hamda nima sababdan “Navro‘z” deb nomlanishi haqida qiziqarli ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Navro‘z bayrami, Jamshid, Zahhok-Bevarasp, ezgulik, Siyovush, zardushtiylik, qoyatosh suratlari.

Аннотация: Навруз отмечается в нашей стране в первый месяц весни с особой радостью. В статье представлена интересная информация о том, почему этот праздник отмечают именно весной и почему он называется “Навруз”.

Ключевые слова: Навруз, Джамшид, Захок-Беварасп, доброта, Сиявуш, зороастризм, наскальние рисунки.

Abstract: Navruz is celebrated in our country in the first month of spring with special solemnity. Our people respect this holiday as a holiday of rejuvenation. The article provides interesting information about why this holiday is celebrated in the spring and why it is called “ Navruz”.

Key words: Navruz, Jamshid, Zahhok-Bevarasp, kindness, Siyovush, zoroastrianism, rock paintings.

Xalqimiz tafakkurining betakror mo‘jizasi navro‘z bayrami qadim zamonlardan bizgacha yetib kelgan muhtasham qadriyatlarimizdan biridir. Uning tarkibiga, uzvlariga qadimgi ota-bobolarimizning mifologik tasavvurlaridan tortib bugungi zamondoshlarimizning qarashlarigacha bo‘lgan ma’naviyat olami singib ketgan bo‘lib, u insoniyat madaniy taraqqiyotining har bir yutug‘idan doimo kuch-quvvat olib turdi. Elning mehnatiga esh bo‘lib kelgan navro‘z bayrami ajdodlarimizning qadimgi dehqonchilik madaniyati, ezgulikni ulug‘lash va yaratuvchilik g‘oyasiga asoslangan hayotbaxsh an’analar asosida kelib chiqqan. [1, 12] Shuningdek, uning takomili va rivoji uchun ham ancha g‘ayrat qilingan. Chunki sho‘rolar davrida bayram noto‘g‘ri talqin qilingan va nishonlanishi nohaq cheklab qo‘yilgan. Lekin bugungi kunda vatanimizda bu bayramning o‘z o‘rni bor. Navro‘z bayramining o‘zgacha shukuh va zavq bilan o‘tishidan ham uning o‘rni xalqimiz uchun alohida ahamiyat kasb etishini bilib olishimiz mumkin.

Navro‘z bayrami ming yillar chig‘irig‘idan o‘tgan. Uning kelib chiqish tarixi haqida olim va mutafakkirlarimizning o‘z qarashlari mavjud. Masalan, Abu Rayxon Beruniy ham navro‘zning kelib chiqishi haqida fikr yuritar ekan, shunday yozadi: “Farvardin moh. Bu oyning birinchi kuni navro‘zdir. Navro‘z yangi yilning birinchi kuni bo‘lib, uning ma’nosi ham shuni taqozo etadi. Endi u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda. Ya’ni bahor yomg‘irining birinchi tomchisi tushishidan gullar ochilgunicha, daraxtlar gullashidan to mevalar yetilgunigacha va o‘simlik unib chiqa boshlaganidan takomillashguncha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun navro‘z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan. Aytishlaricha, shu kuni xudo falaklar harakatsiz turganidan keyin ularni aylantirib va yoritqichlar (sayrdan) to‘xtagandan keyin ularni sayr ettirib yuborgan. U quyoshni yaratgan, nihoyat u tufayli muddatning yillar, oylar, kunlar va boshqalardan iborat bo‘laklari yashirinlikdan keyin ma’lumlikka aylangan va hisob boshi ulardan boshlangan. Aytishlaricha, xudo shu kuni quyi olamini yaratib,

Qayumarsni unga podshoh qilgan va navro‘z uning “jashni”, ya’ni hayiti bo‘lgan. [2, 253]

Qadimgi afsonalardan birida hikoya qilinishicha, navro‘z Jamshid podsho bo‘lib taxtga o‘tirgan kundir. Hikoya qilinishicha, u o‘ziga shohona taxt yasattirib, har xil qimmatbaho toshlar bilan jilo berilgan, necha turli dur-javohirlar qadalgan qimmatbaho tojini kiyib, tong mahali taxtga o‘tiribdi. Shu payt quyosh chiqib, oftobning zarrin nurlari Jamshidning toj-u taxtini yoritibdi. Butun tevarak-atrof munavvar bo‘lib ketibdi. Bu g‘aroyib mo‘jizani ko‘rgan ulus ajablanib, Jamshid taxtga o‘tirgan kunni “navro‘z”, ya`ni “yangi kun” deb bayram qilishgan ekan. [2, 254]

Bahoriy shodiyona – navro‘zi olamni bayram qilinishining urf bo‘lishini afsonaviy Jamshid nomi bilan bog‘lash an’anasi Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarida ham o‘z ifodasini topgan. Unda yozilishicha, “ Va anda uluq binoe soldikim, holo asari va nishonalari borkim, odamizod andoq yasamoq mahol ko‘runurkim, kishi ko‘rmaguncha bovar qilmas. Va ani chihol minor derlar. Chun bu imorat tugandi, olam salotin va ashrof va akobirin yig‘ib, anda azim jashn qildi. Ul vaqtkim, quyosh nuqtai e’tidoli rub’aga tahvil qilib erdi, ul binoda taxt ustiga o‘ltirib, adolat siyt va sadosin olamg‘a muntashir qildi va ul kunning otin Navro‘z qo‘ydi. Va saltanatning zamoni 700 yilg‘acha bo‘ldi... Tabariyda aning qatli Byuraspqa mansubdir, ammo o‘zga tavorixda yo‘qdur. [3, 199-200]

Bu afsonada navro‘z bayramini urf qilgan ezgu hukmdor Jamshidga qarama-qarshi qo‘yilgan Bivarasp obrazi qish, sovuq, o‘lim va kasallikni o‘zida mujassamlashtirgan mifologik personaj, ya’ni yovuzlik timsoli bo‘lib keladi.

Navro‘z bayramining kelib chiqishi xalq afsonalarida Jamshid nomi bilan bog‘lab talqin qilingani bois, Bivarasp obrazi ham bilvosita yilboshi tantanalariga daxldor, deb qaralgan. Chunki bahoriy tengkunlik yil almashadigan, qishning sovuq kunlari tugab, serfayz ko‘klam fasli boshlanadigan, ezgulik yovuz kuchlar ustidan to‘la g‘alaba qiladigan qutlug‘ kun sifatida bayram qilingan. Xususan, kurdlar navro‘zni faqat tabiatning yangilanishi va bahor bayrami tarzida emas, balki el-yurtning afsonaviy ajar-podsho, ya`ni Zahhok-Bevarasp zulmidan xalos bo‘lgan kuni sifatida ham shodiyona qilishadi.

Bu kun yovuz kuchlarning mifologik timsollaridan biri – Ajidahaka(Zahhok-Bivarasp) mag‘lub bo‘lib, olam ahli ro‘shnolikka chiqqanligini anglatgan. M.S.Rudenkoning yozishicha, “navro‘zni Zahhok-Bevarasp bilan bog‘lab talqin qilish an’anasi bu bayramning afsonaviy hoqon Jamshid tomonidan joriy qilinganligi to‘g‘risidagi qadimiy tasavvurlarga aloqadordir. Afsonalarda Navro‘z

bayramiga asos solgan Jamshid Zahhok-Bevarasp tomonidan o‘ldirilgan deb naql qilinganligi bois, Navro‘z bayrami bilvosita ana shu mifologik personaj nomi bilan ham bog‘lab talqin qilinadi. O‘rta Osiyoda yashovchi xalqlarning odatiga ko‘ra navro‘z kunlari loydan bo‘yniga ilonlar chirmashib olgan ajdaho shaklidagi hushtaklar yasab, bolalarga hadya etish udumida ham ana shu qadimiy an’ananing izlari saqlanib qolgan.

Ma’lumki, Farg‘ona viloyatining Rishton tumanida istiqomat qilgan kulol ayollar har yili navro‘z bayramiga atab turli-tuman afsonaviy jonzotlar ko‘rinishidagi hushtaklar yasashgan. Sopoldan yasalgan bunday hushtak-o‘yinchoqlar orasida ajdaho va qush ko‘rinishidagilari, ayniqsa ko‘p bo‘lgan. Bolalar Navro‘z bayrami kunlari ana shunday hushtaklar chalib o‘ynaganlar va yilboshi tantanalari tamom bo‘lgach, bunday sopol hushtakchalar chalinmagan.[4, 120-121]

Abu Bakr ibn Ja`far Narshaxiyning “ Buxoro tarixi” nomli asarida Navro‘z bayramining yoshi to‘rt ming yildan ortiqroq ekanligini isbotlaydigan g‘oyat muhim bir dalil bor. Narshaxiy buxoroliklarning ko‘hna udumlaridan biri xususida hikoya qilar ekan, shunday yozadi: “Siyovush ibn Kaykovus o‘z otasidan qochib Jayhun daryosidan o‘tib, Afrosiyobning oldiga keldi. Afrosiyob uni yaxshi qabul etdi va o‘z qizini unga xotinlikka berib, aytishlaricha, barcha mulkini ham unga topshirdi. Bu viloyati o‘ziga vaqtincha berib qo‘yilgan Joy ekanligi tufayli, Siyovush bu yerda (ya’ni Buxoroda) o‘zidan bir yodgorlik qoldirishni istadi. Shunday qilib, u Buxoro hisorini bino qildi va ko‘proq vaqt o‘sha joyda turar edi. (Kimlardir) u bilan Afrosiyob o‘rtasida gap yurgizdi va (natijada) Afrosiyob uni o‘ldirdi hamda shu hisorda sharqiy darvozadan kiraverishingdagi “Darvozai g‘o‘riyon” deb ataluvchi somonfurushlar darvozasining ichkarisiga daft etdilar. Shu sababli Buxoroda otashparastlar o‘sha joyni juda aziz tutadilar va unga atab har yili navro‘z kuni quyosh chiqishidan oldin o‘sha joyda bittadan xo‘roz so‘yadilar. Buxoro aholisining Siyovushning o‘ldirilishiga bag‘ishlab aytgan marsiyalari ham mashhurdir. Kuychilar unga moslab kuy tuzganlar va qo‘shiq qilib aytadilar.Qo‘shiqchilar uni “otashparastlar yig‘isi”, deydilar. Bu gaplar bo‘lib o‘tganiga hozir uch ming yildan ortiqroq vaqt o‘tdi.

Navro‘z bayrami Siyovush bilan aloqadorligining boisi shundaki, qadimgi ajdodlarimizning mifologiyasida Siyovush o‘lib-tiriluvchi tabiat timsoli deb qaralgan. Yilboshi shodiyonalari ham ma`lum ma`noda, kuzda ramziy ma’noda o‘lgan tabiatning ko‘klamligi “tirilishi” ni nishonlash tantanasi hisoblangan. [4,121-123]

Ardoqli va qadimiy bayramimiz navro‘zi olam o‘lkamizda bir necha ming yildan buyon nishonlanib kelayotganligini taniqli ingliz avestoshunos olimasi M.Boysning tadqiqotlari ham tasdiqlaydi. Ma’lumki, Navro‘z bayramining paydo bo‘lishi O‘rta Osiyoda yashagan qadimgi aholi e`tiqodiy qarashlaridan biri – zardushtiylik bilan ham aloqadordir. M.Boysning yozishicha, qadimgi zardushtiylar olamda tabiat o‘zgarishlari, fasllar almashinuvi, quyosh harakati, xullas, dunyodagi hayotni o‘z izmiga solib turuvchi muqaddas kuch bor, deb o‘ylashgan ekan. Bu ilohiy qudrat, ya’ni tabiat qonuni zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” da **“asha”** so‘zi bilan ifodalangan. “Asha” so‘zi esa “haqiqat”, “ezgulik” ma’nolarini anglatar ekan. Afsonalarda aytilishicha, Zardo‘sht o‘zi yaratgan Yetti mo‘jiza (suv, tuproq, havo, olov, o‘simlik, sigir, va odam)ga monand holda yettita bayramni ham joriy qilgan emish. Yetti mo‘jiza – olov hamda ezgulik homiysi Asha-Vaxishta sharafiga bahoriy udum – navro‘zni o‘tkazish an’anasi paydo bo‘lgan ekan.

Navro‘z bayrami qadimgi ajdodlarimiz tafakkurining mahsuli ekanligini tasdiqlaydigan yana bir muhim dalil Farg‘ona vodiysidan topilgan qoyatosh suratlaridagi mavsumiy marosimlarga oid chizgilardir. Ma’lumki, Farg‘ona vodiysining tog‘li hududidagi Ko‘gart dovoni yaqinidagi Saymalitosh degan joyda ko‘plab qoyatosh suratlari – petrogliflar mavjudligi aniqlangan. Qadimgi farg‘onaliklarning dehqonchilik bilan aloqador urf-odat va marosimlarini Saymalitosh qoyalariga chizilgan suratlar – petrogliflar asosida tadqiq etgan Y.Golenduxinning yozishicha, o‘tmishda yashagan odamlar “yangi yilning boshlanishi muddatini yulduzlar harakati, mavsumiy qushlarning uchib kelishi, daraxtlarning gullashi, qorning erishiga qarab aniqlashgan. Saymalitoshdagi suratlar esa o‘ziga xos observatorya vazifasini bajargan bo‘lib, quyoshning chiqishi va botishiga asoslangan vaqt hisobini aks ettirgan... Suratlardan birida ikkita hayvon (ho‘kiz va yak) jangi va ularning atrofida 12 ta oyoqda tikka turgan odamni eslatuvchi mifologik obrazlar tasvirlangan. Ana shu 12 ta odam surati kecha va kunduzning 12 soatdan iboratligini, ya`ni kuzgi va bahorgi tengkunlikni anglatadi. Chunki dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan O‘rta Osiyo xalqlari yilboshi– Navro‘zni 21-martdan boshlanadi, deb hisoblaydilar va bahorgi tengkunlikdan dala ishlarini boshlaydilar. [4, 123-125]

Demak, Saymalitosh petrogliflari ajdodlarimizning dehqonchilik madaniyati bilan aloqador bahoriy udumlari zamirida bundan uch yarim – to‘rt ming yil avval Navro‘z bayrami kelib chiqqanligini dalillaydi.

Navro‘z bayrami, uning kelib chiqishi va qayerda qay shukuhda nishonlanishi haqida turlicha fikrlar mavjud. Albatta, bo‘lishi ham tabiiy, chunki bu ayyom kecha yoki bir necha yillar oralig‘ida mavjud bo‘lib qolmagan. Balki, o‘tkazilayotgan hudud aholisining qarashlariga monand tarzda vujudga kelgan, nishonlangan va asrlar mobaynida sayqallanib bizga qadar yetib kelgan. Kimdir uni Jamshid nomi bilan bog‘lasa, yana kimdir zardushtiylik dini bilan bog‘laydi. Boshqa bir olim bu bayramni zardushtiylik paydo bo‘lmagan davrlarda ham mavjud bo‘lganligini ta’kidlaydi. Qanday qarash bo‘lishidan qat’i nazar Navro‘z bayrami hamisha insonlarni ezgulikka va yaxshilikka chorlagan. Ularni birdam hamda ahil bo‘lishga undagan. Buni bugungi kunda bayramning yaqinlar qurshovida turli xil taomlar pishirib, ezgu tilaklar bildirilib o‘tkazilishi orqali ham ko‘rish mumkin. Shu jumladan, yurtimiz hududida ham navro‘zi olam 21-martda keng nishonlanadi, doshqozonlarda sumalaklar qaynaydi. Bayramda pishirilishi kerak bo‘lgan ko‘k somsa, ko‘k chuchvara singari milliy ovqatlar tayyorlanadi. Xalqimiz yil davomida mo‘l-ko‘llik bo‘lishini niyat qilib turli xil tayyorgarliklar ko‘rishadi, bemorlar va yoshi katta insonlar holidan xabar olinadi. Yaqinlar davrasida dilkash suhbatlar o‘tkaziladi. Insonlarning bir-biriga bo‘lgan mehr, muhabbatidan dillar yashnaydi, balki, shuning uchun ham bu bayram “yasharish, yangilanish bayrami” deya e’zozlansa, ajab emas.

Adabiyotlar:

1.Jo‘rayev M. Navro‘z bayrami. O‘zbek folklorshunosligi kutubxonasi. Toshkent: Fan, 2009, -12-b
2.Abu Rayxon Beruniy. Tanlangan asarlar .-Toshkent: Fan, 1968, 253-254-b.
3.Alisher Navoiy.Mukammal asarlar to‘plami.-Toshkent,2000,199-200-b.
4.M.Jo‘rayev, D.O‘rayeva- T:Excellent Polygraphy, 2020, 120-125-b.

NAVRUZ AROUND THE WORLD

Shomuradova D.A.
Lecturer of UzSIAC

Annotatsia. Ushbu maqolada milliy bayramimiz bo‘lmish Navro'zning kelib chiqish tarixi va uning butun dunyo boylab keng tarzda nishonlanishi haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada har bir xalqning ushbu Bahor bayramini o‘ziga xos tarzda kutib olishi borasida ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: qadimiy, xalqaro, shohona, ma'naviyat, afsona, nomoddiy, meros, madaniy, forsiy, olim, marosim, festival, an'anaviy, tabiat uyg'onishi.

Annotation. This article discusses the history of the origin of our national holiday Navruz and its widespread celebration around the world. The article also provides information on how each nation celebrates this Spring Festival in a unique way.

Key words: ancient, international, royal, spirituality, myth, intangible, heritage, cultural, Persian, scholar, ceremony, festival, traditional, natural awakening.

Аннотация. В данной статье рассматривается история возникновения нашего национального праздника Навруз и его широкое празднование во всем мире. В статье также представлена информация о том, как каждый народ празднует этот Весенний праздник по-своему.

Ключевые слова: древний, интернаsиональный, sарский, духовность, миф, нематериальное, наследие, культурный, персидский, ученый, seремония, праздник, традиsионный, естественное пробуждение.

The arrival of spring is always associated with the beginning of something new, namely the Navruz holiday. The ancient Persian festival of spring, renewal of nature and the advent of the New Year is widely celebrated not only in the countries of Central Asia.

Navruz has an ancient history. In the poem "Shahnameh", the beginning of its celebration is associated with the beginning of the reign of Shah Jamshid. The word "Navruz" first appeared in Persian sources in the second century AD, but the event itself was already celebrated during the Achaemenid dynasty around 550-330 BC. BC e. These days, the rulers of the provinces of the Persian Empire brought gifts to the Shahinshah (The King). [1,38]

In 2009, Navruz was included in the honorary List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity by UNESCO. A year later, the UN declared March 21 as International Day.

In many countries Navruz is a public holiday. At the state level, it is celebrated in Kyrgyzstan, Uzbekistan, Turkey, Turkmenistan, Tajikistan, Iran, Azerbaijan, Albania, Afghanistan, Iraqi Kurdistan, India, Macedonia and other countries. It is also celebrated in the Russian regions - Tatarstan and Bashkortostan. Navruz is also met in China and even in Japan. Since 2010 Navruz has been declared a national holiday in Georgia as well.

Uzbekistan

If you ask any resident of Uzbekistan, whether old or young, about the warmest and most beloved holidays, you can often hear the answer: “Navruz”.

First of all, this holiday is loved, probably, for the history that has come down to our times from the depths of centuries. After all, it goes back to the pre-literate era of mankind, at the time of the appearance of agriculture and the cults associated with it. The main sacrament takes place on the night of March 21. This is the time to prepare the main ritual dish of wheat germ - sumalak.

All the women of the neighborhood gather behind the huge cauldron: they sit in a circle, sing songs, have fun, each waiting for her turn to stir the sumalak. In the morning it is still warm and handed out to neighbors, relatives and friends. Trying this traditional dish, you should definitely make a wish, because, according to the locals, it will definitely come true.

The Navruz holiday in Uzbekistan is generally very strongly associated with new hopes and expectations. Therefore, on this day it is customary to forgive even your worst enemies, not to quarrel, to help the weak and the needy. Another good sign is considered to treat. On this day, housewives fry special pies with greens, prepare nishalda - a sweet dessert made from egg whites whipped with sugar and licorice root, bake puff samsa, fragrant pilaf smokes in cauldrons ... The table on this day is bursting with treats.

Abundance, by the way, is another good sign. Therefore, during the celebration, all guests are welcome in every house. And how to sit at home on Navruz? The most interesting folk festivals are held in the villages, with traditional kupkari competitions, jigit wrestling, horse tournaments. Folk fairs are organized where you can buy everything - from souvenirs to national pastries.

Kyrgyzstan

In Kyrgyzstan, Navruz begins with the sounds of a karnay, a wind instrument that is a long trumpet. National dishes are put on the table, covered with an elegant white tablecloth, and sumalak is an obligatory attribute of a solemn meal, it is very similar to Uzbek sumalak, only it is cooked a little differently.

This traditional dish in Kyrgyzstan is made from germinated wheat grains, which are ground and then boiled in a cauldron in oil with flour for 20-24 hours. Small stones are also added there, this is done so that the sumalak does not burn. It is believed that if a guest finds one of these stones in his cup with sumalak and makes a wish, then it will surely come true. It takes a long time to prepare, so women, in order to pass the time and fill the atmosphere of cooking with positive

energy, accompany the whole process with songs, dances and jokes. The celebration of Navruz in Kyrgyzstan cannot be imagined without horse games, which are usually held at the hippodrome in Bishkek and elsewhere. There are also archery competitions, horse racing and team competitions in kok-boru and er-enish. [2,65]

The Kyrgyz have another interesting tradition - boys born on March 21 are usually called Navruzbek or Navruzbay, and girls - Navruzgul.

Turkmenistan

Turkmens associate some signs with the ancient spring holiday, which are still popular among the people today. For example: “If it is cloudy on Navruz, then such weather can be expected until June” or “If it snows or rains on Navruz, the year will be fruitful.”

Young people do not remember beliefs, but they arrange large-scale games and competitions in the fresh air. It is on the days of the celebration of Navruz that the first races of the new season are scheduled, at the same time the first fights are held among the shepherd wolfhounds - Alabays.

There was also one innovation: now in Turkmenistan it is during Navruz Bayram that Women's Day, Mother's Day is celebrated, which indicates the recognition of the female role in the life of society.

Azerbaijan

Traditionally, before the celebration of Navruz, Azerbaijanis celebrate four days of winter, which symbolize the end of the old and the beginning of the new year. We are talking about four pre-holiday Wednesdays: Wednesday on the water - Su Chershenbe, Wednesday on fire - Odlu Chershenbe, Wednesday on the ground - Torpag Chershenbe and the last Wednesday - Akhyr Chershenbe.

According to popular beliefs, on the first Wednesday, water was renewed, stagnant waters began to move. On the second, the fire was renewed, on the third, the earth, and already on the fourth Wednesday, the wind opened the buds of the trees, and, according to folk signs, spring came.

Navruz is a good opportunity to conduct many interesting ceremonies and rituals. Here is one of them: in the evening, each family lights as many torches on the roof of the house as the number of people living in the house, and all family members must jump over the burning fire, while uttering a special spell. [3,43]After the fire goes out, the girls and boys collect the ashes and pour them out on the outskirts of the village or on the road.

There must be food on the table, consisting of seven dishes, the name of which begins with the letter "s". These are sumakh, syud, sirke, semeni, sabzi, etc. In addition, a mirror, a candle and a painted egg must be placed on the table. All of the above has a symbolic meaning. A candle is a fire that protects a person from evil spirits.

The egg and the mirror symbolize the end of the old year and the beginning of the first new day. Azerbaijanis put a colored egg on a mirror. And as soon as the egg swings, the new year begins. Everyone at the table begins to congratulate each other.

The celebration of the New Year ends on the 13th day of Navruz. On this day, mass festivities are held outside the city, ancient games - camel and horse races, various competitions in which girls and women participate on an equal basis with men.

REFERENCES

1. Musayeva M.E “A toll of national values”. Tashkent, 2002
2. Umar Hayyam. “Navro‘znome”. Tashkent, “Yangi asr avlodi” ,2019
3. M. Jo‘rayev “Uzbek national ceremonies”. Tashkent, 2006
4. H. Hamidov. “The fame of Shahname”. Tashkent, 1991

O‘ZBEK ADABIYOTI, MADANIYATI VA AMALIY SAN’ATIDA NAVRO‘Z

O‘g‘iloy MIRVALIYEVA,

Nizomiy nomidagi TDPU

“O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qutlug‘ ayyomimiz Navro‘z haqida va uning adabiyotmizda tutgan o‘rni, muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Karimovning Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan tabrigi, Navro‘z bayramining tarixi haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Bahor, Navro‘z, taomlar, tabrik, bayram.

Intiqib kutadigan fasllar kelinchagi go‘zal bahor fasli o‘lkamizga kirib keldi .Bahor fasli yasharish fasli hisoblanadi.Bahor kelganini aks ettiruvchi bayramlar juda ko‘p 1-mart bahorning ilk kunida shoira Zulfiya tavalludi nishonlanadi, 8-mart kuni Xalqaro ayollar kuni, 21-mart kunida esa qutlug‘ ayyomimiz Navro‘z bayrami nishonlanadi.Navro‘z jumlasiga to‘xtaladigan bo‘lsak aslida Navro‘z so‘zi forschada yangi kun degan ma’noni anglatadi. Navro‘z bayrami qadimdan insonlarning sevimli ayyomi bo‘lib nishonlanadi. Navro‘zda momolarimiz turli xil ko‘klam taomlaridan tayyorlashadi ko‘k somsa,xalim, sumalak .Sumalak bu Navro‘z bayramining sevimli taomi hisoblanadi uni momolarimiz tayyorlaydi . Sumalak taomi ko‘pchilik davrasida tayyorlanadigan taomdir, sumalak qilingan uydan fayz baraka doimo arimas ekan. Sumalak qilingan xonadonda ushbu taom 3 yil davomida qilinishi kerak hisoblanadi.Navro‘z ayyomi qayerda qachon paydo bo‘lgani haqida ko‘pchilikda savollar tug‘iladi? Ushbu savolga javobni biz “Saodat” jurnalida keltirilgan, “Onaqutining saxovati’’ nomli maqolasidan olishimiz mumkin. O‘lkamizda Navro‘z bayrami qadimdan paydo bo‘lgan Parfiya shahrida nishonlanganligi haqida grek va Ovrupa faylasuflari asarlaridan bilib olsak bo‘ladi.

Barchamizga ma’lum, dunyoda bir-biridan buyuk, bir-biridan ajoyib bayramlar ko‘p. Lekin ular orasida Navro‘z ayyomi o‘zining qadimiyligi, tabiatimizga uyg‘unligi va go‘zalligi bilan, ma’no-mazmunining teranligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Va ayni shuning uchun ham uyg‘onish va yasharish timsoli bo‘lmish bu buyuk ayyomni har bir xonadon, har bir oilada bag‘rini keng ochib, “Xush kelibsan o‘lkamizga Navro‘z, qadaming qutlug‘ bo‘lsin!” deb, eng katta orzu-niyatlar bilan kutib oladilar.

Haqiqatan ham ming yillar avval – “Avesto” davrida paydo bo‘lgan Navro‘zi olam bizning xalqimiz uchun eng ko‘hna, asl milliy, sharqona yangi yil debochasi

sifatida doimo sog‘inib, ardoqlab qarshi oladigan, har qaysi uyga shodlik va xursandchilik olib kelishi, o‘sha zamonlardan buyon xalqimizga mansub bo‘lgan an’ana va qadriyatlarni bezavol saqlab kelishi bilan barchamizga qadrli va azizdir.

Ko‘klam ayyomi kelishi bilan ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz rizq-u ro‘zini tilab, qo‘sh haydab, dalaga don sochib, yam-yashil adirlarda ot choptirib, Navro‘z sayillarini o‘tkazgani xuddi kechagidek bo‘lib tuyuladi va barchamizni beixtiyor ana shu bayramona kayfiyatga berilib ketishga undaydi.

Navro‘zi olamning yana bir betakror xislati borki, u har qaysi uy, har qaysi yurtda, butun yer yuzida tinchlik va osoyishtalik bo‘lishiga da’vat etadi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti muhtaram Islom Abdug‘aniyevich Karimovning Navro‘z ayyomiga fikrlari, takliflari doim ijobiy bo‘lgan desak adashmaymiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Barcha-barchangizni bag‘rimga bosib, yana va yana bir bor bugungi go‘zal ayyom bilan qutlab, qalbimdan, yuragimdan chiqadigan samimiy tilaklarimni izhor etmoqchiman.

Navro‘z har bir oila, har bir xonadonga, butun yurtimizga tinchlik-omonlik, baxt-u saodat, fayz-u baraka olib kelsin!

Ezgu orzu-niyatlarimiz ushalsin, O‘zbekistonimiz yanada obod va farovon bo‘lsin!

Quyidagi juda ham chiroyli tabrik ushbu muhtaram inson Islom Karimovning O‘zbekiston aholisiga Navro‘z bayrami tabrigi hisoblanadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng O‘zbek xalqining qadimiy urf-odatlari va ana’nalari kuchga kirdi, jumladan Navro‘z bayramini nishonlash o‘zga xos tusga ega bo‘ldi. Bu bayram barcha xalqlarning do‘stlik va birlik ramziga ega bo‘lgan umumxalq bayramidir. Hozirg kunda Navro‘z bayrami Alisher Navoiy maydonida keng nishonlanmoqda.

Xalq hofizi Dadaxon Hasanning eslashicha, shu yillarda O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Navrozni “Baxt va Bahor” bayrami deb ozgartirish tashabbusi bilan chiqqan. Hozirgi kunga kelib O‘zbekistonimizda Navro‘z juda keng qilin o‘tkazilmoqda. Navroz qadim zamonlardan bizgacha yetib kelgan muhtasham qadriyatlarimizdan biri, baynalminal bayramdir. Uning tarkibiga, qadimgi ota-bobolarimizning mifologik tassavurlaridan tortib bugungi zamondoshlarimizning qarashlarigacha bolgan ma’naviyat olami singib ketgan bo‘lib, u insoniyat madaniy taraqqiyotining har bir yutug‘idan doimo kuch va quvvat olib turadi. Navro‘z bayrami kuni barcha ayollar va qizlar milliy liboslarimiz bo‘lmish adras va atlas liboslarini kiyib oladi. Navro‘z bayrami kuni O‘zbekiston aholisining o‘g‘lonlari ishtirokida milliy belbog‘li kurashi bo‘lib o‘tadi .Barcha insonlar ushbu kunda hafagarchiliklarni unutib yangi kun yasharish bayrami Navro‘zi olamni qarshilab olishi kerak. Ota-bobolarimiz, buvi-momolarimiz bu bayramni nishonlab, turli-tuman, rang-barang udum va marosimlar o‘tkazishgan. Qadimda ajdodlarimiz Navro‘z kunlari qishki manzillari – qishloqlardan yozgi mehnat va hordiq maskanlari – yozloqlarga ko‘chib o‘tishgan. Dalalarda bahorgi ekin-tikin ishlari boshlanib ketgan. Dehqonlar erga qo‘sh solishgan. Jamoa-jamoa bo‘lib, hasharlar uyushtirishgan. O‘tgan ajdodlar ruhi yod qilingan. Ommaviy ravishda me’vali, manzarali daraxtlar o‘tqazilgan.Kishilar bir-birlariga sovg‘a-salomlar ulashib, shirinliklar hadya etishadi. Navro‘z – muhabbat, sevgi, sadoqat bayrami. Navro‘z munosabati bilan nikoh to‘ylari o‘tkazilgan. Yigit-qizlar bir-birlari bilan ahd-u paymon qilishgan. Yangi tushgan kelin qo‘lidan choy ichish maqsadida “kelin ko‘rdi“ga borilgan. Navro‘z – do‘stlik, birodarlik bayramidir. Ushbu kunni nafaqat Sharq xalqlari, balki millati, dini, e’tiqodidan qati nazar, barcha bayram qiladi.

Adabiyotlar:

1. I.Karimov. Yuksak ma’naviyat -yengilmas kuch. 2008-y. –156-bet

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Uchinchi jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007, 6-bet.

3. Mustaqillik davri adabiyoti. –Toshkent. 2004.

3-shu’ba

NAVRO‘Z – OLAMNING POKLANISH BAYRAMI

Said Alimov,
Folklor va etnografiya kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Maqola o‘zbek xalqining eng ulug‘ nomoddiy madaniy merosi hisoblangan Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan bu bayramning hozirgi zamon madaniy, ma’rifiy, ijtimoy ma’naviy yuksalishdagi ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘z: Navro‘z, madaniy meros, an’ana, tadbir, nomoddiy.

Аннотация. Статья посвящена празднику Навруз, который является величайшим нематериальным культурным наследием узбекского народа.

Ключевые слова: Навруз, культурное наследие, традиция, событие, нематериальное.

Annotation. The article is devoted to the Navruz holiday, which is the greatest intangible cultural heritage of the Uzbek people.

Key words: Navruz, cultural heritage, tradition, event, intangible.

O‘zbek xalqining nomoddiy madaniy merosida insoniyat ma’naviy- ma’rifiy va ijtimoiy estetik ahamiyatga ega bo‘lgan ommaviy madaniy tadbirlari ko‘pdir. Navro‘z bayrami ana shunday olamning poklanish va yangilanish an’analaridan biridir. Muhtarram prezidentimiz tomonidan joriy yilda o‘tkaziladigan Navro‘z bayramlari haqida chiqargan qarorlari yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi rivojlanishi uchun elimizga ruhiy madad beruvchi va ma’naviy-ma’rifiy oziq beradigan bayram sifatida bebaho merosdir. Bu bayramni insoniyatning noyob merosi sifatida YUNESKO o‘zining reprezentativ ro‘yxatiga kiritganligi ham bejiz emas. “Navro‘z” – tabiatning jonlanishi yeru ko‘kning

go‘zallikka aylanishi va olamning poklanishi yo‘lida ota-bobolarimiz tomonidan o‘tkazib kelingan. Bugungi davr madaniyatimizda Navro‘zni har tomonlama go‘zal tadbir sifatida nishonlanishi davrimizning kundan kunga yangilanib borayotkanidan darak beradi.

Inson ozini tanigandan beri tabiatga nisbatan munosabatini biron bir shaklda san’atkorona ifodalab kelgan. Bu munosabatlar tabiat madhi bo‘lib yangragan.

Sharq xalqlari tarixida bu gimni Navro‘z misolida ko‘ramiz. Bahor fasli va Navro‘zga atalgan klassik kuy ba qo‘shiqlar,b xalq og‘zaki ijodining noyob namunalari, zamonaviy she’r va dostonlarda tabiat madhi baland pardalarda kuylandi. Xalq Navro‘zni olis zamonlar qa’ridan, tarix to‘fonlaridan asrab avaylab olib o‘tgan va olib o‘tmoqda.

Navro‘z kishilarni tabiat go‘zalliklaridan bahramand bo‘lishga, uni asrashga va ko‘paytirishga undaydi, ularning zamonaviy boyishi va mazmunli dam olishi, badiiy xavaskorlik ijodiyoti, so‘z san’ati, o‘yin-kulgi, chaqqonlik kabi mahoratlarini namoyish qilishlariga keng imkoniyat yaratadi.

Bahor fasli Yerning shimoliy yarim sharida bahorgi kecha kunduz tengligidan 20-21-mart kunlari yozgi quyosh turganligigacha, ya’ni kunduzi eng uzoq, kechasi eng qisqa bo‘lgan kungacha 21-22-iyun kunlari davom etgan. Shunga ko‘ra, O‘rta Osiyo va yangi sharq xalqlari kecha bilan kunduzi tenglashgan kun, yangi 21-martdan 22-martga o‘tar kunni juda qadimiy davrlardan beri yangi kun – yangi yil hisoblab, uni quvonch bilan qarshi olganlar, tantanali nishonlaganlar. Odamlar Yangi kun – Navro‘z tantanalari boshlanishdan bir necha kun ilgari bug‘doy yoki arpa undirib qo‘yib sumalak pishirganlar. Navro‘zga bag‘ishlab sayllar uyushtirilgan. Yoshlar, keksalar kechasi bilan uhlamasdan ko‘klam haqida she’rlar, qo‘shiqlar, ertak va hikoyalar aytishib, o‘yin-kulgi bilan bayramni kutib olishgan. Bayram kuni “uloq’’, ’’kurash’’, ’’otchopar’’ singari o‘yinlar uyushtirilgan.

Xalqimizning davrlar sinovidan o‘tgan hayotiy urf-odatlari, udumlari, marosimlari va bayramlari qatori Navro‘z ham ko‘p malomatlarini boshdan o‘tkazdi. O‘z mazmunida ezgu orzu va niyatlarni, ulug‘ maqsadlarni mujassamlashtirgan Navro‘z yaqin vaqtlargacha diniy marosim deb qilinardi. O‘rta Osiyoda islom dini qabul qilinmasdan ancha ilgari Navro‘z bayrami mavjud ekanligini haqida ilmiy asoslangan fikrlar bayon qildilar. XXI asr oxirlariga kelib Navro‘zning asl mohiyati tiklandi va u O‘rta Osiya Respublikalari va Ozarbayjon Bahor bayrami –Mehnat bayrami sifatida zo‘r shodiyona bilan o‘tkazila boshladi.

Biroq keyingi yillarda xalq turmushining madaniy-ma’naviy sohasida

ma’muriyatchilikka yo‘l qo‘yilganligi natijasida asrlar davomida tarkib topgan an’analarini yopasiga mensimasdan, ulardan ba’zi birlarini, shu jumladan chinakkam xalq bayrami bo‘lgan Navro‘zni ham diniy bayram deb ta’qiqlab qo‘yilgan edi. Mustaqillik davriga kelib mehnatkashlardan tushgan ko‘plab xatlar va takliflarni ko‘rib chiqib, xalqning ana shu marosimini qaytadan tiklash va respublikada har yili 21-mart kuni Navro‘z bayramini keng nishonlash lozim deb topildi.

Ba’zi manbaalar va talqinlar “Navro‘z’’ bayrami O‘rta Osiyoda islom dini kiritilgan paytdan boshlab paydo bo‘lgan degan notog‘ri fikrlar bor edi. Vaholanki, Abu Rayhon Beruniy “Kitob-at tavhim”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar’’ kitoblarida Navro‘zning Ahmoniylar davridan boshlab an’anaga aylangani, uning tuprog‘imizga arablarning qadam qo‘yishi bilan bir necha yillar barham topgani, saroy Navro‘zni rasman taqiqlasa-da, fuqoro sevgan bayramini hech bir yil tark etmagani, xalqlarimiz arab xalifaligidan bo‘lgandan so‘ng, IX-X asrlarda Navro‘z yana ochiq taomilga kirgani haqida ma’lumot beradi. Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining mashur ‘’Devonu lug‘atit-turk’’ asosida Bahor, Navro‘z tantanalariga bag‘ishlab ming yillar oldin yaratilgan xalq qo‘shiqlaridan namunalar keltiradi. Navro‘zning haqiqiy xalq an’anasi va shodiyonasi bo‘lganligiga Sharqning alloma mutaffakirlari va shoirlari asarlari ham guvohlik beradi.

Zamonaviy udumlari va bayramlar qatorida Navro‘z ham xalqimizning ma’anviy-axloqiy tarbiyasida muhim rol oynaydi. Navroz bayrami orqali tabiatni, mehnatni uluglash muhim xususiyatdir. Navro‘z bayrami katta xalq sayli, ijtimoiy-ma’naviy tantana sifatida o‘tkazish, yangi o‘sha tongdan, karnay-surnay sadolari yangrashi, qir-adirlar, maydonlar, ovloq dalalar, qish bo‘yi huvillab qolgan stadionlar, ko‘chalar bolalarning ovozi bilan to‘lishi, o‘yin-kulgi uyushtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Navro‘z bayram bog‘-dala ishlarini uyushtirish va tashkil qilish, uni ko‘tarinki rux, hushkayfiyat bilan boshlash maqsadida hizmat qiladi. Bayram kuni ko‘chat ekish, hiyobon yo‘llar, ko‘priklarni tartibga keltirish, ko‘cha va hovlilarni supurib-sidirish maqsadida xasharlar uyushtiriladi.

Bayram kuni keksalar o‘smirlarni, momolar qizaloqlarni atroflariga yog‘ib saboq berishlari, yangi bog‘bon o‘z kasblarining sirlarini-daraxt qanday payvand qilinadi, tok qanday butalaydi, momolar va onalar esa ro‘zg‘or yuritish bo‘yicha o‘z tajribalarini – taomlar qanday pishiriladi, ko‘klarning nomi va ulardan tayyorlanadigan ovqatlar,bahorda qanday qo‘shiqlar kuylanadi – ana shular haqida yoshlarga hikoya qilib beriladi ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy aytkanlaridek, yurtimizga kirib kelayotgan Navro‘z “*Har tunning qadr o‘libon, har kuning bo‘lsin Navro‘z*”. Xalqimizning hayot yo‘llari huddi Navro‘zdek qutlug‘ bo‘lsin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasiini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil 13-fevral, 6-son, 70-modda.
2. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. Toshkent “Fan”, 1988-y.
3. Jo‘rayev M., Xudoyqulova L. Marosimnoma. Toshkent, 2008.
4. Karabayev U. Etnokultura. Toshkent, Sharq, 2005.

NAVRO‘Z BAYRAMI – AZALIY BAYRAM

Xamdam ISMOILOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada azaliy va abadiy Navro‘z bayramimizning qisqacha tarixi, xalqimiz o‘rtasida ommalashib borishi, bayram sifatida yangidan-yangi xislatlar kasb etishi, yoshlarni ma’naviy tarbiyasidagi o‘rni, uning hozirgi paytdagi tarbiyaviy ahamiyati haqida so‘z yuritildi.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, baynalmilal, xalqchil, taraqqiyot, bayram, mifologik, saltanat, hukmron, ajdodlar, tarbiY.

Аннотация. В данной статье реч ведется о краткой истории нашего вечного праздника Навруз, о его популяризазии среди нашего народа, приобртение им новых качеств как праздник, оместе и значении в духовном воспитании молодежи и о его воспитательном значении в настоящее время.

Ключевые слова: Навруз, интернациональный, народный, прогресс, праздник, мифологический, государство, правитель, предки, воспитание.

Annotation. This article deals with a brief history of our eternal holiday Navruz, its popularization among our people, the acquisition of new qualities by it as a holiday, place and significance in the spiritual education of youth and its educational significance at the present time.

Key words: Navruz, international, folk, progress, holiday, mythological, state, ruler, ancestors, education.

Navro‘z – butun O‘rta Sharq xalqlariga xos chinakam baynalmilal, xalqchil bayram. Uning shakllanishi, necha ming yillik taraqqiyotiga ajdodlarimizning qo‘shgan hissasi ulkan va beqiyosdir. Navro‘z ajdodlarimizning mifologik tasavvurlaridan tortib sinfiy jamiyatlar hosil qilgan dunyoviy va diniy qarashlargacha o‘ziga singdirgan: iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyot davomida erishilgan har qanday yutuq, yangilik, o‘zgarishdan oziq olib, gohida boyib, shakllarini o‘zgartirib, gohida qandaydir qirralarini yo‘qotib borgan.

Navro‘z tom ma’noda xalq bayramdir. Ammo turli sinflar, saltanatlar, ijtimoy guruhlar uni o‘z manfaatlariga xizmat qildirishga urinib kelgan. Zartushtiylikka topinuvchi mug‘lar ham, islom dini ulamolari ham, Movarounnaxrda saltanat tutgan hukmron sulolalar, Xorazm shohlari ham Navro‘zni o‘z izmlariga olish, undan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish harakatida bo‘lishgan. Bir zamonlar Navro‘z yilida ikki marta – bahorda va yozda nishonlangan. Ammo Navro‘z har qanday aralashuvlar, tutqinliklarni pisand qilmay, xalqlarning mehnatidan, ma’naviy hayotidan, marosimlaridan, qarashlaridan oziqlanib mazmunan boyib, shaklan rang-barang bo‘lib boravergan.

Navro‘z o‘z tarixi davomida ko‘p qarshiliklarga, ta’qib va ta’qiqlarga uchragan. Mustamlaka va sho‘rolar davrida ham Navro‘z jiddiy to‘siqlar, qarama-qarshiliklarga uchrab, ko‘p an’analari, ajdodlarning bu sohada orttirgan tajribasi boy berildi.

Mustaqillik tufayli Naro‘zni qayta tiklashga kirishar ekanmiz, mana shu yo‘qotish sezilmoqda. Shunday ekan, eng avvalo Navro‘z tarixini, uning shakllanish jarayoni va taraqqiyot bosqichlarini, tarkibini chuqur o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Bu navro‘z bayramini butun tarkibi, tarovati, go‘zalligi bilan tiklash juda muhimdir.

Navro‘z bo‘yicha so‘nggi yillarda qalam tebratgan olimlar va jurnalistlarning faoliyatini qadrlagan holda shuni aytish kerakki, qariyb barcha maqolalar to‘plam va risolalarda IX asrlardan keyin yashab o‘tgan muarrix va shoirlarning ishlariga tayangan holda mazkur bayramning kelib chiqishini ahamoniylar sulolasi, Eron shohlari Kayumars va Jamshid nomlari hamda zardushtiylik e’tiqodi bilan bog‘lab talqin qilinadi. Bunday talqindan Navro‘z Eronda vujudga kelib, so‘ngra butun O‘rta Sharq hududiga yoyilgan, degan ma’no kelib chiqadi. Turon go‘yo bu bayramni tayyor, shakllangan holda qabul qilganday. Bunday konsepsiyaga qo‘shilib bo‘lmaydi.

Bizning fikrimizcha, Navroʻz bayramining kelib chiqishi, shakllanishi va asrlar davomida yashab kelishida Eron va Turon xalqlari, qabila va elatlarining xizmati, hissasi teng.

Ikkinchi bir yuzakilik shundan iboratki, ilmiy va maʼrifiy maqolalarda Navroʻz bayrami oʻzgarmas, qotib qolgan bir hodisaday taʼriflanadi. Uning bosib oʻtgan yoʻllari, davrlari, bosqichlari hamda turli ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda unda yuz bergan oʻzgarishlar, yoʻqotish yoxud yangiliklar haqida soʻz yuritilmaydi.

Binobarin, Navroʻz tarixini davrlarga boʻlgan holda oʻrganish, har bir davrning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash juda muhim. Hali bu toʻgʻrida hech kim hech qanday taklifni oʻrtaga tashlagani yoʻq. Ushbu maqola muallifi quyidagi tarzda davrlashtirishni taklif etar ekan, unga mutaxassislar oʻz munosabatlarini bildirib, bu masalaning yanada chuqurroq hal etilishiga hissa qoʻshadilar deb umid qiladi.

Avvalo shuni aytish kerakki, turkiy xalqlar boʻrini oʻzlarining ajdodlari deb bilib, unga topinganlar. Bir zamonlar boʻrini oʻldirish gunoh hisoblangan. Hatto qoʻraga oralab, qoʻyni olganida ham, unga zarar yetkazmaganlar. Aytishlaricha, boʻri suruvdan faqat qari yoki kasal qoʻyni tanlab boʻgʻizlarkan. Afsonada boʻri turklarning ulugʻ bobokaloni Oʻgʻuz oʻgʻliga yashashni, dehqonchilik va hunarmandchilikni oʻrgatgan doʻst va pir sifatida gavdalanadi. Bundan tashqari qadimiy turkiy qabilalar ovchilik davrida boʻri ovga omad keltiradi deb ham bilganlar. Ov oldidan, baʼzan ovdan keyin ham ibtidoiy jamoa oʻrtada yoqilgan gulxan atrofidan aylanib oʻyinga tushar ekan, oʻrtada boʻri terisini yopinib boʻri qiyofasiga kirib olgan timsolning koʻnglini olishga harakat qilgan. Bizning davrimizgacha yetib kelgan “Besh qarsak” oʻyinida shunday qadimiy xalq sanʼati izlarini koʻramiz.

Ikkinchidan afsonada maʼlum boʻlishicha, Oʻgʻiz oʻgʻli koʻk yolli Boʻri bilan ayni bahorning birinchi kuni uchrashgan boʻlib, oʻsha sharofatli kunni har yili bayram qila boshlagan. Bundan kelib chiqadiki, turkiy xalqlar ham Yil boshi – Navroʻz bayramini juda qadimgi davrlardan nishonlay boshlaganlar.

Shunday qilib, Yil boshi – Navroʻzning shakllanish davridayoq uch turkum oʻyinlar, tomoshalar, marosimlar maydonga kelgan. Birinchi turkum – bu tabiatning uygʻonishi, Quyosh, Boʻri timsollari bilan bogʻliq holda shakllangan xilma-xil oʻyinlar, tomoshalar. Ikkinchi turkum – ommaviy tus olgan kurash, merganlik, aytishuv va uloq tomoshalari. Uchinchi turkum tomoshalar ham boʻlgan. Katta umumlashma darajasiga koʻtarilgan, xalq orasida tomosha tarzida

uyushtiriladigan Ojuz momo va Dehqon bobo, Yozi va Zebo, Gul va Navro‘z timsollari shu jumladandir.

Shuni ta’kidlash zarurki, Navruz keyingi davrlarda ham asosiy mohiyatini saqlab qoldi.U tabiatning uyg‘onishi, bahorning boshlanishi, yangi yilning kirib kelishi bilan nishonlanadigan bayram shodiyonasiga aylanib qoldi. Shu kuni har bir kishi, butun jamiyat niyati pok, samimiy, go‘zal, mehr-oqibatli, shodu xurram, orzu-umidlari bir jahon bo‘ladi.

Navro‘z, o‘tmishda bo‘lganidek, yangi davrda ham tinchlik, osoyishtalik, mamlaktimizda yashayotgan turli millat vakillari o‘rtasida do‘stlik va totuvlik, ona yurt va ona tabiatga mehr-muhabbat, ma’naviy qadriyatlarga sadoqat ruhida o‘tkazib kelinadi.

Navro‘z har bir qishloq, har bir tuman, har bir viloyat va butun yurtimizning urf-odatlari, salohiyati, kuch-qudratini namoyish etuvchi maydonga aylanmoqda. U ham bo‘lsa Navro‘zning xalq ma’naviyati, xalq ijodiyotini rivojlantirish manbalaridan biriga aylanib qoldi. Navro‘z tufayli yangi ijodiy guruhlar, yangi badiiy dasturlar tuziladi, qo‘shiqlar yaratiladi.

Bugungi kunda Navro‘z bosib o‘tgan tarixiy yo‘l, bayram mohiyati, xalq va davlatchiligimiz tarixida tutgan o‘rni haqida tasavvurga egamiz. Ammo Navro‘z tarixi to‘la-to‘kis tiklandi deb bo‘lmaydi. Bu sohada gumanitar fanlar sohalari olimlari bundan keyin ham tadqiqot ishlarini olib borishlari lozim. Shundagina kelajakda o‘tkaziladigan Navro‘z bayramlari, sayillari va tomoshalari mazmunliroq ko‘rkamroq bo‘ladi. Zotan Navro‘z ikki qaotlik qushga o‘xshaydi. Uning bir qanoti – tarix, ikkinchi qanoti – xalqimizning shu kungi hayotidir. Ikki qanot but bo‘lsa, Navro‘z yaxshi parvoz qilishi, jamiyatimiz, ma’naviyatimiz taraqqiyotiga ko‘proq hissa qo‘shishi mumkin.

Shunday qilib, Navro‘z bayrami O‘zbekiston xalqi ma’naviy hayotining uzviy bir tarmog‘i sifatida jamiyat bilan qadam tashlab bordi. Huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurishga mahkam bel bog‘lab, iqtisodiy va ma’naviy islohotlarni qadam-baqadam amalga oshirayotgan xalq bilan birga tiklanib, o‘zgarib, yangilanib, yasharib kelmoqda. U o‘zining shakli, tarkibi, mohiyatini tiklabgina qolmay, yangi mazmun, yangi qiyofaga ega bo‘ldi, jamiyatning ma’naviy bayrog‘iga, chinakam umumxalq baramiga aylandi.

Adabiyotlar:

1. Jo‘rayev M. Navro‘z qo‘shiqlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007. 164 b.

2. Shodiyev B. Navro‘z bayrami. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2001. 128 b.

NAVRO‘Z TARIXI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Qunduzxon NISHONBOYEVA,
“San’atshunoslik va madaniyatshunoslik”
kafedrasi dosenti,
Tarix fanlari nomzodi

Zulfu ruxsor ila kominga meni yetkursang,
Har tunung qadr o‘lubon, har kuning, o‘lsun Navro‘z!
Alisher Navoiy

Navro‘z bahorgi kun va tun tengligi paytida Sharq xalqlari nishonlaydigan qadimgi an’anaviy xalq bayramidir. Navro‘z bayramini dastlab dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug‘ullanuvchi o‘troq axoli o‘rtasida, keyinchalik bu bayram yarim o‘troq va ko‘chmanchi turkiy xalqlarning ham eng katta bayramlaridan biriga aylanib bordi.Shamsiya (Quyosh) yili xisobida yilning birinchi kuni hisoblanib, dehqonchilik ishlarining boshlanishi sifatida yaxshi niyat, mo‘l xosil tilagan holda uy joylarni tozalash, hovliga gullar, mevali daraxt ko‘chatlarini o‘tqazishdan boshlangan. Navro‘z YUNESKO tomonidan 2009-yil 30-sentabr kuni insoniyatningg nomoddiy madaniy merosi ro‘yhatiga kiritilgan bo‘lib, 2010-yilning 19-fevral kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 64 sessiyasi 21-martni “Xalqaro Navro‘z” kuni sifatida nishonlash to‘g‘risidagi qarorni qabul qildi. Shu tariqa Navro‘z biror bir millat yoki madaniyatning bayrami sifatida emas, balki butun insoniyat merosining bir qismi sifatida nishonlanmoqda.

Bugungi kunda Navro‘z barcha tillarda o‘z nomi bilan yangramoqda.Fors tilida Novruz, kurd tilida Nevroz, tojikchada Navro‘z, turkman tilida Novruz, qozoqchada Nauriz, uyg‘urchada Noruz, qirg‘izchada Nooruz, tatar tilida Neuruz, qrimtatar tilida Navrez, boshqirdchada Neuruz, chuvash tilida Naras. Shuningdek, boshqa tillarda ham mahalliy nom bilan nishonlanadi.Navro‘z qadimiy qadriyat sifatida nomlanishidagi xilma xillikka qaramay, yangilanish, poklanish ramzi,

inson orzu istaklarini ifodalash belgisi tarzida yuzaga kelib,, bayram sifatida nishonlash sababini ko‘plab afsona va rivoyatlar bilan bog‘lashadi.

Dastlab, Navro‘z bayramining paydo bo‘lishi xaqidagi ilk ma’lumotlar o‘z davrida 4 ming yillik tarixni o‘z ichiga olib, “Shoh kitob” nomini olgan qimmatli tarixiy manbaa Abdulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarida yarim afsonaviy Jamshid nomi bilan bog‘liqdir. Firdavsiy iborasi bilan Navro‘zga nisbatan “Bayramlar shohi” deb ta’rif berilgan. Shuningdek Navro‘z bayrami O‘rta Osiyoda Islom dini qabul qilinmasdan ancha ilgari mavjud bo‘lgan. Bu xaqda Abu Rayxon Beruniyning “Kitob at tavhim” (“Tushuntirish”) va “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarlarida ham ma’lumotlar berilgan.

Umar Xayyom “Navro‘znoma” asarida Navro‘z bayramining nishonlanishi xaqidagi rivoyatlarni Jamshid davriga bog‘lab, shoh Kayumars hamal oyining birinchi kuni yil boshi xisoblansin, deb farmon berganini eslatib o‘tadi.Asarda “Jamshid shu kunni (Farvardin oyining boshi) Navro‘z atalsin, deb farmon beradi va odamlarga har yili farvardinning birinchi kunini bayram qilishni, uni yangi yil deb hisoblanishini buyurdi” (1.1). Shuningdek, bu asarda Navro‘z bayramini o‘tkazishning shohlar uchun ham maxsus tartib qoidalari bo‘lganligi haqida ham ma’lumotlar berilgan.

Unda bayram farvardinning oltinchi kuni, ya’ni katta Navro‘zga qadar davom etib, bayramni o‘tkazish tartib qoidalari bo‘yicha Sosoniy podsholari olti kunda olti toifa xalqni qabul etganlar va tortiqlar ulashganlar. Quyosh yili hisobida farvardin oyining avvaliga (22-mart) kecha bilan kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanish, bahorning boshlanish davriga to‘g‘ri keladi. Buni kichik Navro‘z bayrami yoki ommaviy Navro‘z bayrami deyilgan. Farvardinning oltinchi kuni esa katta Navro‘z bayrami deb atalgan.An’anaga ko‘ra, kichik Navro‘z bayramidan boshlab hamma narsa amalga kiradi, deb hisoblashgan.

Abu Rayhon Beruniy ham “Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar” nomli kitobida qimmatli ma’lumotlar berib, unda kichik bayram farvordin oyining oltinchi kunigacha davom etganini ta’kidlagan. Demak, farvordin oyining oltinchi kuni “Katta Navro‘z”ning mohiyatini bevosita tabiat bilan bog‘laydi va bu haqda shunday yozadi: “...U butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqgda, ya’ni bahor yomg‘irining birinchi tomchisi tushishidan gullar ochilguncha, daraxtlar gullashidan mevalari yetilguncha, hayvonlarda nasl vujudga kelguncha davom etadigan vaqtda keladi**.** Shuning uchun Navro‘z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan” (2. 46). Bu fikrlar Navro‘zning qadimdan tabiat va bahor bayrami bo‘lganini yana bir karra isbotlaydi. Biroq, tarixda Navro‘zning

mazmunini turlicha talqin qilib, ba’zilar uni tarakqiy ettirishga, boshqalar esa uni ta’qiqlashga harakat qilishdi. Jumladan, grek-makedon va arab istilosi davrlarida Navro‘z ta’qiqlanib, u podsho saroylarida, amaldorlar va din ahli davralarida rasmiy bayram hisoblanmagan. Eron va O‘rta Osiyo yerlarida zardushtiylik dini shakllangach, Navro‘zga xos urf odat va an’analar kirgan va diniy bayram sifatida o‘tkazish odatga aylangan. O‘sha davrda zardushtiylik mafkurasiga mos keladigan kalendar yaratilgan bo‘lib, uning oxirgi islohi sosoniylar sulolasidan bo‘lgan Yazdigard davrida amalga oshirilganligi uchun Yazdigard kalendari deb nom olgan. Bu kalendar 365 kunlik Quyosh (Shamsiya) kalendari bo‘lib, uning 12 oyi 30 kundan 360 kun bo‘lgan, qolgan 5 kuni hech bir oyga kirmagan, bu kun 21 martda kiradigan yangi yil oldidan alohida hisoblangan va bu kunlarda Navro‘z oldidan ibodat qilishgan hamda tayyorgarlik ko‘rishgan.

Islom dini paydo bo‘lgach, Eron, Afg‘oniston, O‘rta Osiyo, Kavkaz xalqlari hayotida bu kalendar amaldan qolgan.Barcha islomlashtirilgan mintaqalarda islom an’anasi bo‘yicha 354 kunlik hijriy qamariy yil hisobi amalga kiritiladi. Islom urf odatlari va an’analari ana shu kalendar bo‘yicha ado etiladi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, Navro‘z o‘tmishdagi har bir sinfiy jamiyatda podsholar hukmdorligi, diniy ideologiya ta’sirida shaklan o‘zgarib tursada, u o‘zining asosiy mohiyatini saqlab qoldi. U haqiqiy xalq bayrami bo‘lib, mehnat ahli orasida katta tantanalar bilan nishonlangan, xalq orasida bayramni o‘tkazishning o‘ziga xos tartib qoidalari bo‘lgan.

Islomgacha bo‘lgan Navro‘zda oddiy xalqqa tegishli bo‘lgan odatlar ham diqqatga sazovordir. Bayram kuni odamlar bir-biriga shakar va shirinliklar hadya qilish (hayotingiz shirin bo‘lsin degan ma’noda), bir-biriga cuv sepish (bu yil suv ko‘p bo‘lsin, hosil yaxshi bo‘lsin degan ma’noda) va boshqa odatlar keng tarqalgan. Keyingi asrlarda esa hovli-joylarni tozalash, ko‘kat va gullar ekish, ota-ona, yoru do‘stlarni ziyorat qilish, marhumlarning qabrini ziyorat qilish kabi odatlar Navro‘z bayramining tarkibiy qismiga aylangan. .

Sharq xalqlarining mushtarak ijodi Navro‘z uzoq Moziydan bugunga qadar yetib kelgan muqaddas qadriyatlardan biri, baynalmilal bayramdir. Bashariyat tarixida Navro‘zdan qadimiyroq bayramni topish qiyin, uning ildizlari neolit davriga borib taqaladi. Bugungi kunda esa, bahorning erka bayrami Navro‘zni Buyuk Ipak Yo‘lining barcha xalqlari do‘stona birdamlikda nishonlab kelishmoqda. Navro‘z O‘zbekiston, Eron, Ozarbayjon, Qirg‘iziston, Afg‘oniston, Tojikiston, Qozog‘iston, Xitoyning g‘arbiy viloyatlari, Gruziya, Hindiston, Albaniya, Turkiya, Turkmaniston, Pokiston kabi davlatlarda keng nishonlanib

kelmoqda. Demak bu bayram, bundan 3,5 – 4 ming yil burun bizning o‘lkada paydo bo‘lgan va shaksiz u ko‘pgina xalqlar bayramlarining otasi xisoblanadi.

Navro‘z bayrami bilan bog‘liq yana bir qadriyatlardan, ko‘z oldimizda navro‘zning lazzatli taomi sumalak jonlanadi. “Sumalak sayli” yoki (“Sumalak bazmi”) Navro‘zning “shohona taomi” sumalak tayyorlash, sumalakxo‘rlikka bag‘ishlangan marosimdir. “Sumalak” so‘zi “sharbat uchun undirilgan arpa yoki bug‘doy” ma’nolarini anglatuvchi qadimiy turkiy so‘z “suma” so‘zidan olingan bo‘lib, tarixiy manbaalarda turlicha talqinlar ham uchraydi. Jumladan: Muhammad Husayn Burxonning “Burxoni Qito’i” asarida (1650) “samanu” so‘zi uchraydi, uni ko‘klagan bug‘doy shirasidan tayyorlanadi deb izohlanadi. Sumalak nomi bilan bog‘liq turli afsona va rivoyatlar borki, bugungi kunda ham xalqning tilidan tushmay kelmoqda.” Qadimda uzoq davom etgan qishning so‘nggi kunlarida bir oilaning oziq ovqat zahirasi tugab, ochlikdan madori qurib borardi. Oila kattalari qozonni suvga to‘ldirib, tagiga olov yoqishibdi. Ichiga oddiy daryo toshlari va ombordan topilgan oz miqdordagi bug‘doy donlarini solib, qaynata boshlashibdi. Ammo quvvatsizlikdan ularni ham mudroq bosibdi. Bir payt uyg‘onib qarasalar qozon atrofida bir nechta pari parvoz aylab, bug‘doy urug‘laridan shirin bir bo‘tqa pishirishayotganmish. Ushbu taom oilani ochlikdan saqlab, ularga kuch quvvat va hayot quvonchini qaytaribdi. Shu shu taomni farishtalar sharafiga “si malak” deb atay boshlashibdi.

Sumalak pishirgan va tanovvul qilgan kishilarda sog‘lom ruhiy kayfiyat paydo bo‘lishini ajdodlarimiz qadimdayoq yaxshi anglab olganlar.Shu boisdan ham sumalakning asosiy mahsuloti bo‘lmish bug‘doy qadimdan ilohiy va tabarruk o‘simlik hisoblanib kelingan. Xalqimiz sumalakni sizlab tilga oladilar.Jumladan: “Sumalakka yetkazganiga shukur”, “Sumalakdan o‘rgilay”, “Sumalakka payg‘ambar nazari tushgan”, “Bibi Fotima onam taomlari” va boshqa ko‘plab xalq tilidan tushmay kelayotgan qadriyatlar borki, biz ularn i keyingi avlodlarga ham yetkazishimiz kerak. Ba’zi bir rivoyatlarda aytilishicha, qadimda butun oila va hatto mamlakat qo‘shinlari ochlikdan ushbu taom orqali xalos bo‘lishgan..

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Navro‘z xaqida juda ko‘p tarixiy asarlar, rivoyatlar mavjud. Yuqoridagi asarlardan tashqari Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Hoja Ali Termiziyning “Navro‘znoma”, “Solnoma” asarlarida, shuningdek Mashrab, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Nodira, Uvysiy, Zebuniso ijodlarida Navro‘z xaqida ajoyib fikrlar bayon etiladi.

Mustaqil O‘zbekistonda “Navro‘z” har yili katta tantana bilan nishonlanmoqda. “Navro‘z” arafasida umumxalq xashari o‘tkaziladi. Oy davomida hayriya ishlari:

yetim va nogironlarga, muhtojlarga yordam berish, qariyalarni qadrlash, ular holidan habar olib ziyorat qilish, kasallar holidan habar olib, ularga sovg‘a \ salomlar ulashish, bolalar uylariga turli sovg‘alar topshirish tadbirlari amalga oshiriladi. Hozirgi davrda mustaqil diyorimiz uchun “Navro‘z” kishilarga yasharish va bunyodkorlik, poklanish va yangilanish, ruhiy ko‘tarinkilik olib keladigan asosiy bayram bo‘lib qoldi.

Adabiyotlar:

1. Umar Xayyom. Navro‘znoma. T.:. 1990.
2. Abu Rayhon Beruniy .Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar. T.: 1991
3. Buyuk siymolar, allomalar(O‘rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar) Kitob. 1 T.: “ O‘zbekiston”, 1995.

YOSHLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

Gulchehraxon ESHANOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi
dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda madaniy, ma’naviy hamda axloqiy qadriyatlarning ahamiyati, ushbu milliy va umuminsoniy qadriyatlarning gumanistik mohiyati falsafiy jihatdan yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv davri, jamiyat hodisalari, turli-tuman hodisalar, o‘zaro munosabatlar, axloq va ma’naviylik mezonlar, Navro’z odatlari, ijtimoiy qadriyat, narsaning qadri, qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlar, hayot va ma’naviy o‘zgarishlar.

Annotation. The article philosophically highlights the importance of cultural, spiritual and moral values in increasing the socio-political activity of young people, the humanistic nature of these national and universal values.

Key words: era of globalization, social events, various events, interactions, moral and spiritual criteria, Navruz customs, social value, value of things, perceptions of values, life and spiritual changes.

Bugungi globallashuv davrida jamiyatimizda bo‘layotgan voqea hxodisalar, jarayonlarning turli-tuman shakllari, ko‘rinishlari, narsalar, hodisalar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma’naviylik mezonlari hamda boshqalarning ijtimoiy ahamiyati va qadrini ifodalash baholaydigan tushuncha bu qadriyatlardir.

Odamlar jamiyatda, bir davrda va o‘xshash sharoitlarda yashayotganliklariga qaramasdan, u yoki bu narsaning qadrini turlicha tushunadilar.

Odamlarning qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvuri, ularning turmush sharoitlari, hayoti va ma’naviy qiyofasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir.

Shuni ham ta’kidlash zarurki, qadriyatlar va jamiyatning rivojida goh u, goh bu qadriyatning zaruriyati seziladi.

Tahlil va natijalar

“Masalan, yurtni yov bosganida – ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida – istiqlol, urush davrida – tinchlik, tutqunlikda – erkinlik, kasal va bemorlik onlarida – sihat-salomatlikning qadri oshib ketadi, ularga intilish kuchayadi”. [1.]

Bugungi kunda, zero, dunyoda turli mafkuralar to‘qnashuvi diniy asosda kechishi ham ma’lum. Yoshlarimizni vatanparvar, insonparvar, milliy, diniy qadriyatlar ruhida yetuk, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan komil inson qilib shakllantirishda diniy bilimlarni dunyoqarash sifatida o‘rganish zarurligi seziladi.

Shuningdek, 2018-yil noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyusiyasi ilgari surilgan edi. Bugungi kunda O‘zbekistonda davlat va din o‘rtasidagi munosabatlar, din sohasidagi qonunlar, farmonlar [2.] asosida ko‘pgina ishlar qilinmoqda.

Prezidentimiz tomonidan shunday vazifalar qo‘yilgan, “Aholi, ayniqsa, yosh avlodga terrorizm va ekstremizm mafkurasiga qarshi qat’iy va barqaror immunitetni shakllantirish [3.] maqsad vazifalari ilgari surilgandi.

“Ayni vaqtda yana bir haqiqatan ham esdan chiqarmasligimiz kerak. Eng katta, bebaho boyligimiz bo‘lgan tinchlikka rahna solish, turli xalqlar o‘rtasida urush olovini yoqish, milliy va diniy ziddiyatlarni avj oldirishga urinayotgan kuchlar ham, afsuski, yo‘q emas. Bunday yovuz kuchlarga qarshi kurashda, avvalo,

doimiy xushyorlik va ogohlik, butun xalqimizning birligi va xamjihatligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bunday xavf-xatarlarga qarshi faqat kuch ishlatish usullari bilan emas, balki jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish lozim. Birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash muhimdir. [4.]

Bugungi dunyoning manzarasi har qachongidan ham o‘zgarib ketmoqda. Har bir davlatlar halqining milliy etnik jipsligi uchun o‘zlari xarakat qilmog‘i lozim. Davlatimiz siyosatida ham “Ma’naviyatimiz uchun eng katta xavf – bu aksariat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganida, desak, bu ham ayni xaqiqat bo‘ladi [5.]

Xulosa va tavsiyalar

Qo‘shni Afg‘oniston islom davlatida qizlarga maktabda ta’limni ta’qiqlanishi, ayollar huquqining cheklanishi kabilar omillar yonginamizda sodir bo‘layotgan tahdid deyish mumkin. Nafaqat Yevropa davlatlarida, balki O‘zbekistonda ham diniy qadriyatlar yuzasidan soqol yo hijob yuzasidan jamoatchilik o‘rtasida, maktablarda ham mojarolar bo‘lib turadi. Bunday negativ hodisalarga yechim sifatida milliy va diniy qadriyatlarni ilmiy asosda o‘rgatish, o‘tmishdagi mudhish voqealarning ayanchli oqibatlarini esga soluvchi manbalarni targ‘ib etish muhim sanaladi.

Qozog‘istondagi yanvar voqealari, Ukrainada bo‘layotgan milliy va siyosiy mojarolarning salbiy oqibatini tahlil qilib berish, bugungi yoshlarimizni mafkuraviy jihatdan sog‘lom va har qanday yot g‘oyalarga qarshi tura oladigan sog‘lom fikrli vatanparvar qilib tarbiyalash birinchi o‘rinda oliy o‘quv yurtlari va maktab pedagoglarining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Ayni damda azal-azaldan qondosh va qardosh bo‘lgan mintaqamiz davlatlari orasidagi munosabatlar oddiy qo‘shnichilik aloqalaridan farq qilishi, bu borada umumiy o‘tmish, tarixiy, madaniy, ma’naviy yaqinlik o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatishini tahlil etish malakasini barpo etish zarar.

Ularning har biridagi qadriyatlar tizimini barqaror qilishda o‘ziga xoslik bo‘lishi, yangi qadriyatlar tizimining shakllanish istiqbollari ijtimoiy rivojlanishning muayyan yo‘llarini tanlab olish bilan ham bog‘liq bo‘lishini ilmiy tadqiqotlarda yoritish lozim.

Viloyatlarda yoshlar orasida sport va san’atni rivojlantirish, turli xalqaro va respublika miqyosidagi festival va madaniy tadbirlarni o‘tkazish, yoshlarda ilm-fan taraqqiyoti insoniyatga taqdim etgan qulayliklarni qadrlash hissini uyg‘otuvchi kino va teleko‘rsatuvlar sonini ko‘paytirish lozim.

O‘zbekistonda bu jarayonda qadriyatlarni barqaror qilish bilan birga, nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki iqtisodiy va ma’naviy sohalarda tub o‘zgarishlar sodir bo‘layotganligini targ‘ib etish zarurdir.

Adabiyotlar:

1. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. T.: 2004. B. 29.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi "Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5416-son farmoni. "Xalq so‘zi", 2018 yil 17 aprel. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2018 yil 18 aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.08.2017 y. 572-son "O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida"gi Qarori**. “**O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”. 2017 yil 7 avgust, 31-son, 782-modda.
4. Mirziyoyev SH. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. “O‘zbekiston” NMK, T.: 2020. –B. 299.
5. Mirziyoyev SH. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. “O‘zbekiston” NMK, T.: 2020. –B. 219.
6. Mirziyoyev SH. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. “O‘zbekiston” NMK, T.: 2020. –B. 321.

NAVRO‘Z UDUMLARI VA URF-ODATLARI

Aliboy QAHRAMONOV,
Filologiya fanlari nomzodi,
O‘zDSMI
“O‘zbek tili va adabiyoti”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangilanish, yasharish bayrami bo‘lgan “Navro‘z” bayrami haqida, shuningdek, o‘zbek xalqining Navro‘z arafasidagi urf-odatlari, udumlari haqida ma’lumot berilgan. “Yangi O‘zbekiston”ni milliy urf-

odatlarimizni yo‘qotmagan holda qurishimiz, uni yanada yuksaltirishimiz haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, “Yangi O‘zbekiston”, udum, urf-odat, bayram, tarix, “Qozon to‘ldi”, sumalak, sayl, bahor.

Annotation. This article provides information about the holiday of Navruz, which is a holiday of renewal and rejuvenation, as well as the traditions and customs of the Uzbek people on the eve of Navruz. There are plans to build a “New Uzbekistan” without losing our national traditions, to further enhance it.

Key words: Navruz, “New Uzbekistan”, customs, traditions, holidays, history, “Boiler filled”, sumalak, holiday, spring.

Аннотация. В этой статье рассказывается о празднике “Навруз”, который является праздником обновления, омоложения, а также о традициях и обычаях узбекского народа в канун Навруза. Размышления о том, как построить «новый Узбекистан», не утратив национальных традиций, еще больше возвысить его.

Ключевые слова: Навруз, «Новый Узбекистан», обычаи, традиции, праздники, история, «Казань полна», сумаляк, праздник, весна.

Navro‘zning o‘lmas ruhi va boqiy falsafasi biz bugun bunyod etayotgan yangi O‘zbekiston g‘oyasi bilan uyg‘un va hamohangdir. Xalqimizning fidokorona mehnati, qat’iy siyosiy irodamiz bilan keng ko‘lamli islohotlarimizni bundan keyin ham jadal davom ettiramiz. Qanchalik qiyin bo‘lmasin, el-yurtimiz manfaatini, jondan aziz farzandlarimiz kelajagini ta’minlashga xizmat qiladigan to‘g‘ri yo‘limizdan hech qachon ortga qaytmaymiz.

Shavkat Mirziyoyev

Ko‘p ming yillik tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalqi asrlar davomida o‘ziga xos xilma-xil urf-odatlar, marosimlarni yaratdi. Ular doimiy takrorlanishi va xalqning ularga amal qilib kelishi natijasida umrboqiydir. Turmushga, zamonga qarab ularning ayrimlari unutiladi. Zamonga qarab, yangilari paydo bo‘ladi, eng xalqchillari esa avloddan-avlodga o‘tib keladi.

Xalqimizning turmush tarzida yil taqvimi bilan bog‘liq turli xil udumlar, urf-odat va marosimlar mavjud bo‘lib, ularning barchasi Sharq xalqlarining quyosh taqvimidagi birinchi kun bo‘lmish Navro‘z (Nav-yangi, ro‘z-kun) bayramidan boshlanadi. Biz katta tantanalar bilan nishonlayotgan ulug‘ ayyom, bahor bayrami - Navro‘zni ajdodlarimiz tabarruk kun deb bilib, uni katta quvonch va xursandchilik bilan o‘tkazishga harakat qilganlar. Navro‘z Yer haqidagi dastlabki

ilmiy-geografik tasavvurlar paydo bo‘lgan zamonlardan boshlab shakllangan bo‘lib, dastlab ushbu bayramni o‘tkazish o‘troq dehqonlarda, so‘ngra yarim o‘troq va ko‘chmanchi turkiy xalqlarning ham urf-odatlariga aylangan. O‘rta asr muarrixlari uning vujudga kelish tarixini bundan uch, uch yarim ming yil oldin bo‘lgan deb yozgan bo‘lsalar, zamonamiz tarixchilari Navro‘zning tarixiy ildizlarini tosh asri (er.av.10-5 ming yillar)ga borib taqaladi, degan xulosani bildiradilar.

Tarixiy ildizlari juda chuqur bo‘lgan ushbu bayram Markaziy Osiyo va O‘rta Sharq mamlakatlarida ancha qadim davrlardan tarkib topgan tantana bo‘lib, uning qadimiy an’ana ekanligini isbotlovchi qator tarixiy yozma manbalar va tarixiy asarlar mavjud. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Mansur Salabiy, Umar Hayyom singari adiblarning tarixiy, ilmiy va adabiy asarlarida Navro‘zning kelib chiqishi, uning o‘ziga xos qadimiy rasm-rusumlari va marosimlari to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlar mavjud. O‘rta asrlarning mashhur qomusiy olimlari asarlarida Navro‘zning kelib chiqish tarixi afsonaviy shohlar Qayumars, Jamshid va Sulaymon bilan bog‘lab talqin qilinadi.

Navro‘z bayram tarzida nishonlana boshlangandan beri o‘tgan turli hukmdorlar va davlat xizmatida bo‘lgan yuqori martabali tarixiy shaxslar ham ushbu bayramni nishonlashga turfa xil munosabat bildirganlar. Zamonamizda esa mazkur milliy bayramga juda katta e’tibor berilib, turli hududlarda o‘ziga xos tarzda nishonlanmoqda. Navro‘z bilan bog‘liq udumlarni ikkiga: bayramdan oldin va bayramdan keyin o‘tkaziladiganga bo‘lish mumkin. Bayramgacha bo‘lgan tadbirlarga ekin-tikin ishlariga tayyorgarlik ko‘rish, ko‘chalar, hovli-joylar, ziyoratgoh va mozorlarni tozalash, bayram taomlarini pishirish kabilar kiradi.

Navro‘z oldidan respublikamizning barcha joylarida ko‘chalar, qishloq qabristonlari, atrof-muhit tozalanib, yangi yilning barcha uchun xayrli kelishini Ollohdan so‘rab “xudoyi”, “darveshona” kabi marosimlar o‘tkaziladi. Odamlarning o‘zlari ham yangi yilni poklangan holda kutib olishga harakat qiladilar. Shu bilan birgalikda barcha sug‘orish tarmoqlari loyqadan hashar usulida tozalanib, suv yo‘llari ravon qilinadi.

Ajdodlarimiz qadimdan erta bahorda yangi yilda suvning mo‘l-ko‘l bo‘lishini niyat qilishib, qurbonlik marosimlarini o‘tkazib kelganlar. Mazkur an’analari hozirga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Xalqimizning qadimiy an’anasiga ko‘ra, Navro‘z bayrami hut oyining oxirgi kechasi oila davrasida o‘tkaziladigan “qozon to‘ldi” udumi bilan boshlangan. U sof oilaviy udum bo‘lib, har bir xonadon o‘z imkoniyati doirasida tansiq taomlar tayyorlab, o‘tgan ajdodlar

ruhiga “is” chiqaradilar. “Qozon to‘ldi” oqshomida barcha idishlar suvga to‘ldirib qo‘yilgan. Xalq qarashlariga ko‘ra, suv to‘ldirilgan idishlarga tangrining marhamati bilan qut-baraka to‘ladi deb tasavvur qilingan. “Qozon to‘ldi” oqshomida har bir xonadon qozonlarini to‘ldirib biror lazzatli taom tayyorlasa, kelayotgan yilda hosil mo‘l bo‘ladi degan qarashlar mavjud bo‘lib, uning tarixiy asoslari “Avesto”da qayd qilingan “Xamaspaeta” bayrami bilan bog‘lanadi. Qadimda bu udum ezgu ruhlarning yangi yil arafasida o‘zlari yashagan xonadonga tashrif buyurishi bilan aloqador marosim sifatida o‘tkazib kelingan. Bayram dasturxonlarining bezatilishi xo‘jalik mashg‘ulotlari bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Masalan, dehqonlarning dasturxoni ziroatchilik ne’matlari bilan to‘lsa, chorvadorlarning dasturxonida go‘sht va sut-qatiq mahsulotlari ko‘proq bo‘lgan. Uy bekalari ushbu kunda har yilgi odatlariga ko‘ra “uy ko‘taradilar”, ya’ni uydagi gilam, kigizlarni tashqariga olib chiqib yoyadilar, hammayoqni supurib-sidiradilar, qishi bilan isingan sandallarni olib tashlab, o‘rnini tuproq bilan ko‘mib, tekislaydilar. Shu kuni tanadagi bodni quvib chiqarish uchun marosimiy o‘rik turshagidan tayyorlangan sharbat ichiladi. XIX asrda Qo‘qon xonligida yangi yil bayrami – “Sari-sol”da xon haramiga o‘rik turshagidan tayyorlanadigan sharbat uchun ma’lum miqdorda shakar va o‘rik turshagi ajratilishi to‘g‘risidagi ma’lumot ham fikrimizni isbotlaydi.

Mirishkor dehqonlar Navro‘z arafasida yetti taxtacha ustiga bug‘doy, arpa, sholi, jo‘xori, tariq, javdar, mosh kabi donli ekinlarning urug‘larini yoyib qo‘yib, har kuni suv sepib turganlar. “Qozon to‘ldi” kuni ana shu donlarning unishiga qarab, kelayotgan mavsumda qaysi ekindan mo‘l hosil olish mumkinligini chamalaganlar. Ushbu odat dastlab sosoniylar davrida shoh saroyida o‘tkazilgan bo‘lib, yangi yilning qanday kelishini oldindan taxmin qilganlar. Bulardan tashqari Navro‘z bayrami boshlanadigan kun – 21 martning haftaning qaysi kuniga va qaysi muchal hayvoniga to‘g‘ri kelishiga qarab ham kelgusi yil to‘g‘risidaturlitahmin, bashoratlar qilingan.

O‘lkamizda tabiatda bo‘layotgan o‘zgarishlarga alohida e’tibor beruvchi sinchilar - sinchkov kishilar tabiat alomatlari hamda uzoq o‘lkalarga uchib ketgan qushlarning qaytib kelish vaqti va ularning tashqi ko‘rinishlarini kuzatib yangi yilda ob-havoning qanday bo‘lishi to‘g‘risida turli taxminlarni bildiradilar. Shu bilan birgalikda Yangi yilning dastlabki kunlari ham yangi yilning qanday kelishini bildirgan. Masalan, ozarbayjonlarda Navro‘zning birinchi kuni bahorni, ikkinchi kuni yozni, uchinchi kuni kuzni, to‘rtinchi kungi ob-havo esa qishning qanday kelishini bildiradi. Har yili Navro‘z bayramida doshqozonlarda sumalak, halim va

boshqa bahoriy taomlar pishiriladi. Ushbu taomlar ichida eng keng tarqalgani sumalak bo‘lib, bu taomni tayyorlashning o‘zi alohida bir marosim hisoblanadi. “Sumalak” kalimasi “sharbat uchun undirilgan arpa” yoki bug‘doy ma’nolarini anglatuvchi qadimiy turkiy so‘z “suma”dan kelib chiqqan. Muhammad Husayn Burxonning “Burxoni qot’I” asarida (1650-y) “saman-u holvaytarga o‘xshagan narsa, uni ko‘klagan bug‘doy o‘simtalarining shirasidan tayyorlanadi”, deb izohlanadi. Sumalak pishirish ishlariga yoshi ulug‘, ko‘p farzandli, xalq orasida katta hurmat qozongan ayollar yetakchilik qilishi va sumalak o‘chog‘idan odamlardagi shamollashni haydovchi vosita sifatida foydalanib, farzand ko‘rmayotgan juvonlarning sumalak o‘chog‘iga kirib o‘tirishlari sumalakning hosildorlik kulti bilan bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi. Ulkan qozonlar qadimdan muqaddas sanalib, ularda tangrilar sharafiga maxsus taomlar pishirilgan. Serhosillik timsoli hisoblangan bunday qozonlarda pishirilgan sumalakdan tanovul qilgan kishiga yil bo‘yi omad, qut-baraka yor bo‘ladi degan qarashlar mavjud bo‘lgan. Bir idishda taom iste’mol qilish odamlarni o‘zaro yaqinlashtiradi degan qadimiy qarashlarga hamohang holda bitta qozonda bayram taomlarini tayyorlash ham kishilarni g‘oyaviy jihatdan birlashtiradi deyishimiz mumkin.

Butun dunyo xalqlarida mavjud bo‘lgan “birinchi kun magiyasi”ga ko‘ra yangi yilning birinchi kuni qanday kutib olinsa, yil bo‘yi o‘sha kayfiyat odamlarga hamroh bo‘ladi degan qarashlar mavjud. Bayram kuni erta tongdan odamlar olamdan o‘tgan ajdodlarini xotirlaganlar, muqaddas joylar-mozorlarni, ota-onalari, qarindosh-urug‘larini ziyorat qilganlar. So‘ngra bayram saylgohiga boradilar. U yerda turli tomoshalar: uloq, kurash, dorbozlik o‘yinlari kechga qadar davom etgan. Bolalar turli ranglarga bo‘yalgan tuxumlarni urishtirib, varrak uchirish musobaqalarini o‘tkazishgan. Bayramda o‘rgatilgan xo‘roz, it, qo‘chqor, tuyalarni o‘zaro urishtirish kabi tomoshalar bo‘lgan. Qadimdan odamlar urushayotgan hayvonlarni hosiyatli va hosiyatsizga bo‘lishib, ularning qaysi biri yutib chiqishiga qarab yangi yilning “xosiyatli” va “xosiyatsiz” kelishini tahmin qilganlar. Qiz-juvonlar esa qishloq chetidagi bog‘larda qadimiy odatlardan bo‘lgan arg‘imchoq-halinchak uchganlar. Arg‘imchoq uchish dunyoning boshqa xalqlarida ham mavjud bo‘lib, balog‘atga yetganlik ramzi hisoblanadi. Arg‘imchoq arqonlari asosan o‘rik daraxti shohlariga bog‘lanib, halinchak uchayotganlar iloji boricha balandroq uchib, eng baland shohchadagi o‘rik guli yoki g‘o‘ra(dovuchcha)ni uzib olishga harakat qilganlar. Kimki bunga erishsa, uning barcha istaklari ro‘yobga chiqadi, deb qaralgan.

Qadimdan Navro‘z bayrami qishloq joylarda dalaga qo‘sh chiqarib, urug‘lik don sepish bilan yakunlangan. Ushbu marosimlar ham bir necha bosqichlardan iborat bo‘lib, “shohmoylar”, “urug‘ sepish”, “qo‘sh oshi” kabilarni qamrab oladi. Mazkur marosimlarning tarixiy ildizlari mil. av. III ming yillik oxiri II ming yillik boshlariga borib taqaladi va qadimiy e’tiqodlar bilan bog‘liq bo‘lib, haftaning belgilangan kunlarida o‘tkazilgan.

Dalaga birinchi qo‘sh chiqarilgan kuni Buvoyi Dehqonga atab biror bir hayvon, ko‘pincha qo‘chqor so‘yilgan va marosimiy taom tarzida “qo‘sh oshi”, “qo‘sh go‘ja”, “xudoyi sho‘rva” pishirilgan. Qoraqalpoqlar orasida esa yerga urug‘ qadashdan oldin dala boshida jonliq (odatda, xo‘roz) so‘yiladi. Yil barakali, unumli kelsin degan niyatda bu ishni bo‘ydoq o‘spiringa bajartirganlar. Eng keksa usta dehqon fotiha berganidan so‘nggina xudodan mo‘l-ko‘l hosil so‘rab, yaxshi niyatlar qilishib ishga kirishilgan. Qurbonlik hayvon go‘shtidan palov yoki sho‘rva kabi taomlardan biri tayyorlangan. “Qozon to‘ldi” kungi “is” yog‘iga bo‘g‘irsoq, o‘yma-qatlama pishirilgan yog‘ bilan ho‘kiz shoxlarini, bo‘yinlarini hamda bo‘yinturuqni moylaganlar. Keksalarning aytishicha, shunday qilinsa, ho‘kiz muguzlari baquvvat, bo‘ynini bo‘yinturuq yara qilmaydigan, ho‘kizlarning o‘zi esa mehnatdan charchamaydigan bo‘ladi.

Necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan Navro‘z bayramini tahlil qilar ekanmiz, u bilan bog‘liq marosimlar orasida quyidagi umumiylikni ko‘rishimiz mumkin: olov yoqish; bir-birlariga suv sepish yoki cho‘milish; bashorat qilish; o‘rik turshagi suvini yoki afsun, duo o‘qilgan suv ichish; “qozon to‘ldi” marosimi; pishirib, turli ranglarga bo‘yalgan tuxumlar bilan bog‘liq odatlar; baland joylar-tepaliklarga, mozorlarga, muqaddas joylarga chiqish, ziyorat qilish; bir-birlarini va ota-onalarni yo‘qlash; qiz-juvonlarning arg‘imchoq uchishlari; shahardan tashqarida sayl, uloq, kurash uyushtirish... kabilar.

Yuqorida keltirilgan Navro‘z bilan bog‘liq barcha odatlar zamirida xalqning yagona ezgu niyati - yangi yil hosildorlik, mo‘l-ko‘lchilik yili bo‘lsin, degan umid-istagi yotadi. Qadimgi ajdodlarimizning dunyoqarashi, ma’naviy saviyasining yorqin na’munasi bo‘lgan Navro‘z tabiat va hayotning qayta tug‘ilishi bilan birga, poklik va shodlik, ma’naviyat va birdamlik, milliy iftixor, o‘zlikni anglash va hamjihatlik ramzi hisoblanib, bahoriy marosimlarni boshlab beradi va butun bir faslni o‘z ichiga qamrab oladi.

Bugun O‘zbekiston o‘z mustaqil taraqqiyotining sifat jihatdan yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Bu yo‘lda u jahonning ko‘plab mamlakatlari va yirik xalqaro tashkilotlari bilan turli sohalarda samarali hamkorlik qilib kelmoqda.

Aytish mumkinki, davlatimiz rahbari bugungi kunda nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyoning farovonligi uchun jon kuydirayotgan, mintaqani sanoati rivojlangan, obod va dunyo bilan keng integratsiyalashgan hududga aylantirish orzusi bilan yashab, shunga monand mehnat qilayotgan etakchi sifatida namoyon bo‘lmoqda. “Yangi” degan so‘zning biz uchun alohida ahamiyati bor. Eng ko‘hna bayramlarimizdan biri **Navro‘z – Yangi kun** deb atalishini esga olaylik. Ushbu qadimiy bayram bilan bog‘liq qadriyat va an’analar hayotimizga shu qadar singib ketganki, xalqimiz asrlar davomida, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy aytganlaridek, **“Har tuning qadr o‘lubon, har kuning bo‘lsin Navro‘z!”** degan ezgu tilaklar, pok niyatlar bilan yashab keladi. Shu ma’noda, bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan **“Yangi O‘zbekiston”** g‘oyasi zamirida ana shunday ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg‘onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo‘lamiz.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil Navro‘z bayrami arafasidagi nutqidan.
2. Toshpo‘lat Axmad. Navro‘zingdan o‘rgilay.
3. Boltaboy Shodiyev. Navro‘z bayrami.
4. “O‘zbek milliy bayramlari” kitobi.
5. www.ziyonet.uz
7. www.namangan.uz
8. www.iiv.uz

NAVRO‘Z – EZGULIKKA YO‘G‘RILGAN QADRIYAT

Zebiniso RASULOVA,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor bo‘limi katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi,
Munis JO‘RAYEVA,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor bo‘limi katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotasiya. Navroʻz – qadim ajdodlarimiz badiiy tafakkurining nodir yodgorliklaridan biri, asrlar ardogʻida uzluksiz taraqqiy etib kelayotgan muhtasham qadriyat sanaladi. Ushbu maqolada Navroʻz umumxalq bayramiga xos milliy qadriyat va anʼanalar, qadimiy urf-odatlar haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: qadriyat, boqiy, ezgulik, boychechak sayli, urf-odat, qut-baraka.

Аннотация. Навруз – один из редких памятников художественного мышления наших древних предков, это великолепная ценность, которая непрерывно развивается на протяжении веков. В данной статье речь идет о национальных ценностях и традициях, старинных обычаях, характерным для национального праздника Навруз.

Ключевые слова: ценность, вечность, доброта, бойчечак сайли (праздник подснежников), традиция, обычаи, достаток, благополучие.

Annotation. Navruz – is one of the rare monuments of the artistic thinking of our ancient ancestors, it is a magnificent value that has been continuously developing over the centuries. This article deals with national values and traditions, ancient customs, characteristic of the national holiday Navruz.

Key words: value, eternity, kindness, boychechak sayli (snowdrop festival), tradition, customs, prosperity, well-being.

Navroʻz koʻhna va boqiy qadriyat! Necha-necha asrlarning ardogʻida qalblarga jo boʻlib kelayotgan ezgulik ayyomi. Uning boqiyligining sir-sinoati yoʻq. Shunchaki, Navroʻz hamisha ezgulikni ulugʻlaganligi bois ham barhayotdir. Navroʻz tabiat uygʻonib boʻyi yetgan boʻyni taratadigan, ezgu niyatlar bilan bobodehqonlar baraka urugʻini yerga qadaydigan, chorvadorlar “elimning iligi but boʻlsin” deya seroʻt yaylovlarga podani yoyadigan, yangi mehnat mavsumi boshlanib, kishilar qalbida tabiatga hamohang nafis tarovatga yoʻgʻrilgan yangilanish hissi joʻsh urgan bir davrda nishonlanadi. Ushbu qadimiy bayramning oʻziga xos boʻlgan, asrlar davomida har bir avlod tomonidan sayqallanib kelayotgan ajoyib anʼanalari mavjud. Bu anʼanalar qat-qatiga mehr-muruvvat, tinchlik-totuvlik, ahillik-birdamlik, serhosillik va qut-baraka, obodonchilik-bunyodkorlik gʻoyalari singib, jon va tan singari uygʻunlashib ketgan.

Azaldan xalqimiz Navroʻz bayrami shodyonalarini “boychechak sayli” bilan boshlashgan. Koʻklamning ilk kunlarida qor ostidan bosh koʻtarib, goʻyoki qahraton qish ustidan gʻolib boʻlib, “qattiq yerdan qatalab chiqqan” boychechaklar

ko‘rinishi bilan “boychechak sayli” marosimi o‘tkazilgan. Ushbu navro‘z oldi marosimda bolajonlar o‘zlari terib kelishgan boychechaklarni uzun tayoq uchiga bog‘lab, ko‘klam darakchisi sifatida mahalla bo‘ylab ko‘tarib aylanib yurishgan. Keksa, bemor kishilar boychechakni ko‘zlariga surishib: “Omonlik, omonlik, hech ko‘rmaylik yomonlik, yanagi yil shu kunlarga eson-omon yetaylik”, deb shukronalar qilishgan. Boychechak xabarini olib kelganlar esa shirinliklar bilan siylangan. Qadim-qadimdan ajdodlarimiz betakror ko‘rinish-u, xususiyatga ega bo‘lmish gullarga befarq bo‘lishmagan. Buning birgina isboti tariqasida O‘rta Osiyo xalqlarining mavsumiy marosimlari tizimidan joy olgan, bahor faslida, Navro‘z arafasida o‘tkaziladigan «gul sayllari»ni misol qilishimiz mumkin. Tabiat bilan bog‘liq ushbu sayllar xalqimizning Navro‘z bayrami bilan bog‘liq marosimlar sirasiga kiradi. Bahor faslida uyushtiriladigan an’anaviy gul sayllari yurtimizning turli joylarida turlicha nomda, turli tarzda nishonlanadi. Gul bilan bog‘liq bayramlarni tadqiq etgan olima L. Tulsevaning yozishicha, Nurotaning qir-adirlarida qizg‘aldoqlar ochilgan paytda “Qizil gul” sayli, Farg‘ona vodiysida “Lola sayli”, Samarqandda mevali daraxtlar, ayniqsa, behi gullaganda “Behi gul sayli”, Buxoroda “Guligardoni bulbulxon”, “Guli surx”, Zarafshonda “Boychechak guligardoni” sayllar o‘tkazilgan. [1, 107-108]

Yil almashadigan kun arafasida chor-atrof, ariq va zovurlar tozalanib, nihollar o‘tqazilib, barcha obodonlashtirish ishlari necha ming yillik “hashar” an’anasi orqali amalga oshirilgan. Xonadonlarda davomiy odatga ko‘ra “uy ko‘tarilgan”, hamma yoq supurib-sidirilib, keraksiz eski buyumlar chiqarib tashlangan. Zahmatkash bobodehqonlarimiz ham serhosillikni niyat qilib, ekin ekiladigan yerlarga qo‘sh chiqarib, “shox moylar” marosimini o‘tkazishgan. Yetti xil dondan “navro‘z go‘ja”lari, yetti xil bahoriy ko‘katlardan ko‘k somsalar tayyorlanib, qo‘ni-qo‘shnilar, qarindosh-urug‘, mahalla-ko‘y bilan birga baham ko‘rishgan. Mehr-muhabbat, o‘zaro totuvlik, ahillikni aks ettiradigan “Qozon to‘ldi” udumi ham navro‘z oldi udumi sifatida uzoq yillardan buyon nishonlanib kelinadi. Ushbu oilaviy udum hut oyining oxirgi kechasida o‘tkazilgan. “Qozon to‘ldi” oqshomida tayyorlangan taomlar va pishiriqlar qo‘ni qo‘shnilarga, qarindosh-urug‘larga, bemorlarga, keksa yoshdagilarga ham ulashilgan. Kelayotgan yil barakali kelsin, ro‘zg‘orimizdan qut arimasin, degan ezgu niyatda hamma idishlar suvga to‘ldirib qo‘yilgan. Shu oqshomda kechasi bilan ko‘pchilik bo‘lib sumalak va halim ham pishirilgan. Bu taomlarning qozon ertasiga ochilgan” [2, 74]. Har bir xonadon bekalari biror bir tansiq taom, ko‘k somsa, turshak sharbati tayyorlab, o‘tgan ajdodlari haqiga “is” chiqarib, bo‘g‘irsoq pishirishgan. Navro‘z

kunlari esa odamlar dala-qirlarga bog‘u rog‘larga saylga chiqqanlar. Gilamdek to‘shalgan ko‘klamgi mayin maysalar ustida turli o‘yinlar tashkil etilgan. Er-yigitlar qadimdan yangi yilda hosil mo‘l bo‘lishiga magik ta’sir ko‘rsatish maqsadida o‘ynalgan ramziy o‘yinlardan sanalgan “qo‘chqor urishtirish”, “ko‘pkari” kabi o‘yinlarni o‘ynashgan. Qiz-juvonlar esa to‘planishib, bog‘lardagi azim daraxtlarning shoxlariga arqon bilan arg‘imchoq yasashib, “yil bo‘yi bilib-bilmay qilgan gunohlarimiz to‘kilsin”, deya halinchak uchishgan. Hatto keksa momolar ham “og‘irligim yerga tushib, yengil bo‘lay”, deb arg‘imchoq uchishgan. Yoshlar esa momolari yoshiga kirishini niyat qilib, ularga hamrohlik qilishgan. O‘zaro urishib qolganlar yarashtirilib, gina-qudratlar unutilgan. Birgalashib bahorni madh etadigan qo‘shiqlar, laparlar ijro etib, navro‘zni nishonlashgan.

Har biri bir olam ezgu maqsadlarga yo‘g‘rilgan navro‘z bilan bog‘liq marosimlar, urf-odatu, an’analar talaygina. E’tiborli jihati shundaki, navro‘z an’analari haqida to‘xtalar ekanmiz, ularning barchasida “ko‘pchilik bilan birgalikda” degan so‘z birikmasi takror qo‘llanilishi kishini to‘lqinlantiradi. Chindan ham xalqimiz azaldan bir-biriga yondosh bo‘lib, ezgu maqsad sari o‘zaro birdamlikda, hamjihatlikda yashashgan. Buni qutlug‘ qadriyat – Navro‘z misolida ko‘rish mumkin. Ko‘klam nafasi ufurishi bilan yurtimiz bo‘ylab turli xonadonlarda doshqozonlar osilib, navro‘z shoh taomi sumalaklar pishirilishining guvohi bo‘lamiz. Sumalak pishirilayotgan xonadon bamisli to‘yxonadek gavjum, ko‘pni ko‘rgan nuroniy bobolar “danagidan mag‘zi shirin” nabiralariga topishmog‘u matal aytadi, momolari yaxshi niyat bilan sumalak kovlayotgan qiz-juvonlar bilan birga qadimiy qo‘shiqlaru termalar kuylaydi. Tinchlik-totuvlikda, ahillik-inoqlik bilan shodiyona qilishadi, katta-katta sayllar tashkil etishadi. Ha, bugungi nurafshon kunlarda Navro‘z o‘z tarixiy umri davomida chinakamiga qadr topib, qadriabad qadriyat sifatida nishonlanib kelinyapdi. Hali-hamon navro‘z kishilar qalbiga buyuk bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda ruhiy-ma’naviy quvvat berib kelyapdi. Uning zamiridagi birdamlik, mehnatsevarlik, yaratuvchanlik, mehr-muhabbat kabi qator ezgu g‘oyalar o‘sib kelayotgan bugungi kun yoshlarining yuksak ma’naviyatli bo‘lib kamol topishida muhim ahamiyatga ega ekanligi, shubhasizdir. Yaralishi, yaratilishi olis zamonlarga borib taqalgan, asrlar davomida intizorlik bilan kutilib, nishonlanib kelinayotgan Navro‘z bayrami donishmand xalqimizning boy tafakkur mahsuli, ma’naviyatining ko‘zgusidir. Ushbu ma’naviyat bulog‘idan bahramand bo‘layotgan davr yoshlariga Navro‘z bayrami chinakamiga ajdodlardan munosib meros, bebaho tuhfadir.

Adabiyotlar:

1. Tulseva L.A. Sovremenniye prazdniki i obryadi. M.: Nauka, 1985. S. 107-108.
2. M.Jo‘rayev. Navro‘z bayrami. Toshkent.: 2009. “Fan”.74-b.

MUSTAQILLIK DAVRI NAVRO‘Z TOMOSHALARI REJISSURASIDA TEATRLASHTIRISH JANRI

Jahongir MAMATQOSIMOV,
O‘zDSMI professori v.b.,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillikning ilk yillarida nishonlangan Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan tomoshalarda teatrlashtirish janri haqida ma’lumot berilgan. Mustaqillikning ilk davrida o‘tkazilgan Navro‘z bayramlaridagi teatrlashtirilgan sahnaviy tomoshalar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, tomosha, teatrlashtirish, rejissura, xalq ijodiyoti, marosim, urf-odat.

Аннотация. В данной статье представлена информасия о жанре театра в спектаклях, посвященных празднику Навруз, который отмечался в первые годы независимости. Анализ театрализованных представлений празднования Навруза в первые годы независимости.

Ключевые слова: Навруз, зрелище, театр, режиссура, народное творчество, обряд, традиция.

Annotation. This article provides information about the theater genre in performances dedicated to the Navruz holiday, which was celebrated in the first years of independence. Analysis of theatrical performances of the celebration of Navruz in the first years of independence.

Key words: Navruz, spectacle, theater, directing, folk art, ritual, tradition.

Necha asrlarki, bayramlar inson ma’naviyati ko‘zgusi, tarbiya vositasi sifatida nishonlanib kelinmoqda. Bayramlar orqali shaxs tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatish, insonlarni ilg‘or g‘oyalar orqali kelajakka ishontirish, jamiyat ravnaqi va farovonligini namoyish etish har bir davr bayramining asosiy maqsadi sanalib kelingan.

Respublikamizda nishonlanib kelinayotgan Navro‘z bayrami tomoshalarida xalqimizning ming yillik tarixi, ma’naviyati va madaniyatini namoyish etishda turli

badiiy vositalardan hamda teatrlashtirish janridan keng foydalanib kelinmoqda. Estrada va ommaviy tomoshalarni san'at darajasiga olib chiquvchi eng muhim omil bu teatrlashtirish janridir. Ommaviy bayramda teatrlashtirish deganda – biz harakat mazmunining g'oyaviy-mavzusi, badiiy obrazli shaklda namoyon bo'lishini tushunamiz [1, 52].

Teatrlashtirilgan tomosha deb – teatr va dramaturgiya qonuniyatlarini o'z ichiga olgan, hamda ulardan keng foydalanish uchun kompozitsion tuzilishga ega bo'lgan ommaviy tadbirga aytiladi [2, 110].

Mustaqillik davri Navro'z bayramida xalqchillik, mustaqillikni kuylash, vatan, yurt taraqqiyoti, urf-odatlarni tiklash va ommalashtirish, marosim, xalq ijodiyoti an'analari, inson qadri kabi mavzular teatrlashtirish janri orqali ifodalanib tomoshabinlarga ma'naviy-estetik zavq berib kelmoqda. Xalqlar orasida do'stlik va birodarlikni targ'ib qilib, urush, bahs va o'zaro sovuqchilikka barham berib, halol mehnat, hashar, insof, adolatga chorlab kelgan Navro'z an'analari bu ishlarda qo'l keldi. Ham shu maqsadda, ham istiqlol tufayli boshlangan milliy qadriyatlarni tiklash harakatining yorqin ifodasi sifatida 1992-yil bayrami, uning Toshkentdagi, viloyatlar va tumanlardagi sayillari, tomoshalari, marosimlari ayni muddao bo'ldi. U umumxalq bayrami sifatida nishonlandi [4, 38].

Bayramning bosh rejissyori va badiiy rahbari etib tayinlangan Abdurashid Rahimov turli millatlar va elatlarning tinch-totuv, ahil-ittifoq yashashi mamlakat Mustaqilligining garovidir, degan g'oyani tomosha konsepsiyasi qilib oldi. Shu maqsadda Xalqlar do'stligi maydoni bor mahobatli sathi bo'yicha tomoshagohga aylantirildi. Mana shu sahnada ko'pdan-ko'p jamoalar, folklor dastalari, taniqli san'atkorlar, sport namoyandalari, havaskorlar, bolalar o'z san'atlari va hunarlarini namoyon etdilar. Ulkan sahnada O'zbekiston badiiy jamoalari Navro'z manzaralarini, xalq quvonchini tarannum etuvchi syuitani ijro etishgan. Bahoroy, Dehqonbobo, Nasriddin Afandi kabi ramziy obrazlar teatrlashgan sahnalarni bir-biriga bog'lab turgan. Mehnat, tinchlik, do'stlik va Mustaqillik g'oyalariga urg'u berilgan.

Asosiy maydonda bir viloyatdan kelgan mehmonlar, bir Toshkent tumani o'z mehnati va ijodidan hikoya qilgan. Mavzular xilma-xil, san'atlar xilma-xil. Repertuar xalq an'anaviy marosimlaridan tortib zamonaviy syuitagacha o'z ichiga qamragan [3].

1994-yil Navro'zni O'zbekiston milliy bog'ida o'tkazish harakati butun mamlakatimizda kechayotgan milliy qadriyatlarni tiklash, ularga zamonaviy ruh bag'ishlash va shu yo'l bilan Mustaqillik mafkurasini yuzaga keltirishdek murakkab va xayrli ishga hissa qo'shish niyatlari asosida amalga oshirildi.

1994-yilgi Navro‘zning bosh teatrlashgan tomoshasi Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy bog‘i majmuida ulkan xalq shodiyonasi shaklida sahnalashtirildi. Tomosha dramaturgiyasini ham R.Hamidov o‘z zimmasiga oldi. Uni besh katta qismdan iborat qilib tuzdi. Bayroqlar hilpiraydi. Sharlar havoda suzadi. Maydonning turli burchaklarida varraklar va laylaklar uchiriladi. Bahorni shu tarzda qarshilagan sho‘x-shodon bolalarning qo‘shiq va raqslari maydonni qoplaydi. Hatto badiiy fonda ham bolalarcha sho‘xlik, quvnoqlikning ranglar jilvalanadi. Ularga “Gavhar” folklor ansamblining bahorni qarshilash bilan bog‘liq marosim-o‘yinlari ulanib ketadi. Ular bilan birga Dehqonbobo (bu rolda Muqimiy teatr aktyori F.Ahmedov gavdalangan) chiqib, yer, dehqonchilik, suv, bahor haqida dono fikrlar aytib hammani o‘ziga qaratadi. “Dehqon bayrami” syuitasi ijro etiladi.

O‘tgan yillar viloyatlardan o‘z mahorati bilan ajralib turuvchi biron bir xalq ansambli to‘ldirilgan va kuchaytirilgan holda yuboriladi. Bu yil esa har bir viloyatga 50-80 kishilik maxsus yig‘ma ijodiy jamoa tuzib, o‘sha hududga xos dastur tayyorlab kelish topshiriladi. Shu boisdan deyarli barcha viloyatlar bu ishga mas’uliyat bilan yondashib, sumalak bayramidan tortib, “Sust xotin” nomli yomg‘ir chaqirish, “Choy momo” nomli shamolni to‘xtatishgacha bo‘lgan xilma-xil marosimlarni, qo‘shiqlarni, o‘yinlarni tiklab, badiiy shaklga solib, milliy bog‘ maydonida namoyish etdilar. Tomoshabin ko‘z o‘ngida butun O‘zbekistonga xos xalq tomoshalari, raqslari, marosimlari jonlanganday bo‘ldi. Ijrolardagi samimiylik, jo‘shqinlik, g‘ayrat-shijoat va hazil-mutoyiba tomoshaning ushbu eng katta qismi o‘ziga xosligini ta’minladi [3].

1995-yil Navro‘z bayram tomoshasini tayyorlashga kirishgan tashkiliy qo‘mita bayram tarkibi va uslubida keskin yangilikka erishish maqsadida bu ishga rejissyor Bahodir Yo‘ldoshevni taklif etadi. Asar muqaddima va to‘rt qismdan iborat bo‘lib, unga Abu Rayhon Beruniyning “Osor-ul-boqiya” asarida yozib qoldirilgan Navro‘z Alloh tomonidan koinot, quyosh yaratilgan vaqt, farishtalar, payg‘ambarlar ulug‘langan kun, degan fikr singdirilgan. Tomoshaning “Suv” deb ataluvchi qismida libosi sharsharani eslatuvchi qiz-Suv ramzi kirib keladi. Yashil rang ko‘ylak kiyib, boshlariga gulchambarlar taqib olgan qizlar, suv malikasi atrofida charx uradilar. Navoiyning shu mavzudagi baytlari o‘qiladi. Bu yerda muallif folklor-etnografik ansambl tomonidan “Sust xotin” nomli tomoshaning, yog‘och ot mingan bolalarning suv sochib, bir-birlariga yaxshi niyat, yorug‘lik tilab aytadigan qo‘shiqlarining ijro etilishi mumkinligini qayd etadi. Bu qism ham, Xurshid Davron fikricha, xorning tantanavor qo‘shig‘i bilan yakun topmog‘i kerak.

Shundan keyin ssenariyda maydonga Bahor malikasining kirib kelishi o‘ylangan. Tomosha ishtirokchilari (ya’ni xalq) bir-birlariga gullar taqdim qilib, bayram bilan qutlashadi. Bir guruh ayollar yetti xil donli ekin maysasi ko‘karib chiqqan patnislarni ko‘tarib kelishadi. Davraga kelinchaklarni olib kirib, maydonga yoqilgan gulxanlar atrofidan aylantirishadi, qizlar arg‘imchoqlarda uchdilar. Dor o‘yini. Yog‘och ot va yog‘och oyoq mingan bolalar maydonning to‘rt tomonida o‘ynashadi. Charxpalak yetti xil rangda tovlanib aylanadi. Dehqonlar qo‘sh haydab (teri yopingan masxarabozlar ho‘kizlar qiyofasida gavdalanadilar), qo‘shiq aytishadi. Suxandon Rabg‘uziyning Navro‘z haqidagi masnaviysini o‘qiydi. Maydonga nabirasini yetaklab Dehqonbobo kirib keladi. U mehmonlarga don ulashadi, yerga sochadi. Suxandon “Yerga urug‘ sochaylik, bo‘tam” degan she’r bilan tomoshani yakunlaydi.

Shunday qilib, Xurshid Davron Navro‘zning kelib chiqishini butun olamning yaratilishi, insonning paydo bo‘lishi bilan bog‘lagan holda o‘z ssenariysini Koinot, Suv, Quyosh, Yer qismlaridan iborat qilib tuzadi. Navro‘zni tabiat bayrami, ezgulik bayrami sifatida ko‘rsatadi. Ssenariyning yaxlitligi, shuningdek, har bir qism o‘z ichki qurilishiga ega bo‘lib, muallifning maydon tomoshasi dramaturgiyasi xususiyatlarini hisobga olganidan guvohlik beradi. Ramziy timsollarni gavdalantirishda ajdodlarimiz e’tiqod qilgan 7 raqamidan foydalanilgan. Mavzu mantiqli qurilib, o‘ziga xos syujet hosil qilingan. Suv, Quyosh, Yer, Yetti sayyora, Bahor malikasi, Dehqonbobo ramziy obrazlari muallifning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi, syujet qurilmasiga hamohang, mos, qismlarni bir-biriga bog‘lashda muallif shoir ovozi (suhandon she’rxonligi)dan foydalaniladi. Tomoshada xilma-xil vositalar (kuy, qo‘shiq, xor, marosim, namoyish, raqs, ramziy obrazlar xatti-harakati, obrazli qurilmalar, mahobatli tasvirlar)dan keng foydalanish nazarda tutilgan [5, 88].

Ko‘pgina viloyat markazlarida O‘zbekiston Milliy bog‘ida o‘tkazilganiday maxsus ssenariylar yozilib, shu asosda teatrlashgan tomoshalar yaratilgan. Chunonchi, Farg‘ona viloyati markazi – Mustaqillik hiyobonida “Uyg‘otish” nomli kompozitsiya ko‘rsatilgan. Folklor-etnografik jamoalar hamda bolalarning havaskor dastalari o‘z san’atlarini namoyish etishgan. Bundan tashqari, alohida teatrlashgan “Sharq bozori” dasturi bo‘lib, unda viloyatning barcha tumanlaridan tashrif buyurgan iste’dodli kishilar qatnashgan. Surxandaryo viloyatida esa 1995-yil Navro‘z bayrami har bir tumanning o‘zida nishonlandi. Viloyat markazi Termizning Hakim Termiziy nomli bosh maydonida ham bayram tomoshasi o‘tkazildi, albatta. Ammo, unda yaqin atrofdagi xalq baxshilari, sibiziq va changqovuz chaluvchilar, teatr artistlari qatnashdilar [3].

Ommaviy tomoshalar xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida, xalqning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ular shaxsning har tomonlama rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy faolligini oshirish jarayonini o‘ziga xos vazifalarini bajarishga, ya’ni havaskorlik ijodiga jalb qilish va mazmunli dam olish, hordiq chiqarishni uyushtirishga yordam beradi. Ommaviy tomoshalar faqatgina kishilarning hordiq chiqarishinigina emas, balki bilimini, dunyoqarashini o‘stirishga, ijodkorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, o‘z navbatida, jamiyatdagi asosiy ish faoliyati bilan yaxshiroq shug‘ullanishga samarali yordam beradi.

Xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, Navro‘z bayrami tom ma’noda urf-odatlar va marosimlar hamda xalq ijodiyoti namunalarining badiiy ifodasini topgan madaniy kompleks bo‘lib, unda teatrlashtirish janridan keng foydalanish tomoshaning badiiy takomillashuvi kafolatidir.

Adabiyotlar:

1. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 432 b.
2. Mamatqosimov J.A. Estrada va ommaviy tomoshalar rejissurasi. – Toshkent: Lesson Press. 2019. – 272 b.
3. Navro‘z tomoshalari video materiallari.
4. Shodiyev B. Navro‘z bayrami. – Toshkent O‘zbekiston Miiliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. – 144 b.
5. Qoraboyev U.X. O‘zbek xalqi bayramlari. – Toshkent: Sharq. 2002. – 202 b.

QORAQALPOQ XALQ, MADANIYATINING ETNOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Bibiaysha QUDAYBERGENOVA,
O‘zDSMI Folklor va etnografiya
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq xalqining dunyo e’tiborini tortgan, rangbarang moddiy va nomoddiy madaniyatining etnografik xususiyatlari aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: Etnografik xususiyat, qoraqalpoq madaniyati, o‘tov, milliy muzey, milliy kiyimlar.

Аннотация. В данной статье отражены этнографические особенности всемирно известной, красочной материальной и нематериальной культуры каракалпакского народа.

Ключевые слова: этнографические особенности, каракалпакская культура, юрта, национальный музей, нaзиональные костюмы.

Annotation. This article reflects the ethnographic features of the material and intangible culture of the Karakalpak people, who constantly attract the attention of the wide world community.

Key words: Ethnographic features, Karakalpak culture, yurt, national museum, national clothes.

Mustaqillik yillarida bebaho qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimiz qayta tiklanmoqda. Shu bilan birgalikda, nomoddiy madaniy merosimiz hisoblangan folklor san’atini rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 222-sonli “2010–2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorining qabul qilinishi folklor-etnografik ansambllari faoliyatini yangi, yuqori bosqichga ko‘tarilishida muhim ahamiyat kasb etdi. Bugungi kunda yurtimizda faoliyat yuritayotgan folklor-etnografik ansambllar milliy qo‘shiqchilik san’atini, unut bo‘layotgan an’analarni o‘zlashtirib, san’atsevar xalqimizga tuhfa etishmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 371-sonli Qarorida “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro folklor musiqa festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida»gi Madaniyat va san’atning noyob namunalarini keng targ‘ib qilish, uni asrab-avaylash va rivojlantirish, yosh avlod qalbida san’atga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini kamol toptirish, davlatlararo, xalqlararo do‘stlik, birodarlik rishtalarini yanada mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma’naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda kengaytirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-iyundagi 486-sonli Qarorida “Nurli navolar” xalqaro folklor festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risidagi Milliy qo‘shiqchilik san’atining durdonasi bo‘lgan folklor san’atini keng targ‘ib etish, turli xalqlarning qo‘shiq, raqs, musiqa va sahna ko‘rinishlari kabi janrlarini o‘zida mujassam etgan, ularning turmush tarzi, urf-odatlari va qadriyatlarini hamda ma’naviy dunyosini boyitib kelayotgan folklor san’ati

ijodkorlari o‘rtasida ijodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, o‘zbek va qoraqalpoq folklor san’atini yanada taraqqiy ettirish, xalq ijodiyoti an’analarini jahonga tarannum qilish maqsadi belgilanganligi qoraqalpoq xalqi folklor san’atini har tomonlama chuqur o‘rganish, targ‘ib qilish va bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishga keng imkoniyatlar ochib beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning, “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonamanki, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo‘ladi”[1] degan so‘zlari esa xalkimizning nomoddiy madaniy merosiga katta e’tibor berilayotganligini ko‘rsatadi.

Qoraqalpoq etnografiyasi, xalq ijodiyoti o‘ziga xosligi bilan O‘zbekiston Respublikasining boshqa hududlaridagidan farq qiladi.

Jumladan, folklorda musiqalar ohangi ham, matn qurilmasi ham epik, dostonchilik an’analari bilan chambarchas bog‘liq va bu xalq ijodiyotiga o‘ziga xos joziba baxsh etadi. Qoraqalpoq folklorida 3 xil doston aytuvchilar mavjud. Bular - jirau, baxshi va qissaxonlardir. Ular bir-birlaridan poetik-musiqiy repertuar, ijro uslubi va cholg‘u asboblari bilan farq qiladilar.

Doston aytuvchilar orasida jirao‘uslubi qadimiy hisoblanadi. Unga qahramonlik dostonlari (“Alpamis”, “Yedige”, “Koblan” va boshqalar), termalar va tolg‘ao‘lar kiradi. Qoraqalpoq xalq ijodida baxshilik ham keng tarqalgan. Bu uslubda poetik eposlar, lirik xarakterga ega bo‘lgan muhabbat dostonlari kuylanadi. Klassik adiblar – Ajiniyoz va Berdaxlar ham xalq og‘izaki ijodining ana shu uslubida samarali ijod qilib, el yuragidan chuqur joy olganlar.

Qoraqalpoq xalq ijodiyotining muhim ajralmas qismlaridan biri bo‘lgan milliy kiyimlaridagi naqshlar aslida hayvonlar belgisini bildiradi. Negaki, o‘sha paytlarda har bir qabila o‘zining muqaddas hayvoni va tamg‘asiga ega bo‘lgan. Naqshlarning “qarg‘a tuyoq”, “qoshqar muyiz”, “toy tuyoq”, “g‘oz mo‘yin”, “qarg‘a tirnoq” va boshqa nomlari ham bundan dalolat beradi. Aytish kerakki, qoraqalpoq naqshlari ular ishlangan buyum bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni alohida-alohida ko‘rib chiqish mumkin emas. Gilamdo‘zlik va kashtado‘zlik buyumlarida (baskur, kur, palas, ko‘k ko‘ylak, kiymeshek, jegda) xalqning etnik o‘ziga xos xususiyatlari aniq aks ettirilgan. Kigiz buyumlaridagi naqshlar ham juda qiziqarli. Ularga naqsh solish texnikasi o‘ziga xos bo‘lib, naqshni “bostirish” usuli keng tarqalgan. Ayniqsa, to‘lqinsimon naqshlar alohida qiziqish uyg‘otadi. Ayrim naqshlar juda qadimiy bo‘lib, suv ramzini anglatadi. Chunki, qoraqalpoqlar har

doim dengiz va ko‘llar bo‘yida yashaganlar. Shu bois suv mavzusining avloddan avlodga o‘tganini kuzatish mumkin.

Qoraqalpoqlarning an’anaviy turar-joylari – o‘tovlarda ham xalq ijodiyotining o‘ziga xos go‘zal namunalarini ko‘rish mumkin. Turli ranglardagi naqshlar bilan bezatilgan kigizlar o‘tovlarda yopinchiq vazifasini o‘taydi. Naqshinkor tus olgan uyning chevarlik bilan tikilgan so‘zanalar va turli matolar bilan bezatilishi uning ko‘rkiga ko‘rk bag‘ishlaydi.

Bundan yigirma olti yil oldin erishilgan mustaqillik qoraqalpoq xalq ijodiyotiga yangi davr eshiklarini ochib berdi. Eski tuzim davrida unutilib ketgan xalq san’ati qayta tiklandi, xalq ijodiyoti davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, ijodkorlar, xalq ijodiyoti jamoalari, iste’dodlar ma’naviy va moliyaviy jihatdan rag‘batlantirilib, ularning Yangi marralarni zabt etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berildi. Shu bois hozirgi paytda O‘zbekiston Respublikasi poytaxti – Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadigan Navruz milliy bayramlarda qoraqalpoq folklar jamoalari, san’atkorlarining chiqishlari betakrorligi, jozibadorligi bilan alohida ajralib turadi. Ular qadimiy va juda o‘ziga xosdir.

Ayniqsa, qoraqalpoq ayollarining milliy kiyimlari kishida katta qiziqish uyg‘otadi. Chevarlik bilan bezatilgan “jengsiz” qo‘lqoplari, “kimeshek” va “saukele” bosh kiyimi va yopinchiqlari juda hayratlanarlidir. Naqshlarning uslubi ko‘proq hayvonot va o‘simlik dunyosi va xo‘jalik faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tikishlari esa nozik va jozibali ko‘rinishda – qirmizi-alvonrang, jigarrang, yashil-pistarang, zarrin sariq rangda tovlanadi. Bundan tashqari, bug‘doy tasviri tushirilgan belbog‘ga ega bo‘lgan tuxumsimon yirik kumush tugmalarning turfa xillari, o‘simlik barglari va gullari naqshi bilan tushirilgan rangli toshlar, baxmal bilan bezatilgan “haykel” ko‘krak taqinchoqlari, “ongirmonshak” zanjirli yarimshar shaklidagi taqinchoqlar, “arebek” burin sirg‘asi hamda zargarlik san’-atining boshqa buyumlari ham kishida hayrat uyg‘otadi.Chirik-Ravotda topilgan zargarlik buyumlarida tasvirlangan mavzularni qoraqalpoq naqshlari prototiplariga oid deyish mumkin.

Adabiyotlar:

1.Davlatova S.T. Transformatsiya traditsionnoy odejdi uzbekov Kashkadarinskogo oazisa (kon. XIX - XX vv.). Avtoref. diss. na soiskaniye uch. st. kand. ist. nauk. – Tashkent, 2006.

2. Abu.Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” –T.: Fan, 1979.

3. Qoraqalpog‘iston.–Toshkent, “Ma’naviyat “ 2011.B.16 3. Qoraqalpag‘stanning yangi tarixi. –Nukus: “Qoraqalpag‘stan”. 2003.
4. Koshanov B.A. “Qoraqalpog‘iston tarixi”. Nukus-2006.
5. Abdurahmonov O‘. Qoraqalpoq dunèsi. 2011.B.110 8. Bartold V.V. Istoriya turetsko-mongolskix narodov. – T.: 1928.

O‘ZBEK FOLKLOR IJROCHILIGI, AN’ANA VA MILLIY QADRIYATLAR – MA’NAVIYAT KO‘ZGUSI

Umida KURBANOVA,
OzDSMI, “Folklor va etnografiya” kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek xalqining folklor ijrochiligi, an’ana va milliy qadriyatlarining ma’naviy – ma’rifiy tarbiya omili ekanligi haqida fikr – mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Millat, urf – odat, an’ana, marosim, madaniyat.

Аннотация. В данной статье рассматривается тот факт, что фольклорное исполнительство узбекского народа является фактором духовно – просветительского воспитания традиций и национальных ценностей.

Ключевые слова: Нация, традиция ,обряди, обычаи, культура.

Annotation. This article discusses the performance of folklore of the Uzbek people, the fact that traditions and national values are a factor of spiritual and educational education.

Key words: Nation, custom, tradition, ceremony, culture.

O‘zbek xalqining paydo bo‘lish tarixi qanchalik uzoq tarixga borib taqalsa, unung milliy qadriyatlari, an’analari, urf-odatlari, marosimlari ham shunchalik tarixiy ildizga egadir. Ular xalqning ma’naviy ehtiyojlari zamirida paydo bo‘lib, shakllanib, sayqallaninb o‘z mazmunida shu xalqning orzu – o‘ylari, istaklari,turmush tarzi, axloq normalarini mujassam etadi. Shuning uchun ham har bir xalq, millat, elat ularni ko‘z qorachig‘iday avaylab asrashi,

taraqqiy ettirishi, kelgusi avlodlarga ma’naviy qadriyat sifatida etkazmog‘i lozim.

Yurtboshimiz Sh. Mirziyoyevning say-harakatlari bilan jamiyatni ma’naviy yuksaltirish, milliy qadriyatlarimizni tiklash, umrboqiyligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ijobiy va savobli ishlar an’ana va marosimlarning mazmuniga ham alohida e’tobor berishni taqoza etadi. Bu esa mamlakatimiz kelajagi yoshlarni milliy qadriyatlarimiz vositasida ma’naviy qilib tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Darhaqiqat, folklor ijrochiligi, an’analar, urf-odatlar, marosim va bayramlar xalqning, millatning ma’naviyati, qadriyatlarining ajralmas qismidir.

O‘zbek folklor ijrochiligi san’ati qadim ajdodlarimizning turmush tarzi, diniy marosim va milliy qadriyatlar, an’analar bilan bog‘liq holda miloddan oldin shakllangan an’ana bo‘lib, kishilarning hayotiy voqelik, jamiyat va tabiat hodisalariga bo‘lgan estetik munosabatlarini badiiy aks ettiradi. Hozirgi kunda ham xalqimiz tomonidan sevib ardoqlanayotgan bu san’atni o‘rganish, xususan uning tarixiy asoslari, takomil bosqichlari, epik xotira va voqelikni badiiy talqin etish xususiyatlarini aniqlash ajdodlarimizning turli tarixiy davrlarga oid estetik didi, ma’naviy-badiiy olami va maishiy turmush tarzi haqida ko‘proq tasavvurga ega bo‘lishga imkon beradi. Folklor ijrochiligi san’ati o‘zining mazmundorligi, tarbiyaviyligi, umrboqiyligi, boshqa san’at turlaridan ajralib turadi. Folklor qo‘shiqlarida she’riyat, ijro uslublari badiiy estetik vosita sifatida birlashib ketadi. [2. 143].

Qadriyatlar o‘z-o‘zidan bevosita insonning ma’naviy qiyofasi, turmush tarzi, umuman, jamiyat taraqqiyotini belgilaydi. Qadriyatlarning ahvoli, ahamiyati insonga ko‘rsatadigan ta’siri, uning istiqboli u yoki bu jamiyatdagi siyosat, uning manfaatlari bilan bog‘langandir.

Barhayot an’analarimiz, urf-odatlarimiz va milliy qadriyatlarimiz eng avvalo oiladan boshlanadi. Oila qanchalik sog‘lom, tinch-totuv, farovon bo‘lsa, ushbu oila poydevori mustahkam va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Ana shunday oilalarda urf-odat va an’analarimizga amal qilgan, milliy qadriyatlarimizni e’zozlaydigan, jismonan va ma’nan sog‘lom fikrli farzandlar o‘sib tarbiya topadi.

Ma’naviy jihatdan barkamol avlodni tarbiyalsh – faqat milliy ehtiyojgina emas, balki umumdavlat ahamiyatiga molik masala. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar boy ma’naviy merosimizning eng yaxshi an’analari hamda shakllanib

kelayotgan yangi udumlarimizning birlashtirgan holda yoshlarga tatbiq etilishi, berilayotgan tarbiyaning qudratli omiliga aylanadi.

Dunyodagi barcha xalqlarning, jumladan, O‘rta Osiyo xalqlarining ham an’ana va bayramlari tabiat, iqlim, mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda, kishilarning kundalik hayoti, mehnati, madaniyati asosida shakllanib boradi. Deyarli barcha xalqlarda tabiat, mehnat mavsumi va har faslga mos, ya’ni erta bahorda – mehnat mavsumiga kirishdan avval, yozda – hosilni yig‘ishtirishdan oldin, kuzda – hosil to‘plagandan so‘ng va qishda ish to‘xtagan paytda uyushtiriladigan mavsumiy marosim va bayramlari mavjud bo‘lgan va ular zamonga mos tarzda o‘zgarib borgan.

O‘zbek xalqida bahor faslida o‘tkaziladigan bayramona an’anaviy tadbirlar boshqa fasllarga qaraganda birmuncha ko‘p.

“Navro‘z” bayrami ham aynan shunday bayramlar toifasiga kiradi. Navro‘z bayrami 2009-yilda O‘zbekiston, Turkiya, Pokiston, Ozarbayjon, Hindiston, Qirg‘iziston kabi yetti davlat tavsiyanomasi asosida YUNESKO ning nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgan.

2010-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti 21-mart kunini Xalqaro Navro‘z kuni deb e’lon qildi. U endi dunyoning barcha mamlakatlarida ham nishonlanishi mumkin. Eng asosiysi bu bayram haqida dunyodagi barcha xalqlar vakillariga ham ma’lum bo‘ldi. Bayramlar insonning ma’naviy ehtiyoji sifatida vujudga kelgan va muayyan mafkuraviy vazifalarni bajargan. Jamiyat xayoti o‘zgarib borgan sari bayramlar ham mavjud vaqelikka moslashib borgan. Bayram, an’analar insoniyat madaniyatining boshlang‘ich shaklidir. Shu boisdan ham u insoniyatning o‘zi bosib o‘tgan yo‘llarini chuqur anglashi, qo‘lga kiritilgan g‘alabalardan mag‘rurlanish, ertangi kunga umid bilan qarashga yordam beradi. Ularda xalq ruhi, uning o‘tmishi, sermazmun buguni, porloq kelajagi aks etadi. Bayramlar ijtimoiy – siyosiy va madaniy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, u muhim an’analarni va milliy qadriyatlarni qo‘llab – quvvatlab, insoniyat madaniyati va ma’naviyatini mustahkamlaydi.

Navro‘z uzoq moziydan bugunga qadar etib kelgan muqaddas qadriyatlardan biridir. Uning mazmuniga qadimgi ajdodlarimizning mifologik tasavvurlaridan tortib, bugungi zamondoshlarimizning ilg‘or qarashlarigacha bo‘lgan ma’naviyat olami singib ketgan va u insoniyat sivilizatsiyasining uzoq asrlar mobaynidagi har bir yutug‘idan doimo kuch – quvvat olib turgan. Bashariyat tarixida Navro‘zdan qadimiyroq bayramni toppish qiyin, ildizlari neolit davriga borib taqaladi [3. 189].

Navro‘z deganda ko‘z oldimizga uning lazzatli taomi – sumalak jonlanadi. “Sumalak sayli” (yoki “Sumalak bazmi”) Navro‘zning “shohona taomi” – sumalak tayyorlash marosimidir.

Sumalak tanavvul qilgan kishilarda sog‘lom ruhiy kayfiyat paydo bo‘lishini ajdodlarimiz qadimdayoq yaxshi anglab olganlar. Shu boisdan ham sumalakning asosiy mahsuloti bo‘lmish bug‘doy qadimdan ilohiy va tabarruk o‘simlik hisoblangan.

Yuzaga kelgan ezgu muhit, ruhiy yangilanish natijasida folklor ijrichiligida yangi asarlarni hayotga targ‘b qilish jarayoni boshlandi. Navro‘z olam bilan bog‘liq qo‘shiqlar, an’ana va marosimlar qayta tiklandi. Navro‘z bayramining kelib chiqish tarixi, taraqqiyot bosqichlari, uning tarkibidagi folklor qo‘shiqlarining badiiy xususiyatlari, bayramning o‘tkazilishi bilan bog‘liq lokal belgilar ro‘yobga chiqdi. Bu sohada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar asosida Navro‘z bayramida qadimdan mavjud bo‘lgan asriy marosimlar, xususan, “Yil boshi”, “Qozon to‘ldi”, “Navro‘z go‘ja tayyorlash”, “Sumalak pishirish” , “Hashar uyushtirish”, “Lola sayli”, “Arg‘amchi uchish” kabi o‘zligimizni tarannum etuvchi qadimiy an’analarimiz yana hayotga qaytdi [3. 149].

Zero, Navro‘z bayramlarida xalqimiz tomonidan sevib ijro etiladigan navro‘zga bag‘ishlangan qo‘shiqlarda mehr va muruvvat, oqibat, insoniylik, qut – barakaga bo‘lgan ishonch, el – yurt xotirjamligining turfa xil tomonlari folklor etnografik jamoalari tomonidan badiiy talqin etilmoqda va bu san’at ma’naviyat bo‘stonida turfa xil jilvalanmoqda.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, an’analar va milliy qadriyatlarimiz xalqimizning o‘zi kabi umrboqiy, qalbi misol mehridaryo va jonbaxshdir. Inson ma’naviyatini shakllantirishda folklor qo‘shiqlarining ahamiyati kattadir. Ota – bobolarimizdan bizga meros bo‘lib kelayotgan folklor ijrochilik an’anasi bilim va urf-odatlarga to‘g‘ri amal qilib, uni sayqallab, keyingi avlodga etkazish har birimizning burchimizdir. Milliy qadriyat va an’analarimiz tiklanayotgan bugungi kunlarda xalq ijodiyotini keng ommalashtirish, ma’naviyat sarchashmalarini targ‘ib etish, ya’ni ajdodlar badiiy mulkini xalqqa qaytarish xayrli ishlardan biridir. Kelajak avlod ushbu yangi tafakkur xazinasidan bahramand bo‘lib, asrlar davomida tildan tushmagan folklor san’atini sayqallab, keyingi avlodga to‘laligicha etkazish har bir kishining maqsadi bo‘mog‘i lozimdir. Yurtimizda bunday nomoddiy madaniy meroslarimiz qadrlanishi, muhofaza qilinishi natijasida ularning yashovchanligi ta’minlanadi.

Adabiyotalar:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2017-yil 3-avgust kuni O‘zbekiston ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda so‘zlagan nutqi – Toshkent, www.lex.uz
2. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. - Toshkent. 1986.
3. B.Sayfullayev, S.Yo‘ldosheva, J.Eshonqulov, A.Ashirov, O‘.Toshmatov. “Nomoddiy madaniy meros va folklor ijro san’ati an’analari”. - T. Navro‘z nashriyoti. 2017.
4. Jabborov I. “Yuksak madaniyat va noyob ma’naviyat maskani”.– Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti. – 2012.
5. Sarimsoqov B. “O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi”. – Toshkent. O‘qituvchi nashriyoti. – 1990.
6. 10. Quronboyeva N. Xorazm to ‘y qo‘shiqlari. Filol. fanlari nomz. Diss. avtoref. – Toshkent. 1998. 11-15-betlar.

HAYOTGA MUHABBAT, YASHARISH RAMZI – NAVRO‘Z

Xumora USMANOVA,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti,
“Jahon tillari va adabiyoti”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada uzoq va davomli tariximizdan nishonlanib kelayotgan, Sharq xalqlari, jumladan O‘zbekiston xalqi uchun qadimiy va azaliy bayramlardan biri bo‘lgan Navro‘z haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, Navro‘z ayyomidagi urf-odatlarimizda aks ettirilgan ramzlar haqida fikr bildirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: qadimiy, azaliy, urf-odat, yangi kun, yorug‘lik, baxt, muhabbat, bahor, ramz

Аннотация. В данной статье представлена информасия об одном из древнейших праздников народов Востока, в том числе и народа Узбекистана Навруз, который отмечается в нашей многовековой и продолжительной истории. Также прокомментирован символы, отраженные в наших традициях ден праздника Навруз.

Ключевые слова: древний, с давних времён, традиsия, новый день, свет, счастье, любовь, весна, символ

Annotation. This article provides information about one of the most ancient holidays of the peoples of the East, including the people of Uzbekistan Navruz, which is celebrated in our centuries-old and long history. The symbols reflected in our traditions of Navruz holiday are also commented.

Key words: ancient, tradition, new day, light, happiness, love, spring, symbol

Bahordan boshlanar go‘zallik fasli,
Yilning ilk tongidir olamda asli.
Navro‘zni xush ko‘rgan xush yashar abad,
Baxtga musharrafdir ul inson nasli!

Navro‘z Sharq xalqlari, jumladan, O‘zbekiston xalqi uchun eng qadimiy va azaliy bayramlardan biridir. Bahor fasli va tabiat uyg‘onishining timsoli, yasharish va yangilanish ramzi bo‘lmish bu ayyomni orziqib kutish, baland ruh va katta xursandchilik bilan nishonlash el-yurtimiz uchun oliyjanob an’anaga aylanib qolgan.

Uzoq va davomli tariximizdan ma’lumki, Navro‘z bir kun emas, bir oy mobaynida bayram qilinadi va joylarda odamlar tabiat bilan hamohang bo‘lib, bu ayyom quvonchini ko‘pchilik bilan baham ko‘radi.

Xalqimizning mana shunday bayramlarni har qaysi voha va vodiyning mahalliy iqlim va tabiiy sharoitidan kelib chiqqan holda o‘tkazishi har tomonlama e’tibor va qo‘llab-quvvatlashga munosibdir.

Navro‘z – fors tilida “yangi kun” ma’nosini ifodalab, ulusning ulug‘ kuni, bayram, shamsiya (quyosh) yil hisobida yilning birinchi kuni hamdir. [1]

Navro‘z nomoddiy-madaniy meros namunalaridan biri sifatida xalqaro YUNESKO tashkilotining ro‘yxatidan joy olgan. Xalqimiz tarixi va madniyatining bir bo‘lagi bo‘lgan Navro‘z qadimiy bo‘lishi bilan birga, har yili biz bilan birga yangilanib, anglanib borayotgan ulug‘ va navqiron bir bayramdir.

Qolaversa, O‘rta Osiyo va Sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlarning eng qadimiy an’anaviy bayrami hamdir. Shuningdek har bir Sharq mamlakatlarida Navro‘z bayramini nishonlash o‘ziga xos ramzilikka egadir.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, Navro‘zni nishonlash turkiy xalqlarda eng katta bayramlardan biri hisoblangan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida Navro‘zga bag‘ishlangan ko‘plab xalq qo‘shiqlari keltirilgan. Navro‘z bayrami haqidagi ma’lumotlar Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Umar Hayyomning “Navro‘znoma”si, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa allomalarning asarlarida uchraydi. Umuman olganda, Sharq mamlakatlarida Navro‘z bayramini yangi yilning boshlanishi sifatida yuqori kayfiyatda va o‘zgacha shukuhda kutib olishgan. [2]

Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning “Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida Eron podshohi bo‘lgan Jamshid “yangi kun”ni Navro‘z deb atagani haqida yozib, shunday rivoyatlar keltiradi: “Jamshid o‘ziga arava yasab olgach, o‘sha kuni aravaga chiqib oldi, jinlar va shaytonlar uni havoga ko‘tarib, bir kunda Dunbovanddan Bobilga olib bordilar. Odamlar bu ajoyib voqeani ko‘rgach, o‘sha kunni hayib qildilar va Jamshidning (aravada uchishiga) taqlid qilib arg‘imchoqlarda uchdilar”.

Bu tarixiy asarda yana shunday nodir fikrlar o‘qish mumkin: “Navro‘z kunida bir soat (payt) bor, shu soatda firuz (ya’ni, baxt) falaki ruhlarni maxluqotni yaratishga haydaydi… U kunning eng saodatli soatlari Quyosh soatlaridir. Uning tongida yorug‘lik imkoni boricha (yerga) yaqinlashadi, odamlar unga qarash bilan o‘zlarini baxtli sanaydilar”.

Buyuk bobokalonimiz Mir Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida Navro‘z bayrami haqida shunday bitiklar o‘qiymiz:

Ki bu sur erur olam afro‘z ham,
Xususan erur fasli Navro‘z ham....

Bu bayram qanchalik qadimiy qadriyatlarimizdan biri bo‘lgani haqida taniqli jurnalist Shomuhiddin Mansurov “Siyovush” sarlavhali maqolasida shunday yozadi: “Islom dini xayolda bo‘lmagan, Budda hali “tug‘ilmagan” davrlarda Ko‘histon deb atalgan hozirgi Markaziy Osiyo hududida mavjud bo‘lgan bitiklar – “Bundaxishi”da uning nomi Siyovaxsh, “Avesto”da esa Siyovarshan shaklida keltiriladi”. Muallif bu ma’lumotlar Buxoroning Narshax qishlog‘ida tug‘ilgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik an-Narshaxiyning 943-944 yillarda arab tilida yozilgan “Buxoro tarixi” kitobidan olinganini ta’kidlar ekan, Siyovush bundan to‘rt ming yillar ilgari yashab

o‘tganligini, demak xalqimiz Navro‘zni to‘rt ming yildan buyon nishonlayotganini asoslaydi. “Xalq Siyovushni mangulikka, mangulikni esa Navro‘zga qiyos qiladi,– deb yozadi muallif.–Navro‘z xalq sevgan qahramonlarni mangu yodda qoldirgan bo‘lsa, o‘z navbatida, xalq qahramonlari Navro‘zni mangulikka daxldor bayramga aylantirdilar”.[3,8b]

Navro‘z bayrami bugun hayotga yanglanish, yasharish va muhabbat ramzi sifatida ardoqlanadi. Bahor chechaklarini qanotida olib kelgan Humo qushi misol yurt kezganida olam o‘zgacha munavvar bo‘lganini dildan his etmagan kishi topilmasa kerak.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida ham bu kun haqida keng yoritilgan. YA’ni, Navro‘z bahorning teng kunligi – quyoshning hamal burjiga kirishiga to‘g‘ri keladi. Uni bayram qilish dastlab o‘troq dehqonlarda rasm bo‘lgan, keyinchalik ular orqali yarim o‘troq va ko‘chmanchi turkiy xalqlarning ham urf-odatlariga aylangan.

Navro‘z bayrami butun yurtimizda keng nishonlanishi boqiy an’anaga aylanib qoldi. Navro‘z bayramiga payvasta xalq marosimlari, urf-odat va an’analari milliy tuyg‘ularimizni yanada jo‘sh urdiradi. Navro‘z bayrami kuni shaharu qishloqlarimizda xalq sayilga chiqishini kuzatsangiz dilingiz yayraydi. Shundoq dorilomon kunlarga yetkazgani uchun yaratganga shukronalar aytasiz.

Bugun qaysiki qishloq yoki mahalla ko‘chasiga qadam ranjida qilmang, gulga burkangan dov-daraxtlarni ko‘rib dilingiz yayraydi. Ular ertangi farovonlik, fayzli-barakali hayotdan darak berayotganga o‘xshaydi. Mamlakatimizda barkamol avlod kamolga yetgan sayin orzu daraxtlari ham ulg‘ayib borayotganini his etasiz. Har bir yurtning o‘z urf-odati, an’analari kabi bizning yurtimizda Navro‘zni ko‘k somsa, ko‘k varaqa, ko‘k chuchvara, doshqozonlarda sumalaklarsiz tasavur eta olmaysiz. Navro‘zning ramzi bahor elchisi boychechak keng dalalarda bosh ko‘tarib xoli gilam tushaydi. Boychechak chiqqanligi – qish-qirovli kunlar ortda qolib, ko‘klam yaqinlashganligini anglatadi. (4, 55b)

Navro‘z to‘g‘risida ko‘plab rivoyatlar mavjud. Shulardan biri, bolalik sevib tinglaydigan rivoyatlardan biri Navro‘z amaki hamda Sarmo ona qissasidir.

Navro‘z amaki degan bir keksa kishi bor ekan U har yili bahorning birinchi kunida kigizdan tayyorlangan qalpog‘ini kiyib, soqol-mo‘ylovlarini hinolab, ko‘k rangdagi libosini kiyib, beliga belbog‘ bog‘lab, yelkasiga ipakdan to‘qilgan xurjinini tashlab, qo‘lida hassasini olib va tog‘li yo‘llarni bosib, shahar darvozasi tomon kelardi. Shahar darvozasining tashqi qismida Sovuqlikni ramzi bo‘lgan Sarmo ona nomli kampir yashardi va u Navro‘z amakiga oshiq edi.

Sarmo ona bahorning birinchi kunida erta bilan turib, to‘shaklarni tartibga solib, uyini va hovlisini suv sepib tozalardi. Keyin gilamini bog‘chasiga yaqin bo‘lgan va favvorali hovuzchaning yonidagi ayvon tagida to‘shardi. Uning bog‘chasida ko‘plab daraxtlar va bahoriy gullar mavjud edi. Sarmo ona bir patnosda sin harfi bilan boshlanadigan yettita ne’matni joylashtirardi va boshqa patnosda nabot, shirinlik va boshqa mevalardan bo‘lgan yettita yegulikni qo‘yardi. U uyini tozalaganidan keyin yangi kiyimlar kiyib, o‘ziga pardoz berardi. Qo‘l oyoqlari va sochlariga hino surtib, xushbo‘y atirlarni o‘ziga separdi. Keyin bir burchakda olov yoqib, ispand tutatib, Navro‘z amakini kutardi. U kutish davomida uxlab qolganini sezmay qolardi va uzoq uyquga ketardi. Shu damda Navro‘z amaki yetib kelardi va Sarmo onani uyg‘otishga ko‘ngli bo‘lmasdi. Navro‘z amaki bog‘chadan bahoriy gullarni terib, guldasta qilib, Sarmo ona etagining ustiga qo‘yib, uning yonida o‘tirardi. Olmadan bir dona ko‘tarib, uni ikkiga bo‘lib, yarmini yeb, sharbat ham ichardi. Quyosh kam-kam yuqoriga ko‘tarilganidan keyin Sarmo ona uyg‘onardi. U asta-sekin atrofga qarab, guldastani va yarmi yeyilgan olmani ko‘rib, Navro‘z amaki kelib-ketganidan xabardor bo‘lardi.

Sarmo ona shuncha tayyorgarliklardan keyin Navro‘z amakini ko‘rmay qolganidan va u kelgan vaqtda uxlab qolganidan afsuslanardi. U har kuni borada hasratlashardi va Navro‘z amakini ko‘rish uchun nima qilish va yo qilmaslikni bilmasdi. Boshqalar unga Navro‘z amakini faqat bahorning boshlanishida ko‘rish mumkin ekanligini va kelgusi bahorgacha kutishini aytishadi. Sarmo ona bu gaplarni qabul qiladi. Ammo kelgusi va boshqa bahor fasllarida Sarmo ona Navro‘z amakini ko‘ra oldimi, yo‘qmi, hech kim bilmaydi.

Navro‘z amaki bobidagi mazkur qissada bahorning ramzi hamda Firdavsiyning “Shohnoma”sidagi bosh qahramonlardan biri Zolning shaxsiyatiga ham ishora etilgan. Rustamning otasi Zol Eronning afsonaviy qahramonlaridan hisoblanadi.

Zol tug‘ilgan vaqtida ham oq sochlarga ega bo‘lgan. Shu sababdan ham Navro‘z amaki keksa bir kishi sifatida gavdalanadi. Uning soch va soqollari oppoq nazarga tashlanadi Oq rangi esa zamon ramzi bo‘lib, hech vaqt oradan ketmaydi va yangilanaveradi. Sarmo ona Navro‘z amakining oshig‘i bo‘lib, uning diydoriga mushtoqdir. U faqat bir yilda bir marta eski yilning oxirgi kechasida Navro‘z amakini ko‘rishi mumkin. Navro‘z kelishi bilan qish ramzi bo‘lgan Sarmo onaning umri oxiriga yetadi. Ular bir-birlari bilan uchrashishsa, Sarmo ona vafot etadi. Ammo bu qissada Sarmo ona o‘lmaydi, balki uyquga ketadi. Navro‘z amaki

u kelib, Sarmo onani uyg‘otmasdan o‘zidan ayrim belgilarni qo‘yib ketadi. Zero u hayotning davom etishini xohlaydi.

Qarang-ki bu ikki qahramoning uchrashuvi qishning oxirga yetgani va yangi fasl-bahorning boshlanishini anglatadi.

Turkiy davlatlarning turli hududlarida Navro‘z ayyomini turli ramziy urf-odatlar bilan nishonlashadi [5].

Ozarbayjonliklar tomonidan Navro‘z besh kun davomida bayram qilinadi. An’analarga ko‘ra shu kunlari mamlakatning turli hududlarida gulxanlar yoqilib, turli xil shirinliklar-*shakerbura, badambura, pahlava*, *gogal* tayyorlanadi, tuxumlar bo‘yalib, *xonchu*, ya’ni patnisga shirinliklar terilib yasatiladi. Paxlava osmondagi yulduzlarning yerdagi ramzi bo‘lsa, uning 9 ta yoki 12 ta qati Yerni o‘rab turgan havo qatlamlarini anglatadi.

Shakerbura Oyning, *gogal* esa Quyoshning ramzidir.

Bayram dasturxonida yuqorida tilga olingan shirinliklardan tashqari albatta mehmonlarga palov tortiladi. Qadimda albatta dasturxonga ichi mayiz va yong‘oq bilan to‘ldirilib, pishirilgan baliq qo‘yilgan. An’anaga ko‘ra dasturxonda nomi “s” harfi bilan boshlangan 7 ta elementni o‘z ichiga olgan taomlar bo‘lishi shartdir. Bular sumax – ziravor, syud – sut, sirke – sirka, semeni – undirilgan bo‘g‘doy, sabzi – ko‘kat va boshqalar). Bundan tashqari dasturxonni oyna, yoqilgan shamlar va bo‘yalgan tuxumlar bezaydi. Shuni ham aytish joyiz-ki, Navro‘zda mol so‘yish, jonivorlarni o‘ldirish yilning qiyin kelishiga olib kelar ekan. [6, 15b]

Navro‘z bayrami kunlari hamma bir-birini shirinliklar bilan siylab, Yangi yilda baxt va saodat tilashadi.

Xulosa qilib aytganda, navro‘z ota-bobolarimizdan qolgan meros, urf-odat.

Navro‘z – sulh, totuvlik ramzidir.

Navro‘z – bu mehr-muhabbat, oqibat, o‘zlik va qadriyatlarni anglashdir.

Navro‘z – bu yasharish, poklanish, uyg‘onish va yaxshilik olami.

Navro‘z – bu qutlug‘ kalom, muqaddas so‘z!

Albatta Navro‘z bayrami turli mamlakatlarda o‘ziga xos ravishda nishonlansada, uning asosida bir narsa- tinchlik, totuvlik va birdamlikka intilish yotadi. Yurtimizda har faslimiz Navro‘z bo‘lsin.

Adabiyotlar:

1. qomus.info > n harfi > navro‘z.
2. http://uza.uz/posts/248853

3. Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari. -T.: “Sharq”, 2002. 8-bet.
4. Jo‘rayev M. Navro‘z qo‘shiqlari. -T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. 55-bet
5. Bahor navosi, mart 27, 2018, 16:08 Asia/Tashkent, ParsToday.com/uz
6. Qosimova N. Navro‘z ramzlari. -T.: “Sharq”, 2019. 15-bet

NAVRO‘Z UMUMXALQ BAYRAMI

Kursiya ESONOVA,
O‘zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrasi o‘qituvchisi

O‘zbek xalqi o‘zining odatlari, udumlarining turli tumanligi, to‘ylarining ko‘pligi bn boshqa xalqlardan alohida ajralib turadi. Navro‘z, ya’ni O‘zbekistonda yangi yil 21-martda kirib keladi. Ana shu kun Yangi kun!, ya’ni Navi ro‘z degan so‘zdan kelib chiqqan holda Navro‘z deb atalib kelingan. Aynan shu Navro‘z kunini bir necha kunlab bayram qilishadi. Har bir qishloq, harbir tuman, har bir viloyat alohida katta tayyorgarliklar bilan bayram saylgohlariga tashrif buyurishadi. Insonlarning, ayniqsa yoshlarning xursandchiligiga, jo‘shqinliga, shijoatiga shijoat qo‘shayatgan bu kunga qarab rohatlanasan.

Bir tomonda yosh yigitlar o‘zlari bn oldindan har xil bo‘yoqlarga ranglab pishirib yeyelgan tovuq tuxumlarini, kimning tuxumi mustahkam deya urishtirayatgan, tuxumi singanning tuxumlarini o‘ziga olib tuxum ko‘paytirish bilan mashg‘ul bo‘lsa,yana bir boshqa tomonda qizlar dalalardan terib kelgan moychechak,binafsha gullaridan, tol bargaklardan sochlariga gulchambarlar yasash bilan ovvoradurlar.

Yana bir tomonda ayollaru qizlar ikki hafta oldinundirishga qo‘ygan bug‘doylarini sumalak tayyorlash uchun,u yoqdan bu yoqqa yelib yugurib, birovi muyassarovkadan o‘tkazayatgan,birovi suv olib kelib unga solayatgan,birovi birinchi suvini siqib olayatgan,yana qaysi biridir un elayatgan. Men bosh bo‘laman deya ko‘kragiga fartuklarni taqib qozonga yog‘ni solayatgan bosh bo‘layatgan kimdir.Yana biri men kachigarman deya qozonni tegiga olov yoqayatgan;

- Hoy kelinglaruuu olov qozonni, yog‘ni qizdirvormasdan sumalakni bug‘doyning suvini, unini solayliye, birgalashib uqalashivoringlaru- deya yoniga

chorlayatgan; Yana kimdir sumalak Bismillahdan boshlanadi deya Qur’on suralarini tushiryatgan.

Yana bir tomonda qizchalar o‘zining o‘rgangan besh tosh, kataklar ustidan bir oyoqda yiqilmasdan,nechta yerga chizilgan katakni sakrab marrasiga yetish o‘yinlarini o‘ynayatgan; Yana bir tomonda o‘g‘il bolalar lanka tepayatgan,kimlardir oq terakmu ko‘k terak-bizdan sizga kim kerak deya qichqirib o‘zini iltifotga chorlayatgan yoshlar; Dalaning yana bir go‘shasida yigitlaru,erkaklar qiy chuv qilishib,kezi kelganda hayqirishib ko‘vori o‘yini, ya’ni otlar ishtirokidagi uloqni ob qochish, uni qo‘lga kiritish va katta katta sovrinlar,yutuqlar egasi bo‘lish uchun harakmt qilayatganlar.Ularning yana bir tomonida kurash tushayatgan shoovvoz yigitlaru,qo‘chqor,xo‘roz urishtirayatgan o‘z ishining ustalari;

NAVRO‘Z bayrami bo‘layatgan markazning bir tomonini katta katta doshqozonlari ila ovqat pishirgani kelgan oshpazlar.Bir kun oldin molu qo‘ylarni so‘yib,marinovkalar qilib olib kelib “HALIM”, “SHASHLIK”, “OSH”, “SHO‘RVALAR”, “QOZON KABOBLAR” pishirilayatgan bo‘lsa, bayram dasturxonida esa "Tandir go‘shtiyu" ko‘k somsalar, qovurilgan ko‘k chuchvaralar, non, patir, qatlamalar-u sumalaklargacha muhayo qilib tortilgan.

Odamlarni bayramga chorlovchi karnay-surnay sadolari esa yetti mahallagacha eshitiladi. Bayram bo‘ladigan hududga ikki kilometr naridan yo‘llar mashinalar bilan to‘silgan. Barcha bayramga boruvchilar, ataylab olgan yangi harir liboslarida yo‘lga tushgan bo‘lsalar,ko‘zni yashnatuvchi, quvnatuvchi atlas libosli qizlarning shodon kulgilari yigitchalarning xayolini o‘g‘irlaydigan kayfiyatdagi bir bebaho bayram shukuxidan hamma birdek bahramand bo‘ladi.

Bu o‘zbegimning Navro‘z kuni Navro‘z bayramidir. Qanday ko‘zlaringiz yashnab,dimog‘ingizga bahor hidi urilib,ovqatlarning ta’rifi qorningizni ochirib, qizlarning qiy chuviyu,yigitlarning hayqirig‘ini eshitgandek bo‘lib,uzoqlarda bo‘lsangiz bir yutinib entikib qo‘yapsizmi.

Shoshiling O‘zbekistonga! Bu hali boshlanishi!

Shu o‘rinda 2017-yil yurtim ta’riflab bir she’r bitgan edim shuni e’tiboringizga havola qilaman:-

.... Otamning yurti?!

Qursiya E. so‘zi.

Demak davom etamiz: -Endi bayramga kelganlar qatta sahna tomon yursangiz,yo‘l yo‘lakay, Dorbozlarning 30 metr yuqorilikda ip ustida o‘z mahoratini ko‘rsatayatgan 3 yoshli qizchasining baland dor ustida,goh yurib goh

yugurib pildirab har xil harakatlar qilayatgani sizni hayolingizni o‘g‘irlamay, e’tiboringizni olmay qo‘ymaydi.

Pastda sal nariroqda o‘zining dang‘ur dung‘ur doirayu do‘mralari bn oyoqlariga baland yog‘ochlani kiyvolib, aylana harakatlarda sakrab,she’ru so‘zlar bn sizni o‘ziga rom qiladi.

Sahnadagi sozanda-yu xonandalar, raqqosa-yu suxandonlar, shoirlar-u aktyorlar bosh rejissyor boshchiligida bitta bittalab o‘z mahoratlarini namoyon etib sizni "LOL" qilishga harakat qilishadi.

Shu sahna konsertini bir oz tomosha qilingu,kelayatganingizdagi qo‘radan chiqayatgan kabob shashlikning tutuni dumog‘ingizni qitiqlab bayram dasturxoniga tashrif buyuring.

Navro‘z.
Ramz Bobojon. She’ri
Kursiya Esonova mus.va ijrosi.
Navro‘zi olam keldi.
Suvlarning rangi malla.
Dalayu, dasht, bog‘i rog‘,
bag‘rida yana yalla!

Oh yalla yalla,yalla yalla.
Yalla aytaylik yalla.
Jo‘r bo‘ling dugonalar,
Ot o‘ynatib yigitlar
maydonga kirgan palla!

Ot o‘ynatib sovrinni,
Kim oladi maydonda.
Sovrin sevgi tuxfasi,
Qolmang deymiz armonda.

Yallamizdan yarq etsin,
Yigitlar peshonasi.
Kelavering jon qizlaroo
Bugun navro‘zdir navro‘z!
Maqolaning davomi bor...

Barcha viloyat tadbirkoru, rahbaru, xonanda-yu, raqqosa, sozandalari, o‘z rejissyorlari ila respublika poytaxti Toshkentga qarab yo‘l olishadi.

Har bir viloyatning o‘z odati,o‘z udumi,o‘z qo‘shig‘iyu,o‘z usuli bor.
Har bir viloyatning kiyimlari boshqa viloyatning kiyimidan ham farqlanib ajralib turadi.

Masalanan, Andijon viloyati o‘zining, sahnabop shedevri"Andijon polka"-si bn dunyoga tanilgan bo‘lsa;

Buxoro viloyati, o‘zining zarbop to‘niyu,zarli pastki kiyimiyu, zardan peshonabandi bn, Mavrigi qo‘shiqlari,o‘zbek tojik tilidagi ko‘p qismli qo‘shiqlari bn dunyoga mashhurdir.

Buxorodagi doyra usuli boshqa viloyatlarning doyra usulidan,ajralib turadi.

Xorazm viloyatining cho‘girmasi(erkaklar bosh kiyimi), taxya popagi(ayol san’atkorlarining bosh kiyimi),hamda pobeda ro‘moli boshqa viloyatlarning kastyumidan keskin farqlanadi. Dunyo kezgan yuneskoda yuqori o‘rinlarni egallagan "Lazgi!"-kuyi,qo‘shig‘i esa sahnaning doimiy ko‘rki bo‘lib keladi.

Respublika sahnasida konsert qilayatgan rejissyordan tortib toki prizidentning madaniyat sohasidagi ishongan rahbarlari ham bu Umumxalq Navro‘z bayramini katta tayyorgarliklar bilan kutishadi. Har bir viloyatning urf-odatlari, udumlari qo‘shig‘u, yor yorlari, kelin salomilari, kiyimlari bir-birini takrorlamaydi. Shu maqsadda katta bayram konserti baxonasida milliy, falklyor, xalq, baxshichilik qo‘shiqlaru odatlarimiz yildan yilga yosh avlodlarimiz, zurriyodlarimizga yoddan chiqmasligi uchun xizmat qiladi.
Tilimiz,dinimiz,urf odatlarimiz yo‘qolmasligi uchun, hamma o‘z hissasini baholi qudrat qo‘shib boradi.

O‘zbekiston yurtimiz doimo o‘z hurmatida yer yuzida ardoqli bo‘lib yashayversin!

Hurmat bn O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Kursiya Esanova.
Otam yurti!
(Otasi shu yurtda tug‘ilganu, ma’lum sabablar bilan chet ellarga ketib, qolib ketgan yurtdoshimizning, yurtimizga mehmon bo‘lib kelgan o‘g‘li nomidan to‘qima, nazm yozdim.)

O‘zbekiston yurtida men
tug‘ilmaganman.
Xorij yurtda hech kimdan

kam ham bo‘lmaganman.
Otajonim qo‘msaganda
O‘zbekistonni,
"Nega buncha qo‘msaysiza?"-
deb so‘rmaganman.

Bir keldimu, halovatim tinchim yo‘qoldi,
Mazza deya yashaganim,
qaylarda qoldi?
"Borganga ming armon derlar,
Bormaganga bir!"
Bunday e’zoz ko‘rmaganim,
bilinib qoldi.

Ajab-dedim, o‘zga yurtlik
bunda xor o‘lmas!
Shirin so‘z ko‘p,do‘st ko‘p aslo
"unga" zor o‘lmas!
O‘ziga bek o‘zbeklari
mehmonga chorlar,
Namangonu - yurtin kezsang,
armoning bo‘lmas!

Borsang : - Keling! - deya turar,
sho‘rvani qaynatib.
Yesang-oling-deya turar,oshni damlatib.
Mevalarin mazzasi ham og‘zimda qoldi,
Andijonni "Askiya!"si dilni avratib.

Tog‘laridan jannatlarning hidi keladi,
Mevazorlar ichlaridan sabo yeladi
Shar-sharayu, buloqlari "sterillangan!"
Lolazorlarin ichinda yotging keladi!

Bu yurtning bir qizin ko‘rib o‘zim yo‘qotdim,
Paytin poylab yigitchilik,

so‘zlardan otdim,
Shirin tabassumin qilib, nozlanib boqib,
Devona deb qochib ketdi joyimda qotdim.

Yurtlar kezib “Yetti pirlik!”-
yurt ko‘rmaganman,
Buxoriyu, Sino haqda
heyech so‘rmaganman.
Samarqandu, Shahrisabz tillarda doston,
Xorazmning qo‘shiqlarin xo‘p
tinglaganman.

Jizzaxchasiga tandir go‘shtlar
pishirar bunda.
Sahar turib, ming kishiga osh berar shunda.
Karnaylaru-surnaylatar
qo‘shiq-kuy avjda!
To‘yu-bazm davom etar,
kunduzu-tunda!

Ziyo berib Islom ishin
Shavkat qo‘llaydi!
Beshta farzning birin bo‘lgan
HAJ ga yo‘llaydi!
Masjidlaru-qabristonlar,
obotdir bunda,
Ajdodlarin ruhi bunda hech xor bo‘lmaydi!

Toshkent poytaxtini ko‘ring,
Serkvlar ham bor.
Qo‘ng‘iroqlari jarangdor,
kelguvchi bisyor.
Iso Alayxissalomni
yodlab kirganlar,
Hamma shart-sharoit bunda
doimo tayyor.

Lek O‘z xalqi doim tili
Kalomulloxda!
Muhammad Mustafo deya
dili Ollohda!
Kursi-yu, besh vaqt namozin
kanda qilmaydi,
Hamdu-sano-yu, salovat La Illollohda!

Millatlaru-elat barcha
jamuljam bunda.
Posbonlari qo‘riqlashar,
kunduzu-tunda!
Bayramlaru-to‘ylarini
bir ko‘rib keting,
Qo‘msaysizu yana qaytib kelasiz shunda!!!

“YANGI O‘ZBEKISTON” TARAQQIYOTIDA O‘ZBEK XALQ MILLIY AN’ANALARINING AHAMIYATI

Kamola TASHMATOVA,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Madaniyat va san’at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish kafedrasi
o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nomoddiy madaniy merosning va u bilan bog‘liq milliy an’analarning ahamiyati yoritilgan. Maqolada ko‘plab tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqotlaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar. Milliy madaniyat, nomoddiy madaniy meros, Konvensiya, Davlat dasturi, YUNESKO, urf-odat, marosim, bayram.

Аннотация. В данной стате подчеркивается важност нематериалного культурного наследия и связанних с ним нasионалних традитсий. В стате исползовани исследования многих исследовательей.

Ключевие слова: Национальная культура, нематериальное культурное наследие, Конвенция, Государственная программа, ЮНЕСКО, обичаи, обряди, праздники.

Annotation. This article emphasizes the importance of intangible cultural heritage and national traditions associated with it. The article uses the research of many researchers.

Key words: National culture, intangible cultural heritage, Convention, State program, UNESCO, customs, rituals, holidays.

Jahon amaliyotida “Insoniyatning yashovchi (tirik) durdonalari” Dasturi asosida mavjud nomoddiy madaniy meros muhofazasi bo‘yicha keskin, qat’iy choralar ko‘rish, aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Buning natijasida YUNESKO bosh Konferensiyasining 2001-yilda bo‘lib o‘tgan 3 sessiyasi qarori bilan yangi xalqaro normativ mexanizm vazifasini o‘tovchi Konvensiya yaratildi. 2003-yilda YUNESKOning nomoddiy madaniy merosi to‘g‘risidagi konvensiyasida o‘zlikni namoyon qilishning og‘zaki an’ana va shakllari, ijrochilik san’ati, urf-odat, marosimlar va bayram tadbirlari, tabiat va koinotga oid bilim va amaliyot va an’anaviy hunarmandchilik bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar kabi nomoddiy madaniy merosning beshta keng doirasini taklif qilish zarurati paydo bo‘ldi. Jahon miqyosida nomoddiy madaniy merosning zarurati va ahamiyatini 2003-yilda qabul qilingan xalqaro konferensiya bilan izohlash mumkin. Mazkur Konvensiyaga muvofiq nomoddiy madaniy meros beshta sohada namoyon bo‘ladi. Bu sohalar bo‘yicha tizimli ishlar olib borish va amaliy natijalarini tadbiq yetish maqsadida Respublikamizda qator hujjatlar qabul qilinmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni, 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi “2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 222-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moddiy madaniy meros obektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 19-

dekabrdagi PQ-4068-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniy meros departamenti tashkil etildi.

O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosning beshta yo‘nalishi bo‘yicha NMMga oid muammolar 5 ta yo‘nalish jihatdan o‘rganib chiqildi. Tadqiqotchilar so‘ngi yillarda mazkur masala yuzasidan qator ishlar olib borishgan. Shu o‘rinda F.Rahmonov, B.Shodiyev, N.Safarova, S.Ollaberganova, M.Jo‘rayev, S.Jumayeva, B.Suvankulov S.Mirzayeva, K.Qodirov, M.Rahmonova, K Qodirovlarning tadqiqotlari O‘zbekiston hududida shakllangan nomoddiy madaniy meros, uning tarixiy ijtimoiy ildizlari, milliy merosimiz rivojida tutgan o‘rni izchil tahlil etilgan.

Nomoddiy madaniy merosning og‘zaki shakllaridan biri bu – mifdir. Miflar ko‘p jihatdan afsonalar bilan bog‘liq bo‘lib, ayni paytda mustaqil janrdir. Bu janrning ilk elelmentlari albatta ibtidoiy davrga borib taqaladi. Shuningdek miflar haqida ma’lumot beruvchi birinchi manbaa Zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto” dir. “Avesto”da hozirgacha saqlanib an’anaviy tarzda qo‘llanilladigan mifologik obrazlar dev, pari, Semurg‘, aranglar, eranglar, Ashshaddarozi, Qorasoch ona, Haydar, Axriman, Siyovush, Hubbi, Jo‘mand, Ahman-Dahman, Ayamajuz, Xezim-xirmon, Gavomard, Jamshid, Bavoris bobo, Faridun, Gulli bibi, Qari olov xo‘ja, O‘tar, Xorut bilan Morut, Xurmuz, Zahhok, Sust xotin kabilarning asosi ekanligi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ana shu mifologik obrazlar asosida turli afsonalar yaratilgan. Ertak tushunchasi turli viloyatlarda turlicha nomda ishlatiladi. Xususan, Surxandaryo, Samarqand, Farg‘onada matal, Buxoroda ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkentda cho‘pchak nomlari ertak termini bilan birgalikda ishlatiladi. Bu termin Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “etuk” tarzida uchraydi. A. Navoiyda esa cho‘rchak shaklida qo‘llanilgan. Ertaklar shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklarga bo‘linadi.

Bolalar o‘yinlarini o‘rganish, tadbiq etish va to‘plash turkiy xalqlar adabiyoti, folklori, etnografiyasi va tarixi bilan shug‘ullanuvchi olimlarning diqqat markazida turgan. O‘zbek bolalar o‘yin folklori materiallarini to‘plash va o‘rganish tarixini SH. Galiyev quyidagi uch bosqichda tadqiq etishni taklif etadi:

I. XX asrdan - XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davr.

II. XIX asrning oxiri - XX asrning 30-yillarigacha bo‘lgan davr.

III. XX asrning 30-yillaridan keyingi davr.

Tadqiqotchi N. Safarova o‘zbek bolalar o‘yin folklorining ijtimoiy, fiziologik, estetik ahamiyatlariga alohida to‘xtalib o‘tadi. Shuningdek o‘yinlarning

fiziologik jismoniy tarbiyalash vazifasiga ahamiyat berib: “O‘yinlarning eng muhim va asosiy xizmati ularning bolalarni fiziologik- jismoniy tarbiyalash vazifasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xuddi shu vazifasi sportning kelib chiqishi va taraqqiy topishi uchun zamin tayyorlagan. O‘yinlar bolaning o‘z harakatini aql bilan boshqarishga imkon beradi. O‘yin vositasida bolalarning harakati oshadi, kuchi ortadi, tana a’zolari to‘g‘ri rivojlanadi va hokazo.”

F.Sh.Rahmonovning Qashqadaryo vohasi aholisining ziroatchilikka oid urf-odatlari va marosimlari (XIX asrning oxiri XX asrning boshlari) mavzusidagi tadqiqot ishida Qashqadaryo vohasining ekin ekish bilan bog‘liq urf-odat va marosimlari, hosilni yig‘ib olish bilan bog‘liq udum va marosimlarini tahlil etgan. Ekin ekish bilan bog‘liq marosimlar asosan Bobodehqon yoki Dehqonbobo kulti bilan bog‘liq. “… Bobodehqon halol mehnat bilan kun ko‘ruvchi, boshqalar haqidan hazar qiluvchi dehqonlarga homiylik qiluvchi, ularning mehnat unumiga unum qo‘shuvchi pir hisoblangan.” Qo‘sh chiqarish va ekin ekish bilan bog‘liq rasm-rusmlar qatoriga shudgor oldidan “is chiqarish”, dalaga qo‘sh chiqarish oldidan “shoxmoylar”, qurg‘oqchilik va yomg‘ir yog‘dirish bilan bog‘liq udumlarga “Sust xotin”, “Sut xotin”, “Suv xotin”, “Chala xotin” nomlari bilan ataluvchi marosimlar o‘tkazilgan.

M. Jo‘rayev o‘z tadqiqotlarida xalqimizning samoviy qarashlari va afsonlarini ilk bor izchil to‘plab, qiyosiy-tahliliy hamda qiyosiy - tipologik jihatdan tadqiq etgan, samoviy jismlar oy, quyosh, Yetagan, Temir qoziq, Oqbo‘zot va Ko‘kbo‘zot, Zuhra, Hulkar, Somon yo‘li kabi osmon jismlari xususidagi samoviy afsonlarning syujetining yetakchi motivlari va obrazlar sistemasining tarixiy asoslari yoritib, oy va quyosh tutilishi, kamalak, yulduz uchishi, momaqaldiroq, chaqmoq, quyun singari tabiat hodisalari to‘g‘risidagi xalq qarashlarining samoviy mifologiyaga aloqador ko‘hna ildizlari aniqlangan va ananaviy vaqt hisobining chilla, Ayamajuz, ahman-dahman, hezim-xirmon, naxsi navro‘z, obi rahmat kabi davrlari bilan bog‘liq mifologik tasavvurlarni o‘zida mujassamlashtirgan o‘zbek xalq taqvimiy afsonalar sistemasining o‘rganilganligi bilan ahamiyatlidir.

Jahon tajribalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning nomoddiy madaniy merosdan foydalangan holda asosiy fanlarni o‘qitish o‘quv jarayonini yanada dolzarb qilishi mumkin, chunki bu sinflarda o‘qitiladigan fanlar va bolalarning kundalik hayoti o‘rtasida yaxshi aloqalar yaratadi. Shuningdek, bu maktablar, oilalar va jamoalar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirishi, o‘quvchilar, ularning ota-onalari va bobolari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashi, o‘quvchilarning

qiziqishini uyg‘otishi va nomoddiy madaniy merosni saqlashga yordam berishi mumkin –bularning barchasi o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali holga keltiradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni

2. 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi “2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 222-son qarori

4. Rahmonov F. Qashqadaryo vohasi aholisining ziroatchilikka oid urf-odat va marosimlari(XIX asrning oxiri XX asr boshlari): Diss. ... t.f.n. -T.:2002. 191 b;

5. Shodiyev B. Navro‘z tarixi, tiklanishi va taraqqiyot muammolari: Diss. ... san.f.n. -T.:1999. 154 b;

6. Safarova N. O‘zbek bolalar o‘yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari: Diss. ... fil.f.n. -T.: 2005; Ollaberganova S. Xalfalar ijodining o‘zbek folkloridagi o‘rni: Diss. ... -T.:2007. 135 b; Jo‘rayev M. O‘zbek xalq samoviy afsonalarining tarixiy asoslari: Diss. ... fil.f.n. -T.: 1996.

7. Jumayeva S. Hayvonlar haqidagi ertaklarning genetik asoslari va spestifikasi: Diss. ... fil.f.n. -T.:1996. 154 b;

8. Suvankulov B. O‘zbek xalq latifalarining janr xususiyatlari va badiyati: Diss. ... fil.f.n. -T.: 2007. Mirzayeva S. O‘zbek xalq romantik dostonlarining poetikasi: Diss. ... fil.f.n. -T.: 2004. 256 b; Rahmonova M. O‘zbek xalq tarixiy afsonalarining o‘ziga xos xususiyatlari, genezisi va tasnifi: Diss. ... fil.f.n.-T.:2004. 143 b; , Qodirov K. O‘zbek sehirli ertaklarida zamon va makon talqini: Diss. ... fil.f.n. -T.: 2004.

9. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq poetik ijodi. -Toshkent: O‘qituvchi, 1990. - B 187-191.

10. Safarova N. O‘zbek bolalar oyin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari: Dis…fil.f.n. – Toshkent: O‘z Res FA A.Navoiy nomidagi til va adabiyot ins, 2005, - B 37-38.

“BOYCHECHAK”KA QAYTIB…

Tamara XAITBOYEVA,
Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti
4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada “Boychechak” marosim qo‘shig‘imi yoki mavsumiy qo‘shiq ekanligi oydinlashtirilgan. Xalq og‘zaki ijodining muhim xususiyatlariga e’tibor berilgan holda qo‘shiq matni sharhlashga harakat qilingan.

Аннотация. В статье уточняется, является ли “Boychechak” ритуальной песней или сезонной песней. Была предпринята попытка трактовки песенного текста с акцентом на существенные особенности устного народного творчества.

Annotation. the article clarifies that “Boychechak” is a ritual song or a seasonal song. It was tried to interpret the text of the song, paying attention to the important features of folk oral creativity.

Kalit so‘zlar: marosim qo‘shig‘i, mavsumiy qo‘shiq, xalq, boychechak, bolalar.

Ключевые слова: обрядовая песня, сезонная песня, народ, подснежник, дети.

Key words: ceremonial song, seasonal song, folk, snowdrop, children.

O‘zbek xalqi azal-azaldan she’riyatga, musiqaga, raqsga va o‘zi, umuman, san’atga oshno bo‘lib kelgan va bora-bora xalq tomonidan takomillashib, boyitilib borilgan. Shu o‘rinda aytish joizki, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi asrlar oshgan, sayqallangan va jozibadorligini hali-hanuz saqlab kelayotgan mustahkam ildizli ma’naviy va madaniy merosimiz hisoblanadi. Bugungi kungacha xalqimiz tomonidan aytiladigan “To‘maris”, “Shiroq” singari afsonalar, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino singari bobolarimiz haqidagi rivoyatlar, “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish”, “Ravshan” kabi dostonlar va xilma-xil qo‘shiqlar bunga misol bo‘la oladi. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodiga mansub qo‘shiqlar, o‘zining ohangdorligi, o‘ynoqiligi yoki matnlardagi ba’zi ramziy belgilarga egaligi bilan maftun qilibgina qolmay, balki insonlarning ichki ruhiy holati, kechinmalari, inja tuyg‘ularini ham akslantiradi. “Xalq og‘zaki ijodining asosiy janrlaridan biri bo‘lgan qo‘shiqlarda xalq hayoti, axloqiy normalari, insonning ichki kechinmalari, orzu-umidlari, o‘ziga xos san’atkorlik bilan, sodda va lo‘nda, ayni paytda yuksak badiiylik bilan

ifodalanganligini ko‘ramiz”[8]. Bu fikrimizga misol tariqasida, “Alla” (ona o‘z tuyg‘ularini, iztiroblari-yu kelajakka bo‘lgan umidini qo‘shiq ruhiga singdiradi), “Maydalar”, “Xo‘p maydalar” (tinim bilmay mehnat qilgan dehqonning olgan hosilidan quvonchi, ertangi kunga ishonchi jo bo‘lgan), “Boychechak”, “Chittigul” singari bolalar tilidan aytiladigan qo‘shiqlarni ayta olamiz.

“Bolalar qo‘shiqlarida biror jiddiy ramzlar yoxud chuqur dard-iztiroblar ifodalangan bo‘lishi mumkinmi?”,- degan savol oldimizda ko‘ndalang bo‘ladi. Bu savolga javob berishimizdan oldin, Ma’mura Zohidovaning “Boychechak bahor qo‘shig‘i…mi” maqolasidagi ayrim fikrlarni ko‘rib o‘tsak. M.Zohidova mazkur maqolasida, avvalo, “Boychechak” qo‘shig‘ining darsliklarda va ijtimoiy sahifalarda bahor qo‘shig‘i sifatida talqin etilganligiga to‘xtalib o‘tadi. Olimaning topilmalaridan biri esa mazkur qo‘shiqni marosim qo‘shig‘i sirasiga kirishi haqidagi keltirgan dalillaridir. Namangan viloyati, Chust tumani, G‘ova qishlog‘ida istiqomat qilgan Ergasheva Ravzajon va Niyozbadalova Rizvonbonularning “Boychechak” qo‘shig‘ini bolalarni beshikka ilk bora solayotganlarida aytiladigan marosim qo‘shig‘i sifatida ijro qilishganiga guvoh bo‘lishganini ma’lumot sifatida keltirib o‘tadi. Shu fikrlarga asoslangan holda, M.Zohidova “Boychechak” qo‘shig‘ini sharhlashga harakat qilgan. Olimaning fikricha, boychechakning qatalab chiqishi insonning dunyoga kelishi, boylanishi esa chaqaloqning beshikda qo‘l-oyoqlarining bog‘lanishiga ishora bor. Olima xuddi shu yo‘sinda qolgan misralarni ham bolani beshikka solish jarayonidagi xatti-harakatlarga bog‘laydi. Maqola yakunida esa M.Zohidova: “Agar “Boychechak” qo‘shig‘ini bahorda kuylangan qo‘shiq debgina qaralsa, shuningdek, darsliklarda ham shunday izohlab o‘tilsa, bu betakror qo‘shiq so‘zlarining ta'siri susayadi, jozibasi xiralashadi. Farzandlarimiz xalqimizning yaratgan insonga bergan oliy inoyat - qudratli so‘zga tayanib, ijtimoiy va tarixiy ahamiyat kasb eta oladigan, naqadar go‘zal asarlar yaratganini bilmog‘i, xalq qo‘shiqlarida xalqning amaliy faoliyati, yashash tarzi, pokiza orzu-umidlari, umuman olganda, inson ruhiyatining nozik kechinmalari ustalik bilan aks ettirganini anglamog‘i lozim,”- degan jumalarni aytib o‘tadi va aynan mana shu jumla bizning e’tiborimizni tortdi. Olima ushbu so‘nggi so‘zlari bilan go‘yo o‘z qarashlariga qarshi fikr aytgandek. Chunki biz tepada keltirilgan fikrlarga asoslangan holda “Boychechak” qo‘shig‘ining boshqa yana bir ramziy ma’nolarini ham sharhlab berishga harakat qilamiz va savollarimizga javob qidiramiz.

[8]Masharipova Z.,“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”, T.,2008. 64-bet

Biz ham ushbu qo‘shiqning to‘liq matnini keltirib o‘tsak.

Boychechak

Boychechagim boylandi,
Qozon to‘la ayrondi.
Ayroningdan bermasang
Qozon-tovog’ing vayrondi.

Naqarot:
Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak.
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Boychechakni tutdilar,
Tut yog’ochga osdilar.
Qilich bilan chopdilar
Baxmal bilan yopdilar.
Naqarot:
Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Boychechagim hulloli ,
Hamyon-hamyon tilloli,
Hamma bozor - bir bozor,
Atroflari lolazor.
Naqarot:
Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak[9].

M.Zohidova ham, boshqa tadqiqotchi olimlar ham xalq qo‘shiqlari xalqning dard-armonlari, ichki kechinmalari, hissiyotlari va orzu-umidlarini ifodalashi haqida aytib o‘tganlar. Biz, aynan, mana shu jihatdan mazkur qo‘shiqni o‘rganamiz. Bizning fikrimizcha, boychechak xalq uchun kurashgan, unga jonini fido qilgan, o‘tmishdagi mard, jasur inson obrazidir. Qo‘shiqning bahorda kuylanishida ham ramziy ma’no bor. Biz bilamizki, bahor xalqimiz uchun qadim-qadimdan omonlik ramzi hisoblangan. Og‘ir va rutubatli qish oylari ko‘plab insonlarning umriga zomin bo‘lgan yoki mushkul ahvollarga solib qo‘ygan. Misol

[9]Mansurov A., Karimova D.Musiqa. 5-sinf uchun darslik.-T.: “G‘.G‘ulom”, 2001-yil, 20-bet.

tariqasida, Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” asarida eslasangiz, Abdulla Qahhorning opa-singillari, aka-ukalari qish oyida sovuqdan, turli kasalliklardan vafot etadi. Aynan, qish oyiga kelib xalq hayoti og‘irlashadi. Bahor esa o‘zining iliq tafti bilan quvontiribgina qolmay, balki dehqonlarning dalaga chiqishiga imkon beruvchi va hosil yetishtirib, omon qolishga harakat qilishiga undovchi bir omildir. Shu sababli, hali-hanuz xalqimiz bahorni yangilanish, yasharish, tiriklik belgisi sifatida qarashadi. Endi bahor razmining ma’nosiga qaraylik, u mazkur qo‘shiqda xalq hayotiga qayg‘urgan insondek jonlanadi. Xalqnining og‘ir turmush-tarzi, yuqori tabaqaning turli xo‘rliklari va tahqirlashlari hamma davrlarda uchratish mumkin. Ya’ni ezilgan xalq uchun kurashgan inson, ommaning rutubatli hayotiga bahor – yaxshi kunlar, go‘zal kelajakdan boychechak (bahordagi ilk ochiladigan, ammo nozik,latif) guli singari ochiladi(kirib keladi). Qiyin, og‘ir kunlardan keyin baxtli kunlar kelishidan bir nishona, umid beradi. Aynan, boychechak guli hali qishning sovuq nafasi ketmay turib yerdan bosh ko‘taradi. Shunday insonlar borki, jaholat va razolatga to‘la davrda ilk qadamlarni tashlab, yorug‘likka intiladi. Bunga misol qilib, aytib o‘tganimizdek, xalq uchun jonini berishga tayyor bo‘lgan obrazlar Alpomish, To‘maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, sarbadorlar, Jaloliddin Manguberdi va biz juda yaxshi biladigan, yaqin o‘tmishdagi jadidlarni ayta olamiz. Bu hali biz bilgan misollardan bir parcha, lekin tarixiy manbalarga kiritilmay qolgan, bizgacha hayoti haqida ma’lumotlar yetib kelmagan, ona yurti, xalqi uchun jon bergan qancha-qancha insonlar o‘tgan. Turli xalq manfaatini ko‘zlovchi qo‘zg‘olonlarda ishtirok etib shahid bo‘lganlar ham oz emas. Xalqimiz aynan mana shunday insonlarni boychechak timsolida olgan bo‘lsa, ajab emas.

Fikrimizcha, boychechakning boylanishi insonlar va ularning haq-huqulari uchun kurashganlarning johillar tomonidan qo‘lga olinishidir. Ayron esa, biz bilamizki, oq rangda. Oq rang –soflik, poklik timsoli bo‘lib, ijobiy tuyg‘ularni ifoda etadi. Ayronni yana xonadonning rizqi sifatida ham talqin qilish mumkin. Demak, ayrondan bermaslik, insoniylikdan mahrum bo‘lmaslik va yana bir ma’nosi, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga borib taqaladi. Qadim zamonlardan xalq turli soliqlardan qiynalishgan. Ikkinchi ma’nosi, ayron- xonadon rizqi hosilidan bermaslik, qozon-tovoq – shu insonning hayotini,odatiy turmush tarzini vayron qilish bilan yakunlanishiga ishora. Ana endi naqarotga e’tibor beraylik. “Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak” , bu aslida, oddiy xalq orasidan chiqqan inson, u qiyinchiliklarga, katta xavfga qaramay o‘z so‘zini ayta olgan shaxs. Qattiq va yumshoq yer tuproqqa, tuproq esa oddiy xalqqa nisbat berilgan.

Keyingi banddan esa boychechakning ahvoli bayon qilinadi. Boychechak – xalq uchun kurashayotgan shaxs, qo‘lga tushishi va tut yog‘ochga osilishi, qilich bilan chopilishida ham ramziy ma’nolar mujassam. Bularni bir tarafdan qo‘shiq yaratilgan paytdagi jazo choralaridan biri sifatida ham ko‘rishimiz mumkin. Ikkinchi tomondan esa, dafn marosimini ham eslatadi. Tut yog‘ochdan M.Zohidova aytgandek, faqat beshik emas, balki qadim zamonlardanoq tobut ham yasashadi. Bu yerda, baxmal bilan yopish, tobut ustiga tashlanadigan mato deb qarasak, xalqningbu insonni so‘nggi manzilga kuzatishdagi hurmati ifodasini ko‘ramiz. Boychechakning hulloli ekanligini, biz uni kafanga o‘rash deb va yana bu shaxsning xalqning unga bo‘lgan mehriga chulg‘anishini aytamiz. Chunki mehr har qanday nozik matodan ham, sarpodan ham qadrliroq va yoqimliroqdir. Hamyonining to‘la tillo ekanligini, insonlar xotirasida mangu qolishi va ezgu duolar bilan eslanishiga dalolat border. Hamma bozor – bir bozorligi esa, o‘zga;ar uchun kurashgan insonning, odamlar uchun jonini berishga tayyor bo‘lgan shaxsning hayoti xalq bilan chambarchas bog‘lanib ketishidir. Darhaqiqat, biz masagetlarni aytganimizda, albatta, To‘marisni ham eslab o‘tamiz. Ikkalasini yaxlit, bir butunlikda qabul qilamiz. Ayricha tasavvur qila olmaymiz. Asqad Muxtorning “Chinor” romanidagi: “Odam deb o‘lgan odam tirikdir”[10], - degan jumlasi ham aynan shunga mosdir. Atrofning lolazorligi esa, bunday buyuk shaxslarning qabrlari nazarda tutilsa, yana bir ma’nosi lola qizil ranngda va o‘ta nozik gul. Boychechakdek yashab o‘tgan insonning atrofidagi odamlarning dillari, bag‘irlari qon, sal tegsangiz to‘kilib ketishi mumkin. Ular rahnamosi bo‘lgan shaxs uchun chuqur qayg‘urishmoqda.

Aytib o‘tganimizdek, biz mazkur qo‘shiqning sharhi uchun barcha adabiyotshunos olimlarimiz ta’kidlagandek, isnonning ichki kechinmalarini asos qilib oldik va ramziy ma’nolarning ikki xil bayonini berishga harakat qildik. Bir paytlari Cho‘lpon ham “Binafsha” orqali ezilgan xalqni nazarda tutib she’r bitgan bo‘lsa, “Qor qo‘ynidagi lola” hikoyasida ham “lola”ga mengzagan insonlar taqdirini bayon qiladi. Ajab emas, Cho‘lpon bu ramziy ma’noni mana shunday xalq og‘zaki ijodi namunalaridan olgan bo‘lsa. Chunki, har qanday yangilik unutilgan eskilikdir, deyishadi. Yana bir gapni ham aytib o‘tmog‘imiz darkor, “Boychechak” qo‘shig‘i, aynan, bolalar tilidan aytilishida ham chuqur ma’no mavjud. Avvalambor, bola sof, pok, sodda va har qanday ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o‘rinlardan yiroq. Ikkinchidan esa, bolalarga yodlatish orqali qadim davrlarda ham

[10]Asqad Muxtor. Chinor.-T.: “G‘afur G‘ulom”,1969.

boychechak singari insonlar bo‘lganligi va ular tillardan tillarga o‘tib, xotiralardan o‘chib ketmasligi uchun bir chora. Musiqasining sho‘xligi, bolalarga qulay va esda qolishiga erishishning bir yo‘lidir. Bahor faslida uyma-uy aytish, hayotimizda qanchalik ziddiyatli, qishdek rutubatli davrlar bo‘lmasin bahordan nishona beruvchi boychechaklar – yorqin kelajakdan darak beruvchi, bizni hayotimizda tub burilish yasashimizga undovchi insonlar borligidan bir belgi. M.Zohidova mazkur qo‘shiqni marosim qo‘shig‘i deb qarashni taklif qilib o‘tgan. Lekin biz xalq og‘zaki ijdonining ayrim xususiyatlarini e’tiborga olmog‘imiz darkor. Bulardan biri mavzu, obraz va janrlar mushtarakligi va ko‘chib yuruvchanligi. Ba’zi obrazlar xalq og‘zaki ijodida ko‘chib yurganidek, ba’zi qo‘shiqlar ham mavzu jihatidan ko‘chib yuruvchan. Bizning fikrimizcha esa, “Boychechak” qo‘shig‘ini mavsumiy qo‘shiq deb qarash afzalroqdir.

Adabiyotlar:

1. Masharipova Z.,“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”, T.,2008. 64-bet.
2. Mansurov A., Karimova D.Musiqa. 5-sinf uchun darslik.-T.: “G‘.G‘ulom”, 2001-yil, 20-bet.
3. Asqad Muxtor. Chinor.-T.: “G‘afur G‘ulom”,1969.

NAVRO‘Z BAYRAMINING AXLOQIY JIHATLARI

Umidbek ADAMBAYEV,
TVCHDPI o‘qituvchisi
Isroil QARSHIBOYEV,
TVCHDPI o‘quvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navro‘z bayrami va uning axloqiy jihatlari haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, Navro‘z bayramining vujudga kelish tarixi, sovet davridagi cheklovlar, mustaqillikdan keyingi rivoji va hozirgi kundagi ahamiyati to‘g‘risidagi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, yangi kun, xalq o‘yinlari, urf-odatlar, Navro‘z taomlari, sumalak.

Annotation. This article discusses the holiday of Navruz and its moral aspects, the history of the holiday of Navruz, the restrictions of the Soviet era, its post-independence development and its current significance.

Key words: Navruz, new day, folk games, customs, Navruz dishes, sumalak.

Аннотация. В данной статье рассматривается праздник Навруз и его нравственные аспекты, история возникновения Навруза, ограничения советской эпохи, его развитие после обретения независимости и его современное значение.

Ключевые слова: Навруз, новый день, народные игры, обычаи, наврузские блюда, сумаляк.

Navro‘z bayramining axloqiy jihatlari haqida o‘quvchilarda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va an’analarimizga hurmat tuyg‘ularini kuchaytirish orqali ular ongiga mehr-oqibat, insoniylik, milliyligini yo‘qotmaslik, asrlardan asrlargacha yetib kelayotgan urf-odatlarimizni saqlab qolish xislatlarini shakillantirishdan iborat. Bugungi kunda navro‘zga bag‘ishlangan turli xil bayram va tadbirlar mamlakatimiz miqyosida keng o‘tkazilib kelinmoqda. Bu tadbirlar bizning mintalitetimizni dunyoga yoyishda eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha Navro‘z birinchi marotaba fors tilidagi manbalarda qayt etilgan bo‘lib, tarixi minglab yillarga borib taqalgan an’anaviy bayramdir. «Navro‘z» forscha so‘z bo‘lib, «yangi kun» degan ma’noni anglatadi. Buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy bu kunni shunday ta’riflaydi:

Vasl aro ko‘rdum, teng emish bo‘yi-yu sochi,
Tun-kun teng ekan, zohir o‘lur bo‘ldi chu Navro‘z.

Sharq xalqlarining eng hayotbaxsh va qadimiy bayrami Navro‘zning qachon paydo bo‘lgani xususida turli mulohazalar bildirilgan. Narshaxiy buxorolik dehqonlarning Navro‘zda aytiladigan Siyovush nomi bilan bog‘liq qo‘shiqlari haqida gapirib, «bu gaplar bo‘lib o‘tganiga hozir uch ming yildan ko‘proq vaqt o‘tdi»[1, 143], - deb yozadi.

Navro‘zning paydo bo‘lishiga oid ma’lumotlar Markaziy Osiyoda yashagan qadimgi aholining e’tiqodiy qarashlari majmuasi zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da ham mavjud. Zardusht o‘zi yaratgan yetti mo‘jiza: suv, tuproq, havo, olov, o‘simlik, sigir, va odamga monand holda yettita bayramni ham joriy qilgan emish. Yettinchi mo‘jiza - olov hamda ezgulik homiysi Asha-Vaxishta sharafiga bahoriy udum - Navro‘zni o‘tkazish an’anasi paydo bo‘lgan ekan.

Navro‘z Sovet davrida O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa qismlarida ochiq nishonlanmagan. Sovet davrida Navro‘zning taqiqlanishi ikki bosqichda kuzatilgan. "Avval 1920-yillarda xudosizlar jamiyatini tuzish davrida,

odamlarni dindan voz kechasan, deb majburlash paytida, Navroʻz ham taqiqlangan bayramlar qatoriga kirgan", – deydi tarixchi olim Fayzulla Isʼhoqov. Qayta qurish davrida kechgan bu taʼqiblar milliy uygʻonish davrini boshdan kechirayotgan oʻzbek ziyolilari oʻrtasida keng muhokama qilingan. 1980–90-yillardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ishtirokchisi boʻlgan oʻzbek ziyolilaridan biri Hayitboy Abdullayev "Navroʻzni taqiqlash oʻzbek kommunistlari tashabbusi edi. Bu faqat Oʻzbekiston kompartiyasining qarori bilan taqiqlangan. Chunki qoʻshni Tojikiston va Qozogʻistonda Navroʻz bayram qilinayotgan edi", – deydi. Fayzulla Isʼhoqov fikricha esa Navroʻzni cheklash asosan Moskva buyrugʻi bilan amalga oshirilgan. [2, 7].

Oʻzbekiston mustaqilikka erishgach, muhim sanalar bilan bogʻliq umumbashariy, milliy bayramlar bilan bir qatorda Roʻza va Qurbon hayitlari, Navroʻz bayramlari tiklanib, nishonlanib kelinmoqda. Bulardan tashqari respublikamiz, viloyatlarida turli etnik mazmunga ega qadriyatlarga asoslangan tadbirlar va marosimlar xalq sayillari shakllarida oʻtkazilib kelinmoqda.

2009-yil 30-sentyabda Navroʻz YUNESKO tarafidan nomoddiy madaniy meros roʻyxatiga kiritilgan, 2010-yil 23-fevralda esa BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasıda 21-mart "Xalqaro Navroʻz kuni" deb eʼlon qilindi. Ushbu kun munosabati bilan yurtimizda oʻtkazilayotgan tadbirlar va xalq sayillarida navroʻz bayramining axloqiy jihatlari yoshlarga har taraflama keng ochib berilmoqda. Bu esa ulgʻayib borayotgan yoshlar ongiga oʻzining sezilarli taʼsirni oʻtkazmoqda.

Dastlabki vaqtlarda bayram kuni odamlar bir-biriga shirinliklar hadya qilish (hayotingiz shirin boʻlsin degan maʼnoda), bir-biriga suv sepish (bu yil suv koʻp boʻlsin, hosil yaxshi boʻlsin degan maʼnoda) va boshqa odatlar keng tarqalgan. Keyingi asrlarda esa hovli-joylarni tozalash, koʻkat va gullar ekish, ota-ona, yor-u doʻstlarni ziyorat qilish, marhumlarning qabrini ziyorat qilish kabi odatlar Navroʻz bayramining tarkibiy qismiga aylangan.

Navroʻz yana bir xislati bilan bizning milliy tabiatimizga yaqin. Shu kunlarda eski gina-kuduratlarni, har xil yomonliklarni esdan chiqarish, mehr-oqibatli, muruvvatli boʻlish, beva-bechralarning holidan xabardor boʻlish, yetim-yesirlarning koʻnglini olish singari, Allohning oʻzi el-yurtimizga ato etgan ota bobolarimizdan meros boʻlib kelayotgan fazilatlar ham Navroʻzning oliyjanob mohiyatidir [3, 124].

Navroʻz qizlarga alohida koʻrk beruvchi bayramdir. Bayram munosabati bilan ular qoʻllariga xino, qoshlariga oʻsma qoʻyadilar. Argʻimchoqlarda uchishib, turfa oʻyinlar oʻynashib, keng yam-yashil dalalarda sayr etishib, qizgʻin gurunglar

qiladilar. Navro‘z bayrami bolalar va o‘spirinlar uchun ham olam-olam quvonch, shodlik keltiruvchi tantanadir. Unga yosh bolalar ham, o‘smir yigit-qizlar ham alohida tabrik bilan keladilar. Ular uchun Navro‘z udumlari, an’analari va rasm-rusumlari juda qiziqarli bo‘lib, diqqat bilan kuzatadilar, o‘zlari ham zavq-shavq unda ishtirok etishga harakat qiladilar.

Navro‘zning o‘ziga xosligi uning turli xil o‘yinlari, udumlari, marosimlar va taomlarining borligidir. Navro‘z ayyomida milliy va an’anaviy taomlardan tashqari sumalak, halim, ko‘k somsa, shuningdek, quvvat bag‘ishlovchi turli sharbatlar tayyorlangan. Masalan, ko‘pgina joylarda Navro‘z arafasida o‘rik turshagini ezib, maxsus sharbat tayyorlaydilar. Ilgarilari uylarning tagi poli bo‘lmagan, loysuvoq qilingan poldan sandal atrofida chuqurcha o‘yilgan, qish bo‘yi ana shu sandal atrofida o‘tirganlar. Navro‘z kelishi bilan sandallar olinib, chuqurcha ko‘milgan, odamlar “qishdan qutuldik, ko‘klamga yetishdik, qish bo‘yi sandalda o‘tirganimiz uchun butun a’zoyi badanimizdan bodni haydab chiqaradi”, - deb o‘ylab, o‘rik turshagidan qilingan sharbatdan ichganlar [4, 197].

Navro‘z taomlari deganda dastlab, sumalak ko‘z oldimizga keladi. Sumalak atamasiga kelsak, bu turkiy so‘z – “Suma” so‘zidan kelib chiqqan. Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining “Devoni lug‘otit turk” asarida keltirishicha – “Suma – ivitilgan bug‘doy nomi, u quritib tuyiladi, so‘ngra ugra osh va non qilinadi” [5, 161]. Sharbat uchun qilingan undirilgan arpa uchun ham bu so‘z qo‘llaniladi. Demak, sumalak atamasi sharbat uchun qilingan, undirilgan yoki bug‘doy ma’nosini anglatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Navro‘z bayrami umumbashariy bayram sifatida yorqin iz qoldirgan va bundan keyin ham iz qoldiradi. Va biz buni qadriyat sifatida tan olamiz va xalqimizga keng yetkazib berishda o‘zimizning hissamizni qo‘shamiz. O‘zining buyuk fazilatlariga hamisha sodiq bo‘lib, murakkab sinov davrlarida ham Navro‘zdek noyob urf-odatini ko‘z qorachig‘iday asrab, e’zozlab kelgan ajdodlarimizga har qancha tasannolar aytsak arziydi. Sozimiz boshida bo‘lgani singari yakunida ham hayotni, tabiat va inson go‘zalligini o‘chmas misralarga jo qilgan Navoiy bobomizning quyidagi orzulari barchamizga doimo yor bo‘lishini tilaymiz:

Har tuning qadr o‘lubon,
Har kuning o‘lsun Navro‘z…

Adabiyotlar:

1. “Buxoro tarixi”. Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy. – Toshkent.

2. "Hurriyat" gazetasi 46-son. (1037). Toshkent
3. “Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida”. I.A.Karimov. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
4. "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi". Birinchi jild. Toshkent, 2000.
5. “Devonu lug‘otit turk”. Mahmud al-Qoshg‘ariy. 1-tom.- T.: “Fan”, 1960

“YANGI O‘ZBEKISTON” VA “UCHINCHI RENESSANS” G‘OYASINING HAYOTGA TADBIQIDA MILLIY URF-ODATLARIMIZNING O‘RNI

Umidjon ADAMBAYEV,
CHDPI o‘qituvchisi
Navro‘z XUSANOV,
CHDPI talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etishda o‘zbek xalqining bir maqsad yo‘lida ildam harakatlari va buning istiqbolli ekanligini joylardagi yoshlarga tushuntirish, o‘rgatish, shu bilan birga, “Uchinchi Renessans” davrida yosh avlodlarni teran anglashi uchun ajdodlarimiz qilgan buyuk ishlari namunalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: “Yangi O‘zbekiston” barpo etishga bo‘lgan xalqning munosabati, “Uchinchi Renessans” davrida olib borilayotgan islohatlar, ilm-fan, madaniyat.

Аннотация. В этой статье усилия узбекского народа по восстановлению “Нового Узбекистана” и великие труды наших предков по пониманию молодого поколения в период “Третий Ренессанс” отражены в усилиях узбекского народа так или иначе и в будущем, а также в обучении и понимании молодежи в местах, где это происходит.

Ключевые слова: отношение народа к восстановлению «Нового Узбекистана», реформы, проведенные в период «Третьего Ренессанса», наука, культура.

Annotation. In this article, the efforts of the Uzbek people in the restoration

of "New Uzbekistan "and the great works of our ancestors for the understanding of the young generation in the period of "Drawing Renesans" are reflected in the efforts of the Uzbek people in one way and in the future, as well as teaching and understanding of the youth in the places where this.

Key words: people's attitude to the restoration of " New Uzbekistan", reforms carried out in the period of "Drawing Renesans", science, culture.

Fuqarolarimizning bugungi taraqqiy etgan zamonda rivojlangan dunyo mamlakatlari fuqarolari singari munosib turmush tarzini kechirishlari uchun davlatimiz tomonidan keng doirada e'tibor berilib, inson hayoti va manfaatlari uchun ko'plab islohatlar olib borilmoqda. Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O'zbekiston xalqiga yangi 2022-yil bayram tabrigida "Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan ulkan ishlarimizni qat'iy davom ettiramiz", - deya aytib o'tdilar. Shu o'rinda aytish kerakki, 2020-yilda og'ir kechgan davr pandemiya sharoitiga qaramasdan islohatlarda ko'plab muvaffaqiyatlarga erishganimizni bunga sabab oliyjanob va tanti xalqimizning fidokorona mehnatlari ko'mak bo'ldi. Yurtboshimizning aytgan ma'noli so'zlari va asarlari:"Hayot sinovlarida toblangan o'zbek xalqi ulkan ishlarni yaratishga qodir", "Biz buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz",- degan bu yosh-u qari umuman barcha qatlam uchun kuch-quvvat beradi[1, 125-b]. Albatta, biz yoshlar bu bilan cheklanmasdan shiddat bilan har qanday sohada ildamlashimiz yurtboshimiz yoshlarga bildirayotgan ishonch, yaratilayotgan keng imkoniyatlarga munosib bo'lib, ulkan natijarni ko'satib mustaqil O'zbekistonimizning bayrog'ini ko'kka ko'tarishimiz kerak. Shundagina xalqimiz va Prezidentimiz ishonchini oqlagan, ajdodlar ruhini shod etib, ularga munosib bo'la olamiz. Yurtboshimiz boshchiligida Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarish va uning *poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilandi. Shunday ekan, avvalo, Renessansning tarixini, asoslarini, Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishimiz zarur.* "Renessans" so'zi qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug'ilmoq, qayta tirilish, uyg'onish degan ma'nolarni anglatadi. Buning uchun biz ma'naviy tomonlama kuchli bo'lmog'imiz kerak. Shundagina yuqori marralarga erisha olamiz. Ma'naviyatda bizning iymonimiz, e'tiqodimiz, axloqimiz namoyon bo'ladi. *Bu o'z o'rnida bizdan yuksak ma'naviyatni talab etadi. Birinchi Prezidentimiz* I.A. Karimov insonning iymoni,

e’tiqodi, axloqi, hayotning ma’nosini qanday tushunishi, ichki dunyosi namoyon bo‘lishi, Vatan, xalq oldidagi burchni egallashi ham yuksak ma’naviyat belgisidir.

Ma’naviy barkamol inson – o‘zining savobli ishlari bilan kechirgan hayotidan rozi ketadi”, - degan edilar[1, 149- b]. Zero, xalqning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish jamiyatning eng muhim vazifasi bo‘lsa, davlatimiz qudrati kuchli bo‘ladi. *Birinchi Prezidentimiz* I.A. Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida ham biz yoshlarga ma’naviyat, insonni ulug‘lash, ma’naviyatni anglash, manaviyatni shakllantirish mezonlari, ma’naviy va moddiy hayot haqida tushunchalar berilgan. Ayniqsa, “Ma’naviyatga tahdid – o‘zligimiz va kelajagimizga tahdid”, - deb nomlangan bobi bizni chuqur fikrlashga, o‘tmishni teran anglashga o‘rgatadi. [1, 17-b.]

Inson huquq va erkinliklari so‘zsiz ta’minlanadigan kuchli jamiyatni qurishda, biz o‘zbek xalqi va yoshlari bir bo‘lib harakat qilmog‘imiz lozim. Bularning barchasi esa jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lmish oiladan boshlanadi. Chunki oilada tarbiya, axloq muhiti yaxshi shakllansa, jamiyatga kuchli barkamol insonlani tarbiyalab beradi. O‘zbekistonda yoshlarni ezgu g‘oyalar va ezgu ishlar ruhida birlashishiga bag‘ishlangan ko‘plab tadbirlar tashkillashtirilmoqda. Jonajon O‘zbekistonimizning tinchligi va rivojlanishi uchun har bir fuqaro mas’uldir. Mustaqil O‘zbekistonimizning birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning: “O‘z oramizdan sotqin chiqmasa, o‘zbek xalqini hech qachon hech kim yenga olmaydi”, - degan so‘zlari tinchligimiz uchun muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Internet saytlari [review.uz; lex.uz; uzhurriyat.uz; library.Ziyonet.uz.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk Kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., “O‘zbekiston” 2017, 147-b.
3. I.A.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T., «O‘zbekiston» 1997, 149- b.
4. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T., «Ma’naviyat» 2008, 17-b.

НАВРУЗ В ТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ РЕКЛАМЫ

Ш.М.ЮНУСОВА,
старший преподавател ТГПУ
имени Низами
Навруз ТЕМИРОВ,
Студент ТГПУ имени Низами

Аннотация: В статье представлена информация об особенностях построения рекламных текстов, а так же способах создания слогана.

Ключевые слова: реклама, вербальный текст, слоган, эхо-фраза, метафора, эпифора.

Annotatsiya: Maqolada reklama matnlarining tuzilishi o‘ziga xos xususiyatlari, shior(slogon) tuzish yo‘llari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: reklama, verbal matn, shior (slogan), exo-fraza, metafora, epifora.

Annotation: The article provides information about the features of the construction of advertising texts, as well as ways to create a slogan.

Key words: advertising, verbal text, slogan, echo-phrase, metaphor, epiphora.

Реклама неотъемлемая част жизни современного общества, человека. С ней сегодня сталкиваемся везде: на улице, дома, на работе. Она проникает во все сферы массовых коммуникаций. Реклама помогает людям сбереч свое время на поиски интересующего товара или услуги. Производителю же помогает быстрее найти потенциального потребителя. Не зря её называют двигателем прогресса.

С филологической точки зрения, реклама представляет собой особую сферу практической деятельности, продуктом которой являются словесные произведения – рекламные тексты.

Реклама выполняет различные функции. Однако, она объязана: 1. Предоставлят информацию. 2. Реклама долна убеждать. Само слово “реклама” означает “кричать”. И она имеет достаточно глубокую историю.

Можно утверждать, что на востоке, в частности, на территории Узбекистана начальной формой (устной) рекламы являлас деятельност жарчи (глашатай). В толковом словаре узбекского языка [1] данное слово трактуется

как, человек, громким голосом сообщающий официальные объявления. Но жарчи, как мы знаем, провозглашал не только официальные тексты.

Издревле жарчи сообщали народу о различных народных гуляниях, в том числе и о гуляниях, различных соревнованиях в чест Навруза. Они призывали людей к участию в данных мероприятиях. Таким образом, их деятельност можно отнести к рекламе.

На сегодняшний ден большее распространение получила письменная и печатная реклама.

Основным, часто единственным носителем смысла в рекламе является текст, раскрывающий основное содержание рекламного послания. Иллюстрация выражает ключевые моменты рекламы, активизируя эмоциональные реакции потребителя, вербальная же часть рекламного сообщения позволяет активизироват его интеллектуальную активност и направлят ассоциативный поток строго определенных интенций рекламодателя.

Анализируя общие моменты рекламной деятельности, можно указат на элементы данной системы в их взаимодействии: субъект-1 (рекламодатель), объект-1 (творческий проект, план рекламной кампании, оригинал-макет, черновой ролик), объект-2 (стенд, брандмауэр, публикasия в газете, буклет, прокатные копии роликов), субъект-2 (реципиент или, в отдельных случаях, сам рекламодатель) [2].

Вербальный текст, проявляет способност вес смысловой потенциал рекламного послания, заложенный в него автором. Рассмотрим классификацию рекламного текста по видам и типам вербальных рекламных сообщений. Вербальный текст, как правило, складывается из следующих составляющих:

1. Слоган. 2. Заголовок. 3. Основной текст рекламы. 4.Эхо-фраза.

Часто в тексте рекламы употребляют различного рода девизы, поздравления с той или иной датой.

Навруз является одним из наиболее широко отмечаемых народных праздников. Обращение рекламодателей к данному празднику не случайно.

Интернет провайдер «Sharq Telekom» призывает встретит с ним Навруз, который, как известно, считается началом нового года по восточному календарю – “НАВРЎЗНИ SHARQ TELEKOM БИЛАН КУТИБ ОЛИНГ!” (Встречай Навруз вместе с “Sharq Telekom!”).

Следует отметить, что это своеобразный слоган (от гаэльского «боевой

клич»). Поясним, что слоган - это краткое, ясное и легко произносимое выражение, содержащее в качестве главного логического элемента название товара или торговой марки, выражающее сущност и философию фирмы производителя, ее selостную политику в различных областях. Средний объем слогана составляет 4-5 слов, максимальный объем, как правило, не превышает 7 слов. Слоган должен быть: коротким, запоминающимся, содержат название торговой марки и не меняться, полноsенно переводиться на другие языки.

Объем заголовка значительно больше, чем слоган. Чаще это сложные предложения с несколькими придаточными, реже – простые предложения, например: “НАВРЎЗ – МЕҲР-ОҚИБАТ БАЙРАМИ” (Навруз – праздник милосердия). ЎЛКАМИЗГА ХУШ КЕЛДИНГ, НАВРЎЗ! (Добро пожаловат в наш край, Навруз!) Часто эти заголовки являются своеобразными девизами, похожими на телеграмму. Как утверждают специалисты. девизы служат основанием для того, чтобы читат или не читат текст рекламы далее [3].

Девизы слогают различными способами:

1. Цитация или аллюзия, различия между которыми весьма условны. Строка, взятая из популярного фильма, песни и т.п. называют «цитацией» - “НАВРЎЗ КЕЛИБОН ЖУМЛАИ ЖАҲОН НОЗЛАНАЖАКДИР” (из текста популярной песни - С приходом Навруза краше вес мир). Общеизвестное выражение же из области экономики, истори – «аллюзия»: НАВРЎЗ – АЗАЛИЙ ҚАДРИЯТ (Навруз – вечная ценность).

2. Метафора. “*PANTERRA STUDIO - Ўзбекистон юлдузлари меҳмонингиз бўлади!”* (*PANTERRA STUDIO – звезды Узбнекистана у вас в гостях).*

3. Лексический повтор. *НАВРЎЗ - ХУРСАНД БЎЛИНГ ҲАЁТДАН, ҲАЁТДАН БАҲРА ОЛИНГ! (НАВРУЗ - радуйтесь жизнью, наслаждайтесь жизнью).*

4. Эпифора. *БУГУНИМСАН, НАВРЎЗ, ҲАР КУНИМСАН, НАВРЎЗ (Навруз, ты мое сегодня, Навруз – ты каждый мой день)*.

5. Анафора. *НАВРЎЗ – ҚАДРИЯТ, НАВРЎЗ – АБАДИЯТ (Навруз – ценность, Навруз – вечность).*

Основной рекламный текст – это аргументация, с помощью которой доказывается истинность заголовка и целесообразность его принятия. Проблема аргументации – основная, она может быть развита разными способами:

- в зависимости от её рациональности и эмоциональности;
- в зависимости от желательности и исключительности;
- в зависимости от торгового предложения;
- в зависимости от знаковой природы аргументации и т.д.

Приведем пример основного рекламного текста:

Сберегательный вклад «**НАВРУЗ»**

Валюта вклада:	Hасиональная валюта – Сум
Базовая процентная ставка:	20 % (процентов) годовых.
Дополнительное начисление процентов по итогам розыгрыша:*	1%, 5%,10%.
Срок вклада:	12 (двенадцать) месяцев.
Минимальная сумма вклада:	1 000 000 (один миллион) сум.

Как мы видим, основной рекламный текст содержит более точную информацию о рекламируемом объекте, чем слоган или заголовок, что позволяет подробнее ознакомиться с предлагаемым продуктом.

Эхо-фраза – последний элемент рассматриваемой классификации – слово, синтагма или предложение, которым заканчивается основной рекламный текст, повторяющий главный мотив и аргумент. Эхо-фраза – один из важнейших элементов, так как наряду с заголовком, она прочитывается реципиентом в большинстве случаев, и в то же время обладает двумя функциями: 1. Повторение главной мысли в тексте. 2. Придание тексту законченный вид.

Следует отметить, что часто эхо-фразы совпадают со слоганами: “Наврўзни “Sharq Telekom” билан кутиб олинг!” (Встречай Навруз вместе с “Sharq Telekom!”)

Как видно из примеров, тема Навруза может находит отражение в любой части рекламного объявления. И в канун всенародно любимого праздника рекламодатели активно используют данную тематику.

Вместе с тем, рекламодетели обращаются к Наврузу, преследуя различные цели. Одни “рекламируют” сам праздник: “НАВРЎЗ – МЕҲР ВА МУРУВВАТ БАЙРАМИ” (Навруз – праздник добра и милосердия).

Другие, как видно из рекламу компании “Билайн”, посредством праздника рекламируют свою продукцию или услуги.

Обращается в своей рекламе к наврузу и ресторан «Монако».

Различные компании и учреждения проводят акции в честь праздника Навруз.

Одним из них является «Ravnaq-bank», рассмотрим его рекламное объявление.

Рекламная отрасль, индустрия развивается в Узбекистане интенсивно. Параллельно протекают процессы формирования её принципов, правил. Исследования подтверждают, реклама оказывает влияние не только на экономическую, торговую, но и на речевую деятельност членов общества.

Хочется также отметить, что не смотря на то, какие перед собой цели ставит рекламодатель, тексты, связанные с тематикой Навруза служат дальнейшей его популяризасии, прививая любов и уважение к национальным и общечеловеческим ценностям, заложенным в идее самого праздника.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.; Ўзбекистон НМИУ, 2020.
2. Волкова В.В. Реклама в газете: Систем. дизайн, структура и композиция. Москва, 1997.
3. Нестеренко Ф.П., Бабаджанова Г.Н. Эффективная реклама. -Т.; 2003,С.31. http://www.dissercat.com/content/reklama-v-gazete-sistem-dizain-struktura-i-kompozitsiya

O‘ZBEK XALQ MAVSUMIY MAROSIMLARI VA NAVRO‘Z

Asatilla SUNNATILLAYEV,
O‘zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrasi
katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi
assunnatillayev92@bk.ru

Annotatsiya. Xalqimizning tarix sinovidan o‘tgan bayram va marosimlari kishilarning o‘zaro munosabatlaridagi yaxshi fazilatlarni, chinakam xalqchil, umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiradi. Bunday an’ana va marosimlarda xalqning milliy ruhiyati, ma’naviyatining qadimiy ildizlari ham namoyon bo‘ladi. Asrlar davomida shakllantirib va rivojlantirib kelingan an’ana va marosimlarda vatanga sadoqat, kattalarga hurmat, ota-onaga, qariyalarga g‘amxo‘rlik, mehmondo‘stlik, qon-qarindoshlik va o‘zaro yordam, oila sharafini va ayollar sha’nini saqlash, hayotdan ko‘z yumgan uzoq-yaqin kishilar xotirasini yodga olish kabi ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar mujassamlashgan. Ushbu maqolada o‘zbek xalq mavsumiy marosimlarining o‘ziga xos jihatlari, Navro‘z bayramining xalq madaniyatida tutgan o‘rni ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: marosim, avro‘z, folklor, etnografiya, bayram, qo‘shiq.

Аннотация. Исторически проверенные праздники и обряды нашего народа отражают добрые качества человеческих отношений, подлинно национальные, общечеловеческие ценности. Такие традиции и обряды отражают древние корни национального духа и духовности народа. В

сложившихся и выработанных веками традициях и обрядах, преданности Родине, уважении к пожилым людям, заботе о родителях, престарелых, гостеприимстве, родстве и взаимопомощи, чести семьи и женщины существуют социальные ценности, такие как сохранение памяти усопших, памяти давно умерших. В данной статье проводится научный анализ особенностей узбекских народных сезонных обрядов, роли Навруза в народной культуре.

Ключевые слова: обряд, навруз, фольклор, этнография, праздник, песня.

Annotation: The historically tested holidays and ceremonies of our people reflect the good qualities of human relations, truly national, universal values. Such traditions and ceremonies reflect the ancient roots of the national spirit and spirituality of the people. In the traditions and ceremonies that have been formed and developed over the centuries, devotion to the motherland, respect for the elderly, care for parents, the elderly, hospitality, kinship and mutual assistance, honor of the family and women. There are social values, such as the preservation of the memory of the deceased, the memory of those who died long ago. This article provides a scientific analysis of the peculiarities of the Uzbek folk seasonal ceremonies, the role of Navruz in folk culture.

Key words: ceremony, navruz, folklore, ethnography, holiday, song.

Xalqimizning ko‘p asrlik ma’naviy merosi sifatida vujudga kelgan marosimlar uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tib, xalq hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Marosimlar o‘zida xalqning asriy an’analari, turmush tarzi, mentaliteti, qolaversa, g‘oya va qarashlarini bevosita aks ettiruvchi voqelik sifatida gavdalanar ekan, unda xalq turmushining etnik va estetik jihatlari o‘z ifodasini topadi. Insonning tug‘ilish, hayotining ma’lum bosqichi, shu jumladan, vafotini oilada maxsus marosimlar orqali qayd etish o‘ziga xos an’anaga aylangan. Bunday an’analar barcha xalqlar madaniyatida mavjud ekanligini e’tirof etish zarur.

Marosim – inson, oila, jamoa hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko‘tarinkilik vaziyatida o‘tadigan, umum qabul qilingan qoida-tartiblarga amal qilinadigan hayotiy tadbirdir. Masalan, ism qo‘yish, nikohdan o‘tish, dafn qilish, xotirlash, ekishga va o‘rimga kirishish, “Boychechak”, “Ramazon”, “Darvishona” kabi marosimlar [5.94]. Marosimlar milliy mentalitetimizning o‘ziga xos jhatlarini o‘zida mujassamlashtirgan bebaho va nodir ma’naviy meros sanaladi. Marosim – bu faqat musiqa, raqs, xalq o‘yinlari

jamlangan tantanali tadbir yoki xursandchilik emas, balki boy an’anaga ega bo‘lgan xalqning tarixi va madaniyatini aks etib turgan ko‘zgudir.

Marosim folklori namunalari folklorning eng qadimiy janrlari sirasiga kiradi. Marosim folklori bo‘lmish oilaviy-maishiy marosimlar o‘zida milliy qadriyat va urf-odatlarni mujassamlashtirgani bilan ahamiyatlidir. Marosim folklori va uning ikki qismi – mavsumiy marosim va oilaviy marosimlar folklori har bir xalqning o‘zligini namoyon etuvchi tayanch manba hisoblanadi. O‘zbek xalqining mavsumiy va oilaviy marosim folklorida mehnatkash xalqning olamni anglash, unda insonning o‘rni va vazifasini belgilash bilan bog‘liq dunyoqarashlari aks etgan. Xalqning barcha hayotiy tajribalari, bilim va xulosalari, avvalo, ana shu mavsumiy, oilaviy marosimlar tizimi va unda kuylanuvchi folklor namunalarida mujassam topgan.

O‘zbek xalq marosimlari orasida eng keng tarqalgan, o‘zida xalqning milliy urf-odat va qadriyatlarini jamlagan mavsumiy marosimlar alohida ahamiyatga egadir. Xalq marosimlari orasida yil fasllari bilan bog‘liq marosimlar muhim madaniy-ma’rifiy va ijtimoiy-ma’naviy ahamiyat kasb etadi. Ota-bobolarimiz mavsumiy marosimlarni bahor faslidan boshlaganlari bejiz emas, chunki bu faslda dov-daraxt va o‘simliklar quyosh taftidan sekin-asta uyg‘ona boshlaydi, hayot jonlanadi, bu esa mavsum hayotning yangidan tug‘ilishi, yilning boshlanishi sifatida odamlarda o‘zgacha taassurot uyg‘otadi.

Qadimdan bahor faslida “Loy tutish”, “Shox moylar”, “Navro‘z”, “Sust xotin” marosimlari o‘tkazilgan. Loy tutishda ariqlar tozalangan, butun aholi bu ishda faol ishtirok etgan. Bevosita ariq tozalash ishini bajarayotganlar, ularning yonidan o‘tib kelayotgan odamga ketmon yoki belkurakda loy tutishgan. Yo‘lovchi o‘ziga loy tutilgandan so‘ng yo biron qo‘shiq, yo boshqa hunarini ko‘rsatib, ishlayotganlarni mamnun qilishi lozim hisoblangan. Aks holda u ham odamlar bilan ariq tozalashga majbur qilingan. Ariq tozalash ishlarining tugashi odatda maxsus uyushtirilgan sayl, baholiqudrat tayyorlangan ziyofat bilan nihoyasiga yetgan.

Shoh moylar esa bahorda birinchi yer haydash ishlarining boshlanishi bilan o‘tkazilgan. Bo‘lajak hosilning mo‘l bo‘lishiga niyat qilib, qo‘shga qo‘shilgan ho‘kiz shoxi yog‘ bilan moylangan va dastlab piri badavlat, uvali-juvali bobo dehqon qo‘sh haydab bergan. Keyinchalik ishni yoshlar davom ettirgan. Bu marosim ham gavjum to‘plangan odamlar ishtirokida sayl o‘tkazish, xursandchilik bilan amalga oshirilgan. Bahor quruq kelgan kezlarda “Sust xotin” marosimi tayyorlangan. Bu marosimda mahalla, qishloq ayollari yig‘ilib mo‘la (poliz

qo‘riqchisiga o‘xshagan qo‘g‘irchoq) yasashgan va uning ustidan suv sepib, qo‘shiq aytishgan. Mavsumiy marosimlarning asosiy maqsadi hayot kechirish uchun tinimsiz harakat qilayotgan insonlar, tabiat, mavjudot, o‘simliklar dunyosi va iqlimning tartibli ravishda o‘zgarishi munosabatlari bilan maydonga keladi.

O‘zbek xalqi mavsumiy marosimlari ichida eng buyugi “Navro‘z” xalq bayramidir. Navro‘z bayrami haqidagi dastlabki ma’lumot Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida uchraydi. Bahorgi kun va tunning teng kelish kunini 3-4 ming yil oldin kashf qilish, 21-martni yangi yil bayrami sifatida tantanali nishonlashning o‘zi yurtmizda ilm taraqqiyoti qanchalar rivojlangani haqida ma’lumot beradi. Quyoshning hamal burjiga kirishini aniq belgilash astronomiya fani kashfiyoti hisoblanadi. Firdavsiyning “Shohnoma”, Umar Xayyomning “Navro‘znoma”, Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarlarida bayramni o‘tkazish tarixi, odatlari haqida tafsilotlar bor. Masalan, Umar Xayyom Navro‘z kuni bosh kohin podshoh oldiga may to‘la oltin jom, uzuk, dirham, dinor, arpa niholi, qilich, o‘q-yoy, dovot va qalamdan iborat sovg‘a olib kelishini va tabriklar izhor qilishini yozadi [1,228].

Bu bayramning bahor faslida o‘tkazilish sabablari bor. Ota-bobolarimiz kun bilan tunning tenglashgan kunini “Navro‘z”, “Nav” – yangi, “ro‘z” – kun ya’ni “Yangi kun” deya tariflashgan. Bu kun odamlar tomonidan juda katta tantana sifatida nishonlanib, qishning sovuq kunlari yer yuzidan chekinib, hayotga issiqlik orqali go‘zallik kirib kelishi, tabiatning yangilanishini bayram sifatida nishonlaganlar. Navro‘z diniy emas, balki, dehqonchilik bog‘dorchilk ishlarining qizg‘in pallaga kirishi bilan aloqador alohida bayramdir.

Bayram ikki qismdan iborat bo‘lib, tashkiliy jarayon, ya’ni qozonlarga sumalaklar solinishi, turli bahor ko‘katlaridan pishirilgan taomlar tayyorlanishi, odamlar to‘planadigan maydon va guzarlarga chorlovchilarning chaqiriqlari karnay-surnay sadolari ostida ijro etilgan, dorbozlar dorlarini qurishgan. Mahalla yoki jamoa oqsoqollarining duo-fotihalaridan so‘ng bayramning ikkinchi qismi boshlangan, ya’ni Navro‘z sayli uyushtirilgan. Shu kuni odamlar bir-birlarini bayram bilan qutlashgan, nizolashganlar yarashishgan, bir-birlariga eng yaxshi tilaklar tilashib, sovg‘a-salomlar ulashishgan. Yosh yigit-qizlar varrak uchirishgan. Halinchaklar uchishgan, uloq-ko‘pkari o‘ynashgan, kurash tushishgan, xo‘roz, bedana, qo‘chqor urishtirishgan. Bayram saylining yakuni sumalak bazmi va turli taomlarni bir-biriga tortiq qilish bilan yakunlangan.

Bu bayram marosim tantanasi bo‘lishga qaramay, o‘zida eng bebaho inson ma’naviyati bilan bog‘liq qadriyatlarni o‘zida jamlagan. Bular birinchidan,

ko‘pchilik hamjihat bo‘lib, ko‘p muhitni shakllantirish, yoshlarga ma’naviy-axloqiy fazilatlarni yetkazish, go‘zal tabiatni e’zozlash va undan bahramand bo‘lish, xalq ijodiyoti namunalarini jamoa o‘rtasida namoyish etish, odamlarda yashayotgan Ona Vatanga, xalqqa, yer yuziga nisbatan chuqur hurmat tuyg‘usini uyg‘otishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, mavsum marosimlari xalqimizning yil fasllari bilan bog‘liq yig‘inlardan iborat. Xalq qadriyatlariga munosabat yomonlashgan zamonlar ta’sirida bu marosimlarning ko‘pchiligi yo‘qolib ketdi. Mustaqillik sharofati bilan ularni qaytadan tiklashga alohida e’tibor berilmoqda. Ma’lumki, Navro‘z keng omma tomonidan nishonlanadigan umumxalq bayramidir. Shu bois bu bayram qo‘shiqlari ommaviy ijrochilikka mo‘ljallangan. Navro‘z bayrami qo‘shiqlarida mehr-oqibat, qut-barakaga bo‘lgan buyuk ishonch, mo‘l hosil olish g‘oyasi, el-yurt xotirjamligi badiiy talqin qilinadi.

Boychechak chiqibdi bugun Navro‘z ekan,
Hamma bir-biriga jigar so‘z ekan.
Olam ham barobar kecha-kunduz ekan,
Boychechak chiqibdi bugun Navro‘z ekan.
Yangi yil muborak bo‘lsin, hoy bobo,
Yangi yil muborak bo‘lsin, hoy momo,
Yangi yil muborak bo‘lsin, onajon,
Boychechak chiqibdi bugun Navro‘z ekan [4].

Qadimda ushbu misralarni bahor kelishi bilan, kuzda hosil mo‘l bo‘lishini umid qilib, ezgu niyatda dalaga don sepgan bobodehqonlarimiz el-u yurtga omonlik, tinchlik, farovonlik tilab kuylaganlar. Bu qo‘shiqlar Navro‘z-yilboshi tantanalarining eng nafis qo‘shiqlaridan biri bo‘lgan. Qo‘shiq misralarida el dasturxoniga baraka yog‘ilishi, halol mehnatni ulug‘lash, ezgu umidlarning maysalanishi, to‘kin-sochinlik, oilalar xotirjamligi, yurt boyligi ekanligi g‘oyasi yetakchilik qiladi.

Bu marosimlar bir tomondan, o‘zbek xalqi qadriyatlarini tarkibining boyligini, qadimiyligini dalillasa, ikkinchi tomondan, o‘zbeklarning qadim zamonlardan uyushgan millat ekanini isbotlaydi. Biz yoshlar xalqimiz hayotida o‘tmish ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan milliy qadryatlarimizni tiklash, davom ettirish, zamonaviy madaniyat va san’at shakllari orqali ularni xalqning o‘ziga, qolaversa o‘sib kelayotgan yosh avlodlar ma’naviy olamiga singdirish vazifasini bajarishimiz lozim.

Adabiyotlar:

1. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. O‘quv qo‘llana. Toshkent-2010. 227-b.
2. S.Yo‘ldasheva. Folklor-etnografik jamoalar uslubiyoti. T.: Navro‘z 2014. 162-b.
3. Tuzuvchi va mas’ul muharrir: S.Yo‘ldasheva. O‘zbek xalqining milliy folklor san’ati va etnomadaniy qadriyatlari. Ilmiy to‘plam. T:, Navro‘z. 2014. 184-b.
4. “Rizvongul” folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi repertuaridan.
5. Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari. – T.: “Sharq” , 2002. 94-b

MILLIY QADRIYATLAR BAYRAMI – NAVRO‘Z!

Ozoda TUYMAYEVA,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, “Madaniyatshunoslik” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Navro‘z – qirq kungacha davom etadigan umumxalq shodiyonasi. U haqida ulug‘ ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy shunday yozadi: “…Navro‘z butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya’ni bahor yomg‘irining birinchi tomchisi tushishidan gullar ochilguncha, daraxtlar gullashidan mevalar yetilguncha, hayvonlarda shahvat qo‘zg‘alishidan to nasl vujudga kelguncha davom etadigan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro‘z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan”.

Kalit so‘zlar: Ajdodlarimizning Navro‘zga ta’rifi, qadriyatlar, urf-odat va an’analar.

Аннотация. Навруз – национальный праздник, который длится сорок дней. Абу Райхан Беруни, наш великий предок, пишет о нем: приходит время, которое длится от приобретения к поколению. Вот почему Навруз ест начало и начало мироздания».

Ключевые слова: Определение Навруза нашими предками, ѕенности, обычаи и традиѕии.

Annotation. Navruz is a national holiday that lasts for forty days. Abu Rayhan Beruni, our great ancestor, writes about him: comes at a time that lasts

from acquisition to generation. That is why Navruz is the beginning and the beginning of the universe. "

Key words: Definition of Navruz by our ancestors, values, customs and traditions.

Navro‘z – qirq kungacha davom etadigan umumxalq shodiyonasi. U haqida ulug‘ ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy shunday yozadi: “... Navro‘z butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya’ni bahor yomg‘irining birinchi tomchisi tushishidan gullar ochilguncha, daraxtlar gullashidan mevalar yetilguncha, hayvonlarda shahvat qo‘zg‘olishidan to nasl vujudga kelguncha davom etadigan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro‘z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan”.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, dastlabki yetti kun Navro‘zning birinchi bosqichi bo‘lib, bayramning avj nuqtasi hisoblangan. Shu kunlar mohiyati yetti raqamida aks etgan. O‘tmishda Navro‘z dasturxoniga yetti xil taom tortilishi, yetti xil ko‘katdan ko‘ksomsa tayyorlanishi, yetti xil dondan Navro‘z go‘jasi pishirilishi, qolaversa, shu yetti kun davomida kamonchilar, dorbozlar, polvonlar musobaqasi o‘tkazilib, yettinchi kuni nishonga oltin tanga qo‘yilishi ham bejiz emas.

Navro‘z sumalak, halim saylidan boshlangan. Otchopar, uloq, kurash singari xalq o‘yinlari o‘ynalgan, bahor haqidagi qo‘shiqlar kuylangan. Bundan tashqari, bayram lola sayli, boychechak aytish, qarindosh-urug‘, mahalladoshlarning bir-biridan xabar olishi, hashar va “ho‘kiz shoxini moylash” kabi an’analar bilan aprelda ham davom etgan. Navro‘z odamlarni tabiat bilan uyg‘un bo‘lib yashashga undagani sababli tantana bilan nishonlanishi kayfiyatni ko‘taradi, davrlar osha yashayveradi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Ne’mat Aminovning “Bir asr hikoyati” kitobida kurash va polvonlar to‘g‘risida shunday hikoyat keltirilgan: “... Man Sizga aytsam, payg‘ambarlar o‘z mo‘jizalari bilan, avliyo-valilar karomatlari bilan, bahodir va pahlavonlar imo-ishoralari bilan el orasida mashhur bo‘lganlar. Akam rahmatli Shukrullo Maxsum bir hikoyani aytib bergan edilar. Amirning rikobi polvonlari haqida. Shu hamon esimda. Bu hikoyani u kishi amirning rikobi polvoni, qorako‘llik Ahmad polvondan eshitgan ekanlar.

Ahmad polvon shaharda turg‘un bo‘lib qolgan qarovsiz bir chol bo‘lib, bizlarning “Sanoat” kolxozi saroyida saroybonlik qilgan juda kamgap qariya edi. Amir Olimxon taxtga o‘tirgan yilning ikkinchimi yoki uchinchi yilida Guli surx-(Navro‘z) bayrami munosabati bilan Shirbuddinda o‘tkazilgan bir kurash

musobaqasi haqida hikoya qilib bergan ekan. Bu kurashga butun amirlikka qarashli bu yog‘i Chorjo‘y-u Forob, bu yog‘i Xatirchi-yu G‘ozg‘on ato, nariyog‘i Dushanba — Hisor va yana bir tomoni G‘uzor hamda Boysun tog‘lariga tutash manzillardan yelkasi yerga tegmagan mashhur polvonlar taklif etilgan ekan... Katta yalanglikda minglab chodirlar tikilibdi. Bir yonda dorbozlar, yana bir yonda qo‘g‘irchoqbozlar davra qurishgan. Bir tomonda qo‘chqorlar kalla tashlashadi, ikkinchi tomonda bedana va xo‘roz urishtirish... jarchilarning tomoqlari quruqshab ovozlari bo‘g‘ilib qolgan.

Alqissa, Navro‘z oftobro‘yasida tikilgan amiri sabzarang chodirda rikobi polvonlar uchun doshqozonlarda osh tortilibdi. Hammaning og‘zida ertaga bo‘ladigan qorako‘llik Ahmad polvon bilan g‘uzorlik Panji polvonning ta’rif-tavsifi.

Nihoyat, polvonlar oldiga ikkita chinni laganda osh qo‘yilibdi. Osh ustiga ikkita ilik qo‘yilgan ekan. Katta dabdaba bilan chodirga Polvon bobo kirib kelib, “Ali sher-u xudo” vorislarini uzundan uzoq duo qilgach, hariflarni oshga taklif qilibdi. Birinchi bo‘lib g‘uzorlik Panji polvon laganga qo‘l cho‘zib, novvosning oldi oyog‘i boldir suyagini olib, go‘shtini obdon tozalabdi, so‘ng ilikni ikki tomonidan ushlab osongina “qars” etib sindiribdi. Hamma shiftga tiralgan omonat xari sindimi, deb o‘ylab atrofga alanglab qolibdi. Panji polvon osh ustiga chakillab tomayotgan ilikni ho‘plab kovshanib qo‘yibdi.

Ertasiga katta maydonda kurash bo‘libdi. Buni qarangki, davra aylanayotgan g‘uzorlik Panji polvonga Ahmad polvon betob bo‘lib qolgani sababli shogirdi Qoryog‘di polvon ro‘baro‘ bo‘libdi. Dastlabki hamlada Qoryog‘di polvon harifining yelkasiga chang solib, mayda qavilgan olacha to‘nidan laganday joyini yulib olibdi.... hokazo, bu gal ham Ahmad polvonning yelkasi yer iskamay qolibdi...

– Man sizga aytsam, Maxsum uka, o‘sha ilik suyagi “qars” etib singanda yuragim “shuv” etib ketgan edi. “Shuv” etgan yurak bilan davraga chiqib bo‘lmasdi-da! Mardimaydonlarning risolasida shunday yozilgan!.. Shu-shu davra aylanmaydigan bo‘ldim, – deya tan olgan ekan Ahmad polvon chuqur dami sar tortib...
Otamning gaplarini tasdiqlagan bo‘ldim...”.

Navro‘z – o‘zbek xalqining tabiat, yer va uning in’omlariga bo‘lgan muhabbatining o‘ziga xos in’tiqosidir. Shunga ko‘ra, u o‘zida nihoyatda katta tarbiyaviy imkoniyatni mujassamlashtiradi hamda insonlarda mehnatsevarlik,

o‘zaro hurmat, muhabbat, ezgulik, adolat, do‘stlik kabi ijobiy fazilatlarni mustahkamlashga imkon yaratadi. Ushbu bahor va mehnat bayramida dehqonlar erga dastlabki urug‘ni qadashadi, mevali va manzarali daraxt ko‘chatlarini o‘tqazishib, erni bezashga harakat qilishadi, toki bu ijobiy ishlar insonlarga ezgulik keltirishiga, ularning qalbida ishonch va umid tuyg‘ularining shakllanishiga olib keladi.

Qadimgi an’analarga ko‘ra, Navro‘z ayyomi arafasida kishilar ko‘cha va hovlilarni tartibga keltirish, hasharlarda ishtirok etish, daraxtlarni qurigan shox-shabbalardan tozalash va oqlash, ko‘chat hamda gullar o‘tqazish, hushchaqchaq va shodumon yurish, bir-birlariga yaxshi niyatlar tilash kabi shartlarni bajarganlar.

Shu bois qadimdan e'zozlanib kelgan, avloddan-avlodga meros bo‘lgan tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovati ramzi bo‘lgan go‘zal Navro‘z bayrami tarovatini yosh avlodga yetkazish, ular ongiga qadimiy va mo‘tabar an’analarimizga hurmat, tabiatga yaqinlik va uni e’zozlash xislatlarini singdirish muhimdir.

Navro‘z bayramining mazmun-mohiyati bilan yosh avlodlarni tanishtirish ayni muddao bo‘lardi. Navro‘z inson zotini tabiat bilan doimo uyg‘un va hamohang bo‘lib yashashga da’vat etadigan, o‘zaro mehr-oqibat, qadr-qimmat, xayru saxovat ramzi va belgisidir.

Ayni Navro‘z faslida barchamiz o‘zimizning tabiat farzandi ekanligimizni, xalqimizga xos milliy qadriyat va an’analar nechog‘li teran va sermazmun, madaniyatimiz naqadar boy ekanligini butun qalbimiz bilan anglaymiz va beixtiyor yuragimiz g‘urur-u iftixorga to‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Jo‘rayev M. Navro‘z bayrami. O‘zbek folklorshunosligi kutubxonasi. Toshkent: Fan, 2009.
2. Abu Rayxon Beruniy. Tanlangan asarlar .-Toshkent: Fan, 1968.
3. **Internet saytlari:**
4. http://www.tradeunionict.uz/uz/news/15
5. http://marifat.uz/marifat/ruknlar/mvas/2611.htm

O‘ZBEK XALQINING TURMUSH TARZIDA DINIY MAROSIMLARNING AHAMIYATI

Munira MIRBOQIYEVA,
e-mail address. muniramirboqiyeva4@gmail.com
Tel:+998946249411
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti
“Folklor va etnografiya” ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Marosim – inson, oila, jamoa hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko‘tarinkilik vaziyatida o‘tadigan, umum qabul qilingan qoida-tartiblarga amal qilinadigan hayotiy tadbirdir.[6 94b] Ushbu diniy marosimlarning xalqimiz turmush tarzida tutgan o‘rni ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: marosim, folklor urf-odat, diniy marosim, tarix

Annotation. A ceremony is an event which is aimed to celebrate important occasions in a person, family or a society`s life It is an event which is held in a very formal style and followed by some laws that have been accepted by the society.The importance of these kind of events in the life of Uzbek people is scientifically proven

Key words: A ceremony, a folklore, traditions, a history

O‘zining qadimiy va boy milliy madaniyati bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan ajdodlarimiz xilma-xil janrlardan iborat boy folklor an'analariga, milliy ruhiyatimizning ko‘zgusiga aylangan turfa urf-odat, rasm-rusum va marosimlarni yaratgan. Asrlar davomida ezgulikni o'zida aks ettirib kelgan bu tafakkur durdonalarida xalqimizning eng oliyjanob ulug'vor maqsadlarga yo‘naltirilgan qarashlari o‘z ifodasini topgan. Zero badiiy salohiyati g‘oyat yuksak bo‘lgan ajdodlarimiz poetik iqtidorini o‘zida mujassamlashtirgan xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti durdonalari asrlar davomida bitmas-tuganmas ruhiy quvvat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Zukko baxshilarimiz tomonidan kuylab kelingan "Alpomish, "Go‘ro‘g‘li", "Kuntug‘mish" singari buyuk dostonlarda tarannum etilgan bunyodkorlik va yaratuvchilik g‘oyalari hamisha xalqimizga juda katta ma‘naviy quvvat beruvchi qadriyatlar tizimi bo‘lib kelgan. Xalqimiz dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-estetik va falsafiy qarashlarini o‘ziga hos tarzda badiiy talqin qiluvchi marisim folklori o‘nlab janrlarni o‘z ichiga olgan g‘oyat nodir manbaa

hisoblanadi. Marosim qo‘shiqlari va urf-odatlarda ijro etiladigan aytimlar ona diyorimizda yuksak madaniyatni bunyod etgan ulug‘ ajdodlarimizning turmush tarzi, orzu-intilishlari,urf odat va marosimlari,qadri baland an‘analari-yu, o‘zbekona samimiyatini mukammal aks ettirganligi uchun ham qadrlidir. Xalq og‘zaki ijodiyoti asarlari milliy qadriyatlarimizning eng yashovchan, qadimiy, ardoqli va har bir avlod badiiy tafakkurining sarchashmasidan quvvat olib yangilanib boradigan navqiron qatlami sanaladi. Shuning uchun ham xalqimiz o‘z folklorini hamisha asrab avaylab ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylab, takomillashtirib,badiiy jihatdan sayqallantirib keladi [5]. Xalq an’analari va marosimlari jo bo‘lgan asriy qadriyatlar, ma’naviyat ko‘zgusiga aylangan qanotli orzular, folklor ijrochilarining ko‘p asrlar davomidagi ijodiy faoliyati natijasida sayqallanib, barkamollashib kelgan. Bamisoli kamalak jilosidek dillarga ezgulik baxsh etuvchi qadimiy marosimlar hamda xalq an’analarini chuqur o'rganish milliy qadriyatlarimiz mohiyatini yanada teranroq anglash, tushunish imkonini beradi [2 3-bet]. Badiiy tafakkurimizning betakror mo‘jizalarini o‘zida mujassamlashtirgan xalq an‘analari, rasm-rusum, marosimlari xalq og‘zaki poetik ijodi namunalari shu muqaddas zaminda minglab yillar yashab kelgan ota-bobolarimiz iqtidorli va chechan momolarimiz ijodiy salohiyatining mahsuli o'laroq shakllangan azaliy milliy qadriyatlar [3 3b]. Mamlakatimiz o‘zining milliy mustaqilligini qo‘lga kiritgandan boshlab xalqimizning urf-odatlari, marosimlari va an'analariga berilayotgan e'tibor, ularni tiklash, saqlash va keyingi avlodga yetkazish yo'lida samarali sa'y-hurakatlar olib borilmoqda. Zero, yurtimizning kelajagi bo'lgan yosh avlodni eng avvalo milliy an’analar, o'tmishimizga hurmat, tariximiz bilan g'ururlanish ruhida tarbiyalash masalalariga davlatimiz tomonidan e'tibor berilishi mamlakat va millat uchun juda muhim [4 3b].

O‘zbek xalqining turmush tarzida milliy marosimlar qanchalik muhim o‘rin tutsa diniy marosimlar ham huddi shunday muhim ahamiyatga ega. Bulardan; "Arafa" – ro‘za va qurbon oylarining oxirgi kunlari,xayit kunlari boshlanishidan oldingi kun,sayil oldi tayyorgarlik ko‘rish udumi. "Arafa" so‘zi Arabistondagi Arofay tog‘ining nomidan olingan bo‘lib, hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha zulhijja oyining 9-kunida xojilar ana shu tog‘da jam bo‘ladilar va toqqa chiqib namoz o‘qiydilar Hayitdan oldingi kunning "arafa" qilinishi odati ana shundan kelib chiqqan. Arafa kuni barcha xonadonlarda hayitga tayyorgarlik ko‘riladi, bekalar bo‘g‘irsoq cho‘zma-chalpak pishirib is chiqaradilar. Aqiqa – oilada yangi farzand dunyoga kelishi munosabati bilan bola tug‘ilganidan 10 yoki 21 kun o‘tgach o‘tkaziladigan marosim. Bu marosim nomini ifodalovchi aqiqa so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib

"yarim qimmatbaho tosh" ma'nosini bildiradi va ba‘zida joylarda "bolaning sochini olish" ma‘nosida ham qo‘llaniladi. Kokil to‘yi–yosh bolalarning sochini olganda orqa tarafida qo‘yilgan kokil – "haydar"ni kestirish marosimi. Xorazmda bola 1 yoshga to‘lgan kuni yaqin qarindoshlar, qo‘ni-qo‘shnilar bu oilani qutlash uchun yig‘ilishadi. Tantanaga xalq xo‘shiqlari garmon va doira jo‘rligida mohirona ijro etuvchi hushovoz xalfalar va sartarosh taklif qilinadi. Bolaga qo‘yilgan "xaydar" sunnat to‘yi kuni yoki bu tantanadan bir necha kun avval qirqib olingan "Kokil to‘yi" deb atalgan bu marosim odatda oila davrasidan qo‘ni-qo‘shnilar va qarindoshlar bilan birgalikda o‘tkaziladi. Qirqib olingan "xaydar" ni devor yorig‘iga yoki tol tagiga ko‘mishgan. Xalq qarashlariga ko‘ra, bolaning sochi tol tagiga ko‘milsa o‘sha bola tolga o‘xshab tez o‘sar emish. Sochni oldirganda kokil qoldirish udumi qadimgi turkiylar davrida ham mavjud bo‘lgan. Bu odatning bir ko‘rinishi Tog‘li Oltoyda istiqomat qiluvchi turkiy qavmlarda saqlanib qolgan: ularning udumiga ko‘ra, balog‘atga yetgan yigitlar sochini oldirganda boshining tepa qismi yoki orqasida kokil qoldiradilar. Sunnat to‘yi–o‘g‘il bolalarning "qo‘lini xalollash" ya‘ni sunnat qilish marosimi. "Sunnat" so‘zi aslida arabcha so‘z bo‘lib "hamma qabul qilgan qoida, odat" ma'nosini anglatadi. Bu marosim ko‘pgina joylarda "hatna to‘yi" deb ham ataladi. Zero "xatna atamasi ham arabcha bo‘lib "hamma qabul qilgan qoida, odat" degan ma'nolarni anglatuvchi "xatnun" so‘zidan olinganligi uchun o‘g‘il bolalar jinsiy a'zosining uch qismini kesish bilan bog‘liq marosim ham "xatna to‘yi" deb yuritiladi. Bu marosim mamlakatimizning viloyatlarida "hatna to‘yi", "sunnat to‘yi", "ummat qilmoq", "xuydo-xuydo qilmoq", "chuk to‘yi", "to‘yi pisar", "o‘g‘il to‘yi" kabi nomlar bilan ataladi. Mamlakatimizning turli viloyatlarida o‘tkaziladigan xatna to‘yi o‘z tartibiga mansub udumlari bilan bir-biridan farqlanib turadi Hususan, N Qurbonovaning fikricha Xorazm vohasida istiqomat qiluvchi aholi orasida xatna to‘yi "maslahat palovi", "ko‘rpa iyma", "bug‘doy artish", "un artish", "idish tayyorlash", xo‘may-o‘g‘ich yo‘nish", "cho‘pon bichish", "potiya olish", "bola gizlash", kabi udumlarni o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi marosimlar yurtimizning deyarli barcha hududlarida uzoq yillardan beri o‘tkazilib kelinadi va xalqimiz turmush tarzining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘tmish ajdodlarimizdan me‘ros bo‘lib qolgan necha- necha asrlar silsilasidan o‘tib bizgacha yetib kelgan bu kabi marosimlarni, ma‘naviy meroslarni asrab-avaylab kelgusi avlodga me‘ros qoldirish biz yoshlarning burchimizdir.

Adabiyotlar:

1. 1 A. Ashirov O‘zbek xalqining qadimiy etiqod va marosimlari. 2007 Toshkent 3-bet.
2. 2 S. Yo‘ldosheva Xalq urf-odat va an‘analari 2003 Toshkent 3-bet.
3. 3 S. Yo‘ldosheva Marosim va udumlarni sahnalashtirish 2008 Toshkent 3-bet
4. 4 S. Davlatov O‘zbek marosim va udimlarining etnohududiy hususiyatlari 2019 Toshkent 3- bet
5. 5 M. Jo‘rayev L. Xudoyqulova Marosimnoma. 2008 Toshkent 9,10,57,
6. 6.Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari. – T.: “Sharq” , 2002. 94-b

NAVRO‘Z XALQ BAYRAMI AN’ANALARI

Ravshanxon IBROHIMOV,
O‘zDSMI 2-bosqich magistranti.

Annotasiya. O‘zbek xalqining madaniy hayotida Navro‘z xalq bayrami bilan bog‘liq yuzaga kelgan turli marosim va og‘zaki ijod namunalari bugungi jamiyatimiz e’zozlayotgan milliy qadriyatlar qatorida muhim o‘rin egalladi. Shu bilan birga Navro‘z an’analari va folklor qo‘shiqlari davrga hamohang folklor – etnografik ansambllari, taniqli xonanda va estrada jamoalari talqinida yangi badiiy jihatlar bilan boyitilib, maydonlarda o‘tkazilayotgan bayram tomoshalarida keng o‘rin tutmoqda.

Kalit so‘zlar: bahor, navro‘z, an’ana, marosim, qo‘shiq, boychechak, bayram, tantana.

Аннотация. В культурной жизни узбекского народа различные обряды и фольклорные образцы, связанные с национальным праздником Навруз, заняли важное место среди национальных ценностей, почитаемых нашим обществом сегодня. При этом традиsии и народные песни Навруза

обогащаются новыми художественными чертами в интерпретации фольклорно-этнографических ансамблей, известных певцов и эстрадных коллективов, которые занимают широкое место в праздничных выступлениях, проводимых на площадях.

Ключевые слова: весна, навруз, традиsия, обряд, песня, подснежник, праздник, торжество.

Abstract. In the cultural life of the Uzbek people, various rituals and folklore samples associated with the national holiday Navruz have taken an important place among the national values revered by our society today. At the same time, the traditions and folk songs of Navruz are enriched with new artistic features in the interpretation of folklore and ethnographic ensembles, famous singers and pop groups, which occupy a wide place in the festive performances held in the squares.

Key words: spring, navruz, tradition, ritual, song, snowdrop, holiday, celebration.

Ma’lumki, Navro‘z – Sharq xalqlarining qadimdan kelayotgan yangi yil bayramidir. Bayram taraddudi esa bahor kirib kelishi bilan boshlangan. Chunki “fasllar kelinchagi” nomini olgan yilning bu davriga kelib tabiat va butun borliq yangilanish tusini olib, chiroy ocha boshlaydi. Bu haqda bizgacha yetib kelgan ko‘plab yozma asarlardan qimmatli ma’lumotlar olish mumkin. Masalan, XI asrda yashab faoliyat ko‘rsatgan turkigo‘y mutafakkir shoir Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) dostonida bahor faslini shunday vasf etadi [1, 13-14 b.]:

Esa keldi Sharqdan bahorning yeli,
Olamga ochildi go‘zallik yo‘li.
Bo‘z yer iporlandi qor-u muz ketib,
Bezanadi olam chiroy ko‘rsatib.

G‘olib keldi qishdan bahor chiroyi,
Yangidan qurildi bahorning yoyi.
Quyosh qaytdi yana kelib o‘rniga,

Baliq quyrug‘idan qo‘zi burniga.

Tabiatning chiroy ochib kelishi Navro‘z shodiyonasini daraklovchi o‘ziga xos muqaddima bo‘larkan, yangi yil kunini aniqlashda xalqlarning asriy kuzatuv tajribasi va olimlarning fikri ham e’tiborga olingan. Jumladan, alloma Abu Rayhon Beruniy **(973 – 1048) qalamiga mansub „**Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar“ kitobida Quyosh yili hisobida yilning birinchi oyi deb sanalgan Farvardin oyi to‘g‘risida shunday deyiladi: «Bu oyning birinchi kuni Navro‘zdir, – deydi. Navro‘z yilning birinchi kuni bo‘lib, uning forscha nomi ham shu ma’noni anglatarkan.

Navro‘z eronliklar „zij“lari bo‘yicha o‘tmish zamonlarda, ular yillarini kabisali qilgan vaqtlarida Quyoshning Saraton burjiga kirish paytiga to‘g‘ri kelar edi. So‘ngra u orqaga surilgach, bahorga keladigan bo‘ldi. Endi u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya’ni bahor yomg‘irining birinchi tomchisi tushishidan, gullar ochilgan, daraxtlar gullashidan mevalari yetilguncha, o‘simlik unib chiqa boshlashdan takomillashguncha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro‘z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan» [2].

Navro‘zni asrlar davomida ommaviy bayram sifatida o‘tkazib kelayotgan Sharq xalqlarining madaniy hayotida shu tantana bilan bog‘liq turli o‘yin, an’ana va milliy qadriyatlari ham shakllangan edi.

Bizning ajdodlarimiz, masalan, Navro‘z bayrami kunlari «Kurash» «Ko‘pkari», «Arqon tortish», «Chillak», «Xo‘roz urishtirish», «Oq terakmi, ko‘k terak», «Beshtosh», «Tez aytish», «Kim oladi-yo, shuginani-yo?» kabi quvnoq o‘yinlarni o‘tkazishgan [3].

Shu bilan birga o‘zbek xalq og‘zaki ijodida shakllangan qo‘shiqlar ham milliy qadriyatlarning muhim qismini egallaydi. Jumladan, xalq an’anasiga ko‘ra, boychechak o‘simligi Navro‘z kunining xabarchisi hisoblangan. Shuning uchun boychechakni qiru-adirlardan topib kelgan yoshlar mahallaning har bir xonadoniga kelib “Boychechak” qo‘shig‘ini aytish bilan Navro‘z kelgani haqida xushxabarni ham ma’lum qilganlar. Xonadon egalari esa ularga sovg‘a-salom va turli shirinliklar ulashishgan[4, 29 b.].

Dehqonlar esa yer haydash ishlarini boshlash arafasida «Qo‘sh chiqarish» («Shox moylar») marosimini o‘tkazganlar. Bunda «qishloq ahli yig‘ilishib, eng yaxshi ho‘kizlardan biri juftini omochu bo‘yinturug‘i bilan dalaga olib chiqishardi». «Bu yil mo‘l-ko‘lchilikda yashaylik, serobchilik bo‘lsin, oyog‘ing tekkan joyga baraka bersin» - deb Navro‘zga atab pishirilgan bo‘g‘irsoq yog‘i bilan

ho‘kizlarning shoxlarini moylashgan. Sumalak pishirish uchun undirilgan maysadan ozginasini ho‘kizga yedirishgan. Qishloq keksalaridan biri Bobo Dehqon bo‘lib, dalada birinchi qo‘sh soladi»[5, 71 b.] .

Lola sayli ham tantanali o‘tkazilgan. Bunda yoshlar lolalarni terib kelishgach, keng maydonlarda aholi ishtirokida lola haqida maxsus qo‘shiqlar aytilgan:

Lola, lola, lolajon, o‘sar joying dalada.
Lola, lola, lolajon, chidadingmi jalaga.
Yur sayilga boraylik, lolalarni ko‘raylik,
Quchog‘imiz to‘ldirib, lola gullar teraylik.

Shu singari mazmundagi ko‘plab lola qo‘shiqlari xalq sayilini ko‘tarinki bayram ruhida o‘tkazilishida o‘rni muhim bo‘lgan [4, 34 b.].

Navro‘z bilan bog‘liq xalq bayrami marosimlari va ularda kuylangan qo‘shiqlar bugungi kunda turli viloyatlarda tuzilgan ko‘plab folklor-etnografik jamoalari faoliyatida katta o‘rin tutmoqda. Buni ansambllarning sahnaviy konsertlari, “Zamin ohanglari” teleko‘rsatuvi va bevosita Navro‘z umumxalq bayrami kunlari maydonlarda o‘tkazilayotgan tomoshalardagi ishtirokidan ham ko‘rib bilish mumkin.

Shu bilan birga, bahor fasli va Navro‘z xalq bayrami qo‘shiqlari taniqli xonanda va estrada guruhlari tomonidan ham sevib ijro etilmoqda. Bu esa qadimiy Navro‘z xalq bayrami qo‘shiqlarini zamonaviy ohanglar bilan uyg‘unlashtirib, hozirgi avlodlarning shodiyona tuyg‘ularini yanada zavqli etishga xizmat qiladi, deb umid qilamiz.

Adabiyotlar:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. (Saodatga eltuvchi bilim).–T.: CHo‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
2. http://surgery.med.tma.uz/uz/archives/2607.
3. https://myday.uz/uz/kreativ/navroz--qadim-qadriyatlar-tarova.
4. Ibrohimov O. O‘zbek xalq musiqa ijodi.– T.: 1994.
5. Navro‘z. Tuzuvchilar: T.Mirzayev, M.Jo‘rayev. – T.: Fan, 1992.

NAVRO‘Z TANTANASI BAHODIR YO‘LDOSHEV REJESSURASIDA

Nigora G‘oyibnazarova,
O‘zDSMI dramatik teatr rejessyorligi yo‘nalishi
1-kurs magistri

Annotasiya. Maqolada taniqli san’at arbobi Bahodir Yo‘ldoshevning Navro‘z bayramini respublika poytaxtida o‘tkazish tadbirlarida rejessyor sifatidagi ijodiy faoliyati yoritilgan hamda uning tajribalari san’atshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Navro‘z bayrami, milliy an’analar, kuy-qo‘shiq, teatr sahnasi, ijodiy yechim, tarixiy ma’lumotlar, kompozisiya, siyosiy tadbir.

Аннотация. В статье освещается творчество известного деятелья искусства сцены Баходыра Юлдашева в качестве режиссера на праздновании Навруза в столице и анализируются его опыты с точки зрения искусствоведения.

Ключевые слова: праздник Навруз, национальные традиции, музыка, театральная сцена, творческое решение, историческая сведение, композиция, политическое меропрятие.

Annotation. The article highlights the work of the famous artist of the stage Bakhodir Yuldashev as a director at the celebration of Navruz in the capital and analyzes his experiences from the point of view of art criticism.

Key words: Navruz holiday, national traditions, music, theatrical stage, creative solution, historical information, composition, political event.

Navro‘z asli forscha so‘z bo‘lib yangi kun ma’nosini beradi. Bu bayram barcha O‘rta Osiyo xalqlarining milliy bayrami sanaladi [1.] Tarixiy manbalarda keltirilishicha Navro‘zning shakllanish davri - eng qadimgi zamonlardan zardushtiylikning paydo bo‘lishiga qadar ham davom etgan asrlarni o‘z ichiga olgan ekan. Sharq xalqlarining eng xayotbaxsh va qadimiy bayrami Navro‘zning qachon paydo bo‘lgani xususida turli mulohazalar bildirilgan. Atoqli olim Hodi Zarif Navro‘zi olamning yoshini kamida uch ming yil, xatto undan ham kattaroqdir deb hisoblagan. Qadimiy kitoblardagi ma’lumotlarga asoslanib, Navro‘z bayrami haqidagi ma’lumotlar Abulqosim Firdavsiy o‘zining «Shohnoma» asarida, Abu

Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” va boshqa asarlarida, Umar Xayyomning “Navro‘znoma” asarida uchraydi. Hatto Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida Navro‘zga bag‘ishlangan xalq qo‘shiqlari keltirilgan [2.]

O‘rta osiyolik tarixchi olim Abu Bakr al-Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida ham Navro‘z kuni kuni haqida ma’lumotlar keltirilgan. O‘rta Osiyo hududida Navro‘z bayrami nishonlanganligi to‘g‘risida boshqa manbalarda ham ma’lumotlar bor. Ko‘rinib turibdiki, Navro‘z bayrami Markaziy osiyo xalqlarining qadimiy va azaliy bayramidir va bu kunni yangi yilning boshlanishi deb quvonch bilan kutib olganlar [3.]

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, Navro‘z ko‘p asrlik nishonlanish tarixiga ega bo‘lgan bo‘lsa ham yurtimizning yangi tarixida ham davlat bayrami maqomini olgan yagona tabiat bayramidir [4.] O‘zbekistonda 1990-yildan boshlab, hali mustaqillikka erishmasimizdan avval Navro‘z bayramini nishonlash tashabbusi ilgari surildi. Ammo xalqimiz o‘tmish xotiralari bilan hali bunday bayramni milliy bayram sifatida nishonlashga tayyor emas edi. Bilamizki, bu bayram uchun qo‘yilgan tazyiq va taqiqlardan xalqimiz yetarlicha aziyat chekib bo‘lgan edi. Avvalo, buning uchun taxqirlangan insoniylik qadriyatlarini qayta tiklash va yangi jamiyat barpo etish lozim edi. Shunday qilib, davlat siyosati tashabbusi bilan Navro‘z bayrami xalqimiz katta xursandchilik bilan nishonlaydigan umumxalq bayramiga aylandi.

2010-yil BMT 21-martni xalqaro Navro‘z kuni deb e’lon qildi. 2009-yil esa ushbu bayram YUNESKOning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi. Navro‘z shodiyonasi har yili 21-mart kuni yurtimizda keng nishonlanadi va bu kun har yili barcha uchun dam olish kuni sanaladi. Eng katta bayram poytaxtda o‘tkaziladi. 1991-yildan buyon Navro‘z tantanalari katta maydonda o‘tkazish an’anaga aylangan. Yurtimizning barcha san’at ahlini bir joyga jam qilib elimizga ko‘tarinki bir ruhda bayram shukuhi ulashiniladi. Katta va keng maydonda milliy kuy qo‘shiqlar, folklor o‘yinlar va boshqa urf-odatlarni o‘zida jam qilgan o‘yin kulgular xalqimiz e’tiboriga havola etiladi. Bayram tadbiriga tayyorgarlik davrida barcha tegishli idora va mutasaddilar jalb etiladi. Nafaqat yurtimiz ahli balki chet ellik mehmonlar ham bu bayramga taklif etiladi. Bayram dasturi ko‘tarinki ruhda o‘tishi albatta katta kuch va ma’sulyat yuklaydi. Butun respublika an’ana va udumlarini bir joyga to‘plab xalqimiz va chet ellik mehmonlar e’tiboriga havola etish uchun mahorat talab etiladi. Shunday mas’ulyatli vazifani yelkasiga olgan insonlardan biri O‘zbekiston xalq artisti, marhum rejissyor Bahodir Yo‘ldoshev

edi. U o‘z iste’dodi va san’atkorligi va tashkilotchilik qobiliyati bilan birgina Navro‘z tadbiri orqali dunyo nigohida turgan O‘zbekistonning milliy an’analarini, urf-odatlarini, o‘zbek xalqining naqadar mehmondo‘st va bag‘rikeng ekanligini ham ko‘rsatib bera oldi. 2006-yildan boshlab u bayram tadbirining bosh rejessyori sifatida faoliyat ko‘rsatdi [5.]

Uning har bir tadbiriy dasturida har bir voha va vodiylarning urf-odatlarini qo‘shiq-kuy orqali jam qilib bir guldasta misol tomoshabinlarga taqdim etardilar. Eng qiziqarlisi har yilgi Navro‘z tantanalari bir-biriga o‘xshamagan holda rang-barang qilib, yuksak mahorat ila sahnalashtirilar edi. Ssenariydan o‘rin olgan har bir chiqish shunday ketma-ketlikda dasturga joylashtirilar ediki, xuddi bir butun asar bo‘lar edi go‘yo. Rejissyor tadbir ishtirokchilarining hatto bayram liboslarigacha e’tibor qaratardilar, Bu rejissyorning o‘z ishini ustasi ekanligidan dalolat berar edi. Bunda uning teatrdagi rejessyorligi ham katta yordam berardi. O‘zbekiston xalqi telvideniye orqali uzatiladigan ushbu bayram tantanalarini intizorlik bilan kutar va katta qiziqish bilan “Bu yilgi bayram konserti qanday bo‘lar ekan?” deya kutishardi. Bahodir Yo‘ldoshev butun xalqning nigohini sezgan holda boshqacha bir kuch bilan yondashar edilar. Bir so‘z bilan aytganda, u O‘zbekiston bayramlarini o‘tkazish bo‘yicha “akademik”edilar. Xulosa qilib aytganda:

- Bahodir Yo‘ldoshev rejessyorligida qo‘yilgan bayram tantanalari videoyozuvlarini arxivlardan topib, o‘quv jarayonlarida bot bot namoyish qilib, uning mahoratini tahlil qilish an’anasini yo‘lga qo‘yish kerak.
- Keyingi yillarda namoyish etilgan Navro‘z bayrami tantanalari ssenariylarini boyitishda arxiv manbalardan tanqidiy va ibratiy yo‘sinda foydalanish lozimdir.

Adabiyotlar:

1. Farhangi zaboni tojiki. Izd. “Russkiy yazik”. M.: 1969. Jildi II. sah. 344.
2. Koshg‘ariy, Mahmud. Devoni lug‘at it turk. 1-tom. Fan. T.:: 1965.
3. O‘zbekiston tarixi. 1-jild. 2013.
4. Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari. “O‘zbekiston”. T.: 2001.
5. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2007.

NAVRO‘Z ILA UCHINCHI UYG‘ONISH SARI...

Ajar NORMENOVA,
O‘zDSMIning Kino, televideniye va
radio rejissorligi yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Navro‘z bayramining hozirgi Z-avlodi uchun qanchalik ahamiyatli, BMT Bosh Assambleyasi rezolutsiyasi bilan Xalqaro Navro‘z kuni sifatida e’tirof etilgan va YUNESKO tomonidan Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilishidan ko‘zlangan maqsad va yurtboshimiz tomonidan qo‘yilgan “Millat Uyg‘onishiga” erisha olishimizdagi milliy qadriyatlarimiz o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Z-avlod, renessans, BMT, YUNESKO, inson, qariyat, tabiat, insoniyat.

Navro‘z bayrami xalqlarni birlashtiruvchi madaniy va tarixiy qadriyatdir. U ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lib qolgan buyuk meros, biz uni asrab-avaylashimiz kerak. Endi bu kabi gaplar bilan hozirgi avlodni, aniqrog‘i, Z-avlodni na tarbiyalay olasiz, na qiziqtira olasiz?! Unda nima qilish kerak? O‘zi Z-avlod degani nima? Z-avlod biz kabi insonlarmi yoki robotlashgan, chiplangan odamlar to‘dasimi? Bu savollarning cheki yo‘q. Bo‘lsa ham, 90-yillardan avval tug‘ilgan avlod va undan ham oldingilar uchun bu o‘zga bir olam. Parallel olam! Chunki ular yonma-yon yashasa ham o‘zining insoniy qadriyatlari bilan turlichadir.

Z-avlod bu bizning ukamiz, singlimiz, farzandlarimiz, mahalladosh bobo va buvilarning nevaralari, evaralari - bizning kelajagimiz! Ilmiy tilda 1995-2010-yillar oralig‘ida tug‘ilgan bolalar. Internet bor muhitda tug‘ilgan, ijtimoiy tarmoqlar: instagramm, telegram, whatsup, tik-tok, smartfonlar, gadjetlar va shu kabi elektron o‘yinchoqlar bilan katta bo‘lgan farzandlar! Jonimiz, qonimiz, jigarimiz, lekin nimaga biz uchun muqaddas bo‘lgan oqibat, mehr-muruvvat, qon-qardoshlik, siylai rahm, atrofni toza tutish, pokizalik kabi qadriyatlarni jam qilgan Navro‘z bayramini nishonlash ular uchun eskilik sarqiti yoki yoshi kattalar uchun bayram maqomida bo‘lishi kerak?! Oshirvoryapsiz deb aytishingiz mumkin, lekin panja ortidan qaramasdan, bor ahvolni tahlil qiladigan bo‘lsak, ular uchun Navruz bayrami uzog‘i bilan fotogaleriyasini

to‘ldiruvchi yana bir selfi qilingan foto. Ehtimol, buning yomon tomoni yo‘q. Ular bayramni o‘zlariga xos nishonlashmoqda. Ammo bu ilmsizlik niqobi bo‘lsachi, degan gumon odamni sergaklantiradi. Mohiyatni anglashga intilmaslik, yana bir ko‘ngilochar videolar uchun mavzudan nariga o‘tmaslik o‘zi bu bayramning millatga, milliy ruhga va umuman butun insoniyat uchun muhimligi haqida keyinroq bafurja to‘xtalib o‘taman. Xullas, NAVRO‘Z yoki YANGI KUN bizga nimaga kerak?! Xususan, Z-AVLOD uchun.

Z-avlod va biz hozirgi axborot xuruji davrida to‘g‘ri ma’noda aqldan ozmaslik uchun biroz loqaydmiz, ya’ni bu bizning yashab qolishimiz uchun zarur. Bugungi kundagi millionlab axborot oqimi orasida inson, odam bo‘lib qolish oson ish emas! Shuning uchun miyamiz portlamasligi uchun faqat o‘zimiz uchun kerakli axborotgagina inson sifatida munosabat bildiramiz. Qolgan vaqtlarda biz hissiz robotlar kabi ma’lumotlarni o‘qiymiz, go‘yo avtopilotda yurgandekmiz. Bizning qadriyatlarimiz bor. Bizning bobolarimiz qir-adirlarda ko‘klam chog‘i ot choptirgan, momolarimiz bug‘doy undirib, katta-katta doshqozonlarda sumalak qaynatib, doira bilan laparlar aytgan. Biz esa otalarimiz yasab bergan varraklarni uchirardik, bog‘lardan gullar terib, onajonimizning yasab bergan gulchambarlari boshda, dugonalarimiz bilan quvlashmachoq o‘ynaganlarimiz hali-hanuz ko‘z oldimizdan ketmaydi. Bu shirin xotiralarni eslagan zahoti qalbimiz entikib ketadi, yuragimiz tez-tez ura boshlaydi. Ha, biz tirikligimizni, inson, odam farzandi ekanligimizni his qila boshlaymiz. Qalbimiz to‘la orzu-umidlar, aqlimizda kelajak uchun buyuk maqsadlar! Bu ertangi kun uchun umid, yana bir yangi kun uchun energiyadir. Siz, hozirgi yoshlar Z-avlodni loqayd, dangasa deb ayblaganda, ular o‘sgan muhitni ham inobatga olishingizni istardim! Ha, ularning usti but, qorni to‘q, beli bukilib sizdek mehnat qilmas. Ammo ular sizdek baxtni his qila olmaydi?! Yoki his etishlari uchun zarur muhit yo‘q. Ular haqiqatan kam harakat, jismoniy mehnat qilmayotgani atrofda bunga ehtiyoj yo‘qligidandir. Ularni ayblashdan oldin ularning o‘rniga o‘zimizni qo‘yib ko‘rsak. Onamizning Navro‘z bayramidagi halimini fast-foodga almasharmidik, sumalak uchun tayyorgarlik ko‘rayotgan momolarimizning xushchaqchaq hangomalarini tik-tokka almasharmidik?! Aslo!!! Huddi shunday ular uchun fast-food va tik-tok ularning “qadriyatlar”idir. Ming afsuski, ular shu yod unsurlar bilan o‘z bo‘shliqlarini to‘ldirishyapti. Kunlari esa bir-biriga bir tomchi suvdek o‘xshashligidan ertangi kuni – “Navro‘z”ini umidsizlik bulutlari qoplagandek…

Z-avlod, ya’ni yoshlar aslo g‘ayratsiz emas, ular loqayd ham emas! Ha, muammolari mavjud. Bu muammolarni sizning, bizning, millatimizning hamjihatligi bilan bartaraf etsa bo‘ladi. O‘shanda ularga ham Navro‘z, albatta, keladi!

Buning uchun, avvalo, Z-avlodni virtual olamdan tabiat qo‘yniga, hayotga qaytarishimiz kerak. Bunda Navro‘z sayllari, ayniqsa, foydali. Navro‘zda nafaqat tabiat, balki butun borliq qaytadan kuch to‘plab, yangidan hayot uchun poklanadi. Go‘yo yangi tug‘ilgan chaqaloqdek beg‘ubor. Hayotning yangi sahifasi… Navro‘z bayramini nishonlash davri hamisha insoniylik, oilaviy munosabatlar, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalari, mehmondo‘stlikning namoyonidir. Shu sababli, 2009-yil sentabr oyida Navro‘z bayrami YUNESKOning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. 2010-yil fevral oyida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 21- mart – Xalqaro Navro‘z kuni deb e’lon qilingan.

Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, Navro‘z butun insoniyat - Yer aholisi uchun juda ahamiyatli. Chunki Insoniyat o‘zining ibtidosidan ancha yiroqlashgan. Ruhan uzoqlashgan. Jisman esa tabiatga, bevosita o‘ziga ozor bermoqda. Tafakkur qilmaysizmi, bu mo‘jizakor tabiat faqat siz-u biz uchun yaratilgan.

Navro‘z borliqni uyg‘otgandek, bizning ruhimizni ham uyg‘otadi.

Uchinchi Renessans - o‘z qo‘limizda!

YANGI NAFAS! YANGI BILIM! YANGI KUN!

Qishda daraxtlarning yalang‘och holini ko‘rganda, Navro‘zdagi qiyg‘os gullarni tasavvur qilganmisiz?! Ehtimol, hech qachon. Yuqoridagi gaplar ham quruq va balandparvoz bo‘lib eshitilgandir. Lekin Navro‘zda o‘z ko‘zlaringiz bilan bu mo‘jizaga guvoh bo‘lasiz.

Biz Alloh yaratgan mukarram zotmiz. Bizning begunoh farishtalardan ustunligimiz tafakkurimizda. Yaratgan bergan bu in’omining qudratini o‘zi bilgusidir. Butun dunyo tan olgan allomalarimizning ishlari biz uchun yaqqol misol. Ularning bu yutuqqa erishishlarida Navro‘zdagi ruhiy va jismoniy poklanishning o‘rni juda katta bo‘lgan. Yangi ilm, bilim, ko‘nikmalar ular uchun yangi nihol uchun quyilgan suvdek oziq bo‘lgan. Ularning umr yo‘llariga qarar ekanmiz, ilm o‘rganishda aslo cheklov qo‘yishmagan. Ilmni qaysi yurtdan, qaysi eldan o‘rganmasin, avvalo, insoniyat farovonligi uchun qo‘llashgan. Tib ilmi bo‘ladimi yoxud falakiyot bo‘lsin, adabiyot bo‘lsin yoki musiqa.

Har tuning qadr o‘libon, har kuning bo‘lsin Navro‘z! Hozirgi zamon psixolog olimlari har kunimizni go‘yo so‘nggi kundek yashashimizni ta’kidlashadi. Ammo Sharq uyg‘onish davrining yirik vakili sizga Alloh bergan har kuningizni yangi bir imkon, sahifa, yangi kundek yashab o‘tish kerakligini yozmoqda.

Navro‘zda ruhan, qalban, jismonan va aqlan poklanish, yagona najot yo‘li bo‘lgan ilmga intilishdan charchamaslik bizni yurtboshimiz qo‘ygan yagona maqsad sari olib boradi.

QADIM NAVRO‘Z TARIXI

Aziza AZIMOVA,
Kutubxona-axborot faoliyati
ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumjahon bayrami bo‘lgan Navro‘zning kelib chiqishi va bugungi kundagi holati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, “Navro‘zi Jamshid”, “Charshanbeh Ob (suv)”, “Charshanbeh Bod (shamol)”, “Charshanbeh Xok (er)” va “Charshanbeh Otash (olov)”, Qiz Kumay, Kok Noru yoki Uloq, umalak.

Аннотация. В данной статье освещается история появление и современное состаяние всемирного праздника “Навруз”.

Ключевие слова: Навруз, «Навруз Джамшид», «Чаршанбех Об (вода)», «Чаршанбех Бод (ветер)», «Чаршанбех Хок (земля)» и «Чаршанбех Оташ (огонь)», Кыз Кумай, Кок Нору или Улок, Сумалак.

Annotation. This article explains the origins and current state of Navruz, a universal holiday.

Key words: Navruz, «Navruz Djamshid», «Charshanbex Ob (voda)», «Charshanbex Bod (veter)», «Charshanbex Xok (zemlya)» and «Charshanbex Otash (ogon)», Kyz Kumay, Kok Noru ili Ulok, sumalak.

Mamlakatimizning qadimiy tarixi, boy madaniyati va ezgu qadriyatlarini o‘zida yaqqol mujassam etgan, ona tabiat va insonlar ruhiyatida yuz beradigan yasharish, yangilanish va yuksalishlarni asrlar davomida to‘la namoyon qilib kelayotgan Navro‘zi olam eng ardoqli milliy bayramlarimizdan biri hisoblanadi.

Navroʻz bayramning ruhi va falsafasida mujassam boʻlgan borliqni asrab-avaylab, doimo u bilan uygʻun boʻlib yashash, mehr-oqibat, xayr-u saxovat, bunyodkorlik, bagʻrikenglik, doʻstlik va hamjihatlik, poklik, tabiat bilan uygʻunlik singari yuksak gʻoyalar bugungi kunda yanada teran mazmun va ahamiyat kasb etib borayotganini alohida ta'kidlash lozim. "Mamlakatimizda erkin va farovon hayot barpo etish, inson qadrini ulugʻlashdek buyuk maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan keng koʻlamli demokratik islohotlar jarayonida barcha milliy qadriyatlarimiz qatori Navroʻz umumxalq bayrami ham oʻziga xos ma'naviy tayanch boʻlib xizmat qilmoqda" [1, 1].

Navroʻz qadimiyligi, keng geografik qamrovi va uni nishonlash vaqtidagi turli davrlari sababli nomoddiy madaniy merosning xilma-xil xususiyatlarini oʻz ichiga oladi. U "Navroʻzi Jamshid"ini anglatgan Eronning afsonaviy shohi Jamshid va shu kabi afsonalarga asoslangan koʻpgina madaniy shakl va tasvirlardan tashkil topgan.

Qadimda sanalarni belgilash asosan, astronomik ta'limot asosida hisoblangan. Oʻrta asrlarda yilnoma asosan, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshgʻariy va Umar Hayyom kabi mashhur olimlar tomonidan tasdiqlangan va toʻgʻrilangan.

Oʻzbek xalqining allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy "Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobida Quyosh yili hisobida yilning birinchi oyi deb sanalgan Farvardin oyi toʻgʻrisida soʻzlab: "Bu oyning birinchi kuni Navroʻzdir,- deydi. – Navroʻz yilning birinchi kuni boʻlib, uning forscha nomi ham shu ma'noni anglatarkan. Navroʻz eronliklar "zij"lari boʻyicha oʻtmish zamonlarda, ular yillarini kabisali qilgan vaqtlarida Quyoshning Saraton burjiga kirish paytiga toʻgʻri kelar edi. Soʻngra u orqaga surilgach, bahorga keladigan boʻldi. Endi u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya'ni bahor yomgʻirining birinchi tomchisi tushishidan, gullar ochilgan, daraxtlar gullashidan mevalari yetilguncha, oʻsimlik unib chiqa boshlashdan takomillashguncha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun Navroʻz olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan deya izohlaydi.

Qadim-qadimdan Navroʻz xolis niyatli kishilarning sevimli ayyomi boʻlib kelgan. Oʻsha kunlarda hatto urush-janjallar ham toʻxtalgan, gina-qudratlar kechirib yuborilgan. Shohlar el ichidan eng munosib kishilarni taqdirlashgan, ayrim mahbuslarning gunohidan oʻtishgan.

Bahor va yangi ayyom har bir yurakdan muhim joy olgan quvonchli damlarda ko‘pchilikning “Navro‘z qaerda va qachon paydo bo‘lgan ekan?” - degan savoliga “Saodat” jurnalida e’lon qilingan “Onaqutining saxovati” maqolasida bunga asosli javob berilgan. Unda jumladan: "Dunyoga ilk alifboni bergan buyuk allomalarning vatani bo‘lgan, dunyoviy fanlarga asos solgan Xorazm yurti qadimda, hatto eramizdan avvalgi minginchi yillarda Xvayrazam deb atalgan. Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik va etnografik izlanishlar Navro‘z bayrami ilk bor xuddi shu zaminda Niso (ya’ni, ayol shahri poytaxti bo‘lmish Parfiyona) grek va Ovrupa faylasuflari asarlarida Parfiyada nishonlanganini ashyoviy topilmalar tasdiqladi. Bunga Burgut qal’a, Jomboq qal’a va Niso qo‘rg‘onlarida bunyod qilingan va shu kunlargacha saqlanib qolgan “olov uy”lari yaqqol misol bo‘la oladi. Burgut qal’a markazida moviy gumbazli maqbara bo‘lgan. Maqbara mehrobida Onaqutining ko‘tarilgan qo‘lida Zumrad tosh bo‘lgan. Bahorgi teng kunlikda - shamsiy hisob bilan hamal oyining birinchi kuni, hozirgi taqvimimiz bo‘yicha 22-martda maqbara gumbazidagi tuynukdan quyosh nuri Onaquti qo‘lidagi Zumrad toshiga tushib, sumalak pishirish uchun tayyor turgan qozonning o‘txonasiga o‘t yoqqan", deyilgan.

Boshqa afsonalarga qaraganda, Odam Ato Momo Havo bilan uchrashgan kun Navro‘z deb tan olingan emish.

Firdavsiyning “Shohnoma”sida yangi yil bayrami shoh Jamshid nomi bilan bog‘lanadi. Jumladan, Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarga kasb o‘rgatadi, temir eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib kiyim to‘qitadi, imoratlar barpo qiladi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, bog‘ bunyod qiladi. Nihoyat, “ishlari gurkirab berganda meva” bir kuni taxt yasatib, unda osmonga ko‘tariladi. Ushbu afsonaga ko‘ra xuddi shu kuni Navro‘z nishonlangan.

Alisher Navoiy “Tarixi mulki ajam” (“Ajam shohlari tarixi”) asarida Jamshidning buyuk kashfiyotlari so‘ngida ulug‘ Navro‘z ixtiro qilinganligini bayon qiladi. Navoiy yozishicha: “Jamshid “Chihil minor” nomli odamzod ko‘rmagan va aql bovar qilmaydigan baland bino qurib, … “bu imorat tugandi, olam salomin va ashrov va ahbarin yig‘ib, anda azim jashn qildi. Ul vaqtkim, quyosh nuqta e’tiqodli rabiyg‘a taqvil qilib erdi ul binoda taxt ustiga o‘ltirib, adolat sayt va sadosin olamg‘a muntashir qildi va ul kunining otin Navro‘z qo‘ydi” [2, 36].

Har bir oila va jamiyatda nishonlanadigan ko‘pgina marosim, an’ana va madaniy hodisalar mavjud. Bayramning eng muhim vazifalaridan biri - bu ommaviy yig‘inlar bo‘lib, u yerda madaniy almashinuv va tadbirlar marosimlarga qo‘shib o‘tkaziladi. Suv va olov bilan bog‘liq maxsus ommaviy marosimlar bunga misol bo‘la oladi.

Masalan, o‘tmishda zardushtiylik dini keng tarqalgan Eronda aholi “Charshanbeh Suri” yoki “Charshanbeh-e Otash” deb nomlanadigan yilning so‘nggi chorshanba kuni, buloq yoki olov ustidan sakrashadi. Ozarbayjonda ketma-ket keladigan yilning so‘nggi to‘rt chorshanbasi mashhur bo‘lib, ular “Charshanbeh Ob (suv)”, “Charshanbeh Bod (shamol)”, “Charshanbeh Xok (er)” va “Charshanbeh Otash (olov)” deb nomlanadi, bu paytda odamlar olov atrofida yurib, an’anaviy qo‘shiqlar aytadilar va yoxud olov yoki suv atrofida raqsga tushadilar.

Turkiya va O‘rta Osiyo mamlakatlari xalqlari orasida Navro‘z arafasida olov bilan bog‘liq marosimlar mavjud. Masalan, Qirg‘iziston Respublikasida odamlar qarzlarini to‘laydilar, uylarini yig‘ishtiradilar, qo‘shnilari bilan urishib qolgan bo‘lsa yarashib, ularni kechiradilar. To‘kin-sochinlik, hosildorlik va yomg‘ir timsoli sifatida barcha idishlarni sut, qatiq, bug‘doy va bahorgi suv bilan to‘ldiradilar. Qariyalar aytishlaricha, bu insonlardan turli xil kasalliklar va omadsizliklarni haydaydi.

Bayram dastlab oila-oila bo‘lib keksalarni, qo‘shnilarni, yordamga muhtoj oilalarni va nogironlarni yo‘qlash bilan boshlanadi. Mehmondorchilik chog‘ida odamlar bir- biriga sovg‘alar ulashadi, ayniqsa, yosh bolalar va kelin-kuyovlarga sovg‘a ulashish odat bo‘lgan. Bayram o‘yin va tomoshalar bilan davom etadi, Eronda mahalliy kurash, poyga, “Bandbozi” (dorda yurish), Afg‘oniston va O‘rta Osiyo mamlakatlarida chavandoz buzoq boshini eslatadigan buyumni tutishga harakat qiladigan “Buz kasha” o‘yini keng tarqalgan va bu o‘yinlar bir necha kun davom etadi. Qirg‘iziston Respublikasida o‘tkaziladigan o‘yinlar haqida alohida to‘xtalish kerak: Ot Charbish (poyga), Qiz Kumay (otda qiz ortidan quvish), Kok Noru yoki Uloq Tortish (echki tutish), Enish (ot ustida kurash), Kurash (an’anaviy kurash) va Jambu Atuu (otda kumush bo‘lakka o‘q otish) va o‘smirlar va bolalar uchun o‘tkaziladigan maxsus o‘yin “Ak Cholmok”. O‘tganlar haqiga noz-ne’matlar keltirib, ularning qabrlarida sham qo‘yishadi. Ozarbayjonda Navro‘z nishonlashning ikkinchi kuni erkaklar o‘tganlarning haqiga duo o‘qiydi va bu “Otalar kuni” deb nomlanadi. Qozog‘istonda bayram arafasida odamlar eshik oldiga ikkita yoqilgan sham olib keladi.

Ikkita asosiy va muqaddas taom mavjud bo‘lib, birinchisi Navro‘zda yoki uning arafasida tushlik, ikkinchisi Navro‘zda peshin taomi. Taom qaynatilgan guruch va sabzavot, tovuq go‘shti, bug‘doy ugrasi va baliq kabi masalliqlardan iborat bo‘lib, ular odamlar yashayotgan hududga qarab qo‘shiladi.

Qirg‘izistonda bayram tushligidan so‘ng odamlar ko‘chaga saylga chiqib bayramni nishonlaydilar. Kichik shahar va qishloqlarda qurbonlikka keltirilgan buqadan Nooruz Kedji yoki Chon Kedji (sho‘rva) tayyorlash uchun maxsus joylar tanlanadi. Bu qadimiy taom go‘sht, yog‘, guruch, no‘xot, arpa, bug‘doy, jo‘xori, suli uni, tariq, kartoshka va ziravorlardan tayyorlanadi.

Bayramning eng muhim nishonalaridan biri dasturxon bo‘lib, unga ramziy buyumlarga mos taomlar qo‘yiladi. Buyumlar tozalik, nur, tinchlik va boylikni anglatadi. “Sofrex” yoki Eronda “Sofrex-ye haft Sin” deb nomlanadigan stol, poklik belgisi suv, yorug‘lik belgisi sifatida sham yoki fonus, o‘simliklar belgisi sifatida “Sabzex” yoki “ko‘katlardan tayyorlangan taom”, Eronda “Samanu”, Qirg‘izistonda va O‘zbekistonda “Sumalak”, Turkmanistonda “Samani”, Tojikistonda “Somoluk”lardan tuziladi.

Shuningdek, O‘zbekistonda ham Navro‘zni sharaflash qo‘shiqlari folklor san’atkorlar baxshi, shoir va dostonchilar repertuaridan ham joy olgan. Navro‘zga bag‘ishlangan ayrim epik afsonalar bizlarning kungacha saqlanib qolgan (Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand). An’anaviy musiqaning rivojlanishiga diniy marosim ohangi ham o‘ziga xos hissa qo‘shgan, bular Buxoroning “Shashmaqom”, “Xorazm maqomlari” va “Farg‘ona — Toshkent maqomlari” kabi cholg‘u va yakkaxon maqom siklini yaratishga asos bo‘lgan [5, 110].

Navro‘zning dunyoga kelishi chuqur ilmiy asoslangan bo‘lib, koinot va tabiat qonuniyatlari, ya’ni Quyoshning hamal burjiga kirishi, tun va kunning tenglashuvi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu esa (har qanday jamiyatda) yil boshi qachon kelishidan qat’i nazar Navro‘zni uyg‘onish bayrami sifatida nishonlash uchun asos bo‘lgan. Bundan tashqari, Navro‘zning chuqur ildizlariga murojaat qilsak, u eng qadimiy davrlarda – ibtidoiy odamlarning dehqonchilikka o‘tganidan so‘ng dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o‘tkazilgan bahor bayramlariga borib taqaladi.

Bugun mana yana yurtimizga Navro‘zi olam o‘z sepini yoymoqda. Navro‘z barcha viloyatlarning shahar-u qishloqlarida, korxonalarida, ilm-fan dargohlarida o‘ziga xos tarzda ko‘tarinki kayfiyat ila o‘tkaziladi. Bayram kuni turli xil

musobaqalar, qariyalar bilan muloqotlar bo‘ladi. Bahor ko‘katlaridan tayyorlangan noz-u ne’matlar tortiq etiladi. Barcha viloyatlarning eng iste’dodli va yosh xonandalari xizmatda bo‘ladilar.

1991-yildan keyin Navro‘z umumxalq bayrami darajasiga ko‘tarildi. Bayram bugun katta tayyorgarlik bilan qarshilanadi. O‘zbekiston prezidenti har yili xalqni Navro‘z bilan rasman tabriklaydi.

Ota-bobolarimiz, buvi-momolarimiz bu bayramni nishonlab, turli-tuman, rang-barang udum va marosimlar o‘tkazishgan. Qadimda ajdodlarimiz Navro‘z kunlari qishki manzillari – qishloqlardan yozgi mehnat va hordiq maskanlari - yozloqlarga ko‘chib o‘tishgan. Dalalarda bahorgi ekin-tikin ishlari boshlanib ketgan. Dehqonlar yerga qo‘sh solishgan. Jamoa-jamoa bo‘lib, hasharlar uyushtirishgan. O‘tgan ajdodlar ruhi yod qilingan. Ommaviy ravishda mevali, manzarali daraxtlar o‘tqazilgan. Dalalarda, yozloqlarda Navro‘z – yangi yil, yangi hayot qaynagan. Ajdodlarimiz Navro‘z bayramiga atab maxsus kiyimlar tikishgan va ularni kiyib, bayram qilishgan. Navro‘z taomlari ham o‘ziga xos bo‘lgan. Ular orasida, ayniqsa, sumalak, halim tayyorlash an’anaviy tusga kirgan. Bu bayramda bolalarning ishtiroki juda faol bo‘lgan. Ular Navro‘z bayramida turli ommaviy bayram o‘yinlari o‘ynaganlar. Ot o‘yin, chillak, qo‘g‘irchoq, tosho‘yin, lapar aytish va hokazolar shular jumlasidandir. Bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlar, bo‘y qizlar sumalak pishirish marosimida faol ishtirok etish uchun ancha ilgariroq tayyorgarlik ko‘rishgan.

Bu jarayonlarda turli-tuman xalq o‘yinlari, bahor qo‘shiqlari ijro etilgan. Kitobxonliklar, turli jismoniy tarbiyaga oid sovrinli o‘yinlar, musobaqalar tashkil etilgan. Ko‘pkari-uloq, kurash o‘yinlari, hayvon va parrandalar (xo‘roz, it, qo‘chqor)ni urishtirish, masxarabozlik, askiyabozlik, dor o‘yinlari, turli xil xalq tomoshalari o‘tkazilgan. Navro‘z – mehnat, mehr-oqibat, insonparvarlik bayramidir. Bu kun marhumlarning qabrlari ziyorat qilinadi. Keksa, nogiron, yolg‘iz qariyalar, ota-onalar yo‘qlanadi. Kishilar bir-birlariga sovg‘a-salomlar ulashib, shirinliklar hadya etishadi. Navro‘z – muhabbat, sevgi, sadoqat bayrami. Navro‘z munosabati bilan nikoh to‘ylari o‘tkazilgan. Yigit-qizlar bir-birlari bilan ahd-u paymon qilishgan. Yangi tushgan kelin qo‘lidan choy ichish maqsadida “kelin ko‘rdi”ga borilgan. Navro‘z - do‘stlik, birodarlik bayramidir. Ushbu kunni nafaqat Sharq xalqlari, balki millati, dini, e’tiqodidan qat’iy nazar, barcha bayram qiladi. Navro‘z bayrami O‘zbekistonda dam olish kuni, rasmiy bayram kuni deb

qabul qilingan. Uni hozirgacha ham yoshlardan tortib yoshi keksa kishilar ham tantali tarzda kutib olishadi.

Adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 2022-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida “Yangi O‘zbekiston”, 2022-yil 18-fevral.
2. Jo‘rayev M. Navro‘z qo‘shiqlari. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.-163 bet
3. Shodiyev B. Navro‘z bayrami (tarixiy yo‘li tiklanishi). Toshkent, O‘zbekiston milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2004. -122 bet
4. Qoraboyev U., Xudoyor I., Navro‘z. Toshkent, “Akademiya”. 2000. -21 bet.
5. Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari. Toshkent, “Sharq”, 2002. -236 bet.

NAVRO‘ZNING NISHONLANISH TARIXI

Abdulla AXMATOV,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Kutubxona axborot faoliyati fakulteti 4-kurs
talabasi

Elektron manzil: abdullajonahmadov4@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada navro‘z bayramining xalq sayli darajasiga chiqish sabablari, qolaversa, bu bayram haqidagi ma’lumotlar keltirilgan. Uning kelib chiqishi, shakllanishi jarayoni haqidagi tafsilotlar yoritiladi. Navro‘z umum-milliy qadriyat sifatida shakllangan. Uning rivojlanishi haqida ma’lumotlarga ham qisman to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, bayram, qadriyat, urf-odat, anana, madaniyat.

Аннотация: В статье приведены причины возвышения Навруза до уровня национального праздника, а также сведения об этом празднике. Описаны подробности его происхождения и формирования. Навруз

формируется как национальная ценность. Также частично рассказана история его развития.

Ключевые слова: Навруз, праздник, ценность, традиция, традиция, культура.

Annotation: The article explains the reasons for raising Navruz to the level of a national holiday and provides information about this holiday. The history of its origin is covered. Navruz is formed as a national value. Information about its development is also partially discussed.

Key words: Navruz, holiday, value, tradition, tradition, culture.

Navro‘z umummilliy qadriyatlarga ega bo‘lgan ilk ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lib kelayotgan xayrli va barokatli bayram hisoblanadi. Tarixchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, uning tarixi miloddan avvalgi birinchi mingyilliklarga borib taqaladi [1, 3].

Xalqimiz o‘zligini tanibdiki, yangi yilni bahoriy tengkunlikdan boshlashga, quyosh hamal burjiga kiradigan kunni bayram qilishga odatlangan. Fasllar almashadigan, yil yangilanadigan, dillar yayraydigan bu shodiyona xalqimiz hayotiga shu qadar singib ketganki, u bilan bog‘liq dilrabo kuy va qo‘shiqlar, afsona va rivoyatlar, udum va odatlar kelib chiqqan. Shuning uchun ham Navro‘z faqatgina yilboshi bayrami emas, ayni paytda, zukko ajdodlarimizning beqiyos tafakkur durdonalarini o‘z ichiga qamrab olgan ma’naviy qadriyat hamdir. Qadim ajdodlarimizning vaqt hisobini yurgizish bilan aloqador amallari, samoviy yoritqichlar harakati va tabiat hodisalarini muttasil kuzatishga asoslangan hayotiy tajribalari, dehqonchilik va chorvachilik madaniyagining sarzamini vazifasini o‘tagan e’tiqodiy qarashlar Navro‘z bayramining yuzaga kelishiga asos bo‘lgan [2, 12]. Avestoda qadimgi odamlar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan paytida Navro‘zni bayram sifatida qarshilashgan. Navro‘z zardushtiylik diniy ta’limotiga e’tiqod qiluvchi xalqlarning bayramiga aylangan. Navro‘zning kelib chiqishi haqida bir qancha dostonlar, rivoyatlar keltirilgan. U bilan bog‘liq rivoyatlar Firdavsiyniig “Shohnoma”sida [3, 27-31] yangi yil bayrami shoh Jamshid nomi bilan bog‘lanadi. Jumladan, Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarga kasb o‘rgatadi, temir eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib kiyim to‘qitadi, imoratlar barpo qiladi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, bog‘ bunyod qiladi. Nihoyat, bir kuni taxt yasatib, unda osmonga ko‘tariladi. Ushbu afsonaga ko‘ra, xuddi shu kuni Navro‘z nishonlangan. Alisher Navoiy “Tarixi

mulki ajam” (“Ajam shohlari tarixi”) asarida Jamshidning buyuk kashfiyotlari so‘ngida ulug‘ Navro‘z ixtiro qilinganligini bayon qiladi. Navoiy shoh Jamshid haqida: “Chihil minor” nomli odamzod ko‘rmagan va aql bovar qilmaydigan baland bino qurgandi. O‘shanda yoqutda oftob charaqlab, imoratdagi taxtga o‘tirib, olamga insof va sadoni yoyib, o‘sha kuni Navro‘z bayramini nishonlagan edi”, - deb yozgan [4, 1]. Navro‘z bayramining badiiy adabiyotda shoh Jamshidga bog‘lanishi bejizga emas. Rivoyatlarda shoh Jamshidni [5, 1] Sulaymon alayhissalomning o‘zlari deyishadi. Afsonalarda xalqini farovonlikka yetaklagan hukmdor Navro‘z bayramini joriy qiladi. Jamshid — qadimgi afsonalarga ko‘ra, Eronda eng avval hukmdorlik qilgan peshdodiylar sulolasining to‘rtinchi va eng buyuk hukmdori. Shoh Tahmurasdan so‘ng 700 yil podshohlik qilgan Jamshid Istaxravshab shahrinini bunyod etib, mamlakatda behad farovonlik vujudga keltirgan, sharobni ixtiro qilib, Navro‘zni yangi yil bayrami sifatida nishonlashni joriy etgan.

“Saodat” jurnalida e’lon qilingan “Onaqutining saxovati” maqolasida Navro‘zning qanday paydo bo‘lganligiga asosli javob keltirilgan. Unga ko‘ra, qadimgi Xorazmda (Xvarazm) Navro‘z bayrami nishonlangan.

Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik va etnografik izlanishlar Navro‘z bayrami ilk bor xuddi shu zaminda Niso (ya’ni, ayol shahri poytaxti bo‘lmish Parfiyona), grek va Ovrupa faylasuflari asarlarida Parfiyada nishonlanganini ashyoviy topilmalar tasdiqladi. Bunga Burgut qal’a, Jomboq qal’a va Niso qo‘rg‘onlarida bunyod qilingan va shu kunlargacha saqlanib qolgan “olov uy”lari yaqqol misol bo‘la oladi. Burgut qal’a markazida moviy gumbazli maqbara bo‘lgan. Maqbara mehrobida Onaqutining ko‘tarilgan qo‘lida Zumrad tosh bo‘lgan. Bahorgi teng kunlikda, shamsiy hisob bilan hamal oyining birinchi kuni, hozirgi taqvimimiz bo‘yicha 22-martda maqbara gumbazidagi tuynukdan quyosh nuri Onaquti qo‘lidagi Zumrad toshiga tushib, sumalak pishirish uchun tayyor turgan qozonning o‘txonasiga o‘t yoqqan», deyilgan.

Bundan tashqari, Beruniyning qadimgi xalqlardan qilgan yodgorliklar asarida islomgacha bo‘lgan davrda O‘rta Osiyo xalqlari Navro‘z bayramidan boshqa bayramlarni ham nishonlashgan. Bu diniy va dunyoviy qarashlarning uyg‘unligida bo‘lib fasllar almashinuvi bilan nishonlangan. Masalan, “Mehrjon” (hozirgi qovun sayli, yoki hosil) bayrami, kuzda nishonlangan. Yoz mavsumida “Angom hayiti”, qishda “Sada” kabi hayit bayramlari nishonlangan. Bu falsafiy qarashlarga

asoslangan hodisa hisoblanib, islom diniga qadar mavsum almashinuvi bilan nishonlangan [6, 81-82-83]. O‘rta Osiyo xalqlari orasida “Darveshona”-darveshlarga xos bayram nishonlangan. Bu xalq sayli janubiy viloyatlarda (Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand) hozir ham Navro‘z bayramidan oldin nishonlanadi. Bu saylda tashkilotchilar xuddi darveshlarga o‘xshab uyma-uy kirib ovqat yig‘ishadi. Odamlar esa yashaydigan mahalliy hududidagi qishlog‘i, mahallasi va ko‘chasidagi odamlar bilan birga yig‘ilgan ovqatni tanavvul qilish uchun bir joyda to‘planishadi. Bu qaqdimda qishloqlarda kasallikni quvish uchun tangridan o‘ziga xos madad so‘rash shaklida vujudga kelgan [7.81-86].

Bahor bayramlari nafaqat O‘rta Osiyo mamlakatlari, balki dunyoning ko‘plab hududlarida nishonlashadi. Masalan, yaponlarda - “Risson”, xitoyliklarda - “Chun’pze”, salavyan xalqlarida - “Maslennitsa” deb nomlanadi. Navro‘z kelgach, “Lola sayli”, “Qizilgul sayli” kabi ko‘plab sayllar ham davom etadi [8, 87].

Ko‘rinib turibdiki, Navro‘z etnomadaniy va umummilliy qadriyatlar saqlanib qolgan tarixiy bayram sayli. Odamlar O‘zbekistonda Navro‘z sayliga bahor va dehqonlarning yangi kunini nishonlagani yo‘l olishadi. Tarixchilarning fikriga ko‘ra, [9, 5.1] Navro‘zning saraton burjida nishonlanganligi keltiriladi. Iqlim va davrlar o‘zgarishi bilan insonlarning qarashlari va hayoti ham o‘zgarib bordi. Qadimgi Misrda Nilning toshishi va qaytishini bilgan dehqonlar aynan termachilik va ovchilikdan chorvachilik va dehqonchilikka o‘tgach: ekin ekish, uni sug‘orish, parvarishlash texnologiyalarini takomillashtirib bordi. Bu takomillashuv insonlarga ekin ekish vaqtini, uni sug‘orish jarayonlarini tartibga solish imkonini berdi. Shu bilan bir qatorda, yil davomida o‘tayotgan kunlarning uzun-qisqaligi va tabiat hodisalari ta’sirida bahorning kelishi, dehqonlar uchun yilning boshlanishi sifatida qaralgan. Ular hosildorlik mo‘l bo‘lishi uchun yil boshida bayram qilishgan.

Xush kayfiyatda boshlangan tadbir o‘ziga xos diniy qarashlarning ham mahsulidir. Diniy qarashlar zardushtiylikdan avval ham paydo bo‘lgan ibtidoiy-diniy ta‘limotning saqlanib qolgan udumlari, qish faslidan sog’-omon chiqqan insonlarning shukrona ayyomlari hisoblanadi. Odamlar bayramni yangi pishiqchilik yiliga yetganligi uchun yaratganga shukrona sifatida nishonlashadi. Navro‘zning nishonlanishida 21-mart kuni kun bilan tunning tenglashishi, O‘rta Osiyo va Kavkaz orti mintaqalarining geografik jihatdan subtropik va tropik iqlim

mintaqasida yangi hosildorlik yilining boshlanishi bilan qiyoslanadi. Shu kundan kun uzayib tunlar qisqarib boraveradi.

O‘zbekiston Respublikasida Navro‘z bayrami keng ko‘lamda va bahoriy yangilanish, yosharish kayfiyatida nishonlanadi. Shu kuni o‘zbek milliy taomlari: sumalak, ko‘k somsa, palov, halimko‘cha kabi taomlar tayyorlansa, kurash, ko‘pkari, arqon tortish, kabi xalq o‘yinlari uyushtiriladi. Navro‘zda bahoriy kiyimlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, termalar, yallalar san’atkorlar tomonidan namoyish etiladi. Har bir mahalliy hududlarda bayramni o‘ziga xos nishonlashadi Bu milliy madaniyatimizning o‘chmas qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Navro‘z - yuksak madaniy merosning qadimiy va davomiy bayrami hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Firdavsiy.Shohnoma.-T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984, 2 -31 b.

2. https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=5405.0

3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Navro%CA%BBz

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jamshid#cite_note-1

5. http://azculture.uz/ru/nashi-izdaniY.php?link=nashi-izdaniy

6. Жураев М. Наврўз байрами.-Т: “Фан” нашриёти, 2009. 120-б.

7. Тўраqулов Н. ва бош. Наврўз.-Тошкент: “ Муһаррир” нашриёти, 2009. 288-б.

NAVRO‘Z BAYRAMI TARIXI

Bunyod SHUKUROV,
O`zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti “Xalq ijodiyoti” fakulteti
“Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil
etish va boshqarish” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqimizning qadimiy an’analari va qadriyatlari asosida vujudga kelgan Navro‘z umumxalq bayrami tarixi xususida batafsil ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, Navro‘z bayramining kelib chiqishi, shakllanishi va milliy qadriyatlar sifatida talqin qilinishi borasida tahliliy fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan.

Kalit so‘z: Navro‘z, o‘tmish, milliy qadriyat, tarix, marosim, an’ana, madaniy meros

Аннотация. В данной статье представлена подробная информация об истории национального праздника Навруз, в основе которого лежат древние традиции и ценности нашего народа. Также были высказаны аналитические взгляды на происхождение, становление и трактовку Навруза как национальной ценности.

Ключевые слова: Навруз, прошлое, национальные ценности, история, обряды, традиции, культурное наследие.

Annotation. This article provides detailed information on the history of the national holiday of Navruz, which is based on the ancient traditions and values of our people. Analytical views were also expressed on the origin, formation and interpretation of Navruz as a national value.

Key words: Navruz, past, national values, history, ceremonies, traditions, cultural heritage

“Navro‘z qadimiyligi, keng geografik qamrovi va uni nishonlash vaqtidagi turli davrlari sababli, nomoddiy madaniy merosning xilma-xil xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. U “Navro‘zi Jamshid”ini anglatgan Eronning afsonaviy shohi Jamshid va shu kabi afsonalarga asoslangan ko‘pgina madaniy shakl va tasvirlardan tashkil topgan”. Navro‘z bayrami tarixi Navro‘z bayrami fors-tojik va turkiy xalqlarning qadimiy bayramlaridan biridir. Bu bayram 21-mart kuni nishonlanib, aynan kun va tun teng bo‘lgan paytga mos keladi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha va olimlarimiz fikriga ko‘ra, Navro‘zning shakllanish davri – eng qadimgi zamonlardan “zardushtiylik”ning paydo bo‘lishigacha davom etgan asrlarni o‘z ichiga olgan ekan. Navro‘z so‘zi fors-tojik tilidan olingan bo‘lib “Yangi kun” degan ma’noni bildiradi. Qadim-qadimdan Navro‘z, xolis niyatli kishilarning sevimli ayyomi bo‘lib kelgan. O‘sha kunlarda hatto urush-janjallar ham to‘xtagan, gina-kuduratlar kechirib yuborilgan. Shohlar el ichidan eng munosib kishilarni taqdirlashgan, ayrim mahbuslarning gunohidan o‘tishgan. Bahor va yangi ayyom har bir yurakdan muhim joy olgan quvonchli damlarda ko‘pchilikning “Navro‘z

qayerda va qachon paydo bo‘lgan ekan?” - degan savoliga “Saodat” jurnalida e’lon qilingan [1]. Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik va etnografik izlanishlar Navro‘z bayrami ilk bor xuddi shu zaminda Niso (ya’ni, ayol shahri poytaxti bo‘lmish Parfiyona) grek va Ovrupa faylasuflari asarlarida Parfiyada nishonlanganini ashyoviy topilmalar tasdiqladi. Bunga Burgut qal’a, Jomboq qal’a va Niso qo‘rg‘onlarida bunyod qilingan va shu kunlargacha saqlanib qolgan “Olov uy”lari yaqqol misol bo‘la oladi. Burgut qal’a markazida moviy gumbazli maqbara bo‘lgan. Maqbara mehrobida Onaqutining ko‘tarilgan qo‘lida Zumrad tosh bo‘lgan. Bahorgi teng kunlikda-shamsiy hisob bilan hamal oyining birinchi kuni, hozirgi taqvimimiz bo‘yicha 22-martda maqbara gumbazidagi tuynukdan quyosh nuri Onaquti qo‘lidagi “Zumrad toshiga tushib, sumalak pishirish uchun tayyor turgan qozonning o‘txonasiga o‘t yoqqan”, deyilgan. Firdavsiyning “Shohnoma”sida yangi yil bayrami shoh Jamshid nomi bilan bog‘lanadi. Jumladan, Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarga kasb o‘rgatadi, temir eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib kiyim to‘qitadi, imoratlar barpo qiladi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, bog‘ bunyod qiladi. Nihoyat, “ishlari gurkirab berganda meva” bir kuni taxt yasatib, unda osmonga ko‘tariladi. Ushbu afsonaga ko‘ra xuddi shu kuni Navro‘z nishonlangan [2]. Alisher Navoiy “Tarixi mulki ajam” (Ajam shohlari tarixi) asarida Jamshidning buyuk kashfiyotlari so‘nggida ulug‘ Navro‘z ixtiro qilinganligini bayon qiladi. Navoiy yozishicha: “Jamshid “Chihil minor” nomli odamzod ko‘rmagan va aql bovar qilmaydigan baland bino qurib… „bu imorat tugandi, olam salomin va ashrov va ahbarin yig‘ib, anda azim jashn qildi. Ul vaqtkim, quyosh nuqta e’tiqodli rabiyg‘a taqvil qilib erdi ul binoda taxt ustiga o‘ltirib, adolat sayt va sadosin olamg‘a muntashir qildi va ul kunining otin navro‘z qo‘ydi”. Darhaqiqat, Navro‘zning qachon va qanday vujudga kelganligini aniq ko‘rsatish qiyin bo‘lsa-da, shuni aytish mumkinki, bu bayram dono kishilar tomonidan kashf qilingan. Chunki Navro‘zning dunyoga kelishi chuqur ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, ya’ni Quyoshning hamal burjiga kirishi, tun va kunning tenglashuvi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan [3].

“Darhaqiqat, Navro‘zning qachon va qanday vujudga kelganligini aniq ko‘rsatish qiyin bo‘lsa-da, shuni aytish mumkinki, bu bayram dono kishilar tomonidan kashf qilingan. Chunki Navro‘zning dunyoga kelishi chuqur ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, ya’ni Quyoshning hamal burjiga kirishi, tun va kunning tenglashuvi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu esa (har qanday jamiyatda) yil boshi qachon

kelishidan qat’i nazar Navro‘zni uyg‘onish bayrami sifatida nishonlash uchun asos bo‘lgan. Bundan tashqari, Navro‘zning chuqur ildizlariga murojaat qilsak, u eng qadimiy davrlarda – ibtidoiy odamlarning dehqonchilikka o‘tganidan so‘ng dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o‘tkazilgan bahor bayramlariga borib taqaladi. Navro`z qadim zamonlardan bizgacha yetib kelgan muhtasham qadriyatlarimizdan biri, baynalminal bayramdir. Uning tarkibiga, qadimgi ota-bobolarimizning mifologik tassavurlaridan tortib bugungi zamondoshlarimizning qarashlarigacha bo‘lgan ma’naviyat olami singib ketgan bo`lib, u insoniyat madaniy taraqqiyotining har bir yutug‘idan doimo kuch va quvvat olib turadi. Sharq xalqlarining eng hayotbaxsh va qadimiy bayrami Navro‘zning qachon paydo bo`lgani xususida turli mulohazalar bildirilgan. Atoqli olim Hodi Zarif Navro‘zi olamning yoshini kamida uch ming yil, hatto undan ham kattaroqdir deb hisoblaganida to`la haqli edi. Zero, X asr Buxorolik olim Narshaxiy, dehqonlarning Navro`zda aytiladigan Siyovush nomi bilan bog`liq qo`shiqlari haqida gapirib, “Bu gaplar bo`lib o`tganiga hozir uch ming yildan ko`proq vaqt o`tdi”,- deb yozadi. Bahor va mehnat bayramining paydo bo`lishi haqidagi tarixiy ma’lumotlar davrlar o`tishi bilan turli o`zgarishlarga uchrab, shu kunlargacha yetib kelgan. Ana shunday afsonalarning aksariyati Navro`zi olamning vujudga kelishini afsonaviy Jamshid bilan bog`laydi. Navro`z haqidagi qadimgi afsonalarda esa bu umumxalq bayramining paydo bo`lishi ajdodlarimizning bahor fasli va ko‘klamgi dala ishlarining boshlanishiga aloqador udumlariga bog`lanadi. Navro`z 21-martdan 22-martga o`tar kechasi “Qozon to`la” udumi bilan boshlanadi. Shu oqshomda kechasi bilan ko`pchilik bo`lib sumalak va halim ham pishirilgan. Bu taomlar qozoni ertasiga ochilgan. Navro`z “qozon to`ladigan”, ya’ni qut-baraka tantana qiladigan xalq bayramidir [4]. Navro`zda qozon-qozon sumalaklar qaynashi — to`kin-sochinlik, dalalar serhosilligi, mevaga to`la bog`lar saxovatidan dalolat beradi. Ulus kuni, ya’ni Navro`zga bag`ishlangan qozoq xalq qo`shiqlaridan birida: Ulus kuni qozon to`lsa, Yil bo`yi sut mo`l bo`lar, Ulug`lardan olqish olsang, U yil o`ljang mo`l bo`lar! Navro`z bayrami, sumalak tantanasi, boychechak, lola sayli bilan bog`liq folklor materiallari – xalq qo`shiqlari, e’tiqodlari, bolalar o`yinlari, afsona va rivoyatlari, marosim va udumlarini to`plab, alohida majmua holida nashr ettirish Navro`zning qadimiy udumlarini saqlab qolishda katta amaliy ahamiyatga ega bo`ladi. Xalqimiz orasida Navro`z bilan bog`liq qadimiy qo`shiqlarni, e’tiqod va udumlarni biladigan zukko odamlar ko`p.”[6]

“Bu bayramning nav-yangi, ro‘z-kun, ya’ni yangi kun deb atalishi ham bejiz emas. Navro‘z bayramini barcha fors, turkiy tillarda so‘zlashuvchi xalqlar har yili

bahorda nishonlab kelishgan. Bu qadimiy, an’anaviy Yangi yil bayramimiz haqida ulug‘ bobolarimiz Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida, Mahmud Qoshg‘ariy esa “Devonu lug‘otit turk” asarida juda ham qiziqarli ma’lumotlar yozib qoldirganlar. Umar Xayyom olim, shoir, faylasuf sifatida bu bayram haqida “Navro‘znoma” nomli maxsus kitob yozganlar. Bugun yurtimizda ham barcha Sharq xalqlari singari o‘z milliy urf-odatimiz Navro‘z - yangi yil bayramimizni bor malohati, bo‘y-basti bilan ko‘z-ko‘z qilib o‘tkazyapmiz. Bu bayram, avvalo, tabiatning jonlanishi, yangilanishi, yangi yil bilan yurtimizga go‘zal bahor faslining kirib kelib, kelinchakdek o‘z yashil sepini keng yoyishi bilan boshlangan. Ota-bobolarimiz, buvi-momolarimiz bu bayramni nishonlab, turli-tuman, rang-barang udum va marosimlar o‘tkazishgan. Qadimda ajdodlarimiz Navro‘z kunlari qish manzillari-qishloqlardan yozgi mehnat va hordiq maskanlari-yozloqlarga ko‘chib o‘tishgan. Dalalarda bahorgi ekin-tikin ishlari boshlanib ketgan. Dehqonlar erga donlar ekishgan. Jamoa-jamoa bo‘lib, hasharlar uyushtirilgan [5]. O‘tgan ajdodlar ruhi yod qilingan. Ularning mozorlari obodonlashtirilib, ko‘kalamzorlashtirilgan. Ommaviy ravishda mevali, manzarali daraxtlar o‘tkazilgan. Bizlar ham shunday xayrli ishlarni davom ettirsak, farzandlarimizga bunday qadriyatlarni singdirib borsak, avlodlarimiz ham shunday an’analarni davom ettiradi. Muqaddas islom dinida inson tozalik va poklikni o‘z o‘rniga qo‘yish bilan birga, atrof-muhitni ham ozoda saqlashi va barcha mavjudotlar hayotining manbai bo‘lgan tabiatni asrashga alohida e’tibor qaratgan. Zero, Rasulullоh sallollohu alayhi vasallamdan Abu Barza Aslamiy ismli sahoba: “Meni jannatga kiritadigan ishga buyuring” deb so‘radilar. Shunda payg‘ambarimiz sallollohu alayhi vasallam: “Odamlar yo‘lidagi ozor beruvchi narsani olib tashla”, dedilar. Shu hadisdan ham ma’lum bo‘ladiki, inson doimo tabiatni asrab-avaylashi, insonlarga zarari yetadigan narsalarni qilmasligi kerak ekan” .

Adabiyotlar:

1. Vikipediya (ochiq ensiklopediya)si;
2. Saodat jurnali (O‘zbekiston xotin-qizlarining ommabop, ijtimoiy-siyosiy, badiiy-bezakli jurnal); Toshkent 2017;
3. Firdavsiyning “Shohnoma” asari,//Toshkent 2015;
4. Tarixi mulki ajam” (Alisher Navoiyning Eron shohlari xronikasi bayon qilgan qisqa jildli kitobi, Toshkent 2018;
5. www.sammuslim.uz sayti.
6. www.aql.uz sayti

QADIM VA BOQIY AN’ANALAR: SUMALAK VA FOLKLOR

Gavhar RAVSHANOVA,
O‘zDSMI kutubxona-axborot faoliyati
fakulteti 203-guruh talabasi
Ilmiy rahbar: **Dilnoza Jumayeva**,
O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi mudiri

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimiy urf-odat va an’analar, Navro‘z bayrami tarixi, uni nishonlash, sumalak pishirish sirlari va xalq og‘zaki ijodi ya’ni folkor haqida so‘z ketadi.

Kalit so‘zlar: navroz, sumalak, an’ana, urf-odat, madaniyat, folklor, milliy taomlar, qo‘shiq, lapar

Annotation: This article: About ancient customs and traditions, the history of Navruz, its celebration, the secrets of cooking sumalak and folklor.

Key words: navroz, sumalak, tradition, customs, culture, folklore, national dishes, song, lapar

Аннотация: В статье рассказывается о древних обычаях и традициях, истории Навруза, его праздновании, секретах приготовления сумаляка и фольклоре.

Ключевые слова: Навруз, сумаляк, традиция, обычаи, культура, фольклор, национальные блюда, песня, лапар.

Ma’lumki, har bir individ shaxs sifatida shakllanar ekan, falak o‘zi yashab turgan davrdagi ijtimoiy munosabatlar ta’siri ostida bo‘lib qolmasdan, tarixiy tajribalar, ajdodlar tomonidan yartilgan, to‘plangan va avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan madaniy meroslar, milliy qadriyatlar ta’siri ostida ham shakllanadi. Bunda ayniqsa, har bir xalqqa mos bo‘lgan milliy urf-odat va an’analarning ro‘li kattadir.

Xalqimiz hayotidagi muhim sanalar, bayramlar orasida Navro‘z o‘zida qadimiy an’ana va urf-odatlarimiz, mehr-oqibat va saxovat kabi yuksak insoniy fazilatlarni namoyon etishi bilan ajralib turadi.

Bir necha ming yillik tarixga ega ushbu bayram ajdodlarimiz tomonidan sharqona yangi yil sifatida keng nishonlab kelingan. Inson va tabiat o‘rtasidagi

mushtaraklik, dehqonchilik mavsumining boshlanishi Navroʻz shodiyonalarida oʻz ifodasini topgan. Shuning uchun ham asrlar osha bu bayram boqiy qadriyat, milliy marosimiz sifatida yashab kelmoqda. Zero, Prezidentimizning "Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch" asarida qayd etilganidek, Navroʻz bayrami biz uchun hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatining, koʻp ming yillik milliy qiyofamiz, olijanob urf-odatlarimizning betakror ifodasidir.

Alisher Navoiy "Tarixi mulki ajam" (Ajam shohlari tarixi) asarida Jamshidning buyuk kashfiyotlari soʻngida ulugʻ Navroʻz ixtiro qilinganligini bayon qiladi. Navoiy yozishicha: "Jamshid „Chihil minor" nomli odamzod koʻrmagan va aql bovar qilmaydigan baland bino qurib… „bu imorat tugandi, olam salomin va ashrov va ahbarin yigʻib, anda azim jashn qildi. Ul vaqtkim, quyosh nuqta eʼtiqodli rabiygʻa taqvil qilib erdi ul binoda taxt ustiga oʻltirib, adolat sayt va sadosin olamgʻa muntashir qildi va ul kunining otin navroʻz qoʻydi" . Darhaqiqat, Navroʻzning qachon va qanday vujudga kelganligini aniq koʻrsatish qiyin boʻlsa-da, shuni aytish mumkinki, bu bayram dono kishilar tomonidan kashf qilingan. Chunki Navroʻzning dunyoga kelishi chuqur ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, yaʼni Quyoshning hamal burjiga kirishi, tun va kunning tenglashuvi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi bilan bogʻliq boʻlgan.

Xalqimizga xos anʼana va fazilatlar mujassamligi uchun ham olis va yaqin tariximizda bu bayramni cheklash, uni odamlar qalbidan oʻchirishga urinishlar boʻlgan. Lekin ota-bobolarimiz har qanday sharoitda, hatto yashirincha boʻlsa-da, Navroʻzni nishonlaganlar, bayramga xos udumlarni ado etganlar. Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan milliy oʻzlikni anglash, maʼnaviy qadriyatlarimizni tiklashga qaratilgan yuksak eʼtibor tufayli Navroʻz yurtimizda umumxalq bayrami deb eʼlon qilindi va har yili anʼanaviy tarzda keng nishonlanmoqda.

Navroz bayrami sumalak sayli va folklorning ajralmas bir irmogʼi boʻlib, ushbu bayramda ularning barcha jabhalari namoyon boʻladi.

Navroʻzda oʻtkaziladigan asosiy marosimlardan biri bu – sumalak pishirish bilan bogʻliq. Sumalak bahor oylarida, asosan, Navroʻz munosabati bilan tayyorlanadigan qadimiy va shifobaxsh taomdir. Uning kelib chiqish tarixi boʻyicha koʻplab rivoyatlar mavjud. Ammo, shunisi eʼtiborliki, sumalak qoʻni-qoʻshni, qarindosh-urugʻ, umuman koʻpchilik ishtirokida tayyorlanadi va bu jarayonda odamlar oʻrtasidagi munosabatlar mustahkamlanadi. Bundan tashqari navroʻzda turli milliy taomlardan: koʻk somsa, koʻk chuchvara, xolvaytar, chak-

chak, gulxonim, osh, qatlama kabilar pishiriladi. Ushbu bayramda folklorga tegishli xalq qo‘shiqlari laparlar kuylanib, turli xil xalq oyinlari o‘tkaziladi.

“Folklor” atamasi xalq og’zaki ijodi bo‘lib, “xalq donoligi”, “xalq donishmandligi” degan ma’noni bildiradi. Xalq tomonidan yaratilgan har qanday san’at namunalari folklor janiriga taalluqlidir. Folklor san’ati nomoddiy madaniy meros elementlaridan biri hisoblanib, u xalq qo‘shiqlarini, xalq doston va ertaklarini, maqol topishmoq, lof, askiya va latifalarni o‘z ichiga oladi.

Ma’naviyatli shaxslarni tarbiyalashda milliy urf-odat va marosimlar asosiy vosita hisoblanib, bu borada xalq oyinlari milliy qadriyat sifatida juda katta ahamiyatga egadir. Aynan bahor fasli navroz ayyomida xalq oyinlaridan: ko‘pkari, kurash, varrak uchirish, xo‘roz urushtirish, arqon tortish, chillaki, oq terakmi, ko‘k terak kabi xalq oyinlari oynalib, turli folklor na’munalari ijro etiladi. Masalan:

Ko‘zingni shahlo deydilar,
Shahlo ko‘z ukam, yor-yor
Ko‘rsat ko‘zingni men bir ko‘ray,
Jonim ukam ey, yor-yor.
Ko‘zimni ko‘rib nima qilasiz ,
Siz akajonim yor-yor?
Tog’da ohu ko‘zlarini?
Ko‘rmabmidingiz yor-yor ?
Yuzingni qizil deydilar,
Qizil yuz ukam, yor-yor.
Ko‘rsat yuzingni men bir ko‘ray,
Jonim ukam ey, yor-yor
Yuzimni ko‘rib nima qilasiz,
Siz akajonim yor-yor ?
Bog’lardagi qizil gulni,
Ko‘rmabmidingiz yor-yor ?

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tinch yurtga bayramlar yarashadi. Navro‘z ham xalqimizning qadimiy bayramlaridan biri bo‘lib, bu bayram qadriyatlarimiz tarkibining boyligini, o‘zbeklarning qadim zamonlardan uyushgan millat ekanligini isbotlaydi.

Adabiyotlar:

1.O‘zbekiston milliy ensklopediyasi. “Davlat ilmiy nashriyoti”. Toshkent-2005

2. www.arxiv.uz

3. “Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o‘rganishda fan va innovatsiyalar uyg’unligi”. Toshkent-2021
7. 4. Firdavsiyning “Shohnoma” asari,//Toshkent 2015;

XALQIMIZ MILLIYLIGI-NAVRO‘Z BAYRAMI

Madina XOLMURODOVA,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti,
Kutubxona va axborot faoliyati fakulteti,
II kurs talabasi

Anatatsiya. Ushbu maqola har bir xalqning urf-odati uning o‘zligi ekanligi, xalqimiz milliyligini o‘zida aks ettirgan Navro‘z bayrami, qadimiy urf-odat, an’analarimiz, turli xil sayl marosimlari, Alisher Navoiy asarida keltirilgan bizgacha yetib kelmagan va saqlanib qolgan janr va qo‘shiqlar bundan tashqari Navro‘z tarixi haqida.

Аннотация. Эта статья о том, что традиции у каждого народа свои, праздник Навруз, который отражает национальную самобытност нашего народа, наши древние традиsии, обычаи, различные торжества, упомянутые в произведении Алишера Навои, сохранились. жанры и песни тоже об истории Навруза.

Anatation: This article is about the fact that the traditions of each nation are its own, the holiday of Navruz, which reflects the nationality of our people, our ancient traditions, customs, various celebrations, mentioned in the work of Alisher Navoi. preserved genres and songs are also about the history of Navruz.

Kalit so‘zlar; Milliy o‘zlik, urf- odat, boqiy an’analar, loy tutish, qo‘sh oshi, shox moylar, olma otish, darveshona, qozon to‘ldi, navro‘z go‘ja, sumalak bayti, sumalak sayli, Xalqaro Navro‘z Kuni.

Har bir xalqning milliy o‘zligini ko‘rsatadigan qadimiy urf-odat va marosimlari, ezgulikni ulug’laydigan boqiy an’analari bo‘ladi. Asrlar bo‘yi yaratilib, zukko xalqning yuksak ijodiy salohiyati tufayli sayqallanib kelgan ana shunday an’analar aslida o‘sha millatning o‘zligini belgilab beradi. Bizning milliy qadriyatlarimiz ham manaviyatimizning yuksalishiga, millat sifatida shakllanishimizga alohida hissa qo‘shib kelmoqda. O‘zbek xalqining paydo bo‘lish tarixi qanchalik qadimiy bo‘lsa, uning milliy an’analari, urf-odatlari, marosimlari

ham shunchalik uzoq tarixiy ildizga ega. Ona xalqimiz milliyligini o‘zida mujassamlashtirgan Navro‘z bayrami bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Xalqimiz hamisha Navro‘z bayramiga o‘zgacha munosabatda bo‘ladi. Hatto shunday ishonch borki, Navro‘z bayrami qanchalik quvonch va shodlik bilan kutib olinsa, yil bo‘yi shu kayfiyat sizni tark etmas ekan. Qadim-qadimdan xalqimiz Navro‘z arafasidan boshlaboq, rizq-ro‘zimiz manbai ona yerga alohida mehr bilan ishlov berib, urug‘ qadagan, mevali va mevasiz daraxtlar o‘tkazish marosimlari tashkil etilgan, xilma-xil tansiq taomlar, pishiriqlar tayyorlangan, turli musobaqalar, o‘yin-kulgular, sayillar va hokazolar bo‘lib o‘tgan. Darhaqiqat, o‘z xalqiga qaytarilgan yangi yil — Navro‘z barchaga olam-olam quvonch keltirib, ma’naviy oziqa beradigan taqvimdagi muhrlangan qadimiy an’anamizdir.

Bahor… Bu fasl yurtimizga o‘zgacha tarovat bilan kirib keladi. Birgina bahor faslida o‘tkazilgan udum va marosimlarning o‘zida olam- olam ma’no aks etadi. “Loy tutish” – bahor faslining ilk kunlarida qishloqlarimizda ariqlardagi loy qoldiqlarini, ariq zovurlarini mahalla- qishloq ahli birgalashib tozalashadi; “qo‘sh oshi”- erta bahorda dalaga birinchi marta qo‘sh solinadigan kuni momolar tomonidan bug‘doy yormasidan maxsus taom pishirish odati; “ shox moylar”- bobodehqonlarimizning mo‘l hosil olish niyatida erta bahorda dalaga qo‘sh chiqarib, baraka urug‘ini qadash udumi; “olma otish”- navro‘z bayrami saylida qiz-juvonlar halinchak uchishayotganda yigitlar o‘zlariga unashtirib qo‘yilgan qayliqlariga olma otish odati; “darveshona”- yil barakali kelsin degan umidda erta bahorda aholidan ixtiyoriy asosda to‘plangan pul yoki oziq-ovqat hisobiga o‘tkaziladigan xayr-ehson marosimi; “qozon to‘ldi”- ro‘zg‘orga qut-baraka yog‘ilishi, mahallalar obod bo‘lishi maqsadida Navro‘z bayramidan bir kun avval o‘tkaziladigan oilaviy marosim; “navro‘z go‘ja”- g‘alla ekinlarining hosili barakali bo‘lishi uchun yilboshi bayrami kuni yetti xil donli ekin masallig‘idan go‘ja tayyorlash an’anasi; “sumalak bayti”- sumalak baytida so‘zga chechan momolarimizning ko‘klamni vasf etuvchi xalq qo‘shiqlarini aytish an’anasi; “sumalak sayli”- har yili ko‘klamda yil barakali, serhosil, to‘kin- sochin kelsin degan niyatda bug‘doy maysalatib, bahoriy taom tayyorlash marosimi. Ijodkor xalqimizning bahor fasli bilan bog‘liq an’ana va udumlari juda ko‘p. Milliy qadriyatlar va an’analar zamonlar osha rivojlanib, ayrimlari unutilib yangilari yaratilib, sayqallanib bormoqda. Navro‘zda turli xil sayl qo‘shiqlari, folklor qo‘shiqlar kuylanadi. Hozirda tarixiy-fokloriy jarayonning izchil taraqqiyoti davomida muttasil takomillashib, ba’zi janrlar yo‘qolib, boshqalari rivojlanishda davom etmoqda. Masalan, buyuk bobomiz, shoir va mutafakkir Alisher

Navoiyning “Mezon ul- avzon” asarida o‘sha davr o‘zbek folklori mavjud bo‘lgan janrlar xususida so‘z yuritar ekan , *“Chun o‘zlarning o‘zmog‘i va o‘zbaklarning budi- budoyi hech vazn bila rost emas erdi”*deb yozadi. Bu o‘rinda o‘zon , ya’ni baxshi shoir tomonidan ijro etilgan “o‘zmog‘” hamda xalq lirikasining “budi-budoy” janri haqida gap bormoqdaki, ushbu janrga mansub asarlar bizgacha saqlanib qolmagan. Lekin shunday marosim qo‘shiqlari borki, oradan necha ming yillar o‘tsada, muayyan o‘zgarishga uchragan hol bo‘lsada milliy folklorimizda yashamoqda. “Chinka” qo‘shig‘ini olib qaraylik, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida bu xususda “chinga”durkim , turk ulusi zufof va qiz ko‘churur to‘ylarida ani ayturlar” degan bir fikr keltirilgan.

Shu o‘rinda fakt sifatida aytib o‘tsam, 2009-yil 30-sentabrda Navro‘z UNESCO tarafidan nomoddiy madaniy me’ros ro‘yxatiga kiritilgan, 2010-yil 23-fevralda esa BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida 21-mart “Xalqaro Navro‘z Kuni” deb e’lon qilindi. Hali hanuzgacha milliy qadriyatimiz sifatida ushbu kunni nishonlab kelamiz.

Keling Navro‘z bayramining tarixiga ham bir nazar tashlasak, buyuk allomalarimizdan biri Abu Rayhon Beruniy “Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobida Quyosh yili hisobida yilning birinchi oyi deb sanalgan Farvardin oyi to‘g‘risida so‘zlab: “Bu oyning birinchi kuni Navro‘zdir”, — deydi. Bahor va yangi ayyom har bir yurakdan muhim joy olgan quvonchli damlarda ko‘pchilikning „Navro‘z qayerda va qachon paydo bo‘lgan ekan?“ — degan savoliga „Saodat“ jurnalida e’lon qilingan „Onaqutining saxovati“ maqolasida bunga asosli javob berilgan. Unda jumladan: "Dunyoga ilk alifboni bergan buyuk allomalarning vatani bo‘lgan, dunyoviy fanlarga asos solgan Xorazm yurti qadimda, hatto eramizdan avvalgi minginchi yillarda Xvayrazam deb atalgan. Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik va etnografik izlanishlar Navro‘z bayrami ilk bor xuddi shu zaminda Niso (ya’ni, ayol shahri poytaxti bo‘lmish Parfiyona) grek va Ovrupa faylasuflari asarlarida Parfiyada nishonlanganini ashyoviy topilmalar tasdiqlaydi.

Adabiyotlar:

1. *“Yoshlik”, 2015 yil 4-son;*

2. **https://saviY.uz/hayot/suhbat/xalq-ijodi-boqiy-qadriyat/**

3. http://www.rmab.uz/index.php/ru/site-map/novosti/141-navroz-tarixi

4. https://new.tdpu.uz/page/3761/ru

NAVRO‘Z – MILLIY BAYRAM

Dilobar MEXMONOVA,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
filologiya va tillarni o‘qitish fakulteti o‘zbek tili
ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Elektron manzil: dilobarmexmonova38@gmail.com.

Annotatsiya. Maqolada Navro‘z so‘zining etimologiyasiga to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, bayramga oid urf-odatlar, qadimgi marosimlar tarixi haqida ma’lumot keltirilgan. Bu bayramning O‘zbek xalqi madaniyatiga ta’siri milliy mentalitetda o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, terma, milliy urf-odat, xalq qo‘shiqlari

Annotation. The article focuses on the etymology of the word Navruz. There is also information about the traditions of this holiday, the history, the history of ancient ceremonies. The impact of this holiday on the culture of the Uzbek people is reclected in the national mentality.

Аннотатция. В статье основное внимание уделяется этимологии слова Навруз. Такье ест сведения о традициях этого праздника, истории древний обрядов. Влияние этого праздника на культуру узбекского народа находит отражение в национальном менталитете.

Navro‘z “nav” – yangi”, ro‘z” – kun tushunchalari mohiyatini mujassamlashtirgan istiloh bo‘lib, musulmon xalqlarida taqvim bo‘yicha yil boshi, shuningdek, lug‘aviy ma’nosidan anglashilib turgandek mehnatkash xalq hayotida yangi kun, yangi mavsumning boshlanishiga ham ishora qiladi. Navro‘z bobo dehqonning yaxshi niyatlar bilan yerga urug‘ qadab, duoga qo‘l ochgan, tabiat himmatiga, yaratgan marhamatiga umid bog‘lagan murodbaxsh kun. Ezgu tilaklar shodiyonasidir. Navro‘z bayramining, u bilan bog‘liq urf-odatlar, an’analarning tub ildizi, tarixi necha ming asrlarga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda, jumladan, Mahmud Koshg‘ariy, Beruniy, Umar Hayyom, Alisher Navoiy kabi allomalarimizning asarlarida va boshqa manbalarda Navro‘z bayrami, u bilan bog‘liq urf-odatlar haqida ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan. Abu

Rayxon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” deb nomlangan asarida ham bu bayramga katta o‘rin ajratadi. Uning kelib chiqishi, tarixi haqida fikr yuritadi [1.100] . Navro‘z haqida ma’lumotlar asosan tildan-tilga o‘tib kelayotgan og‘zaki ma’lumotlarda aks etsa-da, yozma adabiyotdagi asarlarida ham keltirilgan. Ma’lumki, Ipak yo‘li chorraxasida joylashgan qadimiy shaharlarimizga doimiy ravishda turli o‘kalardan savdogarlar, sayyohlar tashrif buyurib turishgan. Navro‘z bayramining nishonlanishiga ham guvoh bo‘lishgan. Masalan, xitoylik savdogar va Sayyohlar Samarqand va Farg‘onada o‘tgan Navro‘z, umuman, yangi yilning kutib olinishi haqida qiziq taassurotlarni yozib qoldirishgan. Ularning birida aytiladiki, “Farg‘onaning odamlari qiziq ekan, ular Navro‘zda ikkiga bo‘linib, bir- birlari bilan urishar ekanlar” sirtdan qaraganda urushuvdek ko‘ringan bu holat xalqimizning qadimiy marosimlari sanalgan ko‘klam bilan qish timsollaridagi marosimiy kurashidir. Yana bir o‘rinda Farg‘ona xalqining Navro‘z marosimida turli hayvonlarni urishtirib fol ko‘rishlari haqida aytilgan. Bugungi kunda ham qo‘chqor, xo‘roz urishtirishlar bor. Aslida, bu tomoshalar oddiygina ko‘ngilxushlik emas. Qadimda tomoshabinlar urishtirayotgan hayvonlarining birini qish, boshqasini yoz, deb olib, ularning holatidan yilning qanday kelishini anglashga intilganlar. Samarqandda o‘tgan Navro‘z bayrami haqida ham qiziqarli ma’lumotlar o‘qishimiz mumkin. Ma’lum bo‘lishicha, Navro‘z kuni ular podsho saylashgan. “Oltin qobiq” degan jangovar o‘yin bo‘lgan. Baland yog‘och ustiga oltin tanga qo‘yib, yoyda otishgan. Odatda, ushbu musoboqa g‘olibini Navro‘z podshohi qilib saylashgan. Keyin ular daladan yetti kun podshoning halok bo‘lgan o‘g‘lining suyaklarini qidirishgan, uni yettinchi kun topib olib kelib, qaytadan bayram qilishgan, degan ma’lumot saqlangan. Aslida, halok bo‘lgan bu shaxzoda ko‘klam hisoblanadi. Chindanda, qadim Misrda quyosh xudosi Ra va uning o‘g‘li Go‘r haqida mif bo‘lgan. Bizda esa, Go‘ro‘g‘li dostoni mavjud. Go‘ro‘gli o‘z vazifasini ado etgach, yana qaytib g‘orga kirib ketadi. “Go‘ro‘g‘li” eposi o‘zagidagi aynan o‘lib – tiriluvchi tabiat va quyosh, oy turkumi miflari tashkil etadi. Go‘ro‘g‘li obrazi ham bilvosita Navro‘zga aloqador degan fikr ilgari suriladi “Navro‘z qo‘shiqlari” kitobida.

Qaysi davrni olib qaramaylik, bu Koshg‘ariy asrimi yoxud Amir Temur zamonimi Navro‘z katta maydonlarda, sayilgohlarda zo‘r tantana bilan o‘tkazilgan. Faqat sho‘rolar davridagina bu bayram millat hayoti va xotirasidan butkul o‘chirib tashlashga harakat qilindi. Mustaqillikdan so‘ng bu bayram yana o‘z o‘rnini topdi, yangicha mazmun va mohiyat kashf etdi [1.100-120]. Umuman

olganda, Navro‘zga oddiy bir bayram emas, o‘zida xalqimizning ming asrlik qadriyatlarini jamlagan, yuzlab rivoyatlarga, betakror folklor namunalarining yaralishiga asos bo‘lgan o‘lmas marosim hamdir. Navro‘z urf-odatlari, an’analarida, Navro‘z kuni ijro etilgan qo‘shiqlar, sahna tomoshalari barcha-barchasida donishmand elimizning ezgulik targ‘ibotini, mehr- oqibatga chorlash, diydor istab do‘st-u birodarlarning bir dasturxon atrofida yig‘ilishi bir so‘z bilan aytganda, Navro‘z bahona insonning insonga yaqinlashuvi, yaxshilik sog‘inishiga guvoh bo‘lamiz (Navro‘zda urishganlar yarashadi). Navro‘z shunday go‘zal bayramki, hatto bu kuni insonlar tabiatga, jonzotlarga ham ziyon yetkazishmaydi (Navro‘z kuni mushuk, it kabi hayvonlar urilmaydi).

Navro‘z bilan bog‘liq marosimlarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, asosan ikki jihat yaqqol ko‘zga tashlanib turganini ko‘ramiz. Birinchisi, ajdodlar ruhiga bo‘lgan hurmat va ehtirom. Ikkinchisi, o‘lib-tiriluvchi tabiatning jonli holda tasavvur qilinishi va ulug‘lanishidir. Navro‘zda qabristonlarning ziyorat qilinishi, olov yoqilishi, is chiqarilishi, qurbonliklar qilinishi ajdodlar ruhiga bo‘gan hurmatni ifodalaydi. Navro‘z payti o‘ynaladigan “Oq suyak” o‘yinida ham ajdodlar ruhiga bo‘lgan hurmatni kuzatamiz. Bu o‘yin haqida Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida ma’lumot beradi. O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida bu o‘yin bugunga qadar o‘ynalib kelinmoqda. U, asosan, erta ko‘klam payti, kechqurun o‘ynalgan. Bolalar o‘rtasida saylangan boshliq qo‘lidagi so‘ngakni uzoqqa otgan. Boshqa bolalar uni topishga harakat qilishgan. Kimki suyakni birinchi bo‘lib topsa, o‘sha bola yutgan hisoblangan. Oq suyak o‘yining aynan, Navro‘z payti va tunda o‘ynalishiga sabab, suyak – ajdodlar ruhi yordamida qish – tunni haydab, kunga – bahorga intilish bo‘lgan. Bunday misollarda yana ko‘plab keltirish mumkin.

Qolaversa, Navro‘z bayrami marosimlari ham Respublikamizning turli viloyatlarida o‘ziga xos tarzda o‘tkaziladi. Masalan, bugun ham ko‘pgina hududlarda “Qozon to‘ldi” marosimi o‘tkaziladi. Bu marosim ham o‘ziga xos tarixga egadir. Qadimda bu marosimda ishlatiladigan qozonlar singari maxsus qozonlar muqaddas sanalgan va ular, asosan, tog‘lar etagida yoxud bir ulkan daraxt ostida qo‘yilgan bo‘lib, ko‘klam payti marosimlarida iloh – ma’budlardan hosildorlik va qut-baraka so‘ralib, ajdodlarimiz tomonidan qurbonliklar qilinib, pishirilgan taomlarni shu qozonda qo‘yib ketilgan. Tarixchi Geradot o‘zining “Tarix” asarida skiflarning ana shunday muqaddas qozoni bo‘lganligi haqida

ma’lumotni keltiradi. Unda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra skif hukumdorlaridan biri o‘z askarlarining sonini bilish uchun, ularga kamon o‘qining uchini olib kelishini buyurgan. Keyin esa tog‘day uyulib ketgan ana shu kamon o‘qining uchlaridan ulkan qozon yasalgan. Keyinchalik bu ulkan qozonda tangrilarga qurbonliklar qilinib, turli xil taomlar pishirilgan. Amir Temur davrida yasatilgan ulkan qozon ham bu idishning marosimlarda muhim ahamiyatga ega bo‘lganlaridan dalolat beradi. Bugungi kunda esa, bayram kuni xonadonlarda ko‘ksomsalar, chuchvara-yu gulxonimlar pishirilib qo‘ni-qo‘shni, beva-bechoralarga tarqatiladi. Shuning o‘zidayoq o‘zbek xalqiga xos insoniylik fazilatlari yaqqol ko‘rinadi [1.122-123-124].

Qolaversa, Navro‘z kunlari yigit-qizlar jamoa bo‘lib aytishuvlar, laparlar aytishgan. Baxshilar termalar kuylagan. Bu ijro qilingan kuy-u qo‘shiqlarda asosan, shukronalik, Navro‘z, bahor madhi kuylangan.

Boychechak chiqibdi, bugun Navro‘z ekan,

Hamma bir-biriga jigar ham so‘z ekan.

Olam ham barobar kecha-yu kunduz ekan,

Boychechak chiqibdi bugun Navro‘z ekan… (o‘zbek xalq qo‘shiqlaridan) [1.15.]

Navro‘z kelganiga shukronalik, shu qutlug‘ kun bilan yaqinlarini qutlash, bog‘bon-u dehqonga baraka tilash, boychechak chiqqanini Navro‘z kelishi bilan bog‘lash ushbu xalq qo‘shig‘ida tarannum etilgan. “Bayram – xalqning shodlik va xursandchilik kunidir” - degan edi. Sharqning buyuk olimi Mahmud Koshg‘ariy bahorning o‘zi bir xursandchilik, boychechakka yetish, Navro‘z bilan yuzlashishning o‘zi ham katta bayramdir. Momolarimiz har bahor, boychechag-u chuchmomalarni ko‘zga surtib “omonliq-esonliq” qilishlari ham shukronalik belgisi, axir. Ko‘pgina xalqlarda qishni kuzatish va bahorni kutib olish an’analari eng yirik bayramlarga aylangan. Masalan, yaponlarda – “Risson”, xitoylarda “Chun-sze”, slavyan xalqlarida “Maslennisa” va O‘rta Osiyoda “Navro‘z” yoki “Yil boshi” deb nomlangan [1.76]. Xulosa qilib aytganda, bahor kirib kelishi hamma vaqt xursandchilik bilan kutib olingan.

Adabiyotlar:

1. Navro‘z qo‘shiqlari. “O‘zbekiston”, Toshkent – 2010.
2. O‘zbek xalqi bayramlari. “Sharq”, Toshkent – 2002.
3. http://uz.wikipediY.org/wiki/Navro%CA%BBz
4. http://azculture.uz/ru/nashi-izdaniY.php?link=nashi-izdaniy

“NAVRO‘Z” UDUNMALARI, AN’ANALARI, SAYILLARI XALQ ODOBNOMASI MANBAI

Maknuna MEYLIYEVA,
O‘zDSMI Xalq ijodiyoti
folklor va etnografiya ta’lim yo‘nalishi
2-kurs talabasi

Annotatsiya. Bu maqolada “Navro‘z” bayrami yangi kun, yangilanish, insonlarni odobini aks ettiruvchi, hashar, sayllarning bizga qanchalik muhim ahamiyatga egaligini, “Navro‘z” bayrami nishonlana boshlagan davrdan boshlab bu bayramning qanchalik ahamiyatga egaligini, o‘sha davrdagi insonlarga, kelajak avlodga qanchalik odob namunasi hisoblangan udumlar, odatlar, an’analar ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Folklor, etnografiya, merosshunoslik, Navro‘z, rasm-rusum, odat, udumlar, an’analar, jismoniy yetuklik, safarbarlik, xalq odobnomasi.

Аннотация. В этой статье “Навруз” праздник нового дня обновления, отражая порядочност людей, насекомых, гуляния, как важно нам, насколько важен праздник с тех времен, когда празник "Навруз" стал праздноваться, как важен этот праздник, сколько этикета люди в уша период, следущее поколение было свое мнение и научного анализа расчетных обычаи, привычки, этикет.

Ключевые слова: фольклор, этнография, наследие, навруз, рисование, обычаи, обряды, традиsии, физическая зрелость, мобилизаsия, народный, этикет.

Annototion. Urok tea in the article “Navruz” holiday new day, renewal, reflecting the decency of people, insects, festivities tell us how important it is, to celebrate the holiday “Navruz” how important is this holiday from the very beginning egaligini, an example of how good manners are to the people of the usha

era to the next generation there was an opinion and scien tific analysis of calcula ted customs, habits, traditions.

Key words: Folklore, ethnography, hereditary science, Navruz, painting-rusm, custom, customs, traditions, physical, maturity, mobilization, people's etiquette.

Sharq xalqlari, jumladan o‘zbeklar orasida tarqalgan va bizning kungacha yetib kelgan har qanday rasm-rusumlar, odatlar udumlarning hammasi o‘ziga xos odobnomadir. Chunki ular boshdan-oyoq xalq an’analari xalq ibratnomasi bilan yo'g'rilgan. “Navro‘z” xususida gapirar ekanmiz, “Navro‘z” bu yangi kun kun bilan tunning teng kunligi, yangilanish, yosharish va yilning boshlanishidir. Shu bilan birga odob, jismoniy yetuklikni ko‘z-ko‘z qiladigan sayl hamdir. Bu kunda har xil xalq o‘yinlaridan “Kurash”, “arqon tortish”, “Xo'roz urushtirish” va shu kabi ko‘plab jismoniy yetuklikni ko‘ratishga qodir o‘yinlar o‘tkaziladi.

Bu bayramni xalq pedagogikasi an’analarida tutgan o‘rni beqiyosdir. “Navro‘z” xalq pedagogikasi an’analari, xalq odobnomasidir. Xalq odobnomasining har tomonlama mukammal yorqin ifodasidir. Uning adabiyot, musiqa, folklor, din, etnografiya, merosshunoslik, xalq amaliy san’ati kabi boyliklarning inson ma’naviyati, uning amaliy jismoniy shakllanishi va kamoloti, tutgan o‘rni, emotsional ta’sir kuchi, “Safarbarlik” roli namoyon bo‘ladi. [1-7 b]

“Navro‘z” haqida dastavval O‘rta Osiyo xalqlarining eng qadimiy dini hisoblanmish “Zardushtiylik” dinining muqaddas kitobi bo‘lmish “Avesto”da “Navroz” yangi yilning boshlanishi bo‘lib, Farvardin oyida boshlanib, o‘sha kuni Xurmizd ro‘z deb ataladi. Bu yangi yil yakka tangri Ahuramazda nomi bilan boshlanadi, demakdir. Bayramni Peshdodiylar sulolasi shohlaridan bo‘lmish Jamshid joriy qilgan naql qilishlaricha, Tangri birinchi odamni ana shu kun yaratgan va osmonning pokizalik farishtalari uni muborakbod etgani kelib, shodiyona bilan qaytishgan ekan. Shuning uchun Navro‘z shodiyona kun ekan. Odamlarning bu bayramga jiddiy tayyorgarlik ko‘rishlari, hamma yoqni pokiza etishga, ariq-zovurlar, hovli-joy, xonadon, idish-tovoq, uy anjomlari, kiyim-kechaklarni tozalash, yangilashga intilishlarining asosiy sababi ham ana shu har yili keladigan maloyiklarni xushnud qilish, mehmonlarning ko‘nglini olish ekan. Farvarning Yashtda o‘qiymiz: “Zabardast va bashuquh, yuksak axloqning birinchi muallimlari maloyiklar ushbu xonadonda xursandliklar yayrab-yashnasinlar va bu yerdan shod-u xurram qaytsinlar. Ular bizning udum va qo‘shiqlarimizni

Ahuramazdaga yetkazsinlar. Ularning biz mazdaparastlar xonadonidan noxushnud ketishlariga aslo yo‘l qo‘ymaymiz”. [2,74-b].

Bundan ko‘rinib turibdiki bu bayram insonlarning xulq-atvorini, odobini, qanday kuchga egaligini, qishning sovuq kunidan eson-omon chiqib bahorgi teng kunlikka yetishganligi tufayli mamnunligini ko‘rsatuvchi eng muhim bayramlardan biri ekanligi, ushbu manbada keltirilgan dalillarda ham bilinib turibdi. Ushbu muborak kunda poklanish, yon-atrofni tozalash, hashar uyushtirish hozirgi kunga qadar bizni xalqimizda an’ana bo‘lib kelmoqda.

Umar Xayyomning “Navro‘znoma” kitobida Navro‘z haqidagi haqiqat, Ajam podshohlari davrida u qaysi bo‘lgani, qaysi podshoh joriy qilgani va nega nishonlashlari hamda podshohlarning boshqa odatlari, shuningdek, ularning barcha ishlarda tutgan yo‘llari ko‘rsatiladi.

Navro‘zning joriy qilinishi sababini aytsak, u shundan iboratki, Oftobning ikki aylanishi mavzusida, ulardan biri quyidagicha: Oftob har uch yuz oltmish besh kun kecha-kunduzning to‘rtdan birida hamal 6 burjining birinchi daqiqasiga chiqib ketgan paytining o‘zida yana qaytib keladi va har yili bu davr kamaya boradi.[3;11-b]

Jamshid bu kunni tushungandan keyin Navro'z deb atadi va bayram qilinishni odatga aylantirdi. Navro'z bu kunni yangi kun deya hozirgacha nishonlab kelmoqda.

Bugungi kunda “Navro‘z” keng miqyosda katta tantanalar bilan nishonlanmoqda, har xil sayllar va bu sayllarni o'tkazishda Folklor-etnografik jamoalar katta jonbozlik ko‘rsatib kelmoqda.

Navro‘z xalqning odobnomasi fikrimizga dalil tariqasida birinchi prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida shunday fikrlar keltrilgan: Barchamiz doimo orziqib kutadigan va katta hursandchilik, shodiyona bilan o'tkazadigan Navro‘z bayrami biz uchun hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatining, ko'p ming yilik milliy qiyofamiz, urf-odatlarimizning betakror ifodasi bo'lib kelmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, yangilanish va ezgulik timsoli bo‘lgan Navro‘z falsafasi xalqimizga mansub odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat va himmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanib kelgani, ajdodlarimiz asrlar davomida qanday buyuk umuminsoniy g'oyalardan bahramand bo‘lib, ma’naviy kamol topganining yana bir tasdig’idir, desak, hech qanday xato bo'lmaydi [4, 35 b].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, Navro'z yangilanish, yangi kun, qishning sovuq kunidan iliq kunlar bilan yuzlanish, ekin-sekin qilish sayllar, bayramlar

nishonlash bayrami. Xalqimizning odobnomasi, madaniyati, ma’naviyati hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. “Navro‘z” va ma’naviy tarbiY. Tuzuvchi mualliflar: M.Turapov, K.Saydumarova, D.Boboxonova, M.Obidova. Toshkent - 1996.7-bet.
2. Homidiy H. “Avesto” fayzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti Toshkent. -2001.74-bet.
3. Umar Hayyom. “Navro'znoma”. Toshkent “Mehnat” 1990.11-bet.
4. Karimov I. “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch”. “Ma'naviyat”, 2008. 35-bet.

Navro‘z − kecha va bugun

Kamola ABIDOVA,
O‘zDSMI “Xalq ijodiyoti” fakulteti,
Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. O‘zbek millati bayram hamda qadriyatlarga boy ekanligi bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Ammo ayrim bayramlar va qadriyatlar bugungi kungacha o‘z mohiyatini yo‘qotgan bo‘lsa, lek ba’zilari esa bugungi kunda yashamoqda, yashnamoqda. Ana shunday xalq orasida qadr topgan qadriyatlardan, doimo orzuqib kutiladigan va yilboshi sanaladigan ayyomimiz bu-Navro‘zdir!

Kalit so‘zlar: yangilanish, san’at, sumalak, bahor, sayl, qadriyat, quyosh, yangi kun.

Аннотация. Узбекский народ отличается от других народов богатством праздников и ценностей. Но если некоторые праздники и sенности утратили свое значение и по сей день, то некоторые до сих пор живы и здравствуют. Одной из самых заветных ценностей нашего народа является Навруз, который всегда отмечается и отмечается как Новый год!

Ключевые слова: обновление, искусство, сумаляк, весна, праздник, ценность, солнце, новый день

Annotation. The Uzbek nation is distinguished from other nations by its richness of holidays and values. But while some holidays and values have lost

their meaning to this day, some are still alive and well today. One of the most cherished values of our people is Navruz, which is always celebrated and celebrated as a New Year!

Key words: renewal, art, sumalak, spring, holiday, value, sun, new day

Yurtim! Ilhomimga sarchashma o‘zing,
Birdek aziz mengga yozing, ham kuzing.
Bu kun bahoringga she’r aytmoqchiman,
Vatanim, muborak bo‘lsin Navro‘zing.

Boshingda hurriyat quyoshing bordir,
O‘z tug’ro, bayrog’ing, yurtdoshing bordir,
Maqsading, g’ayrating, bardoshing bordir,
Vatanim, muborak bo‘lsin Navro‘zing!

Navro‘z qadim-qadimdan mavjud bayram bo‘lib, ushbu bayram yilboshi nainki yangi yil sifatida nishonlangan va nishonlanib kelinmoqda. Har bir voqea yoki bayramning tarixi bo‘lgani kabi Navro‘zi olamning ham o‘z tarixi mavjud. Xa shuni ham aytib o‘tish joizki Navro‘zning paydo bo‘lishi hamda nishonlanishi borasida turli xildagi ma’lumotlar bor. Quyida ushbu ma’lumotlarning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz: Tarixiy manbalarda keltirilishicha va olimlarimiz fikriga ko‘ra, Navro‘zning shakllanish davri – eng qadimgi zamonlardan “zardushtiylik”ning paydo bo‘lishigacha davom etgan asrlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbek xalqining allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy “Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobida Quyosh yili hisobida yilning birinchi oyi deb sanalgan Farvardin oyi to‘g‘risida so‘zlab: “Bu oyning birinchi kuni Navro‘zdir”, — deydi. — Navro‘z yilning birinchi kuni bo‘lib, uning forscha nomi ham shu ma’noni anglatarkan. Navro‘z eronliklar “zij”lari bo‘yicha o‘tmish zamonlarda, ular yillarini kabisali qilgan vaqtlarida Quyoshning Saraton burjiga kirish paytiga to‘g‘ri kelar edi. So‘ngra u orqaga surilgach, bahorga keladigan bo‘ldi. Endi u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya’ni bahor yomg‘irining birinchi tomchisi tushishidan, gullar ochilgan, daraxtlar gullashidan mevalari yetilguncha, o‘simlik unib chiqa boshlashdan takomillashguncha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro‘z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan” deya izohlaydi.

Qadim-qadimdan Navro‘z xolis niyatli kishilarning sevimli ayyomi bo‘lib kelgan. O‘sha kunlarda hatto urush-janjallar ham to‘xtalgan, gina-qudratlar kechirib yuborilgan. Shohlar el ichidan eng munosib kishilarni taqdirlashgan, ayrim mahbuslarning gunohidan o‘tishgan. Afsonalarga qaraganda, Odam Ato Momo Havo bilan uchrashgan kun Navro‘z deb tan olingan emish.

Firdavsiyning “Shohnoma”sida yangi yil bayrami shoh Jamshid nomi bilan bog‘lanadi. Jumladan, Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarga kasb o‘rgatadi, temir eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib kiyim to‘qitadi, imoratlar barpo qiladi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, bog‘ bunyod qiladi. Nihoyat, “ishlari gurkirab berganda meva” bir kuni taxt yasatib, unda osmonga ko‘tariladi. Ushbu afsonaga ko‘ra xuddi shu kuni Navro‘z nishonlangan.

Darhaqiqat, Navro‘zning qachon va qanday vujudga kelganligini aniq ko‘rsatish qiyin bo‘lsa-da, shuni aytish mumkinki, bu bayram dono kishilar tomonidan kashf qilingan. Chunki Navro‘zning dunyoga kelishi chuqur ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, ya’ni Quyoshning hamal burjiga kirishi, tun va kunning tenglashuvi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu esa (har qanday jamiyatda) yil boshi qachon kelishidan qat’i nazar navro‘zni uyg‘onish bayrami sifatida nishonlash uchun asos bo‘lgan. Bundan tashqari, Navro‘zning chuqur ildizlariga murojaat qilsak, u eng qadimiy davrlarda – ibtidoiy odamlarning dehqonchilikka o‘tganidan so‘ng dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o‘tkazilgan bahor bayramlariga borib taqaladi.

Xavashyaliklarning aytishicha, Sulaymon podshohning uzugi yo‘qolgan kun podshohligi ham qo‘lidan ketgan. Qirq kundan keyin uzugi topilgach, podshohligi ham, ravnaqi ham qaytib kelgan. Podshohlar uning huzuriga to‘planadilar. Shunda

eronliklar “Navroʻz omad – yangi kun keldi”, deganlar. Natijada, shu kun Navroʻz deb ataladi.

Musulmon davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari Miloddan avvalgi III asrdayoq Navroʻz bayramini Yangi yil tariqasida keng nishonlaganlar. Yangi yil – yilning birinchi kuni boʻlib, dunyodagi koʻpgina xalqlarning eng muhim bayramidir. Yangi yilni kutib olish va nishonlash turli davrlarga toʻgʻri kelgan. Masalan, bizda Navroʻz 21-mart kuni. Ovroʻpaliklar Yangi yilni 1-yanvarda, moʻgʻul va xitoyliklar Yangi yilni fevralda nishonlar ekanlar.

Mutaxassislarning asoslangan fikrlariga koʻra, Quyosh ayni shu kuni hayotbaxsh nurlarini tik, ya’ni 90 daraja burchak hosil qilib, sayyoramizning qoq beliga –ekvatorga yoʻnaltiradi. Shu daqiqalarda bahorgi kecha-kunduz tenglashadi va 22-martdan boshlab Quyoshning tik yoʻnalgan nuri shimoliy tropik chizigʻi tomon harakatlanadi. Bu Navroʻzning ilk va qutlugʻ qadami boʻlib, tabiatning jonlanishi bilan kishilarning xoʻjalik faoliyati oʻrtasida uygʻunlik namoyon boʻladi. Jumladan, bobo dehqon ona erga mehr ishlov berishga kirishadi; tabiat oʻt-oʻlanlar, qir-adirlarni gilam singari yashil libosga boʻyaydi…

Navroʻz – musulmon xalqlarining taqvimida mustahkam oʻrin olgan eng sara bayramlaridan biridir. U inson va tabiat oʻrtasidagi uygʻunlikni anglatadigan noyob va ijtimoiy hamda tabiiy hodisadir.

Qadim-qadimdan xalqimiz Navroʻz arafasidan boshlaboq, rizq-roʻzimiz manbai ona yerga alohida mehr bilan ishlov berib, urugʻ qadagan, mevali va mevasiz daraxtlar oʻtkazish marosimlari tashkil etilgan, xilma-xil tansiq taomlar, pishiriqlar tayyorlangan, turli musobaqalar, oʻyin-kulgular, sayillar va hokazolar boʻlib oʻtgan. Darhaqiqat, oʻz xalqiga qaytarilgan yangi yil – Navroʻz barchaga olam-olam quvonch keltirib, ma’naviy oziq beradigan taqvimdagi muhrlangan qadimiy an’anamizdir. Navroʻz Sovet davrida Oʻzbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa qismlarida ochiq nishonlanmagan. Bir necha ming yillik tarixga ega bu bayram Oʻzbekistonda, ayniqsa, 1980-yillarga kelib rasman taqiqlangani haqida ma’lumotlar bor. Bu davrga kelib, deydi yaqin tarixni sharhlayotgan ayrim mutaxassislar, Oʻzbekistonda milliylik tuygʻusi kuchaya boshlagan. Mustaqillikdan keyin esa Navroʻz davlat miqyosida keng nishonlanadigan bayramga aylandi. Dastlab madaniy ayyom sifatida koʻrilib, xalq sayli sifatida tantana qilingan Nazroʻz bugunga kelib ancha siyosiy-rasmiy tus olgan. Sovet davrida Navroʻzning taqiqlanishi ikki bosqichda kuzatilgan. “Avval 1920-yillarda, “Navroʻz ham taqiqlangan bayramlar qatoriga kirgan”, — deydi tarixchi olim Fayzulla Is’hoqov. 1985-86-yillarda esa Navroʻz, asosan, Oʻzbekistonda “xavfli an’ana” sifatida koʻrilgan. Qayta qurish davrida kechgan bu ta’qiblar milliy uygʻonish davrini boshdan

kechirayotgan o‘zbek ziyolilari o‘rtasida keng muhokama qilingan. Xalq hofizi Dadaxon Hasanning eslashicha, shu yillarda O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Navro‘zni “Baxt va Bahor” bayrami deb o‘zgartirish tashabbusi bilan chiqqan. “O‘zbekiston Markaziy qo‘mitasining ideologiya bo‘yicha kotibasi Ra’no Abdullayeva edi. U qo‘mita plenumida Navro‘zni diniy bayram deb tanqid qilgan. Abdulla Oripov esa bu baxt va bahor bayrami degan. Keyin men “Marhabo Navro‘zi olam” degan qoshig‘imni aytib chiqqan edim” – deydi, Dadaxon Hasan. 1980-90-yillardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ishtirokchisi bo‘lgan o‘zbek ziyolilaridan biri Hayitboy Abdullayev fikricha, Navro‘zni taqiqlash o‘zbek kommunistlari tashabbusi edi. “Bu faqat O‘zbekiston kompartiyasining qarori bilan taqiqlangan. Chunki qo‘shni Tojikiston va Qozog‘istonda Navro‘z bayram qilinayotgan edi”– deydi u. Fayzulla Is’hoqov fikricha esa Navro‘zni cheklash asosan Moskva buyrug‘i bilan amalga oshirilgan. “1986-yili shunday qaror qabul qilingan. Hozir ko‘plar buning uchun Ra’no Abdullayevani ayblashadi. Lekin aslida bu Moskva tomonidan boshqarilgan. Bu ayolning aybi shuki, u bu tazyiqlarga qarshilik qila olmagan” – deydi tarixchi olim.

“Ikkinchi Jahon Urushidan keyingi yillarda Navro‘zni “Qozon to‘ldi” deb ham atashgan. O‘troq turkiylar bu bayramda yetti xil ovqat qilishgan. Uni yangi yil sifatida kutishgan. Keyingi yilgacha qozonimiz to‘lib tursin degan ma’noda. Ayrim joylarda lola bayrami sifatida nishonlangan”, – deydi, Hayitboy Abdullayev.

Navro‘z mustaqillikdan keyingi yillarda

1991-yildan keyin Navro‘z umumxalq bayrami darajasiga ko‘tarildi.

Hayitboy Abdullayev fikricha esa Navro‘z to‘qchilik, to‘kin-sochinlik bayramidir. Xalq moliyaviy yetishmovchilikdan qiynalar ekan, Navro‘zga nisbatan munosabat ham shunga yarasha.

“Navro‘z bayrami tiklangach bildikki, u bilan bog‘liq qancha udumlarimiz bor ekan. Qancha qo‘shiqlar, qancha taomlar bor ekan. Hatto birgalikda jo‘r bo‘lib, aytiladigan qo‘shiqlarimiz bor ekan. Qabristonga borish, o‘tganlarni xotirlash kabi udumlari bor ekan”– deydi u.

“Qadim zamonlarda Navro‘z ehtimol boshqa bir diniy tarixga ega bo‘lgandir. Lekin vaqt o‘tishi bilan Navro‘z milliy an’anaga aylandi. Navro‘z kuni quyosh bir kundan ikkinchi kunga o‘tadi. Burj tahlil qilinadi. Islom dunyosi bu haqiqatni tan oladi. Shariatda bunga qarshilik yo‘q. Aksincha, hamisha hurmat qilib kelingan. Afsuski, mutaassib, fikr doirasi tor diniy oqimlar nafaqat Navro‘zni, balki boshqa an’analarni ham inkor etishi mumkin”– deydi, islomshunos olimlardan biri.

Navro‘z barcha viloyatlarning shahar-u qishloqlarida, korxonalarida, ilm-fan dargohlarida o‘ziga xos tarzda ko‘tarinki kayfiyat va tashabbus ila o‘tkaziladi. Bayram

kuni turli xil musobaqalar, qariyalar bilan muloqotlar bo‘ladi. Bahor ko‘katlaridan tayyorlangan nozu ne’matlar tortiq etiladi. Barcha viloyatlarning eng iste’dodli va yosh xonandalari xizmatda bo‘ladilar.

Hozir 21-martdan, 3-maygacha barcha kunlarni Navro‘z oyi deb bayram qilinadi. Bu kunlarda turli urf-odatlarni eslab, atrof-muhit tozalanadi, ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari avj oladi, har xil mevali va mevasiz ixota ko‘chatlari o‘tkaziladi, gullar ekiladi, turli ko‘katlarni terib, vitaminli taomlar, bug‘doy undirib, sumalaklar pishiriladi. Qarindosh-urug‘larni yod olib ular holidan xabar olishga boriladi, ota-bobolarni, o‘tgan avlodlarni xotirlab, qabrlarini ziyorat qiladilar. Bemorlarni Navro‘z taomlari bilan yo‘qlab, ko‘ngil ko‘taradilar va shundan keyingi kunlardan dala, ishlariga kirishib ketadilar.Ma’lumot o‘rnida, Navro‘z Shimoliy yarimsharda bahorning boshlanishi sifatida, kecha-kunduz tenglashgan kunda boshlanadi. Ba’zi xalqlar bahor faslining kelishini tabiatning uyg‘onishi bilan bog‘laydilar, shu munosabat bilan bayramlar o‘tkazishadi, uni yangi yilning boshlanishidek bayram qiladilar. Qadim zamonlardan boshlab Ozarbayjon, O‘zbekiston, Eron, Afg‘onıston, Tojikistonda va yana ko‘plab sharqiy o‘lkalarda bahorning – yangi yilning kelishini bayramlar bilan qarshi olishadi. Martning 21-sanasi Eron va Afg‘onistonda rasmiy taqvimning dastlabki kuni hisoblanadi.

2009-yil 30-sentyabda Navro‘z UNESCO tarafidan nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan, 2010-yil 23-fevralda esa BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasıda 21-mart “Xalqaro Navro‘z kuni” deb e’lon qilindi. Hali ham bu bayram davom etmoqda.

Bu yilgi navro‘z bayramini ham ko‘tarinki kayfiyatda nishonlash maqsadida barcha harakatlar yanvar oylaridan boshlangan bo‘lib bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish, to‘g‘risida 2022-yil 17-fevralda PQ-134-sonli qarori qabul qilindi. Qarorda bir qator tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar, ommaviy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy va targ‘ibot-tashviqot tadbirlari amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Xa, Navro‘z ayyomi barchamiz uchun qadrli qadriyatdir. Ko‘rib turganingizdek ushbu ayyoming tarixiga va buguniga bir nazar tashladik. Ammo Navro‘z bayramining tarixiy ildizlari juda-juda chuqur buguni ham faraxbaxsh, ertasi esa umrboqiydir!

Adabiyotlar:

1. Abu Rayhon Beruniy “Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar” [253-256], “Fan” nashriyoti bosmaxonasi tarjimon A.Rasulov , Toshkent 1968, 488 b;
2. Firdavsiy-“Shohnoma”[10-11] O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent-2012, 188 b;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-fevralda PQ-134-sonli qarori;
4. https://meros.uz/object/navroz--bayrami;
5. Google chrome-wikipediya va boshqa internet saytlari.

MILLIYLIK NAFASI UFURGAN NAVRO‘Z

Otamurod QILICHOV,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Kasb ta’limi xalq ijodiyoti 4-bosqich talabasi

Esimizni tanibmizki, bobolarimiz va momolarimiz bilan birgalikda har yili umumxalq milliy bayrami bo‘lmish “Navro‘z” bayramini nishonlab kelamiz. Navro‘z qadimiyligi, keng geografik qamrovi va uni nishonlash vaqtidagi turli davrlari sababli, nomoddiy madaniy merosning xilma-xil hususiyatlarini o‘z ichiga oladi. U „Navro‘zi Jamshid“ini anglatgan Eronning afsonaviy shohi Jamshid va shu kabi afsonalarga asoslangan ko‘pgina madaniy shakl va tasvirlardan tashkil topgan. Barcha Navro‘zlarda mahalliy va an’anaviy raqslar mavjud bo‘lib, ular etnik guruhlar tomonidan ijro etiladi, Ozarbayjon va o‘zbek raqslari kerakli maromda ijro etiladi va madaniy hamda lingvistik ko‘rinish maxsus fol’klor ko‘rinishlariga uyg‘unlashgan. Bular orasida “Xan Bazi“va “Kusex Galin“ Eronda, “Kusa Kusa Xani“ Ozarbayjon va Turkiyada hamda “Bahor Xonim“, “Navro‘z bobo“, “Dehqon bobo“, “Nasriddin“ O‘zbekistonda, “Aspak bozi“ (masxaraboz), “Laklak bozi“ Qirg‘izistonda, uloq, otchopar, ko‘pkari, kurash, qo‘chqorlar, xo‘rozlar jangi va boshqalar. Tajriba, bilim va hunar, shuningdek, uy jihozlarini yangilash, bolalar uchun o‘yinchoqlar yasash, qimmatli tosh va metallardan yasalgan zargarlik buyumlari, ayniqsa yosh kelin-kuyov uchun bezak mahsulotlari bayram nishonlashning turli bosqichlarida qo‘llaniladi. Umuman olganda, bayram

marosimlarida ushbu odatlar umumiy qimmatga va boy madaniy xilma-xillik koʻrinishidagi oʻziga xoslikka ega.

Sanalarni belgilash asosan qadimiy astronomik ta'limot asosida hisoblanadi. Oʻrta asrlarda yilnoma asosan Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshgʻariy va Umar Xayyom kabi mashhur olimlar tomonidan tasdiqlangan va toʻgʻrilangan. Har bir oila va jamiyatda nishonlanadigan koʻpgina marosim, an'ana va madaniy hodisalar mavjud. Bayramning eng muhim vazifalaridan biri bu ommaviy yigʻinlar boʻlib, u yerda madaniy almashinuv va tadbirlar marosimlarga qoʻshib oʻtkaziladi. Suv va olov bilan bogʻliq maxsus ommoviy marosimlar bunga misol boʻla oladi.

Masalan, Eronda aholi "Charshanbeh Suri" yoki "Charshanbeh-e Otash" deb nomlanadigan yilning soʻnggi chorshanba kuni, buloq yoki olov ustidan sakrashadi. Ozarbayjonda ketma-ket keladigan yilning soʻnggi toʻrt chorshanbasi mashhur boʻlib, ular "Charshanbeh Ob (suv)", "Charshanbeh Bod (shamol)", "Charshanbeh Xok (er)" va "Charshanbeh Otash (olov)" deb nomlanadi, bu paytda odamlar olov atrofida yurib, an'anaviy qoʻshiqlar aytadilar va yoxud olov yoki suv atrofida raqsga tushadilar.

Kurd va zardoʻshtlar, Turkiya va Oʻrta Osiè mamlakatlari xalqlari orasida Navroʻz arafasida olov bilan bogʻliq marosimlar mavjud. Masalan, Qirgʻiziston Respublikasida odamlar qarzlarini toʻlaydilar, uylarini yigʻishtiradilar, qoʻshnilari bilan urishib qolgan boʻlsa yarashib, ularni kechiradilar. Toʻkin-sochinlik, hosildorlik va yomgʻir timsoli sifatida barcha idishlarni sut, qatiq, bugʻdoy va bahorgi suv bilan toʻldiradilar. Qariyalar aytishlaricha, bu insonlardan turli xil kasalliklar va omadsizliklarni haydaydi.

Koʻpgina qishloq va qabilalarda yilning soʻnggi chorshanbasi va Navroʻz arafasida uy bekalari va qizlar uylari yaqindagi chashma, buloq yoki quduqdan suv keltirishadi. Bayramning birinchi soatlari oila-oila boʻlib keksalarni, qoʻshnilarni, yordamga muhtoj oilalarni va nogironlarni yoʻqlash bilan boshlanadi. Mehmondorchilik chogʻida odamlar bir- biriga sovgʻalar ulashadi, ayniqsa, yosh bolalar va kelin-kuyovlar- ga sovgʻa ulashish odat boʻlgan. Bayram oʻyin va tomoshalar bilan davom etadi, Eronda mahalliy kurash, poyga, „Bandbozi" (dorda yurish), Afgʻoniston va Oʻrta Osiyo mamlakatlarida chavandoz buzoq boshini eslatadigan buyumni tutishga harakat qiladigan „Buz kashi" oʻyini keng tarqalgan va bu oʻyinlar bir necha kun davom etadi. Qirgʻiziston Respublikasida oʻtkaziladigan oʻyinlar haqida alohida toʻxtalish kerak: Ot Charbish (poyga), Qiz Kumay (otda qiz ortidan quvish), Kok Noru yoki Uloq Tortish (echki tutish), Enish (ot ustida kurash), Kurash (an'anaviy kurash) va Jambu Atuu (otda kumush

bo‘lakka o‘q otish) va o‘smirlar va bolalar uchun o‘tkaziladigan maxsus o‘yin „Ak Cholmok“. O‘tganlar haqiga noz-ne’matlar keltirib, ularning qabrlarida sham qo‘yishadi. Ozarbayjonda Navro‘z nishonlashning ikkinchi kuni erkaklar o‘tganlarning haqiga duo o‘qiydi va bu „Otalar kuni“ deb nomlanadi. Qozog‘istonda bayram arafasida odamlar eshik oldiga ikkita yoqilgan sham olib keladi.

O‘zbek xalqining allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy “Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar“ kitobida Quyosh yili hisobida yilning birinchi oyi deb sanalgan Farvardin oyi to‘g‘risida so‘zlab: "Bu oyning birinchi kuni Navro‘zdir, – deydi. – Navro‘z yilning birinchi kuni bo‘lib, uning forscha nomi ham shu ma’noni anglatarkan. Navro‘z eronliklar “zij”lari bo‘yicha o‘tmish zamonlarda, ular yillarini kabisali qilgan vaqtlarida Quyoshning Saraton burjiga kirish paytiga to‘g‘ri kelar edi. So‘ngra u orqaga surilgach, bahorga keladigan bo‘ldi. Endi u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya’ni bahor yomg‘irining birinchi tomchisi tushishidan, gullar ochilgan, daraxtlar gullashidan mevalari yetilguncha, o‘simlik unib chiqa boshlashdan takomillashguncha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro‘z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan" deya izohlaydi.

Qadim-qadimdan Navro‘z xolis niyatli kishilarning sevimli ayyomi bo‘lib kelgan. O‘sha kunlarda hatto urush-janjallar ham to‘xtalgan, gina-qudratlar kechirib yuborilgan. Shohlar el ichidan eng munosib kishilarni taqdirlashgan, ayrim mahbuslarning gunohidan o‘tishgan.

Bahor va yangi ayyom har bir yurakdan muhim joy olgan quvonchli damlarda ko‘pchilikning “Navro‘z qaerda va qachon paydo bo‘lgan ekan?“ – degan savoliga “Saodat” jurnalida e’lon qilingan “Onaqutining saxovati” maqolasida bunga asosli javob berilgan. Unda jumladan: “Dunyoga ilk alifboni bergan buyuk allomalarning vatani bo‘lgan, dunyoviy fanlarga asos solgan Xorazm yurti qadimda, hatto eramizdan avvalgi minginchi yillarda Xvayrazam deb atalgan. Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik va etnografik izlanishlar Navro‘z bayrami ilk bor xuddi shu zaminda Niso (ya’ni, ayol shahri poytaxti bo‘lmish Parfiyona) grek va Ovrupa faylasuflari asarlarida Parfiyada nishonlanganini ashyoviy topilmalar tasdiqladi. Bunga Burgut qal’a, Jomboq qal’a va Niso qo‘rg‘onlarida bunyod qilingan va shu kunlargacha saqlanib qolgan „olov uy“lari yaqqol misol bo‘la oladi. Burgut qal’a markazida moviy gumbazli maqbara bo‘lgan. Maqbara mehrobida Onaqutining ko‘tarilgan qo‘lida Zumrad tosh bo‘lgan. Bahorgi teng kunlikda-shamsiy hisob bilan hamal oyining birinchi kuni, hozirgi taqvimimiz bo‘yicha 22-martda maqbara

gumbazidagi tuynukdan quyosh nuri Onaquti qo‘lidagi Zumrad toshiga tushib, sumalak pishirish uchun tayyor turgan qozonning o‘txonasiga o‘t yoqqan", deyilgan.

Boshqa afsonalarga qaraganda, Odam Ato Momo Havo bilan uchrashgan kun Navro‘z deb tan olingan emish. Firdavsiyniig “Shohnoma“sida yangi yil bayrami shoh Jamshid nomi bilan bog‘lanadi. Jumladan, Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarga kasb o‘rgatadi, temir eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib kiyim to‘qitadi, imoratlar barpo qiladi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, bog‘ bunyod qiladi. Nihoyat, “ishlari gurkirab berganda meva” bir kuni taxt yasatib, unda osmonga ko‘tariladi. Ushbu afsonaga ko‘ra xuddi shu kuni Navro‘z nishonlangan.

Alisher Navoiy “Tarixi mulki ajam“ asarida Jamshidning buyuk kashfiyotlari so‘ngida ulug‘ Navro‘z ixtiro qilinganligini bayon qiladi. Navoiy yozishicha: "Jamshid “Chihil minor“ nomli odamzod ko‘rmagan va aql bovar qilmaydigan baland bino qurib… “bu imorat tugandi, olam salomin va ashrov va ahbarin yig‘ib, anda azim jashn qildi. Ul vaqtkim, quyosh nuqta e’tiqodli rabiyg‘a taqvil qilib erdi ul binoda taxt ustiga o‘ltirib, adolat sayt va sadosin olamg‘a muntashir qildi va ul kunining otin navro‘z qo‘ydi”.

Bugun mana yana elimizga Navro‘zi olam uz sepini yoymoqda. Ma’lumki, xalqimiz istak-xohishlarini e’tiborga olgan holda Yurtboshimiz tomonidan, 21-martni dam olish kuni deb e’lon qilingan. Navro‘z barcha viloyatlarning shaharu qishloqlarida, korxonalarida, ilm-fan dargohlarida o‘ziga xos tarzda ko‘tarinki kayfiyat va tashabbus ila o‘tkaziladi. Bayram kuni turli xil musobaqalar, qariyalar bilan muloqotlar bo‘ladi. Bahor ko‘katlaridan tayyorlangan nozu ne’matlar tortiq etiladi. Barcha viloyatlarning eng iste’dodli va yosh xonandalari xizmatda bo‘ladilar.

Elimizning murodu maqsadini kuylagan, yurtimizning oromu osoyishini o‘ylagan, butun borliq muruvvat aylagan, bag‘riga benihoya ezgu muhabbat joylagan, yomonliklar yo‘lin boylagan, yaxshilikdan doston so‘ylagan, barchani birday siylagan bayramdir bu.

"Bu bayramni bahori barobar kelguvchi, bir xil yig‘lab, bir xilda kulguvchi, muchal yilini bilguvchi, urfini hurmat qilguvchi talay elu elatlar, mazhablaru millatlar yangi yil deb nishonlaydilar. “To‘qson”ning baxayr o‘tganini, ya’ni “ko‘k”ka og‘izlari etganini aytib, bir-biri bilan omon-omonlashadi".Xavashyaliklarning aytishicha, Sulaymon podshohning uzugi yo‘qolgan kun podshohligi ham qo‘lidan ketgan. Qirq kundan keyin uzugi

topilgach, podshohligi ham, ravnaqi ham qaytib kelgan. Podshohlar uning huzuriga to‘planadilar. Shunda eronliklar “Navro‘z omad”, yangi kun keldi” deganlar. Natijada shu kun Navro‘z deb ataladi.

Hozir 21-martdan to 3-maygacha barcha kunlarni Navro‘z oyi deb bayram qilinadi. Bu kunlarda turli urf-odatlarni eslab, atrof-muhit tozalanadi, ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari avj oladi, har xil mevali va mevasiz ixota kuchatlari utkaziladi, gullar ekiladi, turli ko‘katlarni terib, vitaminli taomlar, bug‘doy undirib, sumalaklar pishiriladi. Qarindosh-urug‘larni yod olib ular holidan xabar olishga boriladi, ota-bobolarni, o‘tgan avlodlarni xotirlab, qabrlarini ziyorat qiladilar. Bemorlarni Navro‘z taomlari bilan yo‘qlab, ko‘ngil ko‘taradilar va shundan keyingi kunlardan dala, ishlariga kirishib ketadilar.Musulmon davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari Miloddan avvalgi III asrdayoq Navro‘z bayramini Yangi yil tariqasida keng nishonlaganlar.

Yangi yil – yilning birinchi kuni bo‘lib, dunyodagi ko‘pgina xalqlarning eng muhim bayramidir. Yangi yilni kutib olish va nishonlash turli davrlarga to‘g‘ri kelgan. Masalan, bizda Navro‘z 21-mart kuni. Ovrupaliklar Yangi yilni 1-anvarda, mo‘g‘ul va xitoyliklar Yangi yil-sagalganni fevralda nishonlar ekanlar.

Navro‘z musulmon xalqlarining taqvimida mustahkam o‘rin olgan eng sara bayramlaridan biridir. U inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni anglatadigan noyob va ijtimoiy hamda tabiiy hodisadir. Lekin ayni paytda biz kutib olayotgan, yangi yilning birinchi kuni 1-yanvar to‘g‘risida bunday fikrni aytish mumkin emas, chunki bu marosim taqvimda turg‘unsiz bo‘lgan sun’iy, ya’ni kishilarning xohish-irodasiga bog‘liq holda belgilangan sanadir.

Qadim-qadimdan xalqimiz Navro‘z arafasidan boshlaboq, rizq-ro‘zimiz manbai ona erga alohida mehr bilan ishlov berib, urug‘ qadagan, mevali va mevasiz daraxtlar o‘tkazish marosimlari tashkil etilgan, xilma-xil tansiq taomlar, pishiriqlar tayyorlangan, turli musobaqalar, o‘yin-kulgular, sayillar va hokazolar bo‘lib o‘tgan. Darhaqiqat, o‘z xalqiga qaytarilgan yangi yil – Navro‘z barchaga olam-olam quvonch keltirib, ma’naviy oziq beradigan taqvimdagi muhrlangan qadimiy an’anamizdir.

“Hozir bayramni milliy ruhga singdirish uchun harakat bo‘layapti. Masalan, avval kuzatilgan shanbaliklar tiklanayapti. Bu ham ehtimol pokizalikni saqlash uchun foydalidir. Lekin 4-5 ming kishiga osh berish bilan ish bitmaydi. To‘qlik zamon bo‘lsa, har bir kishi Navro‘zni o‘z xonadonida bayram qiladi“, – deydi Hayitboy Abdullayev.

Adabiyotshunos olim Naim Karimov nazarida tarix chigʻiriqlaridan qatʼiy nazar Navroʻz ruhi xalqni tark etmagan. “Navroz bayrami tiklangach bildikki, u bilan bogʻliq qancha udumlarimiz bor ekan. Qancha qoʻshiqlar, qancha taomlar bor ekan. Hatto birgalikda joʻr boʻlib, aytiladigan qoʻshiqlarimiz bor ekan. Qabristonga borish, oʻtganlarni xotirlash kabi udumlari bor ekan“, – deydi u.

Navroʻz, ayrim dindorlar nazarida, islomga xos bayram emas. Shariatga toʻgʻri kelmaydi, deydi ular. Bu munozaralar Oʻzbekistonda ochiq muhokama qilinmasada, ijtimoiy tarixdan xabarbor insonlar yuqoridagi talqinni tamonan rad etadi.
“Qadim zamonlarda Navroʻz ehtimol boshqa bir diniy tarixga ega boʻlgandir. Lekin vaqt oʻtishi bilan Navroʻz milliy anʼanaga aylandi. Navroz kuni quyosh bir kundan ikkinchi kunga oʻtadi. Burj tahlil qilinadi. Islom dunyosi bu haqiqatni tan oladi. Shariatda bunga qarshilik yoʻq. Aksincha, hamisha hurmat qilib kelingan.

MUNDARIJA

1-SHU'BA. O'ZBEK LINGVOMADANIYATIDA NAVRO'Z UMUMXALQ BAYRAMINING O'RNI.

Ibrohim Yuldashev. Tabrik so'zi…… 4
Iqbol Mirzo. O, bahor……... 6
Iqbol Mirzo. Navro'zguli …… 7
Ro'ziquljon Pardayev. Fasli bahor Navro'zim…… 8
Ma'rufjon Yuldashev. O'zbek tili va madaniyatida Navro'zning o'rni……..... 9
Almaz ÜLVİ BİNNƏTOVA. OĞUZ YURDU GÖYÇƏ MAHALINDA KEÇİRİLƏN NOVRUZ BAYRAMININ MİLLİ ESTETİK NAXIŞLARI.....15
Zuhra Yo'ldosheva. Tarixi tarixdan qadimroq Navro'z 20
Jamila Yunusova. Shavkat Rahmon she'riyatida qo'llangan onomastik birliklarning o'ziga xosligi.....25
Zilola Shukurova. Kolorativ belgilar obrazli-assotsiativ qatlami tarjimasi xususida.....29
Xilola Abdujabborova. Navro'z bayrami falsafasi.....35
Sadoqat Xolmonova. "Yangi" so'zi asosida paydo bo'lgan retronimlar. 38
Xonigul Bektimirova. O'zbek lingvomadaniyatida Navro'z umumxalq bayramining o'rni.....45
Sirojiddin Shomurodov. Qadim madaniyatning izlari: Jeynov arablarining tili va madaniyati..... 49

2-SHU'BA. O'ZBEK ADABIYOTI, MADANIYATI VA AMALIY SAN'ATIDA NAVRO'Z.

Oqilxon Ibrohimov. Navro'z bayrami taronalri.....56
Karomat Mullaxo'jayeva. Mumtoz she'riyatda bahor vasfi.....62
Soyibnazar Davlatov. Bobomeros Navro'zim 67
Dilnoza Jumayeva, O'tkur Islamov. Navro'z tarixi 70
Normurod Avazov. Muhammad Yusuf ijodida "sumalak" obrazining qo'llanilishi 75
Muqaddas Axmetjanova. Milliy o'zlikni anglash va o'zbek teatrlarida milliy qahramon tasviri 79
Sevara Mahmudova. Navro'z bayrami tarixi va an'analariga doir 85
Latifa Xudoyqulova. Qalbimizga jo bo'lgan odatlar 90

Zulxumor Narkuziyeva. Sumalak ilohiy taommi...?.....95
Zumriniso Kozimova. Bu damki esib nasimi Navro‘z 99
To‘lg‘anoy Mamatqulova. Ogahiyning “Navro‘z” radifli g‘azalida she’riy san’atlarning qo‘llanilishi va o‘rni 104
Nilufar Ro‘ziyeva. O‘lkamda fasli bahor 107
Zilola Ergasheva. A holiday of kindness 113
Asliddin Utayev. Bahorning sehrli ayyomi 116
Shahnoza Izbosarova, Madina Taspenova. O‘zbek milliy madaniyati va san’at tarixida Navro‘z umumxalq bayramining o‘rni 122
Kamoliddin Umarov. Navro‘z umumxalq bayrami mehr-shavqat va saxovat bayrami sifatida 127
Donoxon Usmonova, Jamoliddin Nurmuhammadov. “Qadriyatlar – Navro‘zdan boshlanar” mashg‘ulotini tashkil etish 130
Dilorom Oripova, Zilola Iskandarova. San’at sahnasida Navro‘z solnomasi 140
Мукаддас Каримова. Историческое развитие фольклорно-этногрфических представлений …….. 147
Mohinur Xaydarova. Baxshichilik san’ati va uning o‘ziga xos xususiyatlari 153
Dilorom Oripova, Zilola Iskandarova. Bayramlar yurti O‘zbekiston .....…158
Ruqiya Abdullayeva. Navro‘z – Sharq xalqlarining milliy bayrami 166
Maftuna Alimbayeva. Buxoro – Samarqand yo‘nalishidagi Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan folklor qo‘shiqlarini dutor cholg‘usida ijro etish va ommalashtirish 171
Shaxzoda Tursunova. Muhammad Yusuf ijodida xalqona obrazlar tasnifi 176
Mo‘mina Ergasheva. O‘zbek adabiyoti va madaniyati, amaliy san’atida Navro‘z 180
Durdona Usmonova. G‘arb va Sharq xalqlari tarixida Navro‘z bayramining o‘rni 183
Xakimova Maqsuda. Tabiat va koinot bilan bog‘liq urf-odat, marosimlar xalqimizning boy nomoddiy madaniy merosidir 186
Durdona Malikova. Yomg‘ir chaqirish marosimi – “Sust xotin”ning o‘zbeklardagi to‘rt ko‘rinishi 191
Umida Odambayeva. O‘zbek xalqi hayotida Navro‘z bayramining o‘rni 195
D. A. Shomuradova. Navruz around the world 200

O‘g‘iloy Mirvaliyeva. O‘zbek adabiyoti, madaniyati va amaliy san’atida Navro‘z…… 204
3-SHU’BA. “YANGI O‘ZBEKISTON” VA “UCHINCHI RENESSANS” G‘OYASINING HAYOTGA TATBIQIDA MILLIY URF-ODATLARIMIZNING O‘RNI.
Said Alimov. Navro‘z – olamning poklanish bayrami 208
Xamdam Ismoilov. Navro‘z bayrami – azaliy bayram 211
Qunduzxon Nishonboyeva. Navro‘z tarixi va uning tarbiyaviy ahamiyati 215
Gulchehraxon Eshanova. Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda milliy qadriyatlarning ahamiyati 219
Aliboy Qaxramonov. Navro‘z udumlari va urf-odatlari 222
Zebiniso Rasulova, Munis Jo‘rayeva. Navro‘z – ezgulikka yo‘g‘rilgan qadriyat 228
Jahongir Mamatqosimov. Mustaqillik davri Navro‘z tomoshalari rejissurasida teatrlashtirish janri 232
Bibiaysha Qudaybergenova. Qoraqalpoq xalqi madaniyatining etnografik xususiyatlari 236
Umida Kurbanova. O‘zbek folklor ijrochiligi, an’ana va milliy qadriyatlar – ma’naviyat ko‘zgusi 250
Xumora Usmanova. Hayotga muhabbat, yasharish ramzi – Navro‘z 244
Kursiya Esonova. Navro‘z umumxalq bayrami……..240
Kamola Tashmatova. “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyotida o‘zbek xalqi milliy an’analarining ahamiyati 256
Tamara Xaitboyeva. “Boychechak” ka qaytib 261
Umidbek Adambayev, Isroil Qarshiboyev. Navro‘z bayramining axloqiy jihatlari 266
Umidjon Adambayev, Navro‘z Xusanov. “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi renessans” g‘oyasining hayotga tadbiqida milliy urf-odatlarimizning o‘rni …..270
Sh. M. Yunusova, Navruz Temirov. Навруз в тексте современной узбекской рекламы.....273
Asatilla Sunnatillayev. O‘zbek xalq mavsumiy marosimlari va Navro‘z ……..278
Ozoda Tuymayeva. Milliy qadriyatlar bayrami – Navro‘z ……283
Munira Mirboqiyeva. O‘zbek xalqining turmush tarzida diniy marosimlarning ahamiyati…….287
Ravshanxon Ibrohimov. Navro‘z xalq bayrami an’analari ……290
Nigora G‘oyibnazarova. Navro‘z tantanasi Bahodir Yo‘ldoshev rejissurasida ……294

Ajar Normenova. Navro‘z ila uchinchi uyg‘onish sari ……..297
Aziza Azimova. Qadim Navro‘z tarixi ……..300
Abdulla Axmatov. Navro‘zning nishonlanish tarixi ……..306
Bunyod Shukurov. Navro‘z bayrami tarixi ……310
Gavhar Ravshanova. Qadim boqiy an’analar: sumalak va folklor …….315
Madina Xolmurodova. Xalqimiz milliyligi – Navro‘z bayrami …….318
Dilobar Mehmonova. Navro‘z – milliy bayram …….321
Maknuna Meyliyeva. Navro‘z udumlari, an’analari, sayillari – xalq ma’naviyati manbai ……325
Kamola Abidova. Navro‘z – kecha va bugun ……328
Otamurod Qilichov. Milliylik nafasi ufurgan Navro‘z ……..334